

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

D.Y. XUJAMKULOV

ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2019

**UO`K
KBK**

Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 408 b.

Darslik “Erkin iqtisodiy hududlar” fani bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari talablariga mos keladi va mazkur o‘quv kursining barcha bo‘limlarini qamrab oladi. Darslikda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirishning nazariy-uslubiy, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy asoslari, jahon tajribalari va O‘zbekiston amaliyoti yoritilgan. Xususan, erkin iqtisodiy hududlarning mazmuni, maqsadi, me‘yoriy-huquqiy asoslari, tasnifiy jihatlari, erkin iqtisodiy hududlarda investitsiya muhiti va logistika infratuzilmasi, bojxona rasmiylashtiruv, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribalari, offshor hududlar hamda O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish xususiyatlari ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Darslik 5231100 – “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” (mintaqalar va faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari, iqtisodiy oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, moliya, innovatsiya, biznesni boshqarish sohasida ixtisoslashgan ilmiy va amaliyot xodimlari uchun mo‘ljallangan.

Учебник соответствует требованиям Государственного образовательного стандарта по дисциплине “Свободные экономические зоны” и охватывает все разделы данного учебного курса. В учебнике освещены теоретическо-методические, организационно-правовые и финансово-экономические основы организации и развития свободно-экономических зон. В том числе рассмотрены и проанализированы сущность, цель, нормативно-правовые основы, классификационные аспекты свободно-экономических зон, инвестиционный климат и инфраструктура логистики, таможенное оформление в свободно-экономических зонах, опыт развитых и развивающихся стран по деятельности свободно-экономических зон, оффшорные зоны и особенности развития свободно-экономических зон в Узбекистане.

Учебник предназначен для студентов бакалавриата 5231100 – “Мировая экономика и международные экономические отношения” (по регионам и видам деятельности), преподавателей экономических вузов, научных и практических работников, специализирующихся в области международных экономических отношений финансов, инноваций, управлением бизнесом.

The Textbook bes up to quality State educational standard on discipline “Free economic zones” and covers all sections given scholastic course. in textbook are considered theoretical-methodical, organizational-legal and financial-economic bases to organizations and developments of the free economic zones. including are considered and analysed essence, purpose, standard -legal bases, categorizational aspects of the free economic zones, investment climate and infrastructure of the logistics, customs registration in free economic zones, experience developed and developping countries by activity of the free economic zones, offshor zones and particularities of the development of the free economic zones in Uzbekistan.

Textbook is intended for student бакалавриата 5231100 – “World economy and international economic relations” (by regions and types of the activity), teachers economic high school, scientific and practical workman, specializational in the field of international economic relations finance, innavation, business management.

Taqrizchilar: **B.A.Islamov**, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialining “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası professori, i.f.d.;

N.S.Ismailova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Jahon iqtisodiyoti” kafedrası mudiri, i.f.n., dots.;

B.S.Mamatov, Toshkent moliya instituti “Pensiya ishi” kafedrası mudiri, i.f.n., dots.

ISBN00000000

**UO`K000000
KBK000000**

© «IQTISODIYOT», 2019.
© Xujamkulov D.Y., 2019.

“Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim”.

Sh.M.Mirziyoyev

KIRISH

Jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mazkur vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy hududlar yetakchi o‘ringa ega.

Shu boisdan dunyoning aksariyat davlatlari, xususan, Xitoy, AQSh, Fransiya, Janubiy Koreya, Meksika, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlar misolida hududning geografik va boshqa qulayliklaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish zaruriyat va an‘anaga aylangan. Birgina o‘tgan asr 90 yillarining o‘rtalarida dunyoda 1200 ga yaqin erkin iqtisodiy hududlarning har xil turlari, jumladan, eksportga mo‘ljallangan 300 dan ortiq ishlab chiqarish hamda 400 ga yaqin erkin ilmiy-texnikaviy hududlar faoliyat ko‘rsatgan. Chunki, bunday hududlarni tashkil etishdan asosiy maqsad mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya hamda boshqaruv tajribasini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida, zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishdan iboratdir.

Erkin iqtisodiy hududlar hozirga kelib to‘xtovsiz rivojlanmoqda. Rivojlanish oddiydan murakkabga, arzon va tez sotiladigan variantdan ko‘p tarmoqli va kapital talab qiluvchiga o‘tib bormoqda. Zamonaviy jahon tajribasida 30 ga yaqin erkin iqtisodiy hududlarning turlari mavjud bo‘lib, ulardan ko‘p ulushga ega bo‘lganlar bu bojxona hududlari, to‘lovlar olib tashlangan hududlar, bojxona erkin hududlari, erkin eksport hududlari, erkin eksportga mo‘ljallangan ishlab chiqarish hududlari, erkin ishlab chiqarish hududlari, iqtisodiy barqarorlik hududlari, o‘zaro tadbirkorlik hududlari, texnika-iqtisodiy rivojlantirish hududlari, fan-sanoat parklari va boshqalar iqtisodiyotda muhim ahamiyat ega kasb etib kelmoqda.

O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni yuqori darajada rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyati 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish, ularning faoliyatini kengaytirish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Zero, erkin iqtisodiy hududlar milliy iqtisodiyotni alohida mintaqalar darajasida rivojlantirish bilan birga, ularning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini va xalqaro raqobatbardoshligini ta‘minlashda hamda boshqa bir qator dolzarb masalalarning ijobiy hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun mamlakatda mazkur sohaga oid zamonaviy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash talab etiladiki, mazkur darslik aynan ushbu vazifani bajarishga qaratilgan adabiyot sifatida xizmat qiladi.

Mazkur darslik o'n ikki bobdan iborat bo'lib, u, o'z navbatida, zarur ko'rgazmali rasmlar, jadvallar, zaruriy axborotlar va huquqiy-me'yoriy hujjatlar tahlili bilan to'ldirilgan.

Birinchi bobda erkin iqtisodiy hududlarning mazmuni, rivojlanish tarixi va bosqichlari, maqsadlari hamda jahon xo'jaligi aloqalaridagi o'rnini yoritib berilgan.

Ikkinchi bobda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishining huquqiy asoslari va ularni shakllantirishning xorijiy va milliy tajribalari keng yoritilgan.

Uchinchi bobda erkin iqtisodiy hududlarning tasnifi, turlari, xususiyatlari asoslab berilgan.

To'rtinchi bobda investitsiya muhitining mazmuni, iqtisodiy faollikni va erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishdagi ta'minlashdagi ahamiyati hamda undagi imtiyozlar va ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan va yoritib berilgan.

Beshinchi bobda erkin iqtisodiy hududlarda logistika infratuzilmasining ahamiyatini, uni shakllantirishning va logistik xizmatlarni samarali yo'lga qo'yishning zarurligi va bu boradagi O'zbekistondagi amalga oshirilayotgan islohotlar izohlab berilgan.

Oltinchi bobda erkin iqtisodiy hududda bojxona ishi va uni tashkil etishning zarurligi, asoslari, tartibi va jarayonlari masalalar o'rin olgan.

Yettinchi bobda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning jahon tajribalari, jumladan, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribalari misolida batafsil yoritilgan.

Sakkizinchi bobda AQShda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlari va ularning tasnifi, xususiyatlari va ularning investitsiyalarni jalb etishdagi tutgan o'rnini to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Tuqqizinchi bobda Xitoy Xalq Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish maqsadlari, ahamiyati va xususiyatlari. Xitoyda erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi va rivojlanishi bosqichlari kabi masalalar atroflicha yoritilgan.

O'ninchi bobda Rossiya Federatsiyasida erkin iqtisodiy hududlar tashkil etilishi va rivojlanishi tarixi, turlari, maqsadlari va rivojlanish xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

O'n birinchi bobda offshor hududlarning mazmuni, yuzaga kelib sabablari, turlari, ahamiyati, jahon xo'jaligida tutgan o'rnini, undagi imtiyozlar va offshor kompaniyalar faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

O'n ikkinchi bobda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar va ularning rivojlanish xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

Ushbu darslikda yoritilgan barcha masalalar erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini tashkil etish, boshqarish va unda investitsiyaarni jalb etish hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borishda muhim asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1-bob. ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING MAZMUNI, MAQSADLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

1.1. “Erkin iqtisodiy hududlar” fanining predmeti va vazifalari

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hudud (EIH)larning tashkil etilishi ko‘payib, rivojlanishi tobora kengayib bormoqda. Bu esa dunyo mamlakatlari orasida EIHLarni tashkil etish ko‘lami va turlarining yildan-yilga ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

EIHLarning tashkil etilishi va rivojlanishiga bir qator omillar ta‘sir ko‘rsatsa-da, ular ichida tashkil etilgan EIHLar faoliyati samaradorligining jahon iqtisodiyoti va alohida davlat iqtisodiyoti o‘shish darajasidan ham bir necha barobarga yuqori ekanligini alohida keltirib o‘tish lozim. Jumladan, “EIHLarda foyda me‘yori o‘rtacha 25-30 %ni, Osiyodagi EIHLarda 35-40 %dan yuqorini tashkil etadi. Mazkur hududlarda kapital qo‘yilmalarning qoplanish muddati 2-3 martaga qisqa hisoblanadi. Odatda, kiritilgan mablag‘lar 3-3,5 yilda qoplansa, bunday qo‘yilma me‘yordagi hisoblanadi. Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHLar orqali ular iqtisodiyotiga jami xorijiy investitsiyalarning 30 %dan 80 %gacha qismi kirib keladi”¹.

Shu jihatdan O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotni, uning tarmoqlari va hududlari orqali rivojlantirishd EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada oxirgi vaqtlarda amalga oshirilayotgan islohotlar endilikda o‘z samarasini berayotganligi bilan g‘oyatda ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur islohotlar ijrosi va samaradorligini yanada oshirishda ushbu sohada samarali faoliyat ko‘rsata oluvchi mutaxassislarining mavjudligi va yetarliligini ta‘minlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Xususan, EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishda investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati yuqoriligidan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotning EIHLar faoliyati va ularga jalb etiluvchi xorijiy investitsiyalar orqali jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyasini faollashtirishga xizmat qiluvchi malakali, zamonaviy bilimga ega, raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj bugungi kunda tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda va ortib bormoqda.

Shunga muvofiq, bugungi kunda respublikamizda mazkur sohaga oid zamonaviy bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, milliy va jahon iqtisodiyoti integratsiyasini jadallashtirishda muhim o‘rin tutuvchi zamonaviy kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlanmoqda. Ularga esa mutaxassislik fani sifatida “Erkin iqtisodiy hududlar” fanining o‘tilishi yuqorida qayd etib o‘tilgan dolzarb vazifa yechimida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

“Erkin iqtisodiy hududlar” fanining predmetini EIHLarni tashkil etish, ular faoliyatini amalga oshirish, rivojlantirish, tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash bilan

¹ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны: Учеб. пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – С. 17.

bog‘liq huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi tashkil qiladi. “Erkin iqtisodiy hududlar” fanining obyekti milliy va jahon iqtisodiyotida tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan EIHLar hisoblanadi.

Fanni o‘rganish uning obyekti va predmeti asosida o‘rganiladi. Shunga ko‘ra, “Erkin iqtisodiy hududlar” fani bo‘yicha yaxshi bilimga ega bo‘lish uchun uning obyekti va predmetini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Erkin iqtisodiy hududlar” fani o‘qitishdan **maqsad** EIHLarni tashkil etish va ular faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishning milliy va jahon iqtisodiyotini rivojlantirishdagi hamda milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuvini faollashtirishdagi ahamiyatini oshirishdan iborat.

Kengroq ma‘noda esa, “Erkin iqtisodiy hududlar” fanining maqsadi talabalarda EIHLarning mazmuni, maqsadi, ahamiyati, rivojlanish tarixi, bugungi holati va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish, EIHLarning jahon xo‘jaligi aloqalaridagi o‘rnini baholashda tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, EIHLarni tashkil etish orqali O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishni baholash bilimlarini rivojlantirishdan iborat bo‘ladi.

Fanning maqsadiga erishishni ta‘minlash uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

- fanning mohiyati, mazmuni va ahamiyatini o‘rganish;
- EIHLarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni ahamiyatini o‘rganish;
- EIHLarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab tasniflash va turlarini o‘rganish;
- EIHLarning rivojlanish tarixini o‘rganish;
- EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishdagi sabab, omil va muammolarni o‘rganish;
- jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga EIHLar ta‘sirini o‘rganish;
- EIHLarning tashkil etilishi va rivojlanishining jahon tajribalarini o‘rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish asosida milliy iqtisodiyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan tajriba va yutuqlarini aniqlashni o‘rganish;
- O‘zbekistonda EIHLar tashkil etilishi va rivojlanishi amaliyotini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha tavsiyalar bildirishni o‘rganish;
- fanda o‘rganiladigan muammolar yuzasidan bahs-munozaralarni olib borish, shuningdek, ziddiyatli vaziyatlardan chiqish yechimini topish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- talabalar o‘z fikrlarini yozma shaklda aniq va mazmunli bayon qilishga o‘rganishlari uchun ularda esse yozish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- iqtisodiy samaradorlikni hisoblash malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- jamoaviy ishlash malakalarini shakllantirish va rivojlantirish;
- malakaviy amaliyotlarga chiqish orqali EIHLar faoliyati bilan bog‘liq masalalar yechimi, EIHLarni rivojlantirish va ularga investitsiyalarni jalb etishni yanada faollashtirish bilan bog‘liq amaliy ko‘nikma va tajribalarni shakllantirish.

“Erkin iqtisodiy hududlar” fani 5231100 – “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” (mintaqalar va faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim

yoʻnalishi talabalariga ikkinchi kursda oʻqitiladi.

“Erkin iqtisodiy hududlar” fanini oʻrganishda uning boshqa fanlarga bogʻliqlik jihatlariga ham eʼtiborni qaratish zarur. Zero, har bir fan boshqa fanlar bilan uzviy bogʻliqlikda shakllanadi va rivojlanadi. Shu sababdan mazkur fanni oʻrganishda boshqa fanlarni ham yaxshi oʻzlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu taʼlim yoʻnalishining oʻquv rejasiga koʻra, “Erkin iqtisodiy hududlar” fani quyidagi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bogʻliqlikda oʻqitiladi: “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti”, “Xorijiy investitsiyalar”, “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari”, “Iqtisodchilar uchun matematika”, “Iqtisodiy nazariya”, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” va boshqalar. Talabalar “Erkin iqtisodiy hududlar” fanini oʻzlashtirish barobarida ushbu fanlarni ham puxta oʻzlashtirishlari kerak boʻladi. Chunki, ular ushbu “Erkin iqtisodiy hududlar” fanini muvaffaqiyatli oʻzlashtirish uchun koʻmaklashadigan bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.

“Erkin iqtisodiy hududlar” fani juda qiziqarli fan boʻlib, bugungi kunda koʻpchilikni qiziqtirayotgan EIHlar bilan bogʻliq boʻlgan koʻplab savollarga yechim topishga imkon beradi. Talaba ushbu fanni puxta oʻzlashtirishi uchun oʻz ustida koʻproq ishlashi kerak boʻlib, u, nafaqat, oʻzbek tili, balki, rus tili va chet tillari, ayniqsa, ingliz tilidagi manbalardan ham keng miqyosda foydalana bilishi lozim. Shuni alohida taʼkidlash joizki, ushbu fanni puxta oʻzlashtirish talabalarga 5231100 – “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” (mintaqalar va faoloyat turlari boʻyicha) bakalavriat taʼlim yoʻnalishi boʻyicha juda zarur bilimlarga ega boʻlish va kelajakda oʻz kasbining yetuk va malakali mutaxassisi boʻlib etishish, shuningdek, egallagan bilimi, koʻnima, malaka va tajribalari bilan Oʻzbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ishtirokini oshirish va xalqaro hamjamiyatlardagi nufuzini mustahkamlashga oʻzining munosib hissasini qoʻshish imkonini beradi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, iqtisodiyot, fan, investitsiya, integratsiya, iqtisodiy rivojlanish.

Mazkur paragraf boʻyicha umumiy xulosalar:

1. Erkin iqtisodiy hududlar iqtisodiy oʻsish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, investitsiyalarni eng qisqa muddatlarda qoplash imkonini va boshqa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va global muammolarni hal qilish imkonini beruvchi hududlar hisoblanadi.

2. EIHlarni tashkil etish va rivojlantirishni taʼminlash unga oid boʻlgan munosabatlarni alohida fan sifatida oʻrganish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu sababdan bugungi kunda respublikamizda 5231100 – “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” (mintaqalar va faoloyat turlari boʻyicha) bakalavriat taʼlim yoʻnalishi talabalariga uchun “Erkin iqtisodiy hududlar” fani mutaxassislik fani sifatida oʻtilmoqda.

3. “Erkin iqtisodiy hududlar” fani boshqa bir qator iqtisodiy fanlar bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish 5231100 – “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” (mintaqalar va faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalarining o‘z mutaxassisligining yetuk, malakali kadri sifatida yetishib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlarni tashkil etish va rivojlantirishdan maqsad nima?
2. EIHlar faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq qanday munosabatlar yuzaga keladi?
3. EIHlarni tashkil etish va rivojlantirish bilan bog‘liq bilim va munosabatlarni chuqur egallagan mutaxassislarga bo‘lgan talabning bugungi kundagi zaruriyati nimada?
4. “Erkin iqtisodiy hududlar” fanini o‘qish, o‘rganishdan maqsad nima?
5. “Erkin iqtisodiy hududlar” fanining predmeti, obyekt va vazifalari nimalardan iborat?
6. “Erkin iqtisodiy hududlar” fani qanday fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikka ega hisoblanadi va uning sabablari nimalardan iborat?

1.2. “Erkin iqtisodiy hudud” tushunchasi mazmuni

XX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab **erkin iqtisodiy hudud (EIH)** xalqaro iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Jahon xo‘jaligi aloqalarida erkin iqtisodiy hudud xalqaro tovaralmashinuvining faollashuvi, investitsiyalar mobilizatsiyasi, ish bilan bandlik darajasini o‘sishi hisobiga iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichini tezlashtiruvchi omil sifatida qaralmoqda.

Shu sababdan bugungi kunga kelib dunyo miqyosida EIHlarni tashkil etish va rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor, munosabat tobora ortib bormoqda.

Jumladan, ayni vaqtga kelib O‘zbekiston Respublikasida ham mavjud 14 ta hududning 12 tasida 21 ta EIHlar tashkil etilishiga asos solingan bo‘lib, ularning huquqiy asoslari ishlab chiqilgan.

Jahon amaliyoti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, EIHlar milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan birgalikda, ishlab chiqarishga yangi, energiyatejamkor, zamonaviy yuqori texnologiyalarni olib kirish, ilg‘or xorijiy menejment va marketing tajribalaridan foydalanish, yangi ishlab chiqarishlar evaziga ichki bozorni import o‘rnini bosuvchi tovarlar bilan to‘ldirish, mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish, tashqi savdoni rivojlantirish, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish, valyuta tushumlari kirib kelishini ko‘paytirish, oltin-valyuta zahirasi hajmini oshirish, iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, milliy valyuta barqarorligini mustahkamlash, Davlat budjeti daromadlarini oshirish va pirovardida, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va xalqaro raqobatbardoshligining yanada kuchayishiga keng yo‘l ochib beriladi hamda unga xizmat qiladi.

Dunyo miqyosida turli davlatlarda tashkil etilgan va etilayotgan EIHlar sonining ortib borishi va EIHlarga ega davlatlar sonining ham ortib borishi (bugungi kunga

kelib, ularning soni 140 dan oshdi) ushbu EIHlarning o'zi nima, uning ahamiyati, muhimligi va samaralari, afzalliklari haqida yetarlicha tushuncha, tasavvur va bilimga ega bo'lish zaruriyatini kuchaytirib bormoqda.

Shu sababdan ushbu masalaga jiddiy yondashish uni alohida fan sifatida o'rganish darajasiga ham olib chiqdi. Bu esa mazkur "Erkin iqtisodiy hududlar" fanini o'zlashtirishda, eng avvalo, EIHlarning mazmun-mohiyatini yaxshi o'rganish, bilish va u haqda yetarlicha tushunchaga ega bo'lishni taqozo etadi.

Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini jahon fanida chuqur va har tomonlama o'rganish XX asrning 70 yillarida boshlandi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida, mamuriy hujjatlarda, amaliyotda, erkin iqtisodiy hududlarni bildiruvchi xilma-xil atamalar qo'llashadi: "Erkin iqtisodiy hudud", "Texnologik hudud", "Erkin bojxona hududi", "Maxsus iqtisodiy hudud", "Erkin tadbirkorlik hududi", "Erkin eksport hududi", "Erkin savdo hududi", "Bojsiz hudud", "Qo'shma tadbirkorlik hududi". XX asrning 80 yillarida erkin iqtisodiy hududlarning 20 ta², o'tgan asrning 90 yillarida 30 ta³ shakli bor deb hisoblaganlar. Ba'zi hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda EIHlarni tavsiflovchi 40 dan ortiq atamalar borligi ham keltirib o'tilgan.

Bugungi kunga qadar EIHlar mazmun-mohiyatini yoritish, EIHlarni tashkil etish va rivojlantirishga doir xorijiy va mahalliy iqtisodchi-olimlar, mutaxassislar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan va shuning natijasida ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiya ishlari, risolalar, o'quv adabiyotlar hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilgan.

Biroq, olib borilgan o'rganishlar EIHlar tushunchasiga xorijiy va mahalliy iqtisodchi-olimlar, mutaxassislar tomonidan berilgan turli ta'rif va talqinlar mazkur atamaning yagona ta'rifga ega emasligini, uning mazmuniga har bir mutaxassis o'z nuqtai nazarini, bilim va faoliyat olib borish sohasiga asoslanib ta'rif berishganligini ko'rsatadi.

Erkin iqtisodiy hududni hududiy xo'jalik jihatidan ham qadimiy, ham zamonaviy deb atash mumkin. Ularning ildizi qadim o'tmishga borib taqaladi, va mana shu vaqtning o'zida o'z amaliy faoliyatini zamonaviy rivojlanishda boyitadi. Amerikalik olimlar M.Fraze va R.Renalar fikricha, "erkin iqtisodiy hudud – bu iqtisodiy rivojlanish yo'lidagi insoniyatning eng qadimgi va va shu bilan birga eng zamonaviy g'oyalaridan biridir"⁴.

Rus olimi I.P.Fominskiy rahbarligi ostida chiqqan o'quv qo'llanmada⁵ erkin iqtisodiy hududlarga ushbu mamlakatda qabul qilingan umumiy xo'jalik faoliyati tartibiga nisbatan imtiyozlar beruvchi ma'lum bir hudud deb ta'riflanadi.

Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida erkin iqtisodiy hududlar kategoriyasini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Bu munozara, asosan, ikki muammoni tahlil qilishga borib taqaladi:

- umumlashtiruvchi tushuncha sifatida termin tanlash;

² Смородинская Н. Свободно-экономические зоны (Мировые опыты). Вест. ДВО РАН, 1993., №4,5. – С. 3-22.

³ Данкко Т., Окрут З. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Российская экономическая академия им. Г. В. Плеханова. – М.: Инфра-М., 1998. – С. 168.

⁴ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч. пос. - М.: Юнити, 2005. – С. 5.

⁵ Фоминский И.П. Иностранные инвестиции в России: современное состояние и перспективы. – М.: Международное отношение, 1995. – С. 234.

- xodisani kengroq, to'laroq ochib berish maqsadida uning aniq izohini topish. EIHlarni ta'riflovchi qarashlarning xilma-xilligi quyidagilar bilan bog'liq:
- ular asrlar davomida evolyusion tarzda rivojlanib, o'zgarib, takomillashib boradi;
- bu rivojlanish turli mamlakatlarda va davrlarda mavjud bo'lgan turli tuman iqtisodiy muhitda sodir bo'lgan va bo'lmoqda;
- ularning rivoji ichki va tashqi omillarga (geografik holat, ish kuchining o'ziga xosligi, jahon iqtisodiyoti konyukturasi va hokazo) juda kuchli ravishda bog'liqdir;
- ilmiy-nazariy tushunib etishda, terminlashda va turkumlash yondashuvida darajaning yetarli emasligidir.

Rossiyalik olimlardan biri D.Adrianov EIHlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Erkin iqtisodiy hududlar milliy hududning bir qismi bo'lib, iqtisodiy muammolar yechimini topishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Xorijiy hamda milliy tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyatida muhim qulayliklarni yaratadi"⁶. E.F.Avdokushin esa "Erkin iqtisodiy hudud mamlakat yoki davlatning bir qismi bo'lib, aniq bir ijtimoiy-iqtisodiy va texnologiyalarga oid muammolarni yechimini hal qilishga yo'naltirilib, iqtisodiy faoliyat yurituvchilar uchun maxsus shart-sharoitlar yaratib beradigan boshqaruvning maxsus ma'muriy tizimiga egadir"⁷, deb ta'kidlab o'tgan edi.

Rossiyalik iqtisodchilardan A.Kuznetsov⁸ hamda S.A.Ribakov va N.A.Orlovalar⁹ning keltirishicha, "Erkin iqtisodiy hudud – xorijiy tovarlar hech qanday bojxona to'lovlarisiz saqlanishi, sotilishi yoki xarid qilinishi mumkin bo'lgan hudud".

O'zbekistonlik Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G.¹⁰ va rossiyalik Danko T.P., Okrut Z.M.¹¹, Igoshin N.V.¹² kabi mualliflar bir ovozdan: "Erkin iqtisodiy hudud – bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hudud", - degan xulosaga kelishgan.

Yuqorida EIHlar mazmuniga berilgan ta'riflardan quyidagi jihatlarni keltirib o'tish mumkin:

⁶ Адрианов В.Д. Специальные экономические зоны. Журнал "ЭКО", 1997. , №3. – С. 42.

⁷ Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебное пособие. – М.:, 2004. – С. 120.

⁸ Кузнецов А. Свободные зоны и национальная экономика // Мировая экономика и международные отношения. - 1990., №12. – С. 24.

⁹ Рыбаков С.А., Орлова Н.А. Особые экономические зоны в России. – М.: Вершина, 2006. – С. 12.

¹⁰ Вахабов А.В., Хайибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – Т.: Moliya, 2010. – В. 180.

¹¹ Данько Т.П., Окрут З.М. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. – М.: ИНФРА-М, 1998. – С. 27.

¹² Игошин Н.В. Инвестиции. Организация, управление и финансирование. Учебник для вузов. – М.: Финансы, ЮНИТИ, 2000. – С. 45.

EIHlar tushunchasi mazmuniga brilgan ta'riflar¹³

A.Kuznetsov	An'anaviy ma'noda EIHlar deganda, davlatning suveren hududi tushunilib, u yerdagi xorijiy tovarlar hech qanday bojxona to'lovlarisiz saqlanshii, sotilishi yoki harid qilinishi mumkin.	Erkin savdo hududlariga urg'u berilgan
S.A.Ribakov N.A.Orlova	EIHlar – bu ma'lum bir davlat hududining shunday qismiki, unga olib kirilgan tovarlar bojxona hududidan tashqaridagi tovar sifatida qaralib, u bojxona tekshiruvidan va soliqlaridan ozod etiladi.	
A.V.Vaxabov	EIZ – mamlakat hududining imtiyozli bojxona, valyuta, soliq, viza va mehnat rejimlari joriy etilgan maxsus ajratilgan qismidir.	Imtiyozlarga urg'u berilgan
N.V.Igoshin	EIZlar milliy iqtisodiy tizimning shunday qismiki, u erda mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan maxsus imtiyoz va rag'batlantirishlardan foydalaniladi, ularning mohiyati esa, imtiyozli bojxona va soliq tizimlarida ko'zga tashlanadi.	
T.P. Danko va Z.M.Okrut	EIZ iqtisodiyotning davlat tomonidan sun'iy tarzda tashkil etilgan va milliy iqtisodiyot tarkibida bo'lgan, ayni paytda iqtisodiy jihatdan tubdan farq qiladigan alohida organizmidir.	Huquqiy jihatiga urg'u berilgan

Janubiy Koreyalik olim Kimning izlanishlariga ko'ra, "Erkin iqtisodiy zonalar – bu xorijiy davlatlar, korxonalar va firmalar uchun maxsus tashkil etilgan hududlar bo'lib, bu yerda ularning korxonalari va ishchi xodimlari hukumat tomonidan berilgan imtiyozlar tufayli o'z navbatida mavjud qonun-qoidalarga bo'ysungan holda daromad olishi mumkin bo'lgan zonalardir. Davlat erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdan maqsad bunday zonalarda boshqa erlarga qaraganda ko'proq iqtisodiy shaffof muhit mavjudligi va bu orqali investitsiya oqimini va raqobatbardosh sanoat hamda savdo-sotiq xususiyatlarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi"¹⁴.

V.Papovning tadqiqotlariga ko'ra, "Erkin iqtisodiy zonalar shunday hududlarki, bu boshqa hududlardan alohida ajratilgan davlat tomonidan maxsus imtiyozlar va qulayliklar berilgan bu afzalliklar davlatning biror boshqa yerida yoki iqtisodiy tarmog'ida kuzatilmaydi"¹⁵, deb ta'rif beradi.

Mamlakatimiz olimlaridan A.V.Vaxobov, S.S.Mirzalieva, M.A.Raimjonova va A.A.Ostonakulovlar tomonidan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlarida erkin iqtisodiy zonalar va ular faoliyatiga oid o'z ilmiy qarashlarini bayon qilishgan.

A.V.Vaxobov tomonidan "Erkin iqtisodiy zonalar – shunday geografik hududki, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi" deb, ta'rif berilgan¹⁶.

¹³ Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: "EXtremum-press" nashriyoti, 2013. – B. 9.

¹⁴ Kim Young Rae. The study on issues related between limits of land development and total control restriction system in the actual conditions within capital region, Seoul National University of Technology, 2009. – R. 8-75.

¹⁵ Papava Vladimer. The Immortal idea of a free economic zone, Georgian Foundation for Strategic and International Studies, 2007. – R. 1-16.

¹⁶ Vaxobov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Moliya, 2010.– B. 180.

S.S.Mirzalieva tomonidan “Erkin iqtisodiy zona – mamlakat (yoki mamlakatlar) hududining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida barpo etiladigan, maxsus ma’muriy boshqaruvga va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning imtiyozli rejimiga ega bo‘lgan qismidir” deb, ta’rif berilgan¹⁷. Ushbu ta’rifda fikrimizcha, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalarni hal etish maqsadida jalb etiladigan investitsiyalar va ular hajmidan kelib chiqib imtiyozlarning belgilanishi nazardan chetda qolgan.

M.A.Raimjonova tomonidan “mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma’muriy boshqaruvga ega bo‘lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag‘batlantirishlar beriladigan hudud – erkin iqtisodiy hudud”, deb ta’rif keltirilgan¹⁸.

A.A.Ostonakulov tomonidan “erkin iqtisodiy zona – hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularga investitsiyalarni jalb etish maqsadida alohida imtiyozlar belgilangan, shuningdek, ulardan iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiyalashning hududiy uslubi sifatida foydalanish hamda zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiy tuzilmaga joriy qilish uchun tashkil etilgan hududdir”¹⁹, - degan fikr ilgari surilgan.

Rus olimlari Babinsev va Valliulinlar EIHNi ta’riflaganda “alohida iqtisodiy hudud”²⁰ terminini ishlatadi. Bu ham unchalik to‘g‘ri emas, chunki alohidalikni har xil tushunish mumkin”. A.T.Shermuhamedov “ochiq iqtisodiy mintaqa” terminini ishlatgan, bizningcha, bu ham unchalik to‘g‘ri emas²¹. Ochiq so‘zi rus va boshqa tillarda erkin iqtisodiy hududga nisbatan kam ishlatiladi, bu faqat tor manoda jahon iqtisodiyotiga nisbatan mamlakatning milliy iqtisodiyotga qaraganda qaysidir aniqlikning ancha ochiqligi ma’nosida tushunish mumkin. Bu erkin iqtisodiy hududlarning bir qirrasigina, xolos.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, “Erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir”²².

1991-yilda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo‘yicha Xalqaro Assotsiatsiya (MARSEZ) qabul qilgan hujjatlarga ko‘ra, erkin iqtisodiy zona alohida hududiy birlik bo‘lib, u qoida bo‘yicha mamlakatning iqtisodiy, ilmiy-

¹⁷ Mirzalieva S.S. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning xorij tajribasi. Diss. avtoref. i.f.n. – Toshkent: 2001. – B. 8.

¹⁸ Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – B. 11.

¹⁹ Ostonokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. Diss. i.f.n. – Toshkent: 2017. – B. 18.

²⁰ Бабинцев В.,Валлиулин Х.Особые экономической зоны. Российской экономической журнал. 1992. №9. 117 с.

²¹ Shermuhamedov A.T. Ochiq iqtisodiy mintaqa. – T.: O‘zbekiston axborotnomasi,1998., №1 (sentyabr, oktyabr). – B. 75.

²² O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 1996-yil 25-aprel, 1-modda.

texnikaviy, ekologik va ijtimoiy rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatni amalga oshirish uchun ochiq bo‘ladi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va uning faoliyat ko‘rsatishi bo‘yicha rivojlangan davlatlarda to‘plangan tajriba shuni ko‘rsatadiki, mazkur usulning qo‘llanilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, ijtimoiy hayotga yangi-yangi iqtisodiy g‘oyalarni tadbiiq etishda o‘zining ijobiy jihatlariga ega.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida va ilmiy nashryotlarda turli xildagi hududlarning mohiyatini yoritishda ”erkin iqtisodiy hudud” terminidan foydalanadilar. Biroq, bu termin uning mohiyatini to‘liq ifoda eta olmaydi. U erda qo‘llaniladigan iqtisodiy qoidalar, maxsus ma‘muriy qonunlar, shu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarni aniq belgilangan huquqiy va xo‘jalik rejimlaridan butunlay ozod qilmaydi, balki ularni yengillashtiradi, ma‘lum imtiyozlar beradi. Shuning uchun ham EIHni ”erkin” emas, maxsus iqtisodiy hudud deb atash o‘rinli bo‘lar edi.

1973-yil 18-mayda **Kioto** (Yaponiya) shahrida qabul qilingan Kioto konvensiyasida erkin iqtisodiy hudud tushunchasiga rasman izoh berilgan. **”Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish bo‘yicha xalqaro konvensiya”** qarorlarida yozilishicha, ”EIH bu – ma‘lum bir davlat hududidining shunday qismiki, unga olib kirilgan tovarlar bojxona hududidan tashqaridagi tovar sifatida qaralib, u bojxona tekshiruvidan va soliqlaridan ozod etiladi”²³. Bu ta’rifda turli xildagi EIHlarning asosiy xususiyatlari yoritib o‘tilgan, lekin bu faqat tovarlarni hududga olib kirish va olib chiqib ketishga nisbatan to‘g‘ridir.

Albatta, keyingi salkam 40 yillik taraqqiyot natijasida bunday qarash yetarli emasligi aniq bo‘ldi. ”Erkin iqtisodiy hudud” atamasi tahlil qilinayotgan iqtisodiy hodisaning qirralarini to‘liq ochib beradi:

- mamlakatning qolgan qismidan iqtisodiy jihatdan ajralganlik holatining mavjudligi;

- xorijiy va mahalliy tadbirkorlar uchun alohida iqtisodiy muhitning mavjudligi (imtiyozli bojxona, soliq, ijara, valyuta, mehnat va boshqa tartiblar). Uning ta’siri ostida ”iqtisodiy muhitning” qarshilik qilishi kamayadi.

Kioto konvensiyasi qabul qilingach, keyingi taraqqiyot natijasida EIH tushunchasi borasidagi bilimlar ancha kengaydi, boyidi, uning turli xil shakllari kashf etildi.

Ushbu tushunchadan ko‘rinib turibdiki, mamlakat hududining alohida qismidagi iqtisodiy erkinlik butunlay emas, balki, qiyosiy hisoblanadi. Demak, EIH tom ma’noda erkin emas, balki, nisbatan erkin hududdir. Bu hududga olib kirilgan tovarlar bojxona to‘lovlaridan import solig‘idan va import ustidan nazarotlardan ozod etilgani uchun ham bu hudud EIH deb ataladi. Bu shuni anglatadiki, EIHga chet eldan olib kelingan tovarlar qabul qiluvchi davlatga olib kelingan deb e’lon qilinmaydi. Shu bilan birga qonunlar tovar egalarini va sarmoyachilarini mavjud iqtisodiy huquqiy tartibotdan ozod qilmaydi, balki, uni yengillashtiradi.

Ushbu hudud erkinligi unga kiritilgan mahsulot bojxona tulovlari, importga nisbatan iqtisodiy siyosat choralaridan ozod qilinishi bilan belgilanadi va EIZga tashqaridan keltirilgan mahsulotlar deklaratsiya qilinmaydi.

²³ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч. пос. - М.: Юнити, 2005. – С. 7.

Biroq, shu bilan birga, qonunlar mahsulot egalari va investorlarni iqtisodiy tartiblardan ozod qilmay, uni yengillashtiradi.

Yuqoridagi EIHLarga berilgan ta'riflardan hamda EIHLarning mazmun-mohiyatiga asoslanib shuni aytish mumkinki, EIHLarni **maxsus iqtisodiy hudud** (MIH) deya atash ham o'rinlidir.

Iqtisodiy adabiyotlarda EIHLarning MIHlar deb nomlanishining ham sababi shundandir. Bugungi kunda O'zbekiston qonunchiligida ham MIHlar atamasi keng ishlatilmoqda.

Bizning fikrimizcha, EIHLar mamlakatning shunday hududiki, bu erga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortilishdan ozod etiladi, ya'ni bu yerda mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va rag'batlantirishlar tizimidan keng foydalaniladi.

Demak, EIH deganda davlat tomonidan tuzilgan milliy iqtisodiyotga yordam beruvchi sun'iy iqtisodiy hudud tushuniladi. Shunga ko'ra, EIH o'zida hudud suvereniteti, iqtisodiy komplekslar, keng ishlab chiqarish va maxsus mexanizmlarni aks ettiradi.

Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiya (MARSEZ) izohiga qaraganda, EIH aynan maxsus moliya va xo'jalik jihatidan ochiq bo'lgan davlat qismidir. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyot, fan va texnika, ekologiya va gumanitar fanlar rivojiga olib keladi.

Yuqoridagi izohlarga qaraganda EIHga yagona ta'rif yo'qligiga amin bo'lamiz. Lekin, ko'p iqtisodchilarning fikrini tahlil qilib quyidagi fikrga kelamiz:

- birinchidan, EIH davlatning asosiy qismi;
- ikkinchidan, bu hududda to'liq imtiyozlar tizimi bo'ladi;
- uchinchidan, bu hudud faqatgina bojxona soliq va boshqa nazorat turlaridan "erkin" hisoblanadi;
- to'rtinchidan, EIH rezidenti barcha nazorat turlaridan ozod degan ma'noni bermaydi;
- beshinchidan, EIHga jiddiy yondashuv natijasida u tashqi savdo umumiy iqtisodiy fan va texnika, fan va texnologiya sohasidagi muamolarni yechishga yordam beradi.

Nazariy jihatdan EIHLarning mazmuniga berilgan turli iqtisodchi-olimlar ta'riflari tahliliga ko'ra, erkin iqtisodiy mintaqalar iqtisodiy jarayonlarga davlat aralashuvini tanlab qisqartirish vositasi sifatida qaraladi. "Erkin iqtisodiy hudud" tushunchasiga berilgan bunday ta'rif xo'jalik yuritishning imtiyozli tartibi amal qilishi bilan bog'liq jarayonlarning barcha ko'rinishini qamrab oladi. Bunday yondashuvda EIH – bu alohida olingan geografik hudud bo'lmay, milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, unda mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlar tizimi joriy qilingan va amal qiladi.

Demak, EIH (*ayrim adabiyotlarda alohida yoki maxsus iqtisodiy hudud ham deyiladi*) – mamlakatning qolgan hududlariga nisbatan alohida yuridik maqomli, milliy va xorijiy tadbirkorlar uchun imtiyozli iqtisodiy sharoitlarga ega bo'lgan chegaralangan hudud.

Biz “erkin iqtisodiy hudud” atamasining iqtisodiy mazmuni tahlili bo‘yicha olib borgan umumiy izlanishlarimizga asoslanib, EIHlar mazmuni bo‘yicha turli iqtisodchi-olimlar va mutaxassislar fikr va qarashlari asosida unga quyidagi mazmundagi kengroq ta’rifni berish mumkin:

Erkin iqtisodiy hududlar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo‘jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to‘lash va bojxona tartibi joriy etiladi. Boshqacha ifodalaganda, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo‘lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo‘llanilmaydigan ma’lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi. Shunga ko‘ra, EIH mamlakat hududining imtiyozli bojxona, valyuta, soliq, viza va mehnat rejimlari joriy etilgan maxsus ajratilgan qismidir.

EIHga eng umumiy tavsif qilib shuni aytish mumkin, u shunday hududki, bu yerdagi rag‘batlantirishlar, imtiyozlar (soliq, bojxona, ma’muriy), litsenziyalash, vizalarni rasmiylashtirish, bank faoliyatlari, mulkchilik munosabatlariga oid yyengilliklar ushbu mamlakatning boshqa hududlarida aynan amal qilmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, u **anklav**, ya’ni bu bir mamlakat hududining yoki qismining har taraflama boshqa mamlakat yoki shu mamlakatning boshqa hududlari bilan o‘ralishidir. Bu hududda iqtisodiyotga davlatning aralashuvi ma’lum bir darajada chegaralanadi. Bu hududda mamlakatning boshqa hududlarida amal qilinmaydigan ma’lum imtiyozlar beriladi.

Jahon xo‘jaligida xalqning moddiy farovonligi, turmush tarzi, ko‘p jihatdan, EIHlarning tashkil etilishi va faoliyat ko‘rsatishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki, bunday holatlarni biz EIHlar tashkil topgan va iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar misolida ham ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Xullas, qaysi mamlakatda chet el investitsiyalari va tadbirkorlarning faoliyati uchun keng imtiyozlar yaratilgan bo‘lsa, shuningdek, iqtisodiyotini tiklab olishlari uchun amaliy yordam berilib imkoniyatlar yaratilgan bo‘lsa investitsiya miqdori ham, tadbirkorlarning ishchanlik qobiliyati ham o‘sha erda yuqori bo‘ladi. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun EIHlar amalda territoriyadagi ishchilarning turmush tarzi, ishlab chiqarish salohiyatining konsentratsiyalashuviga yordam beruvchi maxsus hudud hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday hududlarga “maxsus iqtisodiy hudud” atamasi mos keladi. EIHlarni yaratilishiga ularning tashkilotchilari tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishning muhim bo‘g‘ini sifatida qaraladi. Ularning faoliyati tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va jadallashtirish bilan bog‘liqdir. EIHlardagi iqtisodiyot tashqi olam uchun yuqori darajada ochiqlikka, bojxona, soliq va investitsiya rejimlari ichki va tashqi investitsiyalar uchun qulaylikka ega bo‘ladi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, soliq imtiyozlari, bojxona tartibi, bojxona nazorati, anklav, maxsus iqtisodiy hudud, iqtisodiyot.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. EIHlar mazmunini ochib berishga bo‘lgan katta qiziqish bugungi kunga qadar davom etmoqda. Shu sababdan turli iqtisodchi-olimlar va mutaxassislar tomonidan uning mazmunini yoritib berishga bo‘lgan urinish va tadqiqotlar hamda ta’rifini

keltirishga oid amaliy harakatlar davom etib kelayotganligini ko'rish mumkin.

2. EIHlar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo'jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to'lash va bojxona tartibi joriy etiladi. Boshqacha ifodalaganda, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi. Shunga ko'ra, EIH mamlakat hududining imtiyozli bojxona, valyuta, soliq, viza va mehnat rejimlari joriy etilgan maxsus ajratilgan qismidir.

3. EIHlarga xos muhim jihat shundan iboratki, u erdagi rag'batlantirishlar, imtiyozlar (soliq, bojxona, ma'muriy), litsenziyalash, vizalarni rasmiylashtirish, bank faoliyatlari, mulkchilik munosabatlariga oid yengilliklar EIH joylashgan mamlakatning boshqa hududlarida aynan amal qilmaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlar mazmunini ochib berish bo'yicha mahalliy va xorijiy iqtisodchi-olimlar tomonidan berilgan qanday ta'riflarni bilasiz va ularning mohiyatini qanday izohlaysiz?

2. EIHlar mazmunini ochib berish bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan qanday ta'rif va qarashlarni bilasiz?

3. Xalqaro me'yoriy hujjatlarda EIHlar mazmuni qanday jihatlarni o'zida mujassam etgan holda talqin etilgan?

4. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunida EIHlarga qanday ta'rif berilgan?

5. EIHlar mazmunini ochib berish bo'yicha mahalliy va xorijiy iqtisodchi-olimlar tomonidan berilgan ta'riflar bilan tanishib chiqqan holda siz ushbu atamaga qanday ta'rif berasiz?

6. EIHlar mazmunini ochib berish bo'yicha mahalliy va xorijiy iqtisodchi-olimlar tomonidan berilgan ta'riflar bilan tanishib chiqqan holda aytinchi, nima uchun ushbu atamaga hanzuzgacha yagona ta'rif ishlab chiqilmagan?

1.3. Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish tarixi va bosqichlari

EIHlarni xalqaro iqtisodiy tashkilot sifatida e'tirof etish mumkin. Chunki, Ular global xarakterga ega, ularning yordamida jahon xo'jaligi aloqalarida butun mintaqalarda juda intensiv integratsiya jarayoni sodir bo'lmoqda. Xalqaro integratsiyaning hozirgi zamon bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan biri iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanishning lokazatsiyalashuvi hisoblanadi. Buni tashkiliy jihatdan ifoda etuvchi bo'lib, EIHni yaratish yuzaga chiqmoqda. Shuning uchun ularni jahon bozorining milliy iqtisodiyotga qurilgan kichik tuzilmalari, bo'g'inlari deb ham nomlashadi.

EIHlarning bunday nomlanishining ham o'ziga xos sabablari mavjud. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin.

Hozirgi paytda, butun dunyo industrial iqtisodiyotdan innovatsion iqtisodiyotga

qarab bormoqda. EIHLar – XX asrning ikkinchi yarim yilligining eng ko‘zga tashlanadigan institutsional innovatsiyasidir. Uning ahamiyatini quyidagi ikki raqamning o‘zi ko‘rsatadi: XX asr oxiriga kelib, jahon ishlab chiqarishining 10 %i, jahon savdo aylanmasining 30 %i EIHL orqali o‘tgan va jahon kapital aylanmasining qariyb yarmi EIHLar orqali amalga oshirilgan.

Jumladan, Xitoy mamlakati ma‘lumotlari bo‘yicha EIHL joylashgan mintaqalarda yashovchi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar, mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan 10 martaga yuqoridir. Buni AQShda joylashgan “Selikon velli” nomi bilan mashhur ilmiy-tadqiqot hududlarining yangi texnologiyalarni yaratishda qo‘shayotgan xizmatini hisobga olib “jahon iqtisodiyotining yadrosi”, deb bejiz nomlashmasligi bilan ham izohlash mumkin.

Bugungi kunda alohida mamlakat va jahon iqtisodiyoti rivojida ulkan salohiyat va ulushga ega bo‘lib borayotgan EIHLarning tashkil etilishi va rivojlanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, bundan **2200 yillar muqaddam, eramizdan avvalgi 166- yilda grek davlati Delosda** birinchi marotaba hujjat asosida, savdoni yengillashtirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil qildilar. Bu erkin iqtisodiy zonalar, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo aloqalarini birlashtiruvchi vazifani bajargan. U erdagi savdogarlar soliqlardan, bojlardan va ma‘muriy rasmiyatchiliklardan ozod etilgan.

XII-XIII asrlarda erkin savdo hududlari faoliyat yurita boshlagan. Erkin savdo hududlari G‘arbiy Divana daryosi bo‘ylarida paydo bo‘lgan. Bu daryo o‘rta asrlarda eng muhim savdo yo‘liga aylangan. U Arab Xalifaligini sharqiy slavyan dunyosi bilan bog‘lagan. **G‘arbiy Dvina** va uning yon atroflaridagi quruqliklar ham erkin savdo hududlari deb e‘lon qilingan.

Yana bir qator olimlar “1547-yilda Italiyadagi Livorno shahri erkin savdo shahri deb e‘lon qilingan va aynan shu birinchi erkin iqtisodiy hudud bo‘lgan”²⁴.

Ganzev bitimi o‘zining gullagan vaqtida oddiygina iqtisodiy hududlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan. Bu esa G‘arbiy va Sharqiy Yevropa o‘rtasidagi savdo munosabatlarining rivojlanishiga olib kelgan. Ganzey bitimining rivojlanishining siri, u yerdagi yuk tashishlarning arzonligi va omborxonalar hamda tranzit hududlardan keng foydalanganligi. Ganzey kemalari G‘arbda Lissabondan Sharqqa Revel (Tallina)gacha suzishgan. XV asrlarning oxiriga kelib, Ganzey bitimi kemalari hammasining umumiy yuk ko‘tara olishi hajmi 60 ming tonnadan oshgan.

Boshlang‘ich erkin iqtisodiy hududlar deb, daryo bo‘yidagi yirik portlarda joylashgan maxsus territoriyalar, temir yo‘l zanjirlari, aeroportlar yoki ularga tegishli bo‘lgan



1.1-rasm. Italiyadagi Livorno erkin savdo hududi

²⁴ Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. – М.: Экономика, 1999. – С. 467.

rayonlar hisoblangan. Ular xorij mahsulotlarini olib kirish, olib chiqishda erkin va boj to'lovlaridan ozod qilingan, mamlakatning bojxona territoriyasidan ajratib olingan hududlardir.

Bunday hududlar hozirgacha saqlanib kelgan. U yerda tovarlar chegaralangan yoki cheklanmagan muddatgacha omborxonalarda saqlanadi, taqsimlanadi, qayta taqsimlanadi va qayta ishlab chiqiladi, so'ngra shu mamlakat ichki bozoriga boj to'lovi bilan yetkaziladi yoki boj soliqlarisiz chetga olib chiqib ketiladi.

Bunday iqtisodiy hududlardan foydalanish mol yetkazib beruvchilar uchun ancha qulay bo'lgan, chunki ular tovarga yetarlicha talab va albatta, unga mos ravishda narxning ham ko'tarilishini, tovarni sotmasdan kutib turish, mahsulotni ulgurji xaridorlarga taqdim etish imkoniga ega edilar.

Keyinchalik esa "erkin portlar" tashkil qilingan, bu hududda tovarlar uchun xaridorlar topilgunicha, tovarlarga boj to'lovlari to'lanmasdan omborlarda saqlanishi mumkin bo'lgan. Dastavval "erkin portlar" ichki bozorni rivojlantirish uchun tashkil qilingan, keyin esa xalqaro savdoning rivojlanishiga qo'shilish maqsadida tashkil qilingan. "Erkin portlar" Genyuda (1595 y.), Venetsiyada (1661 y.), Marselda (1669 y.), Rossiyada – Odessada (1817 y.), Vladivostokda (1862 y.), Batumida (1878 y.) tashkil qilingan²⁵. Ular porto-franko nomi bilan mashhur.

XX asrning boshlarida porto-frankolar Maltada, Sulinda, Singapurda, Adeneyada mavjud edi. Ikkinchi Jahon urushigacha 26 mamlakat va hududlar ishtiroki bilan 75ta erkin portlar va erkin savdo hududlar tashkil qilingan.

EIHLarning ikkinchi bor tug'ilishi, paydo bo'lishi XX asrning ikkinchi yarimlariga to'g'ri keldi. Ular rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqala boshlagan, ularning izidan esa, anchagina kechikishlar bilan o'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlarda tuzila boshladi. Bunga mustamlaka tuzumlarining qulashi natijasida iqtisodiy rivojlanish yo'liga yuzga yaqin mustaqil davlatlarning qo'shilishi; o'nlab integratsiya uyushmalarining tashkil topishi; yangi industrial mamlakatlarning jahon xo'jaligiga faol qo'shilishi; jahon sotsialistik tuzumining qulashi; ilmiy-texnika inqilobi rivojlanishi, dunyoda raqobatning va iqtisodiy jarayonlar erkinlashuvining kuchayishi kabi omillar sababchi bo'lgan.

EIHLarning ikkinchi bor tug'ilishi, paydo bo'lishi XX asrning ikkinchi yarimlariga to'g'ri keldi. Ular rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqala boshlagan, ularning izidan esa, anchagina kechikishlar bilan o'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlarda tuzila boshladi.

Bugungi kunda dunyoning 140 dan ortiq davlatida 5 mingga yaqin EIHLar mavjud. Ularda 80 mln.dan ortiq kishi band va tashqi savdo aylanmasi 1,5 trln. AQSh dollaridan ziyod. YuNKTAD ma'lumotlariga ko'ra: eng ko'p EIHL AQShda – 266 tani tashkil etadi.

G'arbiy Yevropada birinchilardan bo'lib tashkil qilingan EIHL 1959-yilda, Irlandiyadagi xalqaro Shennon aeroporti yaqinidagi eksport-ishlab chiqarish hududi edi. Hozirgi davrda bu hudud mamlakat rivojlanishi katta xissa qo'shadi. Bu hududda 24 ming kishi ish bilan ta'minlangan, u erda eksport uchun mahsulotlar ishlab chiqariladi, mamlakatning qoloq g'arbiy qismlari iqtisodiyotining yaxshilanishiga va

²⁵ http://www.vlasovaandpartners.ru/ru/pub7_sez.shtml R. Laxreev SEZ

buning natijasida butun mamlakat rivojlanishiga olib keladi.

EIHLar Buyuk Britaniyada, Germaniyada, Italiyada, Fransiyada va regionning boshqa mamlakatlarida ham EIHLar tashkil qilingan bo'lib, ular muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritayapti. U erda ko'proq turli xildagi erkin savdo hududlari, ilmiy parklar va offshor markazlari tarqalgan.

Mintaqada keng tarqalgan erkin savdo hududlarining soni 120 ta atrofida. Italiyada misol uchun, erkin savdo hududining boj to'lovlaridan ozod etilgan omborxonalar faoliyat yuritadi. Ular Neapolda, Genuyada, Barida, Imperii, Livorno, Palermo va Rimda joylashgan. Buyuk Britaniyada esa EIHLar Liverpool, Birmingham, Kardif, Belfast aeroportlarida tashkil qilingan. Ko'pgina xalqaro aeroportlarda joylashgan, erkin iqtisodiy hududning turlaridan biri bo'lmish, **boj to'lovlarisiz savdo olib boradigan magazinlar ("Dyuti fri" magazinlari)** uzoq vaqtlargacha faoliyat yuritgan. Ularning savdo hajmi 1990-yil oxirlariga kelib 1 mlrd. dollarga yaqinlashgan. Biroq, 2000-yil yanvaridan boshlab Yevropa Ittifoqidagi boj to'lovlarisiz savdo qisqartirilib bordi, u Yevropa Ittifoqi savdo to'siqlarini bekor qildi va o'z hududidagi bojxona jarayonlariga tegishli qoidalarni standartlarshtirdi.

G'arbiy Yevropada offshor markazlari keng tarqalgan. Ular xorij tadbirkorlarini o'zining qulay valyuta-moliyaviy qonunchiligi, soliqqa ttortishning imtiyozli xarakteri, bank va tijorat sirlarining yuqori darajadali bilan o'ziga jalb qiladi. Xalqaro offshor biznesini yurituvchi yetakchilarga Men, Buyuk Britaniyadagi Gernsi va Djersi, Vengriya, Irlandiya, Kipr, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Malta, Monako, Shveytsariya va boshqalar kiradi. Offshor biznesi bank va sug'urta faoliyatini, ko'chmas mulk operatsiyalarini, eksport-import operatsiyalarining ko'pgina turlarini, konsaltingni o'zida mujassamlashtiradi. G'arbiy Yevropa offshor biznesi sohasidagi kapital 130 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Unda 400 mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat yuritadi, har yili bir necha minglab yangi kompaniyalar registratsiyadan o'tadi, ula offshor operatsiyalari masshtablarini kengaytiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga keladigan bo'lsak, yangi industrial mamlakatlarda EIHLarni tashkil qilish sezilarli darajada foyda keltirdi. Janubiy Koreya Respublikasida, Singapur, Tayvan, Syangan, Malayziya, Filippin, Braziliya va Meksika kabi davlatlarda tashkil qilingan EIHLar iqtisodiy o'sishning umumiy strategiyasi bo'lib hisoblanadi. Osiyo va Afrikaning qator rivojlanayotgan mamlakatlari uchun EIHLar ularning iqtisodiy rivojlanishining muhim mexanizmi bo'la olmadi. U erdagi erkin iqtisodiy hududlarda yengil-sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, uy ro'zg'or elektronikasi, ba'zan mahalliy xomashyoni qayta ishlash bo'yicha og'ir sanoat sohalarida faoliyat yuritilgan. Lekin, u yerdagi faoliyat boshqa hududlardan territorial ajralib, go'yoki anklav kabi bo'lgan. Shunday bo'lsa ham EIHLar bu mamlakatlar rivojlanishini tezlashishiga, ularni xalq xo'jaligi bilan integratsiyalashuviga yordam beradi. Shuning uchun ham rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHLar soni ortib bormoqda.

Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda Xitoy mamlakatlarida 1980-yillarda EIHLar xorij kapitalini va texnologiyasini jalb qilish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish maqsadlarida tashkil qilina boshladi. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, asosan, mahsulot-omborxonalar va eksport-ishlab chiqarish hududlari

tashkil qilingan va ularga soliq hamda bojxona imtiyozlari berilgan. Misol uchun, Vengriyada EIHLarni, milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvining real instrumentiga aylanishida yetarlicha tajribaga ega.

Biroq Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ayrimlarida tashkil qilingan erkin iqtisodiy hududlar sezilarli natijalar bermadi, bunga ularni rivojlantirish uchun strategiyaning puxta ishlab chiqilmaganligi sabab bo'lgan. Bundan tashqari, EIHLar faoliyati, ya'ni eksport-ishlab chiqarish hududlari konsepsiyasiga asoslanib mamlakatga xorij kapitalini kirib kelishiga moslanmagan, sharoit yaratilmagan, bozor strukturasi va mahalliy bozorning cheklanganligi sabab bo'lgan.

Xuddi shu paytda, Xitoyda tashkil qilingan EIHLar ishonchli natijalarni bergan. Xitoydagi EIHLar, birinchi galda, xorij va chetdagi xitoy kapitalini jalb qilishga, ko'pgina va arzon ishchi kuchidan foydalanish, mamlakat hoqimiyatining va mahalliy organ hukumatining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishiga qaratilgan. Eksportga mo'ljallangan va texnologik jihatdan yirik hajmga ega bo'lgan loyihalarga jalb qilingan xorij kapitallariga qo'shimcha soliq imtiyozlari berish yo'li bilan, asosiy fondlar amortizatsiyasini tezlashtirish bilan, ish kuchi va yer ijaralariga to'lovlarini davlat tomonidan subsidiyalar ajratish bilan, Xitoy ichki bozorida mahsulotni sotishga qo'shimcha huquqlar berish va boshqa vositalar yordamida katta imtiyozlar beriladi. Bularning hammasi ushbu hududlarda qabul qilingan xalqaro talablarga javob bera oladigan qulay investitsion muhitning shakllanishiga olib keldi.

Natijada hozirgi kunda Xitoyda EIHLarning ko'p darajali tizimi tashkil topdi. Bu tizim Xitoy davlatining EIHLarni rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos amaliyot va tajribalarni shakllantirishida muhim o'rin egallaydi. Buning natijasida bugungi kunda Xitoyda turli yo'nalishdagi 190 dan ortiq EIHLar faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishiga erishildi. Shunga ko'ra, Xitoy hukumati mamlakatning barcha mintaqalarida EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishga yanada jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Xitoyda EIHLarning amalda faoliyati mamlakatni ma'muriy-taqsimotdan ochiq bozor iqtisodiyotiga o'tishiga, milliy xo'jalikning tez rivojlanishiga yordam bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatga kirib kelayotgan ko'p milliardlik investitsiyalar hisobiga sanoatlashgan tashkilotlar va ish joylari soning o'sishi, xorij kapitali obyektida mehnatni tashkil qilishning ko'payishi, EIHLardagi eksport hajmining keskin ravishda oshishi kabilarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Rossiyada EIHLar 1980-yillar oxiri 1990-yillar o'rtalariga kelib tashkil qilina boshlandi. Rasman tasdiqlangan EIHLar bir necha o'ntadan iborat edi. Bugungi kunga kelib, Rossiya Federatsiyasida EIHLar faoliyati tartibga solingan va nazoratga olingan bo'lib, ular sonining samarali faoliyat ko'rsatishiga qarab qisqartirildi. Ular ichida erkin savdo hududlariga tegishli mahsuslashtirilgan turli xildagi hududlar va o'z hajmiga ko'ra kattaroq, umumiy, kengroq bo'lgan hududlar bor. Biroq, Rossiyada tashkil qilingan barcha EIHLar ham vaqt o'tishi bilan tajribalarga dosh berolmadi. Bunga ularga (EIHga) nisbatan mamlakat siyosatining munosabati ham ta'sir ko'rsatgan. Ular ichida muvaffaqiyat qozonganlardan Primorya o'lkasining "Naxodka" EIHL va Kaliningrad viloyatidagi mahsus iqtisodiy hududlarni aytish mumkin.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Markaziy Osiyo davlatlarida ham EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, bugungi kunga kelib Rossiya Federatsiyasida 25 ta, O'zbekistonda 21 ta, Qozog'istonda 10 ta, Turkmanistonda 10 ta, Belorusiyada 6 ta, Tojikistonda 2 ta, Qirg'izistonda 1 ta EIH faoliyat ko'rsatmoqda.

EIHLarning rivojlanish bosqichlari va shu asosda yuzaga kelgan yangi avlod shakllarini quyida keltirilgan 1.2-rasm orqali ifodalash mumkin.

1.2-rasm. EIHLarning rivojlanish bosqichlari



1.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, jahon tarixida EIHLar dastlabki tashkil etilgan ko'rinishlaridan to bugungi kunga kelib shakllangan turlarining yuzaga kelishigacha bo'lgan vaqtlar EIHLarning 4 ta avlodidan iborat davrni o'z ichiga olar ekan.

Shunday qilib, bugungi globallashuv jarayoni talablariga ko'ra dunyodagi EIHLar soni doimiy ravishda ortib boradi, ularni tashkil qilishdagi geografik chegaralari kengayadi, ularning shakli o'zgarib boradi: tashqi savdo hududlaridan eksport-ishlab chiqarish va kompleks hududlarga. Xo'jalik faoliyati mohiyati tovar ayrboshlashdan tovar ishlab chiqarish tomon boradi, xizmat ko'rsatishning oddiy turlaridan ilmiy darajada murakkab bo'lgan turlariga o'zgarib boradi. Yuqoridagilarni ko'rib, shuni xulosa qilish mukinki, EIHLar milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvida muhim omilga aylandi.

Dunyo amaliyotida EIHLar o'tgan asrning 50 yillarning oxiri va 60 yillarning boshlarida ko'pgina mamlakatlarda paydo bo'ldi. 90 yillar o'rtalariga kelib, statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 1200 ga yaqin EIHLar mavjud bo'lgan.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, erkin savdo, kapital, soliq, bojxona, iqtisodiyot, integratsiya, sanoat, texnologiya.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHLarning ildizi qadim o'tmishga borib taqaladi, ya'ni **2200 yillar**

muqaddam, eramizdan avvalgi 166 yilda grek davlati Delosda birinchi marotaba hujjat asosida, savdoni yengillashtirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil qildilar. Bu erkin iqtisodiy zonalar, Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalarini birlashtiruvchi vazifani bajargan. U erdagi savdogarlar soliqlardan, bojlardan va ma'muriy rasmiyatchiliklardan ozod etilgan.

2. EIHlarning rivojlanib borishi natijasida XX asr oxiriga kelib, jahon ishlab chiqarishining 10 %i, jahon savdo aylanmasining 30 %i EIH orqali o'tgan va jahon kapital aylanmasining qariyb yarmi EIHlar orqali amalga oshirilgan.

3. EIHlarning dunyoning 140 dan ortiq mamlakatida tashkil etilganligi hamda uning uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramay, o'tgan asrning 50 yillaridan boshlab jadal rivojlanib kelayotganligi ularning jahon iqtisodiyoti rivojini ta'minlashda muhim o'rin egallashiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlarni tashkil etishning dastlabki vaqti qaysi davrlarga borib taqaladi?
2. EIHlar rivojlanishi tarixida o'ziga xos bosqichlar nimalardan iborat bo'lgan?
3. EIHlar rivojlanish tarixida tadbirkorlarga qanday imtiyoz va qulayliklar taqdim etilgan?
4. EIHlar dastlabki tashkil etilishi va rivojlanishida qaysi davlatlar alohida o'rin egallagan va sababi nimada?
5. EIHlar rivojlanishining so'nggi bir necha o'n yillikdagi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. EIHlar rivojlanishida MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari qanday o'rin egallaydi?

1.4. Erkin iqtisodiy hudud tashkil etilishi maqsadlari va ularning jahon xo'jaligi aloqalaridagi o'rni

EIHlarni tashkil qilish va ularni rivojlantirish aniq bir dolzarb muammoga ega bo'lgan iqtisodiy masalani echishga, strategik dastur va loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi.

O'z hududida EIHni tashkil qilayotgan davlat uchun, EIHlar pirovard maqsad hisoblanmaydi. Ko'pgina hollarda, EIHlar mamlakat milliy iqtisodiyoti rivojlanishning umumiy strategiyasiga qo'shib ketadi. EIHlarni tashkil qilishdan umumiy maqsad ommaviy ahamiyatga ega bo'lgan makroiqtisodiy masalalarni yechimiga qaratilgan bo'ladi:

- iqtisodiy o'sish darajasini tezlashtirish;
- sanoatni yangilash va zamonaviylashtirish;
- ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar bilan to'yintirish.

Biroq, bu maqsadlarga to'g'ridan-to'g'ri erishish har doim ham amalga oshmaydi. Dunyo amaliyoti ko'rsatishi bo'yicha, EIHlar bu masalani xalqaro bozorga mahsulot va xizmatlarni chiqarish orqali valyuta kirib kelishini ko'payishi hisobiga hal qilish imkonini beradi. Xuddi mana shu vaqtning o'zida EIHlar qabul qilayotgan mamlakatlar uchun ham bir qancha masalalarni hal qiladi: mamlakatga xorij hamda mahalliy kapitalni va zamonaviy texnologiyalarni jalb qiladi, sanoat va xizmat

ko'rsatish sohalarida ish bilan bandlik darajasini oshiradi, boshqaruv hamda marketing tizimida yetakchi malakaga ega bo'lish imkonini beradi, zamonaviy infratuzilmani yaratadi.

Shuni ham unutmash kerakki, har qanday EIH doimiy rivojlanishda bo'ladi. Bir turdagi iqtisodiy hudud boshqa turdagi hududga aylanishi mumkin, albatta, u rivojlanishning yuqori bosqichida bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, EIH oldida turgan maqsadlarning o'zgarishiga va yanada murakkablashishiga olib keladi.

EIHning maqsadi uni tashkil qilayotgan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, strategik yo'nalishlariga va ularni amalga oshirish imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham EIHni tashkil qilish sabablari va maqsadlari alohida hollarda bir-biridan farq qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda, misol uchun AQShda, Buyuk Britaniyada, Fransiyada EIHlar, ko'pincha, tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish, mahalliy siyosatni amalga oshirish orqali depressiv tumanlardagi kichik va o'rta biznesni jonlantirishga va buning natijasida hududlararo rivojlanish farqlarini yo'qotish, ya'ni rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarga yordam berish maqsadida tuzilgan. Xuddi mana shu maqsadlarda bu yerda faoliyat yuritayotgan ishbilarmonlarga, tadbirkorlarga mamlakatning boshqa tumanlaridagiga qaraganda, faoliyat erkinligi va anchagina sezilarli moliyaviy imtiyozlar berilgan. Bu dasturlar xorij kapitalini jalb qilish yo'nalishlariga ega emas edi.

Shularga o'xshash maqsadlarda EIHlar rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tashkil etilgan. Biroq, ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlardan farqi shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHni, eng avvalo, xorij kapitalini, texnologiyasini jalb qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, ishchi kuchi kvalifikatsiyasini oshirish maqsadlarida tashkil qilingan.

Yuqorida aytib o'tilgan maqsad va sabablardan tashqari, EIHni tashkil qilishda yana uch asosiy masalaga e'tibor qaratiladi:

- ishlab chiqarish eksportini oshirish va natijasida valyuta kirib kelishini ta'minlash;
- ish bilan bandlik ko'rsatkichini oshirish;
- hududni xo'jalikda yangi usullarni qo'llash bo'yicha poligonga aylantirish va milliy xo'jalikning o'sishiga erishish.

Shuni ham e'tiborga olish kerak, rivojlanayotgan mamlakatlar EIHlarni faqatgina xorij investitsiyalarini jalb qilish maqsadidagina tashkil qilmaydilar. Ko'rsatiladigan turli xildagi imtiyozlar xorij kapitalining kirib kelishiga yo'l ochib beradi, ular yordamida esa mamlakatlar o'zlarining bir qancha maqsadlarini amalga oshiradilar – milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, markazdan yiroqroqda joylashgan, iqtisodiy qoloq tumanlarni rivojlantirish, ishsizlikni kamaytirish, Davlat budjetiga doimiy ravishdagi qo'shimcha daromad manbalarini yaratish. Mamlakat xorij investitsiyalariga butunlikcha yo'l ochib berishni istamagan holda yoki investitsiyalarni ma'lum bir sohaga yo'naltirish niyatida mamlakatning ba'zi erlarida EIHlarni tashkil qiladi.

Dunyo amaliyoti ko'rsatishi bo'yicha turli mamlakatlarda EIHlar turli maqsadlarga erishish yo'lida tashkil qilinadi. Shunga ko'ra, ularni quyidagilarga

ajratish mumkin:

Birinchiidan, mamlakatda EIHni tashkil etishning asosiy maqsadi, mamlakatni xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanish jarayoniga chuqurroq jalb qilish. Bu erda gap raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish va ularning eksport qilishni yanada ko'paytirish to'g'risida boradi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatga valyutani ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi. Agarda mamlakat qandaydir sabablarga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun kirib keladigan xorij kapitallariga keng iqtisodiy erkinlik yaratib bera olmasa, u bunga EIHni tashkil etish yo'li bilan erishishi mumkin. Va shundagina mamlakat hukumati xorij investorlari uchun qulay sharoit yaratishga erishadi.

Ikkinchiidan, EIHni tashkil qilishning yana bir maqsadi, mamlakat ichki bozorini import tovar o'rnini bosa oluvchi sifatli mahsulot bilan to'yintirish. Bunga erishish uchun EIHda xorij kapitali yordamida import o'rnini bosa oluvchi tovar ishlab chiqarish tashkil qilinadi.

Uchinchiidan, maxsus iqtisodiy hudud tashkilotchilari xalqaro savdo bozorida faqatgina ishlab chiqarish liniyasi bo'yicha ishtirok etishga e'tibor beribgina qolmaydi, undan tashqari, turizm sohasiga, madaniyat sohasiga, sanatoriya-kurort sohasiga ham e'tibor qaratadi. Bular esa mamlakat hududiga valyutani yanada ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

To'rtinchiidan, EIHning maqsadi mamlakatda mahalliy hamda chet el ilmiy-texnikasining ishlab chiqarishda tezroq va keng ko'lamda qo'llanishini ta'minlash, kelajakda ulardan samarali foydalanish va ularning natijalarini mamlakat milliy iqtisodiyoti rivojida aks ettirish.

Beshinchiidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil qilinadigan EIHning maqsadi mamlakatdagi ishchi kuchini, injinerlarni, xo'jalik ishdagilarni va boshqaruv faoliyatini olib boruvchi kadrlar tayyorgarliklarini va malakasini oshirish.

Oltinchiidan, EIHning muhim maqsadlaridan biri – bu ma'lum bir hududdagi iqtisodiyotning rivojlanishiga yoki aniq bir tarmoqning rivojlanishiga turtki bo'lish. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada EIHlar o'tgan asrning 50-yillaridan keng tashkil qilina boshlagan. Ularning maqsadi depressiv tumanlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish edi. Bu maqsadga erishish uchun, butun mamlakat hududlaridan ko'ra, bu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarga moliyaviy imtiyozlar va xo'jalik faoliyatini yuritish uchun bir qancha yengilliklar berilgan. Bu rivojlantirish dasturi to'g'ridan-to'g'ri xorij kapitalini o'ziga jalb qilish uchun tuzilmagan.

Xuddi mana shu maqsadlarda kamroq rivojlangan mamlakatlarda ham EIHlar tashkil qilingan, ya'ni rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarda tashkil qilingan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHlarni tashkil qilish maqsadlari ishlab chiqarish bo'yicha rivojlangan mamlakatlardan farq qilgan holda asosiy e'tibor xorij kapitalini jalb qilishga ko'proq qaratalgan bo'ladi.

Yettinchiidan, ba'zi-bir mamlakatlarda EIHga ma'lum bir mintaqani zamonaviylashtirish, rivojlantirish usuli kabi qaraladi. EIH mamlakatda hukum surayotgan iqtisodiyotning qaysidir turidan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tishga yordam beradi. Misol uchun, Xitoyda EIH (u yerda maxsus iqtisodiy hudud deb

ataladi) tajribaviy ijtimoiy xarakterga ega. Bu mamlakatda ma'muriy iqtisodiyot tizimidan birdaniga, "yoppasiga" bozor iqtisodiyotiga o'tish noto'g'ri deb bilingan. Chunki, bu xalq uchun katta zarba bo'ladi, buning natijasida esa, albatta, iqtisodiyot katta talofat ko'radi, deb hisoblashgan. Shuning uchun ham bu erda bozor iqtisodiyotining afzalliklari EIHni tashkil qilish orqali ko'rilmogda. EIHLarning amaliyotda qo'llanilishi bozor iqtisodiyotining, davlat mulkiga asoslangan iqtisodiyotdan ko'ra samarali ekanligini isbotlab bermoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, EIHLarni tashkil qilishdan maqsadlar aniq ko'rsatilishi kerak. Bu talabning bajarilishi, xo'jalik faoliyatini olib boruvchi subyektlarga beriladigan imtiyozlar tizimini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Bu guruhga kiruvchi mamlakatlardagi EIHLarning faoliyati ko'pinchalik alohida strategik vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'ladi. Jumladan, jahon bozorida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro iqtisodiy aloqalardagi xomashyo eksportiga ixtisoslashganlikdan voz kechish, hududni xo'jalik yuritishning yangi usullarini sinash poligoniga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligiga integratsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi turli xildagi EIHLarning ustuvor maqsadlari sifatida alohida hududiy loyihalarni amalga oshirish orqali milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash natijasiga erishish vazifasi qo'yiladi. Aynan shu narsa ko'p davlatlarni, hatto, EIHLarning iqtisodiy samaradorligi boshqa investitsion loyihalarga nisbatan rentabellik darajasi kamroq bo'lganda ham EIHLarni tuzishga bo'lgan ehtiyojni belgilaydi. Bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar uchun EIHLarning iqtisodiyotni bilvosita modernizatsiyalash samarasi nihoyatda muhim. Chunki, ular tadbirkorlik madaniyatining o'sishiga, turmush tarzining yangi standartlarini shakllantirishga, yangi texnologik jarayonlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

O'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda EIHLarni tuzish maqsadlari, ko'p jihatdan, rivojlanayotgan mamlakatlarnikiga o'xshashdir. Masalan, Rossiyada EIHLarning tashkil etilishi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb etish;
- tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish uchun bozor tizimini shakllantirish;
- eksport salohiyatini rivojlantirish va valyuta tushumlarini ko'paytirish;
- ham chet el, ham milliy ilmiy yechimlarni va "nou-xau"larni joriy qilish hisobiga ilmiy-texnika taraqqiyotini jadal tadbiriq etishni ta'minlash;
- hudud miqyosida yangi xo'jalik yuritish usullarni sinab kurish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, dunyo xo'jaligidagi turli guruhlarga tegishli mamlakatlarda EIHLarni tashkil qilishdan maqsadlari har xil bo'lishiga qaramay, ular ba'zi-bir umumiylikka ega. Ularni iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik maqsadlarga bo'lish mumkin (1.2-jadval).

Shunday qilib, EIHLarni turli mamlakatlarda tashkil qilish, umuman olganda, bir xil maqsadlarga qaratilgan bo'ladi: EIHDagi hamda undan tashqaridagi aholining ish bilan bandligini ta'minlash; ichki bozorda faoliyat yuritayotgan mahalliy korxonalariga to'sqinlik qilmagan holda EIHDa eksportga mo'ljallangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil qilish. Bundan tashqari, iqtisodiy jihatdan ortda qolayotgan tunmalarga turtki berishga harakat qilish, yangi "nou-xau"larni qo'lga kiritib, eskirib

qolgan texnikalarni modernizatsiyalash, o'z mutaxassislari va ishchilariga mehnatning zamonaviy usullarini o'rgatish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishda mahalliy xomashyolardan keng va samarali foydalanish.


1.2-jadval.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish maqsadlari

№	Maqsad turlari	Tavsif
1	Iqtisodiy maqsadlar	<ul style="list-style-type: none"> • tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish va kengaytirish; • iqtisodiyotga tashqi va ichki investitsiyalarni faol jalb qilish; • milliy ishlab chiqarish raqobatbardoshligini va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish; • har bir hududda eksportni va import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni ko'paytirish; • milliy iqtisodiyotda valyuta tushumlarini ko'paytirish.
2	Ijtimoiy maqsadlar	<ul style="list-style-type: none"> • yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi ish bilan bandligini oshirish; • malakali xodimlarni, injenerlarni, xo'jalikda faoliyat yurituvchilarni va boshqaruvdagi kadrlarni jahon standartlariga javob beradigan darajada o'qitish va ularni tayyorlash; • sanoat hamda iste'mol uchun mo'ljallangan yuqori sifatli mahsulot va xizmatlar bilan milliy bozorni to'yintirish; • aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish; • qoloq mintaqalar rivojlanishini hudud chegarasida kamyob bo'lgan milliy resurslarni markazlashtirish hisobiga tezlashtirish.
3	Ilmiy-texnik maqsadlar	<ul style="list-style-type: none"> • eng yangi xorij va mahalliy texnologiyalardan jadal foydalanish; • NIOKR natijalarini amalda qo'llashni tezlashtirish; • dolzarb bo'lgan yo'nalishga ilmiy-texnik, shu jumladan, xorij kadrlarini ham jalb qilish; • ilmiy-texnik markazlar va venchur kompaniyalarining tajribalarini hamda ilmiy-tatqiqot yutuqlarini jalb qilish; • foydalanilayotgan ishlab chiqarish quvvati samaradorligini oshirish.

Boshqacha aytganda, EIHni tashkil qilish mamlakatning u yoki bu hududini sanoatlashtirish, umumdavlat miqiyosidagi inqirozni yumshatish va uni yengillashtirishga yordam beradi hamda investitsiyalar kirib kelishiga keng yo'l ochib beradi.

Mamlakatda tashkil etilgan EIH joylashuviga xos ko‘rinish va xususiyatni quyidagi 1.3-rasm orqali ifodalash mumkin:



1.3-rasm. Mamlakatda EIH tashkil etilishining ko‘rinishi

Turli mamlakatlarda tashkil etilgan EIHlar ularning jahon xo‘jaligi bilan savdo, iqtisodiy, investitsiya, innovatsiya, mehnat, ta‘lim, turizm, ilmiy-tadqiqot, tibbiyot, texnika, ekologiya, xizmat ko‘rsatish, axborot texnologiyalari, ishlab chiqarishning energetika, neft-gaz, oziq-ovqat, qurilish kabilar bo‘yicha aloqalari va integratsiyasini ta‘minlash hamda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa EIHlar tomonidan xalqaro savdo, mehnat va kapital migratsiyasi, logistika, turizm, ishlab chiqarish kabilarning rivojiga ta‘sirining ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Pirovardida, jahon ishlab chiqarishining 10%i, savdo aylanmasining 30%i mazkur hududlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ayrim davlatlar (Xitoy)da kapital iste‘molining 20%idan ortiq qismiga ham egalik qilmoqda.

Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarga 30-80% gacha chet el investitsiyalari EIHlar orqali kirib keladi.

U yoki bu hududni tashkil etish vazifasidan kelib chiqqan holda uning joylashishiga tegishli talablar qo‘yiladi. Ular orasida tashqi va ichki bozorlarga nisbatan qulay transport-geografik joylashuvidir.

Shuning uchun EIHlar uchun eng qulay territoriyalar, odatda, chet el davlatlarga chegaradosh, dengiz savdo portlari va magistral transport tizimlari (temir yo‘l, avtomobil yo‘llar, aeroportlar), tashkil topgan sanoat, ilmiy va madaniy markazlar, qimmatli tabiiy resurslar tig‘iz joylashgan territoriyalar hisoblanadi.

Maqsad va joylanishidan kelib chiqqan holda EIHlar hududi o‘lcham jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin – 1,5 km² dan (Sheremetevo, Rossiya) to 3,6 mln. km²

gacha (Manaus, Braziliya).

Umuman olganda, dunyodagi EIHLar soni doimiy ravishda ortib bormoqda, ularni tashkil qilishdagi geografik chegaralari kengayib, ularning shakli o'zgarib bormoqda, tashqi savdo hududlaridan eksport-ishlab chiqarish va kompleks hududlarga aylanishi kuchayib bormoqda. Xo'jalik faoliyati mohiyati tovar ayriboshlashdan tovar ishlab chiqarish tomon boradi, xizmat ko'rsatishning oddiy turlaridan ilmiy darajada murakkab bo'lgan turlariga o'zgarib boradi.

Yuqoridagilarga muvofiq, shuni xulosa qilish mumkinki, EIHLar milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvida muhim omilga aylandi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, ilmiy-texnika, sanoat, investitsiya, ishlab chiqarish, eksport, import, ish bilan bandlik, tovar, valyuta, mintaqa.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHLarni tashkil etish turli maqsadlarga asoslangan bo'ladi va bu maqsadlar uni tashkil etuvchi mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

2. EIHLarni tashkil etish umumiy tarzda iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik maqsadlarni namoyon etadi va har bir tashkil etilgan EIHDa ushbu maqsadlar birgalikda o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.

3. EIHLarning jahon xo'jaligi aloqalaridagi o'rni beqiyos bo'lib, bu ularni tashkil etish bilangina namoyon bo'luvchi jihat emas, aksincha, ularning salohiyatlaridan samarali foydalanishga bo'lgan e'tibor va munosabatlarni rivojlantirish EIHLarning ushbu sifatlarini to'la yuzaga chiqarish imkoniyatlarini yanada oshiraveradi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarni tashkil etishning qanday maqsadlari mavjud?
2. EIHLarni tashkil etish maqsadlari qanday yo'nalishlarga ega?
3. EIHLarni tashkil etish maqsadlari qanday umumiylikni namoyon etadi?
4. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHLarni tashkil etish maqsadlari nimasi bilan farqlanadi?
5. EIHLarning jahon xo'jaligi aloqalaridagi o'rnini qanday izohlaysiz?
6. EIHLarning jahon xo'jaligi aloqalaridagi o'rnini oshirish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?

1.5. Erkin iqtisodiy hudud faoliyat ko'rsatishining tamoyillari, vazifalari va asosiy xususiyatlari

Jahon tajribalaridan xulosa qilgan holda, EIHLarni tashkil etish tamoyillarini quyida ko'rib chiqamiz.

O'ziga xos iqtisodiy tuzilma sifatida EIHLar tashkil etilishi va faoliyatining ma'lum tamoyillari mavjuddir. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1. Boshqaruv va tadbirkorlik riski tamoyili.** Ushbu tamoyilning mohiyati

noaniqlik va risk bilan bog'liq bo'lgan biznes yuritishning turli jihatlarini, tadbirkorlik faoliyatini, raqobatni namoyish etilishini belgilaydi.

2. Teng hamkorlik tamoyili. Birinchi navbatda, biznesni yuritishda o'zaro munosabatni belgilaydi.

3. Raqobat imtiyozlari tamoyili. EIH chegarasida tadbirkorlik faoliyatini faollashtirishning usuli bo'lib, bunda, hududdagi korxonalariga boshqa erdagi korxonalariga nisbatan ma'lum bir tashkiliy, moliyaviy, iqtisodiy imtiyozlar beriladi. Ushbu tamoyil birinchi navbatda EIH mexanizmida ijodkorlik asosi mavjudligini, nostandart shakl va ziddiyatlar yechimi usullarini, ya'ni, tadbirkorlarning yangi texnologiyalar, bozorlar, tovar sifati, narx siyosatining egiluvchanligi uchun faol musobaqalashuvini nazarda tutadi.

4. Samaradorlik va daromadlilik tamoyili. Talab va taklif qonuniga asoslangan holda mazkur hudud boshqaruvining maqsadli funksiyasini namoyish etadi.

5. Refleksif o'zini tutish tamoyili. Korxonaning EIH bozoridagi o'zini tutishini aniqlaydi va muvofiqlashtiradi. Bu tamoyil xo'jalik subyektlarining bozordagi hatti-harakatlarini tartibga solib turadi.

6. Ma'lumot yetarlilik tamoyili. EIHdagi doimiy o'zgarib turuvchi bozor muhiti korxonaga va hudud oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lumot oqimlari tahlili bo'yicha katta talablar qo'yadi.

7. Maqsadlarni muvofiqlashtirish tamoyili. Bunda EIHning turli iqtisodiy institutlari va ularning tashkiliy-huquqiy me'yorlarini tashqi bozor muhiti, hudud ichidagi sharoit asosida muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

EIHLarning ahamiyatini ko'rsatish uchun, ularni jahon xo'jaligining mamlakat ichidagi "orollari", xorijiy investitsiya, texnologiyalar, boshqarish tajribasining oqib keluvchi "derazalari", jahon xo'jaligiga uyg'unlashib ketishda "erkin eshiklar" deb nomlanuvchi yangi siyosatidir, deb nomlashadi. Shuningdek, uning bugungi kundagi rivojlanish xususiyatlari va salohiyatidan kelib chiqib, EIHLarni xalqaro iqtisodiyotni o'rganish instituti deb, ham hisoblash mumkin, chunki, bu institutni muvaffaqiyatli o'tagan har bir xo'jalik subyekti xalqaro biznes olamida faoliyat ko'rsata olish potensialiga ega bo'ladi.

Umumiy ko'rinishda EIHLarni tashkil etish maqsadlaridan kelib chiqib, ularning tashkil etilishi va faoliyat yuritishiga bog'liq quyidagi vazifalarni keltirib o'tish mumkin:

- ilg'or texnologiyalarni (milliy texnologiyaga nisbatan) jalb etish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali iqtisodiyotni faollashtirish;
- valyuta tushumlariga ega bo'lish va shu orqali valyuta zahiralarini oshirish;
- ichki iste'mol bozorini to'yintirish;
- aholining bandlik darajasini oshirish va ishchi kuchining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash;
- iqtisodiyotni boshqarish, xalqaro tadbirkorlik, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sohasida jahon tajribasini o'zlashtirish;
- bozor infratuzilmasi muassasalarini rivojlantirish;
- "depressiv tumanlarni" jadal rivojlantirish va boshqalar.

Erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy kapitalni jalb etishning iqtisodiy mexanizmi turli-tuman bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- uskunalar, xomashyo va ishlab chiqarishning boshqa tashkil etuvchilari importini bojxona bojlaridan to‘la yoki qisman ozod etish;

- foydaga solinayotgan soliqlarga imtiyozlar joriy etish;

- daromad solig‘idan to‘la yoki qisman ozod qilish;

- eksport imtiyozlarini joriy etish va mamlakatning boshqa qismlaridan olib kelinadigan uskunalar, xomashyo va ishlab qarishning boshqa tashkil etuvchilarini rag‘batlantirish;

- eksportga imtiyozli shart-sharoitlar joriy etish;

- mahalliy soliqlardan ozod qilish;

- xorijiy investitsiyalarning barcha shakllariga ruxsat berish;

- eksport va importni imtiyozli litsenziyalash;

- foydani erkin uzlashtirishga imkoniyat yaratish;

- EIHlarda milliy valyutaning qisman yoki to‘liq erkin almashuvini ta‘minlaydigan alohida valyuta rejimini joriy etish;

- kommunal xizmat, transport tariflari uchun pasaytirilgan ijara to‘lovlarini taqdim etish;

- jadallashtirilgan amortizatsiyani joriy etish;

- zamonaviy bozor infratuzilmasini hamda xizmatlar tarmoqlarini barpo etish;

- xorijiy investitsiyali va aralash korxonalariga davlat kafolatlari va imtiyozlarini taqdim etish va boshqalar.

EIHLarning quyidagi asosiy xususiyatlarni ko‘rsatish lozim.

1. Turli xil imtiyoz va rag‘batlarning qo‘llanishi, jumladan:

- tashqi savdo imtiyozlari, ularga eksport-import to‘lovlarini kamaytirish yoki bekor qilish, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibining qo‘llanilishi;

- fiskal imtiyozlar, jumladan, aniq faoliyat turlari uchun soliq imtiyozlarning berilishi. Imtiyozli soliq bazasi (foyda yoki daromad, mulk qiymati va x.k.), uning alohida tashkil etuvchilari (amortizatsiya ajratmalari, ish haqi, tadqiqotlar, transport xarajatlari)ga qaratilgan bo‘lishi, soliqdan vaqtincha yoki doimiy ozod qilishdan iborat bo‘lishi mumkin;

- moliyaviy, turli xil subsidiyalarni qamrab olib, ular bevosita – budget mablag‘lari va imtiyozli davlat kreditlari hamda bilvosita kommunal xarajatlar uchun imtiyozlar, yer uchastkalaridan foydalanilganligi uchun ijara haqini kamaytirish va h.k.lardan iborat bo‘ladi;

- ma‘muriy, korxonalarni ro‘yxatga olishni osonlashtiruvchi, xorijiy fuqarolar kelish, ketishini soddalashtirish bo‘yicha imtiyozlar.

2. Erkin mintaqani boshqarishning bir muncha erkin, butun iqtisodiy masalalar bo‘yicha mustaqil ravishda qaror qabul qila olish.

3. Hukumat tomonidan har tomondan qo‘llab-quvvatlanishi.

EIHLarning yuqoridagilar qo‘shimcha ravishdagi xususiyatlari sifatida quydagilarni ham keltirib o‘tish mumkin:

- xo‘jalik faoliyatini minimal ravishda reglamentlashtirish;

- bojxona to'rsiqlarini minimumga keltirish;
- eksport importda cheklashlar yo'qligi yoki kamligi;
- minimal valyuta nazorati;
- insofli, minimal soliq solish;
- sug'ortalash erkinligi, imtiyozliligi;
- baho belgilash erkinligi;
- kredit tizimini imtiyozliligi, qulayligi;
- personalni ishga solish, haydash masalalarida tadbirkorning erkinligi.

Bunday xususiyatga ega sharoitlarni butun iqtisodiyotda – xalq xo'jaligi kopleksiga birdaniga, to'liq holda yaratish juda mushkul. Ammo, mamlakatning kichik bir, alohida hududlarida, alohida tarzida boshqariladigan maxsus hududida, ya'ni EIHLarda bunday shart-sharoitni yaratish va qo'llab-quvvatlash mumkin. Shu jihatdan ham EIHLarga xos bo'lgan xususiyatlar o'ziga xos bo'lib, boshqa hududlarda ularni qo'llash imkonsizdir.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha eng umumiy holda EIHLarni tashkil etish jarayoni 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Investitsiyalashdan oldingi bosqich. Odatda, bir yilgacha davom etib, o'z navbatida, ikki davrdan iborat bo'ladi:

- *birinchi davrda* dastlabki ilmiy izlanish, marketing, iqtisodiy-jug'rofiy, iqtisodiy-moliyaviy va boshqa shunga o'xshash ishlar amalga oshiriladi. Bu davrning maqsadi – ushbu hududda EIHNi tashkil etishning konseptual imkoniyatini aniqlash, hududning joylashuvi, turi va o'lchamini aniqlashdan iborat. Ushbu davrning alohida e'tiborga loyiq tomoni shundan iboratki, hududning ixtisoslashuvi va unda ko'rsatilajak xizmatlarning to'liq tahlili o'tkaziladi. Aynan mana shu davrda to'plangan ma'lumot asosida u yoki bu EIHNi tashkil etish yoki emaslik haqidagi umumiy qaror qabul qilinadi.

- *ikkinchi davr* birinchi davrdagi ma'lumotlarni va qarorlarni yanada chuqurroq iqtisodiy va moliyaviy hisoblar asosida aniqlashtiruvini ko'zda tutadi. Bunda alohida e'tibor kapital qo'yilmalarning samaradorligini aniq hisoblashga qaratilmog'i lozim. Investitsiyalarning umumiy hajmini va shu jumladan, qanchasi infratuzilmaga va qanchasi ishlab chiqarish qurilishiga sarflanishini aniqlash lozim. Shu vaqtning o'zida ushbu mablag'larning manbalari ham aniqlanishi kerak: markazlashgan davlat kapital qo'yilmalari, hududlarning o'z mablag'lari, EIHDa joylashadigan korxonalarining mablag'lari, banklarning qarz vositalari, mahalliy qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan keladigan mablag'lar. Ushbu davr mobaynida hech bo'lmaganda umumiy holda hududning rivojlanishi uchun sarflanadigan valyuta hajmini ham aniqlash lozim. Bu davr uchun hududiy geografik-iqtisodiy tahlil, xo'jalik ishlarini ratsional tashiil etish shart-sharoitlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

2. Investitsion bosqich. Odatda, bu ham bir yil muddatgacha davom etadi, avvalgi bosqich bilan bir vaqtda amalga oshirilishi ham mumkin va o'z navbatida, ikki davrdan iborat bo'ladi:

- *birinchi davrni* shartli ravishda “muzokaralar” davri deb atash mumkin. Bu davrda mahalliy hoqimiyat va markaziy hoqimiyatlar bilan hududning rejimi,

joylashuv eri, ixtisoslashuvi, hukumatning loyihani amalga oshirishda ishtiroki darajasi haqida kelishuvga erishish kerak. Shu bilan bir vaqtda hududda infratuzilmani yaratishning texnikaviy loyihasi ham ishlab chiqiladi.

- investitsion bosqichning *ikkinchi davri* aniq infratuzilma obyektlari: issiqlik-energetika ta'minoti, aeroport, kommunikatsiya tarmoqlari, turli xildagi binolar (omborlar, ofislar, ishlab chiqarish binolari) qurilishini nazarda tutadi. Bu obyektlar va binolar butunlay yangidan qurilishi ham mumkin yoki mavjudlari ta'mirlanishi ham mumkin. Ushbu qurilish ishlari bilan bir vaqtning o'zida potensial investorlarni jalb etish bo'yicha reklama va marketing ishlari faol olib borilishi kerak. Ular shunday o'tkazilishi kerakki, operatsion bosqichning boshlanishiga kelib, hududda o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini boshlashga tayyor bo'lgan bir qancha investorlar shay tursin.

3. Operatsion bosqich. Bu rejalashtirish uchun eng murakkab bo'lgan bosqichdir. U hududning o'zidan o'zi rivojlanuvchi tizim sifatidagi ichki dinamikasiga, hudud regionida va mamlakat miqyosida bo'lgan siyosiy barqarorlikka bog'liq. Shu bilan bir vaqtda hududni rivojlantirish imkoniyatariga bag'ishlangan marketing izlanishlari natijalaridan keng foydalanish kerak. Bu bosqichda ham ikki davrni ko'rsatish mumkin:

- *boshlang'ich davr;*

- *hududni o'z-o'zidan rivojlanish davri.*

Ikkala davrda ham hududning jismoniy potentsiali to'laligicha ishlatilmaydi. Agar 100% lik darajaga erishilsa bunday hudud yo yirik iqtisodiy tumanga, yoki yangi sohalar va ishlab chiqarishga o'tishi, yohud o'zining institutsional statusini o'zgartirishi lozim.

Qaysi hol bo'lishidan qat'iy nazar, u hudud hayot jarayonining **to'rtinchi bosqichi – rivojlanish bosqichi** boshlanganidan dalolat beradi.

Operatsion bosqichning boshlang'ich davri o'z-o'zidan rivojlanish davridan investorlarning rag'batlantiruv tizimi o'zgarishi bilan farq qiladi. Birinchi davrda investorlar hududga bevosita berilgan imtiyozlar va xizmatlar mavjud bo'lgani uchun keladi (shu jumladan, arzon ishchi kuchi, xomashyo, mamlakatning asosiy hududdagi bozorga kirish imkoniyati, tayyor binolar mavjudligi va hokazo). Ikkinchi bosqichda esa investorlarni hududda va uning atrofida amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyati jalb etadi. Bu erda o'zaro ta'sir va o'zaro to'ldirish tamoyiliga asoslangan rivojlanish effekti o'zini namoyon qiladi.

Yuqorida qayd etilganga muvofiq bir qancha xulosalar chiqarish mumkin: EIHning maksimal samarali faoiyat yuritishi uchun EIH faoliyati asosida erishilishi kerak bo'lgan maqsadlar va EIH faoliyati jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar aniq ifodalanishi lozim. Va bu narsa boshlang'ich investitsiyadan oldingi bosqichdayoq bajarilishi kerak. Shuningdek, EIH faoliyatining asosiy tamoyillarini namoyon etish ham muhimdir, chunki, ularning mavjudligi va ularga amal qilinishi bir qadar EIH faoliyatining barqarorligi va istiqboli borligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda EIHLarni tashkil qilishda, EIH tamoyillari va bosqichlarning amalga oshirilishiga katta ahamiyat berish lozim. Yuqorida aytib o'tilgan, Samarqanddagi turistik hududni tashkil qilishda ushbu bosqichlar inobatga

olinganda edi, balki, hozirgi kunga kelib bu hudud o'z faoliyatini samarali olib borayotgan bo'lar edi.

Hozirgi davrda EIHLarni tashkil qilish siyosatining iqtisodiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqligi, zaruriy malaka va jahon tajribasidan to'laroq foydalanishni qayta ko'rib chiqish zarurligida ko'rinadi. Hududlarning oyoqqa turishi va rivojlanishining asosiy talablaridan biri – bu EIHLar to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi bo'lib, u EIHLarning faoliyatining asosiy shartlarini belgilashi, jumladan, hududning tashkil etilishi, faoliyati va tugatilishi tartibi, hududlar turlari, infratuzilma obyektlarini moliyalashtirish tartibi, xo'jalik faoliyati mexanizmi, chet el investorlariga beriladigan kafolatlar va imtiyozlar, boshqaruv funksiyalari, hududlar faoliyatini kordinatsiya qiluvchi idoraning tuzilishini qamrab oladi.

Ushbu qonun boshqa mamlakatlarning shunga o'xshash qonunlariga nisbatan raqobatbardosh bo'lishi lozim, chunki, so'nggi keyingi yillarda yaqin va uzoq mamlakatlar o'z hududlarida EIHLarni tashkil etishga faol harakat qilayotganliklarini inobatga olish lozim. Qolaversa, jahon iqtisodiyotida xalqaro kapital harakatida pasayish tendensiyalari kechayotganligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishda EIHLar jozibadorligini ta'minlashda huquqiy asoslarning ham ahamiyatini yanada oshirish talab etiladi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, iqtisodiyot, korxonalar, bozor, xorijiy investitsiya, valyuta, eksport, import, aholi bandligi, ishlab chiqarish.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHLarni tashkil etishning o'ziga xos tamoyillari mavjud bo'lib, bu tamoyillar EIHLarning maqsadli tashkil etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

2. EIHLarni tashkil etish maqsadlarini amalga oshirishda uni ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi vazifalarning o'zini beqiyosdir. Mazkur vazifalar EIHLarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash imkonini berish bilan birga uning amalga oshirilish mexanizmini ham ko'rsatib beradi.

3. EIHLarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishida ularga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, mazkur xususiyatlar boshqa alohida hududlarda kuzatilmagligi va qo'llanilmagligi bilan ajralib turadi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarni tashkil etish qanday tamoyillarga asoslanadi?

2. EIHLarni tashkil etish qanday tamoyillarining mazmuni va ahamiyatini tushuntirib bering.

3. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish qanday vazifalarni amalga oshirishga asoslangan?

4. EIHLarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi hamda ularga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmi nimalardan iborat?

5. EIHLarga xos bo'lgan xususiyatlar nimalardan iborat?

6. "EIHLarga xos bo'lgan xususiyatlar ularning ahamiyatini qanday namoyon etadi?"

1.6. Erkin iqtisodiy hudud tashkil etilishidagi yondashuvlar: hududiy va funksional


Zamonaviy jahon amaliyotida EIHlar tasnifiga turli xil yondoshuvlar mavjud. Shunday qilib, jahon amaliyotida, EIHlarni tashkil qilishda ikkita turli konseptual yondoshuvlardan foydalanadilar, ya'ni tashkil etish usuliga qarab ikki turdagi hududlar farqlanadi:

1. Hududiy EIHlar.
2. Funksional (nuqtali) EIHlar.

Hududiy – ajratilgan territoriyali hududlar bo'lib, u erda faoliyat yurituvchi barcha rezidentlar faoliyat turidan qat'iy nazar xo'jalik yuritishning imtiyozli tartibidan foydalanadi. Masalan, Xitoydagi EIHlar, “Manaus” hududi (Braziliya). Ushbu yondashuv amalga oshirilishiga rivojlangan mamlakatlardagi ko'pchilik eksport-ishlab chiqarish hududlari ham misoli bo'la oladi.

Funksional (nuqtali) – firma mamlakatning qaysi tumanida joylashishidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma'lum ko'rinishlari uchun qo'llaniladigan imtiyozli rejimdan foydalanishi mumkin. Ya'ni firma qaysi hududda joylashishidan qat'iy nazar ma'lum turdagi faoliyatga qo'llaniladigan imtiyozli tartib hududiga tegishli bo'ladi. Masalan, nuqtaviy hududlar Karib havzasidagi alohida korxonalaridan iborat offshor markazlari, turistik hududlar, Meksikadagi Makiladoras turidagi korxonalar, “dyuti fri” magazinlaridir. Bunday yondashuvdagi EIHlar “nuqtali” hududlar hisoblanadi.

EIHlarni tashkil etishning hududiy va funksional yondashuvining quyidagi turlari mavjud (1.4-rasm).



1.4-rasm. EIHlarni tashkil etishning hududiy va funksional yondashuvlari

Hududiy yondashuv asosida EIHlarni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ma'lum mintaqaning rivojlanish muammosini hal etishdan iborat va bunda ishtirok etuvchi va taqdim etilgan imtiyozardan foydalanuvchilar bo'lib EIHdagi korxonalar va

tashkilotlar hisoblanadi. Funksional yondashuv asosida EIHlarni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va alohida ustuvor sohani rivojlantirishlardan iboratdir. Ushbu yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatuvchilarga taqdim etilgan imtiyozlardan foydalanuvchilar bo‘lib joylashgan joyidan qat’iy nazar ma’lum turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalar va tashkilotlar hisoblanadilar.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, hududiy EIHlar, funksional (nuqtali) EIHlar, rezident, imtiyoz, korxonalar.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. Jahon amaliyotida EIHlarni tashkil qilishda ikki xil yondashuv: hududiy va funksional yondashuvga asoslaniladi.

2. Hududiy – ajratilgan territoriyali hududlar bo‘lib, u erda faoliyat yurituvchi barcha rezidentlar faoliyat turidan qat’iy nazar xo‘jalik yuritishning imtiyozli tartibidan foydalanadi.

3. Funksional (nuqtali) – firma mamlakatning qaysi tumanida joylashishidan qat’iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma’lum ko‘rinishlari uchun qo‘llaniladigan imtiyozli rejimdan foydalanishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon amaliyotida EIHlarni tashkil qilishda qanday yondashuvlar mavjud?

2. Jahon amaliyotida EIHlarni tashkil qilishda hududiy va funksional yondashuvga asoslanilishdan maqsad nima?

3. EIHlarni tashkil qilishda hududiy yondashuv nimalarni o‘z ichiga oladi?

4. EIHlarni tashkil qilishda funksional yondashuv nimalarni o‘z ichiga oladi?

5. EIHlarni tashkil qilishda hududiy va funksional yondashuvlarning farqi nimalardan iborat?

6. EIHlarni tashkil qilishda hududiy va funksional yondashuvda nimalarga asoslaniladi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Бекмуродов А.Ш., Қориева Ё.К., Нематов И.У., Набиев Д.Х., Каттаев Н.Т. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010. – 196 б.

2. Бондарев А.К. Международные экономические отношения: Учебник/ А.И.Евдокимов, А.К.Бондарев, С.М.Дроздов; Под ред. А.И.Евдокимов. – М.: Проспект, 2013. – 656 с.

3. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.

4. Мировая экономика /М.В. Пашковская, Ю.П. Господарик. – 4-е изд., перераб. И доп. – М.: Университет “Синергия”, 2017 – 768 с.

5. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебник под ред. А.С.Булатова. 3-е изд., стер. – Москва: КНОРУС, 2017. – 916 с.

6. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-

та, 2017. – 170 с.

7. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особие экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.

8. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.

9. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особие экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.

2-bob. ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

2.1. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishining huquqiy asosi

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish turli davlatlarda turli maqsadlarga asoslanadi.

O'z navbatida, EIHLarning mavjud bir qancha turlari ularni tashkil etishdagi maqsadlarning ham turli-tuman bo'lishi bilan farqlanishini ifodalaydi.

Turli shakldagi EIHLarning tashkil etilishi bir vaqtda va bir xil sharoitda yuz bermaydi. Ularga bo'lgan munosabat, imtiyoz va preferensiyalar, rivojlantirish masalalari doimo huquqiy asoslarda o'z aksini topib kelgan.

EIHLarni tashkil etish, ular faoliyatini amalga oshirish, rivojlantirish, tartibga solish va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar iqtisodiyotning boshqa hududlariga nisbatan farqlanishi bilan tubdan ajralib turadi.

Masalan, EIHLar mamlakat hududida alohida ma'muriy hududiga ega va faoliyat ko'rsatish xususiyati bilan maxsus qonunlar asosida huquqiy tartibga solib turilishi talab etiladigan hududlar hisoblansa-da, biroq, ayrim davlatlarda buning o'zgacha tomonlarini ham kuzatish mumkin.

Masalan, Xitoyda bugungi kunda 6 ta maxsus iqtisodiy hudud (MIH) (Shantou, Shenchjem, Chjuxay, Syamen, Xaynan, Pudun (Shanxay)) tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, mazkur hududlar uchun hamda yana 216 ta texnik-iqtisodiy hududlar, 146 ta yuqori texnologiyalar parklari, 13 ta erkin bojxona hududlari, 16 ta chegaradosh hududlar bilan iqtisodiy hamkorlik hududlar, Shanxay va 10 ta eksperimental erkin savdo hududi faoliyat ko'rsatishi uchun maxsus, alohida qonun qabul qilinmaganligi bilan ajralib turadi.

Xitoyda EIHLarni tashkil etish 1978-yildan boshlangan bo'lsa-da, biroq, hanuzgacha ular faoliyatini huquqiy tartibga solib turish bo'yicha alohida va maxsus qonunning ishlab chiqilmaganligi bilan, qolaversa, shunday huquqiy sharoitda ham EIHLarning faol rivojlanib borayotganligi e'tiborga molikdir. Bunga dalil sifatida shuni keltirish mumkinki, yuqorida keltirilgan 1-bobning 1.3-paragrafida qayd etilganidek, Xitoyda EIHLar joylashgan mintaqalarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar hajmi uning mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan 10 martaga ko'pdir. Shuning o'zi Xitoyda EIHLar qandalik tez rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

EIHLarni tashkil etishning huquqiy asoslari vujudga kelishi turli davlatlarda turli vaqtlarga asoslanadi.

Masalan, AQShda dastlabki EIHL tashkil etilishiga 1934-yilda asos solingan. Xitoyda 1978 yilda, Rossiya Federatsiyasida 1995-yilda, Belorusiyada 1998-yilda, O'zbekistonda 1996-yilda (dastlabki tashkil etilishi 2008-yilga to'g'ri keladi) asos

solingan.

Jumladan, EIHLar faoliyatining huquqiy asosini 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, AQShda 1934-yilda “Tashqi savdo hududlari to‘g‘risida”gi, Rossiyada 2005-yil 22-iyuldagi “Rossiya Federatsiyasi hududidagi erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi №116-FQ-sonli Qonun, Belorusiyada qabul qilingan 1998-yil 7-dekabrda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi “213-Z-sonli Qonun tashkil etadi.

Shuningdek, AQShda 1934-yilda qabul qilingan “Tashqi savdo hududlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan birga Tashqi savdo zonalar bo‘yicha Kengash, AQSh Savdo vazirligi va Bojxona xizmati vazirligi me‘yoriy hujjatlari hamda adminstrativ aktlar ham me‘yoriy asos sifatida xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasining 2005-yil 22-iyuldagi “Rossiya Federatsiyasi hududidagi erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi №116-FQ-sonli Qonuni bilan birga qonunosti huquqiy-me‘yoriy aktlar, 2010-yil 18-iyunda qabul qilingan Bojxona ittifoqining bojxona hududagi EIZlar va erkin bojxona hududlarida bojxona jarayonlari masalalari bo‘yicha Bitim va boshqa aktlar huquqiy-me‘yoriy asos sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy asos sifatida 1996-yil 25-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, tegishli Nizomlar xizmat qilmoqda.

Xitoy davlatida EIHLar faoliyatini huquqiy tartibga solishda EIHLar faoliyatiga o‘di maxsus qonun qabul qilinmagan. Biroq, boshqa qonunlar va meyo‘riy hujjatlar yordamida mamlakatdagi EIHLar faoliyati tartibga solib turiladi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, AQSh, Xitoy va Rossiya Federatsiyasida EIHLarni tashkil etish maqsadlari quyidagilardan iborat:

2.1-jadval.

AQSh, Xitoy va Rossiya Federatsiyasida EIHLarni tashkil etish maqsadlari

AQSh davlati	Xitoy davlati	Rossiya Federatsiyasi
- belgilangan (alohida – depressiv eski sanoat hududlari yoki alohida korxonalar qatoridagi sanoat tarmoqlari hududlari) hududlarda iqtisodiy faollikni kengaytirish yo‘li bilan jahon bozorida milliy sanoat raqobatbardoshligini; - ishsizlik darajasini	- turli siyosiy usullar bilan tajriba o‘tkazish; - xorij kapital, ilg‘or texnologiyalarni jalb etish; - valyuta tushumi miqdorini oshirish; - qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish; - mintaqalar o‘rtasidagi raqobatni rag‘batlantirish.	- iqtisodiyotning qayta ishlash, yuqori texnologiyali tarmoqlarini, turizmni, sanatoriya-kurort sohalarini, portli va transport infratuzilmalarini rivojlantirish; - texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning natijalarini tijoratlashtirish; - yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish.

pasaytirish.

O‘zbekiston Respublikasida 1996-yil 25-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq EIHLarni tashkil etish maqsadlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish.
2. Ushbu maqsad yo‘lida chet el kapitalini jalb qilish.
3. Hamda istiqbolli texnologiyalarni jalb qilish.
4. Va boshqaruv tajribasini jalb etish.

Belorusiya davlatida amaldagi qonunchilikka ko‘ra, EIHLar quyidagi maqsadda tashkil etiladi:

1. Belarus Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va alohida ma‘muriy-hududiy birliklarga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida;
2. Yangi va yuqori texnologiyalarga va EIHLarni tashkil etishda belgilanadigan boshqa maqsadlarga asoslangan eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etish maqsadida²⁶.

Demak, qonunchilikda mamlakatda EIHLarni tashkil etish maqsadlarini ko‘rsatish uning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

AQShda 1930-yillarda tashkil etilgan tashqi savdo hududlari mamlakatdagi Buyuk depressiyadan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilash, ishsizlik darajasini pasaytirish, milliy sanoatning jahon bozoriga chiqishida raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadlari bilan paydo bo‘lgan.

Buning natijasida bugungi kunda AQShda tashqi savdo hududlarining dengiz yoki okeanga chiqish imkoniga ega shtatlarida kontsentratsiyalashuvi yuz berdi. Masalan, Texas shtatida – 32 ta, Nyu-York shtatida – 16 ta, Florida shtatida – 21 ta, Kaliforniya shtatida – 17 ta shunday hududlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yoki tashqi savdo hududlarining suv kanallariga chiqish imkoni mavjud bo‘lmas-da, lekin, yirik sanoat komplekslari joylashgan shtatlarda (Ogayo – 9 ta, Indiana – 6 ta, Illinoys – 8 ta, Arizona – 7 ta va Michigan – 7 ta) mavjudligi va rivojlanganligini kuzatish mumkin.

Bu esa ayrim manbalarda, so‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatda mavjud 266 ta EIHLar soniga nisbatan ushbu shtatlarda 46 %dan ziyod EIHLar joylashganligidan dalolat beradi.

Mazkur hududlarning rivojlanishi mamlakatdagi qonunchilikdan tashqari, Jahon savdo tashkiloti, Bojxona ittifoqi va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, guruhlar tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarga muvofiq ta‘minlanib kelmoqda.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, Xitoyda EIHLar faoliyatini huquqiy tartibga solib turuvchi alohida qonun majud emasligi sababli EIHLarda korxonalar faoliyati, xorijiy kapitalni jalb etish, tashqi savdo, bojxona va soliq munosabatlarini tartibga solishda umumqabul qilingan qonunlarga hamda Xitoy Davlat Kengashi tomonidan qabul qilingan Qaror va Nizomlarga asoslanishini chiqaradi.

²⁶ Belarus Respublikasining 1998-yil 7-dekabrda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi “213-Z-sonli Qonuni, 3-modda.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, qonun, huquqiy asos, xorijiy investitsiya, imtiyoz, preferensiyalar, texnologiya, ishlab chiqarish.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

4. Jahon amaliyotida EIHlar faoliyatini huquqiy tartibga solish maxsus qonun hujjatlari bilan amalga oshiriladi. Bunda har bir mamlakat xalqaro huquqiy me'yorlarga amal qilgan holda EIHlar faoliyatini tartibga solib boradi.

5. EIHlarni tashkil etish va faoliyatini huquqiy tartibga solish bo'yicha dastlabki rasmiy qonuniy hujjat birini bo'lib 1934-yilda AQShda qabul qilingan. Shuningdek, Xitoyda EIHlar faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha shu kunga qabar maxsus qonun hujjati mavjud bo'lmagan. Bu esa EIHlar faoliyatini maxsus qonun hujjati bo'lmagan taqdirda ham tartibga solish mumkinligini ko'rsatadi.

6. EIHlar faoliyatini maxsus qonun hujjati bo'lmagan taqdirda boshqa hududlar vqa ularda faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlariga oid qonun hujjatlari bilan, shuningdek, EIHlar faoliyatiga doir alohida me'yoriy hujjatlar bilan ham tartibga solib turish mumkin. Buni Xitoy tajribalari tasdiqlay oladi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishning huquqiy asoslarini yaratishdan maqsad nima?

2. EIHlarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishda dastlabki qonun hujjati qachon va qaysi davlatda qabul qilingan?

3. EIHlarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishning maxsus qonun hujjati bo'lmagan davlat qaysi?

4. EIHlarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishning maxsus qonun hujjati bo'lmagan taqdirda davlat EIHlar faoliyatini tartibga solib turadi?

5. Rossiya Federatsiyasida EIHlarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishning huquqiy asosi qachon qabul qilingan?

6. Belarus Respublikasida EIHlarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishning huquqiy asosi qachon qabul qilingan?

2.2. Turli mamlakatlarda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida"gi qonunlar qiyosiy tahlili. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish uchun zaruriy hujjatlar

1973-yil imzolangan Kiota konvensiyasida EIHlarning qanday hudud ekanligi va uning ta'rifi nimani ifodalashiga aniqlik kiritilgan bo'lsa-da, biroq, erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va kengaytirish uni tartibga solishni ham taqozo etishi nuqtai nazaridan xalqaro darajada umumqabul qilingan standartlar hali ham mavjud emasligi bu sohadagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Kioto konvensiyasining maxsus **D IIovasi** EIHLarni tashkil etish va faoliyat olib borish masalalarini tartibga solish, EIH hududida maxsus bojxona rejimini qo'llash borasida milliy qonunchilikka tartibni mustaqil o'rnatish huquqini beruvchi umumiy yondashuvlarni belgilab beradi. Shunga ko'ra, har bir davlat milliy qonunchiligida EIHLarga tegishli talablar belgilab beriladi, ularda ruxsat etilgan tovarlar turlari, ularning EIHLarda joylashgan vaqtida amalga oshiriluvchi operatsiyalar tavsifi belgilab beriladi. EIH ta'sischi-davlatning bojxona xizmati EIHning muvofiqligiga mos faoliyatini bojxona nazoratidan o'tkazib boradi.

EIHLarga kiritilgan tovarlarga nisbatan ularni saqlash, qodaqlanishini yaxshilash yoki bozor sifatini oshirish maqsadida qayta ishlov berish yoki ularni jo'natish uchun tayyorlash maqsadida partiyalarga ajratish, qadoqlashni guruhlash, saralash va makalash, shuningdek, qayta qadoqlash kabilarga ham ruxsat etiladi.

Bu kabi munosabatlar EIHLar faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda zaruriy huquqiy asosga jiddiy ehtiyojni keltirib chiqaradi. Shu sababdan xalqaro miqyosda EIHLar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha bugungi kunda xalqaro standartlarning mavjud emasligi sababli har bir davlat o'z milliy qonunchiligi asosida EIHLar faoliyatini tartibga solib va rivojlantirib boradi.

Bunda EIHLar faoliyatiga doir masalalarda xalqaro amaliyot va kelishuvlarga amal qilinishining ko'zda tutilgan bo'lishi EIHLar rivojida, xususan, ularga tadbirkorlar, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasida erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlari masalalari o'z aksini topgan. Ushbu moddada belgilanishiga ko'ra, erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

EIHLar faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish ularda dastlabki EIHLar tashkil etilishi, rivojlanishi, ular faoliyatining qonunchilik asosida tartibga solinishi bo'yicha muayyan bilim, tasavvur va tushunchalarni hosil qilishga imkon beradi.

EIHLarni tashkil etishda xalqaro konvensiyalarga amal qilish EIHLarni tashkil etgan davlatlar milliy qonunchiligida ham o'z aksini topishida namoyon bo'lishini taqozo etadi. Bundan ko'zlangan maqsad xalqaro me'yorlarga muvofiqlikni ta'minlash va xalqaro xavfsizlikni saqlashga amal qilishdan iboratdir. Shunga ko'ra, EIHLarni tashkil etgan har bir davlat **Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmiga** ham amal qilishi talab etiladi.

Bu esa EIHLarda Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishni ta'minlashni ham nazarda tutadi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, yuridik shaxslar tomonidan xorijiy investorlarni jalb etgan holda jahon bozorida chiqindilar chiqarishning

sertifikatlangan qisqartirishlarini sotib olishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun asos yaratadi.

Kioto Protokoli – Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Hadli Konvensiyasi (IO‘HK) 1997-yil 11-dekabrda qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1999-yil 20-avgustda ratifikatsiya qilingan va 2005-yil 16-fevraldan boshlab kuchga kirgan bo‘lib, “parnik effekti”ni hosil qiluvchi gazlarni atmosferaga chiqarishni qisqartirish mexanizmlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 6-dekabrda PQ-525-son Qaroriga muvofiq Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo‘yicha (MRM) *Idoralararo kengash* tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo‘yicha *Milliy organ* hisoblanadi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskori tomonidan MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, arizaga MRM bo‘yicha nazarda tutilayotgan investitsiya loyihasi to‘g‘risidagi umumiy axborot ilova qilinadi. Loyiha bo‘yicha buyurtmanoma O‘zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi bilan kelishiladi. Zarurat bo‘lganda, loyiha bo‘yicha buyurtmanomaga kiritish uchun MRM Milliy organi tomonidan loyiha bo‘yicha qo‘shimcha axborot va hujjatlar so‘rab olinishi mumkin. MRM Milliy organi loyiha bo‘yicha buyurtmanoma taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda loyihani MRM doirasida barqaror rivojlanish milliy mezonlariga muvofiq amalga oshirish mumkinligini ko‘rib chiqadi. Loyihani MRM doirasida amalga oshirish mumkinligi to‘g‘risidagi masala ijobiy ko‘rib chiqilgan taqdirda MRM Milliy organi Idoralararo kengashga loyiha bo‘yicha buyurtmanomani ma‘qullash uchun loyihani amalga oshirish mexanizmi bo‘yicha xulosa hamda loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo‘yicha tanlov hujjatlariga asosiy talablar bilan birga kiritadi. Idoralararo kengash taklifni taqdim etilgan hujjatlar asosida ko‘rib chiqadi va loyihani amalga oshirish mumkinligi to‘g‘risida yohud loyihani puxtalashtirish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Loyihani amalga oshirish mumkinligi to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda Idoralararo kengash tomonidan, zarurat bo‘lganda, ayni bir vaqtda investor tanlash bo‘yicha tanlov komissiyasi tarkibi, tanlovni o‘tkazish muddatlari va loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo‘yicha tanlov hujjatlariga talablar tasdiqlanadi. Idoralararo kengash tomonidan loyihani amalga oshirish to‘g‘risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda MRM Milliy organi uch kun muddatda loyiha tashabbuskorini rasmiy ravishda xabardor qiladi, xabarnomada loyihani amalga oshirishning tavsiya etilayotgan mexanizmini hamda loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo‘yicha tanlov hujjatlariga asosiy talablarni ko‘rsatadi. Loyihani xalqaro moliya institutlari orqali amalga oshirish mexanizmini tanlashda loyiha-texnik hujjatlarni (LTH) tayyorlash, investorlarni, vakolatli operativ organlarni va chiqindilarning sertifikatlangan qisqartirishlari xaridorlarini tanlash tegishli xalqaro moliya institutlari tomonidan belgilangan tartibotlarga muvofiq amalga oshiriladi. MRM Milliy organi tomonidan

tanlov asosida tanlab olish zarurligi ko'rsatilgan taqdirda loyiha tashabbuskori loyihani amalga oshirish uchun Idoralararo kengash tomonidan belgilanadigan muddatlar va talablarga muvofiq investor tanlash bo'yicha tanlov e'lon qiladi.

Ikkinchi bosqichda tashabbuskor tomonidan MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, unga quyidagilar ilova qilinadi:

- muzokaralar davomida erishilgan dastlabki va yakuniy qiyosiy jadvallar, loyiha tashabbuskori tomonidan tanlangan taklif ko'rsatilgan holdagi tanlov qatnashchilari takliflari;

- MRM tartibotlariga muvofiq ishlab chiqilgan rus va ingliz tillaridagi loyiha-texnik hujjatlar;

- loyihani amalga oshirishning oylar bo'yicha jadvali;

- Hidrometeorologiya xizmati markazining loyiha bo'yicha ijobiy xulosasi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining loyiha bo'yicha ijobiy ekologik xulosasi.

Quyidagilar Idoralararo kengash tomonidan loyihani baholashning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligi;


- loyihaning ekologiya talablariga muvofiqligi;

- texnologik asbob-uskunalarining zamonaviy sifat standartlariga muvofiqligi.

Idoralararo kengash ikki hafta muddatda takliflarni taqdim etilgan hujjatlar asosida ko'rib chiqadi va loyihani amalga oshirishning mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi. MRM bo'yicha loyiha amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihasiga qo'shimcha deb hisoblangan taqdirda asosiy investitsiya loyihasini tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish tartibi ana shunday loyihalar uchun tadbir etiladigan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Asosiy investitsiya loyihasi bo'yicha dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash tasdiqlanguncha yohud O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro moliya institutlari o'rtasida o'zaro hamfikrlik to'g'risidagi memorandum imzolanguncha loyiha bo'yicha buyurtmanoma berish bosqichida MRM bo'yicha loyiha komponentini amalga oshirish yuzasidan Idoralararo kengashning ijobiy qarorini olish zarur. Idoralararo kengashning loyihani amalga oshirish to'g'risida ijobiy qarori qabul qilingan taqdirda MRM Milliy organi loyiha tashabbuskorini rasmiy ravishda xabardor qiladi va IO'HK Ijro etuvchi kengashiga loyiha bo'yicha ma'qullash xati jo'natadi. MRM Milliy organidan ma'qullash xati olingandan keyin MRM loyihasi tashabbuskori validatsiya (loyihani tasdiqlash to'g'risidagi qaror) qilish va keyinchalik loyihani IO'HK Ijro etuvchi kengashida MRM tartibotlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazish uchun tegishli Vakolatli organni tanlash bo'yicha mas'ul hisoblanadi. Loyiha-texnik hujjatlar ekspertizadan ijobiy o'tkazilganda va Vakolatli operativ organ tomonidan tasdiqlanganda loyiha tashabbuskori Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamentiga MRM loyihasini amalga oshirish to'g'risida Hukumat qarori loyihasini kiritadi. MRM loyihasi tashabbuskori shuningdek, chiqindilar chiqarishning kamayishi monitoringi, MRM talablariga muvofiq chiqindilar chiqarishning qisqarishini tasdiqlash va sertifikatlash bo'yicha

tadbirlarning bajarilishi uchun javob beradi. Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha investitsiya loyihalariga nisbatan qo'llanadigan Barqaror rivojlanish milliy mezonlari quyidagi 2.1-rasmda aks ettirilgan.



2.1-rasm. Barqaror rivojlanish milliy mezonlari

Iqtisodiy mezonlar:

- tayyor mahsulot birligi hisobiga energiya va xomashyo sarfini kamaytirish;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan ishlab chiqarish samaradorligini yoki tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- O'zbekiston Respublikasida bozorning xususiy sektorini rivojlantirishga ko'maklashish.

Ekologik mezonlar:

- atrof-muhitning saqlanishiga va yomonlashishining oldini olishga ko'maklashish;
- tabiiy xomashyo sarfini va ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytirish;
- xomashyodan takroriy foydalanishga va tiklanayotgan tabiiy resurslardan foydalanishga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish;
- atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish.

Ijtimoiy mezonlar:

- aholining ish bilan bandligining o'sishiga va haqiqiy daromadlarining oshishiga ko'maklashish;
- loyihani amalga oshirishga jalb etilgan xodimlarning va loyiha amalga oshirilayotgan hududda yashaydigan aholining sog'lig'ini yaxshilash;
- aholining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalaridan xabardorligini oshirish.

Tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasi barcha Barqaror rivojlanish milliy mezonlarini qondirishi shart emas, lekin, ko'rsatib o'tilgan mezonlarga muvofiq mamlakatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Xitoyda EIHLar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur holatda bu sohada huquqiy tartibga soluvchi bo'lib Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) Davlat Kengashi faoliyat ko'rsatadi.

XXR Davlat Kengashi mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni muvofiqlashtirish bo'yicha yetakchi davlat organi hisoblanadi.

Hozirgi kunda xorijiy investitsiyalarga talluqli quyidagi qonunlar amal

qilmoqda:

1. “Xitoy va xorijiy kapitalidagi payli qo‘shma korxonalar to‘g‘risida”gi XXR Qonuni (03.09.2016 yil) va uni tadbiq etish bo‘yicha Nizom.

2. “Kooperatsion (shartnomali) qo‘shma korxonalar to‘g‘risida”gi XXR Qonuni (03.09.2016) va uni tadbiq etish bo‘yicha Nizom.

3. “Xorij kapitali korxonasi to‘g‘risida”gi XXR Qonuni (12.04.1986 yil – oxirgi o‘zgarishlar bilan).

4. “Xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi XXR Davlat Kengashi Nizomi (11.10.1986 yil – oxirgi o‘zgarishlar bilan).

5. “Tashqi savdo to‘g‘risida”gi XXR Qonuni (12.05.1994 yil – oxirgi o‘zgarishlar bilan).

6. “Xitoy va xorijiy kapitalidagi payli qo‘shma korxonalar umumiy investitsiyalar hajmi va Ustav kapitali nisbati to‘g‘risidagi Vaqtinchalik Nizom”, 01.03.1987 yil (XXR Bosh savdo-sanoato boshqarmasi tomonidan chop etilgan).

7. “Xorijiy korxonalarining doimiy vakolatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom” (XXR Davlat Kengashi Qarori bilan tasdiqlangan, №584, 19-noyabr 2010 y.)

2017-yildan boshlab Xitoyda “Sanoat tarmog‘ida xorijiy investitsiyalar yo‘nalishlari”ning umummilliy ro‘yxati amal qiladi. Unda xorijiy investitsiyalar uchun 348 ta rag‘batlantirish, 35 ta cheklovchi va 28 ta man etilgan tarmoqlari o‘rin olgan. Ular qatorida 2017 yil iyun oyidan boshlab XXR Davlat Kengashi Devonxonasi Xabarnomasi bilan xorijiy investitsiyalarning turli cheklanishlar bilan bog‘liq 39 ta tarmoqdan iborat 11 ta eksperimental erkin savdo zonalari uchun alohida ro‘yxat (“salbiy ro‘yxat”) kuchga kiritildi. Erkin savdo zonalaridagi boshqa tarmoqlar esa xorijiy investorlar uchun ochiq hisoblanadi.

Kelgusida xorijiy investiyalar uchun milliy darajadagi iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, xizmatlar ko‘rsatish, ishlab chiqarish va tog‘-kon sanoati sohalarini ochish ko‘zda tutilmoqda.

2017-yil davomida XXRda erkin savdo hududlarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi:

1. XXR Davlat Kengashining Xabarnomasi, №23, 30.03.2017 yil – “Xitoy (Shanxay) eksperimental erkin savdo hududi (ShESH)da ochiqlik va islohotlarning har tomonlama chuqurlashtirilgan siyosatini nashr etish to‘g‘risida”.

Mazkur dasturning maqsadi ShESHni 2020-yilga borib savdo va investitsiyalash, haqqoniy va samarali nazorat tizimi va qulay biznes muhitining umumqabul qilingan xalqaro qoidalariga muvofiq keluvchi jahon darajasidagi yuqori klassli erkin savdo hududiga aylantirish, shuningdek, “Pudin Sintsyu” tumani va Shanxay shahrida to‘lig‘icha keng qamrovli uchish islohotlarini amalga oshirish tajribasini yoyishdan iborat.

2. XXR Davlat Kengashining Xabarnomasi, №51 05.06.2017 yil – “Erkin savdo hududlariga xorijiy investitsiyalar kirishini maxsus tartibga solish chora-tadbirlari (salbiy ro‘yxat) nashri to‘g‘risida” (10.07.2017 yildan kuchga kirgan) – 40 ta faoliyat turi (oldingi (salbiy ro‘yxat) nashrga nisbatan solishtirganda 10 ta faoliyat turi va 27 ta maxsus tartibga solish hisobdan chiqarilgan) 95 ta maxsus tartibga solishni

(cheklangan va man etilgan) belgilab beradi.

Man etilgan faoliyat turlari xorijiy investitsiyalar uchun yopilgan. Cheklangan sohalarda xorijiy investitsiyalar faoliyat olib borishlari uchun ruxsatnoma olish talab etiladi. “Salbiy ro‘yxat”da ko‘rsatilmagan faoliyat sohasidagi xorijiy investitsiyalar xitoylik va xorijiy investorlar tengligi tamoyili asosida erkin faoliyat olib borishlari mumkin.

XXR qonunchiligidagi asosiy o‘zgarishlar:

2017-yilda va 2018-yil boshida Xitoyda Xitoy kompaniyalarining xorijiy investitsiyalarini cheklovchi dir qator huquqiy aktlar nashr etildi:

- “Markaziy bo‘ysinuvdagi korxonalar xorijiy investitsiyalarini nazorat qilish va tartibga solish Qoidalari” (XXRning Davlat Kengashining Davlat mulkini nazorat qilish va boshqarish bo‘yicha Komiteti buyrug‘i bilan tasdiqlangan, №35, 07.01.2017 yil);

- “XXR korxonalarini tomonidan xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish to‘g‘risidani Nizom” (№11, 26.12.2017 yil);

- “XXR RIDK (Rivojlanish va islohotlar bo‘yicha davlat qo‘mitasi), Tijorat vazirligi, Xalq banki ning xorijiy investitsiyalarning kelgusi yo‘nilishlari va tartibga solinishi to‘g‘risidagi boshqaruv ko‘rsatmalari” (XXR Davlat Kengashi Devonxonasi hujjati, №74, 04.08.2017 y.);

- “Xorijiy investitsiyalar uchun ta’sirchan tarmoqlar Ro‘yxati” (XXR RIDK buyrug‘i bilan tasdiqlangan, №251, 31.01.2018 yil, 01.03.2018 yildan kuchga kirgan);

- “Xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishga ariallarni ro‘yxatdan o‘tkazish (tasdiqlash)ning vaqtinchalik Qoidalari” (XXR Tijorat vazirligi, Xalq banki va XXRning Davlat Kengashining Davlat mulkini nazorat qilish va boshqarish bo‘yicha Komiteti buyrug‘i bilan tasdiqlangan, №24, 18.01.2018 yil).

2017-yilda Xitoy iqtisodiyotiga jalb etiluvchi xorijiy investitsiyalarni tartibga solish sohasida quyidagi me‘yoriy aktlar qabul qilindi:

- XXR Davlat Kengashi Devonxonasi Xabarnomasi, №51, 05.06.2017 yil – “2017 yilga erkin savdo hududlariga) salbiy ro‘yxat) xorijiy investitsiyalar kirishini maxsus tartibga solish chora-tadbirlari” nashri to‘g‘risida” (10.07.2017 yildan kuchga kirgan).

- “Sanoat tarmoqlariga xorijiy investitsiyalar yo‘nalishlari ro‘yxati” (XXR RIDK va Tijorat vazirligi buyrug‘i bilan tasdiqlangan, №4, 28.06.2017 yil).

- XXR RIDK va Tijorat vazirligining 30.07.2017 yildagi “Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ta’sis hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va o‘zgartirishning vaqtinchalik tartibini o‘o‘zgartirish to‘g‘risida”gi Qarori.

Bundan tashqari, investorlar manfaatlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish doirasida 2018-yil 25-sentabrda Xitoy xalqaro iqtisodiy va tijorat arbitraj komissiyasi (CIETAC) mamlakatda birinchi marta Xitoy qonunchiligida, xususan, investitsion arbitrajni tartibga solishda mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan “Xalqaro investitsion kelishmovchilik (spor)larni ko‘rib chiqishning arbitraj Qoidalari”ni nashr etdi.

Agar ilgari xitoylik investorlar kelishmovchiliklar paydo bo‘lgan taqdirda faqat

Investitsion kelishmovchiliklarni hal etish bo'yicha xalqaro Markaz (ICSID) bilan hisoblashishgan bo'lsa, endi ular uchun Xitoy arbitraj organlariga murojaat qilish imkoniyatlari ochildi.

Hozirgi vaqtga qadar mazkur sohada asosiy huquqiy hujjat – **“Xorijiy investitsiyalar to'g'risida”gi Qonun** hali qabul qilinmadi (qonun loyihasi XXR Tijorat vazirligi tomonidan muhokama uchun 2015-yil 19-yanvarda nashr va taqdim etilgan). Muhokama hali davom etmoqda.

Rossiya Federatsiyasida mazkur sohaga oid qonun 2005-yildan qabul qilingan.

Ya'ni Rossiya Federatsiyasining “Rossiya Federatsiyasida maxsus iqtisodiy hududlar to'g'risida”gi Qonuni 2005-yil 22-iyulda №116-FQ bilan qabul qilingan.

Mazkur qonun 10 ta bob, 41 ta moddadan iborat.

Qonunga o'tgan vaqt davomida 21 marta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan – 2006-yil 3-iyundan boshlab 2017-yil 18-iyulga qadar sana bo'yicha.

Rossiya Federatsiyasining “Rossiya Federatsiyasida maxsus iqtisodiy hududlar to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq 1-bob (1-5-moddalar)da umumiy holat, 2-bob (6-modda)da RF hududida MIHlarni tashkil etish va amaldagisini tugatish tartibi, 3-bob (7-8-moddalar)da MIHlarni boshqarish, 4-bob (9-11-moddalar)da MIHlar rezidentlarining huquqiy holati, 5-bob (12-21-moddalar)da sanoat-ishlab chiqarish, texnik-tadbiq etish, turistik-rektatsion faoliyat yoki port MIHlarida faoliyat amalga oshirish to'g'risida kelishuv, 6-bob (6.1 va 6.2-boblar birgina shu bobda mavjud bo'lgan) o'z kuchini yo'qotgan, 7-bob (32-35-moddalar)da MIHlar joylashgan chegaralarda er uchastkalarini taqdim etish va ko'rsatilgan yer uchastkalaridan foydalanish tartibi, 8-bob (36-37-moddalar)da MIHlar hududlarida erkin savdo hududlarining bojxona protsedurasini qo'llash, 9-bob (38-39-moddalar)da MIHlar rezidentlariga kafolatlarni taqdim etish, 10-bob (40-41-moddalar)da yakuniy holatlar aks ettirilgan.

Rossiya Federatsiyasining “Rossiya Federatsiyasida maxsus iqtisodiy hududlar to'g'risida”gi Qonunining 10-bobida keltirilgan yakuniy holatlar (41-42-moddalar)ga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi hududida tashkil etilgan MIHlarning faoliyati to'xtalishi mumkin (41-modda asosida).

Biroq, (42-moddaga muvofiq) mazkur holat Kaliningrad viloyatidagi MIH to'g'risidagi Federal Qonun va Magadan viloyatidagi MIH to'g'risidagi Federal Qonun bilan tartibga solinuvchi munosabatlarga taalluqli emasligi ham qayd etib o'tilgan.

Belorus Respublikasida 1998-yil 7-dekabrda “Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi “213-Z-sonli Qonun qabul qilinib, mazkur qonun 6 ta bob, 27 ta moddadan iborat. Ushbu qonunda mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan 6 ta EIHLar (“Brest”, “Minsk”, “Gomel-Raton”, “Vitebsk”, “Mogilev” va “Grodnoinvest” EIZlari) va erkin bojxona hududlari kabilarni tartibga solish bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy asoslarini o'zida mujassam etgan. Mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan 6 ta EIHLning dastlabkisi (“Brest” EIZsi) 1996-yilda, so'nggisi (“Mogilev” va “Grodnoinvest” EIZlari) esa 2002-yilda tashkil etilgan.

Bundan tashqari, mamlakat Prezidenti tomonidan mavjud EIHLar maydonlarini o'zgartirish va amaldagi farmonlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha

bir qator tegishli farmonlar qabul qilingan.

EIHLarni tashkil etish uchun zaruriy hujjatlar turli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Shuningdek, ularda umumiy o'xshashlik jihatlari ham kuzatilishini ta'kidlab o'tmoq lozim.

Belorus Respublikasining 1998-yil 7-dekabrda "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi "213-Z-sonli Qonuniga muvofiq, EIHLarni tashkil etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi shart:

- nomi, tashkil etilishi muddati, maqsadi, turi, o'ziga xos xususiyatlari, tashkil etilish va rivojlantirish choralari ko'rsatilgan EIHLni tashkil etish to'g'risidagi Belorus Respublikasi Prezidentining farmoni loyihasi;

- EIHL to'g'risidagi Nizom loyihasi;

- EIHL boshqaruvi Ustavi loyihasi;

- EIHLni rivojlantirishga mas'ul shaxslar va tashkilotlar, uni moliyalashtirish manbalari ko'rsatilgan holdagi dastur loyihasi;

- EIHL joylashishi nazarda tutilgan yerning chegaralari ko'rsatilgan yer-kadastr rejasi nuxsasi;

- EIHL joylashishi nazarda tutilgan hududda yer tarkibi, mulkdorlar, ta'sischilar hamda ijarachilar va foydalanuvchilar ro'yxati;

- EIHL joylashishi nazarda tutilgan hududda joylashgan faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar va yakki tartibdagi tadbirkorlar ro'yxati;

- EIHL turi va tegishli hududdagi maxsus ekologik va iqtisodiy shart-sharoitlari, uning moddiy va mehnat resurslari, kommunikatsiyalar bilan ta'minlanganligi, shuningdek, EIHLning maxsus huquqiy rejimining nazarda tutilgan xususiyatlari moliyaviy-iqtisodiy asoslangan holda tashkil etilishining zarurligi va imkoniyatlarining texnik-iqtisodiy asosnomasi.

Mazkur hujjatlar to'planganidan so'ng Belorus Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibga muvofiq Belorus Respublikasi Prezidenti huzuriga ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun kiritiladi²⁷.

Belorus Respublikasi Prezidenti barcha huquqiy asoslar va zaruriy hujjatlar to'liq mavjud bo'lgan holatda EIHLni tashkil etish bo'yicha farmonni imzolaydi.

Shunga o'xshash EIHLarni tashkil etish tartibi va huquqiy asoslari boshqa mamlakatlar amaliyotida ham kuzatiladi va amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, qonun, huquqiy asos, me'yoriy hujjat, loyiha, qaror, qoida, nizom.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Xitoyda EIHLar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda hamda ularga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) Davlat Kengashi asosiy davlat organi sifatida faoliyat ko'rsatadi. XXR Davlat Kengashi XXR Qonunlari asosida tegishli qarorlar, nizomlar, qoidalarni ishlab chiqadi va qabul qiladi. ular Xitoy mamlakati

²⁷ Belorus Respublikasining 1998-yil 7-dekabrda "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi "213-Z-sonli Qonuni, 11-moddasi.

barcha yuridiy shaxslari va fuqarolari uchun qonuniy hujjat sifatida birdek amal qiladi.

2. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish boradsi Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida muayyan o‘xshashliklar mavjudligi kuzatiladi. Bu esa mazkur davlatlarda EIHLarning deyarli o‘xshash rejim va muhitda faoliyat ko‘rsatishlarini ta‘minlashda hamda ular bilan hamkorliklarni o‘rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. EIHLarni tashkil etish tartibi va huquqiy asoslari har bir davlatda o‘ziga xos bo‘lsa-da, biroq, ma‘lum o‘xshashliklar mavjudligini e‘tirof etish lozimdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Xitoyda EIHLarni tashkil etishning huquqiy-me‘yoriy asoslari tizimi nimalardan iborat?

2. Xitoyda EIHLarni tashkil etishning huquqiy-me‘yoriy asoslarida so‘nggi yillarda qanday o‘zgarishlar kuzatilmoqda?

3. Rossiya Federatsiyasida EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishning huquqiy asoslariga baho bering.

4. Belarus Respublikasida EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishning huquqiy asoslariga baho bering.

5. Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasida EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishning huquqiy asoslariga qiyosiy baho bering.

6. EIHLarni tashkil etish uchun qanday hujjatlar bo‘lishi va taqdim etilishi zarur hisoblanadi?

2.3. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasida EIHLar faoliyati O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 220-I-sonli Qonuni bilan tashkil etiladi, tartibga solinadi va muvofiqlashtiriladi.

Mazkur qonun tarkibiga ko‘ra, 3 ta bob va 27 ta moddadan iborat.

1-bob “Umumiy qoidalar” deb nomlanib, u 1-10-moddalarni o‘z ichiga qamrab olgan.

2-bob “EIZlarning huquqiy tartiboti” nomi ostida 11-19-moddalardan tashkil topgan.

3-bob “EIZlarni boshqarish” nomi bilan 20-27-moddalardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq erkin iqtisodiy zona (EIZ) hududida yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yiladi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari esa bundan mustasnodir.

EIZlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat bo‘lib. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining EIZlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan

boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi (2-modda).

3-modda. Erkin iqtisodiy zonani tuzish.

EIZ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etilib, uning maqomi, shuningdek, uning qancha muddatga tashkil etilishi mazkur zonani tashkil etish to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi. EIZning chegaralari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi hamda uning faoliyat ko'rsatish muddatini uzaytirish belgilangan muddat tugashidan kamida uch yil oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan amalga oshiriladi (3-modda).

EIZning maqomi uni tashkil etish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddat tugaganidan keyin, uni tashkil etish to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan vazifalar bajarilmaganda va maqsadlarga erishilmaganda tugatiladi. Bunda uning maqomini tugatish to'g'risidagi qaror belgilangan muddat tugashidan kamida uch yil oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi (4-modda).

Amaldagi qonunchilikka (5-modda) muvofiq, O'zbekistonda EIZlarning quyiagi turlari faoliyat ko'rsatadi:

- erkin savdo zonalari;
- erkin ishlab chiqarish zonalari;
- erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar tarzida tuzilishi mumkin.

Erkin savdo zonalari konsignatsiya omborlarini, erkin bojxona zonalari, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni o'rash-joylash, saralash, saqlash zonalari o'z ichiga oladi. Erkin savdo zonalari chegaraga tutash punktlarda, aeroportlarda, temir yo'l uzellarida yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining boshqa joylarida tuziladi.

Erkin ishlab chiqarish zonalari – tadbirkorlikni rag'batlantirish, iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish, istiqbolli texnologiyalarni joriy etish maqsadida xo'jalik-moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlar. Erkin ishlab chiqarish zonalari eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalari, agropolislarini, tadbirkorlik zonalari, industrial-iqtisodiy zonalarni va boshqa zonalarni o'z ichiga oladi.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u erda ilmiy-ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari – texnopolislar shaklida tashkil etiladi (6-8-moddalar).

O'zbekiston Respublikasi EIZ hududida faoliyat yuritayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi. EIZlarda investorlarning O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha kafolatlari va imtiyozlariga rioya etilishi ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan qo'shimcha kafolatlar va imtiyozlar nazarda tutilishi mumkin. Davlat organlari va boshqa organlar yohud mansabdor shaxslarning yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatiga

asossiz aralashuvi natijasida ularga yetkazilgan zararning o'zni, shuningdek, boy berilgan foyda hamda yetkazilgan ma'naviy ziyon sud tartibida qoplanishi yoki kompensatsiya qilinishi kerak (9-modda).

EIZ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan dasturga muvofiq rivojlantiriladi. EIZni rivojlantirish dasturi ishlab chiqarish va bozor infrastrukturasi yaratishni, alohida huquqiy tartibotni ta'minlashni, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini iqtisodiy rag'batlantirish choralarini o'z ichiga oladi. EIZni rivojlantirish dasturini moliyaviy ta'minlash zonaning o'z resurslari hamda xususiy va boshqa manbalardan mablag'lar jalb etish, shu jumladan, xalqaro dasturlar hisobiga, shuningdek, mazkur hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga respublika budjetidan va mahalliy budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi (10-modda).

Qonunning 11-moddagiga ko'ra, EIZlarda alohida bojxona, valyuta, soliq tartiboti, shuningdek, fuqarolar kirishi, chiqishi va bu erda bo'lishining, mehnat munosabatlari, moliya-kredit faoliyatining alohida tartiboti hamda investitsiyalarni jalb etishga, tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga va zonani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan boshqacha tartibot o'rnatilishi mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslarning alohida huquqiy tartibotni buzish yo'li bilan olgan daromadi (foydasi) qonun hujjatlariga muvofiq undirib olinadi.

Shuningdek:

- tovarlarni olib kirish va olib chiqish uchun bojxona bojlarini bekor qilish yoki kamaytirishni;

- eksport yoki import uchun tarifdan tashqari cheklashlarni bekor qilish yoki yengillashtirishni;

- tovarlarni belgilangan tartibda albatta bayonnomaga kiritgan holda erkin iqtisodiy zonaning bojxona chegarasi orqali olib o'tishning soddalashtirilgan tartibini nazarda tutuvchi alohida bojxona tartiboti ham qo'llaniladi. EIZ hududida alohida bojxona tartibotini O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari ta'minlaydi. Bundan EIZ hududi orqali tovarlarni tranzit olib o'tishga nisbatan tadbir etilmaydi (12-modda). Bundan tashqari, EIZlarda alohida valyuta tartiboti milliy va chet el valyutalarining erkin muomalada bo'lishi hamda ayirboshlanishi ta'minlanadi va uning amal qilish tartibini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi (13-modda).

EIZ hududidagi xo'jalik faoliyati qatnashchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) mamlakat investorlari va chet ellik investorlar uchun teng shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda qonun hujjatlarida belgilanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish huquqiga egadirlar (14-modda). Bu esa mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

EIZdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlash uchun, eng avvalo, mahalliy mehnat resurslari jalb etiladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa mintaqalarida yashovchi shaxslar va chet el fuqarolari ham qonun hujjatlariga muvofiq jalb etilishi mumkin. Bunda EIZlarda mehnat munosabatlari qonun hujjatlari, jamoa shartnomalari (kelishuvlari) va yakka tartibdagi mehnat shartnomalari (kontraktlari) asosida amalga oshiriladi va tartibga solinadi. Mazkur

qonun jamoa shartnomalari va yakka tartibdagi mehnat shartnomalari ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlar xodimlarining ahvoli qonun hujjatlarida, shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi ham qatnashchisi bo'lgan konvensiyalarida nazarda tutilgan shartlarga nisbatan yomonlashiga yo'l qo'ymaslik shartini ham ta'minlaydi (15-16-moddalar).

EIZ mustaqil budjetga ega bo'lib, uni shakllantirish bosqichida kreditlar berish yoki ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura obyektlarini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash tarzida respublika budjeti va mahalliy budjetdan mablag'lar jalb etilishi mumkin. Shuningdek, uning budjeti EIZning Ma'muriy kengashi foydalanishi va boshqaruvida bo'lgan yer, binolar va inshootlarni ijaraga berishdan, xizmatlar ko'rsatishdan keladigan tushumlardan va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlardan shakllantiriladi (17-modda).

EIZga chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirishi, iqtisodiy zonadan chiqishi va shu hududda bo'lishining qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan soddalashtirilgan tartiboti joriy etilishi mumkin bo'lib (18-modda), bunda EIZ qatnashchilarining investitsiyalari va tavakkalchiligini sug'urta qilish ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi. Sug'urta himoyasi qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlanadi (19-modda).

Erkin iqtisodiy zonaning boshqaruv organlari uning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Ma'muriy kengash va operativ boshqaruv organi bo'lgan EIZ direksiyasidan tashkil topgan (20-modda).

Ma'muriy kengash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuzilib, unga Kengash rais boshchilik qiladi. EIZning chegaralari O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi (tuman, shahar, shahardagi tuman) chegarasiga to'g'ri kelgan taqdirda, Ma'muriy kengash raisining vazifalarini ijro etish tegishli hokim zimmasiga yuklanadi (21-modda). Qonunning 22-moddasiga ko'ra, Ma'muriy kengash bir qator vakolatlarga ega hisoblanadi, ya'ni:

- alohida huquqiy tartibotga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi;
- erkin iqtisodiy zonada joylashtirish uchun investorlar tanlovini amalga oshiradi;
- erkin iqtisodiy zonaning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- erkin iqtisodiy zonaga investitsiyalarni jalb etish uchun qo'shimcha shartlar belgilaydi;
- erkin iqtisodiy zonaning har yilgi budjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Ma'muriy kengash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin va uning o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari EIZ hududidagi xo'jalik faoliyati qatnashchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) ijro etishi uchun majburiy hisoblanadi.

Qonunning 23-moddasida EIZda davlat mulki (er, suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar, binolar, inshootlar) huquqining o'ziga xos jihatlari, ularning mahalliy hokimiyat tomonidan Ma'muriy kengashga topshirilishi yoki ushbu

Kengashning mazkur boyliklardan oqilona foydalanilishi, ularning muhofaza qilinishi ustidan nazoratni ta'minlashi, amaldagi qonunchilikka ko'ra, xususiy mulk qilib sotishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

EIZ direksiyasiga oid masalalar 24-moddada o'z aksini topgan va unga ko'ra, Direksiya yuridik shaxs bo'lib, u qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi va u:

- alohida huquqiy tartibotning amal qilishini ta'minlaydi;
- Ma'muriy kengash tomonidan tanlab olingan investorlar majburiyatlari lozim darajada bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- EIZni rivojlantirish dasturi amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- EIZ hududida xo'jalik faoliyati qatnashchilarining (yuridik va jismoniy shaxslarning) ro'yxatdan o'tkazilishini amalga oshiradi;
- ekologik holatning yaxshilanishi ustidan nazoratni ta'minlaydi, shuningdek, tarixiy-madaniy boyliklarning but saqlanishi uchun javobgar bo'ladi.

Direksiya qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Biroq, u yuridik va jismoniy shaxslarning operativ xo'jalik, moliyaviy faoliyatiga hamda boshqa faoliyatiga aralashishga haqli emaslar (qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno).

Qonunning 25-moddasida EIZ hududida xo'jalik faoliyati qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi va talablari o'z aksini topgan. Unga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslar direksiyada ro'yxatdan o'tish uchun ular direksiyaga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning ko'chirma nusxasini taqdim etadi. Shundan so'ng Direksiya ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik yoki jismoniy shaxsga erkin iqtisodiy zonada ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma beradi va bu haqda tegishli davlat boshqaruvi organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabar qiladi.

O'z navbatida, 25 va 26-moddalarga muvofiq, EIZda faoliyati tugatilgan yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qayta tashkil etilishi ham mumkin. Qayta tashkil etilgan va tugatilgan taqdir korxonada mehnat shartnomasi (kontrakt) bekor qilinayotgan vaqtda qonun hujjatlarida belgilangan kafolatlar saqlanib qoladi.

O'z navbatida, muayyan sabablarga ko'ra EIZlar sohasidagi yuzaga kelgan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi (27-modda).

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan tashkil etiladigan EIZlar faoliyati mazkur qarorlarga kiritilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar orqali isloh etilishi va takomillashtirilishi mumkin.

Mazkur qonun qabul qilinishiga qaramay, oradan 12 yil o'tib, birinchi marta 2008-yilda respublikamizda dastlabki EIZ tashkil etildi. Mazkur EIZ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrda "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, Navoiy shahrining xalqaro aeroporti hududi yaqinida "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona (EIZ) nomi bilan tashkil etildi. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda jami 21 ta EIZ tashkil etilgan bo'lib, ularning barchalari bir xil nom – erkin iqtisodiy zona nomi bilan nomlanadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli tartibda EIHlar faoliyatiga doir qabul qilingan qarorlarga ilova sifatida tasdiqlangan Nizomlarda EIHlarning faoliyat ko'rsatish tartibi va jarayonlari, ishlash mexanizmi keltirib o'tiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 25-oktabrdagi PQ-3356-sonli Qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 29-sonli Qarorining 1-ilovasi bilan "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida Nizom", 2-ilovasi bilan "Erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish hamda erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" hamda 3-ilovasi bilan "Erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilariga er uchastkalari berish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-yanvardagi 29-sonli Qarorining 2-*ilovasi* bilan tasdiqlangan "Erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish hamda erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom"ga keltirilgan 1-ilova asosida erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish hamda EIZ qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish sxemasi (**1-ilova**) hamda 2-ilova asosida ma'lum hududdagi EIZlar va kichik sanoat zonalarini Ma'muriy Kengashi tomonidan tayyorlangan ma'lum bir EIZda investitsiya loyihasini joylashtirish uchun investitsiya buyurtmasini berish shakli (**2-ilova**), 3-ilova asosida ma'lum bir EIZ Direksiyasi DUK va ushbu EIZga investitsiya kirituvchi investor o'rtasida ma'lum bir EIZ hududida investitsiyalashni amalga oshirish to'g'risidagi bitim shakli ishlab chiqilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-yanvardagi 29-sonli Qarorining 3-*ilovasi* bilan tasdiqlangan "Erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilariga yer uchastkalari berish tartibi to'g'risida Nizom"ga keltirilgan ilovada erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilariga yer uchastkalari berish sxemasi (**3-ilova**) ishlab chiqilgan.

Bu kabi me'yoriy hujjatlar EIHlarda tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirishda zarur bo'lgan muhim hujjatlar hisoblanadi va ular asosida EIHlardagi faoliyatlar tartibga solib boriladi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, qonun, huquqiy asos, farmon, qaror, me'yoriy hujjat, Ma'muriy kengash, Direksiya, mulk, mehnat shartnomasi.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. O'zbekiston Respublikasida EIHlar faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi 220-I-sonli Qonuni bilan tashkil etiladi, tartibga solinadi va muvofiqlashtiriladi. Shuningdek, boshqa qonun hujjatlari yordamida ham tartibga solib boriladi.

2. O‘zbekistonda amaldagi qonunchilikka muvofiq erkin savdo zonalari erkin ishlab chiqarish zonalari va erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar tarzida tashkil etilishi mumkin. Mazkur EIZlar faoliyatini Ma‘muriy kengash nazorat qilib boradi hamda Direksiya o‘z vakolati doirasida uni ta‘minlashga xizmat qiladi.

3. “EIZlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan tashkil etiladi hamda ular faoliyati Vazirlar mahkamasi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni qachon tashkil etilgan?

2. O‘zbekiston Respublikasida EIHlar faoliyati qanday qonun hujjati asosida tashkil etiladi va amalga oshiriladi?

3. O‘zbekiston Respublikasida EIHlar faoliyati yana qanday qonun hujjatlari asosida muvofiqlashtirib boriladi?

4. O‘zbekiston Respublikasida EIHlar faoliyati qanday me‘yoriy hujjat asosida tashkil etiladi?

5. O‘zbekiston Respublikasida EIHlar faoliyati qanday organ tomonidan muvofiqlashtirib boriladi?

6. O‘zbekiston Respublikasida EIHlarda yuridik shaxslardan ro‘yxatdan o‘tkazilishi va faoliyat yuritishi tartibi nimalardan iborat?

2.4. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda vujudga keladigan turli muammolar va ularni hal qilishning asosiy yo‘nalishlari

Erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish jamiyatning turli doiralarida bunday hududlarni tashkil etishning maqsadga muvofiqligi, ularning vazifalari va maqsadlari, joylashtirish mintaqalari va boshqalar to‘g‘risida qizg‘in bahslarni keltirib chiqaradi. Ushbu muhokamalar tabiiy, zaruriy va mamlakat hayotidagi yangi hodisani tasdiqlash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ilg‘or siyosiy va ijtimoiy tashkilotlar, hukumat, alohida siyosiy arboblardan va ishbilarmonlik doiralari vakillari tomonidan qo‘llab-quvvatlash mamlakatda erkin iqtisodiy hududlar konsepsiyasiga ham hayotiylik, ham ishchanlikni bag‘ishlashi mumkin.

Istalangan tashkil etilayotgan EIH ishlab chiqilgan kompleks rivojlanish rejasiga, ya‘ni barcha xo‘jalik obyektlarini rivojlantirish, iqtisodiy aloqalarda teng huquqli ishtirok etuvchi xar xil mulkchilik (davlat, kooperativ, aksiyadorlik, qo‘shma, yakka tartibdagi) shakllariga asoslangan yangi ishlab chiqarish munosabatlarini vujudga keltirish rejasiga ega bo‘lishi zarur. Dasturning asosiy maqsadi davlat, tijorat va xorijiy kapitaldan, aholi mablag‘laridan kompleks foydalanish, ishbilarmonlik, moliyaviy va huquqiy tuzilmalarni faollashtirish asosida zonani dinamik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishdan iborat bo‘lishi zarur²⁸.

1991-yilda tashkil etilgan EIH Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasining (EIHARA – MARSEZ)ning ta‘sis etilishi EIHlarni boshqarish, qonuniy-me‘yoriy baza va

²⁸ Абдурахманов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабаев Ш.Х. Региональная экономика и управление. – Т.: 2007. – С. 739.

moliyaviy-xo'jalik infratuzilmasini yaratish, loyihalarni amalga oshirish usullarini ishlab chiqish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. EIHXA – MARSEZ rahbarlarining fikriga ko'ra, EIHlarni tashkil etish va yaxshi faoliyat yuritishi uchun quyidagi dastlabki shart-sharoitlarni ta'minlash zarur:

- katta kapitalga ega, o'z zimmasiga zonani yaratish dasturining ijrosi uchun to'liq moddiy mas'uliyatni oluvchi yirik aksiyadorlik jamiyatlarining (davlat kapitali ishtirok etgan) mavjudligi;

- zonani rivojlantirish vazifalarini hal etish uchun zaruriy hajmda valyuta tushumlarini jalb qilishni ta'minlovchi maxsus garov-sug'urta investitsion fondi (sug'urta jamiyati)ni tashkil qilish;

- zona budjetini shakllantirishni ta'minlovchi, budjet va kredit mablag'larini ishlatilishini nazorat qiluvchi, Davlat budjeti bilan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi zona Markaziy bankini yaratish;

- mintaqaviy va davlat darajalarida maxsus zonaviy qonunchilikni ishlab chiqish; ushbu qonunchilik hujjatlari zonada soliqqa tortish, litsenziyalash, bank faoliyati, garov huquqi, konsessiyalarni taqdim qilish, mehnat va ijtimoiy masalalarni tartibga solishi zarur;

- zona rahbariyati (masalan, zona kengashi) va mahalliy (mintaqaviy) hokimiyat organlari o'rtasida funksiyalarni ajratish, ular o'rtasida mulkka egalik va uni taqsimlash, narxni shakllantirish masalalarini xal qilish, soliqqa tortish, litsenziyalash, turli imtiyozlarni taqdim etish tartibi muammolari bo'yicha shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish (qabul qilish);

- respublika organlari tomonidan aniq iqtisodiy zonalarni rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash, ushbu dasturlarda EIH tomonidan respublika manfaatlari nuqtai nazaridan hal etiluvchi masalalar ko'zda tutiladi, davlat kapital qo'yilmalari va subsidiyalari hajmi aniqlanadi, imtiyozlar va ularni olish muddatlari o'rnatiladi;

- mintaqaviy va mahalliy hokimiyat tuzilmalari tomonidan o'zlari ega bo'lgan ma'lum bir huquqlarni, eng avvalo moliyaviy-xo'jalik faoliyat sohasidagi huquqlarni erkin iqtisodiy hududlarni boshqarish organlariga, shuningdek, zonalarda joylashgan alohida ishlab chiqarishlar, korxonalar, firmalarga topshirilishi.

EIHlarni tashkil etishda ularning ishtirokchilari – xorijiy va milliy investorlar to'g'risidagi masalani hal etish muhim hisoblanadi. Aynan ishtirokchilar tarkibi mamlakat iqtisodiy hayotida ushbu yangi xo'jalik yuritish shaklining muvaffaqiyatini yoki omadsizligini belgilab beradiki, ular, eng avvalo, hududlarga sarmoya kiritmoqchi bo'lgan investorlarning reaksiyasiga bog'liq. Jahon tajribasini tahlili ko'rsatishicha, EIHlarning loyihachilari, nafaqat, xorijiy va milliy investorlar uchun rag'batlantiruvchi omillarning farqlanishi bilan bog'liq qiyinchiliklarga, balki bunday rag'batlantirishlarning teskari, ba'zan esa o'zaro qarama-qarshi tavsifi bilan bog'liq murakkabliklarga ham duch keladilar. Xorijiy sarmoyador uchun asosiy rag'bat bo'lishi mumkin bo'lgan holat (masalan, ichki bozorga chiqish imkoniyati) milliy sarmoyadorlar uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

EIHlarni tashkil etuvchilarning faoliyatini murakkablashtiruvchi yana bir omil shundan iboratki, ular, xorijiy va milliy investorlar tomonidan rag'batlar va qiziqtiruvchi sabablar har xil tushunilishi mumkinligini tasavvur eta olmaydilar.

Masalan, hududlarda yaxshi rivojlangan infratuzilma mahalliy investorlar uchun kapital qo'yilmalar kiritish uchun katta rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'lishi mumkin, xorijiy investor uchun esa bunday "rag'bat" zonaga investitsiyalarni kiritish bo'yicha qaror qabul qilishning majburiy dastlabki sharti bo'lib hisoblanadi. Bunda xorijiy investor uchun boshlang'ich qadam bo'lib, hududdagi infratuzilma darajasi emas, balki, o'z mamlakatida yoki boshqa xorijiy mamlakatlardagi infratuzilma darajasi va sifati hisoblanadi. Mahalliy investorlar ma'lum bir aniq zonada tashkil etilgan shart-sharoitlarni juda ilg'or va texnik jihatdan zamonaviy deb (masalan, boshqaruv tizimi) qabul qilishlari mumkin bo'lsa, ayni vaqtda xorijiy investorlar ancha keskin qarashlarga ega bo'lishi mumkin. Ushbu ziddiyat yengib bo'lmaz holat bo'lib, zonalar loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda uni e'tiborga olish zarur²⁹.

Bugungi kunda O'zbekistonda EIZlarni tashkil etish borasida muayyan tajribalar to'panilgan va orttirilgan. Biroq, mavjud yaratilgan shart-sharoitlar va ulardan foydalanish darajalari o'zaro bir-biriga muvofiq emasligi EIZlar rivoji va samaralarini kutilganidek ta'minlash imkonini bermayapti. Bunga bir qator o'ziga xos muammolar ta'sir ko'rsatishini keltirib o'tish mumkin. Xususan:

- milliy iqtisodiyotning dunyo mamlakatlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi jarayonidagi kabi faol emasligi, bunga, eng avvalo, iqtisodiyotning ochiqligi bugungi kun talabi darajasida ta'minlanilmaganligi ta'sir ko'rsatishi;

- milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda EIZlar ishtiroki imkoniyatlaridan to'la foydalanilmayotganligi, bunga soliq imtiyozlari va preferensiyalarining yaratilganligining o'zi yetarli bo'lmazligi amaliy o'z tasdig'ini topganligi;

- EIZlarga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishdagi faollikning sustligi, bunga JIZ direksiyasi, mahalliy hokimlik va vazirliklar, tegishli davlat tashkilotlarining tashabbuslari va amaliy harakatlari juda sust holda bo'lib kelganligi salbiy ta'sir ko'rsatganligi;

- EIZlar jozibadorligi va uni oshirishning o'zi bilan EIZlarga investitsiyalarning kirib kelishi faollashmasligi, bunda EIZ joylashgan viloyat va mamlakat iqtisodiyoti jozibadorligi, bozor va boshqa infratuzilmalarning mavjudligi, qulayligi va rivojlanganligi kabilarning ham jiddiy ta'sir ko'rsatishini inobatga olish zarurligi;

- EIZ rivojida mamlakat kredit reytingining yuritilishi va uning ijobiyligini ham ta'minlashning zarurligi;

- valyuta konvertatsiyasi va tashqi savdo balansi, tashqi qarz kabilarning ham ijobiy hal etilganlik holati;

- mamlakat eksport salohiyatini o'stirish imkoniyatlari, asoslari va unda EIZlarning tutgan o'rnini oshirishga qaratilgan islohotlarning samaradorligi va shu kabilarni keltirib o'tish mumkin.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, iqtisodiyot, kapital, investor, infratuzilma, eksport.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

²⁹ Mahmudov N.M., Eshov M.P va boshqalar. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 200 b.

1. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar barcha davlatlar tajribalarida kuzatilib, ularning hal etilish uslublari, vaqti va imkoniyatlari bo'yicha bir-biridan farqlanadilar.

2. EIHXRA – MARSEZ rahbarlarining fikriga ko'ra, EIHLarni tashkil etish va yaxshi faoliyat yuritishi uchun bir qator muhim dastlabki shart-sharoitlarni ta'minlash talab etiladi.

3. O'zbekistonda ham EIZlarni tashkil etish bo'yicha muayyan tajribalar to'plangan bo'lishiga qaramay, bu borasida hal etilishi lozim bo'lgan dalozarb muammolar ham mavjud.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishda qanday muammolarni bilasiz?

2. EIHXRA – MARSEZ rahbarlarining fikriga ko'ra, EIHLarni tashkil etish va yaxshi faoliyat yuritishi uchun qanday dastlabki shart-sharoitlarni ta'minlash zarur?

3. Jahon amaliyotida aksariyat EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq qanday muammolarni aytib bera olasiz?

4. "EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha qanday takliflar bera olasiz?"

5. O'zbekistonda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal etish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

6. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishda asosiy muammolar sifatida qaysilarni ko'rsatib bera olasiz?

2.5. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish muammolari

EIHLarga to'g'ridan-tug'ri xorijiy investitsiyalarni xorijiy firmalarning asta-sekin milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv usuli sifatida qarash mumkin. Shu sababli EIHLni rejalashtirish bosqichidayoq chet el firmalarining mahalliy tadbirkorlar bilan bevosita va teskari aloqalarini o'rnatish imkoniyatlarini ko'zda tutish zarur. Bunday aloqalar mahalliy xomashyo tovarlarini, komponentlarni, yarimfabrikatlarni, majmuaviy asbob-uskunalarni va xizmatlarni olish imkoniyatini ta'minlashi zarur. Mahalliy resurslarga ega bo'lish imkoniyati xorijiy investorlar uchun muhim rag'bat hisoblanadi. Biroq, EIHLda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investorlar uchun bunga amalda erishish ancha qiyin bo'lishi va katta vaqtni talab etishi mumkin. Mazkur omilga katta e'tibor bergan holda, EIHL loyihachilari quyidagi jihatlarni hisobga olishga urinadilar.

Birinchidan, xorijiy investorlar tomonidan xarid qilinishi mumkin bo'lgan ko'pgina mahalliy resurslar mamlakatda kamyob hisoblanadi. Xorijiy investorlarning bozorga kirib kelishi natijasida talabning o'sishi esa vaziyatni yanada keskinlashtirishi mumkin. Agar gap yaqin istiqbol to'g'risida ketayotgan bo'lsa, xorijiy investorlar o'z shaxsiy manfaatlariga bo'ysunib, resurslar evaziga yuqoriroq narhlar to'lab ushbu tanqislikni bartaraf etishlari mumkin. Lekin, bu inflyasiya jarayonlari rivojlanishini tezlashtirishi va mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa firmalar uchun resurslar tanqisligi muammosini keskinlashtirishi mumkin. Uzoq

muddatli rejada EIHda faoliyat yuritayotgan firmalar tomonidan qo‘shimcha talab mahalliy tovar yetkazib beruvchilarni ushbu yangi talabni qondirish uchun ishlab chiqarish quvvatlarini ko‘paytirishga majbur etadi. Lekin, bunday jarayon bir necha yil davom etadi.

Ikkinchidan, mahalliy resurslarning sifati va texnologik darajasi xorijiy firmalar tomonidan ushbu resurslarga bildirilayotgan standartlarga mos kelmasligi mumkin. Ushbu muammoga xorijiy investorlar mahalliy resurslardan foydalangan barcha hollarda duch keladilar. Vaqt o‘tishi bilan mahalliy tovar yetkazib beruvchilar asta-sekin o‘z ishlab chiqarishining texnologik darajasini ko‘tarib boradilar. Biroq, ushbu texnologik takomillashtirish avtomatik ravishda ro‘y bermaydi. Agar texnologiya darajalari o‘rtasidagi tafovut kattta bo‘lsa, xorijiy investorlar mahalliy tovar yetkazib beruvchilar bilan aloqalarni uzishga va zonadagi faoliyatini o‘zining an’anaviy yetkazib beruvchilariga tayangan holda davom ettirishga qaror qilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, EIHLardagi xorijiy firmalar va undan tashqarida faoliyat yuritayotgan mahalliy korxonalar o‘rtasida iqtisodiy va texnologik aloqalarni o‘rnatish usullari, rag‘batlari va tashkiliy shakllari tizimi zarur.

Uchinchidan, EIHLarda faoliyat yuritayotgan xorijiy firmalar va mahalliy korxonalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni o‘rnatish uchun kerakli xarajatlar miqdori va darajasini hisobga olish zaruriyati. Mahalliy firmalar o‘ylamasdan xorijiy firmalarni, xaridorning texnik standarlariiga mos keluvchi va yetarli miqdorda mavjud bo‘lgan tovarlar va xizmatlar bilan ta‘minlaydi degan fikrga borish noto‘g‘ridir. Bunday vaziyat kamdan-kam uchraydi. Bu esa zonadan tashqrida faoliyat yurituvchi mahalliy korxonalarni ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga va texnologik darajasini ko‘tarishga, shuningdek, ushbu korxonalar va zonada faoliyat yuritayotgan xorijiy firmalar o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarini ta‘minlashga jiddiy sarmoyalar kiritish zarurligini anglatadi. Bunday investitsiyalar butun iqtisodiyotga foyda keltiradi (agar shunday yo‘l bilan rivojlangan firmalar tovarlar va xizmatlarni mahalliy bozorga ham yetkazib bersa). Ushbu muammoni hal qilish, balki avval ko‘zda tutilmagan moliyaviy xarajatlarni talab etadi, bu esa erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilishga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini ko‘paytiradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan muammolarning mavjudligi – xomashyo resurslari va moliyalashtirishning yetishmasligi, mahalliy korxonalarining past texnik darajasi, mahalliy tovarlar va xizmatlarning past sifati erkin zonada faoliyat yuritayotgan xorijiy firmalar va undan tashqaridagi mahalliy korxonalar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish masalasini hal etishning murakkabligini belgilaydi. Bundan kelib chiqadiki, dastlabki bosqichlarda mahalliy bozorlarga kirish imkoniyati potensial xorijiy investorlar uchun kuchli sabab bo‘la olmaydi. Shunga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda mahalliy resurslarga ega bo‘lish imkoniyati ular uchun muhim omil bo‘lishi mumkin.

EIHLarda xorijiy firmalarni mahalliy resurslar bilan ta‘minlashni rivojlantirish uzoq muddatli tadbirlar toifasiga kiradi va potensial investorlarning hech bo‘lmaganda kamchiligi bunday resurslarni ishlab chiqishda ishtirok etishga hozirligiga shubha qilmaslik kerak. EIHLarning loyihachilari, ko‘pincha, mazkur hududlarning xorijiy ishtirokchilari uchun asosiy ustunliklardan biri bo‘lib, EIH

tashkil qiluvchi mamlakat hukumati tomonidan berilgan moliyaviy yoki boshqa rag'batlar darajasi hisoblanadi, deb o'ylaydilar. Haqiqatan ham birinchi EIHLarni tashkil etishda shunday bo'lgan edi. Biroq, o'tgan o'n yilliklar mobaynida jahonda EIHLarning soni shunchalik ko'payib ketdiki, xorijiy investorlar uchun nisbiy ustunliklar (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, importni bojxona to'lovlaridan ozod qilish, qisman bojsiz eksport qilish va boshqalar) ko'p hollarda, balki butunlay o'zining rag'batlantiruvchi xususiyatlarini yo'qotdi³⁰.

Umumiy imtiyozlar guruhidagi ko'pgina imtiyozlar amalda shunchaki hisoblanadi va miqdoriy jihatdan nolga teng. Masalan, soliq to'lash bo'yicha 10 yillik imtiyozli davrning berilishi davlat budjeti uchun moliyaiy yo'qotish hisoblanmaydi, chunki bunday imtiyoz bo'lmaganda, investorni, balki, EIH qiziqtirib qolmasdi. Tajriba ko'rsatishicha, maxsus imtiyozlar xorijiy firmalarning zonalarda ishtirok etish to'g'risidagi qaror qabul qilish jarayonida faqat ikkinchi darajali rolni o'ynaydi. Juda yaxshi holatlarda bunday imtiyozlar juda kam, ko'pincha, amalga oshirilmaydigan qo'shimcha foyda keltiradi. SHu bilan birga, maxsus imtiyozlarni joriy qilish uchun xarajatlar salmoqli bo'lishi mumkin, chunki, ulardan ko'p sonli potensial firmalar foydalanishi mumkin.

Jahon EIHLar bozoridagi raqobatda ishtirok etmoqchi bo'lgan mamlakat jahon talablari darajasida yoki undan ham yuqori darajada rag'batlar va imtiyozlar taqdim etishi zarur. Jahon EIHLar bozorida bunday yondashuv zonalardagi mavjud iqtisodiy ustunliklarga nisbatan ham qo'llaniladi³¹.

Jahon tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hech bir EIH tegishli infratuzilmasiz, ya'ni obodonlashtirilgan hudud, telkommunikatsiya tarmog'i, suv, elektroenergiya, aeroportga chiqish, mahalliy va xorijiy xodimlar uchun uy-joy sharoitlarisiz muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olmaydi. Investorlar tomonidan 15-20 yil oldin nisbiy ustunlik deb baholangan sharoitlar (yaqin joylashgan xalqaro aeroport, yaxshi telefon aloqasi) hozirgi paytda boshlang'ich shartlar hisoblanadi, ular qondirilmagan hollarda xorijiy firma zonada ishtirok etish masalasini, hatto, ko'rib chiqmaydi ham. Moddiy va iqtisodiy imtiyozlarni asta-sekin o'rtacha ko'rsatkichlarga keltirish shuni tasdiqlaydiki, taqdim etilayotgan ikki guruh imtiyozlari zonalarga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun uzoq vaqt jiddiy sabab bo'la olmaydi. Ular investor tomonidan sarmoyalar kiritish yoki kelgusida sarmoyalar kiritish to'g'risidagi ijobiy qaror qabul qilish uchun faqat dastlabki shart bo'la oladi. Kapitalni EIHga kiritish to'g'risidagi oxirgi qaror investorning taktik va strategik fikr-mulohazalariga bog'liq bo'ladi.

Agar avval boshidanoq EIHLar, ularda ham xorijiy, ham mahalliy korxonalarni joylashtirishga yo'naltirilishiga tayanadigan bo'lsak, EIHLarga milliy firmalarni va investorlarni jalb qilish shartlarini ham ishlab chiqish zarur. Birinchi qaraganda, milliy investorlarni jalb qilish unchalik qiyin emasday ko'rinadi, chunki, ular zonada taqdim etilgan rivojlangan infratuzilmadan va imtiyozlardan foydalanishdan manfaatdor. Biroq, amaliyot ko'rsatishicha, butunlay boshqacha holat ham bo'lishi

³⁰ Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006. – 248 с.

³¹ Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006. – 248 с.

mumkin. Milliy investorlar ko'pincha kutishni, yoki dastlabki vaqtlarda qiziqish bildirib, so'ngra zonada ishtirok etishdan voz kechishi mumkin. Buni shunday tushuntirish mumkinki, ular uchun zonada mahalliy firmalarga notanish bo'lgan ish sharoitlarida faoliyat yuritish qiyinchiliklari zonaning real afzalliklaridan ustun kelishi mumkin. Ular uchun o'zlari foydalanib turgan ishlab chiqarishni tashkillashtirish va boshqarish usullaridan yangi ishlab chiqarish, texnologik va tashkiliy sharoitlarda ishlash usullariga o'tish juda qiyin kechishi mumkin.

Shunday qilib, EIHlar loyihasini ishlab chiqishda, mazkur EIHda muvaffaqiyatli ish faoliyati yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy korxonalarni jalb qilish masalasiga yetarlicha e'tibor berish zarur.

Jahonda EIHlarni tashkil qilinishi va faoliyat ko'rsatishi bo'yicha to'plangan ulkan tajribaga qaramay, amaliyot tasdiqlashicha, hozirgi vaqtga qadar bunday o'ziga xos milliy-xalqaro xo'jalik tuzilmalarining universal iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilmagan. Bu eng avvalo, EIHlarni tashkil qilish turli maqsadlarga egaligi tufayli ularda turli iqtisodiy sharoitlar va cheklovlar mavjudligiga asoslanadi. Ayni vaqtda jahonning turli mintaqalarida o'nlab va yuzlab EIHlar shakllantiriladi. Obyektiv ravishda ular orasida zonalararo raqobat yuzaga keladi va qulay investitsion muhitni tashkil qilish va ushbu zonalarga xorijiy va milliy investorlarni jalb qilish maqsadida rag'batlar va soliq imtiyozlarni unifikatsiya qilish tendensiyasini namoyon etadi.

EIHLarga investitsiyalarni jalb etishda ular faoliyatini tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunda EIHlarni davlat tomonidan tartibga solish shakllari va usullarini takomillashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari ajratiladi:

1. Soliqqa tortish tizimini takomillashtirish.
2. EIHni bojxona tartibga solishni takomillashtirish.
3. EIHda moliyaviy o'zaro munosabatlar mexanizmini takomillashtirish.
4. Zonaning maqsadli yo'nalishiga qarab investitsion siyosat ustuvorliklarini ishlab chiqish.
5. EIH faoliyatini axborot ta'minoti tizimini shakllantirish va rivojlantirish.

Ko'pchilik EIHlarda (erkin bojxona va erkin omborlardan tashqari) soliq siyosati EIH hududida iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy, faol qo'llaniluvchi usuli hisoblanadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, EIHning soliq siyosati, uning butun iqtisodiy faoliyati singari o'z budjetiga asoslanadi. U zona hududida joylashgan jismoniy va yuridik shaxslarning soliq tushumlari; homiylik yordami (ayniqsa zonani tashkil qilishning dastlabki bosqichida); davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mablag'lari; ma'lum darajada bojxona yig'implari, zona budjetiga EIH direksiyasi (ma'muriyati)ning o'z xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatidan olingan mablag'lardan tushumlar kabi turli manbalar hisobidan shakllantiriladi. Budjetni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mablag'lari, odatda tekinga emas, balki ko'pincha uzoq muddatli kreditlar shartlarida beriladi.

EIHda joylashgan korxonalarining davlat budjeti bilan barcha moliyaviy munosabatlari zona ma'muriyati va zona budjeti orqali amalga oshiriladi. Bu EIHning iqtisodiy mustaqilligining muhim omili va xo'jalik faoliyatini samarali

boshqaruvining muhim sharti hisoblanadi.

EIHda soliq siyosatini ishlab chiqishda qator shartlarni hisobga olish zarur:

1. O'rnatilgan imtiyozlar tizimi EIH faoliyat sohasining ustuvorligi ham uning asosiy maqsadlari va vazifalariga muvofiqligiga bog'liq bo'lishi kerak.

2. Imtiyozlar miqdori imkoniy minimal xalq xo'jalik yo'qotishlari (masalan, budjetga to'lovlarning kelib tushmasligi, kredit foizlarini pasaytirilishi) va tegishli shakldagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdan maksimal samara orasidagi diapazondagi hisob-kitoblar asosida aniqlanishi kerak.

3. EIHda o'rnatiladigan imtiyozli soliqlar va ulardan ozod qilish tartiblari ma'lum davr mobaynida amal qilish va odatda qayta ko'rib chiqilmasligi kerak. Soliqlar moliyaviy va budjet munosabatlarining bir qismini tashkil qiladi, shu sababli EIHda davlat soliq siyosatini shakllantirishda barcha turdagi zonalarining davlat bilan munosabatlarini aks ettiruvchi zonalashtirishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqish kerak. Lekin bunda EIHda soliqqa tortish tartibi va Davlat budjetiga soliqlar va to'lovlar stavkalari darajasi har bir aniq holatda EIHning ixtisoslashuvi va xususiyatlari (uning hududida ishlab chiqarish quvvatlarining, infratuzilmaning va moddiy-texnik ta'minotning boshqa omillarining mavjudligi)ni hisobga olgan holda aniqlanishi mumkin.

Har bir aniq EIHning o'ziga xos xususiyatlarga egaligiga qaramay, jahon amaliyotida soliq tizimini shakllantirishning ma'lum bir xalqaro standartlari mavjud bo'lib, ulardan O'zbekistonning EIHlarining jahon zonalar bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun foydalanish shart hisoblanadi.

Milliy EIHlarda moliyaviy munosabatlar mexanizmi hozirgi vaqtda shakllanish bosqichida turibdi. Uni shakllantirish uchun EIH faoliyatini moliyalashtirishning turli manbalaridan kompleks foydalanish nazarda tutiladi. Bunda xususiy milliy va xorijiy investitsiyalardan, mahalliy resurslardan, EIH mintaqalarining va u yerda istiqomat qiluvchi aholining o'z mablag'laridan maksimal foydalanish hisobiga davlat mablag'laridan foydalanishni har tomonlama cheklashga intilish zarur. Ushbu manbalar o'rtasidagi nisbat zonaning hayotiylik sikli bosqichlarini hisobga olgan holda undagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlanib borishiga mos ravishda o'zgartirilishi zarur. Dastlabki bosqichlarda davlatning ko'magi ancha katta bo'lishi, keyingi bosqichlarda esa u mahalliy moliyalashtirish manbalari hisobiga kamaytirib borilishi mumkin.

O'zbekistonda EIHlarga investitsiyalarni jalb etish borasida bir qator muammolar kuzatiladi. Vaholanki, bugungi kunda ularda ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish uchun muhim bo'lgan bir qator imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilgan. Biroq, berilgan imtiyoz va preferensiyalarning o'zi EIHlarga investitsiyalarni jalb etish uchun yetarli bo'la olmaydi. Bunga bir qator muammolar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- EIH joylashgan mintaqada qulay investitsiya muhitini tashkil etuvchi omillarning yetarli darajada shakllanmaganligi va rivojlanmaganligi (transport-logistika, axborot texnologiyalari, muhandislik- kommunikatsiya infratuzilmalarining talb darajasida emasligi;

- Suv, gaz, elektr energiyasi kabilar bilan uzluksiz ta'minot tizimining

rivojlanmaganligi;

- malakali, zamonaviy tajriba va ko'nikmaga ega kadrlarning etishmasligi;
- mahalliy xomashyo va yarimfabrikatlar sifatining talab darajasida emasligi yoki ularni tayyorlash texnologiyasining eskirganligi;
- ekologiya va atrof-muhitning qoniqarli darajada emasligi;
- korrupsiyaning mavjudligi va ta'sirining yuqoriligi.

Shu sababli EIHLarga investitsiyalarni jalb qilishda hududlardagi muammolarni bartaraf etish, ularning ham investitsiya salohiyatini o'rganish, hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston bo'ylab hududlarning yetakchi tarmoqlari va investitsiyalar kiritilishi mumkin bo'lgan ustuvor tarmoqlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

2.2-jadval.

O'zbekistonda hududlarning yetakchi tarmoqlari va potensial investitsiya takliflari³²

Hududlar	Mavjud yetakchi va ilg'or tarmoqlar	Xorijiy investitsiya kiritilishi mo'ljallangan ustuvor tarmoqlar
Andijon	Qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, mashinasozlik, to'qimachilik, turizm	To'qimachilik, ipakchilik, kimyo, bog'dorchilik
Buxoro	Neft va gaz, to'qimachilik, qurilish materiallari, turizm	To'qimachilik, qurilish materiallari, chorvachilik
Farg'ona	Qishloq xo'jaligi, neft-gaz, kimyo (neft kimyosi), to'qimachilik, mashinasozlik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, turizm	To'qimachilik, ipakchilik, oziq-ovqat, bog'dorchilik
Jizzax	Qishloq xo'jaligi, kimyo, mashinasozlik	Qurilik materiallari, oziq-ovqat, kimyo, bog'dorchilik, baliqchilik
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Energetika, neft kimyosi, kimyo, kon-metallurgiya	To'qimachilik, baliqchilik
Xorazm	Qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik, turizm	To'qimachilik, gilamchilik, baliqchilik
Namangan	Qishloq xo'jaligi, yengil sanoat, to'qimachilik, mashinasozlik	To'qimachilik, ipakchilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat
Navoiy	Kon-metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari, mashinasozlik, to'qimachilik	Kimyo, qurilish materiallari, energetika, to'qimachilik

³² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Samarqand	Qishloq xo'jaligi, xalq iste'mol tovarlar ishlab chiqarish, to'qimachilik, mashinasozlik, qurilish materiallari, kimyo, elektrotexnika, turizm	To'qimachilik, oziq-ovqat, kimyo, bog'dorchilik
Sirdaryo	Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, to'qimachilik, yengil sanoat, turizm	To'qimachilik, mebelsozlik, farmasevtika, energetika
Surxondaryo	Qishloq xo'jaligi, neft va gaz, qurilish materiallari, yengil sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik, turizm	To'qimachilik, oziq-ovqat, tog'-kon sanoati
Toshkent shahri	To'qimachilik, yengil sanoat, kimyo, farmasevtika, qurilish materiallari, turizm, oziq-ovqat, mashinasozlik	Elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik, qurilish materiallari, kimyo, farmasevtika
Toshkent viloyati	Yengil sanoat, rangli metallar, qurilish materiallari, kimyo, yoqilg'i-energetika	Oziq-ovqat, kimyo, rangli metallurgiya, tog'-kon, energetika, farmasevtika
Qashqadaryo	Qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, neft-gaz, qurilish materiallari, mashinasozlik, yengil sanoat, oziq-ovqat	To'qimachilik, oziq-ovqat, tog'-kon sanoati, parrandachilik

O'zbekistonda EIHLarni rivojlantirishda chet el investitsiyalarni ushbu jarayonga faol jalb qilishga ustuvor ahamiyat berilmog'i lozim. EIHLarning mamlakatning iqtisodiy o'sishiga erishishidagi ishtirokini oshirishda, ish bilan bandlik, mahalliy xomashyolarga tayangan holda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va xorijga eksport qilish, mamlakatning valyuta va to'lov balansini mustahkamlash, tashqi savdo, innovatsion texnologiyalar bo'yicha aloqalarini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni EIHLarga jalb etish hajmini yanada ko'paytirish, ular yo'nalishini va tuzilmasini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun taklif etilayotgan loyihalar, shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalari tezda o'zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara keltirishiga erishish lozim. Bunday holatda investitsiyaning tezda qaytarilishi va qanchalik samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu investition jarayonni jonlantirish uchun turtki berish, keyinchalik esa investitsiyalash uchun afzal tarmoqlar va xo'jalik yuritish subyektlarini tanlashga imkoniyat yaratish mumkin.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi hududlarda qulay investitsiya muhitini, bir qator makroiqtisodiy omillarini keskin darajada kuchaytirilishini taqozo etadi. Bu sohada ro'y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinuvi bilan izohlanadi. Hududlarning iqtisodiy o'sishini va qulay investition muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jadallashtirishda hal qiluvchi rolni ishlab chiqarish investitsiyalari o'ynashi kerak.

EIHLar hududlarning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda uni yanada rivojlantirishga xizmat qilmog‘i lozim. Faqat investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash hamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini yaxshilash evaziga mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Bunda EIHLar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, iqtisodiyot, investitsiya, texnologiya, investitsiya loyihasi, investor, tarmoq.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. EIHLarga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish borasidagi muammolar EIHLarning o‘z samaradorligini ko‘rsatish imkoniyatlarini qisqartiradi. Bu esa ularni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadlarni ro‘yobga chiqarish muddati uzaytirib, unga erishish darajasini pasaytiradi.

2. EIHLarga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirishda davlat hamisha etakni o‘rin egallamog‘i lozim. Chunki, davlat zarur shart-sharoitlar, kafolatlar, imtiyozlar tqdim etish, qo‘llab-quvvatlashlar orqali EIHLarga investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga va boshqarib turishga qodir.

3. EIHLarga investitsiyalarni jalb etish borasidagi muammolarni hal etishda ichki imkoniyatlarga tayanish eng asosiy qurol hisoblanadi. Bunda xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish va mavjud ichki salohiyatlarni to‘la ishga solish har bir mamlakatning o‘z qo‘lidagi imkoniyatidir.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarga investitsiyalarni jalb qilish borasidagi qanday muammolarni aytib bera olasiz?

2. EIHLarga investitsiyalarni jalb qilishda asosiy muammolar sifatida qanday muammolarni ayta olasiz?

3. EIHLarga investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolarni hal etishda davlatning o‘rni va ahamiyatini asoslab bering.

4. EIHLarga investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar yechimida EIHLarning iqtisodiy va ma‘muriy mustaqilligi qanday o‘rin tutadi?

5. EIHLarga investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar yechimi borasida qanday takliflarni bera olasiz?

6. Sizningcha, EIHLarga investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolarni qancha muddatda tez hal etish mumkin va u qancha vaqtda o‘z samarasini beradi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Абдурахманов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабаев Ш.Х. Региональная экономика и управление. – Т.: 2007. – С. 739.

2. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.

3. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны:

становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.

4. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особые экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.

5. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.

6. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.

7. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особые экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.

8. AQShda 1934-yilda qabul qilingan “Tashqi savdo hududlari to‘g‘risida”gi Qonun.

9. Belarus Respublikasining 1998-yil 7-dekabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi “213-Z-sonli Qonuni.

10. Rossiya Federatsiyasining 2005-yil 22-iyuldagi “Rossiya Federatsiyasi hududidagi erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi №116-FQ-sonli Qonuni.

11. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.

3-bob. JAHON XO‘JALIGIDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR TASNIFI

3.1. Erkin iqtisodiy hududlarning tasniflanishi. Turlicha erkin iqtisodiy hududlar tashkil etilishiga ta’sir etuvchi omillar

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi kunda erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi hududiy-xo‘jalik boshqaruvining eng samarali modellaridan biri hisoblanib, ular mamlakatning alohida olingan iqtisodiy hududlarini investitsiyalar va ilg‘or tajribalarga keng ochib bermoqda.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida EIHLarning oddiy, tovarlar savdosi bilan bog‘liq shakldan, nisbatan murakkab ommaviy iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan yangi tovarlarni loyihalash va ishlab chiqarish, turli xildagi xizmatlarni ko‘rsatish kabi shakllariga o‘tilmoqda.

EIHLarga xos xususiyat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- birinchidan, EIHL davlatning asosiy qismi;
- ikkinchidan, bu hududda to‘liq imtiyozlar tizimi bo‘ladi;
- uchinchidan, bu hudud faqatgina bojxona soliq va boshqa nazorat turlaridan “erkin” hisoblanadi;

- to‘rtinchidan, EIHL rezidenti barcha nazorat turlaridan ozod degan ma’noni bermaydi;

- beshinchidan, EIHLga jiddiy yondashuv natijasida u tashqi savdo umumiy iqtisodiy fan va texnika, fan va texnologiya sohasidagi muamolarni echishga yordam beradi.

EIHLarni tashkil etish alohida mintaqa va hududlar iqtisodiyoti rivojlanishining aniq iqtisodiy vazifalarini hal etish, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Bu esa uning mamlakatni uzoq muddatli (10-30 yillik) rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishini ta’minlaydi.

EIHLarni tashkil etish mamlakatning mavjud hududiy-georafik joylashuvi, iqtisodiy, tabiiy, mehnat resurslari, tarmoq xususiyatlari, infratuzilmaviy holati, texnologik modernizatsiyalashuvi, rivojlanish salohiyati va darajasi kabilarga bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillarga bog‘liq holda shuni aytish kerakki, ko‘pchilik EIHLar xorijiy mamlakatlar bilan chegaradosh hududlarda joylashadi, shuningdek, dengiz savdo portlari, magistral temir yo‘l, avtomobil yo‘llari tarmog‘i, aeroportlarga ega yoki unga yaqin hududlar, shakllangan sanoat, ilmiy va madaniy markazlar, tabiiy resurslar to‘plangan hududda joylashgan bunday EIHLar eng samarali faoliyat ko‘rsatadi.

Ayrim hollarda EIHLarni yangi o‘zlashtirilgan hududlarda joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday hududlar sanoat rivojlanmagan, ishlab chikarish va ijtimoiy infratuzulma mavjud bo‘lmagan holda ham yirik davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan dasturlarni amalga oshirish (masalan, mamlakatning yonilg‘i energetika, mineral xomashyo bazasini mustahkamlash) maqsadida tashkil etiladi.

EIHLarni tasniflash ularning rivojlanish tarixi bilan bog'liqdir.

EIHLarni tasniflar ularning tarixiy jarayonlar asosida vujudga kelgan turlarini o'rganish, aniqlash, ularning mazmun-mohiyati, maqsadi, ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlarini bilish va asoslashga imkon beradi.

Bu esa bir turdagi va dastlabki tashkil etilgan EIHLarning yanada rivojlangan EIHLarga aylanishi, keyingi yangi avlod turlarining tashkil etilishi va rivojlanib borishiga ham keng yo'l ochib beradi.

EIHLarni tasniflash bugungi kunda jahon iqtisodiyotida mavjud bo'lgan turlarini tavsifiy va sifat belgilari, umumiy jihatlari bo'yicha guruhlash va ajratishni nazarda tutadi.

EIHLarni tasniflash mavjud turli-tuman EIHLarni tartiblash, aniq farqiga borish maqsadida, guruhlash – turkumlash asosida amalga oshiriladi.

EIHLarni turkumlash – nafaqat, ularga qisqacha tavsif berish, balki, ularning rivojlanish evolyutsiyasi, shakllanish va faoliyat yuritish jarayoni hamdir. Bu EIHLar rivojlanishining, oddiy shakllaridan murakkab shakllarga o'zgarib borishidagi juda uzoq yo'lidir.

Ilmiy adabiyotda turli xil turkumlash mezonlari berilgan.

Jumladan, jahon iqtisodiy tizimida EIHLarni turkumlashda quyidagi mezonlarga e'tibor beriladi:

1. Milliy iqtisodiyotga integratsiyalanganlik darajasi bo'yicha.
2. Tashkiliy usuli bo'yicha.
3. Egalik xususiyati bo'yicha.
4. Faoliyat turi yoki funksional maqsad bo'yicha.

Ushbu tasniflanishni quyidagi 3.1-rasmda ko'rish mumkin.

Keltirilgan mezonlar bo'yicha tasniflangan EIHLar tarkibida milliy iqtisodiyotga integratsiyalanganlik darajasi bo'yicha tasnifiga alohida to'xtalib o'tish o'rinlidir. 3.1-rasmda keltirilganidek, EIHL integratsiyalanganligi darajasi bo'yicha 2 turga bo'linadi: anklav (yopiq) va integratsiyalashgan. Anklav hududlar faoliyat mexanizmi o'xshashligiga qaramasdan tamoyillari, maydon kattaligi va faoliyat yo'nalishi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Birinchi yo'nalishga imtiyozli soliq va bojxona tartibi qo'llaniladigan ayrim korxonalarni hududini qoplovchi hududlarni kiritish mumkin. Bunday hududlar Meksikada nisbatan keng tarqalgan bo'lib ularda makiladoras – eksport korxonalari, AQSh chegaralari bo'ylab joylashgan holda faoliyat yuritadi. Xuddi shunday tamoyillar asosida Daminikan Respublikasida, Gaitida va Vengriyada EIHLar tashkil etilgan.

Ikkinchi yo'nalishga maydoni bir necha o'n gektardan bir necha yuz gektargacha bo'lgan yopiq hududli katta bo'lmagan industrial anklavlar kiradi. Bunday hududlar Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida va Shimoliy Afrika davlatlarida tuzilgan. Bir qancha tumanlarni va butun shaharlarni qamrab oluvchi yirik ko'lamli hududlar uchinchi yunalishni tashkil etadi. Bunday yondashuv avvalam bor Xitoy va Xindiston, shuningdek, Shri-Lanka, Mavriki va boshqa mayda davlatlarda uchraydi.

Anklav EIHLar erkin konvertatsiyalashadigan valyutani ishlash uchun barcha

ishlab chiqariladigan mahsulotni eksport qilishga yo'naltirilgan. Bunday hududlar mamlakatning boshqa qismiga nisbatan mustaqilligi tovarlar va odamlarni ularni chegarasi orqali o'tishining maxsus tartibi orqali ta'minlanadi. Iqtisodiy mustaqillik esa bu hududlardagi maxsus iqtisodiy iqlim (ma'muriy va iqtisodiy usullar yordamida) bilan ta'minlanadi.


Anklav hududlar, odatda, mamlakat hududidan tabiiy ravishda ajralgan joylarda tashkil etiladi (orollar, yarim orollar, dengiz kurfazlari va boshqalar), lekin shaharlar ichida yoki regionlar ichida ham tuzilishi mumkin. Har qaysi holda ham anklavning tashkil etilishi hududning yuridik mustaqilligini nazarda tutmaydi.

Integratsiyalashgan EIHLarning o'ziga xos belgisi shundan iboratki, ular mamlakatning ichki iqtisodiyoti, uning ichki hududlari bilan yaqin iqtisodiy aloqalarga ega bo'ladi. Eksport salohiyatini rivojlantirish muammolarini hal etishdan tashqari, bu zonalar mahalliy sanoatning texnologik darajasini oshirish, chiqarilayotgan mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish vazifalarini ham hal qiladi.

Anklav ko'rinishidagi hududlardan farqli o'laroq integratsiyalashgan hududlar, ko'p jihatdan, oraliq mahsulotlarni import qilishga emas, balki, milliy mahsulotlarni, komponentlarni va yarim tayyor mahsulotlarni ishlatishga qaratilgan bo'ladi. Jumladan, Braziliyadagi "Manaus" hududida tayyor mahsulot tarkibidagi milliy komponentlar ulushi 40-90%ni tashkil etgan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 90%dan ortig'i ichki bozorda iste'mol qilinadi. AQShning tashqi savdo hududlarida 80% xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar AQShning ichki hududlaridan keltiriladi va o'z navbatida, 90% ishlab chiqarilgan mahsulot mamlakatning ichki hududlariga etkazib beriladi.

Integratsiyalashgan hududlar milliy va xalqaro iqtisodiyot bilan uzviy bog'langan holda nisbatan erkinroq faoliyat rejimiga ega. Ular ayniqsa xalqaro mehnat taqsimotiga qo'shilgan rivojlangan bozor iqtisodiyotili mamlakatlarga xos. Integratsiyalashgan hududlar globallashtirilgan bozor iqtisodiyotiga juda mos keladi. Bu hududlarda mamlakat hududi bo'yicha unifikatsiyalangan iqtisodiy va huquqiy tartib qo'llaniladi. Qoida tarikasida bu hududlar avval anklav sifatida tashkil etilgan bo'lsa keyinchalik bu hududlardagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati diversifikatsiyalashgan.

Erkin iqtisodiy hududlarni alohida mezonlari bo'yicha tasniflash



3.1-rasm. Erkin iqtisodiy hududlarning alohida mezonlari bo'yicha tasnifi

Tashkil etish usuliga qarab ikki turdagi hududlar farqlanadi: hududiy va funksional EIHlar.

Hududiy – ajratilgan teritoriyali hududlar bo‘lib u yerda faoliyat yurituvchi rezident kompaniyalar faoliyat turidan qattiq nazar xo‘jalik yuritishning imtiyozli tartibidan foydalanadi.

Funksional – imtiyozli tartib hududi bo‘lib, ma’lum turdagi faoliyatga qo‘llaniladi uning xususiyatlari 1-bobning 1.6-paragafida alohida keltirib o‘tilgan.

Egalik turiga (mulk shakliga) qarab EIHlarni davlat, xususiy va aralash turlariga bo‘lish mumkin.

Jahon amaliyotida eng ko‘p qo‘llaniladigan egalik shakli bu aralash turdagi EIHdir. Biroq, keyingi vaqtlarda mahalliy yoki chet el xususiy kapitali borgan sari kattaroq rol o‘ynamoqda va EIHda xususiy mulkning ulushi ortmoqda. Bu tendensiya nainki rivojlangan davlatlarda balki rivojlanayotgan mamlakatlarda va o‘tish iqtisodiyotili mamlakatlarda yorqin namoyon bo‘lmoqda. Ko‘pchilik EIHlarda davlatga faqatgina yer va infratuzilma obyektlari tegishli bo‘lib asosiy xo‘jalik subyektlari sifatida mahalliy va chet el xususiy kompaniyalar faoliyat yuritadi. Shuni ham takidlab o‘tish joizki, keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy EIHlar tashkil etilayaptiki ko‘pchilik infratuzilma obyektlarini tashkil etishni va hududni boshqarishni o‘z zimmalariga olmoqdalar. Shunday qilib davlat egaligi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda va shuningdek, Xitoy, Vetnam va Markaziy Yevropaning o‘tish iqtisodiyotili b’azi-bir mamlakatlarida katta rol o‘ynasada, EIHlarni rivojlanishida xususiy mulk, xususiy kapital borgan sari yetakchi rol o‘ynamoqda.

Funksional vazifasiga qarab EIHlarni quyidagi turlarini farq etish mumkin:

1. Savdo hududlari.
2. Savdo-ishlab chiqarish hududlari.
3. Texnik-tadbiq etish hududi.
4. Xizmat ko‘rsatuvchi hududlar.
5. Kompleks hududlar.

Quyidagi paragarflarda ularning mazmuni, xususiyatlari, faoliyat mexanizmi va asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz.

Shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, bir qator ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida EIHlarni tasniflash asosida quyidagi turlarga ajratilishini kuzatish mumkin:

3.1-jadval.

EIHlarni keng mezonlar asosida tasniflash

Turkumlash mezonlari	EIH turlari
Xo‘jalik faoliyatining tashkiliy shakllari bo‘yicha	Territorial Funksional (yoki tartibli)
Hududning kengayish nuqtai nazaridan	Kengaymaydigan Kengayadigan
Jahon va milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasiga qarab	Ekstravertiv Intravertiv

Tarmoq belgisiga qarab	Aniq turkumlash qiyin (ammo, tajribada ajratishga harakat qilinadi)
Mulkchilik xarakteriga qarab (qaysi mulk hukmronligiga qarab)	Davlat mulki Xususiy mulk Aralash
Yaratishning iqtisodiy motivatsiyasiga qarab	Tadbirkorlik hududi Erkin iqtisodiy hudud
Yaratish maqsadiga qarab	Integratsiyani kengaytirish uchun Mamlakat ichida maxsus tartib (tarmoq, soha) yaratishga
Evolyutsiya jarayoni nuqtai nazaridan	1-avlod 2-avlod 3-avlod 4-avlod
sotish bozorlari nuqtai nazaridan	Importni o‘rnini bosuvchi Eksport Aralash
qo‘yilgan maqsad va bajariladigan vazifaga qarab	Savdo Sanoat ishlab chiqarish Texnik tadqiqot Servis Kompleks Xalqaro
Xo‘jalik faoliyati shakli va mohiyatiga qarab	Monofunksiyali hudud Polefunksiyali hudud
Qaysi sohaga xizmat qilish nuqtai nazaridan	Savdo Sanoat Xizmat yoki funksional
Maydonning kattaligiga qarab	Mikrohudud Mezohudud Makrohudud
Necha mamlakat territoriyasida joylashishiga qarab	Monomillatli hudud Xalqaro hudud
Jahon bozoriga ochiqligiga qarab	Anklav hudud Integratsion hudud
Tadbirkorlik xususiyatiga qarab	Ochiq sektorni shakllantiruvchi hudud Depressiv tumanni rivojlantirish hududi Iqtisodiy markaz tusidagi hudud Tashqi savdo hududi Funksional hudud Kompleks hudud
Chegaralarni belgilash va faoliyat	Yopiq

yuritish tartibiga qarab	Ochiq
Iqtisodiy ixtisoslashuv bo'yicha	Erkin savdo hududi Tadbirkorlik hududi Eksport-sanoat hududi Ilmiy park Kompleks hudud
Tashkil etish xarakteri bo'yicha	Ma'muriy territorial birlik Tarmoq korxonasi
Geografik joylashuv bo'yicha	Ichki hudud Tashqi hudud
Zonalashtiriluvchi obyekt xarakteri bo'yicha	Lokal Kompleks

Quyida yuqorida keltirilgan turkumlash mezonlariga birma-bir to'xtalib o'tamiz.

Xo'jalik faoliyatining tashkiliy shakllari bo'yicha hududlar ikkiga bo'linadi: territorial va funksional (yoki tartibli).

1. Territorial hududlar alohida ajratib olingan maydonda faoliyat yuritadi va u erdagi barcha rezident-firmalar xo'jalik tartibi imtiyozlaridan foydalanadilar.

2. Funksional hududlar katta bir hududda yoki kichik bir mamlakatda ma'lum bir faoliyat turini rag'batlantirish maqsadida tuziladi. Joylashgan joyidan qat'iy nazar faqatgina imtiyozli sohada faoliyat yurituvchi korxonalargina xo'jalik tartibi imtiyozlaridan foydalanadilar.

Hudud maydonining kengayish yoki kengaymasligiga qarab ikki xili ajratiladi: kengaymaydigan, ya'ni vaqt o'tgani bilan maydoni o'zgarmaydigan hududlar va kengayadigan hududlar, ya'ni taraqqiy qilib borishi bilan maydoni kengayadigan hududlarni ajratish mumkin.

Jahon va milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasiga qarab hududlar ikki turga bo'linadi:

1. Ekstravertiv – tashqi bozorga mo'ljallangan EIH.
2. Intravertiv – milliy iqtisodiyotga integratsiyalashgan EIH.

Tarmoq belgisiga qarab EIHLarni aniq turkumlash kiyin, chunki, EIHLarning bir qismigina aniq bir tarmoqqa ixtisoslashgan (masalan, bank ishiga, turizmga, neftni qayta ishlashga, qishloq xo'jaligiga va h.k.), ular, ko'pincha, bir necha tarmoqlarga ixtisoslashgan bo'ladi. Bundan tashqari, universal bo'lgan EIHLar ham mavjud, ya'ni hududda iqtisodiyotning ko'plab sohalari, tarmoqlari rivojlangan bo'lishi mumkin.

Mulkchilik xarakteriga qarab EIHLarni quyidagicha turkumlash mumkin (qaysi mulk hukmron pozitsiyaga egaligiga qarab):

1. Davlat mulki.
2. Xususiy mulk.
3. Aralash (hududda ishlayotgan kapitalga bog'liq).

Iqtisodiy motivatsiyasiga qarab EIHLarni 2 ta katta guruhga bo'lish mumkin:

- tadbirkorlik hududlari;
- erkin iqtisodiy hududlar.

Tadbirkorlik hududlari – regional siyosatning qurolidir, ular tadbirkorlarga

(birinchi navbatda, kichik biznes vakillariga) faoliyat yuritishda katta erkinlik va anchagina moliyaviy imtiyozlar berish orqali depressiv regionlarda kichik biznesni jonlashtirishga qaratilgan bo‘ladi (AQShdagi tadbirkorlik hududlari).

Erkin iqtisodiy hududlar esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni kiritishga mo‘ljallangan ma‘lum maydonlardir. Albatta, hududlarning bunday bo‘linishi shartlidir, chunki, real hayotda ular, ko‘pincha, qo‘shilib ketgan holda uchraydi.

EIHLarni yaratish maqsadiga qarab ham shartli ravishda 2 xil bo‘lishi mumkin:

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish va jahon bozori bilan integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin (masalan, bojxona hududlari, erkin savdo hududlari, eksport ishlab chiqarish hududlari);

2. Mamlakat ichida ma‘lum bir faoliyat turi yoki ishlab chiqarish soha, tarmoqlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish, maxsus tartibni yaratishga qaratilgan bo‘lishi mumkin (agropolislar, texnopolislar, erkin tadbirkorlik hududlari, turistik hududlar va sh.k.).

Yaratilajak EIHLning turi – uni yaratish maqsadlari, ixtisoslik yo‘nalishi hamda xo‘jalik yuritishning alohida sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

EIHLar shakllarining evolyutsiya jarayoni nuqtai nazaridan 4 avlodga bo‘linadi:

1. Birinchi avlod – erkin savdo, bojxona hududlari.
2. Ikkinchi avlod – eksport ishlab chiqarish.
3. Uchinchi avlod – texnopark, texnopolis, offshor markazlar.
4. To‘rtinchi avlod – ekologik-iqtisodiy regionlar, tor ixtisosli hududlar.

Birinchi avlod EIHLar, asosan, tijorat faoliyatiga mo‘ljallangan (bojxona hududlari, erkin savdo hududlari). Bu turdagi hududlar qisqa muddat ichida birlamchi kapitalni yig‘ishga imkon beradi. Keyinchalik, bu yig‘ilgan kapitalni ishlab chiqarish sohasiga qayta investitsiyalash mumkin bo‘ladi. Shu asosda EIHLarning ikkinchi avlodini (savdo-ishlab chiqarish hududlari, sanoat-ishlab chiqarish hududlari) yaratishga shart-sharoitlar yaratiladi. Uchinchi avlod EIHLar esa innovatsion faoliyatga tayanadi, ya‘ni fan-texnikada yangiliklarni yaratish va ularni tezda ishlab chiqarishga tadbiriq etishga mo‘ljallangan hududlardir (texnopark, texnopolis, ilmiy park kabilar). Hozirgi paytda EIHLarning to‘rtinchi avlodi tor sohaga ixtisoslashib bormoqda yoki butun bir rayonni o‘z ichiga olmoqda. Hozirgi zamonda EIHLar oilasida ikkinchi avlod hududlari markaziy o‘rin egallaydi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish bozorlari nuqtai nazaridan hududlar uchga ajratiladi:

1. Importni o‘rnini bosuvchi (ichki bozor uchun ishlaydi).
2. Eksport (tashqi bozorga ishlaydi).
3. Aralash (ikkala bozorga ishlaydi).

Qo‘yilgan maqsad va bajaradigan vazifalariga qarab EIHLarni quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Erkin savdo hududlari, erkin portlar, tranzit hududlar, bojsiz omborlar va bojxona hududlari. Ular bojxona to‘lovlarini bekor qilish (yoki yumshatish), hududga keluvchi va undan reeksport qilinuvchi tovarlarni eksport-importi nazoratini yumshatishga (ayrim holda bekor qilishga) asoslangan. Ular tashqi savdo, transport, tovarlarni saqlash kabi muolajalarni bajarishda yuqori foyda olishga qaratilgandir.

Bu hududlarni tashkil etishda birlamchi yirik investitsiya talab qilinmaydi, faoliyatni boshqarishda va mamlakat iqtisodiyotining qolgan qismi bilan o'zaro ta'sirda murakkab mexanizmlarga ham hojat yo'q).

2. Eksport ishlab chiqarish hududlari. Ular eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni rivojlantirishga mo'ljallangan. Bu hududlar nafaqat imtiyozli savdo va bojxona tartibini qo'llashgan asoslangan, balki imtiyozli moliyalashtirish, imtiyozli soliq tartibi (shu jumladan, xorijiy kapital uchun)ni ham qo'llaydilar

Eksport ishlab chiqarish hududlari, o'z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

2.1. Eksport hududlar.

2.2. Eksport-importni o'rnini almashtirish hududlari.

2.3. Importni o'rnini almashtirish hududlari.

3. Funktsional yoki tarmoqli hududlar. Bular turizm, sug'urta, bank, offshor hududlar va soliq gavanlaridir (ayrim funksiyani yoki faoliyatni amalga oshirishda imtiyozli tartibga ega bo'lgan sanoat hududlaridir).

Shveysariya, Lyuksemburg, Gonkong, Singapur, Baxrayn, Kayman orollari bank faoliyatiga ixtisoslashgan offshor markazlardir.

Lixtenshteyn va Shveysariyada offshor xolding kompaniyalar ko'p bo'lsa, sug'urta firmalari Men, Terks, Gernsi, Kaykos, Bermud orollarida ko'p.

Offshor dengiz kompaniyalari esa Beliz, Gibraltar, Panama, Liberiyada ro'yxatga o'tishni ma'qul ko'rishadi.

4. Texnik tadqiqot hududlari (texnoparklar, texnopolislar, ilmiy-ishlab chiqarish parklari) funktsional hududlarning bir ko'rinishi bo'lib, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llashda, bilim ko'p talab qiladigan mahsulotni yo'lga qo'yish va uning eksportini oshirishga turli xil imtiyozlarni beradi. Bu kabi hududlar infrastruktura uchun birlamchi yirik kapital mablag'lari qo'yishni talab qiladi.

Moliyalashtirish turli xil manbalardan: davlat budjeti, mahalliy budjet, qarz mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Ular davlatning tadqiqot markazlari va sanoatning ilm ko'p talab qiladigan tarmoqlarida faoliyat yurituvchi korxonalarining o'ziga xos kompleksidir.

Ularning shartli ravishda 3 modelini farqlash mumkin:

A) Amerika modeli (AQSh, Buyuk Britaniya);

B) Yapon modeli (Yaponiya) va

S) aralash model (Fransiya, Germaniya).

Tajriba shuni ko'rsatadiki, ilmiy parklarning ko'pchiligi mahalliy hukumatlar tomonidan tashkillashtirilgan. Qurilish, infrastrukturani jihozlash, tashkil etish uchun zarur bo'lgan mablag'ning 75 % ini ular berishgan.

Har bir EIHning hayot tsikli o'ziga xos bo'lib, u, nafaqat, region xususiyati yoki EIHning turi, tusiga bog'liq, balki, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik rivojlanish xususiyatlariga, siyosiy tuzilishga va boshqa ko'plab omillarga bog'liq.

Qaysi sohalarga yoki tarmoqlarga xizmat ko'rsatish nuqtai nazardan hududlarni uchga ajratishadi:

1. Savdo.

2. Sanoat.

3. Funktsional yoki xizmat ko'rsatish sohasi.

Hudud maydonining kattaligiga qarab ham turkumlanadi:

1. Mikrohudud – bir korxonada, portga imtiyozli xo‘jalik tartibi berish.
2. Mezohudud – ma‘muriy bir rayonning bir qismini o‘z ichiga olgan, aniq bir chegarasi bo‘lgan (“Shennon” EIH kabi) erkin iqtisodiy hudud.
3. Makrohudud – mamlakatning butun bir rayoni, shahri yoki kichik bir mamlakatda joylashgan erkin iqtisodiy hudud.

Hudud necha mamlakat territoriyasida joylashganiga qarab esa:

1. Monomillatli hudud, ya‘ni bir mamlakat ichida joylashgan hudud.
2. Xalqaro hudud, ya‘ni ikki va undan ortiq mamlakat o‘rtasidagi hudud hisoblanadi. Turli mamlakatda bo‘lishidan qat‘i nazar unda bir xil o‘yin qoidalari va adekvat xo‘jalik yuritish imtiyozlari mavjud bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyot bilan o‘zaro ta‘siriga qarab yoki boshqacha aytganda jahon bozoriga ochiqligiga qarab hududlar quyidagi ikki turga ajratiladi:

1. Anklav tarzidagi EIH, bunda u eksportga va valyuta tushumi olishga mo‘ljallangan. Anklav xarakterdagi hududda mamlakatning qolgan qismi bilan aloqa qilish uchun yopilgan, biroq tashqi aloqalar uchun ochiqdir. Anklav xarakterdagi hudud integratsion hududning antipodidir, u asosan, erkin, konvertli valyuta oqimini oshirish maqsadida yaratiladi. Anklav hududlar faqat tashqi bozorga mo‘ljallab ishlab chiqarishni tashkil etadigan hududlardir. Anklav xarakterda bo‘lgan EIH milliy iqtisodiyotga samarali ta‘sir eta olmaydi.

Anklav hududlar, odatda, mamlakatning shunday maydonida tuziladiki, u tabiiy jihatdan (alohida orol, yarim orol sifatida) boshqa hududlardan ajralgan bo‘ladi. Ammo, ular shahar ichida ham yaratilishi mumkin. EIHning mamlakat territoriyasidan alohidalik darajasi unda amal qiluvchi iqtisodiy, huquqiy va bojxona reglamentlari bilan aniqlanadi. EIH faoliyati to‘g‘ri tashkil etilsa, u egallagan maydon mamlakatning qolgan iqtisodiyotidan ajralgan, ya‘ni anklav bo‘lmaydi, aksincha, boshqa regiondagi korxonalar bilan chuqur kooperatsiya aloqalari o‘rnatib, ular uchun o‘ziga xos **“tashqi dunyoga eshik”** rolini bajaradi. **EIHning anklavlik xarakteri mamlakatning bozorga qarab harakati va ochiq iqtisodiyot yarata borishi bilan yo‘qolib boradi.** Bozor iqtisodiyotiga qarab taraqqiy qilib borar ekan, mamlakat ichida xo‘jalik yuritish shart-sharoiti jahon bozoridagi shart-sharoitga yaqinlashib boradi. Buning oqibatida EIH funksiyalari modifikatsiya bo‘ladi.

2. Integratsion tarzidagi EIH, bunda milliy iqtisodiyot va tashqi bozor bilan kuchli bog‘langan bo‘lib, faoliyat yuritish tartibining ancha erkinligi bilan farq qiladi. Integratsion xarakterdagi hududda aktiv gorizontal aloqalarni rivojlantirish xarakterli bo‘lib, hududdan tashqari bo‘lgan xo‘jalik subyektlari faoliyati bilan tig‘iz o‘zaro ta‘sir etish tamoyili hududning faoliyat mexanizmida qo‘yilgan. Integratsion hududlar milliy va jahon xo‘jaligi bilan uzviy bog‘langan, faoliyat yuritishda erkinroq tartibga ega bo‘ladi. Agar **anklav hududlar rivojlanayotgan mamlakatga xarakterli bo‘lsa, integratsion hududlar rivojlangan iqtisodiyotga ega bo‘lgan, xalqaro mehnat taqsimotida faolroq qatnashgan mamlakatlar uchun xarakterlidir.** Integratsion hududlar kuchli internatsionallashgan bozor iqtisodiyotlariga mos hisoblanadi.

Integratsion hududlar birlamchi anklav xarakterda tashkil etilgan, tranzit

savdoga xizmat qiladigan holatda tashkil etiladi. Keyinchalik hududda subyektlarning xo‘jalik faoliyati diversifikatsiyalashib boradi. Integratsion hududlarda mamlakatning qolgan territoriyasiga nisbatan soddalashtirilgan iqtisodiy va huquqiy tartib o‘rnatiladi.

EIHLar xo‘jalik faoliyatining shakli va mohiyatiga qarab: **monofunksiyali va poleofunksiyali** bo‘ladi.

Birinchisi uncha murakkab bo‘lmagan funksiyalarni bajarishga qaratilgan. Ular tranzit yuklarni tashishga xizmat qilish, tovarlarni yuklash va saqlash kabi xizmatlarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, odatda portlar, omborlar, aeroportlar, chegara rayonlarida joylashadi.

Ikkinchi guruh hududlar esa biznes faoliyatining ko‘p funksiyaliligi bilan farq qiladi va o‘z ichiga tranzit muolajalarni, savdoni, sanoatni, xizmat ko‘rsatishni, pul muomalasini va boshqa sohalarni oladi.

Tadbirkorlik xususiyatiga qarab, EIHLarni quyidagicha turkumlaydilar:

1. Mamlakat iqtisodiyotining “ochiq sektori” ni shakllantiruvchi hudud.
2. Mamlakatning depressiv tumanlarini rivojlantirish hududi.
3. Anklav tusdagi hudud.
4. Iqtisodiy markaz tusidagi hudud.
5. Tashqi savdo hududi.
6. Funksional hudud.
7. Kompleks hudud.

Chegaralarni belgilash va EIHLni faoliyat yuritish tartibiga qarab ikkiga bo‘linadi:

1. Yopiq.
2. Ochiq.

Erkin iqtisodiy hududlar iqtisodiy ixtisoslashuv nuqtai nazardan ham turkumlanadi:

1. Erkin savdo hududlari.
2. Eksport-sanoat hududlari.
3. Tadbirkorlik hududlari.
4. Ilmiy parklar.
5. Kompleks hududlar.

Turkumlashda tashkil etish xarakteri ham asos bo‘lishi mumkin:

1. Funksional yondashuv.
2. Territorial yondashuv.
3. Ma‘muriy territorial birlik.
4. Tarmoq korxonasi.

Joylashish geografiyasiga qarab ham EIHLar ikkiga bo‘linadi:

1. Ichki hududlar, mamlakatning ichki qismida, chegaradan ancha uzoqda joylashgan hududlar.

2. Tashqi hududlar, mamlakatning chegarasida yoki chegaraga ancha yaqin joyda joylashgan hududlar (EIHLarni qirg‘oq oldi, chegarada va mamlakat ichida joylashgan hududlar tarzida ham ajratish mumkin).

O‘z navbatida, har bir mamlakatda EIHLarning talab etilgan shakli va turi tashkil

etiladi. Bunga esa o'ziga xos sabab va omillar ta'sir ko'rsatadi. Chunki hech bir davlat jahon amaliyotida mavjud barcha EIHLar turlarini tashkil etishga majbur emas.

EIHLarni tashkil etuvchi mamlakat uchun ushbu hudud namunaviy samara ham beradi. Ya'ni milliy iqtisodiyotga yuqori malakali mehnat resurslari keladi, zamonaviy texnologiyalar, nou-xaular, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish tajribasi olib kelinadi hamda mahalliy kadrlarga o'rgatiladi. Erkin iqtisodiy zonalar marketing samarasini beradi, ya'ni zonada yaxshi ishni tashkil eta olgan korxonalar (firmalar) mamlakatning qolgan korxonalari uchun ishni tashkil etishda o'rnak bo'ladi. Erkin iqtisodiy zonalarda hukumat tomonidan qo'yiladigan to'siqlarni kamaytirish yo'li ham ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu esa mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonini tezlashishiga yordam beradi.

Erkin iqtisodiy zonalarlar ustunligining yana bir jihati ilg'or texnologiyalarning berilishi (tarqalish)dir. U bevosita, bilvosita va raqobat samaralarini beradi:

- bevosita samara – bu erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalarining yangi texnologiya tufayli zamonaviy, raqobatbardosh, sifatli, arzon tovarlar ishlab chiqarishlaridir;

- bilvosita samara – bu erkin iqtisodiy zonalardagi yangi texnologiya bilan ishlayotgan korxonalar, uni tayyor mahsulotini ishlatadigan, unga xomashyo, yarim tayyor mahsulot yetkazib beradigan korxonalariga zamon talablariga javob beradigan buyurtmalar orqali ijobiy ta'sir qilishidir;

- raqobat samarasi – bu yangi texnologiyaga o'tgan korxonalar zona ichida va zonadan tashqari firmalar o'rtasida raqobatni kuchaytirib yuboradi, buning natijasida firmalarni ilg'or texnologiyalarni qo'llashga, yangi texnologiyalar yaratish uchun ilmiy tadqiqotlar qilishga majbur qiladi.

Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarning hisobga olinishi muhim o'rin egallaydi:

- EIHLar uchun joy tanlashda oqilona yondashuv (tanlangan maydonda investitsiyaviy hamkorlikni olib borish uchun obyektiv sharoitlarning mavjudligi;

- imtiyoz va qulayliklar tizimini yaratishda xorijiy investorlar manfaatini har tomonlama hisobga olish;

- qabul qiluvchi mamlakatda qulay investitsiya muhitini saqlash kafolatining mavjudligi;

- EIHLar zaruriy va ishchi infratuzilmasining mavjudligi yoki uni yaratish uchun moliyalashtirish imkonining borligi;

- EIH ma'muriy boshqaruv tizimining samaraliligi va o'ta moslashuvchanligi.

Umuman olganda, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIHLar faoliyati samaradorligiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning samaradorligi esa EIHLar uchun joyni to'g'ri tanlash, yo'nalishni to'g'ri tanlash, siyosiy, moddiy, moliyaviy, iqtisodiy, geografik, ekologik, mehnat, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy, huquqiy, infratuzilmaviy va boshqa turli omillarni hisobga olish, xorijdan investitsiya va texnologiyalarni jalb qila bilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtira olishga bog'liq.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, mezon, tasnif, sifat, belgi, tadbirkorlik, iqtisodiyot,

mahsulot, ishlab chiqarish, texnologiya, .

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Jahon amaliyotida mavjud EIHLar faoliyatidan kelib chiqib, ularning tashkil etilish va faoliyat ko'rsatish xususiyatlariga qarab, guruhlanishi va tasniflanishi kuzatiladi. Bu esa EIHLarning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda alohida guruhlariga ajratib o'rganish, baholash va tegishli xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Iqtisodiy va ilmiy adabiyotlarda EIHLarning bir qancha turlari mavjudligi keltirib o'tilgan. Shunga ko'ra, ularga alohida mezonlar va sifatlar bo'yicha tasniflash bo'yicha tadqiqotlar natijalari bugungi kunga qadar ilmiy bahs va munozalaraga sabab bo'lib kelmoqda. Zero, EIHLarning o'ziga xos xususiyatlari ularga turlicha yondashuvlar asosida tasnifiy baho berishga ham sabab bo'lmoqda.

3. Yuqorida keltirilgan EIHLarni tasnifiy belgilari ularni ma'lum va o'xshash xususiyatlari bo'yicha ma'lum, alohida guruhlariga ajratish imkonini bersa-da, biroq, ular faoliyati mustaqil va o'ziga xos munosabat talab etuvchi xarakterni saqlab qolaveradi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarni tasniflashdan maqsad nima?
2. Erkin iqtisodiy hududlarning alohida mezonlari bo'yicha tasnifiga nimalar kiradi?
3. Anklav hududlar deganda qanday hududlarni tushunasiz?
4. Integratsiyalashgan hududlar deganda qanday hududlarni tushunasiz?
5. Aralash hududlar qanday hududlar sanaladi?
6. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

3.2. Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlari sifatida savdo hududlari xususiyatlari. Savdo erkin iqtisodiy hududlari turlari: erkin savdo hududi, erkin bojxona hududi, omborxonahududlari, erkin portlar va bojsiz savdo do'konlari

Funksional vazifasiga qarab EIHLar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Erkin iqtisodiy hududlarning shakllari									
Savdo hududlari		Savdo-ishlab chiqarish hududlari		Texnik-tadbiq etish hududlari		Xizmat ko'rsatuvchi hududlar		Kompleks hududlar	
Mos ravishda ularning turlari									
1	Erkin savdo hududi	1	Sanoat-ishlab chiqarish hududi	1	Texnopark	1	Erkin bank hududi	1	Maxsus iqtisodiy hudud
2	Erkin bojxona hududi	2	Eksport-ishlab chiqarish hududi	2	Erkin ilmiy hudud	2	Offshor hudud	2	Mintaqaviy hudud
3	Omborxonahududlari	3	Kichik tadbirkorlik	3	Texnopolis	3	Turistik hudud	3	Xalqaro EIHL

			hududi					
4	Erkin port	4	Import hudud	4	Ilmiy- texnologik hudud	4	Erkin qayta ishlash hududi	
5	Bojsiz savdo do'konlari	5	Erkin savdo- ishlab chiqarish hududi	5	Erkin innovatsiya hududi	5	Erkin sug'urta hududi	
6	Erkin tashqi savdo hududi	6	Agropolis	6	Ilmiy-texnik tijorat parki	6	Makiladoris	
7	Erkin logistik hudud							
8	Tranzit hudud							

3.2-rasm. Erkin iqtisodiy hududlarning shakllari

3.1-rasmda keltirilgan funksional vazifasiga qarab ajratilgan EIHLar turlarining 3.2-rasmda keltirilgan alohida tarkiblari bo'yicha EIHLarning xususiyatlari bilan quyida tanishish mumkin.

3.2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, funksional vazifasiga qarab ajratilgan EIHLar tarkibida dastlabkisi va jahon tarixida ham ilk tashkil etilgan turli savdo hududlari hisobalanadi.

EIHLarning mazkur guruhida bugungi kunda 6 ta EIHLar kiradi. U yuqoridagi rasmda keltiril o'tilgan.

Mazkur EIHLar ularning rivojlanishining 4 ta avlodining dastlabkisi sifatida vujudga kelgan bo'lib, quyida ularning keyingi avlodlarida tashkil etilgan turlari haqida qisqacha bayon etilgan.

EIHLar shakllarining evolyutsiya jarayoni nuqtai nazaridan *4 avlodga* bo'linadi:

1. Birinchi avlod – erkin savdo, bojxona hududlari.
2. Ikkinchi avlod – eksport ishlab chiqarish.
3. Uchinchi avlod – texnopark, texnopolis, offshor markazlar.
4. To'rtinchi avlod – ekologik-iqtisodiy regionlar, tor ixtisosli hududlar.

Birinchi avlod EIHLar, asosan, tijorat faoliyatiga mo'ljallangan (bojxona hududlari, erkin savdo hududlari). Bu turdagi hududlar qisqa muddat ichida birlamchi kapitalni yig'ishga imkon beradi. Keyinchalik, bu yig'ilgan kapitalni ishlab chiqarish sohasiga qayta investitsiyalash mumkin bo'ladi.

Shu asosda EIHLarning ikkinchi avlodini (savdo-ishlab chiqarish hududlari, sanoat-ishlab chiqarish hududlari) yaratishga shart-sharoitlar yaratiladi.

Uchinchi avlod EIHLar esa innovatsion faoliyatga tayanadi, ya'ni fan-texnikada yangiliklarni yaratish va ularni tezda ishlab chiqarishga tadbiiq etishga mo'ljallangan hududlardir (texnopark, texnopolis, ilmiy park kabilar).

Hozirgi paytda EIHLarning to'rtinchi avlodi tor sohaga ixtisoslashib bormoqda yoki butun bir rayonni o'z ichiga olmoqda. Hozirgi zamonda EIHLar oilasida ikkinchi avlod hududlari markaziy o'rin egallaydi.

Savdo hududlari *erkin savdo hududi, erkin bojxona hududi, omborxonahududlari, erkin portlar va bojsiz savdo do'konlari* shaklida faoliyat yuritadi.

Erkin savdo hududlari (ESH) erkin bojxona hududlari kabi birinchi avlod

hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan beri mavjud. ESH umummilliy bojxona hududidan nisbatan mustaqil bo'lgan hududiy bo'linmalar bo'lib ularning faoliyati tovar almashinuvini tezlatishga va tashqi savdoni rag'batlantirishga qaratilgan. Buni amalga oshirish uchun ESHlariga keyinchalik reeksport qilish uchun mo'ljallangan tovarlar bojxona to'lovlari, import soliqlari, kvota va boshqa turdagi moliyaviy nazoratlardan ozod qilingan holda kiritiladi. ESHga kiritilayotgan tovar-mahsulot deklaratsiya qilinmaydi, ammo, bojxona ma'muriyati hudud ichida kontrobanda va taqiqlangan tovarlar kirib kelishining oldina olish maqsadida nazorat tashkil etish huquqiga ega.

Hudud ichida iste'mol qilinadigan va foydalanadigan chet elda ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti import deb hisoblanadi va bojxona to'lovlari to'lanishi kerak. Hududga kiritilgandan so'ng bu tovarlarga shu hududda qabul qilingan barcha eksport imtiyozlari (soliq chegirmalari, soliq mukofatlari, avvalgi amalga oshirilgan to'lovlarni qaytarish va boshqalar) qo'llaniladi. Hududdan qabul qiluvchi davlatga junatilayotgan tovar ham bojxona to'lovlar va import soliqlariga tortiladi. Lekin, ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda tarkibida mahalliy ishlab chiqarishning ulushi qo'shilgan tovarlar importi uchun bojxona tariflarini kamaytirish ko'zda tutilgan.

ESHning asosiy funksiyalari tovarlarni olib kelish, saqlash sartirovkalash va qayta ishlamasdan jo'natishdan iborat. Bazi bir hollarda eksport qilinadigan tovarlarni juziy qayta ishlashga ruxsat beriladi. ESHda, shuningdek, tovarlarni ko'rgazma markazlarida ularni kelgusida sotish maqsadida namoyish etish ham mumkin. Bunda tovarlar faqatgina ulgurji savdo qilinishi mumkin. Chakana savdo faqatgina dengiz va havo kemalarining ekipajlari va pasajirlari uchun ruxsat beriladi, xolos. Bunday hududlar unchalik katta investitsiyalarni talab qilmaydi va sarflangan mablag'larni tezda qoplaydi.

ESH AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida eng ko'p tarqalgan. ESHning bir ko'rinishi bu ***erkin bojxona hududi (EBH)dir***. Ular tashqi savdo faoliyatini faollashtirish maqsadida tuziladi. EBH maxsus tadbirkorlik faoliyati tartibi o'rnatilgan mamlakatning chegaralangan bojxona hududidir.

Turli mamlakatlarning bojxona kodeksiga binoan erkin bojxona hududida chet el tovarlari bojxona to'lovlari va soliqlarsiz, milliy tovarlar esa bojxona-eksport tartibiga ko'ra joylashtiriladi. Bunday hududlar ko'pinchalik ***erkin bojxona hududi*** yoki ***bond ombori*** deb ataladi. Ular, odatda, dengiz va daryo portlarida, havo yo'llari portlarida va transport magistrallarida hamda alohida sanoat tumanlarida import tovarlarini juz'iy qayta ishlash, tamg'alah va navlarga ajratish, tushurish, ortish va bojxona ko'rigidan o'tmagan tovarlarni intimyozli saqlash, zarur holatlarda butlash va sotish hamda xorijiy valyutada daromad olish maqsadida maqsadida tashkil etiladi. Bundan tashqari, EBH kema va boshqa transport vositalarini ta'minlash bilan ham shug'ullanadi. Ba'zi-bir G'arbiy Yevropa mamlakatlarida EBHlarida ayrim turdagi ishlab chiqarish faoliyatiga ham ruxsat berilgan.

Bojxona to'lovlarini kamaytirishdan, import tovarlarini saqlashni uzoq muddatlaridan, ustama harjatlarini kamaytirishdan keladigan daromadlarga qaramasdan bunday hududlarning eksport ishlab chiqarishini rivojlantirish va unga milliy moddiy va mehnat resurslarini jalb etish imkoniyati anchayin chegaralangan.

Erkin bojxona hududlari asosan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan.

Erkin port – to‘lig‘icha erkin port (*italiyancha, Porto franko*), xorijiy tovarlarni tashish, saqlash, sotish va lozim bo‘lsa qayta ishlash kabi vazifalar yuklatilgan davlatning chegaralangan port hududi³³.

Bunday iqtisodiy hududlardan foydalanish mol yetkazib beruvchilar uchun ancha qulay bo‘lgan, chunki ular tovarlarga yetarlicha talab, albatta, unga mos ravishda narxning ham ko‘tarilishini, tovarni sotmasdan kutib turish, mahsulotni ulgurji xaridorlarga taqdim etish imkoni beradi. Yana bir qator olimlar 1547-yilda erkin savdo shahri, deb e‘lon qilingan Italiyaning Livorno shahrini ilk erkin iqtisodiy hudud, deya e‘tirof etadilar³⁴.

Keyinchalik “erkin portlar” tashkil qilingan. Bu hududlarda tovarlar xaridor topilgunicha, boj to‘lovlari to‘lamasdan omborlarda saqlangan. Dastavval “erkin portlar” ichki bozorni rivojlantirish uchun tashkil qiling, keyin esa, xalqaro savdoning rivojlanishiga hissa qo‘shish maqsadlariga xizmat qilgan. “Erkin portlar” Genuyada (1595 y.), Venetsiyada (1661 y.), Marselda (1669 y.), Odessada (1819 y.), Vladvostokda (1862 y.), Batumida (1878 y.) tashkil qilingan³⁵. Ular porto-frankolar Maltada, Sulinda, Singapurda va Adeniyada mavjud edi. Ikkinchi jahon urushigacha 26 mamlakat ishtiroki bilan 75 ta erkin portlar va erkin savdo hududlari tashkil qilingan³⁶.

Ayrim manbalarda esa, 1817-yilda Marsel, Genuya va Livorno kabi hududlarda tashqi savdoni yyengillashtirish uchun erkin portlarni joriy etish to‘g‘risidagi farmonlar e‘lon qilingan. Shu jumladan, 1819-yilning 4-iyulidagi Qirollik farmoni bilan, 15 avgustdan boshlab, Odessadagi erkin port tashkil etilgan. Erkin portlarga yana quyidagicha hududiy jihatdan mamlakatga qarashli ammo bojxona tariflaridan holi hudud sifatida qaraladi va aynan shu hudud ichiga tovarlar import qilinishi, reeksport qilinishi yoki qayta ishlanishi mumkin. Shu jarayonlarda agarda mamlakat hududi ichkarisiga kiradigan bo‘lsa, ya‘ni tovarlar va mahsulotlar haqida gap bormoqda, shu holatdagina bojxona bojlari olinishi mumkin. Shu holatda ham soliq va bojxona bojlari pasaytirilgan narxlarda olinadi³⁷.

3.2-jadval.

Jahon miqyosida erkin portlarning rivojlanish davrlari (1547-1824 yy.)³⁸

Port	Yillar	Port	Yillar
Livorno	1547-yil	Triest	1719-yil
Genuya	1595-yil	Fiumalar	1719-yil
Venetsiya	1661-yil	Gamburg	1727-yil
Altona	1664-yil	Ankona	1732-yil
Marsel	1669-yil	Messina	1732-yil
Gibraltar	1706-yil	Feodosiya	1798-yil
Port Magon	1718-yil	Bremen	1824-yil

³³ <http://chtooznachaet.ru/porto-franko.html>

³⁴ Андрианов В.Д. Россия: Экономический и инвестиционный потенциал. – М.: Экономика, 1999. – 467 с.


³⁵ www.vlasovaandpartners.ru/ru/pub7_sez.shtml Ryu Laxreev SEZ

³⁶ Андрианов В.Д. Россия: Экономический и инвестиционный потенциал. – М.: Экономика, 1999. – 467 с.

³⁷ <https://www.cps.org.uk/research/the-free-ports-opportunity/>

³⁸ chtooznachaet.ru/porto-franko.html

3.3-rasmda keltirilishicha erkin portlar va oddiy portlarning tafovutini ko‘rish mumkin. Shundan ko‘rinib turibdiki, oddiy portlar ham quruqlik ham bojxona chegaralari bilan chegaralangan hisoblanadi. Erkin portlarda esa, faqatgina quruqlik chegarisini ko‘rishimiz mumkin.




A – import, B – quruqlik chegarsi, C – bojxona chegarasi, D – eksport, F – erkin port.

3.3-rasm. Erkin port va oddiy portlar tafovuti³⁹.

Shu o‘rinda ularning eksport va importiga ham e‘tibor qiladigan bo‘lsak, shu hududning o‘zida eksport va import qilingan tovarlardan hech qanday bojxona bojlari undirilmaydi. Agarda mamlakat ichkarisiga eksport import faoliyati amalga oshirilsa, olib kirilayotgan mahsulotlar uchun bojxona bojlari va soliqlar undiriladi.

Quyida keltirilgan tasvirda oddiy portlardagi va erkin portlardagi soliq va bojxona tizimlari tasvirlangan.



A_1 – soliq va bojxona bojlari olinishi; B_1 – mahalliy import; C_1 – bojxona bojlari olinishi kerak bo‘lgan tovarlar; D_1 – ishlab chiqarish markazi.


3.4-rasm. Erkin port va oddiy portlarda mahsulotlarni import va eksport qilishda undiriladigan soliqlar⁴⁰.

Bu jarayon deyarli barcha erkin port hududlarda amalga oshiriladi. 3.5-rasmda Buyuk Britaniya erkin portlarida xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirishdan to

³⁹ <https://www.cps.org.uk/research/the-free-ports-opportunity>, 6-page.

⁴⁰ <https://www.cps.org.uk/research/the-free-ports-opportunity>, 8-page.


savdo uchun jo‘natilishigacha bo‘lgan jaroyonni ko‘rishimiz mumkin. Agarda oddiy port hududga xomashyo olib kirilsa, undan 15% bojxona bojlari undiriladi. Shu qatorda, erkin portda joylashgan korxonaga xomashyo kiritiladigan bo‘lsa hech qanaqa bojar ndirilmaydi. Agarda shu hududda joylashgan korxonadan mamlakat ichkarisiga kiritiladigan bo‘lsa, tayyor mahsulotdan 2% li boj undiriladi.



A_2 – oddiy portlarda xomashyo uchun 15%li bojxona boji; B_2 –traktor zavodi; C_2 – tayyor mahsulot; D_2 – savdo; E_2 – erkin port hududidan mamlakat ichkarisiga eksportdan 2%li boj (tayyor mahsulot uchun); F_2 – oddiy port hududida kirishda xomashyodan 15%li boj.

3.5-rasm. Buyuk Britaniya erkin port va oddiy port hududida xomashyodan undiriladigan bojar⁴¹.

Agar 2018-yil sentabr oyi holatiga dunyo mintaqalari bo‘yicha portlarning sig‘imini ko‘radigan bo‘lsak, u holda jami portlar sig‘imining asosiy qismi – 66% ulushini Osiyo mintaqasi egallaganligiga guvoh bo‘lish mumkin (3.6-rasm).



3.6-rasm. Dunyo mintaqalari bo‘yicha portlarning sig‘imi⁴²


Bu esa Osiyo mintaqasida joylashgan portlarda xizmatlar ko‘rsatish potentsiali

⁴¹ <https://www.cps.org.uk/research/the-free-ports-opportunity>, 9-page.

⁴² https://transportationstore.informa.com/wp-content/uploads/woocommerce_uploads/2018/09/LL-Top-Ports-sampler.11-page.

yuqori ekanligini va tovarlar va yuklar aylanmasining asosiy qismi ushbu mintaqa orqali amalga oshirilishini bildiradi. Sababi yuqori o‘rinlarda turgan portlarning deyarli barchasi Xitoy Xalq Respublikasi portlari hisoblanadi.

O‘z navbatida, portlar tomonidan ko‘rstailgan xizmatlar sig‘imi bo‘yicha Xitoy dengiz portlari dunyoning Top-10 taligida 7 ta o‘rinni egallaganligi ham buni amalda yaqqol tasdiqlaydi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Dunyo portlarining Top-10 taligi reytingi⁴³

E‘tiborli tomoni shundaki, dunyo portlarining Top-10 taligi reytingida barcha portlar Osiyo mamlakatlari (Xitoy – 7 ta, Singapur, Janubiy Koreya va BAA – 1 tadan) portlari egallaganligini ko‘rish mumkin. Top-20 talikning 16 tasida Osiyo mamlakatlari portlari o‘rin olganligi ham e‘tiborga molikdir.

Mana shu kabi imtiyozlar berilgan ekan, erkin portlarda o‘z tadbirkorlik faoliyatingizni yuritishingiz mumkinki, bunda biror-bir faoliyatga investitsiya kiritish foydadan holi emas, albatta. Agar hozirgi texnika taraqqiyoti davrida aynan shu sohaga investitsiyalar kiritilsa, u o‘z samarasini bermasdan qolmaydi.

Eng sodda erkin savdo hududiga maxsus bojxona to‘lovlarisiz savdo do‘konlarini (“dyuti fri”) kiritish mumkin. Bojxona tartibi nuqtai nazaridan ular xuddi mamlakat chegarasidan tashqaridagidek ko‘riladi. Bu erda amal qiluchi bojxona rejimiga ko‘ra, tovarlar bojxona to‘lovi va soliqlar olinmagan holda sotiladi. Bunday do‘konlarda tovarni faqatgina chakana usulda va faqatgina chet elga chiqib ketayotgan jismoniy shaxslarga sotish ruxsat etiladi.

Bojsiz savdo do‘konlari boj olinmaydigan savdo do‘konlari deb ham nomlanib, tovarlarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi talablariga va shartlariga muvofiq bojxona nazorati ostida realizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan savdo obyektini hisoblanadi. Boj olinmaydigan savdo do‘konining hududi savdo zallarining, yordamchi binolarning va do‘kon omborining hududlarini o‘z ichiga oladi.

⁴³https://transportationstore.informa.com/wp-content/uploads/woocommerce_uploads/2018/09/LL-Top-Ports-sampler.11-page.

Dunyodagi birinchi bojxona to'lovlarisiz savdo magazini 1947-yilda Shennon aeroportida (Irlandiya) tashkil etilgan bo'lib, unda farang atir upalari, irland kiyim kechaklari va boshqa kam hajmli tovarlar sotilgan. O'sha davrdan beri bunday savdo tizimi keng tarqaldi. Sotish hajmi bo'yicha eng katta bojxona to'lovlarisiz savdo markazlari bu Amsterdam, Dubay va Singapurdir.

Boj olinmaydigan savdo do'konining ishlashini ta'minlash uchun zarur O'zbekiston tovarlariga boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi qo'llanilmaydi.

Boj olinmaydigan savdo do'konlari ikki turga bo'linadi:

a) bojxona hududiga kirib kelayotgan va bojxona hududidan tashqariga chiqib ketayotgan jismoniy shaxslarga bojxona hududiga olib kirilgan chet el tovarlarini yoki O'zbekiston tovarlarini O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida va (yoki) chet el valyutasida realizatsiya qilishga, shu jumladan, joyning o'zida iste'mol qilish uchun chakana sotishga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o'tadigan jismoniy shaxslar uchun boj olinmaydigan savdo do'koni;

b) chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga, ushbu tashkilotlarning chet ellik xodimlariga, shuningdek, ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan oila a'zolariga bojxona hududiga olib kirilgan chet el tovarlarini O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida va (yoki) chet el valyutasida realizatsiya qilishga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxslar uchun boj olinmaydigan savdo do'koni.

Savdo hududlarining yana bir turi erkin omborlar hisoblanib, erkin ombor maxsus jihozlangan va belgilangan joy bo'lib, u tovarlarni erkin ombor bojxona rejimida bojxona nazorati ostida saqlash uchun mo'ljallangan binolar hududini va (yoki) ochiq maydonchalarni o'z ichiga oladi.

Erkin omborning ishlashini ta'minlash uchun zarur O'zbekiston tovarlariga erkin ombor bojxona rejimi qo'llanilmaydi.

Boshqa tovarlarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida saqlash sharoitlari talab etiladigan tovarlar bunday tovarlarni saqlash uchun maxsus moslashtirilgan omborlarda yoki erkin omborning bir qismi bo'lgan alohida binolarda qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan majburiy talablarga rioyaqilingan holda saqlanishi kerak.

Odatda, savdo hududlari bojxona anklavi sifatida tashkil etiladi. Savdo hududidagi korxonalar uning hududidan tashqaridagi korxonalar bilan bog'liq emas va ularning mahsuloti eksport uchun muljallangan bo'ladi. Savdo hududlarining davlat bilan bo'lgan munosabati valyuta tushimlaridan to'lov va ijara haqi bilan chegaralanadi, hududdan tashqaridagi korxonalar bilan munosabatlar esa tashqi savdo shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, erkin savdo hududi, erkin bojxona hududi, omborxona hududlari, erkin portlar va bojsiz savdo do'konlari, boj, tovar, savdo, eksport, import.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Savdo hududlari EIHLar avlodining dastlabkisi sifatida yuzaga kelib, bugungi kunda ham yangi turlarining paydo bo'lishi va faol rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi. Savdo hududlari boshqa turdagi EIHLardan farqli ravishda eng uzoq tarixga va ko'p bosqichli rivojlanishga ega EIHLar hisoblanadi.

2. Savdo hududlarining rivojlanishi boshqa turdagi EIHLarning rivojlanishini ham rag'batlantiradi, shuningdek, ularning rivojlanish darajasini ham ko'rsatib turadi. Boshqa turdagi EIHLarga nisbatan savdo hududlarining barcha turlarini har bir mamlakatda tashkil etish mumkin, qulay va samaralidir.

3. Savdo hududlari turlari o'ziga xos funksiyalarni bajarib, milliy va jahon iqtisodiyoti rivoji va o'zaro integratsiyasini ta'minlashning muhim va xalqaro vositasi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Savdo hududlarini tashkil etishdan maqsad nima?
2. Savdo hududlarining qanday turlari mavjud?
3. Savdo hududlarining eng faol rivojlanishda bo'lgan turlarini aytib bering va uning sabablarini izohlang.
4. O'zbekistonda savdo hududlarining qanday turlari tashkil etilgan va ular faoliyatiga qanday baho berasiz?
5. Savdo hududlarining qaysi turi eng qadimiy va eng zamonaviy EIHLar hisoblanadi?
6. Savdo hududlarining tashkil etilishi va rivojlanishiga qanday muammolar salbiy ta'sir ko'rsatadi?

3.3. Savdo-ishlab chiqarish hududlari va ularning xususiyatlari

Savdo-ishlab chiqarish hududlari ikkinchi avlod hududlariga kiradi. Ular savdo hududlarining evolyutsiyasi natijasida paydo bo'ldilar: ular uchun ajratilgan hududga faqatgina tovarlar emas, balki, kapital ham kiritilib, ular faqatgina savdo bilan emas, balki, ishlab chiqarish bilan ham shug'ullana boshlaganlaridan buyon yuzaga keldilar.

Ular, o'z navbatida, qaysi bozor turi ko'proq namoyon bo'lishidan kelib chiqqan holda quyidagilarga bo'linadilar:

- import o'rnini bosish hududlari (mahsulot mamlakat ichki bozorida iste'mol qilishga muljallangan);
- eksport hududlari (mahsulot tashqi bozorga yunaltirilgan);
- eksport-import o'rnini bosish hududlari (aralash ta'minot).

Savdo-ishlab chiqarish hududlari maxsus bojxona tartibiga ega bo'lgan hududlarda tuziladi va ular katta soliq va moliyaviy imtiyozlardan foydalanadilar. Odatda, tayyor kiritilayotgan tovarlar, xomashyo va materiallar ustidan nazorat minimal hajmda bo'ladi va ular ustidan nazorat bilan cheklaniladi. Bunday olib kirish, kiritish bojlari va soliqlardan ozod qilinadi (bojxona shaxodatnomasi uchun

to'lovdan tashqari). Savdo-ishlab chiqarish hududlarida yaratilgan tovarlarni uchinchi mamlakatlarga chiqarish bu mamlakatlar uchun oddiy import bo'lib, improt qiluvchi mamlakatda amal qiluvchi qoida va tartiblar asosida amalga oshiriladi. Bojxona tartibi va kiritish bojxona to'lovlari mahalliy qonunchilik asosida amalga oshiriladi. Tovar va xizmatlarni EIH joylashgan mamlakatga yetkazib berish ushbu mamlakatning bojxona qonunchiligiga mos ravishda amalga oshiriladi, ya'ni savdo-ishlab chiqarish hududidan kiritilayotgan tovar bojxona tozalash amaliyotini belgilangan bojxona to'lovlari to'lash bilan amalga oshiriladi. Agar yetkazib berilayotgan mahsulot qiymatining bir qismi mahalliy xomashyo va materiallarga to'g'ri kelsa bojxona to'lovini miqdori hisoblanganda u mahalliy komponentlar miqdoriga kamaytiriladi.

Birinchi erkin sanoat eksport yo'nalishidagi hudud 1959-yilda Irlandiyadagi Shennon aeroportida tuzilgan edi. Transatlantik yo'nalishlar ochilib samolyotlarning Shennonda qo'nib o'tishiga ehtiyoj qolmagandan so'ng aeroportning yopilishi va ishchilarning ishsiz qolishi xavfi tug'ildi. Shuning uchun Irlandiya hukumati sanoat, savdo va turizmga chet el investorlarini jalb etish uchun bojxona to'lovlarisiz tartibni kiritdi. Irlandiya kompaniyalaridan biriga 1959-yilda Shennon aeroporti atrofida 300 ta qo'shimcha ish joyini tashkil etish uchun 15 gektarli maydonda mahsus hudud tashkil etish vazifasi yuklatildi. Ammo, hududning muvaffaqiyatli faoliyati qo'yilgan maqsadlardan ziyoda natijalar berdi. Hozir hududda 90 dan ortiq firma faoliyat yuritib ularning korxonalarida 24 000 dan ortiq kishi ish bilan band.

Eksport-ishlab chiqarish hududlari ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda jadal suratlar bilan tashkil etilmoqda. Ular orasida eng samarali faoliyat ko'rsatayotgan EIHLar Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlarida va Lotin Amerikasi mamlakatlarida joylashgan.

Eksport-ishlab chiqarish hududlaridagi asosiy ishlab chiqarish yo'nalishlari quyidagilardir: televizorlar, musiqa markazlari, video va audio magnitafonlar, dividi pleyrlar, elektor asbob uskunalari (muzlatkichlar, changyutkichlar, havo sovutgichlar, kir yuvish mashinalari va boshqalar), kompyuterlar, avtomobil qisimlari, tayyor kiyim kechak, oyoq kiyimlari va hakazo. Bunday ixtisoslashishning asosida investorlarning foyda ko'rishdagi natijaga tezroq erishish maqsadi yotadi. Lekin, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, chet el kapitalining bu hududlardagi faoliyati rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi turda ishlab chiqarish yo'nalishlarini rivojlantirish va mustahkamlash, sanoatning ayrim sohalarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini ko'paytirishd, ichki bozorni to'ldirishda muhim ahamiyatga ega.

Import o'rnini bosuvchi hududlar ba'zi-bir rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqa turdagi hududlar bilan birinchi navbatda kompleksi erkin iqtisodiy hududlar bilan birga tashkil etilmokda (masalan Braziliyadagi Manaus hududi).

Aralash (eksport-import) hududlari nisbatan keng tarqalgan. Odatda, ular eksport-ishlab chiqarish hududlari evalyutsiyasining natijasi bo'lib ular rivojlanishining ma'lum bir bosqichida xaudud rezidentlariga o'z mahsulotini mamlakat ichki bozorida ham realizatsiya etishga ham ruxsat berilganda paydo bo'ladi. Hozirgi vaqtda bunday hududlar rivojlanayotgan mamlakatlarda keng

uchraydi: Misr, Senigal, Meksika, Xindiston, Koreya Respublikasi va hakoza.

Bunday hududlarning yorqin misoli 1971-yilda Janubiy Koreyada tashkil etilgan “Masan” eksport-sanoat hududidir. U 94 gektarni egallagan. Hududda 34 ming kishini ish bilan ta'minlagan 77 kompaniya ishlamoqda. Tahminan chiqarilayotgan mahsulotning 60 %i elektron va elektrotexnik sanoat ulushiga, 15 %i mashinasozlik sanoati ulushiga to'g'ri keladi. Ichki bozorda umum ishlab chiqarishning uchdan bir qismi iste'mol qilinadi.

Savdo-ishlab chiqarish hududlarining alohida shakli bu sanoat parklaridir. Sanoat parklari ikki turga bo'linadi: bojxona eksteritorial statusiga ega bo'lgan va bunday statusga ega bo'lmagan.

Eng ko'p uchraydigan savdo parklarining maydoni 300-400 gektarni tashkil etadi. Ko'pgina “nuqtaviy” hududlardan farqli o'laroq er uchastkasini birlamchi obodonlashtirish, infratuzilma obyektlarini qurish va eksplotatsiya qilish yani ishlab chiqarish bino va inshootlari, ijtimoiy madaniy maishiy obektlarni qamragan holda sanoat parklarida qabul qiluvchi tomon tarafidan amalga oshiriladi. O'z navbatida, ushbu obe'klardan foydalanuvchi sanoat firmalari o'zlarining faoliyatini ijarachilar sifatida amalga oshiradi.

Unchalik katta bo'lmagan (maydoni 50 gektargacha) sanoat parklarining eng ko'p tarqalgan hudud bu Karib hafzasi va Markaziy Amerikadir. Yirik sanoat parklari esa Meksika, Sharqiy Yevropa va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng uchraydi. Masalan, Taylanddagi sanoat parklarining kattaligi 2 000 gektargacha etadi.

Agropolis – qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadigan va investorlarni o'ziga jalb qiluvchi, turli imtiyozlarga ega sanoat maydonchasi. Ular qishloq xo'jaligi va agrosanoat rivojlanishi uchun raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan EIHLar hisoblanadi. Agropolis agroparklar deb ham nomlanadi.

Dunyo aholisining ellik foizidan ko'prog'i shaharlarda yashaydi. Aholining o'sishi, urbanizatsiya va oziq-ovqatga bo'lgan global talabning kuchayishi kabi turli omillar tobora o'sib bormoqda. Shuning uchun qishloq xo'jaligi aholisi oziq-ovqat bilan bog'liq cheklovlarga javoban, agrosanoat parklari tashkil etish oziq-ovqat xavfsizligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Agroparklar shuningdek, innovatsion texnologiyalar va boshqaruv tizimlariga kirish va zamoaviy harakatlarni rag'batlantirish, yanada ko'proq raqobatbardosh bo'lish, EIHLarning qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Sanoat parklarini qishloq xo'jaligi qiymatini oshirish va raqobatbardoshlik vositasi sifatida qo'llash, ham sanoatlashgan, ham rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llanilib kelmoqda.

Biz Hindiston va Xitoy mamlakatlarini ushbu jarayonga eng ko'p ishongan va o'zida tadbiq etayotgan mamlakatlar qatorida ko'rishimiz mumkin. Hindistonda agrosanoat parklarini rivojlantirish 1980-yillarning oxiriga kelib, bir qator moliyaviy obyektlar va institutsional rivojlanish hisobiga shakllana boshlagan, shuningdek, bu yo'nalish iqtisodiyotiga ham ko'plab ijobiy natijalarni olib keldi. Ushbu mamlakatlarda agrosanoat parklari iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish, mahsulot sifati va xilma-xilligini oshirish va umumiy infrastruktura bilan investorlar uchun xavfni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan. Agrosanoat parklari agrofirma va

agrosanoatning birlashtirilgan va ixtisoslashgan infratuzilma hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi va agrosanoat parklari markaziy boshqaruvi tizimiga ega bo'lgan industrial maydon: odatda, 10 dan 160 gektargacha bo'lgan shahar yerlarni egallaydi. Agrosanoat parklari quyidagicha hududiy jihatdan taqsimlanadi:

- agro-ekologiya (ilmiy-texnikaviy park) yoki ilm-fan va texnika (texnopol) ga alohida e'tibor berishi mumkin. Masalan: Agosfera agro-ekologik parki, Meksika joylashgan. Uning faoliyati ishlab chiqarish, qayta ishlash, yig'ish, qadoqlash va tarqatish jarayonlarida agro-ekologik prinsiplarni hisobga olgan holda, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan sanoat parkidir⁴⁴. Parkdagi hosil bo'lgan chiqindilar biogazni biomassa yoki biologik yoqilg'i sifatida ishlatish uchun qayta ishlatiladi;

- agrofirma va agrosanoat sohalaridagi ehtiyojlarni qondirish uchun tuzilgan hududlar, shu jumladan, o'ziga xos bo'lgan hudud (masalan, organik mahsulotlar) uchun mo'ljallangan umumiy, ixtisoslashtirilgan obyektlar;

- umumiy obyektlar: dam olish joylari, sport maydonchalari, oziq-ovqat kortlari va turar joylar (ishchilar, stajyorlar, tashrif buyuruvchilar va h.k.);

- yig'ma infrastruktura obyektlar: odatda, yo'llar, elektr ta'minoti, telekommunikatsiya, suv va kanalizatsiya kabi yaxshi bazaviy infratuzilmani qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, agroparklar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydigan muhim sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga iqtisodiy turtki berishi mumkin. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda agrosanoat parklarining o'ziga xos xususiyatlari:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, sotish, tarqatish tizimini modernizatsiya qilish;

- turli xil savdo shakllarining yagona platformasiga - ulgurji va chakana, jismoniy va yuridik shaxslarga e'tibor berish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari marketingi va barqaror sotish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- barcha bozor ishtirokchilari uchun adolatli narxni belgilash;

- oziq-ovqatning jismoniy va iqtisodiy imkoniyatlarini yaratish;

- hududlarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mahsulotlar bilan ta'minlash;

- ijtimoiy-iqtisodiy va tarmoqli davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik meva-sabzavot ishlab chiqaruvchisi bo'lib, katta salohiyatga ega. Uning tadbiqu, nafaqat, ichki talabni qondirishga, balki, eksport hajmini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi. Shu maqsadda respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-iyuldagi "Buxoro-Agro" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3843-sonli Qarori bilan tashkil etilgan "Buxoro-agro" EIZning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini, jumladan, gidroponika texnologiyalarini

⁴⁴ <http://www.fao.org/3/a-i6862e.pdf>

qoʻllagan holda, klaster usuli asosida tashkil etish uchun toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy va mahalliy investitsiyalar jalb etish, shuningdek, zamonaviy energiya tejoychi issiqxonalar qurish uchun konstruksiyalar, jihozlar va boshqa butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni tashkil;

- hududning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish asosida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta ishlashni chuqurlashtirish va ularning eksport hajmini oshirish;

- qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning urugʻdan to mahsulotni bozorga yetkazib berishgacha boʻlgan toʻliq jarayonini tashkil etishni ragʻbatlantirish;

- koʻchatzorlar, shuningdek, birlamchi urugʻchilikni tashkil etish uchun sharoitlar yaratish orqali issiqxona xoʻjaliklarini talabi katta, yuqori hosildorlikka ega boʻlgan qishloq xoʻjaligi ekinlari urugʻ va koʻchatlari bilan taʼminlashning samarali mexanizmlarini joriy etish;

- logistika xizmatlari koʻrsatishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish subyektlariga ular tomonidan etishtirilgan mahsulotlar eksportini tashkil etishda koʻmaklashish;


- issiqxona xoʻjaliklarini tashkil etishda zamonaviy resurs tejoychi texnologiyalarni, muqobil issiqlik energiyalardan foydalanishni keng joriy etish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish boʻyicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab chiqarish markazlari tashkil etish va ularning xulosalari xalqaro darajada eʼtirof etilishini taʼminlash chora-tadbirlarini koʻrish;

- issiqxona xoʻjaliklari sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda, jumladan, ular tomonidan “Buxoro-agro” EIZ hududida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini oʻtashda ishtirok etish.

Zamonaviy issiqxona xoʻjaliklarini tashkil etish va rivojlantirish Oʻzbekistonda yil davomida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini etishtirish va eksport qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bugungi kunda Oʻzbekistonning qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish salohiyatini yuqori texnologiyali qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish boʻyicha va eksportga yoʻnaltirilgan davlatlar bilan solishtirganda, birmuncha past ekanligini kuzatish mumkin (3.8-rasm).

Bugungi kunda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining isteʼmolchilarga etib borishidagi koʻplab yoʻqotilishga yoʻl qoʻyilishi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkiloti (FAO) maʼlumotlariga koʻra, ushbu yoʻqotishlar oʻrim-yigʻim, saqlash, qadoqlash, tashish, infratuzilmalar yoki bozor mexanizmlari, shuningdek, institutsional va huquqiy asoslar bilan bogʻliq. Afsuski, bu holat koʻpgina rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilmoqda va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.



3.8-rasm. O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmi, 2018-yil⁴⁵.

Agropolislar mazkur muammolar yechimida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlariga ega markazlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida yil davomida O‘zbekiston aholisini arzon va sifatli qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash hamda ularni eksport qilish hajmini yanada oshirib borish imkoniyati ta‘minlanadi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, savdo-ishlab chiqarish hududlari, eksport-ishlab chiqarish hududlari, import hudud, sanoat parklari, agropolis.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. Savdo-ishlab chiqarish hududlarini tashkil etish iqtisodiyotning sanoatlashuv darajasining yuksalib borishi mahsuli bo‘lib, bugungi kunda mazkur hududlarning keng turda tashkil etilishi va rivojlanishi kuzatilmoqda.

2. Savdo-ishlab chiqarish hududlarini tashkil etishga, asosan, rivojlanayotgan hamda o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlarda faol tashkil etilishi kuzatilmoqda. Ular tarkibida import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan sanoat-ishlab chiqarish hududlarining tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Hozirgi vaqtga kelib agropolislarni tashkil etishga rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar jiddiy e‘tibor qaratib kelmoqda. Bu esa dunyo aholisi o‘sib borayotgan va resurslar (yer, suv, kapital) chelangan sharoitda ularning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini ta‘minlash, jahon bozorida narxlar barqarorligini saqlab turish, tashqi savdo va xalqaro kapital harakatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Savdo-ishlab chiqarish hududlarini tashkil etish va rivojlantirishdan maqsad nima?

⁴⁵ [www.stat.uz/qishloq xo‘jaligi 2018/](http://www.stat.uz/qishloq_xo'jaligi_2018/)

2. Bugungi kunda savdo-ishlab chiqarish hududlarining qiysi turlari tashkil etilishi rivojlanib bormoqda?

3. Eksport-ishlab chiqarish hududlarining maqsadi va ahamiyati nimalardan iborat?

4. Import-ishlab chiqarish hududlarining maqsadi va ahamiyati nimalardan iborat?

5. Agropolislar qanday xususiyatlarga ega va ular qanday muammolarni hal etishga ko'mak beradi?

6. Sanoat-ishlab chiqarish hududlarining fzalliklarini tushuntirib bering.

3.4. Texnik-tadbiq etish hududlari va ularning xususiyatlari. Texnik-tadbiq etish hududlari turlari: texnoparklar, texnopolislar, ilmiy park, innovatsiya markazi, ilmiy-texnik parklar

Texnika-tadbiq etish hududlari hozirgi zamon jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshlikning asosiy omili bo'lgan tovarning narxi, shuningdek, uning sifati, yangiligi, fan taraqqiyoti yutuqlarini o'zida qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Bu tendensiya eksport sanoat hududlarining faoliyati xarakteriga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Natijada ko'pgina eksport-sanoat hududlari texnika-tadbiq hududlariga aylana boshladi. Texnik-tadbiq etish hududlarining ko'rinishlari sifatida texnologik, ilmiy parklar, texnopolis, yangi va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish hududlarini qayd etish mumkin. Texnik-tadbiq hududlari yangi texnologiyalar va yuqori texnologik ishlab chiqarish turlarini rag'batlantirish maqsadida tuziladi.

Bunday hududlar uchinchi avlod hududlari hisoblanadi (70-80 yillar). Ular stixiyali tarzda hosil bo'ladi yoki maxsus ravishda davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil qilinadi. Ularda yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilik, loyiha, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari jamlanadi.

Texnik-tadbiq etish hududlarini muvaffaqiyatli tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagi shartlarni bajarish lozim:

- hududda nufuzli universitetning yoki boshqa kuchli ilmiy tekshirish bazasiga ega bo'lgan ilmiy markazning mavjudligi;

- rivojlangan ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan ilmiy parkning mavjudligi;

- investitsion xatarni oshirishga mo'ljallangan venchur (ham milliy ham chet el) kapitalini jalb etish imkoniyatlari mavjudligi;

- ishlash va dam olish uchun qulay geografik va iqlim sharoitlari.

Texnoparklar – ilmiy texnologiya zonalarini III avlod zonalaridir. Hozirgi AQSh adabiyotlarida ularni texnoparklar deb ataydilar. Bunday zonalar barcha moddiy va mehnat resurslarini, texnologiyani sanoatga tezkor joriy qilish uchun safarbar etish maqsadida tuzildi.

Texnologik park deganda subekt tadbirkorlik shartini taminlovchi zamonaviy bozor standartlariga javob bergan zarur kompleks xizmatlari tushuniladi. Texnopark esa zamonaviy dunyo talabiga javob beruvchi bozordir. Texnoparklar kichik biznes rivojlanishida katta o'rin tutadi.

Zamonaviy texnologik parklar birinchi bo‘lib AQShda 1960-yillar oxirlarida paydo bo‘ldi, lekin ularning shiddat bilan o‘shishi 1980-yillarda ko‘zatildi. AQShning ilmiy parklari – bu yirik ilmiy tekshirish institutlari va universitetlari yaqinida joylashgan yuqori texnologiyali korxonalar kontsentratsiyalashgan hududlardir. AQSh ilmiy parklarining rivojlanish xususiyati shundan iboratki, avvalida, bir qancha faktorlar-iqtisodiy, ijtimoiy, geografik va boshqalar, hisobiga o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan. Masalan, Stendford universiteti yaqinidagi Santa-Klara shahri yonida “Silikon vohasi” texnologik parki paydo bo‘lgan. U AQShdagi eng katta ilmiy-texnologik hudud bo‘lib jahon miqiyosidagi hisoblash texnikasi va kompyuterlar ishlab chiqarishining 20% ni beradi. AQShda taxminan 200 dan ortiq texnoparklar mavjud bo‘lib, ularda 140 ming ishchi va 45 ming olim ishlaydi. Shunga o‘xshash texno parklar Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Shvetsiyada ham tashkil etilgan.

Yaponiyada ilmiy-texnik markazlar texnopolis deb yuritiladi. Yaponiyada bir necha o‘nlab texnopolislar mavjud. Texnopolislarni tuzish bo‘yicha davlat dasturi quyidagi maqsadlarni ko‘zda tutgan edi:

- sanoatni markazdan chekka hududlarga ko‘chirish;
- mahalliy universitetlar faoliyatini ilmiy izlanishlarni intensivlashtirish hisobiga faollashtirish;
- sanoat ishlab chiqarishini fan yutuqlariga asoslangan va energiya tejaydigan texnologiyalarga yo‘naltirish;
- tadbir etish jarayonini jadallashtirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun turli xil kredit va soliq rag‘batlari ko‘zda tutilgan edi. Masalan, yuqori texnologiyaga ega bo‘lgan korxonalar faoliyatining birinchi yilida dastgohlar qiymatining 30 %ni va bino hamda inshootlar qiymatini 15% ni amortizatsiya qilishga ruxsat berilgan. Shu bilan birga davlat ilmiy tekshirish harajatlarning uchdan bir qismini o‘z zimmasiga shu hududda joylashgan ilmiy laboratoriyalar va mahalliy firmalar hisobiga olgan.

AQSh texnoparklari va Yapon texnopolislarining asosiy yutug‘i – bir joyda mujassamlashgan ilmiy ishlab chiqarish muhitini yaratganlikdan iboratki bu doimo ilg‘or texnologiyalarni, yuqori malakali mutaxassis va tadbirkorlarni rag‘batlantiradi va doimo mahalliy, zamonaviy ilmiy tekshirish, o‘quv va tijorat tashkilotlarning yordamiga erishadi.

Texnoparklar sanoati rivojlangan mamlakatlardan asta-sekinlik bilan rivojlanayotgan mamlakatlarga ham qadam qo‘ya boshladi – Hindiston, Malayziya, Xitoy, Singapur, Tayvan va boshqa mamlakatlar. 2004-yil ularning soni 450 dan oshdi.

Faoliyat turi va pirovard mahsuloti bo‘yicha texnoparklar ilmiy (faoliyat mahsuloti – amaliy va fundamental izlanishlar natijalari), ilmiy-texnikaviy (mahsulot – tajribaviy namunalar va kichik hajmdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar), ilmiy-sanoat (yuqori texnologiyalardan foydalanish hisobiga zamonaviy mahsulotlarni yoppasiga ishlab chiqarish).

Texnoparklarning eksport-ishlab chiqarish hududlaridan farqi shundan iboratki, ularda urg‘u kichik venchur tadbirkorlikni rivojlantirishga beriladi. Soliq va

moliyaviy imtiyozlar firmalar faoliyatining birinchi eng riskli bosqichida qo'llaniladi. Maxsus soddalashtirilgan hisobga olish tartibi hisobiga venchur kompaniyalarini tuzish onsonlashadi, kichik firmalarning tashkiliy muapmmolari bilan shug'ullanadigan muhsus ma'muriy tuzilmalar tashkil etiladi. Kapitalning tashqaridan kirib kelishi, texnoparklar tarkibida kichkina firmalarni moliyalashtiruvchi investitsiya fondlarining tashkil etilishi texnologik yechimlarni eng samarali yo'l bilan ommaviy ishlab chiqarish darajasiga etkazishga yordam beradi. Firmalar xodimlariga imtiyozli asosda yetakchi olimlar maslahat beradi, asbob uskunalar va universitetlarning kutubxona fondlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Qo'shma tijorat loyihalarida ishtirok etish hisobiga universitetlar daromadlarini ko'paytiradilar va bitiruvchi talabalarni ish joyi bilan ta'minlaydilar. Ilmiy xizmatchilarga bunday hududlarda eng qulay turmush sharoiti yaratiladi.

Texnoparklarning funksional xususiyati turli mamlakatlarda turlichadir. Agar Fransiyada ular kichik biznesni otaliqqa olishga mo'ljallangan bo'lsa, Germaniyada urg'u texnologiyalarni sanoatga tadbiiq etishga, firmalar o'rtasida texnologiyalar almashinishiga beriladi. Xuddi shunday yondashuv Buyuk Britaniya texnoparklarida ham mavjud.

Texnologik parklarning keng tarqalganligi, ularning tashkiliy shakillarining xilma xilligi texnoparklarning turli regionlarda, turli maqsadlarni hal etishga qaratilganligidir. Bu esa faqatgina fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini tadbiiq etish va yoyish bilan chegaralangan emas. Texnoparklar quyidagi vazifalarni hal etadi:

- sanoat tuzilmalarini qayta qurish;
- mahalliy resurslarni mobilizatsiya qilish;
- qoloq mintaqalarning hali ochilmagan imkoniyatlarini ochish;
- raqobatbardosh mahsulotlarni chiqarish va boshqalar.

Texnoparklar innovatsion jarayonning barcha pog'analarini amalga oshirish uchun barcha sharoitlarni yaratadi – yangilikni yaratish va uni ekspertizasidan tortib, toki tovar mahsulotini ommaviy ishlab chiqarib, uni bozorda keng joylashtirishgacha. Texnoparklar tadbirkorlarni o'qitish, texnologik transfer markazlari bo'lib xizmat qiladi va bundan tashqari, keng miqyosda fan-texnika xizmatlarini ko'rsatadi.

Agar ilmiy parklar to'g'ri tashkil qilinsa va qulay joyda joylashtirilsa, regional o'sishning markaziga aylanib butun regionning bevosita va bilvosita samarali o'sishini ta'minlaydi. Ilmiy parklarda iqtisodiy o'sish samarasini belgilovchi omil shundan iboratki, ularda infratuzilmaga qo'yilgan har bir so'm ishlab chiqarishga xususiy investitsiyalar hajmini bir qancha barobar (20 barobargacha) oshirishga imkon beradi, ishlab chiqarishni o'ziga qo'yilgan qo'yilmalar esa qo'shni sohalardagi talabni o'sishini faollashtiradi va park hududidan tashqarida bo'lgan ishlab chiqarish turlarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga ilmiy park operatori tomonidan investitsion loyihalarni saralab olinishi hisobiga, ishlab chiqarish imkoniyati birligiga maksimal darajada innovatsion samara olinishiga erishiladi. Natijada, parklar texnoindustrial o'zgarishlarning tezligi va yo'nalishiga ijbiiy ta'sir ko'rsatuvchi dastakka aylanadi. Yangi korxonalarini paydo bo'lishini, real sektor rivojlanishini va alohida hudud bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishni rag'batlantirish hisobiga parklar bir vaqtning o'zida yangi ishchi o'rinlarini yaratishni ham ta'minlaydilar.

Umumlashgan holda bu soliqqa tortish bazasini kengaytiradi va buning natijasida turli darajadagi budjetlarning daromadlari o'sadi.

Texnoparklar hozirgi vaqtda boshqacha tuzilishga ham ega. Bunday xilma-xillik quyidagi hududlar olib borilayotgan faoliyati talabi va maqsadlariga javob beradi.

1) Ilmiy park (Science park). U universitet va ilmiy markazlar yonida qurilgan bo'ladi. Ularning asosiy maqsadi ilmiy taraqqiyotni yanada rivojlantirish, hech qanday moddiy tovar ishlab chiqarmaydi. U yetarlicha katta hudud bo'lib, unda turli o'lcham va rivojlanish bosqichidagi fan sig'inkorligi yuqori, ilm ko'p talab qiladigan firmalar joylashgan bo'ladi. Ular unchalik katta bo'lmagan ishlab chiqarishni mahalliy ilmiy-tadqiqot markazlarining ilmiy-texnologik izlanishlari asosida yo'lga qo'yish imkonini beradi.

2) Innovatsiya markazi (Innovation centre). Bunday markaz asosiy maqsadi markazdan tashqarida ishlovchi, lekin, bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan tadbirkorlarni (texnologiya, moliya va savdo-sotiq savollarga javob berish) qo'llab-quvvatlashdan iborat. U iqtisodiy tarkibi uncha katta bo'lmagan hudud doirasida kichik, yangi tashkil etilgan kompaniyalar uchun mo'ljallangan.

3) Tijorat parki (Commercial park). Bunday park o'z nomi bilan ishlab chiqarish, ko'riklar tashkil etish, tayyor tovarga qo'shimchalar kiritish bilan shug'ullanadi.

4) Texnologik qutb (Technology polus). Bu o'zidan jiddiy tuzilishga ega zonani namoyish etadi. Yuqori malakali ishchi kuchi, inkubator xizmatlari, bank va boshqa xizmat turlarini o'z ichiga oladi.

5) Texnologik hudud (Technology zircum). Bu yuqoridagi zonaning barcha xususiyatlari va rivojlangan qism, shuningdek, ilmiy parkni o'z ichiga oladi.

6) Tijorat inkubatori (The business-incubator). Sanoat parkidan farqli o'laroq, bu hudud qayta tashkil etilgan korxonalar ishini qayta rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Ularning ixtiyoriga yaxshi haq evaziga korxonalar ijarasi va qo'shimcha xizmatlar (telefaks, kompyuter, kommunikatsiya va h.k) menejmentni qo'llab-quvvatlaydi. Tijorat inkubatoriga yangi ishchi a'zolari taklif etish, odatda, yangi korxonalar ochilishi bilan bog'liq bo'ladi. Berilgan muddat tugashi bilan ular o'z ish joyini yangi ishchilarga bo'shatishlari kerak.

7) Ilmiy-texnik park (Science-technology park). Bu park bir nechta korxonalar birlashmalaridan tashkil topgan bo'lib, ilmiy-texnik park maqomini manzarasi va qurilish jihatidan oladi. Bu hudud faqat tovar ishlab chiqish va o'rganish joyi emas, balki, ishchilarning yashash joyi hisoblanadi. Bu hududda yashash muddati chegaralanmagan. EIHning bu ko'rinishlari hammasi emas. Ilmiy-texnik parklarning samaradorligini belgilovchi mezon – bu yangi texnologiya, yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarni bir joyda to'plash, ularni o'quv-tadqiqot va tijorat tashkilotlari tarmoqlari orqali qo'llab-quvvatlovchi mahalliy muhitning yaratilishidir.

BMT tadqiqotlari natijalariga qaraydigan bo'lsak, hozirda EIHning o'nlab turlari mavjud. Demak, shunday xulosaga kelamizki, EIHlar barcha xilma-xillik natijasida, hatto, eng talabchan investor talablarini qondira oladi. Ularning keng imkoniyati davlat muhtoj bo'lgan tarmoqning rivojlanishiga olib keladi. Masalan, savdo-ombor hududlari foydalanilmayotgan joylarni ishlatishda, eksport hududlari tovar va

xizmatlarni yetkazib berishda foydalaniladi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, texnopark, texnopolis, ilmiy-texnik park, innovatsiya markazi, ilmiy park, ishlab chiqarish, texnologiya, sanoat.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHLarning zamoanviy turlaridan bo'lgan texnik-tadbiq etish hududlari bugungi kunda bir qancha ko'rinishlarda tashkil etilib, faol rivojlanib bormoqda. Texnoparklar ular orasida eng keng tarqalgan hududlar sanalib, ular endilikda sanoati rivojlangan mamlakatlardan asta-sekinlik bilan rivojlanayotgan mamlakatlarga ham faol ko'chib bormoqda.

2. Texnopark va texnopolislar venchur fondlar hisobidan moliyalashtirish xususiyatga ega bo'lib, ularda yuqori ilmiy-texnik salohiyatga ega mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar. Ularning mahsulotlari iqtisodiyotda ilmiy-texnik samaralarni oshirishga va energiya va resurstejamkor mahsulotlarini tadbiq etishga xizmat qiladi.

3. Ilmiy parklarda iqtisodiy o'sish samarasini belgilovchi omil shundan iboratki, ularda infratuzilmaga qo'yilgan har bir so'm ishlab chiqarishga xususiy investitsiyalar hajmini bir qancha barobar (20 barobargacha) oshirishga imkon beradi, ishlab chiqarishni o'ziga qo'yilgan qo'yilmalar esa qo'shni sohalardagi talabning o'sishini faollashtiradi va park hududidan tashqarida bo'lgan ishlab chiqarish turlarini ham rivojlantiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Texnik-tadbiq etish hududlari nima maqsadda tashkil etiladi va mazkur hududlarning tarmoqlararo munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati nimada?

2. Texnik-tadbiq etish hududlari boshqa turdagi EIHLardan nimasi bilan farqlanadi?

3. Texnik-tadbiq etish hududlari tarkibida bugungi kunda eng rivojlanganlari haqida nimalarni bilasiz?

4. Tenopark va texnopolislarining xususiyatlari va ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?

5. Innovatsiya markazlari qanday funksiyalarni bajaradi?

6. Texnik-tadbiq etish hududlari mahsulotlari o'zining qanday afzalliklariga ega?

3.5. Xizmat ko'rsatuvchi hududlar va ularning xususiyatlari

Servic hududlari (xizmat ko'rsatuvchi hududlar). EIHLarning turli ko'rinishlari orasida ma'lum bir xizmat turini ko'rsatishga – bank, sug'urta, lizing, agrar, informatsion, turistik hududlar ham paydo bo'ldi. O'tgan asrning 1980-90 yillarida paydo bo'lgan bunday tor ixtisoslashgan hududlar EIHLarning *to'rtinchi avlodi*

sirasiga kiradi.

Bu guruh orasida turistik hududlar keng tarqaldi. Dunyo bo'ylab turistik xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy omillar (bo'sh vaqt va umumiy daromadning o'sishi, to'lanadigan mehnat ta'tilining o'zayishi, pensiya ta'minotining yetarli darajasi, bolalar soni kamayishi hisobiga oila tarkibida bo'layotgan o'zgarishlar va hokazo) bilan, hamda transport rivojlanishidagi yutuqlar uning arzonlashuvi va ommabopligi, valyuta cheklanmalarini olib tashlanishi yoki yengillashtirilishi, viza tartibini liberallasuvi bilan izohlanadi.

1990-yillarda faol tashkil qilina boshlangan turistik hududlar ham rivojlangan mamlakatlarda (Ispaniya, Portugaliya, Shvetsariya), ham rivojlanayotgan mamlakatlarda (Dominikan Respublikasi, Kolumbiya, Koreya Respublikasi, Chili va boshqalar) faoliyat ko'rsatmoqda. Odatda davlat bunday hududlarda zarur infrastrukturani yaratadi, mehmonxona va turistlar joylashadigan boshqa binolarni qurilishini moliyalashtiradi, hamda turistlarga xizmat ko'rsatish biznesida ishlayotgan mahalliy va chet el kompaniyalariga turli imtiyozlar beradi. Ko'pchilik mamlakatlar uchun xalqaro turizm, shu jumladan, EIHLar orqali tuzilganlari ham milliy iqtisodiyotning yirik sohasiga aylanadi, sezilarli valyuta tushumini ta'minaydi, yangi ishchi o'rinlarini yaratib, tovar va xizmatlar eksportini oshiradi.

Informatsion xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan hududlar ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday hududlar Yamayka, Birlashgan Arab amirliklari va ba'zi bir boshqa mamlakatlarda paydo bo'lgan. Masalan, Dubay shahrida "internet-siti" EIHdi tuzilgan bo'lib, u chet el kompaniyalariga imtiyozli shartlarda barcha faoliyat turlari haqida ma'lumot olishga imkon beradi, transaktsion harajatlarni, barcha sohadagi to'siqlarni kamaytiradi. "Internet-siti"da ko'pgina yirik transmilliy korporatsiyalarning, shu jumladan, Germaniyaning "Simns" korporatsiyasining filiallari joylashgan. Borgan sari avvvval Londondan ma'lumot tarqatgan ommaviy axborot vositalari yangi "Mediya-siti" Dubay markaziga ko'chib o'tmoqda.

Informatsion xizmatlar sohasidagi yana bir EIH Yamaykadagi "Montego-bey" bo'lib, uning hududida markaziy Amerikadagi eng raqobatbardosh xalqaro tovush va elektron aloqa kanallariga ega bo'lgan teleport faoliyat yuritmoqda. Hudud matn taxrirlagich turidagi dasturlarni va turli telemarketing xizmatlarni eksport qiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi EIHLarning alohida shakli offshor markazlari bo'lib, u erda ushbu hududda xo'jalik yuritmaydigan yuridik shaxslar (firmalar, banklar) registratsiyalashning yengillashtirilgan tartibidan va soliq imtiyozlaridan foydalanadilar. Offshor atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, "*sohildan tashqarida*", "*ochiq dengizda*" degan ma'noni anglatadi.

Offshor markazlarida, odatda, bank va sug'urta xizmatlari joylashib, ular orqali eksport-import operatsiyalari, ko'chmas mulk oldi-sotdisi, dengiz kemalarini oldi-sotdisi, trast va konsalting faoliyati amalga oshiriladi. Offshor markazlari chet el kompaniyalari va banklarini taqdim etilayotgan keng imtiyozlar hisobiga jalb etadi. Ular jumlasiga qulay valyuta-moliya qonunchiligi, soliqqa tortishning imtiyozli xarakteri va rag'batlantiruvchi tashqi savdo qonunchiligi kiradi.

Turli ofshor hududlarda ro'yxatdan o'tish turli miqdordagi to'lovlarni tashkil

etadi:

- Beylizda - \$900, shuningdek, mazkur davlat budjetiga har yili \$950 to'lab turilishi lozim;
- Buyue Britaniyada - \$1250; har yillik soliq \$1300 tashkil etadi;
- Panama - \$1250; har yillik soliq \$1350 tashkil etadi;
- Kipr - \$3000; har yillik soliq \$3200 tashkil etadi;
- Gongkong - \$2100; har yillik soliq \$2250 tashkil etadi;
- BAA - \$2900; har yillik soliq \$3800 tashkil etadi;
- Virgin orollari - \$1250; har yillik soliq \$1480 tashkil etadi.

2018 yilda eng yaxshi ofshor hududlari reytingi **TOP-10** taligi:

1. Shveytsariya.
2. Gonkong.
3. Delaver, SShA.
4. Singapur.
5. Kayman orollari.
6. Lyuksemburg.
7. Livan.
8. Germaniya.
9. Baxreyn.
10. BAA.

Aksariyat offshor hududlar Karib havzasi hududlarida joylashgan. Shuningdek, ro'yxatga quyidagi offshor hududlarni ham mkiritish mumkin: Britaniya Virgin orollari, Angilya, Sent-Vinsent i Grenadina orollari, Kaymanova orollari, Terks i Kaykos, Dominika Ittifoqi, Bagama orollari, Aruba, Puerto-Riko, Sent-Kits i Nevis, Montserrat, Barbados, Virgin orollari (AQSh), Sent-Lyusiya, Bermud orollari, Niderlandiya Antil orollari, Grenada, Antigua i Barbuda. Eng avvalo, offshor hududlarda banklar, kompaniyalar, investitsion fondlar, trastlar, sug'urta kompaniyalari tashkil etiladi. Ayrim hollarda, tayyor offshorlarni (kompaniyalarni) sotib olishni uni "nol"dan ro'yxatdan o'tkazishdan afzal hisoblanadi.

Turli ofshor hududlarda soliq stavkalari turlicha belgilangan:

- Buyuk Britaniyada – 20%;
- Daniyada – 25%;
- Niderlandiyada – 25,5%.
- Lixtenshteyn – 12 %.
- Barbados – 1-2 %.
- Mavrikiy – maksimal stavka 3 %ga teng.
- Vengriya – 10 %.
- Latviya – 15 %.
- Men orollari – 0-10 %.
- Chexiya –10-15 %.
- Avstraliya – 30 %.
- Kanada – 4-12%.

Tayanch iboralar:

Servis hududlar, offshor hududlar, turistik hududlar, soliq imtiyozlari, savdo,

bank hududlari, xalqaro tashkilotlar.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Servis hududlarni tashkil etish va rivojlantirish jahon moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bozorining jadal rivojlanib borishi natijasida yuzaga kelgan. Bunday hududlar turlarining ko'payishi tansmilliy va xolding kompaniyalari ehtiyojlaridan kelib chiqib yuzaga kela boshlagan.

2. Bugungi kunda servis hududlari sifatida bank hududlari, sug'urta hududlari, offshor hududlar, turistik hududlar (markazlar) keng rivojlanib bormoqda. Buning natijasida jahon bozorida moliyaviy resurslarning ochiq va yashirin aylanishi harakati faollashuvi jadal tus olib bormoqda.

3. Servis hududlarni tashkil etish va rivojlanib borishi natijasida offshor markazlarida dunyo mamlakatlari bank depozitlarining asosiy qismi to'planishi kuzatilmoqda. Bu esa rivojlanayotgan davlatlarda bunday hududlarni tashkil etishga bo'lgan munosabatning rivojlanishiga olib kelib, bugungi kunda jahondagi 300 dan ortiq ofshor markazlarining 70 %i rivojlanayotgan mamlakatlarda, qolgani esa sanoati rivojlangan mamlakatlarda to'plangan.

Nazorat uchun savollar:

1. Servis hududlarni tashkil etish qaysi davrlardan boshlab amalga oshirila boshlangan?

2. Offshor hududlarni tashkil etishdan maqsad nima?

3. Servis hududlarning qaysi turlari dunyo bo'ylab keng tarqalgan va rivojlangan?

4. Erkin bank xizmatlari hududi nima maqsadda tashkil etiladi?

5. Erkin sug'urta xizmatlari hududi nima maqsadda tashkil etiladi?

6. Turistik markazlarni tashkil etish va rivojlantirishning ahamiyatini tushuntirib bering.

3.6. Kompleks hududlar va ularning xususiyatlari. Kompleks hududlar turlari: maxsus iqtisodiy hududlar, xalqaro erkin iqtisodiy hududlar

“Kompleks hududlar” tushunchasi yaqinda paydo bo'lganligiga qaramay jahon amaliyotida misli ko'rilmagan natijalarni namoyon etdi. Kompleks EIH xo'jalik yuritishning yangi shakllaridan biri bo'lib, jahon iqtisodiyotida 1980-yillarning o'rtalariga kelib esa keng ommalasha boshladi.

Amaliyotda bir funksiyani bajarishga ixtisoslashgan hudud mavjud emas. Eng ko'p tarqalgan hududlarga savdo, bojxona, sanoat, tadqiqot funksiyalarini bajaruvchi kompleks hududlar kiradi. Ular turli funksiyalarni bajaradilar va investorlarning turli xil iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkon beradilar. Shu sababli ularni tashkil etishda ustuvor funksiyalarni belgilab olish lozim. Aynan shu kabi hududlarda yangi ma'muriy-hududiy birlik tashkil etilishi mumkin.

Biror-bir faoliyat turiga ixtisoslashgan EIHlar bilan birgalikda ko'p sohalarni

qamrab oluvchi hududlar ham keng tarqalgan. Kompleks EIHLarning boshqa turdagi hududlardan farqi shundaki, ularning hududdi ancha kattaroq, ishlab chiqarish kontsentratsiyasi yuqoriroq va faoliyat sohalari kengroq. Ularning funksiyasiga eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, moliya bozorini, sug'urtalashni, kommunikatsiyalar, turizm va boshqalarni o'stirish vazifalari kiradi. EIHLarning rivojlanish mantiqidan kelib chiqib aytish mumkinki, kompleks hududlar EIHLarning eng zamonaviy shaklidir.

Kompleks hududlarga rivojlangan mamlakatlar tomonidan depressiyali hududlarda tuzilgan EIHLar, Xitoyning maxsus EIHi, Braziliyaning "Manaus hududi", Argentinadagi "Olovli yer" hududi misol bo'la oladi. O'tgan asrning 1990-yillarida kompleks hududlar Dominikan Respublikasida, Ispaniya va Koreya Respublikasida tuzila boshlandi. EIHLarning boshqa modellaridan farqli o'laroq kompleks hududlar o'zlarining alohida belgilari bilan ajralib turadilar va bir-biriga hech ham o'xshamaydi.

Masalan, Manaus erkin hududi unikal hududiy tuzilma bo'lib, jahon amaliyotida o'xshashi yo'qdir. 3,6 mln. m² maydonda joylashgan ushbu hududning kompleks xarakteri asta-sekinlik bilan shakillandi. Asr boshida Manausda 600 ta yirik sanoat korxonalari, qayta ishlash sanoatining 30 ta sohasi (asosan, elektronika va elektro-texnika), ko'plab milliy savdo va sanoat firmalari hamda AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining yirik transmilliy korparatsiyalarining filiallari mavjud edi. Bu avval qoloq bo'lgan hudud sanoat salohiyatining darajasi bo'yicha mamlakat miqyosida San-Paulu va Rio-de-Janeyrodan keyingi 3-o'ringa chiqdi. Bundan tashqari, u mamlakatning Janubiy-Sharqida ishlab chiqarilayotgan elektron va elektro-texnika mahsulotlarining Braziliyadagi eng yirik distribyutrlik markazlaridan biriga aylandi.

1980-yillarda Xitoyda beshta maxsus iqtisodiy hududlar – milliy bojxona hududidan tashqariga chiqarilgan yirik ma'muriy tuzilmalar tashkil etildi. Bu hududlarda turli soha bo'yicha eksport qilishga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlar, texnoparklar, savdo korxonalari, madaniy va o'quv markazlari, turistik komplekslar joylashtirildi. Bu hududlarga jalb etilgan ko'p milliardli investitsiyalar tadbirkorlik faoliyatining umumiy darajasini oshirishga, sanoat tuzilmasida ijobiy o'zgarishlar, eksport hajmining keskin o'sishiga va uning tuzilmasini diversifikatsiyalashga, valyuta tushumlarining keskin o'sishiga va bandlikning ortishiga olib keldi. Hududlar Xitoyning dengiz buyi hududlarini mamlakat ichki hududlari bilan bog'lagan ko'prik bo'ldi. Erkin iqtisodiy hududlarning faoliyati mamlakatni yopiq ma'muriy-taqsimot boshqaruv tizimidan ochiq bozor iqtisodiyotiga o'tishga imkoniyat berdi.

Oxirgi yigirma yil davomida kompleks hududlarning o'ziga xos turlari – tadbirkorlik hududlari AQShda, Buyuk Britaniyada, Fransiyada, Vengriyada faoliyat yurita boshladi. Tadbirkorlik hududlari, odatda, tadbirkorlarga moliyaviy- kredit va soliq imtiyozlarini berish hisobiga mamlakatning qoloq hududlarida xo'jalik faoliyatini jonlantirishga qaratilgan. 1980 yilning oxirlaridan boshlab bunday tadbirkorlik tuzilmalari AQShda jadal suratlar bilan tuzila boshlandi. Hozir bu mamlakatda turli darajadagi 1500 ta tadbirkorlik hududlari mavjud. Ularning ko'pchiligi iqtisodiy inqiroz va ishsizlikning o'sishiga yuz tutgan hududlarda

tuzilgan. Ulardagi imtiyozlar va ularning darajasi hududda tashkil etilayotgan ishchi o'rinlari bilan bevosita bog'liq. Har bir ishchi o'zni uchun hududdagi tadbirkorlar soliqdan chegirma va boshqa imtiyozlar oladilar. Shunga o'xshash sxema bo'yicha Buyuk Britaniya va Fransiyadagi hududlar ham ishlaydi.

Xalqaro iqtisodiy hududlar. 1990-yillarda xalqaro EIHLarni tashkil etish jarayonlari jonlandi. Jumladan, "Tumangan" EIHLning tuzilishining xalqaro loyihasi tayorlangan edi. Uning boshlanishiga 1990-yilda Chanchun shahrida o'tkazilgan konferentsiyada asos solingan. Xitoy olimlari XXR, KXDR va Rossiya chegaralari tutashgan Tumangan daryosi havzasida xalqaro ishlab chiqarish – transport hududini tashkil etish g'oyasini ilgari surdilar. G'oya aftorlari, shuningdek, YuNIDOning ham qo'llab-quvatlashi hisobiga Tumangan hududi loyihasini ishlab chiqarishga turli mamlakatlar olimlarini jalb etdilar. Dengizga chiqishga eng katta ehtiyoji bo'lgan Xitoyning Tszilin viloyati vakillari eng ko'p xizmat qildilar.

1991-yilning oktyabirida besh mamlakat vakillari – Koreya Respublikasi, KXDR, XXR, Rossiya va Mo'g'uliston Tumangan daryosi hududidini rivojlantirish dasturini ishlab chiqarish bo'yicha kelishuvga imzo chekdilar. Ammo loyihaning patentsial ishtirokchilarining manfaatlari va qarashlari xalqaro hududning teritorial chegaralari, uning huquqiy statusi, ixtisoslashuvi kabi muhim masalalar bo'yicha jiddiy farq qilar edi.

1991-yildan 1995-yilgacha konsepsiya jiddiy o'zgarishlarga uchradi va yangi versiya – Tumangan loyihasiga aylandi. Geografik hudud o'z ichiga Shimoliy Hamgen viloyatini (KXDR), Tszilin viloyatining Yanbyan aytanom okrugini (XXR) va Primoriyaning (Rossiya) janubiy qismini oladi. Loyihaning asosiy maqsadi – hududning iqtisodiy rivojlanish suratlarini tezlatish va aholi turmush sharoitini yaxshilash (chet el investitsiyalarini jalb etish hamda ichki va tranzit savdoni rivojlantirish hisobiga). Tumangan daryosining havzasi taxminan 88 ming ga ni tashkil etadi. Kelajakdagi yigirma yil mobaynida bu hududga 30 mlrd. dollar investitsiya qilinishi kutilmokka. Bu erda Yevropa va Osiyo o'rtasidagi eng qisqa savdo yo'lini qurish rejalashtirilgan.

1990-yilning o'rtalariga kelib Tumangan loyihasini amalga oshirishning tashkiliy bosqichi yakunlandi. 1995-yil dekabrda Nyu-York shahrida ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiy hamkorligini koordinatsiya qilish uchun tashkiliy tuzilmalarni yaratishga bag'ishlangan uchta asosiy davlatlararo hujjatlar imzolandi: Tumangan daryo havzasini rivojlantirish bo'yicha Maslahat komissiyasini tashkil etish bo'yicha besh tomonlama kelishuv, uchta dengiz bo'yi mamlakatlarning (Rossiya, XXR va KXDR) koordinatsion komitet tuzish bo'yicha uch tomonlama kelishuvi va Tumangan daryosi havzasi va Shimoliy-Sharqiy Osiyoda atrof-muhitni himoya etish asosiy tamoyillari bo'yicha memorandum.

Keyingi yillarda hudud turli investitsion loyihalarni bajarish asosida rivojlanmoqda. Rossiya uchun ustuvor yo'nalishdagi loyihalar bu Zarubino pasyolka dengiz portini moderinizatsiyalash hisobiga Xitoyning tashqi savdo kemalariga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish, Xunchun (XXR) – Kraskina – Zarubino temir yo'lini qurish, Xasan – Kraskina – Usurisk temir yo'l liniyasini modernizatsiyalash kiradi. Rossiyaning ushbu dasturni amalga oshirishdagi ishtiroki quyidagi

imkoniyatlarni yaratadi:

- Xitoy va Mo'g'ulistondan tranzit tashuv hajmini ko'paytiradi;
- chet el kapitali ishtirokida Primorie o'lkasida yangi qayta ishlash sanoatini rag'batlantiradi va xalqaro turizmni rivojlantiradi;
- ishsizlik darajasini kamaytiradi;
- mintaqadagi mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni faollashtiradi;
- mintaqaviy hamkorlikning iqtisodiy jabhalari ustidan nazoratni kuchaytiradi;
- Shimoliy-Sharqiy Osiyoda o'zining obro'sini kuchaytirishga qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Maxsus iqtisodiy hududlarning yaratilishi alohida zonalar va mintaqalarning iqtisodiyotini rivojlantirishning samarali yo'nalishi bo'lib, odatda, ustuvor iqtisodiy muammolarni hal qilish, strategik dasturlar va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, amaliyotda ta'kidlanishicha, MIHda yaratilgan imtiyozlar tizimi yetarlicha individual va uning hududida amalga oshirilayotgan dasturlar bilan chambarchas bog'liqdir. Jahon iqtisodiy tajribasiga ko'ra, MIH yaratilishida e'lon qilingan dastlabki maqsadlar va maqsadlar deyarli har doim haqiqiy rivojlanish natijasida yuz berayotgan voqealarga to'g'ri kelmaydi.

Maxsus iqtisodiy hududlar yaratilgan ko'plab mamlakatlar tajribasini tahlil qilish ularni tashkil qilish va rivojlantirish uchun bir qator muhim shartlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa ularni MIH loyihalarining to'liq bajarilmagani yoki ularning faoliyatining qoniqarsiz natijalariga olib kelishi mumkin⁴⁶.

1. Katta transport tarmoqlari kesishmasida qulay geografik joylashuv. Xalqaro va milliy ahamiyatga ega bo'lgan transport kommunikatsiyalaridan ajralib chiqqan katta mamlakatlarning chuqur dengiz mintaqalarida MIHlar deyarli yaratilmagan.

2. Mamlakat infratuzilmasiga nisbatan afzalliklarga ega bo'lishi kerak bo'lgan kelajakdagi hududning infratuzilmasi mavjudligi. Bularga suv va elektr ta'minoti kabi zamonaviy infratuzilma obyektlari, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlariga ulanish va boshqalar kiradi.

3. Zamonaviy standartlarga javob beradigan qulay ijtimoiy infratuzilma, shu jumladan, yashash joylari, maktablar, sog'liqni saqlash muassasalari, madaniyat va boshqalar mavjudligi.

4. Nisbatan arzon va ayni paytda yuqori malakali ishchi.

5. Bank va boshqa moliyaviy xizmatlar yetarli darajada yuqori bo'lishi; xalqaro moliyaviy markazlarga va bozorlarga arzon narxlarda ulanish.

6. Har xil xizmatlarni taqdim etish yo'li bilan yaratilgan sanoat ishlab chiqarish muhitiga, masalan, asbob-uskunalarni ta'mirlash va ta'mirlash va komponentlarni yetkazib berish sohasida qulay.

7. Yangi korxonalar, shu jumladan, chet el kapitali ishtirokida tashkil etilgan ma'muriy va byurokratik to'siqlar mavjud emas.

8. Rivojlangan va barqaror qonunchilik bazasi; MIHlarning rivojlanishi mahalliy hokimiyatlarning o'zgaruvchan qarorlariga emas, balki, mustahkam va aniq qonunga

⁴⁶ Семенов К.А. Международные экономические отношения: Учебник для вузов. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 544 с.

asoslangan bo‘lishi kerak.

Tayanch iboralar:

Kompleks hududlar, maxsus iqtisodiy hududlar, xalqaro erkin iqtisodiy hududlar, kapital, sanoat, eksport.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. Kompleks hududlar iqtisodiy o‘shish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, aholi bandligini ta‘minlash kabi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish maqsadlarida tashkil etiluvchi hudud hisoblanadi.

2. Kompleks hududlarning maxsus iqtisodiy hudud, xalqaro erkin iqtisodiy hudud va mintaqaviy hudud sintari turlari mavjud. Ular tarkibida maxsus iqtisodiy hudud tashkil etilishi nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi.

3. Kompleks hududlarga xos umumiy xususiyatlar maxsus iqtisodiy hududlarda ko‘proq namoyon bo‘lib, uni Xitoyda faoliyat ko‘rsatayotgan va faol rivojlanish tajribalariga ega 6 ta EIHni misol qilib keltirish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Kompleks hududlarni tashkil etish va rivojlantirishdan maqsad nima?

2. Kompleks hududlarning qanday turlarini bilasiz?

3. Maxsus iqtisodiy hududlar nima maqsadlarda tashkil etiladi va qaysi davlatlarda faol rivojlanishga ega?

4. Xalqaro erkin iqtisodiy hududni tashkil etish zaruriyati va xususiyatlari nimalardan iborat?

5. O‘zbekistonda kompleks hududlarning qaysi turlarini tashkil etish va rivojlantirishni o‘rinli deb hisoblaysiz?

6. Jahon amaliyotida kompleks hududlar qachondan boshlab tashkil etilib kelinmoqda?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Андирианов В.Д. Россия: Экономический и инвестиционный потенциал. – М.: Экономика, 1999. – 467 с.

2. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – 230 с.

3. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.

4. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особие экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.

5. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.

6. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особие экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.

4-bob. ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA INVESTITSION MUHIT XUSUSIYATLARI

4.1. Investitsiya muhitining mazmuni, iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi ahamiyati

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o'sish sur'atlari **investitsiya muhiti**ga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti yaratilishi xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb qilish, investitsiya faoliyatni rivojlantirish va samarali amalga oshirishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida barqaror investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishning ustuvor yunalishlaridan biridir.

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi va shuningdek, olib borilayotgan investitsion faollikning o'sish sur'atlari investitsion muhitga bog'liq bo'ladi. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlab beradi.

Qulay investitsiya muhiti mamlakatga kapital olib kelishni rag'batlantiradi, investorlar faoliyati faolligi ko'tarilishiga xizmat qiladi aksincha bo'lsa, kapital oqib ketadi, investitsiya faoliyati susaya boshlaydi. Qaerda qulay investitsion muhiti mavjud ekan o'sha tomonga investitsiyalar oqimi tezlashadi. Darhaqiqat, investitsiyalar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuchdir.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi, bunda davlat tomonidan barcha zaruriy choralar ko'riladi.

Qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud bo'lsagina o'sha davlat iqtisodiyotiga investitsiyalar qo'yilishi mumkin.

Investitsiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi.

O'z navbatida, investitsiya muhitiga doir quyidagi savollar tug'ilishi tabiiydir:

1. Investitsiya muhiti o'zi nima?
2. Investitsiya muhitining jozibadorligi nimalarga bog'liq?
3. Investitsiya muhitiga qanday ta'rif berish mumkin?
4. Investitsiya muhitiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

5. EIHlarda investitsiya muhiti qanday ahamiyat kasb etadi va uning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning ko'lami, yo'nalishlari va samaradorligi, bevosita, investitsiya muhitiga bog'liqdir. Shu sababdan mazkur iqtisodiy atamaning tub mohiyatini o'rganish, yoritish va asoslab berishga bo'lgan turli iqtisodchi-olimlar, mutaxassislarning qarashlari va o'ziga xos yondashuvlari orqali o'zaro ilmiy munozaralar hozirgi kunda ham davom etmoqdaki, bu, o'z navbatida, mazkur sohaga aloqador va unga qiziqish bildiruvchilar e'tiborini o'ziga tortmasdan qolmaydi.

Investitsiya muhiti EIHlarda yoki mamlakatning alohida hududida, shuningdek,

alohida tarmoq, yo bo'lmasa, makrodarajada tashkil etilishi va amal qilishidan qat'iy nazar umumiy va yagona mazmunda ta'riflanishi lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya muhiti mazmuni haqida turli talqindagi ta'riflar keltirilgan. Bu esa unga yagona ta'rif-talqin mavjud emasligidan dalolat. Shu sababni uning mazmuni, ahamiyatini o'rganish hozir ham dolzarb hisoblanadi.

Shunga ko'ra, ushbu atamaning iqtisodiy mazmunini yoritish maqsadida quyidagi ayrim iqtisodchi-olimlar tomonidan bildirilgan ta'riflarni tadqiq etish asosida investitsiya muhitiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir mintaqaga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ekologik, shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi.

Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiyalash bilan bog'liq munosabatlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir.


Investitsion muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishi talab etiladi.

Shu bilan birga investitsion faoliyatni amalga oshirish shart-sharoitlarini ifodalovchi investitsiya muhiti quyidagilardan iboratdir:

- investitsion faollik;
- investitsion jozibadorlik (investitsion salohiyat va investitsion risk darajasi).

Investitsion muhitning tarkibiy tuzilishi quyidagi 4.1-rasmda o'z aksini topgan.


Investitsion jozibadorlik – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxonaga investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsion risk darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir.



4.1-rasm. Investitsion muhit tarkibiy tuzilishi

Investitsion jozibadorlik investitsion salohiyat va investitsion risk darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqliligi hamda jozibadorligi, investitsion risk darajasini aniqlash mumkin. Investitsion risk darajasi investitsion muhitga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Investitsion salohiyat – bu mamlakatda asrlar davomida shakllangan omillar yig'indisi bo'lib, “obyektiv” omillar deb ataladi. Unga tabiiy resurs salohiyati, mehnat, ishlab chiqarish, innovatsion, iste'mol, moliyaviy salohiyatlar kiradi.



4.2-rasm. Investitsion salohiyat turlari

Tabiiy resurslar salohiyati:

- mineral resurslar (foydali qazilmalar);
- iqlim sharoitlari;
- mamlakatning geosiyosiy joylashuvi;
- er, suv resurslari;
- o'simlik va hayvonot dunyosi.

Mehnat salohiyati. Mehnat salohiyatiga iqtisodiy faol aholi soni, uning yosh tarkibi, joylashish zichligi, bilim darajasi, shuningdek, mehnatning o'rtacha qiymati kabilar kiradi. Odatda, xorijiy investorlarni malakali va arzon ishchi kuchiga ega hududlar qiziqtiradi.

Ishlab chiqarish salohiyati. Bu salohiyat mamlakatda yaratilgan ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish vositalari, iqtisodiyot tarkibi, sanoat, qazib chiqarish va qayta ishlovchi tarmoqlarning o'zaro nisbati, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan investitsion loyihalar miqdori, kichik biznesning rivojlanish darajasi va boshqalar bilan bog'liqdir.

Iste'mol salohiyati. Iste'mol salohiyatida investor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning ichki bozorda sotilishi ko'rib chiqiladi. Bunda talab, raqobat va aholining daromad darajasi baholanadi.

Innovatsion salohiyat. Innovatsion salohiyat ilmiy yutuqlar, mamlakatdagi ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga xarajatlar, texnika va texnologiyalarni

yangilanish darajasi, yangilik va kashfiyotlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Moliyaviy salohiyat. Moliyaviy salohiyat mamlakatning moliyaviy imkoniyatlari, iste'mol va jamg'armaning nisbati, bank sohasidagi depozit va pul kredit siyosati, tashqi qarz, ichki zahiralari va boshqalar bilan xarakterlanadi.

O'zbekistonda qulay investitsiya muhitining yaratilishi natijasida:

- iqtisodiyotga milliy va xorijiy investitsiyalar oqimining faollashuviga zamin yaratadi va uning samarali o'zlashtirish natijasi ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini beradi;

- kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va xususiy sektorda investitsiyalar faolligini oshirish orqali o'sib aholini ish bilan ta'minlash imkonini beradi;

- korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

- tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarini barpo etishga ko'maklashadi va milliy iqtisodiyotimizni qay darajada barqaror rivojlanayotganligi anglatuvchi quyidagi o'sish ko'rsatkichlari yuzaga keladi;

- EIHLar orqali investitsiyalarning faol kirib kelishi rivojlanib boradi;

- mamlakatning tashqi iqtisodiy, savdo, investitsion, innovatsion va boshqa yo'nalishdagi ayoqlari rivojlanadi;

- mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sish, tashqi savdo balansini ta'minlash, oltin-valyuta zahirasi ko'paytirish kabilar orqali raqobatbardoshligini oshiradi va sh.k.

Tayanch iboralar:

Investitsiya muhiti, investitsion salohiyat, investitsion jozibadorlik, investitsiya resursi, investitsion faollik, erkin iqtisodiy hududlar, investitsiya.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHLarga investitsiyalarni jalb etishda investitsiya muhiti muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish doimo eng muhim vazifalardan bo'lib qolaveradi.

2. Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir mintaqaga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ekologik, shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Investitsion jozibadorlik – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxonalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsion risk darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir. Investitsion jozibadorlik holati investitsion faollikka o'z ta'sirini ko'rsatadi va u hal etuvchi omil sifatida baholanadi.

3. Investitsiya muhiti investitsiyaon jozibadorlik va investitsion faollikni o'z ichiga olib, o'z navbatida, investitsion jozibadorlik hal etuvchi o'rinni egallaydi va u

iqtisodiyotning investitsion salohiyati va ungi kiritiladigan investitsiyalarning investitsion risk darajasidan tashkil topadi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlarga investitsiyalarni jalb etishda investitsiya muhitining o'ri va ahamiyati nimada?
2. Investitsiya muhiti deganda nimani tushunasiz?
3. Investitsiya muhiti nimalardan iborat va uning jozibadorligini oshirish uchun nimalarga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi?
4. Investitsion jozibadorlik deganda nimani tushunasiz va uning tarkibi nimalardan iborat?
5. Investitsion salohiyat mazmunini aytib bering va uning tarkibiy qismlariga izoh bering.
6. EIHlarga investitsiyalarni yanada faol jalb etish uchun mamlakatimizda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

4.2. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar

Mamlakat, xususan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ularning investitsion salohiyati va investitsion faollik orqali ta'minlanadi. Investitsiya muhitining asosiy unsurlaridan biri bo'lgan investitsion jozibadorlik investitsion salohiyat va investitsion risklarning o'zaro aloqasi natijasida shakllanadi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotda amalga oshiriladigan investitsiyalar uchun qulay sharoit investitsion jozibadorlik hisoblanadi.

Albatta, bu yerda xorijiy investor u yoki bu mamlakatda o'z kapitalining xavfsizligini ta'minlash masalalariga, birinchi navbatda, e'tiborini qaratadi. Shundan keyin, u o'z kapitalidan foyda olishning qanchalik samaradorligi haqida o'ylab ko'radi. Investor uchun xavf tug'diradigan xatarlar mamlakat investitsiya muhiti jozibadorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarni turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha yoritish bilan ifodalanganlik holatlari kuzatiladi.

Bu esa investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarni turlicha talqin etish bilan bevosita bog'liq ekanligiga asoslanadi.

Jumladan, ayrim manbalarda investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarni ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarga ajratgan holda, boshqalarda ta'sir etish yo'nalishlariga ko'ra yoki manbalariga ko'ra va boshqa maqsadlarga asoslanib farqlanishlarni keltirish holatlari kuzatiladi.

Investitsiya muhiti holatiga quyidagi muhim omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Eng avvalo, mamlakat investitsiya siyosatining yo'nalishlari va samarasi.
2. Mamlakat ichkarisidagi siyosiy barqarorlik. Mamlakatda siyosiy barqarorlik hukm sursa, investitsiya muhitining boshqa omillari ham o'z ahamiyatini namoyish eta oladi.
3. Mintaqadagi yaqin qo'shnichilik munosabatlari. Bu ham mamlakatning siyosiy ahvoriga katta ta'sir ko'rsatadi va tadbikorlik faoliyatida muhim sanaladi.
4. Huquqiy-me'yoriy hujjatlarning mavjudligi. Hukumatning investitsion

munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan qonun-qoidalarining mukammallik darajalari.

5. Mamlakatning tabiiy resurslar salohiyati. Investitsion muhit jozibadorligini oshiruvchi omillardan asosiysi – bu mamlakatdagi mavjud tabiiy boyliklardir. Agarda tabiiy resurslar salohiyati yuqori bo‘lsa, o‘sha mamlakatga investitsiyalar ko‘proq jalb etiladi.

6. Mamlakatning mehnat salohiyati. Biror-bir iqtisodiyotga investor investitsiya kiritishdan avval, o‘sha erning mehnat salohiyatini ham o‘rganadi. Mehnat salohiyati deganda, mamlakatdagi ishchi kuchining tarkibi, soni, qiymati, bilimi, malakasi, tajribasi kabilar nazarda tutiladi.

7. Investitsion jamg‘armalar. Investitsion jamg‘armalar – jamg‘armalarning maxsus turi hisoblanib, iste‘mol zaruriyatlari uchun sarflanmaydi. Bu jamg‘armalarning asosiy maqsadi daromad keltiradigan aktivlarni investitsiyalashdir. Jamg‘armalarning bunday turi iste‘mol maqsadlarda ishlatiladigan zaruriy jamg‘armalardan keyin hosil qilinadi. Bunday jamg‘armalarning hajmi (salmog‘i) jamiyatning turmush darajasiga va aholisining daromad darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Investitsion jamg‘armalar uzoq muddatli va qisqa muddatli bo‘lishi mumkin. Uzoq muddatli qo‘yilmalar yoki uzoq muddatli aktivlar kapital bozorida moliyaviy resurslarning manbaasi hisoblanadi. Qisqa muddatli jamg‘armalar pul bozorida yoki qisqa muddatli majburiyatlar bozorida qatnashadi.

8. Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyati deganda, asosan, nima ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi nazarda tutiladi. Bunda sanoatning qaysi tarmog‘i hududda rivojlanganligiga ham e‘tibor beriladi.

9. Mamlakatning iste‘mol salohiyati. Mamlakatning iste‘mol salohiyati o‘rganilganda aholining xarid qobiliyatiga baho beriladi.

10. Mamlakatning innovatsion salohiyat. Innovatsion salohiyatni aniqlash orqali hududdagi yaratuvchanlik qobiliyati, yangilikka intiluvchanlik va uni o‘zlashtirish salohiyati tahlil qilinadi.

11. Mamlakatning moliyaviy salohiyati. Mamlakatning moliyaviy salohiyatini o‘rganilganda o‘sha erdagi moliyaviy institutlar, muassasalar faoliyati tahlil qilinadi.

Lekin, investitsiya muhitiga turli omillar ta‘sir ko‘rsatishi nuqtai nazaridan kelib chiqib, ushbu omillarga guruhlashtirilgan ko‘rinishda o‘rganish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa investitsiya muhitiga qaysi guhurdagi omillari ta‘siri qay darajada ekanligini to‘g‘ri aniqlash hamda unga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga muvofiq, investitsiya muhiti holatini belgilovchi omillarning kengaytirilgan tarkibini quyidagi 4.2-jadval orqali ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya muhiti holatini belgilovchi kengaytirilgan omillar

Ta'sir etuvchi omillar guruhi	Ko'rinishlari
SIYOSIY OMILLAR	<ol style="list-style-type: none"> 1. Davlatning investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar bo'yicha siyosati. 2. Davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi. 3. Mamlakatning xalqaro shartnomalarga qo'shilganlik darajasi. 4. Mamlakatning xalqaro bitimlarga rioya qilishi. 5. Siyosiy ahvolning barqarorligi (siyosiy harakatlar, to'qnashuvlar, qo'shni davlatlarning osoyishtaligi). 6. Siyosiy hokimiyatning maqsadli harakati. 7. Davlat apparatining samarali ish yuritishi. 8. Ko'p partiyaviylik va siyosiy guruhlarining mavqei. 9. Soliq, valyuta, narx, pul-kredit siyosatining investitsiya siyosatiga uyg'unligi. 10. Mamlakatdagi ekologik vaziyat va hukumatning ekologik sog'lomlashtirish bo'yicha siyosati ko'lami.
IQTISODIY OMILLAR	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli. 2. Inflyatsiya darajasi. 3. Soliq imtiyozlari. 4. Bojxona tartibi. 5. Mamlakat tabiiy va xomashyo resurslari holati. 6. Ishchi kuchi holati va qiymati. 7. Ishchi kuchidan foydalanish tartibi. 8. Muayyan tovarlar uchun talab va taklif. 9. Raqobat va bahoning erkinligi. 10. Valyuta konvertatsiyasi va milliy valyuta kursining barqarorligi. 11. Bank foiz stavkalari. 12. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari. 13. Mamlakatning geografik-hududiy jihatdan joylashuvi (tabiiy ofatlar, dengiz va quruqlik yo'llari, iqlim sharoiti). 14. Xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanganligi.
IJTIMOIIY OMILLAR	<ol style="list-style-type: none"> 1. Xususiy mulk hamda xorijiy investitsiyalarga nisbatan mahalliy aholi munosabati. 2. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. 3. Aholining mafkuraviy qarashlari va ularning turli-tumanligi. 4. Mamlakatda turli millatlikka nisbatan mavjud munosabat. 5. Aholining savodxonlik darajasi. 6. Ishchi-mutaxassislar malakasi, ko'nikmalari va tajribalarining o'sib borishi va unga intilish. 7. Yangiliklar va turli xil ixtirolarga aholining munosabati va


	ularni qabul qilish darajasi.
HUQUQIY OMILLAR	1. Investitsiya faoliyati huquqiy asoslarining mustahkamlik darajasi. 2. Investitsiya faoliyatini bevosita ta'minlovchi huquqiy asosning mustahkamlik darajasi. 3. Investitsiya faoliyatining me'yoriy asoslari (farmon, qaror, nizom, yo'riqnomalar va h.k.). 4. Xalqaro norma va standartlarning amal qilish darajasi.

Investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi investitsiya risklarining turlari:

- huquqiy (investitsiyalashning huquqiy shartlarini, alohida ishlab chiqarish omillari tarkibini aks ettiradi);
- siyosiy (siyosiy barqarorlik darajasini hisobga oladi);
- ijtimoiy (ijtimoiy holat darajasi hisobga olinadi);
- noqonuniy faoliyat (mintaqada jinoyatchilik darajasini hisobga oladi);
- iqtisodiy (mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga oladi);
- ekologik (atrof-muhitning ifloslanish darajasini hisobga oladi) risklardan iborat.

Hududiy investitsion salohiyat hududiy darajada investitsion jarayonlarning rivojlanishi, investorlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan muqobil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning mavjudligi bilan baholanadi.

Hududlarda investion muhitni shakllantirish va uning uzluksiz yaxshilanib borishida, birinchi navbatda maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishga erishish lozim. Maqsad va vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishi hududda qulay investitsiya muhitining yanada yaxshilanishini ta'minlaydi. Buni quyidagi rasm orqali yaqqol kuzatishimiz mumkin.



4.3-rasm. Hududlar qulay investitsiya muhiti asoslari⁴⁷

Rasmdan ko‘rinadiki, hududiy investitsion salohiyatni oshirish bilan birga hududiy investitsion risklarni pasaytirish orqali ularda investitsion jozibadorlikni oshirishga erishish mumkin. Bu maqsadga erishish yo‘li orqali hududlarga ichki va tashqi investitsiyalarni kengroq jalb etish mumkin. Shu yo‘l orqali investitsion faoliyatni yaxshilash maqsadiga erishish mumkin. Bu, o‘z navbatida, hududlarning investitsiya muhitini qulaylashtiradi.

Hudud investitsiya muhiti unda joylashgan EIHLar investitsiya muhiti uchun ham juda muhim sanaladi. Shu sababdan yuqorida keltirilgan rasmni bevosita EIHLarda yaratiladigan investitsiya muhitiga ham bevosita bog‘lash mumkin.

Tayanch iboralar:

Investitsiya muhiti, investitsion salohiyat, investitsion faoliyat, jamg‘arma, risk, erkin iqtisodiy hududlar, investitsiya, investor.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. EIHLarga investitsiyalarni jalb etish u joylashgan hudud iqtisodiyotini

⁴⁷ Haydarov A. Hududlarning investitsion salohiyati va istiqbol yo‘nalishlari. // “Moliya” ilmiy jurnali, 2011-yil, 5-6 son, 99-b.

rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan EIHga investitsiyalarni jalb etishda hudud investitsiya muhitini yaxshilash va uning yanada qulayligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2. Investitsiya muhiti holatini o'rganish unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash bilan amalga oshiriladi. Shu sababdan investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ekologik, infratuzilmaviy, texnologik va boshqa omillarni, xususan, ular ta'sirida yuzaga keladigan riskli vaziyatlarni oldindan aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Investitsiya muhiti faqat mamlakatda yaratilgan qulay shart-sharoitlardan iborat bo'lib qolmay, balki, ushbu sharoitda foydalaniladigan mehnat, moddiy, moliyaviy, tabiiy resurslarning mavjudligi, arzonligi va ulardan foydalanishning qulayligi kabilarni baholashni nazarda tutadi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlarga investitsiyalarni jalb etish uchun investitsiya muhiti qanday shart-sharoitlarga ega bo'lishi lozim, deb hisoblaysiz?

2. Investitsiya muhitiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi va ularning ichida qaysilarini investor uchun eng ahamiyatli, deb hisoblaysiz?

3. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar nimalardan iborat?

4. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi siyosiy omillar nimalardan iborat va ularni o'rganish va baholash investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbikorlar uchun qanday ahamiyatga ega?

5. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va huquqiy omillar nimalardan iborat va ularning o'zgaruvchanligi yoki barqarorligi investor uchun qanday ahamiyat kasb etadi?

6. Hududda yaratilgan investitsiya muhiti hududdagi tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etishi samalarini misollar yordamida izohlang.

4.3. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish uchun yaratiladigan investitsiya muhitining huquqiy-me'yoriy asoslari

Mamlakat EIHlariga investitsiyalarni jalb etishda yaratilgan qulay investitsiya muhitining huquqiy asoslari amaldagi qonunchilik tizimi asosida barpo etilgan huquqiy-me'yoriy bazadan iborat bo'ladi.

Investitsiya muhitining huquqiy-me'yoriy bazasi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Bevosita huquqiy asosni tashkil etuvchi.

2. Bilvosita huquqiy asosni tashkil etuvchi.

3. Bevosita me'yoriy asosni tashkil etuvchi.

4. Bilvosita me'yoriy asosni tashkil etuvchi.

5. Xalqaro norma, standart va konvensiyalarning amal qilishini tasdiqlovchi huquqiy asos.

Mamlakatda mavjud o'rnatilgan tartibga qarab xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qanday huquqiy muhit yaratilganligiga baho berish mumkin.

Mamlakatda qabul qilingan har bir qonun qulay investitsiya muhiti yaratilishiga o'ziga xos tarzda (amal qilish sohasi, ishlash mexanizmi, tartibga solish tizimi

doirasida) o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ikkilamchi mavqedagi qonun hujjatlari bilvosita ta'sir ko'rsatishdagi ahamiyati bilan ajralib turadi.

Mamlakatda investitsion munosabatlarni amalga oshirish va uning huquqiy tizimini tashkil etuvchi muayyan huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi yangi tahrirda, "Chet ellik investorlar huquqlarning kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Bu qonunlarda investitsion munosabatlarga taalluqli barcha jarayonlarga va tushunchalarga aniqliklar kiritilgan. Investitsiya faoliyatining subyektlari va obyektlari, investitsion faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinish masalalari, xorijiy investorlarning huquq va burchlari, mol-mulk kafolatlari va imtiyozlari kabilar aniq belgilab berilgan.

Biroq, bu kabi mamlakatda investitsion faoliyatni rag'batlantiruvchi qonuniy-xuquqiy bazaning mavjudligi bozor munosabatlarining rivojlanganligini belgilamaydi. Bugungi kunda mamlakatda investitsion muhitni tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirmoq zarur. Davlat mazkur qonunlar doirasida investitsion faoliyatning turli subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi. Boshqacha qilib aytganda, bu tartibning qanday o'rnatilganligiga qarab u yoki bu mamlakat xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qanday huquqiy muhit yaratilganligini aniqlab olish mumkin.

"Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va tartiblarini belgilab beradi hamda tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining mulklarini, mulkchilikning qanday shaklida bo'lishidan qat'iy nazar, manfaatlarini va huquqlarini xalqaro huquqning qabul qilingan umumiy me'yorlariga muvofiq ravishda himoya qilishni ta'minlaydi. Bu qonun O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga uyg'unlashishi uchun huquqiy asosni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonunlari mamlakat hududida xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini yaratish, chet el sarmoyalari soliq tartiblarini belgilab beradi, xorijiy investorlarning samarali faoliyat ko'rsatishini kafolatlaydi va Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'maklashish, uni jahon xo'jalik aloqalariga kiritish maqsadida chet el moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarni jalb etishga va ulardan foydalanishga qaratilgan.

"Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunning asosiy vazifalari – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishga va uning xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish yo'li bilan jahon xo'jalik tizimiga uyg'unlashuviga ko'maklashishdan, shuningdek, xorijiy moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa zahiralarni, zamonaviy texnologiyalarni va boshqaruv tajribalarini jalb qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishdan iborat.

Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlarning ma'lum kategoriyalarini himoya qilish chora-tadbirlari va ularni kafolatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar "Chet

ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonunning asosi bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur qonunning 3-moddasida, davlat boshqaruv idoralari va davlat hukumat organlari joylarda chet el investitsiyalarining O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshirilgan xo‘jalik faoliyatlariga aralashish huquqiga ega emaslar, deb aytilgan.

Qulay investitsion muhitni yaratishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘tish davrida davlat iqtisodiyoti uchun chet el investitsiyalari g‘oyat muhim ekanligini anglagan holda, investitsion muhitini yaxshilash hamda chet ellik investorlar bilan munosabatlarda qonunchilikni takomillashtirish uchun barcha choralarni ko‘rmoqda.


Mamlakatdagi mavjud investitsion qonunchilik tizimi:

- iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalari kirib kelishini rag‘batlantirish yo‘li bilan mamlakatimizni rivojlantirish va uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga ko‘maklashish;

- xorij hamkorlarining moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, zamonaviy, sifatli texnologiyalarini va boshqaruv tajribasini jalb etish hamda ulardan oqilona foydalanish;

- chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish;

- chet ellik investorlar va chet el investitsiyalarining ayrim toifalari uchun qo‘shimcha kafolatlar berish shart-sharoitlarini va ularni himoyalashning huquqiy asoslarini yaratib bergan⁴⁸.



4.3-rasm. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalariga qulay sharoit yaratish

O‘zbekiston hududi va EIHLariga sarmoya kirituvchi chet ellik investorlar

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1-modda. // www.lex.uz.

xalqaro huquq tamoyillari bo'yicha va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiyalshni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

- investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

- o'zining investitsiyalar va investitsiya natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik investorning qororiga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;

- O'zbekiston Respublikasi investitsiyalash natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

- investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan, uning moneliksiz repatriatsiya qilish);

- O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzar tariqasida pul mablag'larini jalb etish;

- o'z hisobvarag'idagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xollarda va shartlarda er uchastkalarida doir huquqlarni sotib olish;

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va har qanday huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan, qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'minot sifatida foydalanish;

- o'z investitsiyalari va boshqa aktivlar rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

- davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida yetkazilgan zararlarni undirib olish.

Chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlarga ham egadir.

EIHLarning samarali faoliyat ko'rsatishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri – bu hududlarning istiqbolini belgilash va samaradorligini aniqlash, shuningdek, nazorat qilishning huquqiy asoslarini belgilashdan iboratdir. Jahon tajribasidan ma'lumki, huquqiy asoslarni to'laligicha ishlab chiqmasdan turib, hech bir erkin iqtisodiy zona yetarli darajada samarali faoliyat ko'rsata olmaydi. Shuning uchun ham huquqiy tartib-qoidalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish erkin iqtisodiy hududdagi xo'jalik subyektlari uchun ham, chet el investorlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch iboralar:

Investitsiya muhiti, huquqiy asos, xorijiy investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, kafolat, investitsion faoliyat, investor.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Mamlakatimizda bugungi kunda EIHLarga investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoit, qonuniy huquq va kafolatlarni o'zida mujassam etgan zaruriy huquqiy asoslar yaratilgan. Ushbu huquqiy asos mamlakatimizning EIHDan tashqaridagi huquqiy asoslardan ajratilmaydi, aksincha, yanada qulayroq imkoniyatlarni taqdim etadi. Shunga ko'ra, xorijiy investorlar xalqaro huquq tamoyillari bo'yicha va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq qonunlarda belgilangan huquqlarga ega.

2. Milliy iqtisodiyoga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uning diversifikatsiyasi, raqobatbardoshligi va faol o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan EIHLarga TTXIlarni keng jalb etishga ustuvor ahamiyat berilgan.

3. Milliy iqtisodiyot va EIHLarga investitsiyalarni jalb etishda xalqaro me'yorlarga amal qilinadi va bu, o'z navbatida, investitsiya faoliyati uchun yaratilgan huquqiy asoslarning xorijiy investorlar uchun ahamiyatini yanada oshiradi. Biroq, har bir davlatdagi singari O'zbekiston Respublikasida ham yaratilgan huquqiy asoslarda davlatning milliy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va boshqa manfaatlari, xavfsizligi hamda uni ta'minlash va himoyalash bilan bog'liq maqsadlaridan kelib chiqib o'ziga xos jihatlari, shart-sharoitlari inobatga olinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarga investitsiyalarni jalb etishda huquqiy asoslarni yaratishning zarurligi nimada?

2. Investitsiyalarni jalb etishning huquqiy-me'yoriy asoslari qanday tarkibga ega?

3. TTXIlarni jalb etish tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega?

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda qaysi qonun hujjati asos bo'lib xizmat qiladi?

5. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari qaysi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi?

6. O'zbekistonda xorijiy investorlarga qanday kafolatlar berilgan?

4.4. Investitsiya muhitini baholashning xorij tajribalari tahlili

Investitsion muhitga baho berishda turli davlatlarda turlicha yondashuvlar qo'llaniladi va bu baholash uslublari bir-biridan farq qilib, odatda, chet elda makroiqtisodiy sohaga nisbatan baho ishlatiladi.

Masalan, Yaponiyada investitsion muhitning bayoniy tavsifi berilib, miqdoriy baho qo'llanilmaydi.

AQShda investitsiya muhiti to'rtta birlashtirilgan ko'rsatkich asosida aniqlanadi

va reyting natijalari har yili “Yillik statistik karta”da e’lon qilinadi: ishbilarmonlik faolligi; xo’jalik tizimi rivoji salohiyati; investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi; samarali soliq siyosati.

Jahon banki yondashuviga ko’ra, mamlakat investitsiya muhitiga ta’sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat, deb hisoblanadi:

- iqtisodiy siyosat va huquqiy-me’yoriy amaliyotning noaniqligi;
- korrupsiya darajasi;
- sud tizimining sifati;
- jinoyatchilik darajasi;
- “soliq yuki” va soliqqa tortish tizimini huquqiy jihatdan tartibga solish tizimi;
- moliya resurslarini olish imkoniyati va moliyalashtirish qiymati;
- elektr bilan ta’minlanganlik darajasi va sifati;
- ishchilar malaka darajasi va mehnat qonunchiligining sifati.

Uchinchi variant umume’tirof etilgan variant hisoblanib, mamlakat investitsion muhitini tavsiflashning mukammal ko’rinishidir. U qo’yidagi imkoniyatlarni beradi:

- mintaqalararo iqtisodiy tuzilmalarning investitsion shart-sharoitlari o’rtasidagi o’xshashlik, farqi va o’ziga xosligini aniqlash;

- mamlakat investitsion siyosatida u yoki bu mintaqaning o’sib borayotgan ahamiyatini e’tiborga olish; subyektivizmni kamaytirish, axborotni yig’ish, qayta ishlash, uzatish jarayonini soddalashtirish, turli iqtisodiy darajalardagi investitsion muhitni yaxshilash bo’yicha muayyan tavsiyalar berish.

Mamlakat investitsiya muhitini baholashda yana xalqaro kredit reytinglaridan ham foydalaniladi. Ular jahondagi o’n bir obro’li agentlik tomonidan ishlab chiqiladi. Ulardan beshtasi – Amerika, uchtasi – Yaponiya, ikkitasi – Kanada va bittasi Angliya agentliklaridir. Bunda bozorning 90% ikki yirik va mashhur amerika kompaniyalariga tegishlidir – Standart and Poor’s, Investor Service va Moody’s Investor Service.

Mamlakatning reytingi yuqori yoki pastligi albatta ahamiyat kasb etadi. Lekin, shu reytingga kirishning o’zi ham investorlarda ushbu mamlakatga nisbatan u yoki bu darajada ishonch uyg’otadi.

Rivojlangan ko’pgina mamlakatlarda maxsus investitsiya loyihalarini baholaydigan, investitsiyalar qo’yilishiga talab bo’lgan davlatlarni investitsiya muhitini o’rganadigan va aniq xulosalarni investorlar uchun beradigan firmalar, tashkilotlar mavjuddir. Masalan: Shveysariya, Germaniya kabi qator mamlakatlarning nufuzli axborot xizmatlari davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xolatini baholash uchun har biri 0 – qoniqarsiz va 4 – o’ta qulaygacha bo’lgan balli shkala bo’yicha baholanadigan 15 ta muhim ko’rsatkichni hisobga oladigan **“BERI” (business environment risk index)**ni qo’llaydi.

Mazkur usulning mohiyati shundaki, obro’li ekspertlarni tanlash asosida va ularga 5 balli (0 dan 4 ballgacha) shkalada 15 ta asosiy mezonlar bo’yicha mamlakat riskini baholash taklif etiladi. Ushbu usulda baholash mezonlari va ularning qiymatlari quyidagilardan iborat (4.2-jadval).

**BERI indeksi yordamida mamlakat investitsiya muhitini baholash
ko'rsatkichlari**

№	Mezonlar	Salmog'i, %
1.	Siyosiy barqarorlik	12
2.	Xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabat	6
3.	Milliylashtirilishi xavfi	6
4.	Valyutaning devalvatsiya qilinish ehtimoli va darajasi	6
5.	To'lov balansining holati	6
6.	Biznesning byurokratlashish darajasi	4
7.	Iqtisodiy o'sish sur'ati	10
8.	Valyutaning erkin almashinuv darajasi	10
9.	Shartnoma majburiyatlarini bajarish soni	6
10.	Mehnat unumdorligi darajasi va ish haqi xarajatlari	8
11.	Yuridik va marketing maslahatlarini olish, malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati	2
12.	Aloqa va transportni tashkil qilish	4
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkorlik	4
14.	Qisqa muddatli kreditlarni olish shartlari	8
15.	Uzoq muddatli kreditlar olish foydalanish shartlari	8

“Mamlakat riskining o'rtacha tortilgan bali quyidagi formula yordamida aniqlanadi (BERI indeks):

$$I_{BERI} = \sum_{i=1}^{15} k_i j_i$$

bu erda: k_i va j_i – tegishli ravishda, i omilni baholovchi mezonlarning ballardagi qiymati va vaznli koeffitsienti.

Iqtisodiyotga safarbar qilingan investitsiyalarning samaradorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichdan yana biri ICOR (incremental capital-output ratio) bo'lib, u mamlakatdagi real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashda yordam beradi.

ICOR koeffitsienti investitsiya resurslarining samarali ishlatilishini belgilab beruvchi ko'rsatkich hisoblanib, u qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik ahamiyatli

hisoblanadi va aksincha. Bu koeffitsient asosiy kapitalga qo'yilgan mablag'lar, ya'ni YaIM dagi investitsiyalar salmog'ining, keyingi yildagi YaIM ning qo'shimcha o'sish sur'atiga nisbatini bildiradi, ya'ni:

$$ICOR = I / \Delta YaIM$$

bu erda, **I** – investitsiya o'sish darajasi (YaIM dagi salmog'i); $\Delta YaIM$ – yalpi ichki mahsulotning qo'shimcha o'sish darajasi.

4.3-jadval.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ICOR ko'rsatkichlari

Yillar	YaIM, mlrd. so'm	Yalpi investitsiyaning YaIMga nisbati, foiz hisobida	YaIMning qo'shimcha o'sish sur'ati, foiz hisobida	ICOR (YaIM qo'shimcha o'sishining kapital sig'imkorligi)
2002	7405,2	19,3	4,0	6,4
2003	9837,8	19,3	4,2	4,6
2004	12189,5	20,3	7,4	2,6
2005	15923,4	20,8	7,0	2,9
2006	20759,3	19,5	7,9	2,6
2007	22731,4	19,4	9,5	2,1
2008	36839,4	23,0	9,0	2,2
2009	48095,0	26,1	8,1	2,8
2010	62338,3	25,0	8,5	3,1
2011	77750,6	23,5	8,3	3,0
2012	96589,8	22,9	8,2	2,7
2013	118986,9	23	8,0	2,9
2014	144867,9	23,3	8,1	2,8
2015	171369,0	23,8	8	2,9
2016	199325,1	24,8	7,8	3,1
2017	249136,4	24,4	5,3	4,7
2018	407514,5	21,0	5,1	4,8

4.3-jdval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarga kelib ICOR koeffitsienti ko'rsatkichi nisbatan o'sib borgan, bu esa iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalarning uning o'sish sur'atiga ta'siri samaradorligi nisbatan pasayganligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur masazala jiddiy e'tibor qaratilishi lozimligini taqozo etadi.

Investitsiya muhitini baholash bo'yicha Umumjahon banki yondashuvi quyidagicha. Unga ko'ra mamlakat investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat, deb hisoblanadi:

- iqtisodiy siyosat va huquqiy-me'yoriy amaliyotning noaniqligi;
- korrupsiya darajasi;

- sud tizimining sifati;
- jinoyatchilik darajasi;
- “soliq yuki” va soliqqa tortish tizimini huquqiy jihatdan tartibga solish tizimi;
- moliya resurslarini olish imkoniyati va moliyalashtirish qiymati;
- elektr bilan ta'minlanganlik darajasi va sifati;
- ishchilar malaka darajasi va mehnat qonunchiligining sifati.

Ushbu yondashuv investitsion jozibadorlikni ta'minlashning institutsional omillariga alohida e'tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi. Jahon banki tomonidan tahsil etiladigan investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar investitsiya riski bilan bog'liq. Ushbu uslubiyatga muvofiq mamlakatning investitsiya imkoniyatlari e'tiborga olinmaydi.

Tayanch iboralar:

Investitsiya muhiti, iqtisodiy tuzilma, investitsiya loyihasi, risk, investor, valyuta, Jahon banki, investitsion jozibadorlik.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Investitsiya muhitini baholash uning investitsyalarni jalb etish uchun qanchalik jozibali ekanligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham har bir davlat o'z investitsiya muhitini baholash va uning natijasi asosida investitsiya muhitining yanada qulayligini oshirishga doimo alohida e'tibor qaratib keladi.

2. Investitsiya muhitini baholashda har bir davlatda e'tiborga olinadigan alohida mezonlar ishlab chiqilgan. Shuning bilan birga jahonda turli xalqaro tashkilotlar, reyting agentliklari tomonidan ham davlatlar investitsiya muhitini baholash amaliyoti mavjud. Bu esa investitsiya muhitining xolis subyektlar tomonidan xorijiy investorlar uchun jozibadorligini haqqoniy baholash ishonchini uyg'otadi.

3. Xalqaro tashkilotlar va reyting agentliklari tomonidan investitsiya muhitini baholashda turli omillar hisobga olinib, ularning investitsiya muhitiga ko'rsatuvchi ta'siridan kelib chiqib turlicha ballarda baholash tizimi ishlab chiqilgan. Jumladan, dunyoning bir qator rivojlangan davlatlari, masalan, Shveytsariya, Germaniya kabi qator mamlakatlarning nufuzli axborot xizmatlari davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xolatini baholash uchun har biri 0 – qoniqarsiz va 4 – o'ta qulaygacha bo'lgan balli shkala bo'yicha baholanadigan 15 ta muhim ko'rsatkichni hisobga oladigan **“BERI” (business environment risk index)**ni qo'llaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Investitsiya muhitini baholashning obyektiv zarurligi nimalardan iborat?
2. Investitsiya muhitini baholashda tez o'zgaruvchan va nisbatan barqaror omillar nimalardan iborat?
3. Qaysi xorijiy davlatlarning investitsiya muhitini baholash tizimini bilasiz?
4. “Xalqaro tashkilotlar va reyting agentliklari tomonidan investitsiya muhitini baholashning zarurligi nimalardan iborat?”
5. Investitsiya muhitini baholash bo'yicha qanday xalqaro tashkilot va reyting agentliklarini bilasiz?
6. “Investitsiya muhitini baholashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi,

“BERI” va ICOR ko‘rsatkichlari nima maqsadla qo‘llaniladi?

4.5. Erkin iqtisodiy hududlarda imtiyozlar turlari (tashqi savdo, soliq, moliyaviy, ma‘muriy imtiyozlar)

Hozirgi kunda, fan va texnika taraqqiyoti ta‘sirida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvining chuqurlashib borishi XX asrning so‘nggi choragida jahon xo‘jalik tizimining rivojlanishida globallasuv va xalqaro integratsiya jarayonlarining jadallasuviga olib keldi. Buning natijasida milliy iqtisodiyotlarning jahon bozoriga bog‘liqligi kuchaydi va tashqi iqtisodiy faoliyat iqtisodiy o‘shish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning eng asosiy shartlaridan biriga aylandi. Mana shunday sharoitda har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy salohiyati va nisbiy afzalliklariga tayanib eksport salohiyatini oshirib borishga va shu orqali jahon xo‘jalik tizimida o‘ziga xos va munosib o‘rin egallashga harakat qiladi.


Jahon xo‘jalik tizimi rivojlanishidagi bunday yangi tendensiyalar xalqaro iqtisodiy munosabatlarning turli shakllarini vujudga kelishiga va taraqqiy topishiga olib keldi.

Ilmiy nashrlarda va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisobotlarda turli xil imtiyozlar va yengilliklar taqdim etilgan zonalarini tavsiflashda “Erkin iqtisodiy zonalar” atamasidan foydalaniladi. Ko‘plab mamlakatlarda qo‘llaniladigan maxsus iqtisodiy qoidalar, dastaklar, maxsus mamuriy qonunlar ushbu hududlarni muayyan huquqiy va xo‘jalik tartibidan ozod qilmaydi, balki, uni yyengillashtiradi, tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi imtiyozlarni taqdim etadi.

Jahon amaliyotiga ko‘ra, turli mamlakatlarning o‘z hududida EIHlarni tuzishda mahalliy va chet el kapitaliga bojxona, soliq va boshqa moliyaviy hamda ma‘muriy imtiyozlar taqdim etadi. Ma‘lum turdagi hududga ma‘lum turdagi imtiyoz va rag‘batlar beriladi. Bu imtiyoz va rag‘batlarni berishdan maqsad qandaydir aniq masalani hal etish (masalan, ishlab chiqarish infrastrukturasini ayrim turlarini jadal suratlar bilan tashkil etish) yoki ayrim turdagi faoliyatni rag‘batlantirish (masalan, eksport ishlab chiqarishini yaratish, bank, informatsion xizmatlarni ko‘rsatish va boshqalar), yohud EIHga investorlarning ma‘lum turini jalb etish (masalan, kichik yoki yirik kompaniyalar) dan iborat.

Turli xildagi erkin iqtisodiy hududlarning umumiy xarakterga ega bo‘lgan tomoni, qulay investitsion muhitni yaratishidadir. U o‘z ichiga bojxona, moliyaviy, soliq imtiyozlarini oladi. EIH shu yoki boshqa mamlakatdagi faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun qabul qilingan umumiy rejimga nisbatan afzalliklarga ega. Har xil mamlakat hududidagi imtiyozlar va stimullar bir-biridan farq qiladi, ammo ular mohiyatan bir- biriga o‘xshash.

Erkin iqtisodiy hududni tashkil qilish natijasida paydo bo‘lgan tajriba shuni ko‘rsatadiki, ularning har biri uchun o‘ziga mos keluvchi imtiyozlar va stimullar mavjud. Iqtisodiy adabiyotlarda imtiyozlarni to‘rtta asosiy guruhga bo‘lib ko‘rsatishadi (4.4-rasm).



4.4-rasm. EIHlarda qoʻllaniladigan imtiyoz turlari

1. Bojxona (tashqi savdo) imtiyozlari boʻlib EIH maydonida mahsus bojxona tartibini (eksport import bojini kamaytirish yoki yoʻq qilish) joriy etish va tashqi savdo operatsiyalarini soddalashtirilgan tartibini qoʻllash.

2. Soliq imtiyozlari tadbirkorlarning belgilangan yunalishdagi faoliyati va aniq belgilangan ishlab chiqarish turlari bilan bogʻliq soliq ragʻbatlantiruvchi normalarini oʻz ichiga oladi. Bu imtiyozlar soliq taʼtillarini (besh yildan yigirma yilgacha), QQS soligʻini toʻlashdan ozod etish, mahalliy soliqlardan ozod etish, foyda, koʻchmas mulk, mulk soliqlari, chet ellik xodimlarning daromadlaridan olinadigan soliqlar, foydani chet elga oʻtkazishga toʻlanadigan soliqlardan toʻla yoki qisman ozod etilishini oʻz ichiga oladi. Ayrim hollarda chet ellik investorlar uchun boshqa imtiyozlar ham koʻzda tutiladi, masalan investitsion ssudalar va investitsion dotatsiyalar. Investitsion ssudalar asosiy fondlarga nisbatan daromad soligʻidan qoʻshimcha chegirmalar (10-50%)dan iborat boʻlib, imtiyozli davr tugagandan keyin tadbqiq qilinadi. Investitsion dotatsiya – yangi investorlarga qaytarib olmaslik sharti bilan beriladigan pul subsidiyalaridir. Bu subsidiyalar kapital qoʻyilmalar hajmiga bogʻliq boʻlib, odatda moliyaviy imkoniyatlari chegaralangan va past rentabelli korxonalariga beriladi.


3. Moliyaviy imtiyozlar oʻz ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Masalan, kamunal xizmatlarga pastrok tariflar, yer uchastkalari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda ijara haqidani chegirma, imtiyozli kreditlar va hokazo. Bundan tashqari koʻpgina EIHlar muvaffaqiyatli faoliyat koʻrsatayotgan mamlakatlarda faqatgina ernaing imtiyozli ijarasi emas balki chet elliklarga erkin sotilishi ham qoʻllaniladi. Chet elliklar tomonidan bu qabul qiluvchi tomonning jiddiy kizikishining naʼmunasi sifatida qabul qilinadi. Bu chet el investorlari uchun muhim imtiyoz sifatida karaladi.

4. Maʼmuriy imtiyozlar hudud maʼmuriyati tomonidan korxonalarni roʻyxatdan oʻtkazish, chet el fukarolarini kirib-chiqish tartibini soddalashtirish va korxonalariga

turli xil xizmatlarni ko'rsatish maqsadida beriladi. MIHlar tuzilgan ko'pchilik mamlakatlarda investorlarga "bir joyda" yoki "24 soat mobaynida" xizmat ko'rsatish turlari joriy etilgan bo'lib, bunda ruxsatnoma va litsenziyalar berish masalalari bir joyning o'zida tez hal qilinadi⁴⁹.

Yuqorida ko'rsatilgan imtiyozlar u yoki bu EIHning faoliyat sharoitlaridan kelib chiqqan holda turli kombinatsiyalarda qo'llaniladi. Shu bilan birga har bir tur hududga mos keluvchi imtiyoz va rag'batlarning standart jamlamasi ham mavjud.

Mavjud amaliyoyotdan kelib chiqib, EIHLarda taqdim etiladigan imtiyozlarni tabaqalashtirilgan holda qo'llash ko'rinishini quyidagi 4.5-rasm orqali ham ifodalash mumkin. Ushbu rasmda EIHLarning mavjud tasnifiga ko'ra ularda qo'llaniladigan imtiyozlar turlari alohida guruhlariga, ya'ni birlamchi va ikkilamchi imtiyozlar guruhiga ajratilgan holda keltirilgan.



4.5-rasm. Erkin iqtisodiy hududlarda imtiyozlarni tabaqalashtirilgan holda qo'llash⁵⁰

⁴⁹ Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: "Extremum-press" nashriyoti, 2013. – B. 32-33.

⁵⁰ Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi

EIHLarda eksport va import faoliyati bilan shug‘ullanish amaliyotining mavjudligi ularga bog‘liq imtiyozlarni ham joriy etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shunga ko‘ra, mazkur maqsadlarda tashkil etilgan EIHLardagi imtiyozlarni quyidagi 4.4-jadval orqali ifodalash mumkin.

4.4-jadval.

EIHLarda ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda eksport va importni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha imtiyozlar⁵¹

№	Eksport-ishlab chiqarish hududlaridagi imtiyozlar	Import-ishlab chiqarish hududlaridagi imtiyozlar
1	Eksport mahsulotini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xomashyo yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar import bojlaridan ozod etiladi.	Hududdan mamlakat ichiga kiritilayotgan tovarlar uchun bojlar va kvotalarni beqor qilish.
2	Eksport qilinayotgan mahsulotni sotishshdan hamda mamlakat ichida mahsulot ishlab chiqarish uchun xard qilingan tovarlar va xizmatlar bo‘yicha to‘lanadigan soliqlardan ozod qilinadi.	Mamlakat ichiga yo‘naltiriladigan tovarlar va xizmatlarni soliqlar orqali ragbatlantirish. Hududdan tashqaridagi korxonlar bilan aloqasini moliyaviy rag‘batlantirish.
3	Eksport ishlab chiqarishida qatnashayotgan korxonalarda soliq ta‘tili berish yoki foydadan to‘lanadigan soliqdan qisman ozod etish.	Mahaliy xomashyo va materiallardan ishlab chiqarishda foydalanishni ma‘muriy yo‘l bilan majburan ta‘minlash.
4	Komunal xizmatlar, idora xonalari, er ijarasi bo‘yicha to‘lovlarga subsidiya berish va boshqalar.	

4.5-jadvalda esa turli davlatlarda tashkil etilgan EIHLarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qo‘llaniladigan imtiyozlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Erkin savdo hududlarida asosiy imtiyozlar bojxona sohasiga taalluqli bo‘ladi. EIHga kiritilgan chet el mahsuloti hudud teritoriyasida sakalanish davomida (ularning reesporti yoki ichki bozorga import qilinguncha) bojxona to‘lovlariga tortilmaydi hamda import ustidan mavjud bo‘lgan boshqa nazorat turlaridan ham ozod qilinadi.

holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – B. 34.

⁵¹ Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – B. 153.

EIHlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qo‘llaniladigan imtiyozlar⁵²

Imtiyoz turlari	Mamlakat
Soliq imtiyozlari: kredit uchun; mulk uchun; ishlab chiqarish va savdo kompaniyalari shartnomalari uchun; sotish uchun; investitsiya uchun	AQSh
Import qilinadigan dastgohlarni bojxona to‘lovlaridan ozod etish	Ispaniya
Xomashyo va dastgohlarni bojxona to‘lovlarsiz kiritish	Indoneziya, Malayziya, Filippin, Janubiy Koreya
Kapitalni subsidiyalash	Ispaniya
Korporatsiyalar daromadlarini soliqdan ozod etish	Fransiya, Buyuk Britaniya
Aksiyalarga qo‘llaniladigan soliqlardan ozod etish	Belgiya
Investitsiya zayomlari	Buyuk Brtaniya
Mahalliy, mulk soliqlaridan ozod qilish	Buyuk Brtaniya
Boshqa turdagi mahalliy soliqlardan ozod etish	Ispaniya, Fransiya
Ish bilan bandlikni rag‘batlantirish: ish o‘rinlarini yaratish uchun kreditlar; band bo‘lganlarning ba’zi turlarini rag‘batlantirish; ishchilarni mutaxassislikka qayta o‘qitish; xizmatchilarning ta’lim olishi	AQSh
Nihoyatda zarur xorijiy mutaxassislar daromad solig‘idan ozod etiladi	Belgiya
Investitsion fondlarni qo‘llab kuvvatlash (ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun obligatsiyalarni chiqarish, imtiyozli kreditlar, kapital qiymatini oshirishga bo‘lgan soliqni bekor qilish).	AQSh
Soliq ta’villari 3 yildan 5 yilga	Indoneziya

⁵² Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – B. 154.

Soliq ta'tillari 8 yilgacha	Malayziya
Besh yillik soliq ta'tillaridan so'ng daromad solig'i va mulk solig'ini 50% kamaytirish	Janubiy Koreya

Uchinchi mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar bojxona to'lovlaridan ozod bo'ladi va odatda ichki soliqqa ham tortilmaydi, yani QQS, mahalliy soliqlar va mulk solig'idan ozod bo'ladi (agar mamlakat ichiga import qilinsa bu hamma soliqlar olinadi).

Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish bo'yicha barcha boshqa qonunlar hamda atrof muhitni muxofaza qilish bo'yicha umumiy qoidalar, mehnat va soglikni muhofazasi, xo'jalik faoliyatini tashkil etish masalalari esa mamlakatning qolgan hududida qanday bo'lsa shundayligicha tadbiriq qilinadi.

Savdo-ishlab chiqarish hududlaridagi imtiyozlar faqatgina tadbirkorlik faoliyatini ustirishga yordam berish maqsadida emas, balki kapital oqimini boshqarish va mamlakat hamda uning alohida hududlarini iqtisodiy rivojlantirishning ustuvorligidan kelib chikgan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini ko'paytirishga qaratilgan.

Eksport-ishlab chiqarish hududlarida eng ko'p qo'llaniladigan imtiyozlar quyidagilardan iborat:

- eksport mahsulotini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xomashyo yarim tayyor mahsulotlar va tayyor maxsulotlar import bojlaridan ozod etiladi;

- eksport qilinayotgan mahsulotni realizatsiya qilishdan hamda mamlakat ichida mahsulot ishlab chiqarish uchun xarid qilingan tovarlar va xizmatlar bo'yicha to'lanadigan soliqlardan ozod qilinadi;

- eksport-ishlab chiqarishida katnashayotgan korxonalarda soliq ta'tili berish yoki foydadan to'lanadigan soliqdan qisman ozod etish.

- komunal xizmatlar, idora xonalari, yer ijarasi bo'yicha to'lovlarga subsidiya berish va boshqalar.

Import yo'nalishidagi ishlab chiqarish hududlarida imtiyozlar tizimi faqatgina eksportga qaratilgan hudulardagidan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilar iborat:

- hududdan mamlakat ichiga kiritilayotgan tovarlar uchun bojar va kvotalarni bekor qilish;

- mamlakat ichiga yo'naltiriladigan tovarlar va xizmatlarni soliqlar orqali rag'batlantirish. Hududdan tashqaridagi korxonlar bilan aloqasini moliyaviy rag'batlantirish;

- mahalliy xomashyo va materiallardan ishlab chiqarishda foydalanishni ma'muriy yul bilan majburan ta'minlash.

Texnik-tadbiriq etish hududlarida (texnopolislar va texnoparklar)da sanoati rivojlangan mamlakatlar amalda shu mamlakatda barcha investorlar va ishlab chiqaruvchilarga qo'llaniladigan imtiyozlarni taklif etadi. Bundan tashqari venchur kompaniyalariga, masalan, AKShda imtiyozli asosda yordam taklif etiladi, yani ishlab chiqarish va idora binolarini ijaraga berish, maslaxat xizmatlarini ko'rsatish,

individual ixtirolarni texnologik ekspertizasini amalga oshirish, kichik biznes bo'yicha ma'muriyatsdan qarz olishga kumaklashish va boshqalar.

Yangi industrial mamlakatlarning texnopaklarida, masalan, Malayziya, Singapur, Tayvanda eksport mahsuloti ishlab chiqaradigan korxonalariga eksport-ishlab chiqarish hududlarida qo'llaniladigan imtiyozlar beriladi.

Kompleks turlari EIHLarda bojxona, soliq, moliyaviy va ma'muriy imtiyozlarning standart majmuasi qo'llanilib, ular u yoki bu hududda bajarilayotgan ishlarning ko'lamiga va yunalishiga qarab turib bir qadar o'zgarishi mumkin.

Turli turdagi EIHLar uchun soliq va rag'batlantirishlarning optimal tizimini yaratish bir qadar murakkab masaladir. Hududning har bir turi uchun jahon tajribasi va mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda imtiyoz va rag'batlantirishlarning alohida majmuasini yaratish lozim. Shu bilan birga EIHL joylashgan mamlakatning davlat gaznasiga zarar etkazmaslik uchun imtiyozlar darajasi aniq belgilanishi lozim. Umuman olganda, imtiyozlarning qo'llanishi hisobiga ushbu regionning nisbiy afzalliklari yanada rivojlantirilishi kerak va aksincha, bu erda mavjud bo'lmagan rivojlanish omillarini kompensatsiya qilishi kerak emas.

Alohida hududlarda amal qiladigan o'ziga xos imtiyozlar birikmasi va rag'batlar, transport infratuzilmasi rivojlanishini tezlashtirish yoki mahalliy xomashyoni qayta ishlab chiqib eksport qilishni yoki hududga investorlarning ma'lum turini (kichik yoki katta investorlarni) jalb qilish yoki yana boshqa xil kerakli masalalarni hal qilishga qaratilgan maxsus imtiyozlar bilan to'ldiriladi.

Yuqorida qayd qilingan imtiyozlar turli xil kombinatsiyalarda ishlatilishi mumkin. Biroq, bularning barchasi shu hududda mavjud, amalda bo'lgan faoliyatlarga beriladigan nisbatan yengilliklarni amalga oshirish yo'li (instrumenti) sifatida xizmat qilishi kerak. Bu hududda mavjud bo'lmagan rivojlanish faktorini yaratishi kerak emas. Shuni ham unutmaslik kerakki, faqatgina soliq imtiyozlarini beribgina xorij kapitalini jalb qilib bo'lmaydi. Zamonaviy ko'lamlarda (masshtablarda) EIHLning tarqalishida investitsion kafolat, infratuzilma sifati va ishchi kuchi malakasi, ichki bozorda arzon kredit olish imkoniyati va ma'muriy jarayonlardagi oddiyliklar xorij kapitalini jalb qilishda ko'proq muhim omil sifatida qaralmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xorij kapitalini jalb qilishdagi eng muhim omil – bu EIHL tashkil qilinayotgan mamlakatdagi siyosiy barqarorlik hisoblanadi.

EIHLni tashkil qilish ma'muriy jihatdan mashaqqatli va anchagina moliyaviy mablag' talab qiladi. Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshidagi Sharqshunoslik institutining ma'lumotiga ko'ra, 26 ta davlatlarda tekshiruv o'tkazilgan va undan ma'lum bo'lishicha, davlatlar 1 AQSh dollari xorij kapitalini jalb qilish uchun 4 AQSh dollariga teng miqdorda mablag' sarflashgan. Xitoyda esa, o'tgan asrning 80 yillarining oxiriga kelib 4 ta erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilishga ketgan qo'yilmalar (o'z mablag'lari) 22 mlrd. AQSh dollaridan oshgan bo'lib, chet el investitsiyasi esa faqatgina 4 mlrd. AQSh dollari tashkil qilgan⁵³. Shuning uchun ham erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish va ularni amaliyotda qo'llash bilan yoki hukumat tomonidan yaratilgan maxsus ma'muriy tuzilma yoki davlat tashkilotlari

⁵³ <http://probib.narod.ru/> Predposilki i tseli sozdaniya SEZ, 2003.

shugʻullanadi.

EIHLar dunyoning koʻpgina mamlakatlarida oʻz samaradorligini koʻrsata oldi. Biroq, bir qancha mamlakatlarda EIHLni tashkil qilishning va amalda qoʻllashning uddasidan chiqa olmadilar yoki ular uzoq muddatgacha zararga ishlagan. Bularga mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy nobarqarorlik va tashkiliy masalalarning sustligi sabab boʻlgan. Siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, siyosiy inqirozning harbiy bosqichga oʻtishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuvi xorij kapitalining kelishi va barqaror faoliyat yuritishiga toʻsqinlik qiladi. Xorijiy investitsiyalar ushbu davlatlardan chiqib ketadi. Bunday holat Liberiya, Gvatemala va boshqa ayrim davlatlarda yuz bergan. Erkin iqtisodiy hududning faoliyat yuritishi uchun kerak boʻlgan iqtisodiy holatga kerakli moddiy sharoitlarning yoʻqligini ham kiritish mumkin. Bunday holat Filipinda yuz bergan. U erda bunga erkin iqtisodiy hududni yaxshi rivojlanmagan infrastruktura va yetarli darajada ishchi kuchi boʻlmagan hududda tashkil qilinganligi sabab boʻlgan. EIHLning rivojlanishida toʻsqinlik qiladigan holatlar qatoriga har xil tashkiliy kelishmovchiliklar ham kiradi. Ularga xorij kapitalini roʻyxatga olish jarayonlarining murakkabligi, malakali, sifatli reklamaning mavjud emasligi va boshqalar kiradi.

Rivojlangan (ishlab chiqarish rivojlangan) mamlakatlarda EIHLarni tashkil qilib, uni amaliyotda qoʻllash natijasida bunday katta yutuqlarga erishganliklarining sababini, bir tarafdin ularning rivojlanishini boshlangʻich bosqichlarining yaxshi va puxta rejalashtirilganligi boʻlsa, ikkinchi tomondan hududlar boʻyicha boshqaruvning vaziyatga qarab moslashuvchanligida deb hisoblaydilar. Jahon xoʻjaligidagi oʻzgarib turuvchi vaziyatlar (ilmiy-tenika inqilobi, xalqaro korporatsiyalar oʻrtasidagi oʻzaro raqobatlashuv, xalqaro ayirboshlashda valyuta kurslarining oʻzgarishi va boshqalar) EIHLning rivojlanishiga oʻz taʻsirini oʻtkazadi.

EIHLarni tashkil qilish ijtimoiy- iqtisodiy tomondan ham sezilarli darajada oʻz afzalliklariga ega. EIHLar anchagina ishchi joylarini yaratadi, xalqaro savdo almashinuvini jonlantiradi, tashqi savdo darajasini oshiradi, va boshqa afzalliklar yaratdi. Ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlardagi EIHLar faoliyati faqatgina dunyo bozoriga emas, balki, ichki bozorga ham qaratilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi EIHLar bir qator umumiy tomonlarga va rivojlanish davrlariga ega. Shunday qilib, bu davlatlarda koʻproq eksport-ishlab chiqarish hududlari tarqalgan. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgandek, eksport-ishlab chiqarish hududlarini tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi bir qancha iqtisodiy sabablarga koʻra aniqlanadi. Masalan, sanoatni rivojlantirish va sanoat mahsulotlarini eksportga ishlab chiqarishga boʻlgan talab, mamlakatga xorij kapitalini, ilgʻor ilm-fan va texnologiyalarni, zamonaviy informatsion texnikalarni jalb qilish.

Rivojlanayotgan davlatlardagi EIHLarda xoʻjalik yuritishning oʻziga xos tizimi xorijiy tadbirkorlar uchun borgan sari erkinroq va imtiyozliroq boʻlib bormoqda. Bu holat hududlar oʻrtasidagi xalqaro raqobatning kuchayishi, shundan kelib chiqqan holda, hududning boshqa shu kabi hududlarga nisbatan afzalliklarini koʻrsatishga boʻlgan urinishlar bilan bogʻliqdir.

EIHLarning ish jarayonida, ularning faoliyatining diversifikatsiyasi yuz beradi va har tomonlama rivojlanadi. Zamonaviy fan-texnika inqilobi birinchi darajaga shunday

EIHLarni qo'yadiki, ular yangi va yuqori texnologiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarishning ko'p ilm talab qiladigan tarmoqlariga katta e'tibor qaratadilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi EIHLarning qolgan territoriyalarga ta'sir darajasi cheklangan. Bu xususiyat rivojlangan mamlakatlar uchun xos. U erda EIHL qolgan territoriyalarga ta'sir darajasi asosiy maqsad qilib belgilanmaydi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, soliq imtiyozlari, bojxona imtiyozlari, ma'muriy imtiyozlar, moliyaviy imtiyozlar, investitsiya, integratsiya, kredit, eksport, import, texnologiya.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHLarda qo'llaniladigan imtiyozlar moliyaviy, ma'muriy, soliq va bojxona imtiyozlari turlarga ajratilib, ular EIHLarga investitsiyalarni faol jalb etishni rag'batlantirish uchun taqdim etiladi. EIHLarda investorlar uchun taqdim etiladigan har bir imtiyoz o'ziga xosligi va boshqalaridan qo'llanilish maqsadlari bilan farqlanadi.

2. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishni ularda taqdim etiladigan imtiyozlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. EIHLar aynan ularda taqdim etiladigan imtiyozlari bilan boshqa turdagi imtiyozlardan katta faqr qiladi. Bu esa EIHLarga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

3. EIHLarda taqdim etiladigan imtiyozlar turli davlatlarda turlicha ko'rinishda va darajalarda bo'lib, bu EIHLarning ichki va tashqi bozorga yo'naltirilganligiga ham bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda barqaror iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatlarda qulay tadbirkorlik muhitining shakllanganligi har bir kichik miqdordagi imtiyozlarning ham taqdim etilishi investorlarning katta qiziqishlariga ham sabab bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarda qo'llaniladigan imtiyozlar qanday turlarga ajratiladi?
2. EIHLarda taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga qanday imtiyozlar kiradi?
3. EIHLarda investorlar uchun taqdim etiladigan bojxona imtiyozlari va ularning turlari haqida nimalarni bilasiz?
4. EIHLarda taqdim etiladigan ma'muriy imtiyozlarga qanday imtiyozlar kiradi va u kim tomonidan taqdim etiladi?
5. EIHLarda taqdim etiladigan moliyaviy imtiyozlar qanday maqsadlarga yo'naltirilgan?
6. Xorijiy davlatlarda EIHLarda taqdim etiladigan imtiyozlarning qanday turlarini bilasiz va ulardan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha qanday tavsiyalarni bera olasiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.
2. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.

3. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особие экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.
4. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.
5. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.
6. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особие экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.
7. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. Haydarov A. Hududlarning investitsion salohiyati va istiqbol yo‘nalishlari. // “Moliya” ilmiy jurnali, 2011-yil, 5-6 son.

5-bob. ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH

5.1. Logistika tushunchasi mazmuni va uning yuzaga kelishi va rivojlanishi

Logistika – transport va tovar, axborot oqimini yo‘lga qo‘yadigan, optimallashtiradigan va boshqaradigan soha.

Logistika (yun. *logistike* – *hisoblash, muhokama san’ati*) – 1) matematik mantiq tushunchasining sinonimi; 2) B. Rassel va uning maktabi vakillarining asarlarida bayon etilgan matematik mantiq taraqqiyotidagi bosqichning nomi. Nazariy matematikaga qarama-qarshi qo‘yiladigan hisoblash va geometrik o‘lchovlar “san’ati” qadimiy matematikada “logistika” deb atalgan. G. V. Leybnits “logistika” va matematik mantiq terminlarini o‘zi ishlab chiqqan xulosa chiqarishdagi hisobning sinonimi sifatida qo‘llagan. Uning g‘oyalari hozirgi zamon matematik mantiqda o‘zining to‘liq ifodasini topgan. “Logistika” tushunchasi logistik metod (formal mantiqni formallashtirilgan tillar nazariyasi yordamida bayon etish usuli), logistik tizim (formal tizim) va boshqa ma’nolarni ham anglatadi.

Qadimgi Afinada maxsus amal – “logist” yoki ijtimoiy o‘z-o‘zini boshqarish amaldori bo‘lgan (eramizgacha V asrda 30 ga yaqin). Logistlar har yil qura tashlash yo‘li bilan belgilanganlar, ularning vazifasi vakolati tugagan boshqa amaldorlarning hisobotlarini tekshirish va bu hisobotlarni faxrli fuqoralar Kengashida tasdiqlashga topshirishdan iborat bo‘lgan. Kengashning qarori yakuniy bo‘lgan.

Qadimiy Rimda ham ba’zi ma’muriy va diniy vazifalarni bajaruvchi amaldorlar logistlar deb atalganlar. Vizantiya imperatori Lev VI (866-912-yillar) davrida logistika armiyani ta’minlash va uning ko‘chishini boshqarish san’ati sifatida ta’riflangan. Nemis tadqiqotchisi G.Pavellek ta’kidlashicha, Vizantiya imperiyasida logistikaning belgilanishi “armiyaga maosh to‘lash, uni kerakli tartibda qurolantirish va taqsimlash, uning ehtiyojlari haqida o‘z vaqtida va o‘liq darajada g‘amxo‘rlik qilish, ya’ni shaxsiy qurolli kuchlar harakatlanishi va taqsimlanishiga rahbarlik qilishdan” iborat bo‘lgan.

“Logistika” so‘zi barcha Yevropa tillarida mavjud, ammo, ulardan har xil manolarda foydalanilgan.

“Logistika” atamasidan mashhur olimlar, faylasuflar, sarkardalar o‘z asarlarida foydalanishgan. Buyuk nemis matematigi G.V.Leybnis (1646-1716) bu atamadan “Xulosalarni hisoblash” yoki matematik mantiq ma’nosida foydalangan. XIX acrda bu atamadan kelib chiqishi shvetsariyalik bo‘lgan taniqli harbiy nazariyachi va tarixchi Antuan-Anri Jomnin (1779-1869) o‘z asarlarida foydalangan. 1813 yildan boshlab u Rossiyada Aleksandr I ning shtabida ishlagan., 1826 yilda infanteriya generali unvonini olgan. Nikolay I ning harbiy malahatchisi bo‘lgan va Sank-Peterburgdagi harbiy akademianing asoschilaridan biri bo‘lgan (1828). U shuningdek, shaxzoda Aleksandr II ning o‘qituvchisi bo‘lgan, haqiqatan ham uning uchun muallifning logistika bo‘yicha eng muhim asari yozilgan va keyinchalik u ko‘pgina tillarga tarjima qilingan. U logistikani o‘z ichiga rejalashtirish, boshqarish,

ta'minlash, qo'shishlarni joylashtirish joyishini belgilash, armiyaga transport xizmatini ko'rsatish bilan bog'liq masalalarning keng doirasini oluvchi qo'shinlarni boshqarishning amaliy san'ati sifatida belgilagan.

1884-yilda Amerika harbiy-dengiz floti instituti kemachilik zarurati uchun "logistika" tushunchasini kiritgan.

1904-yilda Jenevada Itelson, Laland va Kutyuurlarning taklifi bo'yicha falsafa kongressi logistikani matematik mantiq sifatida belgilagan.

Taktika, strategiya va razvedka bilan bir qatorda "logistika" atamasi bilan fuqarolik korxonalarining ta'minot-sotish faoliyati belgilanishi mumkin.

1980 yilga kelib, xo'jalik boshqaruvini muvofiqlashtirish jismoniy taqsimlash, ya'ni *tijorat logistikasi* usullarini o'zlashtirish va qo'llashni talab qilgan.

Umuman olganda, logistika iqtisodiy faoliyatning ta'minot, ishlab chiqarish, sotish, transport logistikasi kabi sohalarini birlashtiradi.

Logistikaning asl maqsadi kam xarajat qilib, ko'p foyda olish va yetarli natijaga erishishdir.

Bugungi kunda logistika ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan hamda tobora rivoj topib bormoqda.

Tayanch iboralar:

Logistika, tijorat logistikasi, san'at.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Logistika yuzaga kelish sababi va tarixiga ko'ra juda katta qiziqish uyg'otuvchi soha hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodiyotni va uning tarmoqlarini, jahon iqtisodiyotini logistikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Logistika o'ziga xos tizimda ishlovchi soha sifatida yangidan-yangi qirralari nomayon bo'lib kelayotgan iqtisodiyotning ajralmas bir tarkibiy qismidir. Buni uning yuzaga kelish va qo'llanishi tarixi ham asoslaydi.

2. Logistika atamasining mazmunini ochib breshi bo'yicha ko'pniga asarlar yaratilgan bo'lib, ularda logistika so'zining kelib chiqish tarixlari ham ochib berilgan. Shunga ko'ra, aytilish mumkinki, Qadimgi Afinada maxsus amal – "logist" yoki ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish amaldori bo'lgan (eramizgacha V asrda 30 ga yaqin). Logistlar har yil qura tashlash yo'li bilan belgilanganlar, ularning vazifasi vakolati tugagan boshqa amaldorlarning hisobotlarini tekshirish va bu hisobotlarni faxrli fuqoralar Kengashida tasdiqlashga topshirishdan iborat bo'lgan. Kengashning qarori yakuniy bo'lgan.

3. Shuningdek, logistikadan boshqa sohalarida, jumladan, harbiy sohada ham keng foydalanilgan. O'z navbatida, logistikaning mavjud imkoniyatlari bugungi kunda uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha sohalarida keng va samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Logistika so'zining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?
2. Logistika so'zi qachondan qo'llanila boshlagan va uning tarixi haqida

nimalarni bilasiz?

3. Logistikaning turli sohalarda, turli maqsadlarda qo'llanilishi sabablari va maqsadlari haqida nimalarni bilasiz?

4. Logistika, sizningcha, qanday ma'noni bildiradi va undan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

5. Logistika atamasi qachondan va nima maqsadda harbiy sohada qo'llanilgan?

6. Logistika bugungi kunda EIHlar rivojida qanday ahamiyat kasb etadi?

5.2. Logistika tamoyillari, tizimi va logistika xizmatlarini tashkil etishning ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llangan va yetarli ijobiy natijalarga asos bo'lgan ilmiy-amaliy yo'nalishlar, vositalar va usullargina iqtisodiyotni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning murakkab qiyinchiliklariga barham berishga qodir. Shu bois, so'nggi yarim asrdagi tadqiqotlar ko'rsatishicha, xorijiy bozor munosabatlari muvozanatli tashkil etilishi va barqaror rivojlanishi logistik oqimlarning ilmiy-amaliy asoslanganligiga bog'liq. Logistik oqimlarni tartibga solishda konsepsiya va logistik tizimlardan foydalaniladi.

Logistika tizimi va konsepsiyalarning amaliyotda qo'llanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish va ularning tashkiliy-boshqaruv xususiyatlarini izchil o'rganish milliy tadbirkorligimizdagi muammolar yechimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Fikrimizcha, konsepsiyalar tarkibiga tizimlarning kiritilishi tasniflash xususiyatlarini oydinlashtirishga yordam beradi (5.1-jadval).

Shu bois amaliyotda keng qo'llanilayotgan tizimlar quyidagi konsepsiyalarga tartiblashtirildi: ehtiyojlar resurslarini rejalashtirish; "mayda" ishlab chiqarish va uning talabga moslashishi.

Logistik tizimlar guruhlanishida, ko'pincha, logistik oqimlarning xususiyatlari asos hisoblanadi. Ayni chog'da logistik oqimlarning tashkil etilishida makrologistik yoki mikrologistik tizim, etaklovchi va itaruvchi tizim, berilgan resurslar asosida oqimni belgilash tizimi yoki zarur natija uchun tegishli resurslarni jalb qilish tizimi kabilar ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan.

5.1-jadval.

Logistik konsepsiyalar va tizimlar tafsiloti

Konsepsiya nomi	№	Logistik tizim		
		Qisqacha nomi	Inglizcha tafsiloti	O'zbekcha tafsiloti
Ehtiyojlar, resurslarni rejalashtirish	1	MRP-1 (MRP-1)	Materials Requirements Planning	Materiallar ehtiyojini rejalashtirish
	2	DRP	Distribution	Mahsulotlar taqsimotini

		DRP	Requirements Planning	rejalashtirish
	3	Djast in taym (LT)	Just in time	“Aniq muddat” - detallar talabini aniq hisobga olishning tashkiliy usuli
	4	Kanban (Kanban)	Kanban	Oqimli ishlab chiqarish jarayonida mahsulot miqdorini operativ tartibga solish
	5	OPT (OPT)	Optimized production technologies	Optimizatsiyalashgan ishlab chiqarish texnologiyalari
	6	MRP-2 (MRP-2)	Manufacturing Requirements Planning	Ishlab chiqarish resurslarini rejalashtirish
“Kam doirada”	7	LP (LP)	Leal Production	“Kam doirada” ishlab chiqarish konseptiyali aralash tizimlar guruhi
Talabga moslashuvchan	8	DDT (DDT)	Demand Driven Techniques	Talabga moslashish konseptiyasi: 1.Buyurtmaning eng yuqori nuqtasini aniqlash. 2.Shoshilinch moslashuv. 3.Uzlaksiz to‘ldirish. 4.Zaxiralarni avtomatik to‘ldirish.

Logistikaning tizim sifatidagi dastlabki shakllanish davri “tortuvchi tizim” mezoniga asoslanilgan. “Tortuvchi tizim” texnologik operatsiyalarning qat’iy grafigiga amal qilmaydigan, ayni chog‘da detal va yarimfabrikatlarga bo‘lgan talab taqsimot kanallari buyurtmasining zaruratiga qarab, tashkil etiladigan ta’minlash tizimi hisoblanadi. Bu turdagi eng ommalashgan tizimlar jumlasiga “Aniq muddat I” va “Aniq muddat II”, “Nol zahiralari ishlab chiqarish”, “Kanban tizimi” kabilar kiradi.

“Aniq muddat tizimi”. Ushbu tizimning konseptual asoslari dastlab XX asr 50 yillarida “Tayota motors” (Yaponiya) kompaniyasidagi avtomobil sanoatida ishlab chiqilgan. U amerikaliklar tomonidan o‘zlashtirila boshlangach, LT (Lz1- t Lte) deb nomlangan. XX asr 60 yillariga kelib, bu kompaniya mazkur logistik tizimni yangi avtomobil tayyorlashda tadbiiq etish hisobiga asosiy logistik tsikl vaqtini bir oygacha qisqartirishga erishgan. Bu paytda avtomobil tayyorlash tsikli amerikaliklarda 6-9 oyni tashkil etgan.

Tizimning ko‘pchilik kompaniyalarga tadbiiq etilishi tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot zahiralari kamayishiga, olib kelgan.

Xarajatlarning tejaliishiga, texnologik liniyadagi buzilishlar barham topishiga

bozor talabidagi tebranishlarga moslashishiga olib kelgan.

Moddiy xomashyolarni vaqtida va zarur miqdorda yetkazib berish tufayli mahsulot sifati yaxshilangan. Ombor binolarining bo'shagan qismlaridan boshqa ehtiyojlarni qondirishda foydalanilgan. Ushbu tizim ta'minlash, ishlab chiqarish va sotish jarayonlaridagi zahiralarni minimallashtirishni muvofiqlashtirgan.

“Aniq muddat II” konsepsiyasida esa, turli variantli kombinatsiyalarning zamonaviy integratsiyalashgan tizimi barpo etilgan va quyidagilar hisobga olingan:

- logistik kanallardagi minimal zahiralarni;
- talab etadigan hajmdagi zairalar darajasiga tezkor moslashuv;
- mahsulot sifati tsiklini boshqarish;
- umumiy statistik nazorat;

- zahiralarning kritik nuqtasidagina buyurtma berish va boshqalar. Bunda zahiralarni minimallashtirish uchun logistik operatsiyalar integratsiyalashgan, sifatning yuqori darajasiga, o'zaro ishonchga va samarali servisga erishilgan.

Logistik operatsiyalarning tobora takomillashuvi “Nol zahirali ishlab chiqarish tizimi” darajasini ta'minlagan. Bundan omborlardan voz kechish ko'zda tutilgan. Moddiy-texnika ta'minoti va ishlab chiqarish texnologiyasi qo'shimcha ishlab chiqarish va zahiralarga barham bergan.

Ushbu tizimning an'anaviy yondashuvlardan farq qiluvchi ko'rsatkichlari jumlasiga quyidagilar kiritilgan:

- moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zahiralarning nol zahiralari;

- zahiralarni sug'urtalashning bekor qilinishi;
- ishlab chiqarish tsiklining qisqarishi;
- ta'minot va tayyor mahsulot hajmining katta emasligi;

- ishonchli ta'minotchilar va tashuvchilar bilan munosabat o'rnatish; Nol defektli sifatni boshqarish falsafasi;

- tayyorlash, ishlab chiqarish va mahsulot sotishning barcha bosqichlarini sinxronlashtiruvchi samarali axborot bilan qo'llab-quvvatlash.

Tortuvchi tizimning eng takomillashgan shakli “Kanban” tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim tebranuvchi takror ishlab chiqarish talablariga tez moslashuvchan va sug'urtalanadigan zahiralarsiz tashkil etilgan tizimdir. Uning natijasi ishlab chiqarishni qayta tashkil etishga moslashuvchanlik, raqobatbardoshlik ortishi, tannarx pasayishi ta'minlanadi.

Ayniqsa, bevosita texnologik jarayonlar davridagi sifatni nazorat qilish xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, sifatni nazorat qilishning Amerikada tadbiq etilgan tizimi amerikalik mutaxassis “Dening” sharafiga “Dining tsikli” nomi bilan shuhrat topgan. Tizim bora-bora asbob-uskunalar unumdorligini oshirgan holda ularning yuqori sifatda ishlashini tashkil etuvchi va ishlab chiqarish quvvatlari samarali ishlashini uyg'unlashtiruvchi tizimga aylandi.

Yaponiya mashinasozlik korxonalaridagi raqobatbardoshlikni ta'minlagan ushbu tizimning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar:

- logistik tsiklning qisqarishi;
- aylanma mablag'lar aylanuvchanligining jadallashuvi; Ishlab chiqarish

zahiralariga ehtiyojning kamayishi; Tovar zahiralarining kamayishi;

- sug'urtali zahiralardan voz kechish; Mahsulotlar sifatining yaxshilanishi.

Ushbu tizim samaradorligining asosiy shartlari:

- ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish;

- ta'minotchilarning boshlang'ich moddiy resurslari sifati nazorati;

- ishonchli ta'minotchilar bilan hamkorlik;

- jamoa a'zolarining mehnatga munosabatidagi yuksak axloqiylik.

Mazkur tizim yuqorida ta'kidlanganidek, tortuvchi tizimlar evolyutsiyasining yuqori bosqichi hisoblanadi. Agar "itaruvchi tizimlar" tafsilotiga to'xtalsak, ularning faoliyati "ehhtiyojlar/resurslarni rejalashtirish" konsepsiyasiga asoslanadi. Bu konsepsiya asosidagi tizimlar ham XX asrning 50 yillarida shakllana boshlagan. Xususan, MRP-1, MRP-2, DRP-1, DRP-2 kabilar shular jumlasidandir (yuqoridagi 5.1-jadval). Ushbu ishlab chiqarish logistik tizimda nafaqat moddiy resurslar va yarim fabrikatlar, balki tayyor mahsulotlar ham distribyutorlar tarmog'igacha surib boriladi. Bunda ishlab chiqarishdagi uzilishlar, majburiy sug'urtaviy zahiralarga talabning o'zgarishi hisobga olinadi. Biroq aylanma mablag'lar aylanishining sekinlashuvi tannarx ortishiga olib keladi. Bu tizim "tortuvchi tizim" dagiga nisbatan ta'minotchilar ishonchsizligi va talabning tebranuvchanligi sharoitida barqarorlikka intiladi. Qolaversa, bu tizimning zaif jihati shundaki, unda talabni kuzatishga doir e'tibor har doim etishavermaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, "itaruvchi tizim" quyidagicha ta'riflanadi: "itaruvchi tizim" – detallar, komponentlar va yarimfabrikatlarning oldingi texnologik operatsiyadan keyingisiga o'tishi qat'iy belgilangan va rejalashtirilgan grafik asosida amalga oshiriladigan tizim. Uning dastlabki shakllaridan bo'lgan MRP-1 va MRP-2 asosan, moddiy resurslar oqimi ta'minotini rejalashtirishga xizmat qiladi. MRP-1 ga XX asrda kompyuter ixtirosidan so'ng 50-60 yillarda asos solingan. O'tgan asrning 80 yillariga kelib esa, yillik savdo hajmi 15 mln. AQSh dollardan yuqori bo'lgan Amerika korxonalarining asosiy kismi, Buyuk Britaniyadagi har uchta korxonadan bittasi ushbu tizimdan foydalangan.

Moddiy resurslarga zarurat iste'molchilarning aniq buyurtmalari va qat'iy ishlab chiqarish grafiklari asosida ta'minlash, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari rejalashtirilgan. Bulardan so'ng logistik protseduralar va qoidalar tayyorlangan. Pirovard mahsulotning miqdori va tayyorlash muddati MRP faoliyati uchun asos bo'lgan, MRP faoliyatidagi ko'rsatkichlar esa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan bo'lib, qisqa muddatdagi o'zgarishlarga moslashishi qiyin kechgan.

Bu esa, ortiqcha ishlab chiqarish va sug'urtalangan zahiralar yaratishni talab etgan. Logistik tsikl qisqarishi uchun iste'molchi talabi o'zgarishiga qaror qabul qilish muhlati bir paytda hisobga olinishi kerak bo'lgan. Umuman, aylanma mablag'lar aylanuvchanligi pasaygan.

MRP ning zaifliklariga MRP-2 da barham berilgan. Chunonchi:

- zahiralar boshqaruvining logistik xarajatlarini rejalashtirishda moslashuvchanlik va talab o'zgarishiga zudlik bilan munosabatda bo'lish ta'minlangan;

- tizim tarkibida talabni boshqarish va istiqbolni belgilash blokining faoliyati yo'lga qo'yilgan;

- tizimdagi logistik oqimni nazorat qilish uchun qiymati 10 mingdan 100 ming AQSh dollarigacha bo'lgan 100 dan ortiq amaliy dasturlar tadbiiq etilgan.

MRP-1 va MRP-2 tizimlari moddiy-texnika ta'minotida va ishlab chiqarishni tashkil etishda ustuvorlik bilan tadbiiq etilgan bo'lsa, distribyutsiya tizimida DRP-1 va DRP-2 tizimlari qo'llanilgan, DRP II tizimida logistik va marketing funksiyalari birgalikda rejalashtirilgan va moslashtirilgan:

- bozor konyunkturasi istiqbollari ishlab chiqilgan;

- zavod-ishlab chiqaruvchilarning mintaqaviy va markaziy omborlardagi zahiralar darajasi, ta'minot miqdori va manzili rejalashtirilgan;

- tayyor mahsulotlar zahiralarini boshqarish va saqlashdagi logistik xarajatlar optimallashtirilgan;

- tayyor mahsulotlarni yetkazib berish muxlati qisqargan. DRP-1 tizimida quyidagi zaifliklarga ham yo'l qo'yilgan:

- tovar o'tkazish tarmog'idagi har bir tayyor mahsulot kanalining to'liqligi va jo'natish istiqbolidagi aniq hisob zarurligi;

- zahiralar rejalashtirilganda buyurtmalar tashish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'zaro ishonchliligi talab etilishi;

- ishlab chiqarish grafigi va taqsimot rejasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish tebranishlarining mavjudligi;

- distribyutiv tarmoqda tayyor mahsulotlar uchun sug'urtalangan zahiralar zarurligi.

DRPning bunday zaifliklarini bartaraf etishda mahsulot taqsimotini boshqarishning ikkinchi avlodi bo'lgan DRP-2 dan foydalaniladi. Mahsulot taqsimotini boshqarishning ikkinchi avlodi bo'lgan ushbu tizimda:

- tayyor mahsulot istiqboli;

- talabning o'rtacha va uzoq muddatli istiqboli;

- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning o'rta va uzoq muddatli rejalari ishlab chiqilishi;

- tizim tarkibidagi ombor xo'jaligi, xodimlarning tashkiliy asoslari, servisni boshqarish kabilar ishlab chiqarish dasturi bilan muvofiqligi;

- real vaqt rejimida ishlashi kabilarning ahamiyati.

MRP-1, MRP-2, DRP-1 va DRP-2 kabi logistik tizimlar ehtiyoj/resurslarni rejalashtirish konsepsiyasining birinchi yo'nalishdagi tizimlari hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning rivoji "Talabga moslashish" konsepsiyasida namoyon bo'lgan. Bunda talabdagi o'zgarishni tez fursatda qondirish hisobga olingan. Buning uchun talab o'sishi kutilayotgan bozorlarni zahiralar bilan tez to'ldirish amalga oshiriladi. Integrallashgan tizimning logistik bo'g'inlari bo'lgan ishlab chiqaruvchilar, ulgurji vositachilar va chakana savdogarlarning o'zaro munosabatlari tartibga solinadi. Natijada quyidagi ustuvorliklarga erishiladi:

- buyurtma jarayonlari ma'lumoti asosidagi tayyor mahsulotni yetkazib berish grafigidagi taqsimotning zahiralarini yaxshiroq boshqarilishiga yordam beradi;

- chakana savdoning sotuv hajmi va savdo zahiralarini bilish ishlab chiqaruvchilarga ta'minotni aniq rejalashtirishni ta'minlaydi;

- iste'molchilar talabidagi tebranishlarga ta'minotchilar tezroq moslashadilar;

- tavakkalchilik kamayadi va logistik jarayonlar samaradorligi oshadi.

Mazkur konsepsiyaning amaliyotdagi tadbirg'i turli variantlar va usullar ko'rinishiga ega bo'ladi:

- buyurtmaning eng yuqori nuqtasini aniqlash (usuli) varianti;
- shoshilinch moslashuv (usuli) varianti;
- uzluksiz to'ldirish varianti.

Ushbu variantlarning ustuvorlik xususiyatlarini tahlil etaylik.

"Buyurtmalarning eng yuqori nuqtasini aniqlash" variantida ombordagi zahiraning ma'lum nuqtasidan boshlab, ta'minotchilarga qo'shimcha buyurtma beriladi.

Bunday yondashuv logistik tsiklning to'xtovsiz ishlashiga asos bo'ladi, ya'ni mazkur nuqtada mahsulotni ta'minotchidan tashib etkazish hisobga olinadi. Ushbu variantning qo'llanilishi uchun zaruriy sharoit XX asr oxiriga kelib, axborot-kompyuterlar tizimi va telekommunikatsiyalar rivojidan so'ng yuzaga keldi.

"Shoshilinch moslashuv" varianti. Bu variant taqsimlash tarmog'idagi tovarlar oqimini yaxshilash maqsadini ifodalaydi, ta'minotchi bilan savdo korxonasi o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan. Buning uchun mahsulot yetkazib berishni tartibga solish va rejalashtirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Tartibga solishda savdo korxonalaridagi zahiralarni optimallashtirish ko'zda tutiladi. Tayyor mahsulot miqdori talab darajasida saqlanadi. Xaridorlar talabi darhol yoki tezda qondirilishi uchun shart- sharoit yaratiladi. Ushbu variantning ustuvorliklari shundaki, undan:

- logistik tizimning talab o'zgarishiga moslashuv muhlati tejaladi;
- muhim sotuv nuqtalaridagi zahiralar hajmi markazlanadi va to'ldirib turiladi;
- ishlab chiqarish, mahsulotlarini yetkazish, buyurtmalarni to'ldirish muhlatlari va muddatlaridagi noaniqliklarga chek qo'yiladi;
- integratsiyalashgan logistik tizim bo'g'inlaridagi hamkorlar faoliyatida o'zaro moslik o'rnatiladi;
- zahiralarning aylanuvchanligi sezilarli darajada ortadi va boshqalar.

Albatta, ushbu variantlar ustuvorliklariga erishishda quyidagilarga e'tibor quchaytiriladi: tadbirkorlarning kichik partiyadagi tovar ishlab chiqarishga moslasha olishi; tadbirkor bilan savdo korxonalaridagi axborot almashuvining yuqori darajadali; zahiralar holatidagi nazoratning aniqligini ta'minlash uchun shtrixlangan kodlashtirishga o'tishga.

"Talabga moslashish" konsepsiyasining uchinchi varianti "Uzluksiz to'ldirish" deb nomlanadi. Ushbu variant "tez fursatda moslashish" variantining takomillashtirilishi asosida kelib chiqqan. Bunda ta'minotchilar ulgurji va chakana savdo tashkilotlarining logistik rejalarida va kelishuvlarida sug'urtalangan zahiralarsiz buyurtma berish yo'lga qo'yiladi.

Mazkur variant faoliyatida esa quyidagilarga e'tibor qaratiladi: tayyor mahsulot oqimini ta'minlash yuzasidan hamkorlarning o'zaro majburiyati qabul qilinadi; chakana savdo do'konlari ulgurji korxonalar yoki tadbirkorlarning bevosita o'zlari tomonidan uzluksiz ta'minlanadi; turli taqsimot kanallaridan chakana savdo tarmog'iga jo'natilayotgan tovarlar oqimi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash

amalga oshiriladi. Natijada tadbirkorlar tomonidan tovarlar oqimidagi assortiment va zaruriy ehtiyoj miqdori aniqlashtirib turiladi. Ushbu variantdagi tovarlar oqimi to'g'risidagi ishonchli axborot, yuklarni ishonchli yetkazishdagi mas'uliyatlilik kabilar samaradorlik ortishiga jiddiy ta'sir qiladi.

Yuqoridagi variantlar tahlili shuni ko'rsatadiki, samaradorlikning ortishi va talabga moslashuvdagi asosiy unsur vaqtni tejash hisoblanadi. Aynan, har bir tovarning chakana savdo tarmog'idagi barcha amaliy harakati va belgilari kombinatsiyasini anglab olish samarali faoliyatga xizmat qiladi. Yuqoridagi ikki variantning ijobiy jihatlarini takomillashtirish orqali "Zaxiralarni avtomatik to'ldirish" konsepsiyasi varianti ishlab chiqilgan.

Takomillashgan variantda chakana savdo tarmog'idagilar xarajatlarini tejashga tadbirkorlarning zahiralarini boshqarishdagi ta'siri ortishi tufayli erishiladi. Chunki bunda logistik zanjirdagi qatnashchilarning uzoq muddatli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yiladi. Ushbu variant – konsepsiya itaruvchi tizim guruhidagi eng so'nggi va ommalashgan variant-konsepsiya hisoblanadi.

Tadbirkorlik nuqtai nazaridan logistik tizimlarning "itaruvchi" yoki "tortuvchi" deb guruhlanishi bilan bir qatorda ularning aralash xususiyatli tizimlariga ham e'tibor qaratilishi zarur, deb hisoblaymiz. Ta'bir joiz bo'lsa, ularni "aralash tizimlar" deb ham nomlash mumkin. Ana shunday aralash tizimlardan biri "Mayda hajmdagi ishlab chiqarish" konsepsiyasiga asoslangan tizim hisoblanadi.

Ushbu tizim faoliyati uchun keng tarqalgan ishlab chiqarish jarayonlari asos qilib olingan. Unda ishlab chiqarishni tashkil etishda kam resurs, kam zahira va kam vaqt sarflanishiga erishish mezoniga amal qilinadi. Buning uchun yuqorida talqinlari keltirilgan "Aniq muddat", "Kanban" va "MRP" tizimlari ijodiy rivojlantirilgan. Chunki, "Kanban" va "MRP" da moddiy resurslar zahirasi omborlarga qo'yilmasdan minimal sug'urta zahiralarini ishlatiladi. Bunda mahsulot sifatining yuqoriligi ta'minlanadi, kichik partiyali ishlab chiqarish quvvatlarini qayta jihozlash va ishga tushirish uchun qisqa vaqt talab etiladi, malakali xodimlar jalb etiladi, zahiralarining eng past ko'rsatkichlariga erishiladi.

Qayd qilish joizki, ushbu tizimda moddiy resurslarni omborlarda saqlash, ularni omborga va ombordan tashish, ishlab chiqarish tsiklida kutish, resurslar oqimini qo'shimcha nazorat qilish kabi "foydasiz" operatsiyalardan voz kechiladi. Demak, sifat, kam sarflik, bozorga tez moslashuvchanlik, uskunalarni qayta jihozlashdagi osonlik kabilar "Mayda hajmdagi ishlab chiqarish" tizimi afzalliklari tarkibidan o'rin olgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir logistik tizimning o'ziga xos ustuvorliklaridan, turli tadbirkorlik tuzilmalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalaniladi.

Logistika fani so'nggi yarim asrda shakllanib ulgurgan bo'lsa-da, tadbirkorlik amaliyotining muhim va samarali vositalaridan hisoblanadi. Ulardan milliy tadbirkorligimizda foydalanish uchun bevosita tadbirkorlik xususiyatlarini chuqur o'rganish, umumlashtirish va subyektning logistik oqimlaridagi ustuvorliklarini aniqlash lozim. Buning uchun esa, tizimiy yondashuvning nazariy va uslubiy jabhalarini chuqurroq va batafsil o'rganish zarur.

Tayanch iboralar:

Logistika, logistika tizimi, logistik konsepsiya, logistik operatsiyalar, moddiy resurs, ombor, zahira, logistik tsikl.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Logistika tizimi logistika tamoyillari va okntsepsiyasi asosida faoliyat ko'rsatadi. Logistika tizimini shakllantirish turli davlatlarda turlicha yondashuvlar va mexanizmga asoslanadi. Bu esa logistika tizimining ishlash samaradorligida namoyon bo'lishi bilan farqlanishlarni keltirib chiqaradi.

2. Logistika tizimi logistik konsepsiyalar asosida amal qilib, har bir konsepsiya boshqasidan amal qilish sohasi va xususiyatlari bilan farqlanadi. Ularning yaxlit holda namoyon bo'lishi umumiy logistik tizimni hosil qiladi. Logistik tizim birdaniga shakllanadigan tizim emas, shu boisdan u vaqt o'tgan sari yangada takomillashib kelayotgan tizim hisoblanadi.

3. Logistika tizimi logistika xizmatlarini samarali tashkil etish va amalga oshirishga asoslangan bo'lib, uning samaradorligi logistika xizmatlarining sifati va ahamiyati yanada ortib borishida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, logistika xizmatlari ishlab chiqarish, ulgurji va chakana savdo, omborxonona va boshqa xo'jalik tizimlari uchun birdek yuqori sifatda ko'rsatilishi bilan ahamiyatlidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Logistika tizimi qanday shakllanadi?
2. Logistika tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Logistika tizimi va logistika konsepsiyasi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
4. "Logistika xizmatlari qanday xizmatlardan tashkil topgan va uni kimlar amalga oshiradi?"
5. Logistika xizmatlari qanday operatsiyalari bilan boshqa xizmatlardan ajralib turadi va ularning ahamiyati nimalardan iborat?
6. Logistika xizmatlarini ko'rsatishning samaradorligini oshirishda nimalarni e'tiborga olish va qanday muammolarni hal etish lozim, deb hisoblaysiz?

5.3. Logistika infratuzilmasi va uning erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishdagi ahamiyati

Ma'lumki, har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotini rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishda xorijiy investitsiyalar bilan bir qatorda ushbu tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma holatining o'rni beqiyosdir. Infratuzilma kompleksi iqtisodiyotimizning butun tuzilmasi tayanadigan poydevordir. Respublika butun xalq xo'jalik kompleksi ishining uyg'unligi, uning samaradorligi, shuningdek, chet el sarmoyalarini jalb qilish va o'zlashtirish imkoniyati butunlay infratuzilma tizimi rivojining holatiga va darajasiga bog'liqdir.

Shunday ekan, infratuzilmaning dolzarbligini ko'rib chiqish uchun, avvalo, unga ilmiy-iqtisodiy kategoriya sifatida yondoshish lozim.

"Infratuzilma (struktura)" atamasi ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarda nisbatan

yangi bo‘lib, (iqtisodiyotga oid adabiyotlarda XX asr 80 yillardan ishlatilib kelinayapti) u lotincha “infra” so‘zi bilan rus tilidagi “struktura”, ya’ni o‘zbekcha “tuzilma” so‘zlarining birlashmasi sifatida ishlatiladi. Lotincha “infra” – ostidagi, tagidagi, tubidagi ma’nolarni anglatadi.

“Infratuzilma – takror ishlab chiqarishni ta’minlovchi umumiy sharoitlar tizimi, iqtisodiyot tarkibini shakllantiruvchi sohalar va aholi hayotiy ta’minoti samaradorligi uchun xizmat ko‘rsatuvchi texnik-texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, informatsion, ijtimoiy va boshqa o‘zaro aloqador tizim majmuasidir”⁵⁴.

Infratuzilma moddiy ne‘matlar ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi – “yordamchi iqtisodiy vosita” sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, infratuzilma – bu ishlab chiqarish va insonlarning turli faoliyatida shart-sharoitlar yaratib beruvchi iqtisodiyotning tarmoqlar majmuasidir va albatta, ijtimoiy mehnat taqsimoti mahsulidir. U moddiy va nomoddiy sohaga xizmat qiladi (ishlab chiqarish infratuzilmasi va ijtimoiy infratuzilma)⁵⁵.

Shu ma’noda aytish mumkinki, tadqiqot obekti hisoblangan ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma – transport, aloqa, ombor xo‘jaligi, yo‘l xo‘jaligi, suv va energetika ta’minoti kabilarni o‘z tarkibiga oladi. Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgartish va modernizatsiya ishlari davom etar ekan, avvalo, bu borada ishlab chiqarishning uzluksiz faoliyat olib borishini ta’minlashda ishlab chiqarish infratuzilmasining roli muhim. Shu sababdan ham, ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarini butun choralar bilan qo‘llab-quvvatlashimiz, moddiy, moliyaviy va valyuta resurslari cheklanganligiga qaramay, ularni rivojlantirishga ayamadan sarflashimiz kerak.

Hozirgi infratuzilma tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qilayotganini ta’kidlagan xolda uni quyidagicha guruhlash mumkin (5.2-jadval).

5.2-jadval.

Infratuzilma tarmoqlarini guruhlash jadvali⁵⁶

1. Bozor (makroiqtisodiy) infratuzilmasi	
Asosiy bo‘limlari:	a) Marketing tizimining infratuzilmasi; b) Moliya va kredit infratuzilmasi; v) Axborot tizimining infratuzilmasi; g) Bozor institutlari infratuzilmasi.
Vazifasi:	Bozor tizimida tovar (xizmat)larning harakati va tadbirkorlikning rivojlanishi uchun umumiy sharoitlar yaratish orqali iqtisodiyotning samaradorligini oshirish va raqobat muhitini shakllantirish.
2. Magistral infratuzilmasi	
Asosiy bo‘limlari:	-
Vazifasi:	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish va inson

⁵⁴ Говорин А.А. Инфраструктура современного предпринимательства: проблемы теории и практики. – М.: ЗАО “Финстатпром”, 1999. – С.53.

⁵⁵ Abdalova Z., Tojjeva Z. Iqtisodiy geografiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2013. – B.156-157 b.

⁵⁶ Oripov M.A., Yavmutov D.Sh. Infratuzilma asoslari. Ma’ruzalar matni. Buxoro – 2013. – B. 85.

	taraqqiyoti uchun umumiy sharoit yaratish uchun xizmat ko'rsatish.
Asosiy unsurlari	Umumiy: temir va avtomobil yo'llari, havo va suv transportlari, suv, gaz va neft quvurlari elektr o'tkazgichlar aloqa va kommunikatsiya.
3.Ishlab chiqarish infratuzilmasi	
Asosiy bo'limlari:	1) hududiy bo'linmalari: a) mintaqaviy; b) mahalliy; v) korxonalar. 2) Funktsional bo'linmalari: a) tarmoq infratuzilmasi; b) tarmoqlararo.
Vazifasi:	Ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz yangilanishi, raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarish va zahiralardan samarali foydalanish uchun umumiy sharoitlar yaratish.
4.Ijtimoiy (noishlab chikarish) infratuzilma	
Asosiy bo'limlari:	Hududiy bo'linmalari: a) mintaqaviy; b) mahalliy; v) korxonalar.
Vazifasi:	Aholi va ishchi kuchini takror ishlab chiqishi va ularning sifat ko'rsatkichlarini oshirish uchun xizmat kiladi.

O'zbekistonda ham real sektor tarmoqlarini rivojlantirish, mavjud texnika va texnologiyalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish faoliyati uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida infratuzimaning barcha tarmoqlariga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Bugungi kunda sanoatlashayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni amalga oshirish yoki kengaytirish uchun tashkil qilishmoqda. Ushbu iqtisodiy islohotlar mamlakatimizda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi, "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bandida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish sifatida qayd etilgan.

Bu yo'nalishda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish; erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish, amaldagi zonalarning samaradorligini oshirish; yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalari ustuvor etib belgilangan.

Angren-Pop temir yo‘li barpo etilishi bilan mamlakatimizda yagona temir yo‘l tizimi vujudga keldi va ushbu temir yo‘li Buyuk Ipak yo‘lidagi davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lmoqda.

Logistika infratuzilmasini rivojlantirish, uning mazmuni va iqtisodiyotning boshqa sohalariga ta‘sirini o‘rgangan bir qator olimlar logistika infratuzilmasining mohiyati haqida turli xil fikrlarni bildirganlar.

D. Bauersoksning fikricha, logistika infratuzilmasi ishlab chiqarish obyektlari, axborot vositalari, transport kompaniyalari va ularning imkoniyatlari, omborxonalar, yuklarni tashish, qadoqlash, inventarizatsiyani boshqarish, yuklarni yuklash va tushirish terminallari va chakana do‘konlarga tegishlidir. Muallifning fikricha, logistika infratuzilmasini tashkil etishda ma‘lum geografik joylashuvi bo‘lgan obyektlar (ombor komplekslari) sonini aniqlash va har bir joyda saqlanuvchi mahsulot zahiralari hisoblash kerak. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalarini o‘z ichiga olgan transport logistika infratuzilmasini alohida qayd etadi.

A.D. Chudakov logistika infratuzilmasi deganda moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilarning ta‘minot zanjiri ishtirokchilari, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar va mahsulot iste‘molchilarini tushunadi. Shu bilan birga, logistika infratuzilmasida muallif logistikaning barcha sohalarini (quyi tizimlarini) o‘z ichiga olishini ta‘kidlaydi. Bular:

- moddiy-texnik ta‘minot;
- transport va saqlash;
- inventarizatsiyani boshqarish;
- marketing faoliyatidir.

A.L.Nosov, o‘z navbatida, logistika infratuzilmasini insonlarning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotini ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan moddiy va texnik tizim, uni rivojlantirish esa, ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyalar samaradorligi uchun asosiy shartlardan hisoblanadi deb ta‘kidlaydi. Muallif logistika infratuzilmasiga temir va avtomobil yo‘llari, aloqa, turli xil transport, ombor xo‘jaligi va turli xil inshootlarni kiritadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, logistika infratuzilmasiga iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi, logistika faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan bino-inshoot, transport tizimlari, ishlab chiqarish obyektlari, yuk tashuvlari, omborxonalar majmuasi deb ta‘rif berish mumkin.

Mamlakatimizda EIHLar va logistika markazlari faoliyatini rivojlantirish, ushbu jarayondagi muammolarni hal etish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning logistika ko‘rsatkichlari indeksi, logistika markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tajribasini tahlil qilish asosida qiyoslash, analiz, sintez usullari orqali ular faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini keltirish mumkin.

Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mutaxassislarining tadqiqotlariga ko‘ra, mamlakatimiz avtomobil transporti operatorlari tomonidan ko‘rsatilayotgan yuk tashish xizmatlari tannarxi tarkibi rivojlangan mamlakatlarning o‘xshash ko‘rsatkichlaridan juda farq qilar ekan. Ayniqsa, tannarx tarkibida yonilg‘i, amortizatsiya xarajatlari, soliq va yig‘imlar ulushi bir necha marotaba yuqori bo‘lib,

ragʻbatlantirishning eng samarali vositasi hisoblanuvchi haydovchilar ish haqi ulushi 3 barobardan ham kamroq ekan. Quyidagi 5.3-jadval maʼlumotlariga koʻra, tashish xarajatlarining asosiy moddalari transport vositalariga texnik xizmat koʻrsatish va yoqilgʻi moylash materiallari hisobiga toʻgʻri keladi. Respublika hududiy avtomobil transporti birlashmalarida ishlatilayotgan transport vositalarining eskirish darajasi ularning avtomobil transporti xizmati koʻrsatish bozoridagi raqobatga bardosh bera olmasligining asosiy sabablaridan biri boʻlib qolmoqda.

5.3-jadval.

Avtomobil transportida yuk tashish tannarxining tarkibiy tuzilishi, tashish tannarxidagi ulushi %

Xarajatlar nomi	Oʻzbekiston	Yevropa Ittifoqi
Yoqilgʻi	37-40	16-20
Moylash materiallari	2-2,2	3
Haydovchining ish haqi	15-16	52-55
Shina xarajatlari	2-2,5	1-1,1
Amortizatsiya ajratmalari	10-12	5-6
Soliq va yigʻimlar	6-7	2
Boshqa xarajatlar	20-21	16

Mamlakatimiz dengiz va okean portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu munosabat bilan 1996-yil aprelda “TRASEKA” dasturiga muvofik idoralararo ishchi guruhi tuzilib, bu guruh transport koridorlarini tashkil qilish va ularni umumlashtirish masalalarini hal qildi. Ulardan quyidagi transport koridorlari qurilishi amalga oshiriladi:

- Tashkent – Ashgabad – Turkmanboshi porti – Baku porti.
- Almata – Toshkent – Istanbul avtomagistrali.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari – Sharqiy Xitoyning portlaridan birigacha.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari – Tedjen – Seraxs – Mashhad – Bandar Abbas porti (Eron).

- Markaziy Osiyo mamlakatlari – Eron Islom Respublikasi – Turkiya Istanbul porti. Bugungi kunda xalqaro yuk tashuvlari bilan shugʻullanayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari quyidagi transport koridorlaridan foydalanib kelmoqdalar:

1-yoʻlak – Boltiqboʻyi davlatlari portlari yoʻnalishida (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali) – Klaypeda (Litva), Riga, Liepaya, Ventspils (Latviya), Tallin (Estoniya);

2-yoʻlak – Belarus va Ukraina orqali (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali) – Chop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegara oʻtishlari, keyinchalik Yevropaga;

3-yoʻlak – Ukrainaning Ilichevsk portiga (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali), Qora dengizga chiqish bilan;

4-yoʻlak – Gruziyaning Poti va Batumi portlariga (tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali), Qora dengizga chiqish bilan, TRASEKA yoʻlagi deb nom olgan;

5-yoʻlak – Eronning Bandar-Abbos portiga (tranzit bilan Turkmaniston orqali)

Fors ko'rfaziga chiqish bilan;

6-yo'lak – Sharqiy yo'nalishda Xitoy orqali (tranzit bilan Qozog'iston orqali) Sariq dengizga;

7-yo'lak – sharqiy yo'nalishda Uzoq Sharqning Naxodka va Vladivostok portlari orqali (tranzit bilan Qozog'iston va Rossiya orqali) Sariq dengizga.

8-yo'lak – Turkiya va Yevropaga ("Baku-Axalkalaki-Kars" yangi temir yo'lida tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali);

Hozirgi kunda yana quyidagi yo'nalishlar rivojlantirilmoqda:

– Yevropa va Janubiy-Sharqiy Osiyo yo'nalishida (Turkiyaning Mersin porti orqali tranzit bilan Turkmaniston va Eron orqali);

– Xitoy portlariga (tranzit bilan Qirg'iziston orqali) Sariq, Sharqiy-Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlariga chiqish bilan.

Xalqaro ekspertlarning baholariga ko'ra, loyiha amalga oshirilgan yo'lakning o'tkazish qobiliyati, ichki tashishlarni hisobga olmasdan, 12-14 mln. tonna yukkacha etadi hamda Shanxaydan Lissabongacha uzluksiz er usti aloqasi imkoniyati paydo bo'ladi. Tomonlar Andijon, O'sh va Qashg'ar o'rtasidagi xalqaro avtomobil yo'lini qayta qurish va rivojlantirish bitimini imzolagan.

– Afg'on muammosi tartibga solinishi munosabati bilan tranzit bilan Afg'oniston orqali Eronning Bandar-Abbos va Chaxbahor portlariga chiqadigan janubiy muqobil transport yo'laklarini ishlab chiqish bo'yicha yangi istiqbollar ochilmoqda.

Mamlakatimizning logistika ko'rsatkichlari indeksiga nazar tashlasak, eng yuqori natijalar aynan infratuzilma va o'z vaqtida yetkazib berish indikatorlarida nisbatan ijobiyligini kuzatish mumkin (5.4-jadval). Ushbu ko'rsatkichlar Xitoyda o'rtacha 4,07 ni, Singapurda 4,14 ni, qo'shni Qozog'iston Respublikasida esa 2,75 ni tashkil etadi.

5.4-jadval.

Qiyoslanayotgan davlatlarning logistika ko'rsatkichlari indeksi (LKI)⁵⁷

Davlat	LKI o'rni	Bojxona	Infra-tuzilma	Xalqaro tashuvlar	Logistik raqobat	Kuzatuv va nazorat	O'z vaqtida etkazish
O'zbekiston	118	2.32	2.45	2.36	2.39	2.05	2.83
Qozog'iston	77	2.52	2.76	2.75	2.57	2.86	3.06
Singapur	5	4.18	4.20	3.96	4.09	4.05	4.40
Tailad	45	3.11	3.12	3.37	3.14	3.20	3.56
Xitoy	9	3.94	4.10	4.05	4.00	4.03	4.29

Jahon mamlakatlar tajribasiga ko'ra, logistika markazlari faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi lozim:

1. Biznes jarayonlarida zahiralarni quyidagilar hisobiga qisqartirish:

⁵⁷ Jahon bankining logistik ko'rsatkichlar indeksi yillik hisoboti ma'lumotlari 2016 y. <https://lpi.worldbank.org/international/global>

- zahiralarni ulgurji va chakana savdo o'rtasida qayta taqsimlash hamda ulgurji bo'g'inlarda to'plash;

- zahira holatlarini nazorat qilishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash;

- ishtirokchilarning zahiralarni o'z vaqtida to'ldirib borish masalasida yuksak darajada muvofiqlashib borishi.

Joriy zahiralari ham, sug'urta zahiralari ham qisqarib boradi. Joriy zahiralari – qulay o'lchamdagi to'plamlarning belgilangan muddatida yetkazib berilishi hisobiga amalga oshiriladi. Sug'urta zahiralari – tovarlarning yagona taqsimot omborida to'planishi hisobiga kamaytiriladi. Masalan, agar 100 ta do'kon bitta taqsimot ombori atrofida birlashtirilsa va bu erda sug'urta zahiralari to'plansa, u holda kvadrat ildiz qonuniga ko'ra, zahiralarning umumiy hajmi xizmat ko'rsatish bo'yicha barqarorlikka zarar yetkazmagani holda 10 marta kamayadi.

2. Xizmatlar bozorida logistika vositachisi hisoblangan korxonalarining maydonlari va hajmidan yuqori darajada foydalanish. Masalan, tovar o'tkazish bo'g'inlarining logistik qulayligi do'konlar maydonlarining tarkibini sezilarli darajada o'zgartirib, savdo maydonchalari hisobiga ko'paytiradi. Bularga ushbu hisoblarga ko'ra erishiladi:

- umumiy zahiralari miqdorining keskin qisqartirilishi va ularning kattagina qismini do'konlardan ulgurji bo'g'inlarga ko'chirish hisobiga;

- tayyorlov jarayonlarining bir qismini – qadoqlash, tamg'alash, narxlarini belgilash va boshqalarni tovar harakatining oldingi bosqichlariga ko'chirish hisobiga.

3. Sarmoyalarning aylanishini tezlashtirish. Bularga talablarni bevosita joylashtirish va ularni bajarish jarayonlarini vaqti bo'yicha nazorat qilish hisobiga erishiladi.

4. Transport xarajatlarini qisqartirish, ishtirokchilarning yuqori darajada transportdan foydalanish masalasida muvofiqlashuvlari hisobiga erishiladi.

5. Yuklarni ishlash, shu jumladan, qo'l mehnati xarajatlarini kamaytirish.

Logistika markazlari faoliyatidan foydalanishdagi samaralar to'plami, odatda, ko'rsatib o'tilgan ko'rsatkichlar samaralarining yig'indisidan ortadi. Bu shu bilan izohlanadiki, logistika jihatidan tashkillashtirilgan tizimlarda vujudga kelgan bozor uchun kerakli yukni yetkazib berishni ta'minlash qobiliyati, zarur sifatda, kerakli miqdorda, belgilangan muddatda, kerakli joyga, eng oz miqdordagi xarajatlar bilan yetkazib berishning vujudga kelishi bilan izohlanadi.

EIHLar tashkil etilishi mintaqaviy rivojlanishni yanada maqbullashtirish, tashqi bozorlarga yo'naltirilgan yuqori samarali ishlab chiqarishlarni joylashtirish, logistika va transport infratuzilmasining zamonaviy tizimlarini joriy etish siyosatini amalga oshirish yo'lida yangi qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi bir qator asosiy transport konvensiyalari va xalqaro shartnomalariga qo'shilgan bo'lib, transport koridorlarini diversifikatsiyalash ishlari davom etmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda logistika infratuzilmasini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- mamlakatimizning Farg'ona vodiysi, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoi, Buxoro hududlarida logistika hahlari yaratish va logistika va transport tizimiga

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadga muvofiq;

- mamlakatimizda zamonaviy logistika markazlarini barpo etish va ulardan samarali foydalanish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish;

- mahalliy, eksport-import va tranzit tovar aylanmasini rivojlantirishga ko'maklashuvchi logistika markazlari tashkil etishni o'z ichiga oluvchi mamlakat transport infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

- O'zbekistonning geografik joylashuvi zamonaviy ombor komplekslari va logistika markazlari tarmog'i rivojlanishida strategik muhim jihat bo'lib, yuklarni tashish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish va savdo kompaniyalari logistikasini samarali tashkil etish imkonini berishi mumkin.

O'zbekistonda transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalasiga ham alohija e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli Farmoni mamlakatda sohada bir qator quyidagi muammolarni hal etishga huquqiy yechim topish maqsadida qabul qilindi:

- birinchidan, telekommunikatsiya infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan, mamlakatning olis aholi punktlari telekommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanmasdan qolmoqda, mobil aloqa va Internet tarmog'ining sifati aholi ehtiyojlarini qondirmayapti;

- ikkinchidan, davlat boshqaruvi tizimiga axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etishda yagona texnologik yondashuvning samarali amalga oshirilmaganligi sababli idoraviy axborot tizimlari va resurslari alohida-alohida joriy qilinmoqda, buning oqibatida ularni yagona axborot makoniga integratsiyalash jarayoni murakkablashmoqda;

- uchinchidan, elektron tijoratda integratsiyalashgan savdo va marketing platformalari, internet-do'konlar, to'lov tizimlarini, shuningdek, logistika tizimlarini joriy etishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti, bu iqtisodiyot va tadbirkorlik rivojlanishi, chet el investitsiyalari jalb qilinishi to'xtatib turilishining sabablaridan biri bo'lmoqda;

- to'rtinchidan, davlat axborot tizimlari va resurslarida axborot xavfsizligini va axborotni muhofaza qilishni ta'minlash ishlarining zaif tashkil etilganligi axborotdan ruxsatsiz foydalana olish, ma'lumotlar bazalarining butunligi va maxfiylikini buzish imkoniyatini oshirmoqda;

- beshinchidan, ko'plab davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati va tezkorligini oshirish, byurokratik tartib-taomillarga barham berish, qog'oz hujjat aylanishini kamaytirishga qaratilgan axborotlashtirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish loyihalarini amalga oshirish masalalariga yetarlicha e'tibor berilmayapti;

- oltinchidan, pochta aloqa xizmatlari va logistika tizimini modernizatsiya qilish, pochta aloqasi milliy operatori faoliyatining sifat jihatdan yangi uslublarini joriy etish va bozorda uning faoliyati mavqeini oshirishga doir ta'sirchan choralar ko'rilmayapti;

- yettinchidan, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi IT-texnologiyalar rivojlanishining tezkor sur'atlarini hisobga olmayapti, shuningdek, ta'lim berishning ilg'or uslublarini joriy etish uchun xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalari bilan samarali muloqotni tashkil qilish imkonini bermayapti;

- sakkizinchidan, elektron hukumat, elektron tijorat, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi, ularning shaffofligi va ochiqligi, shuningdek, telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishida ancha ilgarilab ketgan mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rganish va joriy etish bo'yicha tizimli ish olib borilmayapti.

Farmonda raqamli iqtisodiyotni o'stirishda elektron tijoratni rivojlantirish va shunga muvofiq ravishda port va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga ham urg'u berilgan. Bunda O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining asosiy vazifalari va faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish va qo'llash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda munosabatlarni tartibga solish, elektron hukumatni joriy etish, axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish faoliyatini muvofiqlashtirish;

- "oxirgi milya" tamoyili bo'yicha Internet tarmog'idan keng polosali foydalanishni kengaytirish, multiservisli aloqa tarmoqlari texnologiyalari, mobil aloqa bozori, boshqa zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlari, shuningdek, logistika va pochta aloqasi xizmatlari orqali telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish;

- davlat organlarining axborot tizimlari va resurslarini ishlab chiqish hamda joriy etish, idoralararo o'zaro elektron hamkorlikni tashkil qilish, yagona elektron reestrlar va ma'lumotlar bazalarini, «yagona darcha» tamoyili bo'yicha elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tizimlarini shakllantirishga yagona texnologik yondashuv amalga oshirilishini ta'minlash;

- davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning real sektorida innovatsiyalarni joriy qilishga ko'maklashish, raqamli iqtisodiyot o'sishini rag'batlantirish, shu jumladan, ishlab chiqarishda kompleks avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish, elektron tijoratning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- shahar va hududiy infratuzilmani, shu jumladan, kelgusida integratsiyalashgan, "aqlli" va "xavfsiz" shahar yagona kompleksiga birlashtirgan holda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, transport logistikasini, shoshilinch xizmatlarni boshqarishning zamonaviy intellektual tizimlarini joriy etish va rivojlantirish;

- texnoparklar va kovorking-markazlar faoliyatini tashkil qilish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy raqobatbardosh va eksport uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlar hamda xizmatlarning mahalliy ishlab chiqarilishini rivojlantirishni rag'batlantirish, shart-sharoitlar yaratish va investitsiyalarni jalb qilish;

- yetakchi xorijiy kompaniyalar va ta'lim muassasalarining eng yaxshi amaliyoti asosida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida strategik va loyiha boshqaruvi, menejment, marketing bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni,

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishni tashkil qilish;

- kiberxavfsizlikni ta'minlash va tarmoqlar, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini joriy qilishni ta'minlash bo'yicha kompleks choralarni amalga oshirish, shaxsiy va biometrik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash bo'yicha texnologiyalarning qo'llanishini tartibga solishda ishtirok etish;

- taqdim etilayotgan telekommunikatsiya va pochta aloqasi xizmatlarining yuqori sifatini ta'minlash maqsadida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida qonun hujjatlariga rioya etilishining davlat nazoratini amalga oshirish;

- axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini qo'llash va rivojlantirish masalalari bo'yicha, shu jumladan, texnik standartlar, reglamentlar joriy etilishini tashkil qilish, shuningdek, Vazirlikning faoliyat sohasiga kiradigan boshqa yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar, chet el kompaniyalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Shuningdek, Farmonga ko'ra:

a) 2018-yil 1-iyundan:

tadbirkorlik subyektlari tovarlar, ishlar (xizmatlar) eksport qilinganligi uchun eksport shartnomasi tuzmasdan va bank komissiyasi undirilmasdan, Internet tarmog'idagi elektron savdo maydonchalari orqali, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha ayrim tovarlardan tashqari, tovarlar, ishlar (xizmatlar) eksportini amalga oshirish huquqiga ega;


tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektron tijoratdan foydalanish orqali sotiladigan tovarlar aylanmasi ularning hajmidan qat'i nazar, chakana savdo hisoblanadi;

b) axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida xalqaro konsalting kompaniyalari va ekspertlarini jalb qilish, o'z IT-infratuzilmasini rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek, Vazirlik xodimlarini moddiy rag'batlantirish Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

v) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan Vazirlik xodimlarining mehnatiga haq to'lash shartlari Vazirlik hay'ati tomonidan aniqlanadi;

g) davlat organlari va boshqa budjet tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori xodim lavozim maoshidan 100 foizdan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi;

d) davlat organlari va boshqa budjet tashkilotlarining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirishga mas'ul bo'lgan bo'linma rahbarlari har yil yakunlari bo'yicha Vazirlik qarori asosida axborot tizimlari, elektron davlat xizmatlari va axborotlashtirishni joriy etish rejalari va dasturlarining o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilganligi uchun, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan eng kam ish haqining 100 baravarigacha miqdorda mukofotlanadi.



5.1-rasm. AKT sohasining YaIM dagi ulushi, % da⁵⁸

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 14-may kuni “Elektron tijoratni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori mamlakat iqtisodiyotining sohalarini rivojlantirish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari mahsulotlarini eksport qilish geografiasini kengaytirish va hajmini oshirish, Internet tarmog‘i orqali jahon bozoriga milliy mahsulotlarni sotish, to‘lov tizimlarini takomillashtirishdagi o‘rnini hisobga olib, elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi.

Qarorda jahondagi eng ilg‘or tajribani qo‘llash masalasi zarurligi keltirilgan.

Jumladan, ushbu qaror ilovasida 2019-2020 yillarda mamlakatimizda internet-do‘konlar uchun logistika infratuzilmasi yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, 2019-yilning 1-iyuliga qadar FedEx, DHL, UPS va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikda O‘zbekistonda ularning hududiy nuqtalarini (mintaqaviy xablarni) yaratish masalasi ustida ishlanadi. Kutulishicha, bu elektron savdo orqali mahsulot eksporti hajmini oshirish imkonini beradi.

2019-yilning 1-oktabriga qadar esa Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, “O‘zavtotrans” va boshqa tashkilotlar internet-do‘konlar bilan ishlovchi yetkazib berish xizmatlarini rag‘batlantirish choralarini ishlab chiqishadi va tasdiqlashadi.

2020-yilning 1-apreligacha davlat va xususiy sektor hamkorligi tadbiriq etilgan logistika infratuzilmasi yaratilishini tasdiqlovchi me‘yoriy hujjat tayyorlanadi. Bu infratuzilmada, eng olis hududlarda yashovchi aholi ham internet-do‘konlardan tovarlarni tez va qulay olishlarini ta‘minlash uchun hududiy logistika markazlari paydo bo‘ladi.

Hozirda ham ayrim onlayn savdo platformalari orqali turli tovarlar olish mumkin. Agarda onlayn xarid borasida tajribangiz yetarli bo‘lmasa, u holda

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

tovarlarga “Terabayt.uz” sayti orqali buyurtma berish imkoni ham mavjud.

Bundan tashqari, 2018-yil 14-may kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron tijoratni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorida unda mamlakatda elektron tijoratning to‘laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishiga to‘siq bo‘layotgan qator muammo va kamchiliklar ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Ya’ni, ular:

- birinchidan, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi soha taraqqiyotining jadal sur‘atlardagi o‘zgarishlariga mos kelmaydi va o‘z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik subyektlari uchun elektron tijatdan foydalanish imkonini ta’minlamaydi;

- ikkinchidan, mahalliy tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda to‘liq raqobatlashish, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermayotgan elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to‘siqlari saqlanib qolmoqda;

- uchinchidan, elektron tijoratni rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to‘xtab turishiga olib kelmoqda;

- to‘rtinchidan, mahalliy to‘lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integratsiyasi yo‘qligi, mamlakat tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to‘liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta’sir qilmoqda;

- beshinchidan, elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat budjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda;

- oltinchidan, amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag‘batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog‘i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda, shuningdek, ushbu sohaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni cheklamoqda.

Qaror asosida:

- elektron tijorat orqali sotiladigan tovarlar (xizmatlar) uchun ularning umumiy qiymatidan majburiy 15 foizli oldindan to‘lov to‘lash talabi bekor qilindi;

- elektron tijorat orqali realizatsiya qilingan tovarlarni sotuvchiga va yetkazib beruvchiga shaxsiy mulk, ijara va boshqa foydalanish huquqiga asosan, tegishli bo‘lgan avtomobil transportida O‘zbekiston hududi bo‘ylab yetkazib berishda shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro avtomobilda yo‘lovchilar va yuk tashishlarni amalga oshirish uchun litsenziya olish talab qilinmaydi, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno;

- 2018-yil 1-iyuldan boshlab Elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reestrini

(Milliy reestr) yaratildi. Bunda Milliy reestrni yuritish elektron shaklda onlayn rejimda amalga oshiriladi va Milliy reestrda ixtiyoriy va bepul asosda tovar (xizmat)larni elektron tijorat orqali sotishdan olgan daromadlari umumiy sotilgan tovarlar (xizmatlar) hajmining kamida 80 foizini tashkil etuvchi, shu jumladan, elektron tijoratda elektron savdo maydonchalari, tovarlarni yetkazib berish, elektron hujjatlar va xabarlarini saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar kiritiladi. Milliy reestr elektron tijorat ishtirokchilari to'g'risidagi yagona elektron axborot bankini yaratit, yuritadi;

- Milliy reestrda kiritilgan yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar 2 foiz stavka bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lovchilar hisoblanadi;

- 2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Tayanch iboralar:

Logistika infratuzilmasi, erkin iqtisodiy hududlar, tarmoq, modernizatsiya, diversifikatsiya, iqtisodiyot, transport, investitsiya, transport koridori, tovar.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Infratuzilma transport, aloqa, ombor xo'jaligi, yo'l xo'jaligi, suv va energetika ta'minoti kabilarni o'z tarkibiga oladi. Mamlakatimizda tarkibiy o'zgartish va modernizatsiya ishlari davom etar ekan, avvalo, bu borada ishlab chiqarishning uzluksiz faoliyat olib borishini ta'minlashda ishlab chiqarish infratuzilmasining roli muhim.

2. Infratuzilma tarmoqlari juda keng bo'lib, ularni bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Logistika infratuzilmasi shular orasida eng muhimlaridan sanalib, u EIHlar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Logistika infratuzilmasi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi, logistika faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan bino-inshoot, transport tizimlari, ishlab chiqarish obyektlari, yuk tashuvlari, omborxonalar majmuasidir. U logistika markazlari orqali maqsadli shakllantiriladi va samarali xizmat ko'rsatadi.

3. Bugungi kunda O'zbekistonda qulay logistika-transport infratuzilmasi shakllangan bo'lib, uning xalqaro andozalar asosida takomillashuvi va sifatli xizmat ko'rsatishini ta'minlash borasida huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Infratuzilmasi so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
2. Logistika infratuzilmasi mazmunini tushuntirib bering.
3. Infratuzilmani qanday gurhlarga ajratish mumkin?
4. EIHlar rivojida logistika infratuzilmasining o'rni va ahamiyati nimalardan iborat?

5. Logistika markazlari deganda nimalarni tushunasiz va bugungi kunda ularning logistika infratuzilmasi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati nimalarga namoyon bo'lmoqda?

6. Bugungi kunda O'zbekistonda transport logistikasi qanday shakllanganligini

izohlang.

5.4. O‘zbekistonda logistika markazlarini tashkil etish

Bugungi kunda O‘zbekiston logistika markazlarini tashkil etishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda bir nechta logistika markazlari, firmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu masalada qabul qilinayotgan meyo‘riy hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, mamlakatimiz Prezidentining 2012-yil 13-apreldagi maxsus PF- 4436 sonli maxsus qarori bilan “Angren” maxsus industrial zonasi barpo etildi. Angren” maxsus industrial zonasining barpo etilishi O‘zbekistonda logistikaning rivojlanishining yana bir bosichini boshlab berdi. Uning asosiy vazifalaridan biri sifatida “transport, muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hamda samarali foydalanish, “Angren” logistika markazi salohiyatini, yuklarning avtomobil va konteynerlarda tashish borasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish hamda ulardan keng ko‘lamda foydalanishni ta’minlash” kabi muxim staregik maqsadlar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 26-fevraldagi “Namangan viloyatida multimodal logistika markazini va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 56-sonli Qarorining qabul qilinganligini ham bunga misol sifatida keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 26-fevraldagi “Namangan viloyatida multimodal logistika markazini va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 56-sonli Qarori Farg‘ona vodiysining transport-logistika infratuzilmasini zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyati subyektlari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini yanada kengaytirish, yuk tashishlar hajmlarini ko‘paytirish hamda yuklarni o‘z vaqtida va uzluksiz yetkazib berish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, mintaqaning temir yo‘l infratuzilmasidan samarali foydalanish maqsadida qabul qilindi.

Ushbu qaror:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasining:

- “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi huzurida “Pop logistika markazi” unitar korxonasining multimodal logistika markazini tashkil etish, yuklarni ishlash hajmlarini yiliga 4,0 mln. tonnagacha etkazish;

- transportning har xil turlari bilan tashishning o‘zaro bog‘liq jarayonini, shu jumladan, “Qamchiq” dovoni orqali yuklarni tashish uchun “Angren logistika markazi” aksiyadorlik jamiyatining avtotransport vositalari parkidan samarali foydalanish asosida tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari asosida qabul qilindi.

Shtsningdek, Qaror asosida quyidagilar “Pop logistika markazi” unitar korxonasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari etib belgilandi:

- Farg‘ona mintaqaviy temir yo‘l bog‘lanmasining ixtisoslashtirilgan stantsiyalaridan foydalanib, “Angren logistika markazi” aksiyadorlik jamiyati bilan

o‘zaro to‘liq bog‘liq holda Farg‘ona vodiysi hududida yuklarni yetkazib berishning yagona multimodal sxemasini ta‘minlash;

- transport-logistika va transport-ekspeditsiya xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek, yuklarni tashishning maqbul sxemalarini (maqbul logistika tizimlarini) ishlab chiqish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ehtiyojlarini qondirish uchun samarali logistika tarmog‘ini shakllantirish.

Qarorga muvofiq “Pop” multimodal logistika markazi infratuzilmasini barpo etish chora-tadbirlari kompleksi tasdiqlandi va u quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.

5.5-jadval.

“Pop” multimodal logistika markazi infratuzilmasini barpo etish chora-tadbirlari KOMPLEKSI

№	Tadbirlar nomi	Bajarish muddatlari	Moliyalashtirish manbai	Mas‘ul bajaruvchilar	Putrat tashkiloti-ning nomi
I. TRANSPORT INFRATUZILMASINI BARPO ETISH					
1.	“Pop” multimodal logistika markazi infratuzilmasini qurish, shu jumladan:				
	kirish temir yo‘llari;	2013 yil sentabr	“O‘zbekiston temir yo‘llari” DAKning o‘z mablag‘lari	“O‘zbekiston temir yo‘llari” DAK	“O‘zbekiston temir yo‘llari” DAK
	omborxonalar;	2013 yil sentabr			
	yuklash-tushirish maydonchalari.	2013 yil sentabr			
2.	“Pop” multimodal logistika markaziga kirish avtomobil yo‘lini qurish.	loyiha-smeta hujjatlari, qurilishni tashkil etish loyihasi tasdiqlangach	Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari	“O‘zavtoyol” DAK	Tender savdolari natijalari bo‘yicha
II. TASHQI MUHANDISLIK-KOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASINI BARPO ETISH					
3.	Elektr ta‘minotining tashqi yuqori voltli ta‘minlovchi liniyasini qurish.	2013-yil iyun	“O‘zbekenergo” DAKning o‘z mablag‘lari	“O‘zbekenergo” DAK	“O‘zbekenergo” DAK
4.	Suv ta‘minoti va kanalizatsiya obyektlarini qurish.	2013-yil iyun	“O‘zbekiston temir yo‘llari” DAKning o‘z mablag‘lari	“O‘zbekiston temir yo‘llari” DAK	“O‘zbekiston temir yo‘llari” DAK
5.	Tashqi aloqa tarmog‘ini barpo etish, "O‘zbektelekom" AKning mavjud telekommunikatsiya tarmoqlariga ulash.	2013-yil iyun	“O‘zbektelekom” AKning o‘z mablag‘lari	“O‘zbektelekom” AK	“O‘zbektelekom” AK
III. NORMATIV BAZANI ISHLAB CHIQISH					

6.	Quyidagilar: yagona tashish hujjati bo'yicha; jo'natish stantsiyasidan yetkazib berish stantsiyasigacha yagona tashish to'lovi bo'yicha tashishlarning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish.	2013-yil sentabr	"O'zbekiston temir yo'llari" DAKning o'z mablag'lari	"O'zbekiston temir yo'llari" DAK, "Angren logistika markazi" aksiyadorlik jamiyati, Davlat bojxona qo'mitasi, Avtomobil va daryo transporti agentligi	
----	--	------------------	--	---	--

Qaror asosida "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi №Po№ multimodal logistika markazi bilan birgalikda:

- "Qaqir" stantsiyasini – ko'mir, qurilish materiallari, yog'och-taxta yuklarini saqlash uchun, "Qo'qon" stantsiyasini – mineral o'g'itlar va iste'mol tovarlarini saqlash uchun, "Marg'ilon" stantsiyasini – konteynerli yuklarni saqlash uchun (Farg'ona viloyati);

- "Raustan" stantsiyasini – konteynerli ko'mir va qurilish materiallari yuklarini saqlash uchun (Namangan viloyati);

- "Axtachi" stantsiyasini – konteynerli ko'mir va qurilish materiallari yuklarini saqlash uchun (Andijon viloyati) ixtisoslashtirgan holda, Farg'ona mintaqaviy temir yo'l bog'lanmasining bir yo'la 91,7 ming tonna yukni saqlash quvvatiga ega bo'lgan omborxonalaridan foydalanishga ruxsat etildi.

Endilikda "Angren logistika markazi" aksiyadorlik jamiyati va "Pop logistika markazi" unitar korxonasi vazirliklar, idoralar va xo'jalik boshqaruvi organlarining buyurtmanomalariga binoan "Qamchiq" dovoni orqali tashishlarning prognoz hajmlarini har yili 1 dekabrgacha shakllantirib, bunda yuklarni Farg'ona vodiysiga va u yerdan tashish nomenklaturasi va sxemalari aniqlanishini hisobga olib bormoqdalar.

"O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi "Angren logistika markazi" aksiyadorlik jamiyati bilan birgalikda yuklarni jo'natish stantsiyasidan yetkazib berish stantsiyasigacha yagona tashish hujjati bo'yicha yetkazib berish uchun yagona tashish to'lovini belgilagan holda "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tashuvlarning butun yo'nalishida yuklarning but saqlanishini ta'minlaydilar.

Qarorda quyidagilar:

- "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining kapital qurilish bo'yicha direksiyasi – "Pop" multimodal logistika markazi infratuzilmasini qurish bo'yicha bosh buyurtmachi etib;

- "Boshtransloyiha" aksiyadorlik jamiyati – bosh loyiha tashkiloti etib;

- 2013-yil – qurilishni boshlash va tugallash muddatlari etib;

- 2014-yil 1-yanvar – "Pop" multimodal logistika markazi faoliyatining boshlanish muddati etib;

- "O'zbekiston temir yo'llari" DAKning o'z mablag'lari – "Pop" multimodal

logistika markazi infratuzilmasi qurilishini moliyalashtirish manbalari etib belgilandi.

“Pop” multimodal logistika markazi infratuzilmasi qurilishining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni va ishchi hujjatlarini ishlab chiqish “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi zimasi ga yuklatildi va ushbu logistika markazi infratuzilmasi qurilishiga Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati, “O‘zqurilishmateriallari” aksiyadorlik kompaniyasi va “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi hamda “O‘zavtoyol” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi ham biriktirildi.

Ushbu markaz qurilishida metall prokati, tsement va yonilg‘i-moylash materiallarining tartibga solinadigan narxlar bo‘yicha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida yetkazib berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu “Pop” multimodal logistika markazini qurish doirasida:

-O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha chetdan olib kelinadigan tovarlar – bojxona to‘lovlaridan (bojxona yig‘imlaridan tashqari);

- bajariladigan ishlar (xizmatlar) hajmlari – qo‘shilgan qiymat solig‘idan 2014-yil 1-yanvargacha bo‘lgan muddatga ozod qilindi.

Shuningdek, “Pop logistika markazi” unitar korxonasi 2020-yil 1-yanvargacha bo‘lgan muddatga soliqlarning barcha turlarini to‘lashdan, davlat maqsadli jang‘armalariga majburiy to‘lovlardan ozod qilindi.

Namangan viloyati hokimligi “Pop” multimodal logistika markazini, avtomobil va temir yo‘l kirish yo‘llarini qurish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda er uchastkalari ajratilishini (bir oy muddatda) ta‘minlab bergan holda markaz qurilishiga ham e‘tiborini qaratdi.

Umuman olganda, logistika markazlari bugungi hayotimizning muhim ajralmas qismiga aylandi. Shu sababdan ularni tashkil etish va rivojlantirish iqtisodiyot rivoji uchun, shuningdek, EIHlar taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikamizda meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash, ularni sovutish kameralarini o‘rnatish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, birgina o‘tgan 2016-yilning o‘zida 77 ming 800 tonna sig‘imga ega bo‘lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil qilinib, mavjudlari modernizatsiyalashtirilgach, yurtimizda meva-sabzavot saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Pirovardida ilgari meva-sabzavot mahsulotlari, asosan, Rossiya va qo‘shni davlatlarga sotilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda Yevropa hamda Osiyo mamlakatlariga ham jo‘natilmoqda. Ya‘ni endilikda Norvegiya, Tailand, Vetnam, Malayziya, Indoneziya, Braziliya, Kipr, Makedoniya, XXR, AQSh va Lotin Amerikasi davlatlari xaridorlar safidan joy egalladi.

Pirovardida O‘zbekiston juda qisqa davr mobaynida o‘rik, olxo‘ri, uzum, yong‘oq, karam hamda boshqa ko‘plab meva-sabzavot mahsulotlarini eksportga chiqarish hajmi bo‘yicha dunyoda yetakchi 10 ta davlatdan biriga aylandi. Boshqacha aytganda, jahonning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlar yetkazib berilmoqda.

Zangiota tumanidagi “Highway Logistics Center” MChJ zamonaviy transport-

logistika markazi hududida bojxona bo'limi tashkil etilgan bo'lib, u erda bojxona posti, deklaratsiya to'ldirish, markazlashgan mahsulotlar g'aznasi, bank, sertifikatlashtirish va ko'rikdan o'tkazish bo'limlari, logistika xizmatlarini ko'rsatuvchi, tovar jo'natish hamda qabul qiluvchi kompaniyalar, bojxona brokerlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. E'tiborlisi, mazkur barcha xizmatlar "Yagona darcha" markazi orqali amalga oshiriladi. Bu esa ishbilarmonlarga katta qulaylik yaratmoqda.

"Highway Logistics" zamonaviy logistika markazi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun xizmat ko'rsatadi va u O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi mas'ul xodimlari, sertifikatlashtirish organlari hamda moliya muassasalari vakillari, xalqaro tashuvlarni amalga oshiruvchi mahalliy hamda xorijiy avtotashuvchilar, tadbirkorlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Ko'p tarmoqli xizmat turlarini o'zida jamlagan logistika markazida yangi loyiha va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali rasmiylashtiruvchi jarayonlarini soddalashtirilgan ko'zda tutilgan.

Xususan, tovarlarning tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kodini aniqlash bevosita tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postining o'zida ekspress-laboratoriyalarda o'rnatilgan maxsus zamonaviy dastgohlar yordamida aniqlash, katta hajmdagi yuk tashuvchi mahalliy va xorijiy avtotransport vositalarida yuklarni respublikamiz hududida harakatlanishi va tashuvchilarga ruxsatnoma hujjatlarini berishga doir jarayonlarni soddalashtirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Bojxona terminalida ekspertiza organlari tomonidan namunalar olinishi va tegishli ruxsatnoma hujjatlarining tezkor taqdim etilishi bo'yicha ilg'or tajribalarni respublikamizda qo'llash logistika markazlari xizmati samaradorligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu markaz xizmatlaridan "Rurity packers" mas'uliyati cheklangan jamiyati keng foydalanib keladi. Korxonada 20 yildan buyon Xitoy, Shri-Lanka, Eron, Indoneziya kabi davlatlardan choy mahsulotlari keltirib, qayta ishlash, qadoqlash bilan shug'ullanadi. O'tgan vaqt davomida korxonada mahsulotlari ichki va tashqi bozorda o'z xaridorini topdi. Har yili Qozog'iston, Rossiya va AQSh davlatlariga eksport qilamiz. Bu yil – 2018-yil Qirg'izistonda korxonada mahsulotlariga talab yuqori bo'lmoqda. Biroq, bu jarayonda mavjud qiyinchiliklar, narx-navo, mahsulotni yetkazib beruvchi transport masalasi va shu kabi ko'plab muammolar uchrayotgan edi. Zamonaviy bojxona rasmiylashtiruvchi esa vaqtni tejash bilan birga, tovarlar ekspertizasi va tegishli ruxsatnoma hujjatlari olish imkonini bermoqda. Bunday qulayliklar korxonada faoliyatini yanada kengaytirish, ishlab chiqarish hajmi va turini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Toshkent shahrida joylashgan "Global Research and Consulting" MChJ – GRC tashqi iqtisodiy faoliyat borasida konsalting xizmatlari, logistika, shuningdek, iqtisodiyot va rejalashtirish sohasida katta ish tajribasi bo'lgan mutaxassislariga ega tashkilot.

"Global Research and Consulting" MChJ jahon bozorini marketing tadqiq qilish bo'yicha hamkorlarimiz bilan birgalikda yuk ortish-tushirish inspeksiyasi, shartnomalarning narx verifikatsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat

xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq tender savdolarini tashkil etish va o‘tkazish kabi konsalting xizmatlarining barcha turlarini ko‘rsatadi.

“Global Research and Consulting” MChJ ko‘rsatadigan xizmat turlari:

1. Sifat/miqdoriy marketing tadqiqotlari, SWOT – tahlillar, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi tashkilotlar va korxonalar tomonidan talabgir bo‘lgan ichki va tashqi bozorlarda tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining butun hajmida tender va tanlovdan oldin ishlab chiqish uchun narxlarning eng yuqori, o‘rta va eng past darajasini aniqlash.

2. Har qanday mulkchilik shaklidagi va har qanday faoliyat turidagi korxonalar uchun tender va tanlov savdolarini o‘tkazish.

3. Yuk tashishning usullari va logistik marshrutlarini aniqlash va ularning qiymatini hisob-kitob qilish.

4. Biznes-rejalar va TIA ishlab chiqish.

5. Korxonalarda ISO joriy etish.

6. Fermer xo‘jaliklari uchun GlobalGAP xalqaro standarti.

Korxonalar faoliyati davomida “O‘zavtosanoat” AK, “O‘z-avto Inzi” MChJ XK, “UzKTJM” OAJ, “Bekobod metallurgiya kombinati” OAJ, “Artel” zavodi, Davlat geologiya qo‘mitasi, “O‘zGAShKLITI” DUK, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Zaxiralarni boshqarish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud departamenti, O‘zbekiston Respublikasi Nashriyot uylari, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, “O‘zbektelekom” AK, “Coca-Cola Ichimligi Uzbekiston, LTD”, “PepsiCo” (International Beverages Tashkent), “Haribo”, “Red Bull”, O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati korxonalari bilan unumli hamkorlik qilib kelmoqda.

Tayanch iboralar:

Logistika markazi, transport-logistika xizmatlari, transport-ekspeditsiya xizmatlari, sertifikat, erkin iqtisodiy hududlar.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. Bugungi kunga kelib O‘zbekistonda EIHLar va milliy iqtisodiyot rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan logistik markazlar tashkil etilgan bo‘lib, ular faoliyati yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Logistik markazlar logistika infratuzilmasi shakllangan tizimda faoliyat ko‘rsatuvchi bridik shaxs bo‘lib, u davlat yoki xususiy investitsiyalar hisobidan tashkil etilishi mumkin.

2. O‘zbekistonda logistika markazlari tegishli me‘yoriy hujjatlar asosida tashkil etilib, ular orasida “Angren”, “Pop”, “Termiz” kabi logistika markazlari barpo etilganligini, shuningdek, ko‘plab xususiy logistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyati ham yo‘lga qo‘yilganligini qayd etish mumkin.

3. O‘zbekistonda logistika markazlari imkoniyatlari juda katta bo‘lib, lekin, ularni to‘la ishga solish salohiyatiga to‘laligicha ega emaslar. Bu esa logistika markazlarini yanada rivojlantirish va ushbu bozorda ham erkin raqobat tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro logistika ko‘rsatkichlaridagi reytingini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlar rivojida logistika markazlarining ahamiyati nimalardan iborat?
2. O‘zbekistonda logistika markazlarini shakllantirishga bo‘lgan e‘tibor va yondashuv haqida nimalarni bilasiz?
3. O‘zbekistonning qaysi huddularida logistika markazlari tashkil etilgan va ularning faoliyatiga qanday baho berasiz?
4. Logistika xizmatlarini ko‘rsatishda logistika markazlari qanday vazifalarni bajaradi?
5. “Angren” logistika markaziga tavsif bering va uni yanada rivojlantirish bo‘yicha taqday takliflar bera olasiz?
6. “Pop” multimodal logistika markazining tashkil etilishi, ahamiyati va uning infratuzilmasi haqida nimalarni bilasiz?

5.5. O‘zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish va undagi imtiyozlar

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda transport va logistika sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Buni quyida keltirilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi misolida ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrda PQ-1446-sonli Qaroriga muvofiq, “2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida”gi Dastur qabul qilindi. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad – ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarining respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarini istiqbolda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan dasturlar bilan uzviy bog‘liq xolda ildam rivojlanishini ta‘minlashdan iborat. Mazkur dasturdan jami 85 ta loyiha o‘rin olgan bo‘lib, ularning ijrosi natijasida 14394 ta yangi ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan edi (5.6-jadval).

5.6-jadval.

2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari⁵⁹

Yo‘nalish nomi	Loyiha qiymati, mln. AQSh dollari	Loyiha soni
Dasturning umumiy qiymati	8503,0	85 ta
<i>shu jumladan,</i>		
Avtotransport tizimi	3544,0	11 ta
Temir yo‘l transporti tizimi	2146,6	14 ta
Havo yo‘l transporti tizimi	993,7	14 ta
Injenerlik-kommunikatsiyasi va	1794,7	44 ta

⁵⁹ Djumaniyazov Sh.R., Umarov Q.E. Ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni takomillashtirish yo‘llari. // www.bdm.uz.

telekoomunakitsiya tizimi		
Shahar elektrotransporti parkini yangilash	24	2 ta

Ta'kidlash lozimki, mamlakat itisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda tayanch nuqtalardan hisoblangan erkin iqtisodiy hududlar (EIH) ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlashtirishda alohida o'ringa ega.

Jumladan, mamlakatimizning Navoiy viloyatida tashkil etilgan "Navoiy" EIIZ va uning tranzit va transport-logistika xizmatlarini yo'lga qo'yish barobarida ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan avtomagistral, yuk tashish terminallarida qator ishlar olib borildi. Navoiy shahridan 3,5 kilometr uzoqlikda Navoiy xalqaro eroporti joylashgan bo'lib, uning xizmatlaridan "Korean Eyr" va "Moskoviya" (Rossiya) kabi xalqaro yuktashuvchi kompaniyalar foydalanadi. Xozirgi kunda ushbu aeroport bazasida xalqaro intermodal logistika markazi faoliyat yuritmoqda. Navoiy xalqaro aeroporti O'zbekiston Respublikasining geografik markazida joylashgani bois tashqi savdo yuk tashuvlarini optimallashtirish va yuklarga qayta ishlov berish, tashqi savdoning transport xarajatlarini kamaytirishda xal qiluvchi ahamiyat kasb etmokda. Bundan tashkari, 2007 yilda ishga tushirilgan Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li Navoiy shahri temir yo'l raz'ezdiga yaqin bo'lib, janubiy yo'nalish bo'yicha Afg'oniston, Pokiston, Hindistonga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkonini beradi. EIIZning bevosita "E-40" avtomobil magistraliga yaqinligi eng qisqa yo'l bilan Yevropa va Xitoyga chiqish imkonini beradi. Shuningdek, bu erdan o'tadigan temir yo'llar orqali Markaziy Osiyo, MDH, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va Fors ko'rfazi bozorlariga kirish imkonini yaratib berdi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlanishining uzluksizligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi Qarori asosida 2015-2019 yillarda "O'zbek milliy avtomagistrali" tarkibiga kiruvchi respublikadagi avtomobil yo'llari qismlari va umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda yo'l tashkilotlarining ishlab chiqarish bazalarini texnik rivojlantirish chora-tadbirlarining manzilli ro'yxati tasdiqlandi (5.7-jadval).

5.7-jadval.

Respublikadagi avtomobil yo‘llari qismlari va umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda yo‘l tashkilotlarining ishlab chiqarish bazalarini texnik rivojlantirish chora-tadbirlari⁶⁰

Yo‘nalish nomi	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.
Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan umumiy hisobda 1 227,8 km uzunlikdagi avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarni qurish va rekonstruksiya qilish (km. hisobida)	204,6	257,8	213,5	277,9	274,0
Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan avtomobil yo‘llari qismlarini va undagi transport yechimlari, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarning 1 172,5 km qismida qurilish va rekonstruksiya ishlarini olib borish (km. hisobida)	156,5	191,0	258,0	303,0	264,0
Respublika yo‘l jamg‘armasi va Jahon banki mablag‘lari hisobidan ham 299,5 km uzunlikdagi yo‘llarda qurish va rekonstruksiya qilish ishlari belgilab berilgan bo‘lib, bu miqdorni yillar kesimida quyidagicha amalga oshirish (km. hisobida)	15,2	64,1	90,3	71,9	58,0

Iqtisodiyot tarmoqlarida jahon bozoriga mo‘ljallangan raqobatdosh mahsulotlar eksporti hajmini oshirishda infratuzilmani rivojlantirish, erkin iqtisodiy hududlar hisobiga alohida olingan maxsus hududlar bo‘yicha infratuzilma tarmoqlari faoliyatini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasida transport va logistika sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Bu esa mazkur sohaga berilgan imtiyozlarda ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrda “2018-2021 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3422-sonli Qarorining qabul qilinganligi ham bunga misoldir.

Ushbu Qaror asosida mamlakatimizda transport va logistika sohasida faoliyat

⁶⁰ “O‘zavtoyol” DAK axborot xizmatining internet ma’lumotlari asosida tuzildi.

ko'rsatuvchi avtotashuvchilar va transport-logistika kompaniyalariga soliq va bojxona imtiyozlari berildi va hujjat 2017-yil 4-dekabrda to'la kuchga kirgan.

Qaror asosida ular – xalqaro avtotashishlarni amalga oshiradigan milliy avtotransport korxonalari, shuningdek, transport-logistika kompaniyalari 01.01.2022 yilgacha soliqning 3 turini to'lashdan ozod etildi:

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i.

Ushbu imtiyoz maqsadli hisoblanadi – bo'shaydigan mablag'lar o'z avtoparkini kengaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy ombor terminallarini barpo etish va bank kreditlarini so'ndirishga yo'naltiriladi.

Ko'rsatilgan tadbirkorlik subyektlari xuddi shu muddatga O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, transport-logistika xizmatlari ko'rsatish uchun mo'ljallangan, belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan ombor asbob-uskunalari, ortish va tushirish texnikasi, agregatlar, ehtiyot qismlar va boshqa tovarlar uchun bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvidan tashqari) ozod etildi.

Xalqaro avtotashishlar uchun litsenziya bilan shaharlar o'rtasida tashishlarga ham ruxsat berildi.

O'rnatilishicha, avtotransport korxonalari xalqaro qatnovlarda yuklarni tashish uchun litsenziya bilan shaharlararo qatnovlarda ham yuklarni tashishga haqli.

Imtiyozli kreditlar.

Banklarga ishlab chiqarilgan sanasidan boshlab 3 yildan ko'p vaqt o'tmagan, yuklarni tashish va taxlash uchun transport vositalari, maxsus texnika, shuningdek, transport-logistika xizmatlari ko'rsatish uchun mo'ljallangan boshqa tovarlarni sotib olish uchun kreditlar ajratish tavsiya etildi. Ushbu kreditlar bo'yicha foiz stavkasi MBning qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmaydi. Imtiyozli davr esa 1 yilgacha muddatni tashkil etadi.

Bunda ishlab chiqarilgan sanasidan boshlab 3 yildan ko'p vaqt o'tmagan transport vositalari kontraktida ko'rsatilgan 100 foiz qiymati bo'yicha ushbu kreditlar bo'yicha garov sifatida qabul qilinadi.

Lizing kompaniyalari uchun esa banklar mamlakatimizda va xorijda ishlab chiqarilgan zamonaviy yuk avtotransporti va tirkama texnikasini sotib olish bo'yicha bitimlarni moliyalashtirish uchun resurslar (MBning qayta moliyalashtirish stavkasi bo'yicha) ajratadi.

Muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini modernizatsiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida milliy logistik infratuzilmani xalqaro standartlarga moslash va bu orqali nafaqat ichki bozorda balki, jahon bozorlarida maxsulotlarimizning erkin harakatini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

O'zbekiston bir necha asrlar davomida Yevropa va Osiyoni tutashtirib turgan savdo sotiqlik yo'lining markazida joylashgan. Ammo XVI-XVII asrlarda dengiz transportining rivojlanishi "Buyuk ipak yo'li"ning ahamiyati pasayishiga sabab bo'ldi. XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib Xitoy, Hindiston va Janubiy Koreya

kabi Osiyo davlatlarining rivojlanishi va ularning jahon bozoriga kirib borishi yangi zamonaviy Buyuk ipak yo'liga bo'lgan talabni ortishiga olib kelmoqda. O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining qoq markazida joylashgan bo'lib, G'arb va Sharq, Janub va Shimol tomondan Yevropa va Osiyoni bog'lovchi qisqa koridor yo'llariga ega.

O'zbekistonga jahonda yirik hisoblangan 5 ta MDH, Markaziy Osiyo va Afg'oniston, Yaqin Sharq, Sharqiy Osiyo, Janubiy-Sharqiy va Janubiy Osiyo bozorlariga geografik jihatidan yaqin masofada va ularning o'rtasida joylashgan hisoblanadi. Bu esa O'zbekistonda bu bozorlarni tutashtiruvchi tranzit yo'llarni barpo qilish va mavjudlarini qayta rekonstruksiya qilish O'zbekistonda logistikaning rivojlanishiga asosiy manbasi hisoblanadi.

Logistika bugunga kelib iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning asosiy biznes jarayonlariga aylanib ketgan. Logistika tizimi butun yalpi ichki maxsulotning 20-25 % ulushiga ega hisoblanadi va bu tizimdagi 1 % lik yo'qotish ishlab chiqarishning 10 % ga qisqarishiga olib keladi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyatini kengayib borishi bilan xalqaro logistik markazlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ularning o'rni va ahamiyati ortib bordi. O'zbekiston logistikasi mustaqillik davrlaridan oldin faqatgina ichki bozor imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'lsa, istiqloq davrlarida uning tarkibiy jihatdan kengaytirib-takomillashtirilib kelinmoqda. Qisqa davr moboynda logistik infratuzilmaning o'ziga xos rivojlanish yo'llari ham shakllantirildi.

Logistika qo'llanilishi yuqori darajadali mamlakatimizda tova-pul munosabatlarining kengayishi va jadallashuvi, korxonalar o'rtasida xo'jalik aloqalarining oshishi, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi hamda korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik mustaqilligining kengayishi bilan bog'liq.

O'zbekistonda logistikaning rivojlanishi dastlab gorizontal rivojlanish xususiyatini kasb etib ichki bozor imkoniyatlari darajasida rivojlandi. Uning asosini korxonalar bir-biri bilan o'zaro munosabatlarga xizmat ko'rsatish jarayonida tovar etkazish sifatini oshirishda va mahsulotni eng kam xarajatlar bilan yetkazib borishda namoyon qildi. Keyingi rivojlanish bosqichi mahsulotlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning mustahkam usuli bo'lib sifatida logistika imkoniyatlaridan foydalanish kengayib bordi.

Mamlakatimizda logistik xizmatlar xilma-xilligi bu tarmoq tashkilotlarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini bermoqda. Logistikaning rivojlanishi avvalombor, avtomobil va temir yo'llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarini kamaytirishning muhim sharti va omilidir.

Logistikaning rivojlanishi va uning tarkibiy jihatdan samaradorligini oshib borishida transportning roli beqiyos. Transport har qanday mintaqada ishlab chiqarish infrastrukturasi muhim mezon va iqtisodiy imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Har qanday logistik tizimni yoki logistik markazlarni transportsiz samarali va oqilona rivojlantirish mumkin emas. Sanoat va qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazib berishda transport faol ishtirok etadi va bu jarayon logistik imkoniyatlardan samarali oqilona foydalanishga bo'lgan talabni rag'batlantiradi. Respublikamizning uzoq qishloqlari va viloyat markazlarida bugunga kelib

ixtisoslashgan transport tashuvlari ham keng rivojlanmoqda. Transportning rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlari va texnik taraqqiyotining umumiy rivojlanish darajasiga bogʻliq. Oʻzbekiston qudratli (temiryul, avto, aviya, quvur va daryo) transport tizimlariga ega.

Logistik infratuzilmani rivojlanishi mamlakatimizda yuk aylanish hajmiga mutanosib rivojlanish xarakteriga ega. Oʻzbekiston respublikasida jami yuk tashuvlari 2005-yilda 281,4 mln.tonnani tashkil etgan boʻlsa, 2017-yilda bu koʻrsatkich qariyb 1174,0 mln.tonnaga, yaʼni 4,2 martaga oʻsganligini alohida taʼkidlab oʻtish lozim (5.8-jadval).

2017-yil yanvar-dekabr oylarida transportning barcha turlari tomonidan 1174,0 mln.t yuklar tashildi, bu 2016-yil yanvar-dekabrga nisbatan 103,7 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga, yuk aylanmasi 66,9 mlrd. t/km.ni tashkil etib, 2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan 2,5 % ga oʻsdi.

5.8-jadval.

Oʻzbekistonda umumfoydalaniladigan transport turlari boʻyicha yuk joʻnatish, mln. tonna⁶¹

Koʻrsatkichlar	2005 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2017 yil
Barcha transport da	281,4	422,9	449,8	479,7	500,6	521,7	1174,0
<i>Shundan:</i>							
Temir yoʻl transportida	45,8	56,9	59,2	61,5	63,7	65,7	68,0
Quvir yoʻli transportida	39,2	42	40	39,8	38,4	36,8	65,1
Avtomobil transportida	196,4	324,0	350,7	379,1	398,5	419,1	1040,9
Havo transportida (ming tonna)	6,2	29,5	30,7	24,0	22	23	27,2

Quyidagi 5.9-jdvalda esa mazkur davrdagi umumiy yuk aylanmasi amofasi toʻgʻrisidagi maʼulmotlar keltirilgan. Unga koʻra, yuk aylanmasi masofasi havo transportida eng yuqori oʻsishni, temir yoʻl transportida esa eng kichik oʻsishni qayd etgan.

2017-yilda jami yuk tashish hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transporti – 88,7 % egallaydi, boshqa transport turlarida yuk tashish ulushi 11,3 %ga toʻgʻri keladi.

Bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, kichik sanoat zonalarini yaratish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turistik faoliyatni rivojlantirish transport xizmatlariga boʻlgan talabning ortishiga va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari 56,7

⁶¹ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tuzildi.

% bilan ustunlik qilmoqda. Bu transportning xarakatchanligi hamda havo va temir yo‘l transporti bilan solishtirganda xizmatlar narxining nisbatan arzonligi bilan izohlanadi.

5.9-jadval.

Transport turlari bo‘yicha yuk aylanmasi⁶²

Ko‘rsatkichlar	2017-yil yanvar-dekabr	2016-yil yanvar-dekabrga nisbatan % da
Transport yuk aylanmasi, mln. t/km	66934,4	102,5
<i>Shundan:</i>		
- temir yo‘l transporti	22949,8	100,1
- avtomobil transporti	13628,8	102,5
- havo transporti, ming t.	156,9	118,7
- quvur transporti	30198,8	104,5

O‘zbekistonda temir yo‘l transport tizimini yanada rivojlantirish borasida mustaqillik yillarida bir qator loyihalar amalga oshirildi, jumladan, “Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on” yangi yo‘l liniyasida Yaponiya kapitali ishtirokida 5 ta ko‘prik foydalanishga topshirildi. Uzunligi 223 km. bo‘lgan mazkur temir yo‘l dengiz sathidan 1500 metr balandlikda tog‘ davon yo‘llaridan o‘tkazildi. Bu temir yo‘lning qurilishi janubiy mintaqalarni rivojlantirishda, ularning tabiiy resurslarini o‘zlashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim shart-sharoitlardan biri bo‘ldi. Amudaryo ustidan ko‘prik bilan orqali tortilgan 600 km.lik “Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog‘-Nukus” temir yo‘l liniyasining 6 ta yangi raz‘ezdi ishga tushirildi. 1993-yilda Vazirlar Mahkamasining “Temir yo‘llarni elektrlashtirish bo‘yicha bosh Dastur” qabul qilindi. Mazkur dastur doirasida Jizzax-Jomboy, Jizzax-Samarqand-Buxoro liniyalari elektrlashtirildi. Hozirga kelib 700 km.lik yo‘l elektrlashtirilgan.

Mamlakatimizda logistik infratuzilmani shakllantirishda “Angren – Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasini qurilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur loyihaga ko‘ra, “Angren – Pop” temir yo‘lini qurish “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik temir yo‘llari kompaniyasining o‘z va jalb qilingan mablag‘lari hisobidan amalga oshirildi.

Loyihani amalga oshirilishi Tojikiston Respublikasi orqali Farg‘ona vodiysi viloyatlariga olib boradigan monopol yo‘lakka barham beradi. Bu o‘z navbatida vodiy viloyatlari bilan temir yo‘l logistikasining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

O‘zbekistonda logistikani rivojlantirishda quyidagi eng muhim vazifalarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, mamlakatimiz logistikasini rivojlantirish darajasini xalqaro me‘yoriy standartlarga imkon qadar yaqinlashtirish o‘ta muhim vazifa sifatida

⁶² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

qo'yilishi lozim. Bunda asosan, axborot texnologiyalari negizida logistikani rivojlantirish va uning o'zgarishlarini boshqarish borasida yaxlit strategik tizimga ya'ni klasterlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mamlakatimizda logistikani integratsiyali rivojlantirish tizimlarini joriy etishdagi asosiy ijobiy samaralar hududiy va mintaqaviy kelishuvlarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqarish klasterlari va erkin iqtisodiy hududlarni bog'lashda aks etadi, bu zamonaviy sanoat majmualarini, erkin iqtisodiy zonalarni yaratish imkonini beradi. Istiqbolda esa xalqaro talablarga mos yangi raqobatbardoshlik omillari, transport yo'laklari, transport-logistika klasterlari ham keng rivojlanadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston xalqaro logistik platformasini innovatsion modelini shakllantirish lozim. Bu o'z navbatida qo'shimcha qiymat yaratish, savdo va investitsiyalar hajmini oshishi ko'rinishidagi uzoq muddatli foydaga biznes jarayonlarini puxta integratsiyalash asosidagina erishish mumkinligini anglatadi. Logistik platformalarning innovatsion modellarini shakllanishi tashuvlarda xatoliklarning oldini olish, korxonalar, mintaqa va mamlakatlarga iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Uchinchidan, logistika tizimining kadrlar salohiyatini yanada oshirib borishi, logistik tizimlarni axborotlashtirish, klasterlash, hamda ichki logistik platformani (terminallar, ombor xo'jaligi)larning o'zaro integratsiyasini yanada samaradorligini oshirish lozim deb hisoblaymiz.

Turtinchidan, samarasiz raqobatni maqbullashtirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, vazifalarni taqsimlash, mijozlar, yuklar bazasini kengaytirish, geografik yuklash faoliyatini kengaytirish imkonini beradi, bu esa jahon bozorlarida O'zbekiston nufuzini oshirish imkoniyatini belgilab beradi.

Beshinchidan, logistik o'zaro ta'sir bo'yicha samarali amaliyotlarni tanlash, logistikada murakkab va aralash kasbiy vakolatlar ishlab chiqish va o'zlashtirish hisobiga kuchli sinergetika samarasiga erishish imkonini beradi. Shu tariqa, innovatsion logistik tizimni shakllantirish natijalari quyidagilarni amalga oshirish imkoniyatini yaratib beradi:

- multi va intermodal logistikani muvofiqlashtiradi va birlashtiradi (temir yo'l, avtomobil, havo tashuvlari kombinatsiyasi);

- transport va ombor logistikasini birlashtiradi (kichik tovarli yuklarni birlashtirish va mijozlar bazasini kengaytirish);

- tranzit transqit'a tashuvlari logistikasini integratsiyalaydi;

- elektron hujjat aylanishi, O'zbekistonning boshqa mamlakatlar bilan bojxona xizmatlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solish orqali mamlakatimizga boshqa davlatlar orqali tranzit kirib kelishi mumkin bo'lgan import mahsulotlarini cheklash orqali iste'mol tovarlari bozoridagi narxlar mo'tadilligiga erishiladi.

Tayanch iboralar:

Transport va logistika sohasi, kommunikatsiya, ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi, erkin iqtisodiy hududlar, tarmoq, raqobat.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. O'zbekistonda so'nggi yillarda transport va logistika sohasini rivojlantirish borasida bir qator amaliy va samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2011-2015 va 2015-2019 yillarga mo'ljallangan mazkur sohani rivojlantirishga oid davlat dasturlari qabul qilinib, hozirda navbatdagi dasturning yakunlanishiga erishilishi ko'plab imkoniyatlarni taqdim etishda muhim o'rin egallaydi. Bu esa EIHlar rivoji uchun ham juda muhimdir.

2. O'zbekistonda ishlab chiqarish bilan birga muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirishga davlat darajasida e'tibor qaratib kelinishi natijasida mazkur sohaning rivojlanishida qo'lga kiritilgan yutuqlar tobora ortib bormoqda. Shuning bilan birga, sohada hali hal etilishi lozim bo'gan muammolar ham o'z yechimini kutmoqda.

3. O'zbekistonda 2018-2021 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash asosida xalqaro tashuvni rivojlantirish maqsadida unga xizmat qiluvchi transport-logistika kompaniyalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida ular 01.01.2022 yilgacha soliqning QQS, mol-mulk va yer solig'ini to'lashdan ozod etildi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekistonda so'nggi yillarda transport va logistika sohasini rivojlantirish borasida qanday ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda?

2. O'zbekistonda 2018-2021 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va xalqaro tashuvni rivojlantirish maqsadida unga xizmat qiluvchi transport-logistika kompaniyalariga qanday imtiyozlar taqdim etildi?

3. O'zbekistonda so'nggi yillarda transport va logistika xizmatlarini ko'rsatish natijasida yuklarni tashkil hajmi, miqdori (aylanmasi) bo'yicha qanday ko'rsatkichlar qayd etilmoqda?

4. O'zbekistonda transport va logistika xizmatlarini ko'rsatishdagi qulaylik va salbiy tomonlari, sizningcha, nimalardan iborat?

5. O'zbekistonda transport va logistika xizmatlarini ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish qanday natijalarga olib keladi?

6. Mamlakatimizda logistikani integratsiyali rivojlantirish tizimlarini joriy etishdagi asosiy ijobiy samaralar haqidagi fikringiz qanday?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Абдурахманов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабаев Ш.Х. Региональная экономика и управление. – Т.: 2007. – С. 739.

2. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.

3. Говорин А.А. Инфраструктура современного предпринимательства: проблемы теории и практики. – М.: ЗАО "Финстатпром", 1999.

4. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.

5. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особые экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.

6. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.

7. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.

8. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особые экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.

6-bob. ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA BOJXONA RASMIYLASHTIRUVINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

6.1. Erkin iqtisodiy hududlarda bojxona ishi va uni tashkil etish

EIHda bojxona ishi O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi asosida yuritiladi. Bojxona ishi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan (eksport-import) shug‘ullanuvchi tadbirkorlar o‘rtasida yuzaga keladigan bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati bilan bog‘liq munosabatlarni o‘zida aks etiradi. Ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o‘tish, bojxona to‘lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish tartibini belgilash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Bojxona ishida bojxona organi bojxona deklaratsiyasini va boshqa hujjatlarni qabul qilib olgan kuni amalda bo‘lgan qonun hujjatlari qo‘llaniladi. Bunda bojxona ishida asosiy vazifa bojxona organlari zimmasiga yuklatiladi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrda qabul qilingan “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonunining 3-moddasida bojxona organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratligi belgilab qo‘yilgan:


- jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- o‘z vakolati doirasida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash;
- bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish;
- bojxona to‘lovlarini undirish;
- bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonun hujjatlari buzilishlarining, shu jumladan, kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish;
- tashqi savdo operatsiyalarining monitoringini amalga oshirish, eksport-import shartnomalarining ijrosini tahlil qilish, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalarining bojxona organlariga taalluqli qismini o‘tkazishda valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etish;
- tovarlarning tashqi savdosiga doir bojxona statistikasini hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini yuritish;
- fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
- xavfni boshqarish tizimi qo‘llanilishi samaradorligining muntazam monitoringini amalga oshirish;
- bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va nazoratning texnik vositalarini qo‘llash;

- bojxona ishini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlarini ishlab chiqish;

- Oʻzbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga taalluqli qismidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini taʼminlash.

Bojxona organlari faoliyatining asosiy tamoyillari qonuniylik, yagonalik, ochiqlik va shaffoflik, jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarini hurmat qilishdan iboratdir.

EIHLarda bojxona rasmiylashtiruv ishleri bojxona organlarining qonuniy huquqlari doirasida bajaradigan funksiyalari quyidagi rasmda keltirilgan.



6.1-rasm. Bojxona organlarining asosiy funksiyalari

EIHLarda bojxona rasmiylashtiruv ishleri bojxona organlarining qonuniy huquqlari doirasida bajaradigan funksiyalari asosida amalga oshiriladi. Bunda ularning huquqlari boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

- bojxona nazoratini amalga oshirish uchun maʼlumotlar va hujjatlarni tekshirish, ogʻzaki soʻrov oʻtkazish, axborot olish, bojxona koʻzdan kechiruvini, bojxona koʻrigini va shaxsiy koʻrikni oʻtkazish, shuningdek, binolar, hududlar va transport vositalarini koʻzdan kechirish;

- tovarlar va transport vositalari erkin muomalaga chiqarilgandan soʻng jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlarning toʻgʻriligini hamda ularning tashqi savdo faoliyati qonuniyligini tekshirish maqsadida tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona nazoratini amalga oshirish;

- banklardan, moliya organlaridan hamda boshqa tashkilotlardan, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslardan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlgan maʼlumotlar va hujjatlarni soʻrash va olish;

- bojxona nazoratini oʻtkazish maqsadida tovarlar hamda boshqa buyumlardan namunalar va nusxalar olish;

- bojxonaga oid huquqbuzarliklarning bevosita predmeti boʻlgan tovarlar va boshqa qimmatliklarni ushlab turish hamda olib qoʻyish;

- tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

- huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni maʼmuriy yoʻl bilan ushlab turishni amalga oshirish;

- maxsus ruxsatnomalar va litsenziyalar berish;


-bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va nazoratning texnik vositalaridan foydalanish;

- bojxona toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash maqsadida mutaxassisni yoki ekspertni jalb etish;

- bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish boʻyicha takliflar kiritish.

Bojxona organlari:

- bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;
- bojxona to'lovlari to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;
- bojxona nazoratini tashkil etishi;
- tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tish chog'ida jismoniy va yuridik shaxslarni ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilishi;
- o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etmasligi;
- huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga imkon yaratgan sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko'rish;
- bojxona organlarida korrupsiya va boshqa mansabdorlik jinoyatlari sodir etilishining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishi;
- davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda axborot xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlashi shart.



6.2-rasm. Bojxona organlari faoliyatini boshqarishning optimal darajasini aniqlash masalalari

Bojxona organlari tomonidan EIHLarda tovar va xomashyolar importi-eksporti bo'yicha bojxona rasmiylashtiruvi mazkur qonun asosida amalga oshiriladi hamda davlat bojxona siyosatining samarali ijrosini ta'minlashga qaratiladi. EIHLarda investitsiyalash, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy aloqalar, soliq va bojxona boji to'lovlari masalasida o'ziga xos yondashuv mavjudligi sababli ularda bojxona rasmiylashtiruvi belgilangan tartibda, lekin, bojxona siyosati mazmuni va samarali

ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda amalga oshiriladi.

Bojxona ishi va rasmiylashtiruvchida Bojxona kodeksining 4-moddasida keltirilganidek, agarda shunday holat yuzaga kelsa, ya'ni bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining foydasiga talqin qilinadi.

EIHLarda bojxona rasmiylashtiruvi bojxona maqsadlariga muvofiqlikda amalga oshiriladi. Bojxona maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, tovarlarni tashish, saqlash va qayta ishlashda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;

- bojxona to'lovlari o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishini ta'minlash;

- iqtisodiy siyosat choralari, bojxona rejimlarining talablari va shartlariga rioya etilishini ta'minlash;

- bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hollariga chek qo'yish va ularning oldini olish.

Bojxona rasmiylashtiruvi va nazorati bilan bog'liq munosabatlarda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

- bojxona brokeri – bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni deklarantning yoki vakolatli shaxsning topshirig'iga binoan va uning nomidan shartnoma asosida amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi;

- bojxona ishi – iqtisodiy, tartibga solish va huquqni muhofaza qilish maqsadlariga erishishga qaratilgan, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydigan usullar va vositalar majmui;

- bojxona hamrohligida kuzatib borish – avtotransport vositalarining bojxona organlari tomonidan bojxona nazorati ostida kuzatib borilishi;

- bojxona operatsiyasi – tovarlarning va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvida tovarlarga va transport vositalariga nisbatan bojxona organlarining mansabdor shaxsi va vakolatli shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat;

- bojxona rejimi – bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui;

- bojxona tartib-taomili – bojxona maqsadlari uchun amalga oshiriladigan bojxona operatsiyalarining majmui;

- deklarant – tovarlarni va transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi shaxs yohud uning nomidan tovarlar va transport vositalari deklaratsiyalanayotgan shaxs;

- deklaratsiyalash – bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni bojxona organlariga ma'lum qilish;

- iqtisodiy siyosat choralari – tovarlarni va transport vositalarini bojxona hududiga olib kirishga va ushbu hududdan olib chiqishga doir cheklovlar bo'lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solishning boshqa chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi;

- tashuvchi – bojxona nazorati ostida turgan tovarlar tashilishini amalga oshiruvchi yoki transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul shaxs;

- tovar turkumi – bitta oluvchining manziliga bitta transport hujjati bo'yicha kelayotgan yoki bitta pochta yuk xati bilan jo'natilayotgan yohud bojxona chegarasi orqali o'tayotgan bitta jismoniy shaxsning qo'l yukida va bagajida olib o'tilayotgan tovar yoki uning bir qismi;

- tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish – tovarlarni va transport vositalarini bojxona hududiga olib kirish yohud ushbu hududdan olib chiqish;

- tovarlarning erkin muomalasi – bojxona hududida tovarlarning belgilangan taqiqlar va cheklovlarsiz aylanishi;

- tovarni chiqarib yuborish – bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvini yakunlovchi va ma'lum qilingan bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqqanholda tovarlardan foydalanishga va ularni tasarruf etishga ruxsat berilganligini ifodalovchi harakati;

- yuk operatsiyalari – bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni va transport vositalarini tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ularning buzilgan o'rovlarini to'g'rilash, ularni o'rash, qayta o'rash va tashish uchun qabul qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (bojxona organlarining axborot tizimi) – bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarning va transport vositalarining bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ularga doir hujjatlar va ma'lumotlarning kiritilishini, hisobga olinishini hamda monitoring qilinishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining avtomatlashtirilgan tizimi.

Tayanch iboralar:

Boj, bojxona ishi, bojxona organi, Bojxona qo'mitasi, erkin iqtisodiy hududlar, xalqaro shartnoma, eksport, import, bojxona nazorati, bojxona rasmiylashtiruv, tashqi savdo.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHlari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda boshxona ishi muhim o'rin egallaydi. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda faol qatnashuvchi EIHlar bojxona nazorati va rasmiylashtiruv munosabatlariga tortiladi. Bu EIHlarda eksport-import operatsiyalarining bajarilishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

2. O'zbekistonda EIHlarda bojxona ishini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu esa bojxona ishini tashkil etishda asosiy o'rinni amalga oshiruvchi davlat bojxona xizmati, soliq qonunchiligi, tashqi iqtisodiy faoliyat va boshqa qonun hujjatlariga ham amal qilinishi talab etiladi.

3. Bojxona organlarining bojxona nazorati, rasmiylashtiruv va to'lovlarni undirish bilan bog'liq faoliyati ularning fiskal, taqsimlash va rag'batlantirish funksiyalari asosida amalga oshiriladi. EIHlarda bojxona nazorati va rasmiylashtiruv bojxona maqsadlariga muvofiq holda amalga oshiriladi. Bu esa bojxona rejimlariga

amal qilish va bojxona majburiyatlarini bajarish mas'uliyatini keltirib chiqaradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda bojxona ishini tshkil etish va amalga oshirishda yuqori turuvchi organ Davlat bojxona qo'mitasi hisoblanadi.


Nazorat uchun savollar:

1. EIHlarda bojxona ishi qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Bojxona ishi deganda nimani tushunasiz?
3. Bojxona ishida qanday operatsiyalar amalga oshiriladi?
4. Bojxona maqsadlari nimalardan iborat va uning ta'minlanishida bojxona munosabatlari ishtirokchilarining asosiy funksiyalari haqida nimalarni bilasiz?
5. EIHlarda bojxona ishi qanday qonun hujjatlari asosida tashkil etiladi va nazorat qilinadi?
6. Bojxona organlarining asosiy vazifalari va funksiyalarni bilasiz?

6.2. Erkin iqtisodiy hududlarda bojxona rasmiylashtiruvi va uning tartibi

Erkin iqtisodiy hududlarda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, Davlat budjetiga bojxona to'lovlari o'tkazish bojxona organlarining iqtisodiy faoliyatlaridan hisoblanadi (6.3-rasm).

EIHlarda ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo'lgan qiymatliklar, aktivlarni import qilishda ularning bojxona rasmiylashtiruvi qoidalariga muvofiq markirovka qilinishi amaldagi qonunchilikka ko'ra amal qilinishi talab etiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-fevraldagi "Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish va bojxonada rasmiylashtirish Qoidalari to'g'risida"gi 22-sonli Qarorida tasdiqlangan 1-ildavga muvofiq bajarilishi zarurdir.



6.3-rasm. Bojxona organlari iqtisodiy faoliyatining ko'rsatkichlari

Mazkur Qaror asosida tasdiqlangan umumiy qoidalar "Iste'molchilarning

huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 29-yanvardagi "Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini yanada oshirish va tovarlarni respublikaga noqonuniy olib kirishga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida"GI PQ-1913-sonli Qaroriga muvofiq ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish va bojxonada rasmiylashtirish shartlarini belgilaydi.

2. Ushbu Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- birka – og'irligini, borish joyini, tayyorlanishini, tarkibini, egasini yoki boshqa ma'lumotlarni belgilash uchun tovarni ishlab chiqarish vaqtida qo'yiladigan yozuv yozilgan (qog'oz, yog'och, karton, charm, metall va boshqalardan tayyorlangan) plastinka;

- leybl – ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan ip yoki tasma yordamida tovarga mahkamlanadigan, yozuv yozilgan yorliq;

- markirovka – import qilinadigan tovarning iste'mol upakovkasidagi va (yoki) idishdagi matn, rasmlar yoki ma'lumot beruvchi belgilar;

- stiker – etiketka yoki upakovkaga kirmagan qo'shimcha ma'lumotlarni joylashtirish uchun xizmat qiladigan maxsus elim qatlamli etiketka;

- idish – o'zida mahsulotni joylashtirish uchun buyumni ifodalaydigan upakovkaning asosiy elementi;

- transport idishi – mustaqil transport birligini hosil qiluvchi idish;

- upakovka – mahsulotni shikastlanish va nobudgarchilikdan, atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilishni ta'minlaydigan vosita yoki vositalar majmui, shuningdek, mahsulotning aylanish jarayoni;

- iste'mol upakovkasi – transport idishi funksiyasini bajarmaydigan, iste'molchiga mahsulot bilan birgalikda tushgan idish;

- etiketka – tovarni ishlab chiqarishda ishlab chiqaruvchi korxonaning savdo markasi, nomi, ishlab chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati va (yoki) tovar to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar ko'rsatilgan holda unga yopishtirilgan chizmalı va matnli belgi;

- formulyar, pasport – tovar to'g'risidagi ma'lumotlar yoziladigan varaq (daftar).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-maydagi "O'zbekiston Respublikasiga iste'mol tovarlari olib kirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 127-sonli Qaroriga 1-ilovaga kiritilgan hamda tovarning bir qismi bo'lgan va uning qiymatga kiruvchi iste'mol upakovkasida bevosita chakana savdoga tushadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart. Iste'molda bo'lgan tovarlarni markirovka qilish ushbu Qoidalarga muvofiq umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Quyidagilar:

- yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyati uchun mo'ljallanmagan tovarlar;

- xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik va konsullik

vakolatxonalari, xalqaro va hukumatlararo tashkilotlar, xorijiy davlatlarning ushbu tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalari va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan rasmiy tarzda (xizmat doirasida) foydalanish uchun, shuningdek, ularning xodimlari uchun olib kiriladigan tovarlar;

- ko'rgazma namunalari, sinash, tadbiq etish va marketing uchun namunalar sifatidagi tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida majburiy markirovka qilinmaydi.

Davlat tilidagi markirovkaning mahsulotga standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditatsiya qilingan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat tilidagi markirovka ushbu Qoidalarga muvofiq iste'molchi uchun to'liq va ishonchli bo'lishi kerak.

Tovarning asosiy iste'mol xususiyatlari va tavsifi, shuningdek, ishlab chiqaruvchi korxonaning markirovkasidagi boshqa ma'lumotlar ushbu Qoidalarga muvofiq markirovkada davlat tilida ko'rsatilishi kerak.

Quyidagilarga:

- davlat tilidagi markirovkaga ishlab chiqaruvchi korxonaning boshqa tillardagi markirovkasida mavjud bo'lmagan qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishiga;

- davlat tilidagi markirovkada bayon qilingan ma'lumotlarning boshqa tillardagi ishlab chiqaruvchi korxonaning markirovkasiga muvofiqligini tahlil qilish imkonini bermaydigan ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'yilgan markirovka yuzasiga tovarning upakovkasiga stikerni yelimplash usuli bilan tovarni davlat tilida markirovka qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan import qilinadigan iste'mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish ushbu Qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Import qiluvchi davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan tovar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgunga qadar import qilish yuzasidan o'zi tuzadigan kontrakt shartlarida tovarni davlat tilida markirovka qilish talabini nazarda tutishi kerak.

Tovarni "erkin muomala (import) uchun chiqarish" bojxona rejimida rasmiylashtirish uni tovardagi markirovka bilan tanlab solishtirgandan keyin bojxona organlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat tilida markirovka qilinishi shart bo'lgan olib kirilgan tovarlar davlat tilida markirovka qilinmagan shaklda "erkin muomala (import) uchun chiqarish" bojxona rejimida bojxonada rasmiylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Erkin industrial (iqtisodiy) zonaga olib kiriladigan tovarlar "erkin muomala (import) uchun chiqarish" bojxona rejimida rasmiylashtirilgan hollarda davlat tilida markirovka qilinadi.

Tovarning davlat tilidagi markirovkasi matnining to'liqligi va to'g'riligi uchun import qiluvchi va sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditatsiya qilingan organlar javob beradi.

Tayanch iboralar:

Bojxona rasmiylashtiruvini, bojxona organi, markirovka, qadoqlash, import, bojxona rejimi, tovar, birka, etiketka, erkin iqtisodiy hududlar.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvini olib borish tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi va bu jarayonning qonuniyligini ta'minlashga bojxona organlari javob beradi. Shu sababdan EIHlarda import (eksport) qilinadigan tovarlarga bojxonarasmiylashtiruvini amalga oshirish belgilangag tartibda amalga oshiriladi.

2. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvida asosiy qo'llaniladigan terminlar mazmuni va ular bilan bog'liq holdagi bojxona rejimi tegishli me'yoriy hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan bo'lib, amalga oshiriladigan bojxona munosabatlarini tashkil etish va olib borish o'rnatilgan tartibdagi qoidalar asosida bajariladi.

3. Tovarlarining bojxona rasmiylashtiruvini ularning pasporti, birkasi, leybli, etiketkasi, markirovkasi, tegishli idishi va transport idishi mavjudligi hamda ular haqidagi to'liq ma'lumotlardan iborat bo'lgan holdagi qadoqlanishi belgilangan standartlarga to'liq javob berishi nazoratdan o'tkazilgan holda amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvida qanday terminlarning eng ko'p qo'llanilishini va ularning mazmunini aytib bering.

2. O'zbekiston Respublikasida tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini qanda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi?

3. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida EIHlarda tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini qanday tartiblar asosida amalga oshiriladi va ularning ahamiyati nimalardan iboratligini tushuntirib bering.

4. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvida qanday muammolar uchrashi mumkin va ularni hal etish bo'yicha qanday takliflar bera olasiz?

5. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi bojxona organlarining qanday iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlarini bilasiz?

6. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiruvchi mutaxassislardan, sizningcha, nimalar talab etiladi?

6.3. Erkin iqtisodiy hududlarda bojxona rasmiylashtiruvini asosidagi bojxona to'lovlari

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi kerak.

Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan, xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir.

Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmui bojxona rasmiylashtiruvini

hisoblanadi.

Bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirilayotganda bojxona organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan taqiqlar va cheklovlarni belgilashga haqli emas.

Bojxona kodeksining 13-moddasiga muvofiq, bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, valyuta boyliklari va boshqa qimmatli qog'ozlar, elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari, intellektual mulk obyektlari, transport vositasi tovar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovar yohud bojxona hududida erkin muomalaga chiqarilgan yoki ushbu Kodeksga muvofiq shunday maqomga ega bo'lgan tovar O'zbekiston tovaridir.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilmagan tovar, shuningdek, ushbu Kodeksga muvofiq chet el tovari maqomini olgan tovar chet el tovaridir.

Tovarlarni va yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan vosita transport vositasidir. Transport vositasi har qanday suv kemasini, havo kemasini, avtotransport vositasini, temir yo'l transport vositasini (temir yo'lning harakatdagi tarkibini, temir yo'l harakatdagi tarkibining bir qismini) yoki konteynerni, shuningdek, ularning o'z konstruksiyasiga muvofiq texnik pasportlarida yoki texnik formulalarida nazarda tutilgan ehtiyot qismlarni, anjomlarni va uskunalarni, suyuqlik saqlash idishlaridagi yoqilg'i-moylash materiallarini, sovutuvchi va boshqa xil texnik suyuqliklarni, agar ular mazkur transport vositalari bilan birga tashilayotgan bo'lsa, o'z ichiga oladi.

EIHLarda tovarlarning rasmiylashtiruvida "shartli chiqarib yuborilgan tovarlar" tushunchasi ham qo'llaniladi.

Shaxsning belgilangan talablar va shartlarga rioya etish majburiyatlariga bog'liq tarzda tovarning chiqarib yuborilishi shartli chiqarib yuborish hisoblanadi.

Quyidagilar shartli chiqarib yuborilgan tovarlar deb hisoblanadi:

a) bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar berilganligi munosabati bilan foydalanilishi va tasarruf etilishi cheklangan tovarlar;

b) boj olinmaydigan savdo, bojxona hududida qayta ishlash, vaqtincha olib kirish, bojxona tranziti bojxona rejimlariga joylashtirilgan tovarlar;

v) bojxona to'lovlari shartli bojxona qiymatini aniqlash asosida to'langan tovarlar;

g) bojxona to'lovlari davriy bojxona to'lovlari shaklida to'langan tovarlar;

d) zarur hujjatlar (bundan muvofiqlik sertifikatini va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlar mustasno) va ma'lumotlar taqdim etilmagan tovarlar;

e) bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berilgan holda erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga muvofiq rasmiylashtirilgan tovarlar.


Mazkur moddaning ikkinchi qismi "a" bandida ko'rsatib o'tilgan shartli chiqarib yuborilgan tovarlardan faqat bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar berish shartlariga muvofiq bo'lgan maqsadda foydalanilishi mumkin. Mazkur tovarlardan ular nima maqsadda shartli chiqarilgan bo'lsa, faqat o'sha maqsadda foydalanilishi lozim. Bojxona to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlar to'langan taqdirda shartli

chiqarib yuborilgan tovarlardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

Mazkur moddaning ikkinchi qismi “d” bandida ko‘rsatib o‘tilgan shartli chiqarib yuborilgan tovarlarni uchinchi shaxslarga berish, shu jumladan, ularni sotish yoki o‘zga usulda boshqa shaxsga o‘tkazish orqali berish taqiqlanadi, mazkur tovarlarni olib kirishga doir cheklovlar ushbu tovarlarning sifati va xavfsizligi tekshirilishi munosabati bilan belgilangan hollarda esa, har qanday shaklda foydalanish (ishlatish) taqiqlanadi.

Tovarlar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, shartli chiqarib yuborishning shartlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilgunigaqadar shartli chiqarilgan hisoblanadi.

Bojxona organlari faoliyatini tashkil etishda bojxona to‘lovlari muhim o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra, ularning turlarini bilish muhim ahamiyatga ega (6.4-rasm).




6.4-rasm. Bojxona organlari faoliyatini tashkil etishda bojxona to‘lovlarining turlarini aniqlash

Bojxona rasmiylashtiruvi va to‘lovlarida bojxona rejimlariga amal qilinadi. Tovarlarini bojxona chegarasi orqali olib o‘tish maqsadlariga bog‘liq holda ularning bojxona rasmiylashtiruvi bojxona rejimlarining quyidagi turlariga muvofiq amalga oshiriladi:

- 1) eksport;
- 2) reeksport;
- 3) vaqtincha olib chiqish;

- 4) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash;
- 5) erkin muomalaga chiqarish (import);
- 6) reimport;
- 7) vaqtincha olib kirish;
- 8) bojxona hududida qayta ishlash;
- 9) vaqtincha saqlash;
- 10) bojxona ombori;
- 11) erkin ombor;
- 12) erkin bojxona zonasi;
- 13) boj olinmaydigan savdo;
- 14) bojxona tranziti;
- 15) yo‘q qilish;
- 16) davlat foydasiga voz kechish.


Bojxona rasmiylashtiruvi va to‘lovlarida bojxona rejimlariga amal qilingan holda amalga oshiriladi. Bu jarayon bojxona infratuzilmasining samarali ishlashiga ko‘p jihatdan bog‘liq (6.5-rasm).



6.5-rasm. Bojxona infratuzilmasi

Bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishi uchun javobgarlik tovarni tegishli bojxona rejimiga joylashtirgan shaxsning zimmasida bo‘ladi. Tovarni tegishli bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs ularni transport vositalari tashib keltirish xarajatlarini hisobga olgan holda tovar qiymatini hisoblab chiqishi zarur.

Agarda tegishli bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar transport vositasining o‘zi bo‘lgan taqdirda ularning bojxona qiymatini quyidagi hisoblash usullari yordamida aniqlash mumkin (6.6-rasm).



6.6-rasm. Transport vositalarini bojxona qiymatini hisoblash usullari

Bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishi uchun javobgarlik tovarni tegishli bojxona rejimiga joylashtirgan shaxsning zimmasida bo‘ladi.

Vaqtincha saqlash, bojxona ombori yoki erkin ombor bojxona rejimlariga joylashtirilgan tovarlar bojxona nazoratini chetlab berilgan yoki yo‘qotilgan taqdirda javobgarlik:

- agar tovar bojxona omborida turgan bo‘lsa, bojxona ombori egasining;
- agar tovar bojxona ombori bo‘lmagan omborlarda va boshqa joylarda turgan bo‘lsa, tovarlarni mazkur joylarga bojxona ombori rejimiga joylashtirgan shaxsning;
- agar tovar erkin omborda turgan bo‘lsa, erkin ombor egasining zimmasida bo‘ladi.

Bojxona tranziti bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishi uchun tashuvchi javobgar bo‘ladi.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishi uchun boj olinmaydigan savdo do‘konining egasi javobgar bo‘ladi.

Tayanch iboralar:

Bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona chegarasi, bojxona nazorati, xavfni

boshqarish, tovar, savdo, erkin iqtisodiy hududlar, bojxona rejimi, bojxona to'lovlari, bojxona hududi, bojxona ombori.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirilishi natijasida import (eksport) qilingan tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari amalga oshiriladi. Bojxona to'lovi bojxona qiymati asosida amalga oshirilib, bu qiymat tovarga nisbatan davlat bojxona hududida shartli ravishda hisoblanadigan barcha to'lovlarni o'z ichiga oladi.

2. Tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari bojxona organlari tomonidan hisoblab chiqilgan tovar bojxon qiymati asosida amalga oshiriladi va bu to'lovlarni amalga oshirish va uning rasmiylashtiruvini bojxona rejimiga muvofiq tarzda bajariladi. Bojxona to'lovlari amalga oshirilishini bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishning bir qancha turlari mavjud va ular bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarga nisbatan tadbiiq etiladi.

3. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvini bojxona nazorati ostidan o'tkazilgan, xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan hamda qat'iy bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi. Bunda Bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirilayotganda bojxona organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan taqiqlar va cheklovlarni belgilashga haqli emas.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvini asosidagi bojxona to'lovlari qanday tartibda amalga oshiriladi?

2. EIHlarda tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlari qanday turdagi tovarlarga nisbatan qo'llaniladi?

3. EIHlarda bojxona rasmiylashtiruvini asosidagi bojxona to'lovlarni amalga oshirishda qanday tartib va shartlarga amal qilinishi lozim bo'ladi?

4. Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda nimalarga asoslaniladi?

5. Bojxona infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?

6. Bojxona to'lovlari turlarini aniqlashda qanday to'lov turlari mavjud?

6.4. Bojxona ombori va unda bojxona rejimi

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 14-bobi bojxona ombori bojxona rejimiga bag'ishlangan. Mazkur bob 90-99-moddalarni o'z ichiga oladi.

Bojxona ombori bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan va bojxona hududidan olib chiqish uchun mo'ljallangan tovar bojxona bojlari, soliqlar to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda muayyan binolarda (joylarda) bojxona nazorati ostida saqlanadi.

Bojxona ombori bojxona rejimiga har qanday tovar, shu jumladan, ilgari boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar joylashtiriladi, quyidagilar bundan mustasno:

- bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovar;
- bojxona hududidan olib chiqilishi taqiqlangan O'zbekiston tovari;
- qonun hujjatlariga muvofiq bojxona hududi orqali tranzit qilinishi taqiqlangan

tovar;

- bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilingan kundagi yaroqlilik muddati ushbu Kodeksning 94-moddasiga muvofiq ma'lum qilinadigan muddatdan kam bo'lgan dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari.

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan tovarni saqlash bojxona omborida amalga oshirilishi kerak.

Vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida turgan tovar ushbu rejimlarning amal qilishini to'xtatib turish maqsadida bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin.

Tovarni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Olib kirilayotgan yoki olib chiqilayotgan tovar bojxona ombori hisoblanmaydigan joyda turgani holda bojxona ombori bojxona rejimiga quyidagi hollarda vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra joylashtiriladi:

- tovar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning tashqi o'lchamlari, fizik ko'rsatkichlari tufayli yoki kimyoviy xossalari ko'ra yohud saqlanishiga doir alohida shartlar qo'yilishi tufayli bojxona omboriga joylashtirilishi mumkin bo'lmasa;

- tovar yetkazib beriladigan joyda bojxona ombori mavjud bo'lmasa.

Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bojxona ombori hisoblanmaydigan joylarda saqlanayotganda quyidagi shartlarga rioya etilishi lozim:

- bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash taqdim etilganligi;

- tovar bilan bog'liq yuk operatsiyalarini bajarishga, shuningdek, uni istalgan boshqa joyga ko'chirishga bojxona nazorati ostida yo'l qo'yilishi;

- bojxona ombori bojxona rejimida turgan davrida tovarni undan foydalanish va uni tasarruf etish uchun boshqa shaxslarga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi.

Ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan shartlarga rioya etish harbiy yuklarga, insonparvarlik yordami, texnik ko'mak sifatida olib kiriladigan tovarlarga hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarz (kredit) mablag'lari, grantlar hisobidan olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek, olib kirilayotgan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasiga, chet el valyutasiga nisbatan tadbiiq etilmaydi.

Tovar tegishli bojxona rejimiga joylashtirilmagan holda yo'qotilgan yoki boshqa shaxslarga berib yuborilgan taqdirda bojxona to'lovlari to'lash olib kirilayotgan tovar bojxona ombori hisoblanmaydigan joyda turavergani holda uni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Tovarning bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati uch yilni tashkil etadi.

Tovarni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs mazkur bojxona rejimini uning amal qilish muddati ushbu Kodeksning 98-moddasiga muvofiq tugaguniga qadar tugallash huquqiga ega.

Yaroqlilik, saqlash, ishlatish va (yoki) realizatsiya qilish muddati cheklangan tovar mazkur muddat tugaguniga qadar kamida bir yuz sakson kalendar kundan kechiktirmay boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilinishi va bojxona omboridan olib chiqilishi kerak.

Vakolatli shaxslar bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan bojxona organini xabardor qilgan holda quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- tovarning o'zgarish holatida but saqlanishini ta'minlash uchun zarur operatsiyalarni bajarish;

- tovarni tekshirish, ko'zdan kechirish va o'lchash;

- bojxona ombori ichida tovarning joyini o'zgartirish, basharti mazkur o'zgartirish tovarning holati o'zgarishiga, uning o'rov-idishi buzilishiga va (yoki) qo'yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalarining o'zgarishiga olib kelmasa;

- tadqiq etish va identifikatsiyalash uchun tovarning namunalari va nusxalarini olish;

- tovarni sotishga va tashishga tayyorlash uchun zarur operatsiyalarni bajarish, shu jumladan, turkumlarga bo'lish, jo'natmalarni shakllantirish, saralash, o'rash-joylash, qayta o'rash-joylash, tamg'alash (aksiz markalari bundan mustasno), boshqa shu kabi operatsiyalarni, shu jumladan, oddiy yig'ish operatsiyalarini bajarish;

- tovarning sifatini yaxshilash uchun zarur boshqa operatsiyalarni bajarish, bundan tovarni aralashtirish, qayta ishlash yoki unga ishlov berish mustasno.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan operatsiyalar va harakatlarning bajarilishi tovarning yo'qotilishiga yoki xossalarining o'zgarishiga olib kelsa, ushbu operatsiyalar va harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tovarning namunalari va nusxalariga nisbatan ular erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganida bo'lgani kabi bojxona to'lovlari to'lanishi yoki bunday to'lovlarni to'lash ta'minlanishi zarur, bundan tovarni keyinchalik boshqa bojxona rejimiga joylashtirishda namunalari va nusxalarning bojxona yuk deklaratsiyasiga kiritilish hollari mustasno.

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan tovarni ushbu Kodeks 94-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan muddatlar tugaguniga qadar bojxona nazorati ostida bir bojxona omboridan boshqasiga olib o'tishga yo'l qo'yiladi. Bunda tovarning bojxona ombori bojxona rejimida turishi muddatining o'tishi uzilibqolmaydi va to'xtatib turilmaydi.

Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni boshqa shaxsga o'tkazishga, unga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga berishga quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi:

- tovarni yoki unga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga o'tkazuvchi vakolatli shaxs bojxona organini oldindan yozma shaklda xabardor etadi;

- tovarga bo'lgan huquqni oluvchi vakolatli shaxs ushbu tovarga nisbatan tanlangan bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etgan holda bojxona deklaratsiyasini bojxona organiga taqdim etadi.

Vakolatli shaxsning tovarga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqi bojxona deklaratsiyasi bojxona organiga berilgan paytdan e'tiboran boshqa shaxsga o'tkazilgan deb hisoblanadi. Bojxona deklaratsiyasi berilgan paytda mazkur shaxsda bojxona rejimiga rioya etilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar yuzaga keladi.

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan davrda avariya yoki engib bo'lmas

kuch ta'siri oqibatida yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan tovar vakolatli shaxs tomonidan tanlangan bojxona rejimiga u shu holatda bojxona hududiga olib kirilgan tovar kabi joylashtirilishi lozim. Mazkur olatlar vakolatli shaxs va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanishi kerak.


Bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati tugaydigan kundan kechiktirmay tovar boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilinishi kerak, bundan vaqtincha saqlash bojxona rejimi mustasno.

Boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida tovar bojxona omboridan olib chiqilishi kerak.

Ilgari vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida turgan tovarni undan keyinchalik bojxona hududida ushbu bojxona rejimiga muvofiq foydalanish maqsadida bojxona omboridan olib chiqishda vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash muddatining o'tishi tiklanadi.

Ushbu Kodeks 98-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talabga rioya etilmagan taqdirda, bojxona organi bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati tugagan tovarga nisbatan qaror qabul qilinishi uchun sudga murojaat etadi.


EIHLarga olib koroladogan xomashyo, materiallar, eksport qilinadigan tovarlar uchun QQSni hisoblashning o'ziga xos talablari mavjud. Uni bilish muhin ahamiyatga ega. O'z navbatida, QQSning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi o'rni kata bo'lib, uni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



6.7-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'ining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi o'rni


EIHLarda tovar va xomashyolar bilan bog'liq tashqi operatsiyalarni amalga oshirishda ularga nisbatan aksiya solig'i belgilangan tartibda hisoblanadi va Davlat budjetiga undiriladi. Aksiz solig'ining qiymatini hisoblash asosida xarid qilinayotgan

tovar va xomashyolarning haqiqiy qiymatini aniqlash mumkin. Bo‘ladi. Bu esa aniqlangan qiymatning tadbirkorlar va iste’molchilar uchun ahamiyati juda muhim. Shunga ko‘ra, tovar va xomashyolarning aksiz solig‘ining qiymatini hisoblash usullari bilish maqsadga muvofiqdir (6.9-rasm).



6.9-rasm. Aksiz solig‘ining qiymatini hisoblash usullari


Amaliyotda davlat tomonidan har yili aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarning yangi ro‘yxati tuzib chiqiladi va unga kiritiladigan tovarlar alohida guruhlangan holda keltiriladi (6.10-rasm).



6.10-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlar va ularning ro‘yxatini belgilovchi omillar


Bu esa aksiz solig'ining tadbirkorlar, jismoniy shaxslar va davlat uchun samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

EIHLarga olib kelinadigan uskuna va jihozlar, materiallar va xomashyolarga nisbatan davlat tomonidan berilgan imtiyozlar ularning arzon bahoda ishlab chiqarishga kirib kelishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan olib kirilayotgan tovarlarga nisbatan bojxona imtiyozlarini quyidagi 6.11-rasm asosida guruhlash mumkin.



6.11-rasm. Bojxona to'lovlari bo'yicha beriladigan imtiyozlar

O'zbekiston davlati Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lmasa-da, lekin, unga a'zo bo'lgan davlatlar bilan faol tashqi savdo va iqtisodiy hamkorliklarni amalga oshirib keladi. Shu sababli O'zbekistonda bojxona to'lovlarining huquqiy asoslarini takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Bunda, ayniqsa, Shanxay hamkorlik tashkiloti talablariga amal qilishga birinchi navbatda e'tibor qaratilishi lozim (6.12-rasm).



6.12-rasm. Bojxona to'lovlarining huquqiy asoslari va ularni Shanxay hamkorlik tashkiloti talablaridan kelib chiqib yanada takomillashtirish

Tayanch iboralar:

Bojxona ombori, bojxona hududi, bojxona bojlari, tovar, erkin iqtisodiy hududlar, bojxona rejimi, xalqaro shartnoma.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Bojxona ombori EIHLarning bir turi sifatida bojxona chegar hududida joylashgan va bojxona hududiga olib kirilgan va bojxona hududidan olib chiqish uchun mo'ljallangan tovar bojxona bojlari, soliqlar to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda muayyan binolarda (joylarda) bojxona nazorati ostida saqlanadigan joy hisoblanadi.

2. EIHLarning eng rivojlangan turlaridan biri sifatida bojxona ombori har bir davlatda faoliyat ko'rsatadi. Bojxon ombori faoliyatining rivojlanganligi va samaradorligi bojxona tizimi va tashqi savdo operatsiyalariga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida bojxona ombori faoliyati O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Bunda qonunda belgilangan bojxona rejimining amal qilishi to'liq ta'minlanadi.

3. Bojxona ombori bojxona rejimiga qonunda taqiqlangan tovarlardan tashqari har qanday tovar, shu jumladan, ilgari boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar joylashtiriladi. EIHLarda tovar va xomashyolar bilan bog'liq tashqi operatsiyalarni amalga oshirishda ularga nisbatan QQS va aksiya solig'i belgilangan tartibda hisoblanadi va Davlat budjetiga undiriladi. Bunda u va boshqa bojxona bojlari bo'yicha imtiyozlarning qo'llanilishi qonunda belgilab qo'yiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bojxona ombori deganda nimani tushunasiz?

2. Bojxona ombori EИHlarning rivojlanishida qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Bojxona omborini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish qanday qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi?
4. Bojxona omborida bojxona rejimi qanday tartibda amal qiladi?
5. Bojxona to'lovlari bo'yicha beriladigan qanday imtiyozlarni bilasiz va ular nima maqsadda taqdim etiladi?
6. Bugungi kunda O'zbekistonda bojxona qonunchiligini takomillashtirishda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Бойкова М.В. Зарубежный опыт таможенного администрирования. Монография. – М.: Российская таможенная академия, 2017. – 130 с.
2. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.
3. Гокинаева И.А. Экономика таможенного дела. Уч. Пос. Часть I. Экономика таможенного дела и система таможенных органов. – Санкт-Петербург: 2016. – 82 с.
4. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.
5. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особые экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.
6. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: "Extremum-press" nashriyoti, 2013. – 176 b.
7. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.
8. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особые экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.
9. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 18 oktabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. 2016 yil 20 yanvar. O'RQ-400-son.

7-bob. ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNI TASHKIL ETISHNING JAHON TAJRIBASI

7.1. Jahon xo‘jaligida erkin iqtisodiy hududlar

EIHlar ularni ta‘sis etuvchilar uchun ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishning muhim xalqasi hisoblanadi. Ularning faoliyat ko‘rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va faollashtirish jarayonlari bilan bog‘lik. Erkin iqtisodiy zonalarda iqtisodiyotning darajasi yuqori bo‘lib, bojxona, soliq va investitsiya uchun sharoitlari ichki va tashqi investitsiyalar uchun qulay hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab erkin iqtisodiy hudud (EIH) xalqaro iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Jahon xo‘jaligi aloqalarida erkin iqtisodiy hudud xalqaro tovar almashinuvining faollashuvi, investitsiyalar mobilizatsiyasi, ish bilan bandlik darajasini o‘sishi hisobiga iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichini tezlashtiruvchi omil sifatida qaralmoqda.

Jahon xo‘jaligida erkin iqtisodiy hududlar qaysi mamlakatda tashkil etilishidan qat‘iy nazar shu mamlakatning makro va mikroiqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Makroiqtisodiy siyosatda EIHlar mamlakatlarning iqtisodiy o‘shish dinamikasi va baholash tizimiga, pul muomalasi va emissiyasiga, tovarlar va xizmat ko‘rsatish turlarining eksport va importiga, tashqi to‘lov balansi holatiga, oltin-valyuta zahiralarini miqdoriga, chet el kapitali qo‘yilmalarining miqdorlariga, valyuta kursining harakatiga, tashqi savdosiga, shuningdek, to‘lov mexanizmlarini tashkil etishga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu ta‘sir doirasi dasturlarida o‘zgaruvchan iqtisodiy holatlar (masalan, ichki kreditlar, davlat sektoridagi budjet kamomadi, xalqaro rezervlar va tashqi qarzlarni hisobga olish va boshqalar) ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilida davlatlar o‘rtasida boshqa mamlakatlardan xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun soliq va boshqa imtiyozlar sohasida keskin raqobat avj olmoqda. Jahon amaliyotida erkin iqtisodiy zonalarni barpo etishning ikki yo‘li mavjud.

Birinchi yo‘nalishida hududiy yondashish, ya‘ni erkin iqtisodiy zonalarga aniq, konkret hudud deb qaralib, bu hududda zaruriy imtiyozli tartib o‘rnatiladi.

Ikkinchi yondashish esa rejali, ya‘ni erkin iqtisodiy zonalarga kompleks (majmuayi) korxonalar deb qaraladi hamda unga aniq sharoitlar va ustunliklar beriladi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishda quyidagi sharoitlar bo‘lishi zarur:

- erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilayotgan mamlakatlarda va mintaqalarda siyosiy barkarorlik;

- erkin iqtisodiy zonalar huquqini belgilab beruvchi barqaror qonuniy asos;

- erkin iqtisodiy zonalar tabiiy-geografik sharoitlarining qulay bo‘lishi, agro iqlimiy resurslarning mavjud bo‘lishi, qo‘shni iqtisodiy hududlarning u bilan bog‘liq bo‘lishi, transport magistrallariga yaqin bo‘lishi;

- aloqa, transport, ijtimoiy sharoitlar, energetikaning yaxshi rivojlangan infratuzilmasi;

- erkin iqtisodiy zonalarga xizmat ko‘rsatadigan rivojlangan tijorat infratuzilmasi

(banklar, konsalting va yuridik firmalar, auditorlik tashkilotlari transport xizmatlari);

- erkin iqtisodiy zonalar ma'muriy boshqaruvida samarali tuzilmaning mavjudligi.

Erkin iqtisodiy zonalar kapital harakatlanishining imtiyozli sharoitlarini ta'minlashga, xorijiy investitsiyalarning o'sishiga, mamlakatning ayrim iqtisodiy mintaqalariga ishlab chiqarish omillari (sarmoya, ishlab chiqarish asosiy vositalari, yuqori malakali boshqaruv apparati) oqimining kuchayishiga olib keladi.

Erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, EIHlarning tashkil etilishi bilan tovar ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini xalqaro maydonda sotish va o'zlari uchun kerakli bo'lgan mahsulotlarni vositachilarsiz sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadbirkorlar uchun berilgan soliq va bojxona imtiyozlari ularning daromadini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin iqtisodiy zonalar milliy iqtisodiyot uchun quyidagi afzalliklarni keltirib chiqaradi:

- mahalliy tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishini ta'minlash;
- savdo iqtisodiy operatsiyalarini amalga oshirish eksportga yo'naltirilgan tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish;

- milliy va mintaqaviy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish;
- aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu orqali ishsizlik darajasini pasaytirish;

- aholi farovonligini o'stirish, daromadlar miqdorini oshirish, yuqori sifatli tovarlar bilan mintaqaviy bozorlarni to'ldirish;

- xalqaro kreditlar uchun qulay sharoitlar yaratish, moliyalashtirishning yangi manbalarini izlab topish;

- yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratish.

Ayni vaqtda erkin iqtisodiy zonalar ushbu hududga investitsiyalar kiritayotgan sarmoyadorlar uchun ham foydali bo'lib bu, eng avvalo, quyidagilarda o'z aksini topadi:

- sarmoyadorlar ushbu hududda joriy etilgan imtiyozli soliqlar tufayli o'z foydalarini maksimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

- erkin iqtisodiy zonalarda uskunalar, xomashyo va ishlab chiqarishning boshqa tashkil etuvchilari importining bojxona bojaridan to'la yoki qisman ozod etilishi kam harajatlar evaziga uskunalarini olib kirish va urnatish imkoniyatini beradi;

- eksportga imtiyozli shart-sharoitlar joriy etilishi tufayli eksport mahsulotlarining tannarxini pasaytirishga imkoniyat paydo bo'ladi;

- erkin iqtisodiy zonalarda xorijiy investitsiyalarning barcha shakllaridan foydalanish imkoniyati vujudga keladi;

- xorijiy sarmoyadorlarda erkin iqtisodiy zonalardan olingan foydani erkin uzlashtirish imkoniyati yaratiladi;

- erkin iqtisodiy zonada milliy valyutaning qisman yoki to'liq erkin almashuvini ta'minlash valyuta opretsiyalarini erkin amalga oshirishga shart-sharoit yaratadi;

- erkin iqtisodiy zonalardagi arzon ishchi kuchi tufayli o'z mahsulotlari tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga erishadilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, EIHLarni tashkil etishda davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu, eng avvalo, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning huquqiy asoslarini barpo etish zaruriyati bilan asoslanadi.

Ko'plab mamlakatlarda, xususan, Xitoy Gonkong, Tayvan, Irlandiyada mazkur masala konstitutsion darajada hal etilgan bo'lib, ushbu mamlakatlar konstitutsiyasining ayrim moddalarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish masalasi kayd etilgan. Shuningdek, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida erkin iqtisodiy zonalar tug'risida qonunlar qabul qilingan. Chunonchi, O'zbekistonda ham "Erkin iqtisodiy zonalar to'grisida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, unda erkin iqtisodiy zonalar tashkil yutish tamoyillari, usullari, EIHLarga sarmoya kiritayotgan xorijiy investorlarning huquq va majburiyatlari o'z aksini topgan. Boshqacha qilib aytganda, respublikamizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning huquqiy asoslari yaratilgan.

Yuqoridagi fikr-muloxazalarni umumlashtirgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, erkin iqtisodiy zonalar ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishning, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etishning muhim omili bo'lib, undan maqsadga muvofiq foydalanish milliy iqtisodiyot faoliyat ko'rsatishining samaradorligini oshirishda, ijtimoiy masalalarni, xususan, aholi bandligini ta'minlash, ishsizlik muammosini yumshatish, aholi daromadlarini muttasil oshirib borish, iqtisodiyotga yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni jalb etish, zamonaviy boshqaruv va menejment tamoyillaridan foydalanish imkonini beradi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, xalqaro iqtisodiyot, xorijiy investitsiya, valyuta, imtiyoz, ishsizlik, foyda, texnologiya.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish iqtisodiy va ijtimoiy zaruriyat sifatida amalga oshirilib, uning rivojlanishini ta'minlash, pirovardida, jahon xo'jaligi aloqalarining rivojlanishiga samarali hissa qo'shmoqda. Jahon amaliyoti tasdiqlashicha, EIHLarning tashkil etilish va rivojlanishi investitsiyalar mobilizatsiyasiga turtki berib, o'z navbtida, ular yordamida o'zining ham rivojlanishi ta'minlanadi.

2. EIHLarni XX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab xalqaro iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. O'z navbatida, ularni o'z-o'zidan tashkil etib bo'lmaydi, zero, buning uchun zarur va qulay shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Yaratilgan sharoitlarning qulaylik darajasi EIHLar rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

3. EIHLarni tashkil etish, milliy iqtisodiyot, tadbirkorlar uchun o'ta muhim hisoblanib, ularni o'zaro manfaatlar bog'lab turadi. Bugungi kunda EIHLarning faol rivoji ko'pgina davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida o'z samarasini berayotganligini jahon amaliyoti tasdiqlab turibdi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishning jahon amaliyotini o'rganishning

zaruriyani nimada?

2. EIHLarning jahon xo‘jalik aloqalari va uning rivojiga ta‘sirini aniq misollar va dallillar asosida izohlab bering.

3. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish alohida davlat va investor uchun qanday ahamiyat kasb etadi?

4. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish milliy iqtisodiyot uchun qanday samaralar beradi?

5. Bugungi kunda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishdan faol iqtisodiy o‘rinishga erishayotgan qanday davlatlarni bilasiz?

6. EIHLardao‘z investitsiyalari bilan ishtirok etayotgan tadbirkorlar uchun EIHLarning ahamiyatini tushuntirib bering.

7.2. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning ahamiyati. G‘arbiy Yevropaning ilmiy-texnik rivojlanishida erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o‘rni

Yuqoridagi 1-bobning 1.3-paragrafida keltirilganidek, hozirda jahonning 140 dan ortiq davlatida 5 mingga yaqin EIH mavjud. Ularda 80 mln.dan ortiq kishi mehnat foydasini olib bormoqdalar. E‘tiborli tomoni, bu ko‘rsatkichlar yildan-yilga o‘tib bormoqda. Natijada ularning jahon savdo hajmi o‘tib bormoqda.

Rivojlangan davlatlarda yaratilayotgan EIH mamlakatning xo‘jaligiga, eng avvalo, tashqi iqtisodiy aloqalar darajasi oshishiga va tovar almashinuvi o‘rinishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Jumladan, AQShda 266 ta tashqi savdo hudud (TSH)lari mavjud, ular butun mamlakat hududini qamrab olgan. AQShda EIHLar soni 266 ta ekanligi tilga olinganida rasman TSHlari nazarda tutiladi. Undan tashqari, tadbirkorlik hududlari va texnoparklar ham faoliyat ko‘rsatadi. 1990-yillar boshlarida AQShda 150 ta texnopark (dunyodagi texnoparklar umumiy sonining 30 foizi) mavjud edi⁶³. Hozirgi kunda ular soni 200 tadan ortiq. Shuningdek, 1500 ta tadbirkorlik hududlari ham mavjudligini hisobga olgan AQShda EIHLar qanchalik rivojlanganligini tasavvur qilish mumkin.

AQShning TSH davlatning ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy elementi bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga o‘z hissasini qo‘shadi; bandlik darajasini oshiradi, mablag‘ kelishini ta‘minlaydi va ichki bozor ehtiyojini qondirishga xizmat qilishadi. Bundan tashqari, ESH faoliyati AQSh avtomobil sanoatining raqobatbardoshligi oshishiga ko‘maklashgan va Amerika ichki bozorida Yaponiya avtomobil ishlab chiqarish korporatsiyalariga qarshi kurashda yetakchi o‘rinni egallashni ta‘minlagan.

Yevropa ichki va tashqi savdo rivojlanishiga EIH sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatishmoqda. Bu hududlarda amalga oshirilayotgan savdo operatsiyalarining miqdori va samarasi Yevropaning tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda va bu, o‘z navbatida, Yevropa dunyo bozorida yetakchi o‘rinni egallashini ta‘minlab berdi. Germaniyada, masalan, oltita erkin iqtisodiy zona faoliyat ko‘rsatmoqda. Bular ichida eng birinchi paydo bo‘lgani, ko‘plab olti va

⁶³ Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2006. – С. 18.

sakkiz qavatli, hajmi 600 ming m²dan ortiq omborga, neft va neft mahsulotlarini saqlash omborlariga, meva va sabzavotlar uchun mo'ljallangan omborlarga ega Gamburg EIHdir. Bu zona Gamburg Germaniyaning eng yirik dengiz porti unvonini ushlab turishiga imkoniyat bermoqda.

G'arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlari jahon iqtisodiyotida va jahon xo'jalik aloqalarida muhim rol o'ynaydi. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga etish bir necha o'n yilliklardan iborat. Yevropa davlatlari mavqei ham mintaqada, ham jahon xo'jaligida mustahkamlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeli tanlovi, jahon xo'jaligiga yuqori ochiqlik va xo'jalik hayotning internatsionallashuv darajasi, integratsion jarayonlar sabab bo'ldi. G'arbiy Yevropaning iqtisodiyoti va tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga mintaqada keng tarqalgan EIH ma'lum xissa qo'shmoqda.

Odatda, EIH xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jalik aloqalar bilan bog'liq va u yoki boshqa davlat iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan belgilanadigan vazifalarni bajaradi. Asosan, chet el sarmoyalarini jalb etuvchi rivojlanayotgan davlatlar EIHga qaraganda, G'arbiy Yevropada EIH, boshqa rivojlangan davlatlardagi kabi, milliy xususiy kapital jalb etishga va mahalliy tadbirkorlar uchun preferentsial investitsion sharoit yaratishga qaratilgan. Bundan tashqari, G'arbiy Yevropada EIH faoliyati (ayniqsa, 1950 yillardan keyin) yetarli darajada mintaqada davlatlari iqtisodiy rivojlanishining muhim tendensiyasi bo'lmish integratsion jarayonlar bilan aniqlanadi.

G'arbiy Yevropada EIHning ko'p turlari mavjud, ular ichida erkin savdo hududlari, texnoparklar, ofshor markazlari va kompleks hududlar rivoj topgan.

G'arbiy Yevropada erkin savdo hudud (ESH)lari soni ko'proq. Ular bu erda XIX asrda va undan ham oldin (erkin gavanlar) paydo bo'lgan. XXI asr boshida ularning soni 200 dan ortiqni tashkil etdi. Avval bunday zonalar, asosan, dengiz portlarida shakllangan. Jumladan, Germaniyada yirik ESH Bremen, Bremerxaven, Emden, Gamburg va Kil portlarida joylashgan. Bu zonalarda tovarlarni yuklash, bo'shatish, qayta yuklash, saqlash, ajratish, belgilash va ularning sotuvi amalga oshiriladi, tashqi savdoga tegishli turli xizmatlar ko'rsatiladi. Ularning hududida alohida preferentsial rejim asosan, port-zona hududida tovarlarni ishlash va qayta ishlash natijasida yuzaga keladigan bojxona to'lovlari, QQS bekor qilinishi orqali tashkil qilinadi.

Germaniya ESH orasida Gamburg ajralib turadi, u Shimoliy dengizdan 100 km da joylashgan eng yirik dengiz va daryo portidir. Unda yirik xalqaro aeroport va turli sanoat sohalari mavjud.

Italiyada ESHning bo'jdan ozod etilgan ombor o'shakli keng tarqalgan. Ularning soni 12 ta bo'lib, jumladan, Neapolda (4 ta), Genuyada (2 ta), Vari, Imperiya, Livorno, Palermo va Rimda joylashgan.

Ispaniyada 4 ta EIH mavjud. 1929 yil ichki va tranzit savdoni rivojlantirish, tashqi savdo operatsiyalarini faollashtirish va ekusportga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirish uchun "Kadis" EIH tuzilgan.

EIHning Atlantika okeani qirg'og'ida joylashganligi uning Amerika, Shimoliy Afrika, Anlantika sohili hamda O'rta er dengizi atrofidagi Yevropa davlatlari, Yaqin va O'rta Sharq davlatlari bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlari rivojlanishini

ta'minadi. "Qadis" hududidagi qirg'och Ispaniyani barcha yirik savdo markazlari bilan bog'lovchi yuk va passajir tashuvchi, dengiz liniyalariga xizmat qiluvchi zamonaviy port qurilmalariga ega. "Qadis" EIH maydoni 570 ming m² ni tashkil etadi. Bu hududda xalqaro savdo markazi, ofis markazi, ochiq va yopiq ombor va maydonchalar, sanoat korxonalar, port xizmatlari, konteyner-muzlatgichlar terminali joylashgan⁶⁴.

"Qadis" EIH zamonaviy infratuzilma va ma'lumotlar bazasi, xavfsizlik xizmat, yoki aloqa tizimi, bojxona, bank va transport xizmatlariga ega. ESH Yevropa Ittifoqi (EI) bojxona hududining qismi hisoblanadi, shuning uchun uchinchi davlatlar tovarlari uchun quyidagi bojxona va soliq imtiyozlari mavjud:

- agar tovar ESHda bo'lsa, import bojaridan ozod etish;
- zona hududiga olib kelinayotgan tovarlarni maxsus soliqlardan ozod etish;
- QQSdan ozod etish va ESHga olib kirilayotgan tovarlar uchun va bu tovarlarni qayta ishlash bilan bog'liq xizmatlar uchun to'lovlarning qaytarilishi;
- EI savdo siyosati choralarini qo'llamaslik;
- tovarning kelib chiqishi, imqdori, ishlab chiqilgan joyi va ishlatilishidan qat'iy nazar, uni olib kirish va cheklanmagan muddat davomida ESHda saqlash imkoniyati.

"Qadis" EIH muvaffaqiyatli rivojlanib, Ispaniyaning ichki va tashqi savdosi rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

1990-yillar boshida Ispaniyada "Barselona" kompleks EIHi tuzilgan. Davlatdagi eng yirik zona hisoblanuvchi mazkur EIH o'z ichiga sanoat zonasini, erkin bojxona omborini va erkin savdo zonasini oladi. Bu kompleksni boshqarish uchun Barselona EIH konsortsiumi tashkil etilgan. Konsortsium uchta EIH faoliyatini boshqarish va hudud chegarasidagi erlarni korxonalar va firmalarga ijaraga berish bilan birga, EIHDagi loyihalarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Tarragona (Barselona) joylashgan sanoat poligoni sanoat korxonalarini zichligi bo'yicha Kataloniyadagi eng yirik EIH hisoblanadi va eng yaxshi infratuzilmaga ega. Ushbu hudud asosiy kommunikatsiya tuzilmalari yaqinida joylashgan. Ispaniya va Yevropaning asosiy avtomagistraliga, Tarragon dengiz porti va Reus aeroportiga yaqin, hudud ichida tovar stantsiyalari va temir yo'l konteyner terminali mavjud. Shularni hisobga olgan holda, "Barselona" EIHiga, nafaqat, milliy, balki, xalqaro korporatsiya qatnashuvchilari ham katta qiziqish bildiradi.

Tarragon yaqinidagi erkin ombor 1993-yilda tashkil etilgan. Konsortsium rahbariyati fikriga ko'ra, "Barselona" EIHni rivojlantirishning o'rta muddatli loyihalari orasida erkin ombor faoliyati katta ahamiyatga ega⁶⁵.

Kompleks hududning uchinchi tarkibiy qismi – erkin savdo hududi, u orqali turli tovarlarning tarnziti va eksporti amalga oshiriladi.

1980-yili Portugaliyaning Madeyra arxipelagida va Azor orollarida ikkita kompleks zonalar tuzilgan. "Santa-Mariya" kompleks zonasi (Azor orollarida) 40 ga maydonni egallaydi va unga transport ta'minoti borasida chuqur suvli dengiz porti va xalqaro aeroporti tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Zonaning ixtisosligi ko'p qirrali:

⁶⁴ Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: "Extremum-press" nashriyoti, 2013. – B. 59-60.

⁶⁵ Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: "Extremum-press" nashriyoti, 2013. – B. 60-61.

uning hududida sanoat, tijorat va moliyaviy faoliyatning, shuningdek, ofshor zonalar, barcha turlari ruxsat etilgan.

“Santa-Mariya” EIHdida ro‘yxatga olingan korxonalar quyidagi imtiyozlarga ega:

- barcha bojxona turlarini soddalashtirilish;
- tovarlarni erkin olib kirish va olib chiqish;
- reeksport qilinayotgan tovarlarning bojlaridan ozod etilish;
- aksiyadorlik jamiyatlar va korxonalar daromad solig‘idan hamda patentlar, litsenziyalar, tovar belgilarni berishda daromad solig‘idan ozod etilish;
- chet el kompaniyalar kapitali erkin harakat qilinishi;
- kasb o‘qishi uchun subsidiyalar (Azor orollari fuqarolari uchun 100% gacha);
- ijara subsidiyalari (harajatlar 50% gacha 5 yil muddatga);
- qurilish subsidiyalari (ishlab chiqarish korxonalarini qurilishida harajatlarning 50% gacha);
- uskuna olish uchun subsidiyalar (ishlab chiqarish korxonalarini uchun harajatlarning 50% gacha).

Loyihalarni amalga oshirishga qiziqqan va EIHda ish yuritayotgan korxonalarining axborot ta‘minoti “Santa-Mariya” EIHni rivojlantirish jamiyati orqali amalga oshiriladi.

Portugaliyaning boshqa Maydeyra orolidagi EIH kompleks zonasining vazifa va imtiyozlar tizimi shunga o‘xshash, biroq, uning hududi va faoliyat doyrasi “Santa-Mariya” EIHga solishtirganda kichikroq.

G‘arbiy Yevropada kompleks zonalarining turi bo‘lmish tadbirkorlik hududlari tuzilgan va ish yuritib kelmoqda. Bu zonalar depressiv hududlarda joylashgan, misol uchun, Buyuk Britaniyaning ko‘mir basseynlarida – uzoq vaqt davomida iqtisodiy inqiroz va ishsizlikka yuz tutgan Midlend va Yorkshirda. Tadbirkorlik hududlarni tuzishdan maqsad iqtisodiy qoloq hududlarda milliy tadbirkorlarga moliyaviy-kredit va soliq imtiyozlar berish orqali xo‘jalik faoliyatni jonlantirishdir. Bu zonalardagi imtiyozlar darajasi, odatda, bevosita tadbirkorlar tomonidan tashkil etiladigan ish joylariga bog‘liq. Tadbirkorlik hududlar Buyuk Britaniya va Fransiyada mavjud.

G‘arbiy Yevropa davlatlarida ilmiy-sanoat parklar, ilmiy parklar, texnoparklar sifatida ma‘lum bo‘lgan texnik-tadbiq etish hududlari keng tarqalgan. Ularda printsiptial yangi texnologiyalar, materiallar va tovarlar ishlab chiqish olib boriladi, ilm talab qiluvchi mahsulotning kam miqdorli eksperimental ishlab chiqarilishi amalga oshiriladi.

Bunday zonalar tuzish va tarqalish sababi shundaki, urushdan keyingi davrda G‘arbiy Yevropa davlatlari AQShdan yuqori texnologiyalar yaratishda ortda qolib ketgan, bu mintaqa tomonidan murakkab mahsulotlarning ko‘p turlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda yetakchilik pozitsiyalarini yo‘qotishga olib keldi.

1970-yillarda vujudga kelgan AQSh bilan iqtisodiy aloqalardagi “texnologik qoloqlikni” qisqartirish maqsadida G‘arbiy Yevropa o‘z ilmiy-texnik potensialini mustahkamlash borasida harakatlarni amalga oshirdi, ular, jumladan, o‘z ichiga texnoparklar tarmog‘i yaratilishini olgan. Texnoparklar 1970 yillar oxirida birinchi

bo'lib Buyuk Britaniyada, so'ngra esa Belgiya, Fransiya va boshqa davlatlarda tashkil etila boshladi. Germaniyada bunday tuzilmalar faqat 1983 yildan boshlab paydo bo'la boshladi, lekin, ularning rivojlanishi juda tez amalga oshdi: 1988 yili texnoparklar soni 20 tashkil etdi. Fransiyada 30 texnoparklar mavjud, ular mini-parvarishxonalar deb ataladi⁶⁶. Mini-parvrishxonalar texnik jixatdan yaxshi jihozlangan, malakali kadrlar bilan ta'minlangan, ular barcha xoxlovchilarga o'z ishini boshlashda yordam ko'rsatadi, ularga biznes-reja tuzishda maslaxatlar beradi, zarur kadrlar topishda ko'mak beradi.

Buyuk Britaniyada 40 yaqin texnoparklar tashkil etilgan, ularda 18 mingdan ko'p odam ishlaydi. Bundan tashqari, Yevropada aniq universitetlar bilan bog'liq bo'lmagan 20 yangi sanoat-texnologiyalar markazlari mavjud.

Texnoparklarning funksional xususiyati davlatga qarab farqlanadi. Agar Fransiya mini-parvarishxonalar kichik biznes qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, Germaniyada ular e'tiborlarini kichik ilm talab qiluvchi firmalar tuzishga, texnologiyalarni sanoatga o'tkazishga, texnopark ichida harakat qiluvchi firmalar o'rtasida texnologiyalarni almashishga qaratilgan. Buyuk Britaniyadagi texnoparklarning tashkil etilishi va ish maqsadlari shunga o'xshash. Jumladan, Kembrijda joylashgan ilmiy park malaka oshirish bo'yicha maxsus kurslar taklif etuvchi universitetning faol ishtirokida fan yutuqlari va ishlab chiqarishni ishlatish asosida shakllangan. Universitet xodimlari qo'shma ilmiy-tekshirish loyihalarda qatnashadi, ilmiy park korxonalarining ishlab chiqarish bazasi ilmiy tadqiqotlar olib borishda ishlatiladi. Ilmiy parkning ixtisosligi universitet tadqiqotlari asosiy yo'nalishlari asosida shakllangan va o'z ichiga katta bo'lmagan (ishchilar soni 30 ga yaqin) innovatsion firmalarni oladi.

Texnoparkda beriladigan imtiyozlar xususiyati shundaki, asosiy e'tibor kichik venchurli biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Soliq, kredit va ma'muriy imtiyozlar faoliyatning boshlang'ich, tavakkalli bosqichlarida bu firmalarning faoliyatini yengillashtirishga yo'naltirilgan. Kompaniyalarni ro'yxatga olishning maxsus soddalashtirilgan qoidalari kiritiladi, kichik firmalarning tashkiliy muammolari bilan shug'ullanuvchi ma'muriy tuzilmalar tashkil etiladi. Tashqaridan sarmoyalar kelishi, texnoparklarda kichik firmalarni moliyalashtiruvchi investitsion jamg'armalar tuzilishi texnologik ishlashlarning samarali ko'zatilishiga, ommabop sanoat tadbiq etilishiga olib kelishi kerak.

1983-yili Lundada tuzilgan "Ideon" birichi shved ilmiy parki yaxshi ma'lum. Tuzilishidan buyon ilmiy park 17 asrdan beri universitet ta'limotining an'anaviy markazi bo'lgan Lundning oliy o'quv yurtlari bilan keng hamkorlikni olib borgan. 2001-yili parkda 170 firma faoliyat ko'rsatib kelgan, ularda 2 ming xodim ishlagan. Lundda 15 oliy o'quv yurtlari mavjud, ularda 120 ming talaba tahsil oladi. Bitiruvchilarning 10% aspirant va fan nomzodlari bo'ladi, ularning aksariyati innvatsion firmalarni tashkil etadi yoki ularda ishlaydi⁶⁷.

Yosh firmaning "Ideon" parkida bo'lishi u uchun yuqori texnologiyalar bozorida

⁶⁶ Дерюгина С.В. Правовые аспекты понятия свободных экономических зон. // "Государство и право", 1997. – №5.

⁶⁷ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити 2005. – 230 с.

yuqori ishonch darajasini anglatadi. Bu erdan firmalar hayotga yaxshi tayyorlikka ega bo‘lib kiradilar, bu yerda ular uchun ideal sharoitlar yaratilgan – bu yerda banklar, konferens-zallar, yotoqxonalar, yaxshi ishlaydigan telekommunikatsion xizmati va yosh perspektiv kadrlar.

Laboratoriyalar umumiy maydoni 100 ming m² ga teng. Asosiy faoliyat sohalari – biotexnologiya, farmasevtika, axborot texnologiyalar va elektronika. Lundning Texnologik institutining bir o‘ziga texnoparkda (Eriksson firmasi yordamida) maxsus chiplar va ularni ishlab chiqarish texnologiyasini o‘rganuvchi qator innovatsion firmalarni tashkil etgan. Shuning uchun “Ideon” texnoparkini shved “Silikon vodiysi” deb atashadi.

“Ideon biznes-markazi” texnoparkning tarkibiy qismi bo‘la turib innovatsion firmalarga yuridik maslahatlar beradi, marketing sohasida, biznes-rejalar ishlab chiqishda, moliyaviy manbalari va sarmoyadorlarni topishda yordam ko‘rsatadi.

Texnoparkda “Ideon grinxaus” – Lund universiteti tomonidan “IKANO” shved investitsion kompaniyasi va “Teknopol” firmasi bilan birgalikda tuzilgan o‘ziga xos inkubator mavjud. Bu yosh kompaniyalar uchun ideal joy. Uncha katta bo‘lmagan narxlar evaziga ularga xonalar, xizmat ko‘rsatish va maslahatchilar taqdim etiladi. Texnoparkning bu bo‘limi talabalar firmalariga mo‘ljallangan.

Ko‘pincha, texnoparkka o‘z sarmoyalarini yirik tarnsmilliy kompaniya (TMK)lar kiritadi, ular orasida birinchilardan “Eriksson” kompaniyasi bo‘lgan. Ular talabalar va ilmiy xodimlarga texnoparkda firmalar tuzishga yordam beradi, ular kapitalda ma‘lum miqdorda egalik qiladi.

Texnoparklar va bunga o‘xshash tuzilmalar tashkil etish G‘arbiy Yevropaning ilmiy-texnik rivojlanishining, bu sohada yetakchi pog‘onalarga ko‘tarilishi sababi bo‘ldi. Biroq, G‘arbiy Yevropa, jumladan, EI, hali ham bu borada AQShdan ortda qolmoqda.

Shu sababli EI texnoparklarni rivojlantirishda va ularning samaradorligini oshirishda faol choralar qo‘llamoqda. Texnoparklar EI davlatlari tarkibiy disbalansini yo‘q qiladigan, zarur innovatsion sharoit yaratadigan hamda fan va ishlab chiqarishning bog‘liqligini mustahkamlaydigan omil sifatida ko‘riladi.

Yevropa davlatlari Amerikadan kechikishni kamaytirishdi va atom elektr stantsiyasi (AES) qurilishida, dori preparatlari, aloqa vositalarini ishlab chiqarishda, transport mashinasozligining ba‘zi sohalorida yetakchi o‘ringa chiqishdi, hozirda esa katta miqdorda ilm talab qiluvchi mahsulotlarni eksport qilishmoqda.

Bu borada Yaponiyaning texnopolislar yordamida yuqori texnologiya va uning mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha tajribasi e‘tiborga loyiq. Urushdan keyingi davrda Yaponiya patent va litsenziyalarni olib kirish bo‘yicha birinchi o‘rinni egallashdi: 1950-yildan 1990-yilgacha Yaponiya kompaniyalari 55 mingdan ortiq xorijiy patentlar va litsenziyalarni sotib olishdi va to‘liq o‘zlashtirishdi. Ammo ohirgi o‘n yillikda Yaponiyaning o‘zi ham yuqori texnologiyalarni yirik eksportchisiga aylandi. Bunda 30 dan ko‘p milliy dasturlarni bajarayotgan texnopolislar yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Bu milliy dasturlarning mahsuloti allaqachon AQSh va Yevropaga etib borgan, Yaponiya kompaniyalari u erlarga tola optikasi, uyali telefon tizimlarini, sputnik va videoaloqa vositalarini olib kiradilar. XXI asr boshida Yaponiya

texnopolislari ilm va texnologiyaning asosiy markazlariga aylanishdi. Amerikalik olim Sh.Tatsumoning aytishicha Yaponiyaning texnopolislari XXI asrda nafaqat yangi mahsulot va texnologiyalar bo'yicha, balki yangi g'oyalar, xizmatlar va turmush tarzi bo'yicha ham inkubatorga aylanishadi.

Turkiya o'z iqtisodiy rivojiga EIHLar tashkil etish orqali erishgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Turkiya hukumati rahbarlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish borasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish dasturini amalga oshirganlar. Bu dasturning amaliy ko'rinishi esa EIHLar tashkil etish va o'sha hududlarga xorijiy investorlar kapitallarining oqib kirishini ta'minlashda namoyon bo'lishi ko'zda tutilgan edi.

Turkiyadagi ilk EIHLar 1987-yilda Mersin va Antaliya shaharlarida tashkil etilgan. 1990-yilda aynan shunday hududlar safi Izmirdagi Egey EIHL va Istanbul shahrida yaratilgan EIHLar bilan kengaydi. Keyinchalik 1992-yilda Trabzonda, 1993-yilda Adan shahrida, 1994-1995 yillarda Turkiyaning sharqiy hududida joylashgan shaharlar Erzurum va Mardina shaharlarida ta'sis etilgan. Bu kabi islohatdan ko'zlangan asosiy maqsad, mamlakatning nisbatan qoloq bo'lgan, iqtisodiy tang ahvolda qolgan hududlarning qisqa muddat ichida samarali o'sishini ta'minlash hamda u erlarga xorijiy investorlar va tadbirkorlarni jalb etish orqali rivojlangan bozor infratuzilmasini shakllantirishdan iborat bo'ldi. Turkiya EIHLari faoliyati ushbu davlatning qulay geografik joylashuvi, uning Yaqin va O'rta Sharq, qolaversa G'arbiy va Sharqiy Yevropa davlatlariga yaqin joylashganidan unumli foydalangan holda tez orada qo'shni va xorijiy mamlakatlar bozorlariga kirib borishi, ularni egallashi hamda kuchli raqobat olib borishini yo'lga qo'yishga qaratilgan.

Turkiya hukumati tomonidan, EIHLarni tashkil etish va faoliyatini tartibga solish borasida bir qator qonunlar ishlab chiqilgan. Masalan, "Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida"gi 3218-sonli Qonun 1985-yilda qabul qilingan va 1987-yildan boshlab amal qilib kelmoqda. Ushbu qonunning maqsadi, EIHLarni tashkil etish chora-tadbirlari, ular faoliyatini maqbullashtirish, tartibga solish va to'g'ri yo'naltirib borishdir. EIHLar faoliyatining qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yilgani ularning samarali ish olib borishiga va son jihatidan yanada ko'payishiga turtki bo'lishi tabiiy.

Turkiya EIHLariga xos va ularda mavjud bo'lgan imtiyozlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

-EIHLar barcha turdagi soliqlardan, shuningdek, korporativ va daromad soliqlaridan butunlay ozod bo'lgan hududlardir;

-EIHLarda faoliyat ko'satayotgan tadbirkorlar turli xildagi yig'imlar va bojlardan ham ozod hisoblanadi (masalan, bojxona va port xizmatlari uchun bojlar va boshqalar);

-boshqa davlatlardagidan farqli o'laroq, Turkiya ichki bozorlarida EIHLarda ishlab chiqarilgan yoki ular orqali import qilingan tovarlarning savdosiga ruxsat berilgan va bu borada ularga nisbatan oddiy ko'rinishdagi tashqi savdo boshqaruvi qo'llaniladi;

-EIHLarda to'lov vositasi sifatida erkin konvertatsiya qilinuvchi ixtiyoriy valyuta qo'llanilishi mumkin;

-Turkiyaning EIHLar faoliyati to'g'risidagi qonunchiligiga binoan, ushbu

hududlarda faoliyat olib borish huquqini beruvchi litsenziyani qo‘lga kirita olmagan tadbirkorlarga ro‘yxatga olish uchun yig‘imlar summasi to‘la miqdorda qaytariladi;

- Turkiya EIHLarida ishchi kuchi narxining boshqa davlatlardagi EIHLarga nisbatan pastroq darajani tashkil etadi;

- Turkiya EIHLarida yer ijarasining eng quyi narxi joriy qilingan;

- investitsiyalarning kirib kelishi, shuningdek, ularni ishlab chiqarish jarayoniga yo‘naltirish va o‘ylab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bosqichlarida ham byurokratik rasmiyatchilikka yo‘l qo‘yilmaydi;

- Turkiyaning boshqa hududlarida tovar va xizmatlar narxi va sifati hamda ular ustidan nazoratni o‘rnatish borasidagi qonunchilik normalari EIHLarda amal qilmaydi.

Ushbu imtiyozlardan tashqari, erkin tadbirkorlik hududlarida faoliyat ko‘rsatuvchi investorlar hukumatning xususiy kapital qo‘yilmalari hajmini oshirishni rag‘batlantirish borasida amalga oshiradigan siyosati doirasida taqdim etiladigan bir qator boshqa imtiyozlardan ham foydalanishlari mumkin.

Turkiya EIHLarining eng afzal jihati va o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular xalqaro portlar va transport tarmoqlariga yaqin joylashgan. Bu kabi shart-sharoitlar pirovard natijada ushbu hududlarda qulay investitsion muhitning shakllanishiga olib keladi. SHu bilan investorlarga ham bir qator qulayliklar va keng imkoniyatlar yaratadi, ya‘ni ishlab chiqarish xarajatlari miqdori kamayadi, mavjud mahalliy va xorijiy firmalar o‘rtasidagi kuchli va sog‘lom raqobat mustahkamlanadi.

Hozirda Turkiyada mavjud EIHLar nomi va tashkil etilgan yillari:

1. Adana – YUmurtalik erkin hududi (CHeyhan – Adana), 1999.
2. Ayjen erkin hududi (Gaziemir – Izmir), 1990.
3. Antaliya erkin hududi (YAngi port – Antaliya), 1987.
4. Bursa erkin hududi (Jemlik – Bursa), 2001.
5. Gaziantep erkin hududi (Baspinar – Gaziantep), 1999.
6. Denizli erkin hududi (CHardak – Denizli), 2001.
7. Yevropa erkin hududi (CHorlu - Tekirdag), 1999.
8. Izmir Menemen erkin hududi (Menemen – Izmir), 1998.
9. Istanbul birja erkin hududi (Emirgan – Istanbul), 1997.
10. Istanbul Otaturk aeroporti erkin hududi (Esilkoy – Istanbul), 1990.
11. Istanbul charm va sanoat erkin hududi (Tuzla – Istanbul), 1995.
12. Kayseri erkin hududi (Kayseri), 1998.
13. Kochaeli erkin hududi (golchuk – Kochaeli), 2001.
14. Mardi erkin hududi (Mardin), 1995.
15. Mersin erkin hududi (Mersin), 1987.
16. Rize erkin hududi (Rize), 1998.
17. Samsun erkin hududi (Port – Samsun), 1998.
18. Trabzon erkin hududi (Port – Trabzon), 1992.
19. Tubitak Marmara tadqiqot markazi texnologik erkin hududi (Gebze– Kochaeli), 2002.
20. SHarqiy Anatoliy erkin hududi (YArmarka hududi – Erzurum), 1995⁶⁸.

⁶⁸ www.turkey.mid.ru/rus/econom_06.html

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, tashqi savdo hududlari, tadbirkorlik hududlari, texnoparklar, tovar, boj, korxonalar, imtiyoz, soliq, hukumat, investor, ilmiy-texnik rivojlanish.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Bugungi kunda jahonda 140 dan ortiq davlatda 5000 dan ortiq EIHLar faoliyat ko'rsatmoqda va ularda 80 mln. kishidan ziyod xodimlar mehnat qilishadi. Bu esa EIHLarni tashkil etishda boy va katta tajribaga ega rivojlangan davlatlar amaliyotini o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

2. Jumladan, hozirgi paytga kelib AQShda 266 ta EIHLar (TSHlari) mavjud. Bundan tashqari, 200 dan ortiq texnoparklar va 1500 dan ortiq turli darajada tashkil etilgan tadbirkorlik hududlari mavjud. EIHLarni tashkil etishda, shuningdek, G'arbiy Yevropa davlatlari ham katta tajriba to'plaganlar.

3. G'arbiy Yevropada tovar va texnologiyalar sifatida juda katta e'tibor qaratilishi va ularning yuqori sifatda yaratilishida texnoparklar muhim o'rin egallagan. shu sababli G'arbiy Yevropaning texnoparklari rivojini o'rganish alohida ahamiyatga ega. O'z navbatida, rivojlangan Yevropa davlatlari singari Turkiyada ham EIHLar soni ortib bormoqda va ularni rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos tajribalarga ega.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganishdan maqsad nima?

2. EIHLarning G'arbiy Yevropa davlatlarida tashkil etilishi va rivojlanishi xususiyatlarini tushuntirib bering.

3. G'arbiy Yevropa davlatlarida texnoparklarning tashkil etilishi va rivojlanishining samaralarini qanday izohlaysiz?

4. Turkiyaning geografik joylashuv o'rni EIHLar rivojida qanday ahamiyat kasb etadi?

5. Bugungi kunda AQShda EIHLarning qanday turlari mavjud va ular soni qanchaga etgan?

6. Rivojlangan davlatlarda EIHLarning faol rivojlanishda bo'lgan turlarini va sabablarini aytib bering.

7.3. Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi hududlar (Beliz, Men, Bermud, Britan-Virgin va Nauru)da erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish xususiyatlari

Buyuk Britaniya hududida tashkil etilgan kompaniyalar faoliyati va soliq tizimida joriy etilgan qonun-qoidalar jahon iqtisodiyotida eng takomillashgan tizimlardan biri bo'lib, ushbu qonun-qoidalar, ayniqsa, offshor hududlarni tashkil topishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Beliz Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi mustaqil davlat hisoblanib, Shimolda Meksika bilan, Janub va Janubiy-G'arbda esa Gvatemala davlatlari bilan

chegaralanib turadi. Mamlakatning ichki qismlari “kayes” deb nomlangan kichik-kichik orolchalardan iborat bo‘lib, bu jannatmakon orolchalar suvosti sayohatida muhim rol o‘ynaydi. Dunyodagi eng achchiq, kishi organizmini o‘tdek kuydiruvchi qalampirlar ham aynan shu orolda etishtiriladi. Mamlakatning Janubiy qismlari “Mayya” tog‘lari va Kokoskomb landshaft tizimlari bilan o‘ralgan bo‘lib, bu tizimlarning eng baland nuqtasi Viktoriya (1120 metrni tashkil etadi) cho‘qqisidir. Mamlakatning umumiy yer maydoni (orollari bilan birga qo‘shib hisoblanganda) 22923 km² ni tashkil etib, Janubdan Shimolgacha bo‘lgan uzunligi 280 km ni, Sharqdan G‘arbgacha bo‘lgan uzunligi esa 109 km ni tashkil etadi.

1970-yilda Beliz davlatining poytaxti Belmapon shahri barpo etildi. Poytaxt, asosan, 1961-yilda bo‘lib o‘tgan Xetti dovuli oqibatida vayron bo‘lgan Beliz-Siti shahridan 80 km Janubiy-G‘arbda qad ko‘targan bo‘lib, uning aholisi 5000 dan ortiqroq kishini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda mamlakatda Beliz-Siti, San-Ignasio, Benk-Viexo, Del Karmen, Manki-River, Punta, Gorda kabi yirik shaharlar mavjud.

Mamlakat iqlimi doimo subtropik-passat shamollari bilan yumshab turadi. Qirg‘oq bo‘ylarida temperatura + 10,0 gradusdan to + 30-31 gradusgacha o‘zgarib, issiqlik harorati mamlakatning ichki qismlariga borgan sari ko‘tarilib boradi. Yog‘ingarchilik miqdori esa Shimolda o‘rtacha 1.295 mm ni tashkil etsa, Janubiy tumanlarda 4.445 mm ni tashkil etadi. Yog‘ingarchilik miqdori kam bo‘ladigan oylar, asosan, fevraldan may oyigacha qadar bo‘lib, ba’zi hollarda, bu holat avgust oyigacha ham cho‘zilishi mumkin.

Mamlakatning umumiy aholisining soni 256000 kishini tashkil etadi. Aholining 23-24 %i Beliz-Siti shahrida yashaydi. Mamlakat aholisining 48 %i shaharliklarni tashkil etsa, qolgan 52 %i qishloq joylarida istiqomat qiladi. Aholining etnik tarkibi, asosan, kreollar (Afrikadan kelganlar), metislar (ispanlar va mayyaliklar) va garifunlardan (karibliklar) iborat. Bundan tashqari, mamlakatda ispanlar va boshqa Yevropaliklar, shuningdek, hindlar, xitoyliklar, arablar ham yashaydi. Mamlakat aholisining umumiy zichligi 1km² maydonga 11 kishi to‘g‘ri keladi. Aholining 80 %i oliy va o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lib, mehnatga layoqatli aholi soni 70 ming kishidan ortiqni tashkil etadi. Davlat tili bo‘lib ingliz tili hisoblanadi. Mahalliy aholining bir qismi garifun, mayya, ketchi va kreol tillarida ham gaplashishadi. Mamlakat Konstitutsiyasida din erkinligi berilgan bo‘lib, aholining 62 %ini katoliklar, 28 %ini xristianlar, qolgan 10 %ini esa iudizm va islom diniga e‘tiqod qiluvchilar tashkil etadi.

Mamlakatning davlat qurilishi Vestminster tizimidagi Parlament tamoyillariga asoslanadi. Davlatning ijroiya mahkamasi – Bosh Vazir va uning Mahkamasidan iborat bo‘lib, qonun chiqaruvchi organ esa 28 ta saylanuvchi va 8 ta tayinlanuvchi a‘zosiga ega bo‘lgan Umumiy palata hisoblanadi (ya’ni quyi va yuqori palatalardan iboratdir). Davlat boshlig‘i bo‘lib qirolicha janobi oliylari Elizaveta II hisoblanib, uning bu erdagi vakili esa General gubernatoridir. Tayinlangan General gubernator Beliz fuqarosi bo‘lishi talab etiladi.

Mamlakatda umumiy saylov 5 yilda bir marta o‘tkaziladi. Saylovda 18 yoshdan oshgan har bir fuqaro saylash va saylanish huquqiga ega. Mamlakat Bosh Vaziri

General gubernatorga Milliy Assambleyani tarqatib yuborish to'g'risida o'z taklifini ham berishi mumkin. Beliz hududi ma'muriy jihatdan oltita tumanga (Beliz, Kayo, Korosal, Oranj Uolk, Stani Krik va Toledo) bo'lingan.

Mamlakatning pul birligi bo'lib Beliz dollari (BZ \$) hisoblanadi. Beliz dollari o'z qiymati bo'yicha AQSh dollariga nisbatan 1/2 nisbatni tashkil etadi. Ya'ni, ikki Beliz dollari bir AQSh dollariga ayirboshlanadi.

1994-yilda Beliz davlatining Janubiy qismida joylashgan Korosal tumanida erkin savdo zonasida tashkil etildi. Mazkur hududning asosiy maqsadi va vazifasi, birinchidan, chet ellik diplomatlarga ulgurji va va chakana savdo xizmatlarini ko'rsatishdan, ikkinchidan, chet elga safarga ketayotgan kemalarga tovarlarni sotish yoki ayirboshlashdan, uchinchidan, bojxona xizmatchilari nazorati ostida tovarlarni suv, quruqlik va havo yo'llari orqali eksport qilishni tashkil etishdan, to'rtinchidan, ulgurji tovarlarni bojxona xizmatlari hududiga olib kirish va saqlab berish ishlarini amalga oshirishdan, beshinchidan, tovar mahsulotlarini bir tadbirkordan olib ikkinchi bir tadbirkorga sotish, ya'ni vositachilik funksiyalarini bajarish va boshqalardan iborat bo'lgan edi.

Korosal erkin savdo zonasida, birinchidan, chet el valyutasini olib kirish va olib chiqish qattiq nazorat qilinmaydi, ikkinchidan, iqtisodiy zonada tadbirkor shu erdagi banklarning birida, istalgan davlatning pul birligida hisobraqamini ochishi mumkin, uchinchidan, erkin savdo zonasiga olib kirilgan tovarlardan soliq yoki bojxona to'lovlari olinmaydi, to'rtinchidan, yangi tashkil etilgan korxonalar yoki firmalar 5 yil mobaynida turli soliq to'lovlardan ozod qilinib, bu muddat davlat tomonidan 10 yilga uzaytirilishi ham mumkin, beshinchidan, eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar esa 25 yil muddatga turli soliqlardan ozod etiladi.

Korosal erkin savdo zonasida tashkil etilgan yangi ishlab chiqarish korxonalari va firmalari besh yildan so'ng Davlat budjeti uchun soliqmqa tortiluvchi foydaning miqdoriga ko'ra quyidagi miqdorda soliq to'lashlari lozim bo'ladi:

- 15000 BZ \$ gacha – 2 %;
- 15000 dan 30000 BZ\$ gacha – 4 %;
- 30000 dan 100000 BZ\$ gacha – 6 %;
- 100000 BZ\$ dan yuqorisiga esa 8 %lik soliq stavkalari o'rnatilgan.

Ushbu soliq stavkalari erkin iqtisodiy hududda ishlaydigan ishchilar soniga qarab kamaytirilishi ham mumkin.

- 10 kishidan 30 kishigacha – 1 %;
- 30 kishidan 50 kishigacha – 1,5 %;
- 50 kishidan ortiq –2 %ga kamaytirilishi mumkin.

O'tgan asrning 90 yillaridan beri Beliz erkin iqtisodiy biznes markazida eksport uchun mahsulot ishlab chiqarish dasturi amal qilib kelmoqda. Mazkur dastur asosida faoliyat ko'rsatib kelayotgan investorlarga bir qator imtiyozlar belgilangan. Agar investor noyob ishlab chiqarish bilan, ya'ni kompyuter ehtiyot qismlarini olib kirib yig'adigan bo'lsa, ular uchun barcha imtiyozlar va hattoki, butun bir ish faoliyati mobaynida soliqdan ozod qilingan. Shunday qilib, Beliz erkin iqtisodiy zonasida tabiiy resurslarga unchalik boy emasligiga va shuningdek, yaqindagina mustamlakachilik tizimidan ozod bo'lganligiga qaramasdan biznes olamida o'ziga yarasha xalqaro

mavqega, ayniqsa chet ellik investorlarni ko'plab jalb etish xususiyatiga ega bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi.

XVIII asrlardan beri Men erkin iqtisodiy orolida soliq tizimi hukmronlik qilib keladi. Bu davr "vassallar patriarxiasining votchinasi" hisoblanib, asosan, britaniya monarxlarini "fritrederchilik" bilan shug'ullanib kelganlar. Keyinchalik Londondagi ma'muriyat tomonidan nazorat qila boshlangandan so'ng bunday savdoga barham berilgan. XX asrning 50 yillariga qadar Men oroli Buyuk Britaniyaning boshqa orollari orasida o'zining mavqeini yo'qotgan bo'lsa, 60 yillarning boshlariga kelib esa soliq miqdorini kamaytirgan holda tadbirkorlik faoliyatni (offshor) kengaytira boshlagan edi.

1972-yilda Buyuk Britaniyaning EI umumiy bozoriga qo'shilish to'g'risidagi shartnomasining 3-bandiga muvofiq Men oroliga assotsiatsiyalangan status berildi. Ushbu statusga muvofiq Men orolida EIga a'zo-mamlakatlarning mehnat resurslari va kapitalining erkin faoliyat ko'rsatishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berildi. Shu bilan birga bu orol yagona bojxona ittifoqiga a'zo bo'lib kirganligi uchun ham oroldagi mavjud soliq tizimidan qa'tiy nazar EI mamlakatlarining tadbirkorlari kabi 17,5 % QQSni to'laydigan bo'ldi.

Men orolida offshor tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit ham muhim ahamiyat kasb etadi. Orolidagi barcha moliyaviy tashkilotlar tashkil etilgan moliyaviy nazorat va sug'urta kompaniyalarning nazorat qiluvchi komissiyalari tomonidan boshqarib boriladi. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan bu tadbirlar, birinchidan mamlakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi dalkirib kelayotgan investitsiyalarning xaqqoniyligiga ishonch hosil qilishdan iboratdir.

Men iqtisodiy orolida offshor biznesining faoliyat ko'rsatishi uchun barcha qulayliklar (mexmonxonalar, zamonaviy aloqa vositalari, ishonchli banklar, sug'urta kompaniyalar va hokozolar) yaratilgan. Ushbu kompaniya va banklarda yuqori malakali huquqshunoslar, auditor buxgalterlar, vositachilar va menejerlar xizmat qiladi. XX asrning 80-90 yillarida orolning offshor tadbirkorligi sohasida xizmat qiluvchilar soni 200 %ga ko'payib, jami aholi sonining 14 %ini tashkil etgan. 90 yillarning oxirida Men hukumatining registrida 35 mingdan ortiq xorijiy kompaniyalar ro'yxatga olingan bo'lib, bu kompaniyalarning 5,5-6 mingtasi esa birgina 1996-yilning o'zida tashkil etilgan.

Men offshor iqtisodiy hududidagi qonunchilikni va amal qilib kelayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ikki toifaga ajratib o'rganish mumkin. Birinchi toifaga umumiy ishlab chiqarish korxonalarini kirs, ikkinchi toifaga esa banklarni, sug'urta kompaniyalarni va moliyaviy institutlarni kiritish mumkin. Jahonning boshqa offshor hududlarida amal qilayotgan qonunlardek, Men orolida ham soliq imtiyozlari, asosan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tashkil etilgan kompaniyalarga berilgan.

Jahon iqtisodiyotida tashqi foyda deb offshor kompaniyalar tomonidan ro'yxatga olingan huquqlar majmuasidan tashqarida olingan foyda tushuniladi. Ya'ni, berilgan soliq imtiyozlaridan tashqarida olingan foydadir. Men iqtisodiy offshor hududida bank va boshqa qo'yilma mablag'lardan olingan foizlar, offshor bo'lmagan

kompaniyalarning ba'zi birlarini aksiyalarining dividendlari imtiyozli mavqega ega bo'lib, ulardan soliq olinmaydi. Norezident kompaniyalar deb oroldagi mavjud huquqiy qoidalar majmuasidan tashqarida turib boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi kompaniyalarga aytiladi. Men erkin iqtisodiy hududidagi kompaniyalarning orolda faoliyat ko'rsatishining xususiyatlarini aniqlash maqsadida ushbu korxonalarni alohida-alohida tahlil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, birinchidan rezident kompaniyalarga orolning har bir fuqarosi tomonidan tashkil etilishi mumkin bo'lgan va hech qanday imtiyozlarga da'vogar bo'lmagan offshor kompaniyalar to'g'risidagi qonunlarga asosan, chegaralar qo'llanilmaydigan kompaniyalarni kiritish mumkin. Bunday kompaniyalarning faoliyati odatda orolning o'zida turib boshqariladi va nazorat qilib turiladi. Ikkinchidan, norezident kompaniyalarga esa orolda yashamaydigan fuqarolarga qarashli bo'lgan kompaniyalarni kiritish mumkin. Bunday kompaniyalarni 3 toifaga (norezident kompaniyalar, ozod qilingan kompaniyalar, xalqaro kompaniyalar) bo'lish mumkin.

Birinchi toifaga kiruvchi norezident kompaniyalarga orolning o'zida tashkil qilinib, ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda amal qilayotgan qonun va qoidalarga asoslanuvchi, ma'lum jihatdan boshqaruv va nazoratni talab etuvchi, ro'yxatdan o'tkazuvchi davlat tashkilotlariga deklaratsiya takdim etuvchi kompaniyalar majmuasini kiritish mumkin. Bunday kompaniyalarning direktorlar kengashi oroldan tashqarida ham faoliyat yuritishi mumkin, chunki kompaniya a'zolarining ko'pchiligi norezident bo'lib, bu orolda doimiy yashash joyi talab etilmaydi. Orolning o'zida huquqiy va jismoniy shaxslar bilan o'zaro tuzilgan shartnomalar asosida olib borilgan faoliyatidan topgan daromadidan esa standart miqdorda 20 % soliq to'lovlarini amalga oshirib boradi.

Ikkinchi toifaga kiruvchi ozod qilingan kompaniyalar, odatda, Men orolning o'zida va oroldan tashqarida ham tashkil etilishi mumkin. Lekin, oroldan tashqarida tashkil etilgan ozod kompaniyalar keyinchalik bu oroldan ro'yxatdan o'tishi shart qilib qo'yilgan. Bunday kompaniyalar rezident kompaniyalar hisoblanib, direktorlarning bittasi yoki yuqori malakali sekretarlardan biri shu mamlakatning fuqarosi bo'lishi lozim.

Uchinchi toifaga kiruvchi xalqaro kompaniyalar to'g'risidagi qonun orolda asosan, 1994 yilda kuchga kirgan bo'lib, ushbu qonun 1984 yilda qabul qilingan ozod etilgan kompaniyalar to'g'risidagi qonunga asoslanib, ba'zi bir qo'shimchalar bilan to'ldirilgan. Bunday kompaniyalarning tashkil etilish joyi, rezident yoki norezidentligi ozod etilgan kompaniyalar kabi chegaralanmagan. Lekin, ulardan farqli o'laroq xalqaro kompaniyalar ochiq turdagi aksiyadorlar jamiyati bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari, xalqaro kompaniyalarga bank va sug'urta faoliyatlari bilan shug'ullanishga ruxsat etilmaydi hamda ishlab chiqarish, savdo va boshqa sohalardagi cheklashlar qo'llanilmaydi. Shu bilan bir qatorda xorijdagi operatsiyalar, oroldagi boshqa offshor kompaniyalar bilan olib borilgan iqtisodiy aloqalardan olinadigan %lar va dividendlardan olinadigan soliq hajmi 20 %dan oshmasligi lozim. Xalqaro kompaniyalar yiliga 300 funt sterling miqdorida to'lov to'laydi.

Men iqtisodiy orolida tashkil etilgan ushbu kompaniyalarning faoliyati orolning "Kompaniyalar to'g'risida"gi qonuniga asosan, tartibga solinadi. O'zlarining faoliyat

ko'rsatish shakllariga ko'ra ushbu kompaniyalar mas'uliyati cheklangan kommandit tashkilotlarga (paylar asosida aksiyadorlarning kapitalisiz tashkil etilgan kompaniyalar, ma'suliyati cheklangan aksiyadorlik jamiyatlar va javobgarligi cheklanmagan aksiyadorlik jamiyatlarga) bo'linadi.

Tashkil etiladigan ushbu kompaniyalarning javobgarligi Bosh prokurorning qarori asosida nazorat qilinadi. Kompaniyalar o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik faoliyati yo'nalishi bilan "tahallus" asosida ham ish yuritishlari mumkin. Lekin, bunday tahalluslar ham, albatta, ro'yxatdan o'tkazilmog'i lozim. Bunday "tahallus"larda, birinchidan, kompaniyalarga direktorlik qiluvchi shaxsning ismi yoki familiyasi ham ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Agar ularning ism-familiyasi o'zgargan bo'lsa, oldingi ismi va familiyasini ham ko'rsatish talab etiladi, ikkinchidan "tahallus"larga kompaniyaning ro'yxatdan o'tkazilgan joyi, nomi va nomeri ham ko'rsatilishi mumkin, uchinchidan, kompaniya rahbariyati kompaniya uchun to'langan aksiyadorlik kapitalining miqdori to'g'risidagi ma'lumotnomani ham ko'rsatishi mumkin.

Kommandit aksiyadorlik jamiyatlarini ro'yxatdan o'tkazish davrida paydorlarning ro'yxati keltirilib, ularning huquqlari doirasi ham belgilanishi lozim. Yillik moliyaviy hisobot topshirilganda ham offshor korxonalar uchun joriy qilingan 42 funt sterling to'langanligi to'g'risida kvitantsiya va paychilar ro'yxati ilova qilinadi. Shu bilan birga korxonalar rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar ham talab etiladi.

Kompaniyani tashkil etish va ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari, asosan, kompaniya uchun ruxsatnoma olish, kompaniya nizomi va ta'sis hujjatlarni taqdim etishdan iboratdir. Agar nizom ta'sis hujjatlar bilan birgalikda ko'rib chiqilmasa, bu hujjatlarda kompaniyaning maqsadini yoritib berish talab etilmaydi. Agar nizom bu hujjatlar bilan birgalikda ko'rib chiqiladigan bo'lsa, bu hujjatlarga talab kuchliroq bo'ladi va ularda, birinchidan, kompaniyaning to'liq nomi, ikkinchidan, Men orolida joylashgan manzilgohi, uchinchidan, aksiyador va paychilarning javobgarligi cheklanganligi to'g'risidagi qarori, to'rtinchidan, kompaniyani tugatish davrida kommandit jamiyatlari ishtirokchilarining majburiyatlari, beshinchidan, kompaniyaning imtiyozlari, vakolatlari va boshqalar ko'rsatilishi talab etiladi.

Kommandit jamiyatlariga yangi a'zolar qabul qilayotgan vaqtda ularga a'zolik badallarining miqdori kompaniya nizomida ko'rsatilishi lozim. Offshor tadbirkorlik faoliyati davrida talablarga bo'ysunmaslik yoki ularni qo'pol ravishda buzishlik hollariga yo'l qo'ygan kompaniyalardan qonun yo'li bilan 65 funt sterling miqdorida jarima undiriladi. Kompaniyalarni tashkil etishda ularga yuridik maslaxatlarni bergan yuristlarning xizmat xaqi kompaniyaning katta kichikligi va tayyorlanadigan hujjatlarning hajmiga karab 100 funt sterlingdan 850 funt sterlinggacha belgilangan. Kompaniya nomi kelishilgandan so'ng kompaniya nizomini ro'yxatdan o'tkazish bir-ikki hafta ichida amalga oshiriladi. Kompaniya tashkil etilgandan so'ng direktorlar kengashining birinchi yig'ilishi o'tkaziladi. Bu yig'ilishda ikkinchi direktor va sekretarning vakolatlari tasdiqlanib, kompaniya manzili va muhri to'g'risidagi hujjatlarga ham o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Kengashning vakolatlari kompaniya nizomida belgilangan bo'lib, "Kompaniyalar to'g'risida"gi Qonunda

belgilangan qoidalarga amal qilgan holda faoliyat ko'rsata boshlaydi. Kompaniya umumiy yig'ilishiga quyidagi masalalarni, birinchidan, direktorlarni tayinlash, ikkinchidan, yillik hisobotni tekshirish uchun auditorlarni tayinlash va ularga moddiy rag'batlantirish miqdorlarini belgilash, uchinchidan, dividendlarni to'lash miqdorini belgilash, to'rtinchidan, kompaniya nizomi va ta'sis hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, beshinchidan, aksiyador kapitali tarkibidagi o'zgartirishlarni tasdiqlash, oltinchidan, kompaniyani tugatish va boshqa masalalarni ko'rib chiqish huquqi berilgan.

Umumiy yig'ilish kompaniya a'zolarining shaxsiy ishtiroki bilan va shuningdek, ularning ishtirokisiz, ya'ni modemlar, fakslar orqali ham o'tkazilishi mumkin. Ovoz berish esa shaxsan yoki ishonchli vakillar orqali amalga oshiriladi. Qabul qilinadigan qarorlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- yig'ilishga kamida 7 kun qolgunga qadar kompaniya a'zolariga tanishtiriladigan umumiy qarorlar;

- yig'ilishga 21 kun qolguniga qadar tanishtiriladigan, maxsus qarorlar, bu qarorlarning qabul qilishda yig'ilish qatnashchilarining kamida 75 %i ovoz berishi talab etiladi;

- yig'ilishga 4 kun qolgunga qadar tanishtiriladigan maxsus qarorlar bilan bir qatordagi favquloddagi qarorlar.

Qabul qilingan qarorlarning nusxalari qaror qabul qilingandan so'ng 1 oylik muddat ichida ro'yxatdan o'tkazuvchi tashkilotga taqdim qilinishi lozim. Kompaniyaga tegishli barcha hujjatlar – aksiyadorlar ro'yxati, yillik buxgalteriya va boshqa turdagi hisobotlar, umumiy va direktorlar yig'ilishining qarorlari kompaniyaning asosiy manzilgohidagi arxivda saqlanishi zarur.

Men iqtisodiy orolida kompaniyalardan tashqari offshor tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi xalqaro sherikchilik asosida ma'suliyati cheklangan jamiyatlarni ham tuzish mumkin. Bunday shirkatlarning bosh sheriklari bo'lib rezident xalqaro kompaniyalar, norezident firmalar va ma'suliyati cheklangan jamiyatlar bo'lishi ham mumkin.

Shunday qilib, Men orolida faoliyat ko'rsatayotgan barcha banklarni va sug'urta kompaniyalarni, qurilish tashkilotlari, investitsiya, ijtimoiy sug'urta va boshqa ixtisoslashtirilgan kompaniyalarning faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish hamda soliqqa tortish yuqorida qayd etilgan qonun-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Biroq, ushbu orolda ham tavakkalchi kompaniyalarni yoki yangi banklarni tashkil etish masalalari muammoligicha qolmoqda. Chunki, bu erda yangi banklarni emas, balki faoliyat ko'rsatib turgan banklarning filiallarini ochishga ruxsat etiladi. Shuning uchun ham Men orolida doimo mavjud offshor tadbirkorligi bilan bog'liq qonun-qoidalarni takomillashtirish ustida izlanishlarni olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Bermud erkin o'z-o'zini iqtisodiy boshqarish hududi Atlantika okeanining Shimoliy-G'arbiy qismida joylashgan bo'lib, 7 ta yirik va 150 dan ortiq mayda orolchalardan tashkil topgan. Umumiy maydoni 54 km² ni tashkil etib, aholisi 60 ming kishidan ortiqdir. Mamlakatning pul birligi bo'lib Bermud dollari (BD \$) hisoblanadi (ushbu dollar kursi mamlakatda AQSh dollari bilan baravar kursda

yuritiladi). Bermud orollari jahonning eng soʻlim va sirli oromgohlardan biri boʻlib, bu erda tashkil etilgan offshor hududlar oʻzining ishonchliligi bilan dunyo hamjamiyatining hurmatiga sazovordir.

Bermud orollarida faoliyat koʻrsatayotgan tadbirkorlar foyda va daromad soligʻini, dividendlardan olinadigan soliqni, koʻchmas mulk va meros soliqlarini toʻlashmaydi. Erkin iqtisodiy hududda faoliyat koʻrsatayotgan kompaniyalar taʼsis shartnomalar asosida roʻyxatga olinib, ularning shaxsi, moliyaviy barqarorligi va faoliyat yoʻnalishlari oʻz vaqtida nazorat qilib turiladi.

Bermud EIHDa faoliyat koʻrsatayotgan kompaniyalarga nisbatan baʼzi-bir cheklanishlar ham qoʻllaniladi. Masalan, offshor kompaniyalarga depozitlar qoʻyishga ruxsat etilmaydi. Chunki, bu odat Bermud orolining milliy urf-odatlariga zid boʻlib, uning ustidan nazoratni Moliya vazirligining koʻrsatmasi bilan Bermud orolining gʻaznachiligi amalga oshiradi.

Bermud orollarida kompaniyani tashkil etishning dastlabki bosqichida kompaniyaning nomi roʻyxatga olish tashkilotlari bilan kelishib olinadi. Soʻng kompaniyaning shugʻullanishi mumkin boʻlgan yoʻnalishlarini toʻlaligicha aks ettiruvchi maʼlumotlar orol roʻznomalarining birida eʼlon qilinadi. Shundan soʻng esa taʼsis shartnomasiga Moliya vazirining ruxsatnomasini olish uchun Bermud orolining gʻaznachiligiga ariza beriladi. Arizaga taʼsischining ismi-sharifi, yashash joyi, kompaniyaning har bir aʼzosining yashash joyi koʻrsatiladi. Bundan tashqari ularning daromadlari toʻgʻrisidagi deklaratsiya ham qoʻshib topshiriladi.

Bermud orollarida kompaniyani roʻyxatdan oʻtkazish uchun 12000 BD\$ miqdoridagi minimal ustav kapitali talab etiladi. Biroq, bu orolda roʻyxatdan oʻtkazilgan kompaniyalarning asosiy qismi Gongkong rezidentlari boʻlganligi uchun ulardan 100000 Gongkong dollari (NK\$) miqdoridagi minimal ustav kapitali talab etiladi. Aksiyadorlar kompaniyalariga faqatgina oʻzlarining nomlari yozilgan aksiyalar chiqarishga ruxsat etiladi.

Bermud orollarida tashkil etilgan kompaniya xususiy “trast”ga tegishli boʻlsa, u holda moliya vaziri uchun gʻaznachilikka quyidagi maʼlumotlarni topshirish lozim boʻladi:

- kompaniyaning nomi, manzili va uning faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar;
- kompaniyani tashkil etuvchining ismi-sharifi, familiyasi va fuqaroligini koʻrsatuvchi hujjat;
- kompaniyaning ijrochi “ishonchli vakili”ning ismi-sharifi, familiyasi va fuqaroligini koʻrsatuvchi hujjat;
- ikkala mulkdor tomonidan imzolangan taʼsis shartnomasi.

Bermud orollarida jismoniy shaxsdan har doim ham deklaratsiya talab qilinavermaydi. Faqatgina taʼsis etuvchining shaxsiy deklaratsiyasi yoki naf oluvchiga tavsiya berish bilan kifoyalanishi mumkin. Agar naf koʻruvchiga ishonib topshirilgan mulkning tuzilishi murakkab boʻlsa, u holda muassis xolding kompaniyalar zanjirida faoliyat koʻrsatishi mumkin.

Bermud orollarida ishonchli boshqaruv asosida mulkni boshqarish kompaniyalarini tashkil etish uchun ruxsat etilgan. Bunday korxonalarini tashkil etish

1991 yilda qabul qilingan “Ishonchli mulklarni boshqarish kompaniyalari to‘g‘risida”gi qonunga asosan, tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatish uchun litsenziya berilishi talab etiladi. Litsenziya olish davrida kompaniya rahbariyati kompaniyaning faoliyat ko‘rsatishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligini va bu xizmatlar ko‘rsatishning samaradorligi yuqori darajada bo‘lishligini isbot qilib berishi lozim.

Bermud orollarida sug‘urta va qayta sug‘urta qilish kompaniyalarini tashkil etish esa xizmat ko‘rsatish hajmi va sifati bilan baholanadi. Bu kompaniyalarni tashkil etish 1978-yilda qabul qilingan “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonunga asosan, amalga oshiriladi. Kompaniyalar ustavi va ta‘sis hujjatlari esa ushbu qonunning talablari asosida ishlab chiqiladi. Asosiy faoliyatning boshqa turlari bilan shug‘ullanish uchun esa kompaniya ruxsatnoma olishi zarur. Ruxsatnomani olish davrida kompaniya faoliyati to‘liq tekshiruvdan o‘tkaziladi. Kompaniya o‘z ta‘sis hujjatlarini Bermud oroli g‘aznachiligiga topshirishdan oldin tajribali mutaxassislar bilan maslaxatlashib olishi lozim. Chunki, Moliya vaziri kompaniya faoliyatining asosiy yo‘nalishlari milliy an‘analarga zid bo‘lsa, kompaniyani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ruxsat bermaydi. Kompaniyaning ta‘sis hujjati ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng kompaniya o‘z faoliyatini boshlashi mumkin. Kompaniya faoliyatini boshlashidan oldin ichki boshqaruv tuzilmalarini shakllantirib olishi lozim. Kompaniyaning birinchi yig‘ilishi odatda vaqtinchalik direktorlar kengashi vazifasini bajaruvchi yig‘ilish hisoblanib, unda ta‘sischilar tomonidan tavsiya qilingan vakillar ishtirok etadi. Yig‘ilishda vakillar birinchidan kompaniyaning nizom loyixasini va kompaniyaning ichki boshqaruv tuzilmalariga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni imzolaydi, ikkinchidan aksiyalarni taksimlaydi, uchinchidan aksiyadorlar yig‘ilishining bayonnomasini va yig‘ilishda qabul qilingan kompaniyaning nomini ko‘rsatuvchi hujjatlarni hukumat organlariga topshirish uchun qabul qiladi.

Bermud orollarida Xalqaro biznes kompaniyalar (International business companies) ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Orollarda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalar sifatli va ishonchli ish yuritishlari bilan London, Nyu-Yorkda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalaridan so‘ng 3 o‘rinda turadi. Orollarda kompaniyalarni soliq to‘lashdan ozod etish Moliya vaziri tomonidan amalga oshiriladi. Kompaniyalar foyda solig‘ini kamaytirilgan miqdorda to‘lashi bilan bir qatorda kapitalning o‘sishidan olinadigan daromad solig‘ini va shuningdek, aksiyadorlar daromadidan olinadigan soliqlarni ham to‘laydi.

Britan-Virgin orollari Karib dengizi basseynida joylashgan bo‘lib, Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tayinlangan gubernator tomonidan boshqariladi. Ushbu davlat jahon xo‘jaligida ijtimoiy-siyosiy jihatdan tinch davlatlardir. Pul birligi bo‘lib AQSh dollari hisoblanadi. Britan-Virgin orollarida butun dunyoga mashhur bo‘lgan moliya korporatsiyalarining (Barglays, Deloitte d Touche, KPMG, Chase Manhattan) ofislari joylashgan. Shuningdek, ushbu orollarda 200 mingdan ortiq kompaniyalar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ular imtiyozli soliq tizimlari asosida faoliyat ko‘rsatadi. Bu kompaniyalar ichida sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar, o‘zaro yordam fondlari, xolding va trast kompaniyalari va shuningdek, jahonning boshqa turli xil kompaniyalarining vakolatxonalari o‘zlari uchun mustaxkam sharoitni yaratgan holda faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Shuni unutmaslik lozimki, “offshor”

biznes faoliyati shunday nozik tadbirkorlik faoliyatki, bunda faqatgina soliq tizimi imtiyozlarini emas, balki bu kompaniyalarning faoliyatini nazorat qilib turish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham orol ma'muriyati turli xil mablag'larning orolga kirib kelishini nazorat qilib, oroldagi boshqaruv usullarni yildan-yilga takomillashtirib kelmoqda. Orol davlatining gerbida tasvirlangan Buyuk Britaniya bayrog'i chet el investorlarini turli nopok yo'llardan (jinoiy ishlardan) saqlab turuvchi gerb sifatida tasvirlangan.

Britan-Virgin orollarida soliq stavkalari past bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdori esa yuqoridir. Orollarda 1 akra (1 akra – 0,405 ga) erning bahosi esa 100 ming AQSh dollaridan yuqoridir. Shu bilan birga aholi ma'lumotliligining yuqoriligi jihatdan ham Karib basseynidagi boshqa orollardan farq qiladi. Chunki bu yerda AQSh va Buyuk Britaniyaning obro'li oliygohlarini bitirib chiqqan tajribali mutaxassislar xizmat qilishadi. Orollarda immigrant aholi yuqori bo'lib (umumiy aholining 51-52 %ini tashkil etadi), asosan, Karib havzasining Sharqiy tumanlaridan kelgan Dominikan Respublikasining fuqarolaridir. Agar shu tendensiyalar orollarda davom etaversa, tez orada mahalliy aholining assimilyatsiyasi, ya'ni urf-odatlarini mutlaqo yo'qolib ketishi ham mumkin. Shuning uchun ham mamlakatda hozirgi kunda immigratsiyaning qonun- qoidalariga bir qator o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Britan-Virgin orollari davlati moliya va turizm sohalari bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan yiliga 200 mln. AQSh dollari miqdoridan yuqori daromad ko'radi. XX asrning 80-90 yillarida orolning offshor mexanizmini shakllantiruvchi xalqaro biznes kompaniyalari garchi qisqa muddatli inqirozlarni boshdan kechirgan bo'lsada, jahon davlatlari bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirib kelmoqda.

Nauru davlati Tinch okeani havzasining markazida, ya'ni ekvatoridan 42 km Janubda va 167 gradus Sharqiy uzunlikda joylashgan. Nauru oroliga eng yaqin joylashgan orol Oshen hisoblanib, ushbu orollar o'rtasidagi masofa 300 km ni, Avstraliyaning Melburn shahridan esa 4000 km ni tashkil etadi. Bu orolga birinchi bo'lib kelgan Yevropaliklar Nauru orolining go'zal tabiati va iqlimini, aholisining mehmondo'stligini juda yoqtirib qolishgan edi. Shuning uchun ham Nauru oroliga kit ovlovchilar va savdo kemalari tez-tez kirib turishadi.

Nauru dunyodagi yagona poytaxtsiz davlat bo'lib, uning umumiy maydoni 21 km² ni, orol aylanasi uzunligi esa 19,3 km ni tashkil etadi. Shuning uchun ham bu orol Buyuk Britaniya qo'shma qirolligining eng kichik a'zo-davlatlaridan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda ishsizlar sinfi deyarli yo'q, chunki 1907 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelayotgan fosfor konlari deyarli barcha aholini ish bilan ta'minlab turibdi. Ushbu konlarda ishlayotgan ishchilarning jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlari garchi yuqori bo'lsa-da, biroq, Katta Erdan uzoqda joylashganligi sababli aholining turmush darajasi birmuncha past. Aholining transport vositasi bo'lib, asosan, mototsikl hisoblanadi, chunki, unda butun bir orolni aylanib chiqish mumkin.

Mamlakatda 100 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ularning 700 mingi tub aholi hisoblanib, etnik kelib chiqishi jihatdan polineziyaliklarga yaqin bo'lgan 12 ta urug'ga bo'lingan. Aholining qolgan qismini esa fosfor konlarida ishlash uchun

Tinch okeanining boshqa orollaridan kelganlar tashkil etadi. Orol aholisining ko'pchiligi ingliz tilida gaplashadi. Davlat tili garchi ingliz tili hisoblansa-da, mahalliy tub aholi o'zining qadimgi tili va madaniyatini saqlab qolgan.

Nauru davlatini 18 kishidan iborat bo'lgan Parlament boshqaradi. Parlament a'zolari yoshlariga qarab o'tkaziladigan referendumlar orqali saylanadi. Vazirlar Mahkamasi tarkibiga 5 vazir kiritilib, Vazirlar Mahkamasining raisi bir vaqtning o'zida mamlakat Prezidenti bo'lib ham hisoblanadi. Mamlakatning Oliy sudini esa Bosh hakam boshqaradi.

1888 yilga qadar mamlakat Marshall orollarining protektorati sifatida Germaniya qaramog'ida bo'lgan. Nemislarning yirik savdo korxonasi hisoblangan Jaluit Gassellscaft firmasi protektorat orol davlatlarni rivojlantirish uchun katta moliyaviy mablag' ajratgan. Buning evaziga esa birmuncha iqtisodiy imtiyozlarga va hattoki, Marshall orollari va Naurudagi tabiiy boyliklardan foydalanish huquqiga ham ega bo'lgan.

1900-yilda Buyuk Britaniya kompaniyasi Nauru va Oshen orollarida tasodifan fosfor konlarini ochishdi. Avstraliyaning Pacific Islands Company firmasi britaniyaliklarning Nauru orolida tabiiy boyliklarni izlab topish va qayta ishlash bo'yicha izlanishlar olib borishi yuzasidan Germaniyaning Jaluit Gassellscaft kompaniyasi bilan muzokaralar olib borgan edi.

Tinch okeani fosfat kompaniyasi shartnomaga (1905 y.) muvofiq Nauru davlatida o'tkaziladigan qazuv-qidiruv ishlari natijasida yetkaziladigan moddiy zararni qoplash majburiyatini olgan edi. Shuning uchun ham 1907-yilda boshlangan fosfat qazib chiqarish ishlari hozirgi kunga qadar (Ikkinchi jahon urushi yillarini hisobga olmaganda) davom etib kelmoqda. Mamlakat hududi Birinchi jahon urushi yillarida Avstraliya qo'shinlari tomonidan bosib olingan bo'lsa-da, 1921-yilga qadar Nauru oroli Buyuk Britaniya nazorati ostida bo'lgan.

Birinchi jahon urushidan keyin Germaniya mustamlakalarining parchalanishi oqibatida Nauru orolini qo'la kiritish uchun g'olib chiqqan kapitalistik davlatlar o'rtasida kurash kuchayib ketgan edi. Jumladan, AQSh bu orolning manfaatlarini himoya qilib, orolda boshqaruvning mandat tizimini qo'llashni taklif qilib chiqqan bo'lsa, boshqa kapitalistik davlatlar esa anneksiya (bosqinchilik) ko'rinishini ma'qullashgan edi.

Avstraliyaning o'sha davrdagi Bosh Vaziri Xyuz ham Nauru davlati ustidan nazorat qilishning mandat usulini qo'llab-quvvatlab, o'z fikrini quyidagicha izohlab bergan edi: "...Nauru davlati er yuzida xarajatlarga nisbatan daromadlari oshib borayotgan yagona davlat hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakat hududidan qazib olingan fosfor o'g'itlari, nafaqat, tijorat maqsadlari uchun, balki, dehqonchilik qilinadigan erlarimizning hosildorligini oshirish uchun ham lozimdir. Agar bu fosfor bo'lmasa – yerlarimizning hosildorligi pasayib, aholining daromadlari kamayib, o'zlariga yetarli bo'lmay qolishi, natijasida, boshqa joylarga ish izlab ketib qolishi mumkin...". Yangi Zelandiya davlati esa Avstraliya hukumatining bunday fikriga qarshi chiqib, Nauru orolini yakka o'zi idora etishini bildirgan edi.

Buyuk Britaniya hukumati boshqarishning optimal yo'lini izlab topdi. Bu usul Buyuk Britaniya, Avstraliya va Yangi Zelandiya hukumat boshliqlari tomonidan

ishlab chiqilib, "The Nauru Island Agreement" deb nomlangan qo'shma shartnoma imzolandi. Ushbu shartnomaga ko'ra kongra egalik qiluvchi Tinch okeani fosfor kompaniyasiga barcha xarajatlarni qaytarib berish ko'zda tutildi va kompaniyani dastlabki besh yillar mobaynida Avstraliya hukumati boshqarib turadigan bo'ldi.

XX asr 60 yillarining oxiriga kelib Nauru hukumati konlarga egalik huquqini saqlab kelgan shartnomaga a'zo bo'lgan davlatlarga 21 mln. doll. atrofida tovon puli to'lab, fosfor konlariga mustaqil egalik qila boshladi. Bu davrga kelib konlarning 1/3 qismi qazib olingan bo'lib, orol er maydonining 4/5 qismini tashkil etgan edi. Mustaqillik tufayli (1970 yil) dunyoga kelgan Nauru fosfor korporatsiyasi faoliyat ko'rsata boshladi.

Avstraliya va Yangi Zelandiya davlatlari Nauru fosforit konlaridan yiliga 2 mln. tonna fosfor qazib olishgan edi. Bu davrda Nauru EIHDa Yaponiya, Janubiy Koreya, Filippin kabi yangi iste'molchi davlatlarni ham paydo bo'lganligini ko'ramiz. Nauru fosfor kompaniyasi, nafaqat, mahsulot qazib olish va uni eksport qilish bilan, balki, oroldagi erlarni qayta tiklash fondiga mablag'larni yig'ish ishlari bilan ham shug'ullangan edi. Nauru hukumati, hatto, bu davrda Avstraliya hukumatidan va shuningdek, Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiyadan uning yerlariga yetkazilgan zararni qoplashi zarur bo'lgan to'lovlarini to'lash shart ekanligini ham 1968-yildan beri ta'kidlab kelmoqda.

Avstraliya hukumati Nauru orolida "Davey commitee" nomli qo'mita tashkil etdi. Biroq, qo'mita, haqiqatda ham, oroldagi erlarni qayta tiklash zarurligini tan olgan bo'lsa-da, lekin, hech qanday ishni amalga oshirmadi. Chunki, Avstraliya va Buyuk Britaniya davlatlarini Yangi Zelandiyaning kichik orollarining muammosi mutlaqo qiziqtirmasdi, kompensatsiya (tovon) to'lashni esa, umuman, hayoliga ham keltirmagan edi. Faqatgina 1987-yilga kelib, bu uch hukumat ma'muriyati tomonidan aktivlari 60 mln. dollarga teng bo'lgan Britaniya fosfor kompaniyasini tarqatib yuborish to'g'risidagi o'zaro bitim imzolandi, xolos. Sobiq sheriklar qaroriga muvofiq, agar Nauru hukumati Britaniya fosfor kompaniyasining mulkini to'lig'icha qo'lga kiritisa, er uchun ham kompensatsiya to'lovini amalga oshiradigan bo'ldi. Shuning uchun ham Nauru hukumati tomonidan 1986-yilda mazkur muammolarni o'rganish va kompensatsiya to'lovini amalga oshirish masalalarini hal etish maqsadida maxsus komissiya tuzilgan edi.

Buyuk Britaniya, Avstraliya va Yangi Zelandiyaning hukumat a'zolaridan iborat maxsus komissiya oroldan fosfor o'g'itini qazib olish davrida konning ochilgan qismidagi erlarni qayta tiklab, uni yaroqli holga keltirish uchun, konni ekspluatatsiya qilgan Germaniya hukumati javobgar, degan xulosaga keldi. Shu bilan bir qatorda, komissiya o'tkazgan tekshirishlar asosida sobiq sheriklar tomonidan orolda fosfor qazib olishda, birinchidan, fosfor qazib olingan joylardagi erlarni qayta ishlab, yaroqli holga keltirish to'g'risidagi majburiyatlarga rioya qilmaganliklarini, ikkinchidan, erni qayta ishlamasdan Nauru xalqiga katta ziyon keltirganliklarini, uchinchidan, tabiiy resurslarga tegmaslik to'g'risidagi tamoyilga mutlaqo rioya qilmaganliklarini ham ko'rsatib o'tgan edi.

Bundan tashqari, komissiya a'zolari sobiq sheriklarni Nauru mamlakatida qazib olingan fosforit o'g'itidan katta foyda olganligini, mamlakat mustaqil deb e'lon

qilingandan so'ng (1970 y.) esa o'zining mulkini o'ziga 21 mln. dollarga sotib olishga majbur etganligini ham qayd etgan edi. Komissiyaning bunday xulosasi Buyuk Britaniya, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi davlatlarining hukumat boshliqlariga yuborilgan bo'lsa-da, ulardan hech qanday ijobiy javob xati olinmagan edi.

1989-yilda Nauru hukumati 1920-yildan to 1967-yilgacha oroldagi boyliklarni qazib olib, erlarni qayta tiklash uchun qayg'urmagan sherik mamlakatlardan biri Avstraliya davlatini xalqaro sudga berdi. 1993-yilda Gaaga xalqaro sudi Avstraliya hukumatidan yetkazilgan zararni qoplash uchun 100 mln. dollar miqdorida mablag'ni undirish to'g'risida hukm chiqardi. Mazkur hukm asosida undirib olingan mablag'ni sarf etish uchun Nauru hukumati strategik reja loyihasini ishlab chiqdi. Ushbu reja asosida mamlakatda erlarning hosildorligi tiklandi, ohakli tuproqlardan ohakli marmar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va oroldagi hayvonot va o'simlik dunyosini saqlab qolishga e'tibor qaratildi. Oroldagi asosiy muammolardan biri ichimlik suvi manbalarini izlab topish chora-tadbirlari ham ishlab chiqildi.

Nauruda tadbirkorlik bilan shug'ullanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u ham bo'lsa bu davlatda hech qanday soliq va yig'imlar olinmasligidir. Orolida munitsipal xo'jalik va tijorat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar faoliyati, asosan, mamlakatning 12 ta tumanidan saylangan vakillar tomonidan nazorat qilib turiladi. Faoliyat ko'rsatayotgan barcha agentliklar, telegraf, televon va telekommunikatsiya tarmoqlari mamlakatni AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Hindiston, Filippin, Yaponiya, Gonkong, Singapur kabi davlatlar bilan bog'lab turadi.

Mamlakatning Markaziy banki Parlament tomonidan qabul qilingan "Banklar faoliyati to'g'risida"gi Qonunga (1975 y.) asosan, tashkil etilgan bo'lib, u barcha tijorat banklari bilan korrespondent aloqalarini o'rnatgan edi. Nauru Markaziy banki bir vaqtning o'zida ham Milliy bank, ham Xalqaro bank vazifasini o'taydi. 1972-yilda "The Republik of Nauru Finance Corporation" korporatsiyasi "Moliya tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga asosan, tashkil etilgan bo'lib, uning maqsadi xo'jalik subyektlarini va qurilishlarni kapital qo'yilmalar orqali moliyalashtirishdan iborat edi. Nauru mamlakati o'zining milliy valyutasiga ega emas. Ular milliy valyuta va muomala vositasi sifatida, asosan, Avstraliya dollaridan keng foydalanishadi. Shuning uchun ham mamlakatda valyuta nazorati mavjud emas.

Nauru davlatida aholidan daromad solig'i olinmaydi. Chunki, soliqlar va yig'imlardan budjetga tushadigan tushumlar budjet daromad qismi hisobiga qoplanadi. Budjetning daromad qismi, asosan, eksport qilinadigan fosfor mahsulotidan, shuningdek, moliya, baliqchilik va dengiz flotidan keladigan soliq tushumlaridan tashkil topgan.

Nauru erkin iqtisodiy hududida qonunchilikni tarkib topishi boshqa iqtisodiy hududlarga nisbatan bir muncha farq qiladi. *Jumladan, boshqa EIHLarda soliq imtiyozlari keng qo'llanilsa, bu erda esa soliq tizimi mutlaqo yo'q.* Lekin shunday bo'lsa-da, mamlakatda jinoyatchilikka qarshi qattiq kurash olib boriladi. Agar xo'jalik subyektlarning faoliyatida bunday holatlar yuz bersa, ya'ni investorlar yoki aksiyadorlarning huquqlari poymol etilsa, bunday holatga yo'l qo'ygan xo'jalik

subyekti bilan shartnomalar darhol uzilib, chet el fuqarosi bo'lsa mamlakatdan chiqarib yuboriladi.

Har bir korporatsiyada ro'yxatdan o'tkazilgan kotib bo'lishi shart. Mamlakatda direktorlar kengashi yoki aksiyadorlar yig'ilishini qayerda va qachon o'tkazilishiga talab qo'yilmaydi. Biroq, savdo korxonalari bir yilda bir marta o'zlarining yig'ilishlarini o'tkazib turishlari shart. Xolding kompaniyalar uchun esa bunday talab qo'yilmagan. Nauru iqtisodiy hududida korporatsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun 2-3 kun vaqt ketadi xolos. Ro'yxatdan o'tgan korporatsiya agar bank, sug'urta yoki trast operatsiyalarini amalga oshirmoqchi bo'lsa, u holda litsenziya olishi talab etiladi. Bank litsenziyasi 1972-yilda qabul qilingan "Korporatsiyalar" to'g'risidagi va 1975-yilda qabul qilingan "Banklar" to'g'risidagi qonunlar asosida amalga oshiriladi. Litsenziyani berish davri to'ldirilgan hujjatlar to'lig'icha talabga javob bersa, 3-4 oy ichida amalga oshirilgan.

Nauru mamlakatida erga to'raligicha egalik qilish huquqi faqatgina tub aholiga ruxsat etilgan. Qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarini rivojlantirish uchun Nauru mamlakatiga kapital kiritish unchalik samara bermaydi. Chunki bu yerda makroiqtisodiyotning ushbu sohalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yetarli emas. Shuning uchun ham Nauru mamlakatida faqat savdo va xolding kompaniyalari, banklar, sug'urta kompaniyalarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, tovar, imtiyoz, offshor hudud, offshor kompaniya.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi hududlarda EIHLarning tashkil etilishi va rivojlanishi o'ziga xos tajribaga ega. Ularni o'rganish esa g'oyatda muhim. Chunki, bugungi kunda aynan mazkur hududlarda EIHLar o'zining katta imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Xususan, ularda ro'yxatga olinayotgan kompaniyalar va ularga tegishli aktivlar va investitsiyalar hamda tashqi savdo aylanmasi hajmining o'sib borayotganligi e'tiborga molikdir.

2. Bugungi kunda Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi Beliz, Men, Bermud, Britan-Virgin va Nauru kabi hududlarda EIHLarni tashkil etish ularning cheklangan iqtisodiy imkoniyatlari sharoitida hududlar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni muhim o'rin tutmoqda. Ulardagi yaratilgan barcha qulaylik va imtiyozlar dunyoning ko'plab investorlarini o'ziga jalb etishga sabab bo'lmoqda.

3. Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi hududlarda EIHLarda ro'yxatdan o'tish, faoliyat ko'rsatish dunyoning boshqa hududlariga nisbatan qulayligi va foydaliligi turli moliyaviy xizmatlar turlarining faol rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning natijasida bunday "nazoratsiz hudud"ga transmilliy kompaniyalar oqimining ortib borishi kuchayib bormoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi hududlarda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi?

2. Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi qaysi hududlarda EIHLar rivoji

kuzatiladi?

3. Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi hududlarda EIHLarda investorlarni va kompaniyalarni o'ziga jalb etuvchi qanday omillar mavjud?

4. Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi hududlarda EIHLarni tashkil etish va unda rezidentlar faoliyati xususiyatlarini tushuntirib bering.

5. Ushbu hududlarda tadbirkorlar qanday imtiyoz va qulayliklarga ega?

6. Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi hududlarda EIHLarni tashkil etish sabablari va samaralari haqida nimalarni bilasiz?

7.4. Rivojlanayotgan davlatlarda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish amaliyoti va tajribalari

Jahon iqtisodiyoti globallasuvi jarayonida milliy xo'jaliklarning hech qanday to'siqlarsiz, erkin holda iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari bugungi kunning eng dolzarb ahamiyat kasb etuvchi jarayoni sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki, xalqaro mehnat taqsimoti asosida davlatlarning o'zaro bog'liq iqtisodiyotga ega bo'lishi va rivojlanish jarayonida bir-birini taqozo etishi ularni o'zaro manfaatli shartlar asosida munosabatlarni yo'lga qo'yishga undaydi. Ushbu holat, nafaqat, rivojlanayotgan davlatlarga, balki, jahon xo'jaligi tizimida ishtirok etuvchi rivojlangan davlatlarga ham xosdir. Chunki, hech bir mamlakat, hattoki, u boy xomashyo va ishlab chiqarish resurslariga yoki yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lsa ham, o'z imkoniyatlari doirasida mustaqil rivojga erisha olmaydi.

Shuni hisobga olgan holda hozirda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'z hududlarida qator EIHLarni tashkil etish borasida keng chora-tadbirlarni amalga oshirmokdalar. Iqtisodiy zonalar turli shakllarda ta'sis etilishi mumkin: bojxona EIHLari, erkin ishlab chiqarish zonalari, erkin tadbirkorlik hududlari, yangi va zamonaviy texnologiyalar hududi, erkin bank xizmati zonalari, turizm markazlari va boshqalar shular jumlasidandir.

EIHLarning boshqa savdo hududlaridan farq qiladigan tomoni shundaki, ular uchun hukumat tomonidan mamlakatning boshqa hududlarida mavjud bo'lmaydigan imtiyozlar yaratiladi, qolaversa, ularning faoliyati doimiy va ijobiy tarzda rag'batlantirib boriladi.

Bugungi kunda EIHLarni tashkil etishda, asosan:

- erkin iqtisodiy zonalarda, shuningdek, ulardan tashqari hududlarda ish kuchi bandligini to'la ta'minlash;

- investitsiyalarni jalb etish (asosan, erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada);

- ishlab chiqargan mahsulotlari ichki bozorda mavjud bo'lgan mahalliy korxonalar faoliyatiga to'sqinlik qilmagan holda eksport qilishga qodir bo'lgan yirik kompaniyalarni o'zida mujassam etgan iqtisodiy zonalar tashkil etishga erishish kabi maqsadlar ko'zda tutiladi.

EIHLar joylashtirilishi mumkin bo'lgan hududlar, odatda, qo'shni va xorijiy davlatlarga chiqish uchun qulay bo'lgan chegara maydonlarida, dengiz portlarida, yirik magistral tarmoqlarida (temir va avtomobil yo'llari, aeroportlarda) joylashadi, ularning faoliyati sanoat, ilm va madaniyat markazlari faoliyati bilan, shuningdek,

katta miqdordagi tabiiy resurslar jam bo'lgan hududlar bilan o'zviy bog'liq bo'ladi.

Ko'p hollarda, EIHLarning yangi o'zlashtirilgan xo'jalik hududlarida tashkil etilishi ham maqsadga muvofiqdir. Ushbu hududlar rivojlangan sanoat ishlab chiqarishi va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lmasada, hukumatning uzoq muddatli umumdavlat dasturlarini amalga oshirish borasidagi muammolarni hal etish jarayonida muhim strategik ahamiyat kasb etishi mumkin. Xususan, mamlakatning yoqilg'i-energetika va mineral xomashyo bazasini mustahkamlash kabi vazifalar shular jumlasidandir.

EIH ko'plab Osiyo, Afrika va Lotin Amerika davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir o'tkazmoqda. Resurslar kamligi, ba'zi davlatlarda esa etishmovchiligi sharoitida EIHLar iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi va bu milliy iqtisodlarni Dunyo xo'jaligiga kirib kelishiga olib keladigan haqiqiy va samarli vositadir. EIHLar tashqi iqtisodiy faoliyat aktivlashishiga, zamonaviy texnika va texnologiyalar kengroq qo'llanilishiga, yangi ishlab chiqarishlar, ilg'or infratuzilma, yangi ish joylari yaratilishiga, moliviy, innovatsion, ishlab chiqarish va sotish, tashqi iqtisodiy faoliyatni yangi usul va shakllarini o'zlashtirib qo'llanilishiga ko'mak berib kelishmoqda.

Masalan, Singapurni yagona eksport zonasiday qabul qilish mumkin. Eksport ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun bu mamlakatda 30 ga yaqin eksportga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish uchun jihozlangan ishlab chiqarish zonalari yaratilgan va bu ishlab chiqarishlarda mamlakatning qayta ishlash sohasida band bo'lgan ishchilarning 70% faoliyat ko'rsatmoqda. Natijada, aholisi bir necha mln. kishidan iborat bo'lgan davlat dunyoning yigirmata eng yirik eksporterlar qatoridan joy olgan. Shu bilan birga eksportga chiqariladigan qayta ishlash sanoatining 80% ga yaqin mahsuloti ishlab chiqarish hududlariga to'g'ri keladi, jumladan, elektrotexnik, elektron va kimyo sanoatlari mahsuloti, transport asbob-uskunalaridir. Ishlab chiqarish zonalari yordami bilan Singapur dunyoning eng yirik portlaridan biriga va Janubiy-Sharqiy Osiyoning yetakchi moliyaviy markaziga aylandi.

Sharq bilan G'arbni bog'lab turuvchi, qadimiy savdo yo'lida joylashgan BAAning Dubay shahridagi "Djebel Ali" nomli portida erkin iqtisodiy zona mavjud. Atrofidagi EIH bilan birgalikda bu port dunyoning eng katta, turli kemalarni qabul qila oladigan sun'iy port. "Djebel Ali" 1,5 mlrd. kishidan iborat iste'mol bozoriga ega ideal saqlash va distrebyuterlash markazidir. Bu zonada ajoyib havo yo'llari va zamonaviy aloqalar mavjud. EIHDa dunyoning yirik transmilliy kompaniyalar va banklar filiallari, yuridik, auditor va boshqa firmalar, reklama agentliklari, konsalting kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda va bu, o'z navbatida, soliqdan ozod bo'lgan holda biznes yuritish uchun ajoyib sharoitlar va imkoniyatlar tug'diradi. Mahalliy hukumat uchun "Djebel Ali" amalda yaratilgan loyihadir va bu zona 80% savdodan iborat iqtisod rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

EIHLar ko'plab rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiga har tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Moliyaviy resurslar etishmasligi sharoitlarida bu zonalar faoliyati rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiga, bu zonalarda har xil imtiyozlar, zarur bo'lgan infratuzilma, nisbatan malakali va arzon ish kuchlari va yengillashtirilgan ma'muriy jarayonlar mavjudligi sababli, bevosita chet el investitsiyalari kirib kelishini

ta'minlaydi. Bu soha bo'yicha yetarli statistik ma'lumotlar bo'lmaganiga qaramasdan, EIHLarga sarflangan chet el kapitali to'g'risidagi alohida ko'rsatkichlar hech kimni befarq qoldirmaydi.

O'z EIHLariga atayin kichik investoarlarni jalb qilayotgan Meksika, Yamayka, Mavrikiya davlatlari tajribalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarning kichik va o'rta firmalari yirik kompaniyalar faoliyatini muvaffaqiyatli to'ldirib bormoqda.

Mayda firmalar tez o'zgarib turadigan sharoitlar ta'sirida tezroq o'zgaradi va ular davlatlarning ichki bozor ehtiyojini to'liq qondirishga qodir. Ko'p davlatlarning investoarlarni tezroq jalb qilishga intilishini e'tiborga olib, bunday kompaniyalar eng yaxshi qisqa muddatli alternativa bo'lib qoldi, chunki, yirik kompaniyalar sekinroq faoliyat qilishadi va kichik kompaniyalarga o'xshab EIHLarning imtiyoz va imkoniyatlariga muhtoj emas.

Bunday hududlar faoliyatining kengayishi ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodida o'zgarishlar olib keldi: oldingi ashyoviy yo'nalishlardan voz kechish, faqat oddiy mahsulot emas, balki, ilm talab qiladigan mahsulot chiqaradigan, qayta ishlab chiqaradigan bo'ldi.

Bir qator Osiyo davlatlarida elektron sanoati paydo bo'lishi ham EIH faoliyati bilan bog'liq.

Bunga elektron mahsulotlarning 90% EIHDa ishlab chiqarilayotgan Malayziya misol bo'lishi mumkin. Bugungi kunda Malayziya dunyodagi yarim o'tkazgichlarini eksportyorlaridan eng yirigi.

Tayvanda joylashgan "Kaoching" EIHdi 1967 yilda oddiy kiyim tikish ishlab chiqarishidan boshlagan, keyinchalik moda talablariga javob beradigan kiyim tikishga o'tdi, undan keyin elektron texnikasini yig'ish yaratildi, elektronika sohasida sinov va loyihalash ishlarini boshladi. Hozirgi kunda "Kaoching" EIH transmilliy kompaniyalarning shtab-kvartiralarini va o'ta katta logistik markazlari joylashgan maydonga aylandi.

Boshqa davlatlarda ham EIHLar ilm talab qiladigan ishlab chiqarishlar rivojlanishi vositasi bo'ldi. Masalan, Meksika, Koreya, Singapur, Gonkong, Braziliya EIHLari elektronika, tele va audioapparatura, kompyuter texnikasi, yengil avtomobillarni ishlab chiqarmoqda.

Ishlab chiqarishni yaxshilashda, iqtisodni texnologik jihatdan qayta qurishda, printsiptial yangi mahsulot va texnologiyalar joriy qilinayotgan texnologik zonalarda faoliyat qilayotgan chet el kompaniyalari muhim rolga ega. Masalan, Xitoyning yangi va yuqori texnologiyalar zonalari bo'lmish texnoparklari mikroelektronika va informatsiya vositalari, genetika, biotexnologiya, aloqaning yangi usullari, yangi va quvvat saqlaydigan texnologiyalar, tabiat va atrof-muhitni saqlab qoluvchi vositalar kabi ilg'or yo'nalishlarga alohida e'tibor bermoqda. Oxirgi 15 yil ichida bu zonalarning ishlab chiqarish miqdori 10 barobar o'sdi. Shu davr ichida 1000 dan ortiq yangi ilm talab qiladigan mahsulot turlari o'zlashtirildi. Texnoparklar bu davlatda ilmiy-texnik progressning haqiqiy lokomotivlariga aylandi.

Xuddi shunday holatni biz Osiyoning boshqa davlatlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Tayvanda joylashgan "Sinchu" texnoparkining asosiy faoliyati elektron sanoati rivojlanishi, shu jumladan, kompyuter va pereferiya anjomlari, elektron

komponentlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq. Kishi boshiga ishlab chiqarish bo'yicha "Sinchu" mashhur "Silikon vodiysi" dan qolishmaydi. "Sinchu" dan eksport qilingan mahsulot ulushi milliy eksportining 4% ni tashkil qiladi. Yangi texnologiyalarni joriy qilishdan boshqa texnopark faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri ilmiy-texnik ma'lumotlarni davlatning xususiy kompaniyalari orasida ulardan buyurtma olish orqali, yangi ilmiy-texnik ma'lumotni tarqatishdir. Bunday harakatlar mahalliy sanoat texnologik darajasini oshirish deb bilinadi, chunki, Tayvanda, asosan, kichik firmala faoliyat ko'rsatishadi, ularda esa ilmiy sohada o'z ishlarini olib borishga imkoniyatlari ancha kam. Nihoyat, yuqori texnologiyali ilmiy markazlar joylashgan texnoparklar yaratilishi "aqlarni davlatdan ketib qolishi" ning o'rnini bosadi.

Rivojlanayotgan davlatlarning eksport savdosi rivojiga ishlab chiqarish va savdo hududlari ham katta hissa qo'shadi, bu davlatlarning iqtisodi dunyo iqtisodiga integratsiya bo'lishiga ko'maklashdi. Tayvan va Koreyaning eksporti to'liq EIHDan amalga oshiriladi. Xitoyda eksportga mo'ljallangan mahsulotning aksariyat qismi erkin iqtisod zonalarda ishlab chiqariladi. Malayziyada, masalan, 1979-yilda sanoat mollari eksportining 75% EIHDan bo'layotgan edi, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 55% ni tashkil qiladi, shuningdek, Mavrikiyada – 95%, Dominikan Respublikasida 80%, Keniyada – 75% va Meksikada 50%. ga teng.

Eksport-ishlab chiqarish zonalarning yaratilishi va eksport potentsiali shakllanishi bu davlatlar uchun nafaqat valyuta topish manbasi bo'ldi, balki, yalpi ichki omonatlar darajasi o'sishiga ko'makchi bo'ldi. Tayyor mahsulotlar eksporti bu sohani tarkibini yaxshiladi, yalpi daromadning o'sishi esa zamonaviy texnika va texnologiya, iste'mol tovarlar importini oshirishga imkoniyat berdi. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanish ilmiy-texnik progress bilan yonma-yon qadam bosishga va chiqarilayotgan mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga imkon yaratdi.

Rivojlanayotgan davlatlarda ishsizlik darajasini kamatirishda ham bu zonalar ahamiyati katta. XXI asr boshida rivojlanayotgan davlatlardagi EIHLarda band bo'lgan odamlarning soni 50 mln. kishidan oshdi, shuning 40 mln.ga yaqini birgina Xitoy davlatiga to'g'ri keladi. Aytib o'tish lozimki, EIHLarda ishlayotgan chet el kompaniyalar bilan mahalliy kompaniyalar orasida aloqalar o'rnatilishi, o'z navbatida, mahalliy ishlab chiqarishlarda ham bandlik darajasi oshishiga olib keladi. Eksportga qaratilgan zonalardagi ishlab chiqarish kompaniyalari subpudratchi sifatida faoliyat qilib, eksportda o'z ishtirokini ta'minlaydi va shu bilan birga yangi ishchilar olish imkoniyati parallel tarzda o'sib boradi. Masalan, "Maquiladoras" ishlab chiqarishlari rivojlanishi yondosh sohalarda 2 mln. dan ortiq yangi ish joylari yaratilishiga olib keldi. Xuddi shunday holatni Braziliya, Xitoy, Gvatemala, Gonduras, Indoneziya va boshqa davlatlarda ko'rish mumkin.

Singapur va Filippinda EIHLar malaka oshirish kurslarini tashkil etish va ularga qatnashayotgan ishchilarni rag'batlantirish yo'li bilan ish kuchini sifatini oshirmoqda. Bunday siyosat mahalliy ishchilarning ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi. Bundan tashqari, malaka oshirish jarayonida mahalliy boshqaruv kadrlari ham jalb qilinadi. va bu mahalliy tadbirkorlik darajasi o'sishiga olib keladi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun esa bu o'ta muhim, chunki, ularning ko'pida dunyo bozorida ishlash

uchun zarur menejment va marketing sohalari bo'yicha mutaxassislar yo'q.

Ko'p rivojlanayotgan davlatlarda EIHLarda faoliyat olib borayotgan chet el kompaniyalari davlatda belgilangan maoshdan yuqoriroq maosh to'laydi. Bular qatoriga Kot-d'Ivuar, Gonkong, Xitoy, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va boshqalar kiradi.

EIHLarning mamlakat iqtisodiga ijobiy ta'sirini quyidagi jihatlardan ko'rish mumkin:

- chet ellik investorlar EIHLardagi ishlab chiqarishlarga nisbatan zamonaviy texnologiyalarni olib keladilar, ishlab chiqarish jarayoniga zarur bo'lgan yangi menedjment va boshqaruv usullarini singdiradilar;

- mahalliy ish kuchi yangi mehnat uslublarini o'zlashtiradi, ayniqsa, yangi texnikani o'zlashtirish jarayonida;

- EIHLarga investitsiya qilayotgan kompaniyalar er va infrastruktura obyektlari uchun to'lovlarni o'z zimmasiga oladi, va xizmat uchun haq to'laydi;

- mahalliy aholi turmush darajasi oshadi, daromadlar o'sadi, ichki bozorning yuqori sifatli mahsulotga ehtiyoji to'laroq qondiriladi;

- EIHLarda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalar boshqalarga nisbatan yaxshiroq sharoitlarda bo'ladi. Bunday hududlarda ishlab chiqarish sarf-xarajatlari, xomashyo va materiallar olib kirish bilan bog'liq soliq va bojlar yo'qligi va ish kuchi nisbatan arzon bo'lganligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulot raqobatbardoshligi oshadi. Odatda, er va infratuzilma uchun to'lovlar ham boshqa hududlarnikidan pastroq bo'ladi.

- mahalliy bozor rivojlanadi, chunki, EIHLarda band bo'lgan aholi to'lovlarni amalga oshirishga qodir;

- EIHLar yaratilishi mazkur hududda tadbirkorlik faoliyati jonlashishiga yoki iqtisodiyotning ma'lum sohalari rivojlanishiga ko'mak bo'ladi. Shu bilan birga EIHLar rivojlanayotgan davlatlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni to'liq echadigan vosita bo'lmasa ham, ular davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'p davlatlar uchun (Xitoy, Braziliya, Meksika) EIHLar savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy o'sish markazlariga aylandi. Bundan tashqari, ochiq iqtisod modeli ishini namoyish qiladi, bu davlatlarning iqtisodlari dunyo iqtisodiga integratsiya yo'llarini aniqlab beradi.

Bular bilan birga ba'zi iqtisodchilar EIHLar faoliyatining salbiy tomonlariga ham e'tibor qaratishmoqda.

EIHLarda chet el kompaniyalarga olingan daromaddan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishda chegaralanmagan huquqlar berilgan. Buning natijasida moliyaviy resurslar davlatdan chiqib ketadi va erkin hududlar yaratilishi samarasi pasayadi. Bunday anklavlar faoliyati natijasida katta daromadlar tushadi, ammo, ular davlatdan chiqib ketib foyda keltirmaydi.

EIHLarni tanqidchilarining aytishlaricha, bu ishlab chiqarishlar mahalliy ishlab chiqarish bilan raqobatlashadi, va mahalliy ishlab chiqarishga zarar keltiradi. Bundan tashqari EIHLarga ekologik jihatdan xavfli texnologiyalar kirib kelish xavfi ham bor.

Import komponenti ulushi kattaligida bu ham mahalliy iqtisod rivojlanishiga

salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- yangi yaratilgan EIHDa mahsulot davlatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan pastroq. Xindiston iqtisodchilari tekshiruvi bo'yicha milliy ishlab chiqarishlardagi qo'shma qiymat zonalarda joylashgan ishlab chiqarishlarnikidan yuqoriroq;

- valyuta hisobida olingan daromad import komponentlar narxi ayrilgandan so'ng o'ta past;

- EIHDa ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotda mahalliy ishlab chiqarish mahsulotining ulushi o'ta past, deyarli 25-30%.

EIHLarda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishlarning menedjerlari ko'pincha chet ellik mutaxassislar, va ularning maoshi mahalliy ishchilarnikiga nisbatan bir necha barobar ko'p. Bunday sharoitlarda mahalliy ishchilarni ishlab chiqarishda o'qitish samarasi minimal darajada. Bu ishchilar ishlab chiqarish jarayonida maxsus bilim talab qilmaydigan operatsiyalarni bajarishadi.

Transmilliy kompaniyalar oldingiday o'z investitsiyalarini eng arzon va eng himoyasiz ish kuchiga tayanib amalga oshirishlari hamon kuzatiladi. Boshqa tomondan, ba'zida rivojlanayotgan davlatlarning o'zi ish joylarini saqlab qolish maqsadida mehnat standartlariga rioya qilishmaydi, kasbiy ittifoqlar tashkillashtirish, jamoat shartnomalar tuzish huquqini cheklashadi, majburiy va yosh bolalar mehnatidan foydalanishadi. Bular hammasi EIHLarda ishlayotgan odamlar ko'pincha hech qanday ijtimoiy himoyasiz mehnat qilishiga olib keladi.

Davlat ichidagi mehnat faoliyatiga oid standartlarini pasaytirib, bu sohada kelishuvlarni inkor qilib ba'zi davlatlar investitsiyalarga sharoitlar yaratib berishmoqda. Bunday holat ish beruvchiga ishchilarni maksimal darajada ishlatish imkoniyatini yaratadi. Misol qilib Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong firmalarini keltirishimiz mumkin, ular Transmilliy kompaniyalar hamkori sifatida kam rivojlangan davlatlarda joylashgan EIHLarda mehnatga talabchan ishlab chiqarishlarni tashkil qiladi. Bunday tizim, ayniqsa, tikuv va poyafzal sanoatida keng tarqalgan. Bu sohalarda texnik yangiliklar joriy etilayotganga qaramay, kam rivojlangan davlatlarning ish kuchidan keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari, ko'rsatilgan sohalarda boshqa sohalarga nisbatan oson ko'chadigan, deyarli qiyinchiliksiz ishlab chiqarishni bir shahardan boshqa shaharga yoki bir davlatdan boshqa davlatga ko'chirish mumkin. Aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda tikuv sanoati katta miqdorda, asosan, 30 yoshdan oshmagan ayollar, ish kuchini talab qiladi. O'z navbatida, yuqoridagi sohalarda ish joylari o'ta ko'pligidan, bu sektorning davlat ichida ish haqini o'rtacha ko'rsatkichi va mehnat standartlariga ta'siri juda katta.

Nihoyat, EIHLarning davlat iqtisodiga ijobiy ta'siri qo'shimcha samarada bilinadi va bu samara salbiy holatlarga ko'ra yuqoriroq. Har tomonlama yopiq eksport-import turdagi EIHning yaratilishi ham mamlakat iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'surot bir necha yo'nalishda vujudga keladi.

Birinchisi – o'qitish samarasi, boshqaruv texnikasi, ishlab chiqarishni tashkillashtirish, eksport, marketing sohalari bo'yicha bilimlar hudud chegarasidan chiqib ketishi. Bu samara o'zini o'ta sekin bildiradi, ammo, bu tabiiy hol, chunki, aniq vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan hudud hududdan tashqari ishlab chiqarishlarga o'z tajribasini berish vositasiday ko'rilmaydi. Bu tajriba iqtisodiy

aloqalar hisobiga boshqalarga o'tadi.

Ikkinchi yo'nalish iqtisodiy hududlarda joylashgan milliy koxonalar rivoji bilan bog'liq. Xorijiy kompaniyalar bilan yaqin ishlab chiqarish va ijtimoiy aloqalar ichki aloqa kengayishi va rivojlanishiga olib keladi va shu bilan birga milliy kompaniyalarning texnologik va boshqaruv tajribasi xorijiy kompaniya darajasigacha oshadi.

Uchinchi yo'nalish – bu firma ichida muhandis, ishchilar va boshqaruvchilar migratsiyasini qamrab oladi. Bu migratsiyaning miqdori ahamiyatga ega emas. Ammo, buning ta'siri katta va ko'p davlatlar iqtisodiy hududlar faoliyatining samarasi ko'rinmasa ham, uzoq muddatda natija olish uchun birinchi 3-5 yillikda iqtisodiy hududlar faoliyatini qo'llashga xarajatlardan bosh tortishmaydi. Bu natijalar orasida ochiq turdagi iqtisodga o'tish ham bor.

Shunday qilib, rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda mavjud va EIHLar faoliyatining salbiy va ijobiy tomonlari to'g'risida to'liq tushuncha beradigan natijalarni bahosi bir biriga mos emas va bu, o'z navbatida, bunday hududlarni yaratish arafasida turgan davlatlar qat'iy qarorga kelishiga halaqit bermoqda. Iqtisodiy hududlar oldiga qo'yilgan vazifalar ko'pligidan, bunday fikrlar qarama-qarshiligi tabiiy hol. Dunyo tajribasi ko'rsatishicha, barcha maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Va buning natijasida bir necha xulosa qilish mumkin:

1) EIHLar faoliyatini baholashda bir maqsadlar boshqa maqsadlardan yuksakroqligini e'tiborga olish kerak, ya'ni ularni aniq taqsimlash zarur. Bir vaziyatda bunday maqsad bandlik darajasini oshirishdir, ikkinchi vaziyatda – eksport darajasini oshirish, boshqa vaziyatda – davlat iqtisodini rivojlantirish va h.k. Yuksak maqsadga erishish boshqa maqsadlarga ham erishish bilan bir emas.

2) EIHL faoliyatining ijobiy natijalarini iqtisodiy hudud va davlatning ichki iqtisodiyoti orasida bosqichma-bosqich rivojlangan aloqa natijasida olish mumkin. Bu ham ichki bozorga, ham tashqi bozorga yo'naltirilgan hududlar uchun tegishli. Tayyor mahsulot qiymatida milliy komponent ulushi oshishi bilan birga, valyutada daromad olish asosalari paydo bo'ladi va bundan tashqari, yangi texnologiyalar, nou-xau, litsenziya va patentlar kelishi natijasida hamda bu hududlarda ta'lim olgan ishchilar ko'chishi natijasida qayta ishlash sanoati va ichki iqtisodning ashyoviya sanoatining texnik darajasi oshishiga imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun qabul qiluvchi davlatning xo'jalik mexanizmining islohoti, uning narx, valyuta va mablag' bilan bog'liq muammolarini yechimi hududiy tajribadan ajralgan holda emas, balki, parallel tarzda, mikro va makroiqtisodiyotning yangi elementlarini qabul qilish bilan rivojlanishi shart.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, iqtisodiyot, investitsiya, imtiyoz, texnologiya, mahsulot.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy o'sishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababdan bugungi kunda EIHLarni tashkil etish va ular faoliyati bilan bog'liq muammolar girdobida turgan davlatlar bir qator rivojlanayotgandavlatlar tajribalarini o'rganishga alohida e'tibor

qaratmoqda. Jumladan, O‘zbekiston ham mazkur masalada Xitoy, Janubiy Koreya, BAA, Hindiston kabi davlatlar tajribalarini chuqur o‘rganish bilan birga ular bilan faol hamkorliklarni amalga oshirib kelmoqda.

2. Rivojlanayotgan davlatlarda EIHLarning ko‘plab turlari tashkil etilayotganligi va rivojlanayotganligini ko‘rish mumkin. Bunda mazkur davlatlarda EIHLarni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad investitsiyalarni faol jalb etish asosida bandlik va mahsulotlar eksportini rivojlantirishda iborat.

3. Bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlardagi EIHLar iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ular sonining yanada ko‘payib borishiga va shu orqali ko‘zlangan maqsadlarga erishishga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Rivojlanayotgan davlatlarda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishdan maqsad nima?

2. Ushbu davlatlarda EIHLar faoliyati qanday tajribalarni namoyish etadi?

3. Siz qaysi rivojlanayotgan davlatlarning EIHLarni tashkil etish tajribalarini bilasiz?

4. Rivojlanayotgan davlatlarda EIHLarni tashkil etishdagi farqli xususiyatlarni izohlab bering.

5. Rivojlanayotgan davlatlarda EIHLarni tashkil etish qanday muammolar yechimiga ta‘sir ko‘rsatdi?

6. Rivojlanayotgan davlatlardagi EIHLarda transmilliy kompaniyalarning bugungi faoliyatiga qanday baho berasiz?

7.5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda (Janubiy Koreya, Tunis, Panama, Malta kabi) erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish xususiyatlari

Jahon xo‘jaligida yangi industrial davlatlardan biri Janubiy Koreyaning EIHLarni tashkil etish tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Janubiy Koreya qonunchiligida ushbu mamlakatda ta‘sis etiladigan korxonalarda xorijiy mamlakatlarning ishtirok etishi cheklangan. Bank sektori, radiio va televideniya, telekommunikatsiya sohalarda, aviatashuvlar, elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish, yadro yoqilg‘isini ishlab chiqarish, gazeta va jurnallarni nashr qilish, baliq ovlash, ulgurji go‘sht savdosi, chorvachilik, ayrim donli ekinlarini etishtirish xorijiy investorlar uchun taqiqlangan. Janubiy Koreya kompaniyasining aksiyadori bo‘lish istagini bildirgan barcha xorijlik investorlar Markaziy Bank yoki vakolatli tijorat banklarining ruxsatnomasini olishi zarur.

Koreya Respublikasida EIHLarning paydo bo‘lishi XX asr 70 yillarining boshlariga to‘g‘ri kelib, ular yangi industrial mamlakatni barpo etishda ijobiy rol o‘ynagan edi. Koreys eksport bazasini rivojlantirish katta xorijiy kapital qo‘yilmalar yordamida amalga oshirilgan bo‘lib, EIHLar esa shunday kapitallarni jalb qilishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu hududlar, shuningdek, sanoatning ichki raqobatbardosh tarmoqlarini jalb qilish uchun katalizatorlik vazifasini ham bajardi. Xorijiy

investitsiyalar, nafaqat, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirish shaklida, balki, tashqi qarzlarni, texnologiyalarni o'tkazish shaklida ham kirib kelgan bo'lib, Janubiy Koreyaning ichki bozorlarini iqtisodiy jihatdan o'sishiga olib kelgan edi. Hozirgi kunda quyidagi bir qator EIHLar faoliyat ko'rsatib kelmoqda:

- Foreign Investment Zone (FIZ) – xorijiy investitsiyalar hududi;
- Free Trade Zones (FTZs) – erkin savdo hududi;
- Free Economic Zones (FEZs) – erkin iqtisodiy hududlar;
- Jeju Investment Promotion Zone (IPZ) – erkin investitsiyalar hududi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, XX asr 50 yillarida Janubiy Koreyaning sanoati yetarli darajada rivojlanmagan, taraqqiyot uchun o'z kapitaliga ega bo'lmagan agrar xo'jalikka asoslangan mamlakat bo'lgan edi. Janubiy Koreya uzoq vaqt mobaynida o'z mamlakatiga xorijiy investitsiyalarni deyarli jalb qilmasdan kelgan. Mamlakat hududida xorijiy qo'shma korxonalar bo'lmagan.

Shuning uchun mamlakatga xorijiy kapitalni jalb qilish siyosati amalga oshirib, chet el kapitalini jalb qilishni rag'batlantirish tizimi ishlab chiqildi. Faqat 1960-yil "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilingach sharoit o'zgardi. Bu investorlarga qator imtiyozlar bergandi. Ammo, bu qonun o'z imtiyozlarini 10 yildan keyin bera boshladi. 1970-yilda Janubiy Koreyada birinchi erkin iqtisodiy zona tashkil etildi, bu xorijiy kapital oqimini jadallashtirib yubordi. Asosiy maqsad, mamlakat iqtisodiyotida faqat eksport uchun ishlaydigan korxonalar sonini ko'paytirish, mamlakatning agrar rivojlanishda, mehnat ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga erishish edi. Koreyadan o'rganadigan muhim jihatlardan biri, EIHLardagi korxonalar eksport-import faoliyat uchun litsenziya talab etilmasligidir.

Xorijiy investitsiyalar o'zi bilan birga zamonaviy menejment va biznes ahloqini olib kirishdi desak, hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Janubiy Koreyadagi xorijiy kapital jalb qilishni rag'batlantirish jarayoni 2 bosqichni bosib o'tdi.

Birinchi bosqich 1962-1984 yillarni o'z ichiga olib, bu davrda barcha xorijiy sarmoyadorlar quyidagi imtiyozlardan keng foydalanishgan. Jumladan, soliq imtiyozlaridan (bunda daromad solig'i, korporativ va mulk solig'i 50 % kamaytirilgan), bojxona to'lovlaridan, import qilingan uskunalarga qo'shimcha qiymat soliqlaridan ozod qilingan edi.

Ikkincha bosqich 1984-yildan to hozirgi kunga qadar davrlarni o'z ichiga olib, bu davrda yuqori texnologiyali tarmoqlarning rivojlanishini rag'batlantiruvchi soliqqa tortish tartibi joriy etildi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari qatoriga quyidagi tartiblar ham kiritildi:

1. Daromad solig'i. Ushbu soliq mamlakatda bir yildan ortiq yashagan barcha aholining umumiy daromadlarini miqdoridan hisoblab chiqiladi. Bunga ko'ra, qo'shma korxonalarda yoki 100 % xorij kapital asosida qurilgan ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilayotgan chet ellik fuqarolar daromad solig'idan ozod qilinadi.

2. Korporativ soliq. Soliqning bu turida 100 % xorij kapitali asosida tashkil etilgan korxonalar mulk solig'i va korporativ soliq to'lovlarini to'lashdan ozod qilinadi. 5 yillik muddat davomida qo'shma korxonalarni ushbu soliqlardan ozod

qilish xorijiy aksiyadorlar soniga (miqdoriga) qarab amalga oshiriladi. Keyingi 3 yilda soliq 50 % miqdorida soliq to‘lanadi.

3. Dividendlar. Dastlabki 5 yil muddat davomida soliqlardan ozod qilinib, keyingi 3 yil mobaynida 50 % miqdorida soliq to‘lanadi.

Shuningdek, mamlakatda xorijiy investorlar to‘liq huquqiy himoyalani, dividendlarni xorijga to‘siqlarsiz o‘tkazishi kafolatlangan edi. Janubiy Koreya AQSh bilan imzolagan kafolatlar to‘g‘risidagi kelishuvga binoan, amerikalik investorlar korporatsiyalarga kiritgan o‘z sarmoyalarini, agar bu sarmoyalar Janubiy Koreya hukumati tomonidan ma‘qullangan bo‘lsa, xorijiy investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha sug‘urtalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta‘kidlash zarurki, XX asr 70 yillariga qadar Janubiy Koreyada infratuzilmaning rivojlanmaganligi, TMKlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini olib borish tajribasining yo‘qligi, siyosiy va ijtimoiy beqarorlik tufayli mamlakatga yirik ko‘lamli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati bo‘lmagan. Shuning uchun, hukumat o‘zining tegishli qonunchilik bazasini EIHLar mexanizmiga moslashtirishi kerak edi.

Hukumatning eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlariga xorijiy kapitalni jalb qilish orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha strategiyasi bir qator o‘zgartirishlar kiritdi. Shu sababli Janubiy Koreyadagi EIHLar bo‘lib, 1970-yil 1-yanvardagi EIHLarni tashkil etish bo‘yicha hujjat asosida tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan hududlar imtiyozli boj to‘lovlari joriy etilgan EIHLar hisoblanadi. Ushbu hududlarni yaratish mamlakatning agrar mintaqalarida mehnattalab tarmoqlarni va milliy eksportni rivojlantirishga yo‘naltirilgan edi.

BMTning TMKlar bo‘yicha materiallariga muvofiq, EIHDagi korxonalar ijaraga olingan erda (erni sotishga ruxsat berilgan bo‘lsa-da) o‘z fabrikasiga ega bo‘lishi yoki namunaviy (standart) ishlab chiqarish birligini ijaraga olishi mumkin. Bunda ikkala holatda ham investor ko‘rsatilgan mezonlarga to‘g‘ri keluvchi to‘liq hujjatlar to‘plamini taqdim etishi shart. Ba‘zi hollarda ayrim chetlanishlarga yo‘l qo‘yilishi ham mumkin (7.1-jadval).

7.1-jadval.

Koreya Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni sanksiyalash mezonlari

Nomlanishi	O‘z fabrikasi	Namunaviy fabrika
Eksport	1 m ² ga 150 dollar	1 m ² ga 180 dollar
Sof daromad foizi	20 % va undan yuqori	20 % va undan yuqori
Bandlik	Har 30 m ² ga 20 ish o‘rni (va undan ko‘p)	Har 30 m ² ga 25 ish o‘rni (va undan ko‘p)
Ishlab chiqarish texnologiyasi	Eng ilg‘or	Eng ilg‘or
Investitsiyalar miqdori	200 ming dollar (va undan ko‘p)	100 ming dollar (va undan ko‘p)
Mahalliy xomashyo	Iloji boricha ko‘proq	Iloji boricha ko‘proq

Xorijiy ish bilarmonlarning EIHDa ro‘yxatdan o‘tgan korxonalariga 100 %

egalik qilish huquqi berilgan. Investirlarga esa, Janubiy Koreyadan tashqarida foydani va kapitalni repatriatsiya qilish huquqi berilgan. Hududdagi yuqori texnologiyali sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq holda biznes bilan shug'ullanayotgan barcha korxonalar besh yil muddatga barcha soliqlardan ozod etilgan. Keyingi ikki yil davomida esa, ularga soliqni 50 %ni to'lash huquqi berilgan. Erkin savdo hududlari, EIHLar va erkin investitsiyalar hududida joylashgan korxonalar uch yil muddatga barcha soliqlardan ozod etilgan. Keyingi ikki yil davomida ular ham soliqni 50 %ni to'lash huquqiga egadir.

EIHLarda xorijiy investorlarning minimal kapital qo'yilmalari 5 mln. AQSh dollari tashkil etadi. Janubiy Koreyaning EIHLarida EIHLda joylashgan korxonalar litsenziyalashtirilmagan holda eksport-import faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega, chunki, ular tashqi savdo to'g'risidagi hujjatning amal qilish doirasiga kiradi.

Janubiy Koreyadagi eng muhim EIHLardan biri "Masan" mamlakatning Janubiy qirg'oq'ida joylashgan bo'lib, umumiy er maydoni 814 km² ni tashkil etadi. "Masan" EIHLi o'z portiga ega. Janubiy Koreyaning yana bir EIHLi "Iri" Seul shahri atrofida Gusan gavanasi yaqinida joylashgan bo'lib, umumiy er maydoni 319 km² ni tashkil etadi. Ushbu EIHLar ishlab chiqarish nuqtai nazaridan olganda ma'lum darajada tarmoq ixtisoslashuviga ega hisoblanadi. Jumladan, "Masan" EIHLi, asosan, kimyoviy va eksport mahsulotlarni, shuningdek, to'qimachilik mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, "Iri" EIHLi zebu-ziynat mahsulotlarini va shuningdek, qimmatbaho toshlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bu ikkala hudud xam Koreya ichki hududlaridan ajratib qo'yilgan bo'lib, ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki bozorlarda sotilmaydi (ishlab chiqarish jarayonida olinadigan chiqindilar va yordamchi mahsulotlar, milliy xavfsizlik uchun ahamiyatli bo'lgan tovarlar va boshqa eksport tovarlari bundan mustasno). Ushbu hududlarda joylashgan korxonalar ichki bozorlarda sotish bilan emas, balki eksport qilish bilan ham shug'ullanadi. "Masan" va "Iri" EIHLarida ishlab chiqarilgan tovarlar Koreyaga nisbatan importyor-mamlakatlar tomonidan o'rnatilgan to'siqlarni aylanib o'tish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Bu esa Janubiy Koreya eksportini ko'paytiradi.

2008-yilning 8-dekabrida Janubiy Koreyaning Innovatsion iqtisodiyot vazirligi yaqin yillarda mamlakatda to'rtta yangi EIHLarni (mamlakatning Sharqiy qirg'oqbo'yidagi Ulsan va Pxoxan shaharlarida Koreya yarim orolining Janubidagi Kimdje shahrida, shuningdek, mamlakat G'arbining Pxetxek-Tandjin tumanlari atrofida) barpo etilishini ma'lum qildi. Yangi EIHLarni tashkil etishdan asosiy maqsad mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishini rag'batlantirish, eksport ko'lamlarini yanada kengaytirish va yangi sarmoyalarni jalb qilishdir. Ushbu EIHLarni tez rivojlantirish maqsadida xorijiy ishtirokchilarga turli soliq imtiyozlari, import bojlaridan ozod qilish va sanoat korxonalarini hamda yirik logistika bazalarini barpo etishda davlat ko'magini ko'rsatish ishlari rejalashtirilgan.

Koreyalik mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, jahon iqtisodiy pasayishi va moliyaviy inqiroz 2009-yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'atlarini 3,6 %dan 3 %gacha pasayishiga olib kelgan. 2009-yilning 15-aprelida Cisco kompaniyasi Janubiy Koreyada yangi EIHLni tashkil qilishini bildirdi. Bu tashabbus Janubiy Koreyada mehnat unumdorligini oshirish, novatorlikni va intellektual

urbanizatsion ishlarni rivojlantirishga qaratilgan edi. Cisco kompaniyasining intellektual urbanizatsiya dasturi turli mamlakatlarning shaharlarida kommunal xizmatlarni bajarish va shu asosda shahar xo‘jaligini boshqarishni takomillashtirish, shahar aholisini moddiy turmush darajasini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan edi. Cisco IFEZ EIH (Intellektion Foreign Investment Zone – Intellektual xorijiy investitsiyalar hududi)da intellektual urbanizatsiya tamoyilini amalga oshirish uchun Janubiy Koreyaning Inchxon shahar munitsipaliteti bilan hamkorlik qiladi.

IFEZ – Janubiy Koreyada birinchi marta tashkil etilgan EIH bo‘lib, u Inchxonda 2003-yilning avgustida tashkil etilgan. 2009-yilning fevralida Cisco va Inchxon munitsipaliteti ishbilarmonlik xamkorligi to‘g‘risidagi memorandumni imzolashgan. Cisco kompaniyasi hozirgi kunda texnologik sohada global lider hisoblanadi. Cisco jahonda insonlar muloqoti, aloqasi va hamkorligi usullarini o‘zgartiruvchi tarmoq texnologiyalari sohasidagi kompaniyadir. Cisco va Inchxon IFEZ hududida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning keng tarqalishi bo‘yicha muhim investitsion ishlar amalga oshirilmoqda. Inchxondagi EIHni butun bir Osiyo-Tinch okean mintaqasi uchun global tajriba markaziga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Bu loyixada Cisco Singapur, Hindiston, Malayziya va Yaqin Sharq mamlakatlarning qator megapolislarida shunday dasturlarni amalga oshirishda to‘plangan ilg‘or tajribadan foydalanadi.

IFEZ EIHni Inchxonni turli iqtisodiy faoliyatlarni olib boruvchi yirik xalqaro markaz hisoblanadi. 2030-yilga kelib bu EIH jahonning yetakchi markazlaridan biriga aylanishi mumkin. Shu maqsadda Inchxonda unda, nafaqat, Janubiy Koreya, balki butun bir xorijiy kompaniyalar faoliyati uchun qulay muhit yaratilmoqda. Bundan tashqari, shaharning eng ekologik toza va jozibador shaharlardan biriga aylantirilishi ham nazarda tutilgan.

Tunis Respublikasi 1956-yil 20-martda Fransiyaning protektoratligidan ozod bo‘lib, mustaqillikka erishdi. Tunis Sharqda Liviya, G‘arbda Jazoir davlatlari bilan chegaralanib, uning shimoliy qismlarini 1300 km ga cho‘zilib ketgan O‘rta er dengizining suvlari yuvib turadi. Maydoni 163,6 ming km² ni tashkil etib, poytaxti Tunis shahri (aholisi 1 mln. kishidan ortiq) hisoblanadi. Tunis o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra Afrika materigi va arab davlatlarining ichida joylashgan bo‘lib, Yevropaning yetakchi korporatsiyalari uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hudud hisoblanadi. Bunda biz mamlakat iqtisodiyotiga chet el investorlarini jalb etishning birinchi omili sifatida katta masofaga (1300 km.dan ortiq) cho‘zilib ketgan dengiz chegaralarini ko‘rsak, ikkinchi omili sifatida bu yerdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ko‘ramiz. Tunisda musulmonlar, xristianlar, yaxudiylar istiqomat qiladi. Mamlakatda inson shaxsiga nisbatan hurmat juda yuqori turadi.

Bunday odat qadimgi Karfagen davlatining hukumronligi davridan beri amal qilib kelmoqda. Chunki, bu davrda birinchi bo‘lib “inson huquqlari” degan ibora ishlatilib, unga amal qilingan. Shuning uchun ham Tunisda qonun ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar politsiyachi hujjatlaringizni tekshirib, u to‘g‘ri bo‘lsa, sizga omad tilaydi. Agar biron-bir ish bilan murojaat etsangiz, iloji boricha

muammoni hal etishga yordam beradi. Mamlakatda mahalliy va chet ellik kishilarning huquqlari bab-baravar qonun yo'li bilan himoya qilinadi. Agar chet ellik biron-bir jinoyat sodir etsa, shu zahoti hisbga olinib, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Tunisda narkotik va psixotrop moddalar, qalbaki pullar va valyuta jinoyatlari, kabilar bilan shug'ullangan kimsalar o'ta xavfli jinoyatchi hisoblanib, qonun oldida qattiq javobgarlikka tortiladi.

Tunis aholisi (umumiy aholining 1/3 qismi) mamlakatning shimoliy-sharqiy tumanlarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish bilan shug'ullanib keladi. Mamlakatning janubiy cho'l tumanlarida yashovchi aholi esa asosan, chorvachilik xo'jaligida tuya va echkichilik bilan shug'ullanishadi.

XX asr 80 yillariga kelib mamlakatning qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi nomutanosiblik (disbalans) keskin o'zgardi. Qishloq joylarda yashayotgan kambag'al aholining ko'pchiligi ish qidirib, tirikchilik qilish uchun port shaharlariga kelishdi (hozirgi kunda aholining 54-56 %i shahar aholisi bo'lib hisoblanadi).

Mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borishi bilan bir qatorda aholi soni ham o'sib bordi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, mamlakat aholisi 2000-yilda 10 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 14 mln. kishiga etishi bashorat qilinmoqda. Mamlakatda aholi sonining tabiiy o'sishi bilan ishsizlar soni ham ortib bormoqda (90 yillarda ishsizlar soni umumiy aholining 15-16 %ni tashkil etgan).

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, asosan, makro va mikroiqtisodiyotdagi kooperativ va shaxsiy mulkchilikka asoslangan shakllari bilan uyg'unlashgan holda olib boriladi.

Jahonning boshqa davlatlari kabi Tunisda ham iqtisodiyotni tubdan isloh qilish (ishlab chiqarishni zamonaviy texnik-texnologik jihozlash, modernizatsiya va integratsiyalashuvni kuchaytirish) talab etiladi. Bunday muammolarni hal etish uchun mamlakatda makroiqtisodiyotni qayta ko'rib chiqishning iqtisodiy strategiyasini aniqlab olishni talab etiladi. Bu borada tunisliklar o'zlarining avlodlari bo'lmish finikiyaliklarning faoliyatini hisobga olib, savdo ishlarini rivojlantira boshlagan edi. Buning natijasida ko'pgina tunisliklar bugungi kunga kelib tashqi va ichki savdodan keladigan daromadlari hisobiga kun kechirmoqda.

Mamlakatda hozirgi kunda Tunis-Lya Gullet, Sfaks, Bizerta, Gabe va Suss kabi 5 ta yirik savdo portlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu savdo portlarining yillik yuk tashish aylanmasi 15-16 mln. tonnadan yuqoridir. Tunis savdo porti hozirgi kunda eng zamonaviy kemalar bilan ta'minlangan bo'lib, uning balansida 70 dan ortiq kemalar faoliyat ko'rsatib turibdi.

Tunis davlatining asosiy savdo hamkori bo'lib, EI mamlakatlari hisoblanadi. 1995-yilda ushbu mamlakatlar bilan tuzilgan o'zaro erkin savdo shartnomasiga ko'ra Tunisda ishlab chiqarilgan sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari EI bozorlarida hozirgi kunda ham hech qanday boj olinmasdan savdoga qo'yilmoqda. O'z navbatida EI mamlakatlarining sanoat tovarlari ham Tunis bozorlarida bojxona to'lovlarisiz savdo qilinadi.

Makroiqtisodiyotni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi bo'lib, havo transportida yuk tashish ko'lamining kengayib borganligi bo'ldi. Mamlakatda, albatta, bunday ulkan ishlarni amalga oshirish uchun yirik investitsiyalar talab etiladi.

Mamlakatning makroiqtisodiyotida tashqi savdo va valyuta tizimini erkinlashtirish va soliq sohasida berilgan imtiyozlar, huquqiy kafolatlar, chet el investitsiyalarini mamlakat iqtisodiyotiga ko‘plab kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tunis davlati EI, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari, Afrika davlatlari bilan investitsiyalarni jalb qilish to‘g‘risida shartnomalarni imzolagan. Hozirgi kunda mamlakat hududida qishloq xo‘jaligi sohasida, foydali yerosti qazilma boyliklarini qazib olish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va turizm sohalari bo‘yicha 1600 dan ortiq chet el investitsiyasi asosida tashkil etilgan kompaniyalar va qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Mamlakatda chet el investorlari uchun quyidagi imtiyozlar, ya‘ni kapitaliga 100 % egalik qilish huquqi. Bunday huquq ikki holatda, ya‘ni ichki bozorda qo‘yilgan chet el kapitalining hajmi 50 %dan oshgan holda yoki erni uzoq muddatga (40 yildan ortiq bo‘lmagan muddatga) ijaraga olmoqchi bo‘lganda kapital qo‘yilmalarni to‘ldirish huquqi berildi.

Erkin iqtisodiy hududlarning ishtirokchisini faoliyati eksport mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ularga nisbatan quyidagi imtiyozlar belgilandi. Birinchidan, eksport qilingan mahsulotdan olingan daromadi 10 yil mobaynida soliqdan ozod etilib, keyingi 11 yildan boshlab esa 50 % miqdorida daromad solig‘ini to‘lashi; ikkinchidan, qaytadan reinvestitsiya qilingan foyda va daromadlar to‘lig‘icha soliqdan ozod etilishi; uchinchidan, xomashyo to‘plab, ularni yarimtayyor mahsulotlarga aylantirish bilan shug‘ullangan xizmatlar sohasi to‘lig‘icha soliq va boshqa turli yig‘imlardan ozod etilishi; to‘rtinchidan, aksiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarni sotishdan olingan foyda to‘lig‘icha soliqdan ozod etilishi; beshinchidan, Nyu-York konvensiyasi tomonidan belgilangan ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik, investitsiyalarni va moddiy manfaatdorlikni himoya qilish to‘g‘risidagi shartnoma va hququiy buzilishlik holatlari ro‘y bergan taqdirda arbitraj sudiga murojaat etish imtiyozlari ham belgilandi.

Tunisda chet el investitsiyalarini iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish maqsadida xorijiy investitsiyalar bilan shug‘ullanuvchi maxsus agentlik (The Foreign Investment Promotion Agency – FIPA – Tunisia) joriy etilgan. Bundan tashqari, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun investitsiya kiritadigan tadbirkorlar uchun esa sanoatni rivojlantirishga yordam berish agentligi (Agency for the Promotion Industry – APL) ham tashkil etildi.

Mamlakatga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi to‘qimachilik va terini qayta ishlash sanoat tarmoqlariga, shuningdek, elektr va elektron mahsulotlarni ishlab chiqarishga jalb qilinadi. Tunis EIHda faoliyat ko‘rsatayotgan 1500 dan ortiq kompaniyalarning 1200 tasi eksportga mahsulot ishlab chiqarib, ular mamlakatda joriy etilgan barcha imtiyozlardan keng foydalanishadi.

Tunis mamlakatida qishloq xo‘jaligi asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Tunis iqtisodiyotiga Saudiya Arabistoni (42,2 %), Quvayt (18,9 %), Fransiya (11,5 % atrofida) investitsiyalar kiritayotgan bo‘lsa, boshqa mamlakatlar hissasiga esa 27,4 % investitsiyalar to‘g‘ri keladi.

Tunisda turizm sohasi ham investitsiyalarni jalb qiluvchi asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda turizmni rivojlanishiga, hattoki, Prezidentning o‘zi Ben Ali ham jiddiy e‘tibor berib kelmoqda. Arab geograflari ham o‘z davrida Tunis,

Jazoir va Marokashni “quyosh botayotgan yurt orollari” deb baho berishgan edi. Haqiqatdan ham bu davlatlar Shimoldan Oʻrta yer dengizi suvlari bilan, Janubdan esa Sahroi Kabirning qumloq choʻllari bilan yuvilib turganligi uchun ham bu mamlakatlar okeandagi orollarga juda oʻxshab ketadi. Bundan tashqari, bu mamlakatlar ichida Tunis geografik jihatdan juda qulay joylashganligi, yumshoq iqlimi, qadimgi finikiyaliklar, rimliklar, vizantiyaliklar va frantsuzlardan meros boʻlib qolgan moddiy madaniyati turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasidan keladigan mablagʻlarning miqdori boʻyicha Tunis Afrika davlatlari ichida oldingi oʻrinlardan birini egallab turibdi.

Tunisda ishlab chiqargan milliy mahsulotlarning 50-55 %i turizm tarmogʻiga toʻgʻri keladi. Chunki, mamlakatga jahonning turli davlatlaridan yiliga 4 mln.dan ortiq turist keladi. Agar turizmga band boʻlgan kishilar soni 450 ming kishini tashkil etsa, ularning 300 mingga yaqini turizmga aloqador boʻlgan sohalarda xizmat qiladi. Turizmdan keladigan chet el valyutasi Tunis mamlakati eksportining asosini tashkil etadi.

Turizm sohasida ham davlat mulki bilan xususiy mulkchilik shakllari oʻzaro aloqadorlikda faolit koʻrsatadi. Turizm vazirligi bilan turizm boʻyicha milliy departament xalqaro maydonda asosan, turizmni reklama qilish masalalari bilan shugʻullanadi. Shuningdek ushbu davlat tashkilotchilari Tunis va Sfaks shaharlarida qoʻshimcha muzeylarni qurish va diqqatga sazovor boʻlgan qadimgi yodgorliklarni saqlash va rekonstruksiya qilish kabi vazifalarni ham bajaradi. Xususiy investorlar esa turistlarga xizmat qilish, yotoqxona va mehmonxonalarini qurish ishlari bilan shugʻullanadi. Ularning yordamida Nabel, Xammamet shaharlarida va shuningdek, mamlakatning Jerba orolida zamonaviy damolish zonalari qurilgan boʻlib, ularda dam olayotgan turistlarga servis xizmatlari koʻrsatib kelinmoqda.

Mamlakatning ichki hududlariga turizmni kiritish loyihalari ustida ham jadal ishlar olib borilmoqda. Birinchi navbatda, turistlarni mamlakatning shimoliy tumanlari boʻlib hisoblangan Tabarka shahriga, yirik diniy markazlari boʻlgan Dugga va Kayruan shaharlariga va Sahroi Kabirning ekzotik tumanlariga (asosan, gʻorlarda yashovchi trogloditlarning yashash turmush tarzini oʻrganishga) jalb etish koʻzda tutilgan.

1989-yilda Tunis davlati EI mamlakatlari bilan erkin savdo hududini tashkil etishni kutib turmasdan chet el investorlarini iqtisodiyotga koʻplab jalb etish maqsadida “Tunis – erkin iqtisodiy hududlari” toʻgʻrisidagi qonunni qabul qildi. Bu qonun asosida turizm, oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida (ayniqsa, baliqchilikda), elektronika, mashinasozlik sanoati va xizmat koʻrsatish sohaslarida bir qator imtiyozlar berildi. Tunisda qabul qilingan bu qonun Gretsiya va Iordaniya davlatlarida amal qilayotgan qonunlar asosida ishlab chiqilgan boʻlib, ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmat turlarini eksport qiluvchi xalqaro savdo kompaniyalar ham imtiyozli soliqlardan keng foydalanishga ushbu qonun qabul qilingandan soʻng mamlakat maʼmuriyati ikkita EIHLarni tashkil qilinganligini eʼlon qildi. Birinchisi, mamlakat poytaxtidan unchalik uzoq boʻlmagan yirik xalqaro port Bizert shahrida tashkil qilingan boʻlsa, ikkinchisi esa, mamlakatning Janubida joylashgan Jarba oroliga yaqin Zarzis shahrida tashkil etildi.

Bizert EIH o'zining rivojlanish darajasi bo'yicha hozirgi kunda Shimoliy Afrikadagi frantsuzlarning Gibraltar EIH bilan bellasha oladigan hududlardan biriga aylanib borayotganligini ko'ramiz.

"Tunis – erkin iqtisodiy hududlari to'g'risida"gi Qonuni rezident yoki norezident investorlarining foyda olishlari uchun bir qator imtiyozlarni yaratib berdi.

Tunis mamlakatining EIHLarida norezident kompaniyalar uchun er sotib olishga ruxsat etilmaydi. Norezident kompaniyalar erni faqatgina ijaraga olib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishi mumkin. Biroq, ular erni mulk sifatida sotib olishi uchun o'lka gubernatorining maxsus qarorini olgan bo'lishi talab etiladi.

Mamlakatda soliq imtiyozlarining asosiy qismi ishlab chiqarilgan mahsulotning 100 %i eksportga va chet ellarda xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan korxonalar uchun qo'llaniladi. Lekin, bunday korxonalar ham mamlakat hududida quyidagi soliq to'lovlarni to'lab turishi talab etiladi:

- yengil avtomobillarni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq to'lovlarni;

- yo'l transporti uchun to'lanadigan umumiy soliq to'lovlarini;

- atrof-muhitni tozalash bilan bog'liq bo'lgan soliq to'lovlarni;

- tabiiy boyliklarni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan soliq to'lovlarni;

- qonunda ko'rsatilgan xizmatlarning samaradorligi uchun to'lanadigan soliq to'lovlarni;

- ijtimoiy sug'urta uchun soliq to'lovlarni (chet ellik rezidentlar mamlakatda o'z faoliyatini boshlashdan oldin Tunisda amal qilayotgan ijtimoiy-sug'urta to'lovlaridan voz kechishlari ham mumkin. Bu holda ular Tunisning ijtimoiy-sug'urta to'lovlaridan ozod etilib, o'z mamlakatida ushbu soliq to'lovlarni amalga oshirishi ham mumkin);

- jismoniy shaxslardan eksportni 50 %dan kamaytirgani uchun daromad solig'ini to'lashi;

- foyda (daromad) solig'idan birinchi 10 yillikda ozod etilishi. Keyingi yillarda esa qonunda ko'rsatilgan tartibda to'lab borishi talab etiladi.

Mamlakatda eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar to'lig'icha norezidentlarga tegishli bo'lishi ham mumkin. Bunda ularning eksport mahsulotlarining tushumidan 66 %i erkin almashtiriladigan valyuta qiymatini tashkil etsa, bu kompaniyalar uchun barcha turdagi ishlab chiqarish vositalarini import qilish uchun ruxsat etiladi. bunday kompaniyalar uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning eksport qilingan qismi bilan teng nisbatni tashkil etgan import qismini mamlakat territoriyasida sotish uchun ham ruhsat etiladi.

Eksportga yo'naltirilgan kompaniyalar Mehnat vazirligini ogohlantirgan holda o'zlarining shtatlari bo'yicha norezident bo'lgan 4 kishini ishga olishi mumkin. Chunki, mamlakatda tashkil etilgan har bir korxonada birinchi navbatda rezidentlarni ish bilan ta'minlashlari lozim. Norezident kishilarni ishga qabul qilish Mehnat vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. Eksportga yo'naltirilgan kompaniya ma'muriyati birinchidan, kompaniya xizmatchisi yil davomida olgan yalpi daromadidan (tabaqalashtirilmagan holda) 20 % miqdorida daromad solig'ini to'lash huquqiga, ikkinchidan

- bojxona to'lovlari va import qilingan tovarlar uchun to'lovlardan har bir xizmatchisi uchun bir yo'lovchi avtomobilni import qilishdagi bojxona to'lovlardan to'liq ozod bo'lish huquqiga ega bo'ldi.

Tunis EIHLarini faoliyat yuritishi birmuncha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, Iordaniya mahsulotlari arab davlatlarining bozorlarini deyarli egallab olgan. Bu esa o'z navbatida Tunis kompaniyalarining ishlab chiqargan mahsulotlarining sifati ancha pastligidan (raqobatbardosh emasligidan) darak beradi.

Tunisda uy-joy qurilish ishlariga ham ko'proq kapital qo'yilmalarni qo'yish talab etiladi. Mamlakatga birinchi bor tashrif buyurgan turist minglab bitirilmagan uylarni ko'rib xayron qolishi mumkin. Chunki, har bir qurilish egasi o'ziga xos amaliy me'morchilik mo'jizasiga ega bo'lgan uy-joy qurishga intiladi. Shunday qilib, mamlakatda EIHLarni tashkil etish endigina shakllanib kelayotgan bo'lsada, shunga qaramasdan Bermud, Kayman va boshqa orollardagi EIHLar kabi Tunis EIHLariga ham chet el investorlarining qiziqishlari ham tobora ortib bormoqda.

Janubiy Amerikada faoliyat ko'rsatib kelayotgan EIHLarning orasida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlardan biri Panama EIHdir. Panama EIHning o'ziga xos jihatlaridan biri bu erdagi hududlarning barchasi tashqi savdo zonalarini xususiyatiga egaligidir. Chunki, bu erda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi eng katta Gongkongdan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi Kolon tashqi savdo hududi joylashgan. Kolon tashqi savdo hududi 1948-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning umumiy maydoni 485,3 gektarni tashkil etadi. Agar Panama kanali yil davomida mamlakat budjetiga 400 mln. AQSh dollari miqdorida foyda keltirsa, Kolon EIH yiliga 10 mlrd. AQSh dollari miqdorida foyda keltiradi. Kolon tashqi savdo hududiga Panama mamlakati YaIMning 13-14 %i to'g'ri keladi. Hozirgi kunda ushbu hududda 15 mingdan ortiq ish joylari mavjud bo'lishi bilan bir qatorda bevosita 100 mingdan ortiq kishini ish bilan ta'minlash imkoniyatlari ham mavjud.

Panama EIHda 1600 dan ortiq kompaniyalar tashkil etilgan bo'lib, ularning barchasi o'z faoliyatini boshlashdan oldin Panama mamlakatining milliy davlat reestrinda qayd etiladi. Amerikada tashkil etilgan EIHLarga kira olmagan ko'pchilik chet el firmalar bu hududdan vositachi hudud sifatida foydalanishadi. Kolon EIHga kelgan firmalarning 93-95 %i asosan, savdo qilish yoki tovar sotib olish uchun kelishadi. Shuning uchun ham yil mobaynida ushbu hududdan 120 mingdan ortiq yukli konteynerlar tashiladi. Tovarlar asosan, Gongkong, Xitoy, Tayvan, Tailand, Filippin va Indoneziya mamlakatlaridan import yoki eksport qilinadi. Kolon iqtisodiy hududida, nafaqat, tovarlar savdosi, balki, ishlab chiqarish xizmatlari (tovarlarni bo'yash, o'rash, qutilarga joylash kabilar) ham ko'rsatiladi⁶⁹.

Kolon EIH orqali realizatsiya qilingan tovarlar bojxona va boshqa soliq to'lovlardan ozod qilinadi. Eksport uchun soliq faqatgina Panamada ishlab chiqarilgan mahsulotlar yoki bo'lmasa bu hududda qo'shilgan qiymat uchun to'lanadi. Munitsipial va sotishdan keladigan tushum uchun soliqlar to'lash bu hududda amal qilmaydi.

1995-yilga qadar daromad solig'ining differensial stavkalari 15 ming dollargacha 2,5 %ni, 100 ming dollargacha esa 8,5 %ni tashkil etgan. Ishlab

⁶⁹ <http://www.fias.net/conference/EcozonesIndiadocs/KRao.pdf>

chiqarilgan mahsulotning 80 %i eksportga joʻnatilgan va 30ta panamalikni ish bilan taʼminlagan kompaniyalar 5 yil mobaynida soliqlardan ozod etilgan. 1995-yildan keyin Panama EIHda daromad soligʻi 8,5 %dan 15 %gacha koʻtarildi. Bundan tashqari 8,5 ming dollardan yuqori amalga oshirilgan har bir operatsiya uchun oldindan mablagʻ toʻlovi (soliq toʻlovi) joriy etildi. Biroq, ushbu chora-tadbirlar kichik firmalarning faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatib, ularning moliyaviy jihatdan sinishiga va iqtisodiy hududdan ketib qolishiga sabab boʻlgan edi. Shuning uchun mamlakat parlamenti Kolon iqtisodiy hudud maʼmuriyatiga 1997-yildan boshlab iqtisodiy hududdagi xoʻjalik subyektlarini barchasini soliq toʻlovlaridan ozod qilinganligini maʼlum qildi. Albatta, bu tadbir mamlakat budjetiga yiliga 40 mln. AQSh dollari miqdorida yoʻqotish keltirsa ham, hududdagi barqarorlikni saqlab qolish maqsadida hukumat mazkur yoʻlni tanlashga majbur boʻlib, 1948-yilda qabul qilingan Kolon EIH toʻgʻrisidagi kodeksga oʻzgartirishlarni kiritgan edi.

Panamada, nafaqat, erkin savdo hududlari, balki zamonaviy texnika-texnologiya asosida ishlaydigan erkin ishlab chiqarish hududlarini tashkil etish toʻgʻrisida ham chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Ana shunday tadbirlar jumlasiga 1993-yilda San Migelito shahrida erkin ishlab chiqarish hududini tashkil etilganligini ham koʻrsatib oʻtishimiz mumkin.

Xalqaro hamjamiyatga kiruvchi davlatlarning koʻpchilik ishbilarmon-tadbirkorlari Kolon EIH va shuningdek, mamlakatdagi Xalqaro bank markazi deb nomlangan servis iqtisodiy hududlarni alohida-alohida faoliyat koʻrsatishini bilishmaydi. Panamada faoliyat koʻrsatayotgan banklar uchun “markaz” soʻzini qoʻllash birmuncha notoʻgʻri boʻlishi ham mumkin, chunki, banklar bir hududda yoki bir iqtisodiy tumanda yigʻilib faoliyat koʻrsatmaydi. Chunki, chet el banklarining mamlakatda roʻyxatdan oʻtganlari esa EIHda yoki mamlakat markazi va boshqa shaharlarda faoliyat koʻrsatishi ham mumkin.

1970-yilda mazkur bank va kredit muassasalari faoliyatini nazorat qilish uchun Panamada Milliy bank kompaniyasi tashkil topdi. Ushbu kompaniya tomonidan mamlakatda faoliyat koʻrsatib kelayotgan barcha banklarga “Banklar toʻgʻrisida”gi Qonunga asosan, quyidagi 3 turdagi litsenziya beriladigan boʻldi.

1. Bosh litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega boʻlgan banklar barcha turdagi operatsiyalarni bajarish huquqiga ega boʻldi.

2. Xalqaro litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega boʻlgan banklar, asosan, xorijiy mijozlarga xizmat koʻrsatish huquqiga ega boʻladi.

3. Vakillik litsenziya. Bunday litsenziyaga ega boʻlgan banklarning oʻzi mijozlarga xizmat koʻrsatmasdan, balki EIHdagi xoʻjalik subyektlariga boshqa banklar orqali xizmat koʻrsatishda vositachilik qilish huquqi berildi.

Yuqorida qayd etilgan litsenziyalarga egalik qiluvchi banklarning vakillik varaqalari hukumat rahbariyati tomonidan ogohlantirilmasdan ochib yoki yopib qoʻyilishi ham mumkin. Ushbu banklar tomonidan aktivlar va dividendlarning oʻtkazilishi chegaralanmaydi va mablagʻlarni majburiy ravishda deponentlashtirilmaydi. Bunda tashqi operatsiyalar uchun soliq tizimi qoʻllanilmaydi (foйда soligʻi 8 %ni tashkil etgan holda). Panama EIHdiga xorijiy investorlarni jalb etuvchi yana bir omillardan biri toʻlovlarning barchasi AQSh dollarida amalga

oshirilishidir, milliy valyuta hisoblangan balbao ko'pchilik hollarda numizmatik xarakterga ega bo'lib qolgan holos.

Panama EIHDa xususiy bank ochish uchun Milliy bankda faoliyat ko'rsatib kelayotgan komissiya tomonidan 90 kunga beriladigan vaqtinchalik ruhsatnoma bo'lishi talab etiladi. Ushbu muddat tugagandan so'ng esa doimiy litsenziya beriladi. Banklarning minimal ustav kapitali qonun bo'yicha odatda 1 mln. AQSh dollari atrofida bo'lishi ko'rsatilgan bo'lsada, amalda esa 3 mln. dollar atrofida bo'lishi talab qilinadi. Panamada tashkil etilgan chet el banklari Milliy bank tomonidan qattiq nazorat qilib turiladi. Ulardan har oyda o'zlarining aktivlari va daromadlari to'g'risida hisobot berib turishi va shuningdek, 10 ming dollardan yuqori bo'lgan bank operatsiyalari va depozitlar to'g'risida ma'lumotlarni o'z vaqtida berib borishlari talab etiladi.

XX asr 80 yillarining boshlaridayoq Panama EIH xalqaro maydondagi yirik moliyaviy markazlardan biriga aylangan edi. Chunki, bu vaqtda mamlakatda 40 mlrd. dollar kapitaliga ega bo'lgan 110 dan ortiq yirik bank markazlari, 30 ga yaqin mamlakatlarning avuarlari⁷⁰ hamkorlikda faoliyat ko'rsatgan edi. Biroq, XX asr 80 yillarining ikkinchi yarmida Panama banklari Amerika hukumatining olib borgan iqtisodiy siyosati oqibatida og'ir qiyinchiliklarni boshdan kechira boshlagan edi. AQSh hukumati o'z hududida joylashgan Panama banklarining avuarlarini qattiq siquvga olib, ikki oy mobaynida yopib ham qo'ygan edi. Buning oqibatida bank aktivlari 11 mlrd. dollarga kamayib, ba'zi bir banklar esa hatto o'z faoliyatini mutlaqo to'xtatib qo'ygan ham edi. Lekin, bunday holatlarga qaramasdan Panama EIHDan banklarning ommaviy ravishda ketib qolish holatlari uchramadi.

XX asr 90 yillarining boshida ushbu moliyaviy markazlar o'z faoliyatini yana tiklay boshladi. Aktivlarning yillik o'sishi yiliga 16,5 %ni tashkil etdi. Banklar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi yalpi milliy mahsulotning 15 %ini ta'minladi. Lekin, bank aktivlari bu davrda 1982-yilgi rekord darajasiga etmagan, ya'ni 35 mlrd. dollardan oshmagan edi. Mamlakatda milliy banklarning aktivlarini o'sishi xarakterli xususiyatga ega bo'lib, 8,5 mlrd. dollarni tashkil etgan.

90 yillarning oxirlarida Panamada 106 ta xorijiy banklar faoliyat ko'rsatib, ularning 60 tasi bosh litsenziyaga, 28 tasi xalqaro litsenziyaga va 18tasi esa vakillik litsenziyaga egalik qilishgan. EIHLarda faoliyat ko'rsatadigan banklarning aktivlari mamlakatdagi umumiy banklarning 2/3 qismini tashkil etib, aktivlarning 27 %i likvidli, 61 %i esa tashqi va ichki mijozlarning zayomlariga, 6 %i esa investitsiyalarga yo'naltirilgan.

Panama EIHning yana bir xarakterli xususiyati shuki, chet el kemalarini Panama mamlakati registridan (ro'yxatdan) o'tib, mamlakat bayrog'i ostida yuk tashish ishlariga jalb etilishidir. Bu ko'rsatkich bo'yicha Panama jahon mamlakatlari ichida birinchi o'rinni egallaydi. XX asr 90 yillarining oxirida mamlakatda 13541 kema ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, ular tomonidan tashilgan yuklarning umumiy hajmi 95 mln. tonnani tashkil etgan. Mamlakat budjetiga esa 50 mln. AQSh dollari atrofida sof foyda kelib tushgan.

Mavjud kemalarning 36 %i yaponiyalik ishbilarmonlarga tegishli bo'lgan.

⁷⁰ Avuarlar – bank aktivlari va pul mablag'lari.

Chunki, bu erda olingan daromad soliqlardan ozod qilinadi. Bundan tashqari Panama geografik jihatdan juda qulay joyda joylashgan. Ya'ni, ushbu hududda Tinch okeanini Atlantika okeani bilan bog'lovchi Panama kanali joylashgan. Ushbu kanaldan jahonning barcha mamlakatlarining yuk tashuvchi kemalari o'tadi. Shuning uchun ham bu portlarda yuklarni o'rash, saqlash, markirovka qilish va ortib jo'natish kabi xizmatlar ko'rsatish infratuzilmasi yuksak darajada rivojlangan. Ushbu kanal orqali hozir kunda yiliga 1337000 netto tonna yuk olib o'tiladi.

Mamlakatda kemalarni ro'yxatdan o'tkazish asosan, dengiz kemalari to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar asosida amalga oshiriladi. Panamada kemalarni ro'yxatdan o'tkazish, kemalarning yuk ko'tara olish va tashish qobiliyatlari hisobga olinmasdan, balki ularning eskirish qobiliyati ro'yxatga olinadi. Masalan, 20 yil muddatga xizmat qiluvchi kemalar umumiy o'tkazilib, ulardan kamrog'i esa maxsus muttaxislar ko'rigidan o'tadi.

Shunday qilib, Panama davlatida joylashgan EIHLar va moliyaviy bank markazlari, savdo hududlari va yuk tashish xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida muhim vazifalarni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu mamlakatda yaratilgan qulay imtiyozlar alatta xalqaro maydonda keng faoliyat ko'rsatib kelayotgan tadbirkorlarni e'tiborini o'ziga tortmasdan qolmaydi. Shuning uchun ham jahon xo'jaligiga kirib boruvchi ko'plab davlatlar Panama EIHLari tajribasidan samarali foydalanib, o'z iqtisodiyotini rivojlantirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Malta davlati O'rta yer dengizining markaziy qismida joylashgan orollardan biri bo'lib, barcha dengiz yo'llarining kesishgan qismida joylashgan. Uning geografik jihatdan qulay joyda joylashganligi orolni yirik xalqaro savdo markazlaridan biriga aylanishiga olib keldi. Malta orolida hunarmandchilik tashkil topdi, dengiz flotlarga keng ko'lamda xizmat ko'rsatish ishlari rivojlandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Malta chet ellik kemalarni ro'yxatdan o'tkazish borasida jahonda birinchi o'nlikka kiradi. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Malta hukumati dengiz tovar aylanmasida o'z obro'sini saqlab turish uchun kemalarga servis xizmatlarini ko'rsatish, ekspluatatsiya qilish va qayd etishni o'z vaqtida va hech bir qiyinchiliklarsiz tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'ygan. Maltaning dengizda ko'rsatadigan faoliyati, asosan, dengiz Mahkamalari tomonidan muvofiqlashtirib turiladi. Bu mahkamalar dengiz markazlari ham hisoblanib, o'z tarkibiga ma'muriy, huquqiy, soliq va infratuzilma faoliyatini boshqarish xizmatlarini ham qo'shib olgan.

Chet ellik kema korxonalarini ro'yxatdan o'tkazishning tartib qoidalari, asosan, 1973-yilda qabul qilingan "Buyuk Britaniya" qonunchiligiga asoslangan "Malta offshor hududi to'g'risida"gi Qonunning 234-moddasida o'z aksini topgan, ushbu modda tijorat kema faoliyati to'g'risidagi dalolatnoma asosida nazorat qilib turiladi. Har qanday kema, ya'ni oddiy yaxtalardan tortib, neft tashuvchi tankerlarga qadar Malta bayrog'i ostida ro'yxatdan o'tkaziladi, agar bu savdo Maltada huquqiy yoki jismoniy shaxsning mulki bo'lib hisoblansa. Kema birinchi marotaba 6 oyga, keyinchalik bu muddat yana 6 oyga cho'zilib to'liq hujjatlar asosida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bundan tashqari, kemalar "berbout-charter" ko'rinishida ham ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Bu holda kema Malta bayrog'i ostida chet ellarda ham faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

“Malta” offshor hududida faoliyat ko‘rsatayotgan ikki hissador va bitta kompaniyani millati va fuqaroligidan qat’iy nazar tayinlangan direktor boshqarishi mumkin. Kompaniyani vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazish uchun quyidagi hujjatlar, ya’ni kompaniyani ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza, kema maltalik fuqaroga yoki huquqiy shaxsga tegishli ekanligini tasdiklovchi hujjat, mulkdorning deklaratsiyasi, kemanding sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma va hokazolar talab etiladi. Kompaniyani doimiy ro‘yxatdan o‘tkazish uchun esa kemanding sertifikatini va oxirgi marta ro‘yxatdan o‘tgan mamlakat to‘g‘risidagi ma’lumotnoma talab etiladi.

Kompaniyani doimiy ro‘yxatdan o‘tkazish uchun esa kemanding sertifikatini, oxirgi marta ro‘yxatdan o‘tgan mamlakatning ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi ma’lumotnoma, kemanding Malta EIHi talablariga javob berishini tasdiqlovchi hujjat, kemanding qonuniy ekanligini tasdiqlovchi hujjat, kemani boshqaruvchi komandaning ro‘yxati, kemanding vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjat va boshqalar talab etiladi.

Kemani “berbout-charter” uchun ro‘yxatdan o‘tkazishga esa, kema Maltalik huquqiy va jismoniy shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjat, kema ilgari “berbout-charter” ko‘rinishida ro‘yxatdan o‘tkazilmaganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma, kemani ijaraga oluvchining arizasi, “berbout-charter” shartnomasi va deklaratsiyasi, ro‘yxatdan ko‘chirma, mulk egasining yozma ruhsatnomasi, kemanding yaroqliligini tasdiqlovchi hujjat, boshlang‘ich yoki yillik to‘lovlarni amalga oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqalar talab etiladi.

Kema Malta offshor hududida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng, u ikkinchi majburiyatni garov vazifasini ham o‘tashi mumkin. Xalqaro banklar maltalik kemalarni garov sifatida tan oladilar. Chunki, Maltada garov to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar xuddi garov asoslarini ko‘rsatuvchi inglizcha usuli bilan tenglashtirilgan. Shu bilan birga garov asoslari Maltaning “Fuqarolik” kodeksi kabi ustunlikka ham ega.

Jahon mamlakatlarining ko‘pchilik kemalari Malta orolida ro‘yxatdan o‘tib ishlashni xohlaydi. Buning sabablari quyidagilardan iborat. Birinchidan, Maltada kemalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va tashkil etish uchun to‘lov miqdorlarning boshqa mamlakatlarga nisbatan kamligi, ikkinchidan, 1000 tonna va undan yuqori bo‘lgan yukni suvda torta olish qobiliyatiga ega bo‘lgan kemalarning egalari va shuningdek, ijaraga oluvchilar va moliyaviy jihatdan yordam beruvchilarning barchasi soliq to‘lovlaridan ozod etiladi, uchinchidan, kema egasining millati. Fuqaroligi va ekipaj a’zolarining soniga hech qanday talab qo‘yilmasligi, to‘rtinchidan kema xavfsizlik talablariga javob berishi, benishchidan, aksiyalarni olish va sotish davrida hech qanday yig‘imlarning yo‘qligi, oltinchidan agar kemalarni ekspluatatsiya qilish korxonasi offshor kompaniyaga mansub bo‘lsa, “Offshor kompaniyalar to‘g‘risida”gi Qonunga asosan, turli imtiyozlarga ega bo‘lishi va boshqalar.

Malta EIHi bir qator kema xo‘jaliklari tashkil etish bo‘yicha xalqaro konvensiyalar a’zosi. Malta kema xo‘jaligida ishlovchilarning barchasi daromad va meros soliqlaridan, aksiyalarni va kemalarni sotish va ijaraga berish soliqlaridan, kemalarni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtidagi soliqlardan ozod qilinishi bilan

xarakterlanadi.

Malta orolida ikkiyoqlama soliq olinmasligi to'g'risidagi shartnomaga ega bo'lgan davlatlarning kompaniyalarini ro'yxatdan o'tkazganda olinadigan soliqlar miqdori yanada kamaytirilishi ko'zda tutilgan. Malta davlati EI bojxona hududidan tashqarida ekanligi bilan ham xarakterlanadi.

Shunday qilib, Maltada kemalarni ro'yxatdan o'tkazish va tashkil etishning to'lov miqdorlari jahonning boshqa mamlakatlariga nisbatan kamligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari Maltada bir qator kema xo'jaliklarini tashkil etish to'g'risidagi xalqaro konvensiyalarning a'zosi ekanligi bilan, kema xo'jaligida meros va aksiyalarni sotish hamda kemalarni ijaraga berish bilan, shuningdek, kemalarni ro'yxatdan o'tkazishda soliqlardan ozod qilinishi bilan ham ajralib turadi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, eksport, imtiyoz, savdo, investitsiya, soliq.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Janubiy Koreyada EIHLar XX asr 70 yillarining boshlarida vujudga kela boshlagan va bugungi kunda ushbu mamlakatda 4 xil yo'nalishdagi EIHLar faoliyati tashkil etilgan. Ular Janubiy Koreya iqtisodiyotining sanoatlashuvi va modernizatsiyasida muhim o'rin egallab kelmoqda. Ularda, ayniqsa, TMKlar faoliyatining rivojlanishi o'z samarasini bermoqda.

2. Tunis Afrikaning EIHLar rivojlanib borayotgan davlatlaridan biri sanaladi. Unda EIHLarning tashkil etilishi port shaharlarda erkin savdo hududlarining yaratilishi bilan bog'liq. Bu hududlarning tashkil etilishi va rivojlanishi qishloq joylardagi ishsiz aholining o'tgan asrning 80 yillarida port shaharlarga ish qidirib kelishi natijasida ushbu iqtisodiy muammoni yechishda erkin savdo hududlarining tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Natijada hzirda mamlakatdagi 5 ta savdo portlari eng zamonaviy kemalar va logistika bilan ta'minlagan.

3. Panama va Malta davlatlarida ham EIHLar mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga muhim o'rin egallaydi. Jumladan, o'tgan asrning 80 yillarining boshlaridayoq Panama EIHL xalqaro maydondagi yirik moliyaviy markazlardan biriga aylanib ulgurgan edi. Shuningdek, Malta chet ellik kemalarni ro'yxatdan o'tkazish borasida jahonda birinchi o'nlikka kiradi. Bu Malta offshor hududining qanchalik rivojlanganligidan dalolat beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. EIHLarni tashkil etishda qaysi rivojlanayotgan davlatlar tajribalarini o'rganish muhimroq sanaladi?

2. Janubiy Koreyada EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlarini tushuntirib bering.

3. Tunisda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish xususiyatlarini tushuntirib bering.

4. Panamada EIHLarning vujudga kelishi va rivojlanishi qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?

5. Maltada EIHLar faoliyati qaysi yo'nalishda tashkil etilgan va sabablari nimada?

6. Malta offshor hududi rezidentlar uchun qanday afzalliklarni taqdim etadi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:


1. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.
2. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – 230 с.
3. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.
4. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особие экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.
5. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.
6. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особие экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.
7. Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2006. – 167 с.

8-bob. AQSHDA TASHKIL ETILGAN ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR

8.1. AQShda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlari va ularning tasnifi

EIHLar faoliyat yuritayotgan 140 dan ortiq mamlakatlar orasida eng ko'pi AQShga to'g'ri keladi. AQShda EIHLarning soni 266 tani tashkil etadi va u tashq savdo hudud (TSH)laridan iboratdir. Biroq, uning soni yana ortib bormoqda. AQShda bu turdagi EIHLar maydoni boshqalariga nisbatan juda yuqoriligi sababli undagi EIHLar soni haqida gipirilganda aynan TSHlari soni nazarda tutiladi. Vaholanki, AQShda, bundan tashqari, 1500 dan ortiq tadbirkorlik hududlari va 200 dan ortiq texnoparklardan tashkil topgan EIHLar ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Shunga ko'ra, AQShda tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatayotgan EIHLarning turlari va maqsadlari quyidagilardan iborat (8.1-rasm).



8.1-rasm. AQShda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar va ularning asosiy maqsadlari

Bugungi kunda AQShda tashkil etilgan EIHLar davlatning hududiy rivojiga va tashqi savdoning diversifikatsiyasiga o'z hissasini qo'shmoqdalar.

AQShda EIHLar o'ziga xos xususiyatga ega. Jumladan, AQShning tashqi savdo hududlarida 80% xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar AQShning ichki hududlaridan keltiriladi va o'z navbatida, 90% ishlab chiqarilgan mahsulot mamlakatning ichki hududlariga yetkazib beriladi.

EIHLning muhim maqsadlaridan biri – bu ma'lum bir hududdagi iqtisodiyotning rivojlanishiga yoki aniq bir tarmoqning rivojlanishiga turtki berish. Bu EIHLarning

tashkil etish o'ziga xos maqsadida to'liq o'z aksini topadi. AQShda EIHLarning dastlabki tashkil etilishi asosida faol rivojlanishi tus olishi bilan alohida ajralib tursada, undagi maqsadlarga o'xshashlik Buyuk Britaniya davlatidagi EIHLarda mavjud bo'lgan. Ya'ni XX asrning 80 yillarida keng tashqil qilina boshlagan EIHLar orqali mazkur davlatlardagi depressiv tumanlardagi kichik va o'rta biznesni rivojlantirish maqsad qilingan edi. Bu maqsadga erishish uchun, butun mamlakat hududlaridan ko'ra bu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarga moliyaviy imtiyozlar va xo'jalik faoliyatini yuritish uchun bir qancha yengilliklar berilgan. Bu rivojlantirish dasturi to'g'ridan-to'g'ri xorij kapitalini o'ziga (tashqaridan) jalb qilish uchun tuzilmagan.

Xuddi mana shu maqsadlarda kamroq rivojlangan mamlakatlarda ham EIHLar tashkil qilingan, ya'ni rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarda tashkil qilingan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHLarni tashkil qilishdan maqsad, ishlab chiqarish bo'yicha rivojlangan mamlakatlardan farq qiladi, ular, asosan, xorij kapitalini jalb qilishga ko'proq e'tibor qaratadilar.

Bundan farqlanishni quyidagi 8.1-jadval orqali to'laroq tasavvur etish mumkin.

8.1-jadval.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil qilingan EIHLarning farqli jihatlari

Ko'rsatkichlar	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar
Tashkil etiladigan EIHLning asosiy turlari	Erkin savdo zonalari, Texnoparklar	Ekspart ishlab chiqarish zonalari
Maqsadlari	Tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish	Xorij kapitalini jalb qilish
EIHLar jalb qilinayotgan kapital tarkibi	Ko'proq milliy xususiy kapital	Ko'proq xorijiy xususiy kapital


8.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda EIHLarni tashkil etish rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan birmuncha keng qamrovli ekanligi bilan ajralib turadi va shuning uchun ham ular iqtisodiyot rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsata oladi.

AQShdagi faoliyat ko'rsatayotgan EIHLarning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin (8.2-rasm).

8.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, AQShda tashkil etilgan EIHLar tasnifi ularning 3 turga ajratilishi va har biri yana bir necha turlarga ajratilishi bilan xususiyatlanishini ko'rish mumkin. Ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida esa keyingi paragraflarda alohida to'xtalib o'tiladi.

Umuman olganda, bugungi kunga kelib AQShda EIHLar katta tajribalarni to'plagan va rivojlangan hududlar sifatida dunyo mamlakatlari uchun muhim tajriba

maktabi hamda tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ularning tashkil qilina boshlashi esa 1930-yillar boshiga to‘g‘ri keladi. Mazkur EIHLarning faoliyat ko‘rsatilishida 1934-yilda AQShda qabul qilingan “Tashqi savdo hududlari to‘g‘risida”gi Qonun muhim ahamiyat kasb etgan.



8.2-rasm. AQShda tashkil etilgan EIHLlar tasnifi

Mazkur qonun asosida tashqi savdo hududlari tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish va ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida tashkil qilingan.

Tashqi savdo hududlari nomiga ega bo‘lgan hududlar, bojxona to‘lovlari rejimlariga bo‘lgan imtiyozlar bilan, ular orqali boj to‘lashdan ozod etish belgilanishi, ichki soliqlar va har qanday tovar uchun kvotalar, AQSh hududidan uchinchi mamlakatlar hududiga eksport qilinayotgan, sanoatni qayta ishlanishiga kerakli tovarlarga import soliqlarini kamaytirish kabi imtiyozlarga ega hisoblanadi.

XXI asr boshlarida AQShning 48 ta shtatida ro‘yxatga olingan tashqi savdo hududlarida 320 ming kishi band bo‘lgan 3 mingdan ortiq kompaniyalar faoliyat yuritadi. Hududlardan olib ketilayotgan mahsulotlar hajmi bir necha 100 mlrd. dollardan oshadi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, tashqi savdo hududlari, tadbirkorlik hududlari, texnoparklar, xususiy kapital, eksport-ishlab chiqarish hududlari.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. AQShda EIHLarning soni 266 ta (TSHlari)ni tashkil etib, bundan tashqari

tadbirkorlik hududlari va ilmiy parklar ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda. AQShda EIHLarni tashkil etishning o'z maqsadlari mavjud bo'lib, ularning har biri alohida turlarga bo'lingan tasnifga ham egalardir.

2. AQShda tashqi savdo hududlaridagi 80% xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar AQShning ichki hududlaridan keltiriladi va o'z navbatida, 90% ishlab chiqarilgan mahsulot mamlakatning ichki hududlariga yetkazib beriladi. Bu esa ma'lum bir hududdagi iqtisodiyotning rivojlanishiga va aniq bir tarmoqning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. AQShda EIHLarning dastlabki tashkil etilishi asosida faol rivojlanishi tus olishi bilan alohida ajralib turadi. Bu mamlakatda ishsizlikning qisqarishi va tashqi savdoning rivojlanishida o'z aksini topgan.

3. AQShda EIHLarning tashkil etilishining o'ziga xos sabab va tarixi mavjud. bugungi kunga kelib AQShda EIHLar katta tajribalarni to'plagan va rivojlangan hududlar sifatida dunyo mamlakatlari uchun muhim tajriba maktabi hamda tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ularning tashkil qilina boshlashi esa 1930-yillar boshiga to'g'ri keladi. Mazkur EIHLarning faoliyat ko'rsatilishida 1934-yilda AQShda qabul qilingan "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonun muhim ahamiyat kasb etgan.

Nazorat uchun savollar:

1. AQShda EIHLarning tashkil etilish sababi nimalardan iborat?
2. AQShda EIHLarning qanday turlari faoliyat ko'rsatadi?
3. AQShda EIHLarning faoliyat ko'rsatish xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. AQShda EIHLarning tashkil etilishi qaysi qonunga asoslanadi u qachon qabul qilingan?
5. AQShda EIHLarning tasnifini aytib bering va undagi har bir turga izoh berib o'ting.
6. AQShda tashkil etilgan EIHLarning boshda davlatlardagidan farqli jihatlari va afzalliklari nimalardan iborat?

8.2. AQShda erkin iqtisodiy hududlarning tashkil qilinishi sabablari, tarixi va xususiyatlari

AQShda ESHlarini tashkil etishning o'ziga xos sabablari va tarixi mavjud bo'lib, bu barcha EIHLarni tashkil etishga qiziquvchi davlatlarni qiziqtiruvchi tajriba hisoblanadi. AQShda EIHLarning dastlabki tashkil etilishi TSHlari tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, mazkur TSHlarining yuzaga kelishining esaning o'ziga xos asoslari va tarixi mavjud.

Dastlabki TSHlarining tashkil etilishi mamlakatdagi **Buyuk depressiya** davriga to'g'ri keladi, ya'ni dastlabki TSHlari 1934-yilda **Xoul-Smut qonunining** salbiy samaralarini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan 2 ta muhim choraning biri sifatida yuzaga keldi.

Xoul-Smut qonuni 1930-yil 17-iyunda Tarif Aktining senatorlar senatorlar Reed Smoot va Devid Willis S Hawley tomonidan imzolanishi bilan yuzaga kelgan.

Ushbu harakat AQSh tomonidan 20 mingdan ortiq import qilinadigan tovarlar narxini oshirdi.

1930-yil 17-iyunda Tarif Aktining qabul qilinishi oqibatida:

- AQSh tarixidagi o'tgan va keyingi 100 yillik ichidagi ikinchi eng yuqori tarif stavkasini keltirib chiqardi;

- boj olinmaydigan importlar uchun o'rnatilgan **tariflar** natijasida AQSh savdo hamkorlari tomonidan ta'qibga uchragan va ular tomonidan AQShdagi **Xoul-Smuta qonuni (Tarif Akti)**ga qarshi qonunlar qabul qilinishiga sabab bo'ldi;

- buning natijasida 20 mingdan ortiq import qilinadigan tovarlar narxining oshishidan chuqur depressiya AQSh tarixidagi **Buyuk depressiya** davrini keltirib chiqardi;


- **Xoul-Smuta qonuni (Tarif Akti) Buyuk depressiya** davrida AQSh eksporti va importining yarmidan ko'pini kamaytirishning asosiy omillari bo'ldi;

- bunga AQSh savdo hamkorlarining AQShda ishlab chiqarilgan tovarlari kirib kelishiga import bojlarini ko'tarishlari bilan javob berishi sabab bo'ldi;

- buning natijasida AQSh va uning savdo hamkorlari o'rtasida savdo hajmining keskin tushib ketishiga keltirib chiqardi;

- bu esa AQShda ishlab chiqarish hajmining va daromadlarning pasayib ketishi va ishsizlik darajasining keskin oshib ketishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

AQShda tarif stavkalarining qariyb bir asrlik dinamikasini quyidagi 8.3-rasm orqali ko'rish mumkin.



8.3-rasm. AQShda o'rtacha tarif stavkalari⁷¹

8.3-rasmdan ko'rinib turibdiki, 1828-1830 yillardan keyin 1934-yilda tarif stavkalari eng yuqori darajaga chiqqan va bu esa AQSh iqtisodiyoti inqirozi uchun

⁷¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Title_19_of_the_United_States_Code

juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Bu esa AQShda AQSh iqtisodiyotida muhi o'rin egallagan eksport-importni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish maqsadida TSHlarini tashkil etish g'oyasini vujudga keltirdi. Bu esa 1934-yilda AQShda "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

1934-yilda qabul qilingan AQSh "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonunining **asosiy maqsadi** – muayyan hududlarda bojxona imtiyozlari, shuningdek, **Buyuk depressiya** davrida haddan ziyod yuqori bo'lgan ishsizlik darajasini pasaytirish yordamida iqtisodiy faollikni oshirish yo'li bilan mamlakatni jahon savdosiga chuqurroq jalb etishdan iborat.

AQShda dastlab TSHlari xalqaro transport yo'nalishlaridagi port hududlarda tashkil etildi va ushbu hududlarda **pasaytirilgan bojxona bojlari** (tariflari) amal qildi.

2-Jahon urushi davrida mazkur hududlarda ishlab chiqarish, deyarli olib borilmadi. 1980-yilda AQSh hukumati 1934-yildagi "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonunga tuzatishlar kiritdi. Unga ko'ra, TSHlarida ishlab chiqarishda yaratiladigan qo'shimcha qiymat soliqqa tortish maqsadlarida qo'shilgan qiymat sifatida hisobga olinmaydigan bo'ldi.

Mazkur tuzatishlarining kiritilishi yuqori daraja va sifatdagi tovarlar ishlar chiqarilishini va xalqaro savdo hajmining o'sishini ta'minladi.

Bugungi kunda AQShda 2 turdagi TSHlari faoliyat ko'rsatadi:

- **umumiy maqsadlar uchun zonalar** (general purpose zones);
- **ixtisoslashgan zonalar (maxsus belgilangan subzonalar)** (special purpose subzones).

AQShda EIHLarning keng tarqalishiga va rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar – ushbu hududlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalarga berilgan turli xil imtiyozlar yordam beradi. Buning asosiy afzalliklari:

1. Bojxona to'lovlari va mahalliy soliqlar, agar ular olinadigan bo'lsa, faqat tovarlar tashqi savdo hududidan bojxona hududiga olib o'tilganda va ichki iste'mol uchun mo'ljallangan (ichki bozorga olib kirilgan) taqdirda to'lanadi.

2. Hududdagi tovarlarga bojxona yig'implari amal qilmaydi va aksiz solig'i olinmaydi. Hududdagi kompaniyalar yoki jismoniy shaxslarning shaxsiy mulki federal va mahalliy soliqlardan ozod etiladi.

3. TSHlaridan uchinchi mamlakatlarga eksport qilinadigan tovarlar boj, soliq va boshqa majburiy to'lovlarga tortilmaydi.

4. Eksport qilinadigan tovar, yaxshi tashkil etilgan himoya tizimi tufayli katta sug'urta xarajatlarini talab qilmaydi.

5. Tovarlarni eksport qilishning bojxona tartibi minimallashtiriladi, bojxona rasmiylashtiruvchi jarayoni minimal darajada.

6. Hududlardan tovar eksportida kvotalar o'rnatilmaydi.

7. AQShga olib kirish taqiqlangan tovarlar zonalar hududiga olib kirilmaydi. AQSh Bojxona xizmati talablariga muvofiq, zonaga tegishli ishlov berish uchun keyingi import bilan olib kirilishi mumkin.

8. TSHlaridan AQShga tovarlarni olib kirish importyorga hududga kirgan

tovarlar yoki uni qayta ishlashda ishlatiladigan xorijiy komponentlar bo'yicha boj to'lovlarini to'lash imkonini beradigan tartibda amalga oshirishga ruxsat etiladi. Shunday qilib, importyorga pastroq burchni tanlash huquqi beriladi.

AQShda maydoni bo'yicha eng katta TSH Florida shtatidagi Bredford shahrida joylashgan TSH hisoblanadi. Uning maydoni 1000 ga ni tashkil etadi.

AQShda TSHlari mamlakat eksporti va importining 2%ini beradi. Buni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

8.2-jadval.

**AQSh eksporti va importi hamda unda TSHlarning ulush,
mlrd. AQSh dollari hisobida**

Ko'rsatkichlar	Yillar											
	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
AQSh eksporti	1040,1	1165,2	1308,8	1070,3	1290,3	1498,9	1562,6	1593,7	1635,6	1511,4	1457	1553,4
AQSh eksportida EIHLar ulushi	20,80	23,30	26,18	21,41	25,81	29,98	31,25	31,87	32,71	30,23	29,14	31,07
AQSh importi	1878,2	1986,3	2141,3	1580	1939	2239,9	2303,7	2294,2	2385,5	2273,2	2208	2360,9
AQSh importida EIHLar ulushi	37,56	39,73	42,83	31,6	38,78	44,80	46,07	45,88	47,7	45,46	44,16	47,22
AQSh tashqi savdo aylanmasi	2918,3	3151,5	3450,1	2650,3	3229,3	3738,8	3866,3	3887,9	4021,1	3784,6	3665	3914,3
AQSh tashqi savdo aylanmasi EIHLar ulushi	58,36	63,03	69,01	53,01	64,59	74,78	77,32	77,75	80,41	75,69	73,3	78,29

8.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, AQShda tashqi savdo aylanmasida importning ulushi yuqori bo'lib, umumiy savdo aylanmasi nobarqarorlikni kasb etgan. Bunda AQSh tashqi savdo aylanmasida TSHlarining ulushi o'rtacha 2% atrofida bo'lib, ular tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi so'nggi yillarda 80 mlrd. AQSh dollari atrofida bo'lmoqda. O'z navbatida, TSHlari eksporti-importida ham importning ulushi yuqori bo'lib, bu, asosan, xomashyo va materiallarning ichki iqtisodiyot uchun xaridi bilan bog'liq.

AQShda tashqi savdo hududlarida har qanday tovarlarni ishlab chiqarish va sotishga ruxsat etilmaydi.

Jumladan, mazkur hududlarda ichki soliqqa tortilishi belgilangan tovarlar ishlab chiqarilishi mumkin emas. Xususan, unga alkogol ichimliklar, alkogol ichimliklarni tarkibida saqlovchi mahsulotlar (tabiiylashtirishlar distillangan spirtidan tashqari), masalan, tarkibida alkogol saqlovchi parfyumeriya mahsulotlari, tabaka mahsulotlari, olov keltirib chiqaruvchi qurollar, shakar, devor uchun mexanizmlar va qo'lga taqiladigan soatlar kabilar kiradi.

Shuningdek, mazkur hududlarda chakana savdo bilan shug'ullanish qonunan taqiqlanadi.

Bundan tashqari, AQShda **tadbirkorlik hududlari** ham tashkil etilib, ular, odatda, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan yirik shaharlarda tashkil etiladi.

Tadbirkorlik hududlari maydoni 2,5-5 km kv. ni tashkil etadi, ayrim hollarda, 13 km kv. Maydongacha joyni egallab, bunda chegara belgilanmaydi, aksincha, unda joylashgan kompaniya maqomi (statusi) bilan ajralib turadi.

AQShda tadbirkorlik hududlariga talablar:

1. Tadbirkorlik hududi tashkil etiladigan tumandagi aholining shaxsiy yoki oilaviy daromadi mazkur shahardagi yoki mamlakatdagi o'rtacha daromadning 80% idan kam bo'lishi lozim.

2. Bu tumandagi ishsizlik darajasi mazkur shahar yoki mamlakatdagi o'rtacha ishsizlik darajasidan sezilarli darajada yuqori bo'lmog'i lozim.

Bundan tashqari, XX asrning 50 yillaridan AQShda texnoparklarning vujudga kelishi va rivojlanishi kuzatildi. Texnoparklar iqtisodiyot tarmoqlari va shtatlarning ilmiy-texnikaviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu sababli G'arbiy Yevropa bugungi kunda texnoparklarni tashkil etishga qanchalik e'tiborni kuchaytirmasin, AQSh taraqqiyotidan hamon ortda qolmoqda. Bu esa AQShning texnoparklarni tashkil etishdagi erishgan yutuqlarining yuksakligini hamda ularni tashkil etishdagi qo'yilgan maqsadlarga samarali tarzda erishayotganligidan dalolat beradi.

Texnoparklar bugungi innovatsion rivojlanish davrida AQSh iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa uning IT sohasida hamon dunyodagi yetakchi raqobatchilardan bo'lib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, tashqi savdo hududlari, tadbirkorlik hududlari, tarif, tarif stavkasi, depressiya, iqtisodiyot, inqiroz, bojxona ixtisoslashgan hudud, eksport, import, tashqi savdo aylanmasi, tovar, ishsizlik.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. AQShda EIHLarning tashkil qilinishi mamlakatdagi buyuk depressiya davriga to'g'ri keladi. Bu davrda mamlakatda ishsizlik juda yuqori darajaga chiqib, bunga qabul qilingan Xoul-Smut qonunining 1930-yildan 20 mingdan ortiq import qilinadigan tovarlar narxining so'nggi 100 yillikdagi eng yuqori darajaga oshirilishiga sabab bo'lishini asos qilib keltirish mumkin. Bu esa tovarlar importida yuqori tarif stavkasining qo'llanilishi chuqur depressiyaga olib kelgan. Ushbu chuqur depressiyadan chiqish uchun 1934-yilda AQShda "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

2. 1934-yilda qabul qilingan AQSh "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonunining **asosiy maqsadi** – muayyan hududlarda bojxona imtiyozlari, shuningdek, **Buyuk depressiya** davrida haddan ziyod yuqori bo'lgan ishsizlik darajasini pasaytirish yordamida iqtisodiy faollikni oshirish yo'li bilan mamlakatni jahon savdosiga chuqurroq jalb etishdan iborat.

3. AQShda EIHLarning keng tarqalishiga va rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar – ushbu hududlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalarga berilgan turli xil imtiyozlar yordam beradi. Ularning bir qancha qo'llanilish turlari mavjud. Bugungi kunda kelib AQShda EIHLarning rivojlanishi natijasida ular mamlakat tashqi savdo hajmining 2 % ulushini ta'minlab kelmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. AQShda EIHLarning tashil etilish tarixi nimalardan iborat?

2. AQShda Buyuk depressiya nomi bilan mashhur chuqur inqirozning sabablari va undan chiqish yechimlari haqida nimalarni bilasiz?

3. AQShda bugungi kunda tashqi savdo hajmida EIHLar qanday ulushni tashkil etmoqda?

4. AQShda EIHLarda qanday imtiyozlar amal qiladi?

5. AQShda tadbirkorlik hududlari qanday maqsadlarda tashkil etiladi?

6. AQShda TSHlari va texnoparklarning ahamiyatini tushuntirib bering.

8.3. AQShda tashqi savdo hududlarining tashkil qilinishi, ularning turlari, maqsadi hamda undagi imtiyozlar tizimi

Erkin savdo hududlari birinchi marotaba XIX asrda Shimoliy Yevropada paydo bo‘lgan.

AQShda bunday hududlar o‘tgan asrning 30 yillarida paydo bo‘lib, tashqi savdo hududlari deb nom olgan.

Bu hududlarning Yevropada muvaffaqiyati, ayniqsa, mashhur Gamburg erkin portining yutuqlari bunday hududlar AQShda 1930-yildan boshlab erkin savdo hududlari yoki tashqi savdo uchun maxsus sharoitlari bo‘lgan hududlar nomi bilan yaratilishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Bunday hududlar milliy hududning chegaralangan bir qismi bo‘lib, ularda umumiy xo‘jalik va tashqi iqtisodiy faoliyatga nisbatan imtiyozli tizim o‘rnatilgan.

Boshqacha qilib aytganda, *tashqi savdo hududlari – bu shunday savdo yoki savdo-ishlab chiqarish hududlariki, ular mamlakat ichida joylashgan bo‘lishiga qaramasdan, bojxona, budjet-soliq va moliyaviy tizimlar nuqtai nazaridan mamlakat tashqarisida joylashgandek ko‘riladi.*

8.3-jadval.


AQShdagi tashqi savdo hududlari

Tashkil etilishi	1934-yildan bunyo “Tashqi iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonun asosida mamlakatning barcha shtatlarida
Soni	266 ta
Yaratilish sababi	- qulay geografik joylashuv (xalqaro transport yo‘llariga, yirik sanoat markazlariga, chegaraga yaqinlik va b.q.); - rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi (yo‘llar, omborlar, yuk terminallari, zarur texnika, energiya, suv va issiqliq bilan ta‘minlanganlik va h.k.)
Maqsadi	- hududlarning iqtisodiy faolligini kengaytirish; - AQShni jahon savdo tizimiga chuqurroq jalb qilish; - ishsizlik darajasini pasaytirish
Turlari	1. Umumiy maqsadlardagi hududlar (UMH) yoki umumiy foydalanish hududlari. 2. Maxsus maqsadlardagi subhududlar (MMSH) yoki maxsus

	hududlar (subhududlar)
Imtiyozlar	<ul style="list-style-type: none"> - ichki boj va soliqlar mahsulot ichki iste'mol uchun boshqa hududga olib kirilgandagina to'lanadi; - hudud ichida joylashgan kompaniya va shaxslarning xususiy mulki mahalliy va davlat soliqlaridan ozod etiladi; - hududdan uchinchi davlatlarga eksport qilinayotgan mahsulot bojxona bojlaridan, ichki soliqlardan va kvotalashdan ozod etiladi; - TSHlaridan mahsulot eksport qilingan paytida bojxona jarayoni yengillashtiriladi; - TSHdan AQSh hududiga import qilish jarayonida importer bojni yoki mahsulot uchun, yoki mahsulotda ishlatilgan xorijiy komponentlar uchun to'laydi.

Zamonaviy TSHlari import qilinadigan tovarni omborga joylashtirish, saralash va qadoqlash, shuningdek, uni to'liq qayta ishlash, mahalliy yoki xorijiy chiqindilar tarkibiy qismlaridan ayrim turdagi mahsulotlarni yig'ish va hatto, hududga kiradigan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarga asoslangan ayrim turdagi ishlab chiqarishlarni tashkil qilish bo'yicha keng xizmat turlarini taqdim etadi.

AQShda shtatlar bo'yicha TSHlari xaritasi quyidagi 8.4-rasmda keltirilgan.




8.4-rasm. AQShda shtatlar bo'yicha TSHlari xaritasi⁷²

8.4-rasmda keltirilgan AQSh shtalarida joylashgan TSHlarining alohida

⁷² <https://enforcement.trade.gov/ftzpage/letters/ftzlist-map.html>

hududlarda joylashuvi xaritasi esa 8.5-rasmda keltirilgan.

Odatda, erkin savdo hududlarini tashkil etishning ustuvor shartlari – foydali geografik holat (xalqaro transport yoʻnalishlari, yirik sanoat markazlari, chegara savdo maydonchalari va hokazolarga) va rivojlangan infratuzilma mavjudligi (kirish yoʻllari, omborxonalar, yuk terminali, yuk tashish uskunalari, barqaror elektr, suv va issiqlik taʼminoti). Shuning uchun TSHlari, koʻpincha, portlar, aeroportlar yoki ularning yaqinida joylashgan.



8.5-rasm. AQSh shtalarida joylashgan TSHlarining alohida hududlarda joylashuvi xaritasi

“Tashqi savdo zonalari toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq, AQShda TSHlari port zonalarda tashkil etilishiga ruxsat etilgan boʻlib, bunda bunday zonalar:

- port hududida yoki;
- portga kirish hududiga chegaradosh, yonma-yon, oʻzaro bogʻlangan hududda tashkil etilishi mumkin.

Har bir portga kirish bitta TSHni tashkil etish imkonini beradi, biroq, agarda portga kirishdagi suv yoʻli iiki shahar oʻrtasida joylashgan boʻlsa, u holda TSHda ushbu shaharlar hududida joylashishga ruxsat etiladi. Bu port hududida tashkil etilgan TSHni ifodalaydi.

Ikkinchi turdagi TSHlari portga kirish hududiga chegaradosh joyda joylashgan savdo hududlari sifatida ham tashkil etilishi mumkin.

Mavjud qonunchilikka muvofiq Qoʻshma Shtatlarda faoliyat yuritadigan tashqi savdo zonalari boʻlinadi:

“Tashqi savdo zonalari toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq, AQShda TSHlari port

zonalarda tashkil etilishiga ruxsat etilgan bo'lib, bunda bunday zonalar:

- **umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) hududlar;**
- **ixtisoslashgan hududlar (subzonalar).**

Bugungi kunda AQShda 253 umumiy maqsadli zonalar va taxminan 400 ta subzonalar mavjud⁷³.

Umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) zonalar odatda, port va aeroportlar hududida yoki ular yaqinida AQSh bojxona xizmati vakolatlaridan tashqarida joylashgan bo'ladi.

Odatda, umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) tashqi savdo zonasida tovarlarni saqlash uchun ijaraga beriladigan bo'sh joylar (maydon), har qanday transport vositasi kirish imkoniga ega bo'lgan distribyutorlik (tarqatish) markazi joylashgan bo'lishi lozim.

Umumiy maqsadlardagi zonalarining faoliyati sohasi mahsulotni qo'shimcha qayta ishlashsiz saqlashni, saralashni, qadoqlashni o'z ichiga oladi.

Umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) zonalar Tashqi savdo zonalarini bo'yicha Komiteti tomonidan mahalliy hokimliklar yoki shtat Hukumati huzuridagi turli xil tashkilotlarga, masalan, iqtisodiy rivojlanish bo'yicha agentliklar, port administratsiyasiga ruxsat berish asosida tashkil etiladi.

Ushbu zonalar savdoni kengaytirish va aholi bandligi darajasini oshirish maqsadida tashkil etiladi va kommunal xizmatlar davlat korxonalarini uchun e'lon qilingan tariflar asosida taqdim etiladi.

Zonalar davlat yoki xususiy kompaniyalar tomonidan boshqariladi.

Umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) tashqi savdo zonalarini dastlab Nyu-York, Nyu-Orlean, San-Fransisko, Oakland, Los-Anjeles va Sietldagi yirik portlarda joylashgan.

1950-yillarda Toledo (Ogayo shtati), Janub (Michigan), Mayaguez (Puerto-Riko), Honolulu (Gavayi)da xuddi shunday hududlar yaratilgan.

Eng muhimi, 70-80 yillarda hududlarning soni ko'paydi, bu AQSh tashqi savdosi o'sishini va ichki bozorda raqobatning kuchayishini aks ettirdi.

Ushbu davr mobaynida bunday hududlar dengiz portlari va xalqaro aeroportlarda emas, balki, okeanga ega bo'lmagan shaharlarda ham yaratilgan, lekin, hozirda ham tashqi savdo sohasida muhim rol o'ynaydi.

1970-yilga kelib yaratilgan 52 umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) tashqi savdo zonalaridan 24 tasi okeanga kirish imkoniga ega bo'lmagan shaharlarda joylashgan edi. Ushbu jarayonda AQSh savdo hajmining oshishi bilan bir qatorda xorijiy korporatsiyalarning ichki bozorda faollashuvi, turli xil eksport operatsiyalarining jadal o'sishi mamlakatda yangi savdo infratuzilmasini yaratishga olib keldi.

Ixtisoslashgan zonalar (subzonalar) faoliyati umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) tashqi savdo zonasi doirasiga kirmaydigan alohida kompaniyalar uchun tashkil etiladi. Unda import o'rnini bosuvchi yoki eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi.

⁷³ "U.S. Foreign-Trade Zones". Import Administration. International Trade Administration. January 13, 2013. Retrieved 2013-01-20.

Qonunchilikka ko'ra, bunday hududlar maydoni, haqiqatda, katta hisoblanadi. Masalan, foreign trade zone Tacoma (shtat Washington) maydoni 620 akr (FTZ #86 brochure - Port of Tacoma)ni tashkil etadi.

Ixtisoslashgan zonalar (subzonalar) faoliyati umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) tashqi savdo zonasidan farqli ravishda faqat bitta foydalanuvchiga yo'naltirilgan yirik kompaniyalar manfaatlari uchun tashkil etilgan.

Bunday zonalar xususiy korxonalarining yig'ish zavodlarini yoki turli xil sanoat korxonalarini tashkil etish uchun umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) zonalarini boshqarish qaroriga muvofiq yaratiladi.

Ixtisoslashgan zonalar (subzonalar)ning mavqei umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) zona maqomidan keyingi darajada bo'lib, bunday hududlar, qoida tariqasida, mavjud ishlab chiqarish obyektlariga beriladi. Subzonalar texnik jihatdan umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) zonalar tarkibiga kiradi, lekin, geografik jihatdan ulardan ancha uzoqda (chetda) joylashgan bo'lishi mumkin.

AQShda TSHlari (foreign trade zone) bojxona xarajatlarini pasaytirish yo'li bilan tashqi savdo faoliyatini faollashtirish uchun tashkil etilgan bo'lib, bunda, eng avvalo, avtomobillar ishlab chiqarish uchun uning metallari va komponentlari importiga bojxona tariflarini qisqartirishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunga kelib AQShda barcha portlar, aeroportlar, yirik omborxonalar TSHlariga aylantirilgan. Bunda ushbu hududlarda hech qanday salbiy holat (ular faoliyati bo'yicha) mavjud emas, ular o'z faoliyati davomida faqat o'zlarining ijobiy tomonlarini namoyon etib kelgan va tavsiya etib kelmoqdalar.

Shunday qilib, AQSh iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalangan TSHlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Bu, birinchi navbatda, AQShda ishlab chiqariladigan imtiyozli soliq rejimidan foydalanib, milliy kompaniyalarni rag'batlantirish orqali AQSh bozorida sotiladigan xorijiy tovarlarga nisbatan raqobatbardosh bo'lgan turli xil tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali amalga oshiriladi.

TSHlarining faoliyati, shuningdek, mamlakatdagi investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishni qisqartirish tendensiyasiga qarshi turadi va tashqi savdoning o'sishiga hissa qo'shadi. Ushbu hududlarning roli ham ichki bozor ehtiyojlariga javob berishda ham kuchaymoqda – o'tgan asrning 90 yillari boshlarida ushbu hududlarda ishlab chiqarilgan va qayta ishlangan mahsulotlarning 88 foizi sotilgan.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, tashqi savdo hududlari, savdo-ishlab chiqarish hududlari, bojxona, infratuzilma, tovar, ombor, port.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. AQShda TSHlari dastlabki tashkil etilgan EIHLardan hisoblanadi. Ular mamlakatning Buyuk depressiyadan chiqishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Shu sababli mamlakatda TSHlarini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratib kelinadi va unda bir qator soliq va bojxona imtiyozlarining ham tadbiriq etilishi amal qilib keladi.

2. AQShda TSHlari bojxona xarajatlarini pasaytirish yo‘li bilan tashqi savdo faoliyatini faollashtirish uchun tashkil etilgan bo‘lib, bunda, eng avvalo, avtomobillar ishlab chiqarish uchun uning metallari va komponentlari importiga bojxona tariflarini qisqartirishni ko‘zda tutadi. TSHlarining rivoji mamlakatdagi investitsiya muhitiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

3. AQShda TSHlarining 2 turi mavjud bo‘lib, ular: umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) zonalar va ixtisoslashgan zonalar (subzonalar)dan iborat. Umumiy foydalanish zonalarini savdoni kengaytirish va aholi bandligi darajasini oshirish maqsadida tashkil etiladi va kommunal xizmatlar davlat korxonalarini uchun e‘lon qilingan tariflar asosida taqdim etiladi. Ixtisoslashgan zonalar faoliyati umumiy maqsadlar uchun (foydalanish) tashqi savdo zonasi doirasiga kirmaydigan alohida kompaniyalar uchun tashkil etiladi. Unda import o‘rnini bosuvchi yoki eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Nazorat uchun savollar:

1. AQShda TSHlarini tashkil etish asoslari, faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Bugungi kunda AQShda TSHlari soni qanchani tashkil etadi va ular qaysi shtatlarda eng ko‘p tashkil etilgan?
3. AQShda TSHlarida qanday imtiyozlar taqdim etiladi?
4. AQShda TSHlarining turlari va xususiyatlari nimalardan iborat?
5. AQShda TSHlarini tashkil etish va rivojlantirish iqtisodiyot uchun qanday samaralar keltirdi?
6. AQShda TSHlari faoliyatida qanday muammolar kuzatiladi?

8.4. AQShda tadbirkorlik hududlarining tashkil qilinishi, ularning turlari, maqsadi hamda undagi imtiyozlar tizimi

AQShda **Tadbirkorlik hududlari (TH)** tashqi savdoni ta‘minlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Bu holatda, bojxona imtiyozlari ma‘lum bir (ikkinchi) darajaga tushadi va asosiy rolni turli soliq, moliyaviy va ma‘muriy imtiyozlar amalga oshiradi.

Qo‘shma Shtatlarda tadbirkorlik hududlari kichik va o‘rta biznesni depressiya sharoitlarida qayta tiklash uchun paydo bo‘ldi, bu esa tadbirkorlarga ko‘proq faoliyat erkinligi va sezilarli moliyaviy imtiyozlar berish imkonini berdi.

Ushbu hududlar uchta yo‘nalishga asoslangan mintaqaviy rivojlanishning muhim markazlariga aylandi:

- tartibga solish;
- de-byurokratlashtirish va;
- byurokratikatsiya.

AQShdagi tadbirkorlik zonalari xususiyatlari

Tashkil etish asosi	Hukumat dasturlari
Birinchi tadbirkorlik zonasi	1980 yil Florida shtatida
Maydoni	2,5-5 km ² , ayrim hollarda 13 km ²
Maqsadi	yuqori ishsizlik darajasiga ega shaharlarda tadbirkorlikni rivojlantirish
Turlari	Federal, shtat yoik mahalliy darajadagi
Imtiyoz turlari	Soliq, moliyaviy va ma'muriy rag'batlantirishlar

AQShda tadbirkorlik hududlari faoliyat yuritish shartlari:

1. Tadbirkorlik hududining faoliyat yuritish muddati 10-20 yilni tashkil etadi. Federal tadbirkorlik hududlari muddatni uzaytirish imkoniyati bilan 20 yilga tashkil etiladi.

2. Tadbirkorlik hududlari shtat hukumati yoki mahalliy boshqaruv organlari tomonidan uni tashkil etish bo'yicha arizaning tasdiqlanishi va ruxsatnoma olinishidan so'ng Uy-joy qurilishi va shaharsozlik rivojlanishi vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.

3. Tadbirkorlik hududlari soliqlardan imtiyozlar va past ma'muriy talablarga ega.

AQShda tadbirkorlik hududlari faoliyatiga imtiyozlar:

1. Federallarning imtiyozlari va rag'batlantirishlari:

– qurilish va ta'mir xarajatlariga to'lovlarda soliqlardan 5 %lik chegirma mavjud;

– korxonalar qo'shimcha tashkil etilgan har bir ish o'rni uchun qo'shimcha soliq chegirmalari (bir kishiga 2000 AQSh dollarigacha);

– kompaniya kapitalini ko'paytirishga soliqlar bekor qilingan.

2. Alohida shtatlar huquqati tomonidan soliq imtiyozlari:

– Konnektikutdagi korxonalar daromadiga 50% chegirma;

– Luiziana shtatida uskunalarni sotuviga, Kanzas shtatida qurilish materiallari sotuviga, Virdjiniya shtatida asosiy kapitalga investitsiyalarga soliqlardan 100% chegirma.

Tadbirkorlik hududlarida korxonalar imtiyozlarning 70%ini yangi ish o'rinlarini yaratish bilan qo'lga kiritadilar.

AQShda depressiv hududlarda xo'jalik faoliyatini tashkil etishda imtiyozli kreditlash keng yo'lga qo'yilgan.

Mazkur hududlar iqtisodiyotiga moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish maqsadida alohida shtatlar darajasida maxsus soliq rejimlari, bevosita subsidiyalar, imtiyozli qarzlarni va investorlar uchun manfaatli bo'lgan boshqa afzalliklar taqdim

etiladi.

Davlat mazkur hududlarga alohida e'tibor qaratgan holda ushbu joylarda maxsus tadbirkorlik hududlarini tashkil etishga ruxsat beradi. Bunday hududlar hozirgi kunda 40 dan ortiq shtatlarda tashkil etilgan bo'lib, ularda investorlar faoliyatini mulk solig'i to'lovi, daromad solig'i kabilardan ozod etish va sotishga to'langan soliq summasini qaytarishlar bilan rag'batlantirish orqali investitsiyalar jalb etishni yanada oshirish usullari qo'llaniladi.

Jumladan, AQShning Kaliforniya shtatida tashkil etilgan tadbirkorlik hududlari mashina va uskunalarni xarid qilishda (yiliga 20 mln. AQSh dollarigacha summada) investorlar soliq kreditlaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, ishga jalb etgan har bir mahaliy ishchiga 27 ming AQSh dollaridan boshlanuvchi soliq kreditlariga ham ega bo'ladi.

Bundan tashqari, maxsus qonun asosida sobiq (eski) harbiy baza hududidagi korxonalarni muvofiqlashtirishda ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun 10-150 ming AQSh dollari miqdorida subsidiyalar ham beriladi.

Bunday hududlardagi investorlarga elektr sanoati, yarim o'tkazgich priborlar va mikrosxemalar ishlab chiqarish, sputnik aloqalari, dasturiy ta'minot xizmatlari uchun investitsiyalar kiritishida 6% hajmidagi investitsion kreditlarni taqdim etadi.

Yuridik maqomi bo'yicha AQShda boshqaruv *federal, davlat* va *mahalliy boshqaruv*ga bo'linadi va TH tegishli darajadagi davlat idoralari qarorlari bilan tuziladi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va bandlikni oshirish uchun THda faoliyat yurituvchi Amerika kompaniyalari turli imtiyozlar bilan ta'minlangan.

Federal darajada – bu qurilish va ta'mirlash ishlarida to'lanadigan soliqlar bo'yicha 5% chegirma, qo'shimcha ravishda ishlaydigan har bir kishi uchun korxonalariga soliq imtiyozlari, kapital bahosining soliqlarini bekor qilish. Davlat darajasida bu korporativ daromad solig'idan (Konnektikut) 50%, uskunalarni sotish uchun soliqdan (Luiziana) va qurilish materiallari (Kanzas), asosiy fondlar bo'yicha (Virdjiniya) 100% chegirmaga ega. Barcha soliq imtiyozlarining 70% dan ortig'i THda yangi ish joylari yaratadigan tadbirkorlar tomonidan qabul qilinadi.

Iqtisodiy imtiyozlardan tashqari, tadbirkorlarga qator boshqa imtiyozlar ham beriladi. Xususan, hujjatlarni yuritishning soddalashtirilgan tartibi, atrof-muhit standartlari va xavfsizlik standartlari talablarini kamaytirish.

Ba'zi davlat THlariga bevosita yordam beradi – Konnektikutda (Connecticut-korporativ daromad solig'i) davlat tadbirkorlik zonalarida joylashgan korxonalarining faoliyatini moliyalash uchun maxsus jamg'arma tashkil etildi.

Federal va davlat hukumatlari THlarini tashkil etishni kengaytirib, ularga yangi imtiyozlar berishni davom ettirmoqdalar.

Ushbu siyosatning sabablaridan biri shundaki, ushbu zonalarning yaratilishi, barcha darajadagi budjetlarga og'ir yuk yuklamasdan, mamlakatning depressiv hududlarida biznes faolligini oshirish va ishsizlik darajasini qisqartirishga yordam beradi.

THlarining faoliyati, shuningdek, turli ijtimoiy dasturlar uchun budjet mablag'larini taqsimlash va iqtisodiy faoliyatni tiklash va xodimlar sonining

ko'payishi natijasida korxonalar va fuqarolardan turli darajadagi budjetlarga solikli daromadlar to'lovini bosqichma-bosqich oshirishni ta'minlaydi. Shunga ko'ra, THlarini tashkil etish maqsadi mahalliy kapital va mehnatga tayanib ichki iqtisodiy muammoarni hal qilishga qaratilgan.

Imkoniyat zonalari – iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolga tushgan hududlar (Nyu-Jersi shtatining senatori Cory Booker “shaharlarning rivojlanayotgan bozorlari” deb nomladi) imkoniyat zonalari shahar va shtatlar tomonidan tayinlanadi va federal hukumat tomonidan tasdiqlanadi.

Ular kamida 20% bo'lgan kambag'allik darajasiga ega bo'lishlari kerak va o'rtacha oilaviy daromad o'rtacha 80% dan ortiq emas, yoki bunday hududga “qo'shni” bo'lishi kerak.

Bugungi kunda barcha 50 ta shtatda 8700 ta imkoniyat zonalari mavjud. **Nyu-York** shtatidagi 514 ta, **Nyu-Jersi** shtatidagi 75 belediyadan, **Bronx, Downtown va East Bruklin, Long-Aylend, Nyu-York, Jersi Siti va Union City** shaharlaridagi ko'plab Tristate-mahallalaridan iborat.

2017-yil oxirida AQShda qabul qilingan “Soliqlar va bandlikning qisqarishi to'g'risida”gi Qonunning eng muhim jihati **imkoniyat hududlarining** yangi dasturi bo'ldi.

Ushbu dasturni joriy etish mamlakatning kam daromadli hududlarida biznesni rivojlantirishga ko'maklashishni nazarda tutadi.

Tavsiya etilgan dasturga muvofiq, bunday joylarda biznesni rivojlantirishga sarmoyasini yo'naltirishni xohlagan investorlar 2026 yil oxiriga qadar ularning soliq majburiyatlari haqida qayg'urmasligi mumkin.

“Imkoniyatlar hududlari” dasturi investorlar uchun soliq imtiyozlaridan katta yordam ko'satadi. U o'z mablag'larini muayyan fursatda boshqa yo'nalishlarga sarflash imkoniyatini beradi.

Imkoniyat zonalarida amalga oshirilgan loyihalar **Imkoniyat fondlariga** mablag' ajratadilar. Ushbu dasturni joriy etish mamlakatning kam daromadli hududlarida biznesni rivojlantirishga ko'maklashishni nazarda tutadi.

Imkoniyat zonalari sifatida davlat kam daromadli aholini ro'yxatga olish tizimlarining 25 foizini belgilaydilar.

“Imkoniyatlar hududlari” dasturi investorlarga dastlabki investitsiyalardan soliq imtiyozlarini olishning bir qancha usullarini taklif qiladi. Imkoniyatlar zonasida qancha vaqt tursangiz, soliqlarni shuncha kamroq to'laysiz.

Ushbu dasturga:

- besh yil davomida sarmoya kiritganlarni hukumat rag'batlantiradi – investorlar aktivlar bazasi 10 foizga ko'payadi;

- investitsiyalarni etti yil davomida o'tkazgan sarmoyadorlar mulk bazasi 15 foizga ko'payadi;

- o'z sarmoyasini o'n yil davomida kiritgan investorlar uchun to'liq soliq imtiyozlari kafolatlangan.

Kiritilgan sarmoyani qayta investitsiyalash mumkin.

Sarmoya daromadining ma'lum miqdorini anglab etuvchi investor, 180 kun ichida **Imkoniyat fondida** kapital tushumini qayta tiklashi mumkin.

Muvofiqlikni ta'minlash uchun Imkoniyat fondining 90 foizdan ortig'ini imkoniyatli zonada joylashgan daromadli Imkoniyat zonasi mulkiga sarflash kerak.

Mulkni yaxshilash kerak, ya'ni u original foydalanish yoki mol-mulkning asosi erga tegishli bo'lmagan mulkning asosini ikki marta oshirishi kerak.

Agar investitsiya o'n yil davomida amalga oshirilsa, yangi investitsiyalar bo'yicha barcha kapital tushumlardan voz kechiladi.

Birinchi Imkoniyat zonalari 2018-yil aprelda belgilandi. 50 ta shtatda va Puerto-Rikoda 8700 ga yaqin zonalar mavjud.

AQShda EIHLarda yirik ishlab chiqarish korxonalarini neftni qayta ishlash, avtomobilsozlik, elektronika, farmasevtika va texnika va uskunalarni ishlab chiqarish sektorlarida faoliyat ko'rsatadi.

EIHLardan foydalanuvchilar bo'lib, avtomobillarni yig'uvchi zavodlar hisoblanadi va ularning EIHLarda bajarilgan ishlar hajmidagi ulushi 63%ni tashkil etadi.

AQShda EIHLar turli shtatlarda turlicha miqdorda tashkil etilgan. Texas shtati esa EIHLar soni bo'yicha 1-o'rinni egallaydi. Shuningdek, u EIHLarda ishlab chiqarish hajmi va tovarlar eksporti bo'yicha mamlakatning boshqa shtatlari orasida birinchi o'rinni egallaydi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, tadbirkorlik hududlari, kichik va o'rta biznes, depressiya, chegirma, soliq, investitsiya, imtiyoz, daromad.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. AQShda THlari kichik va o'rta biznesni depressiya sharoitlarida qayta tiklash uchun tashkil etildi va etilib kelmoqda. Ular tashqi savdoni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lmagan maqsadlarni o'z ichiga oladi. Bu holatda, bojxona imtiyozlari ma'lum bir (ikkinchi) darajaga tushadi va asosiy rolni turli soliq, moliyaviy va ma'muriy imtiyozlar amalga oshiradi.

2. AQShda THlari maydoni 2,5-5 km², ayrim hollarda 13 km² gachani tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kengroq maydonni egallaydi. Ular, asosan, yuqori ishsizlik darajasiga ega shaharlarda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 10-20 yil muddatga tashkil etiladi. Bunda THlari tashkil etilayotgan makon kamida 20% bo'lgan kambag'allik darajasiga ega bo'lishlari kerak va o'rtacha oilaviy daromad o'rtacha 80% dan ortiq emas, yoki bunday hududga "qo'shni" bo'lishi kerak.

3. AQShda tadbirkorlik hududlari mahalliy kapital va mehnatga tayanib ichki iqtisodiy muammoarni hal qilishga xizmat qiladi va ularning federal, davlat va mahalliy boshqaruvida bo'lgan turlari mavjud. Boshqa turlardagidan farqli ravishda federal tadbirkorlik hududlari muddatni uzaytirish imkoniyati bilan 20 yilga tashkil etiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. AQShda tadbirkorlik hududlari nima maqsadda tashkil etiladi?
2. AQShda tadbirkorlik hududlarini tashkil etish zaruriyati qachondan yuzaga kelgan?
3. AQShda tadbirkorlik hududlarida qanday soliq, ma'muriy va boshqa

imtiyozlar taqdim etiladi?

4. AQShda tadbirkorlik hududlarining qanday turlari mavjud?

5. AQShda tadbirkorlik hududlari qancha muddatga va qanday shartlar asosida tashkil etiladi?

6. AQShda tadbirkorlik hududlarini tashkil etishda qanday talablarga muvofiqlik ta'minlangan bo'lishi lozim?

8.5. AQShda ilmiy parklarning tashkil etilishi, ularning maqsadi, turlari va faoliyat xususiyatlari

Ilmiy parklar (texnik-joriy etish hududlari) fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi samarali shaklidir. Bu hududlarda innovatsiyaviy faoliyat va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bilan band firma va korxonalar joylashgan bo'ladi.

Odatda, ular ilmiy laboratoriyalar va ishlab chiqarish xonalarining hududiy jamlanishidan iborat bo'lib, ular istiqbolli ilmiy va texnik g'oyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan venchur firmalarga imtiyozli shartlarda ijaraga beriladi. Tashqi savdo va tadbirkorlik hududlaridan farqli ravishda texnologik parklarni yaratish uchun hukumat organlarining ruxsati talab qilinmaydi.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishning muhim omili bo'lib innovatsion infratuzilmani yaratish hisoblanadi.

Bunday infratuzilmani yaratishning eng samarali va bosh omili **texnoparklar** hisoblanadi.

Texnopark – bu innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi, yuqori ilmiy sig'imli texnologiyalar va mahsulotlar yaratuvchi kompaniyalarni birlashtirish uchun tashkil etilgan, ajratilgan alohida, maxsus hudud.

Texnoparklarning asosiy maqsadi:

- mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish;
- mintaq yoki mamlakatni innovatsion rivojlanishini ta'minlash;
- innovatsiyalarni jamlash, ro'yobga chiqarish.

Texnoparklarda:

- ishlab chiqarish va ma'muriy binolarni, laboratoriya uskunalarni ijaraga taqdim etish;

- konsultativ xizmatlarni ko'rsatish;

- individual ixtirolarni texnologik ekspertizadan o'tkazish;

- tashkil etiladigan kompaniyaning biznes-rejasi tuzish;

- kichik biznesni tashkil etishda imtiyozli shartlarda kreditlar olish va sh.k. amalga oshiriladi.

Jahon amaliyotida texnoparklar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish hamda unda ijtimoiy-iqtisodiy subyektlar (ilmiy-tadqiqot institutlari, olim ta'lim muasasalari, laboratoriya markazlari, ishlab chiqarish-tadqiqot korxonalari, ilmiy salohiyatli xodimlar va mutaxassislar)ning ilmiy-texnik salohiyatidan innovatsion g'oyalarni ro'yobga chiqarish maqsadida qulay shart-sharoitlar yaratgan holda ularni bir joyga jamlash asosida yangi va zamonaviy ishlanmalarni, mahsulotlarni yaratish,

ularni tijoratlashtirish maqsadlarida tashkil etiladi.

Texnoparklar rezidentlari mazkur tashkil etilgan hududning o'zida barcha zauririy ijtimoiy va biznes-xizmatlari komplekslariga ega bo'lmog'i lozim. Ushbu faoliyani maxsus tashkil etilgan kompaniyaboshqarib boradi.

AQShda texnoparklarni tashkil etishdan **maqsad** – venchur kompaniyalarga, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni kashf etuvchi, ishlab chiquvchi alohida ixtirochilar va olimlarga imtiyozli shartlarda yordam ko'rsatish.

AQShda texnoparklarning tashkil etilishi o'tgan asrning 50 yillari boshiga borib taqaladi.

Mazkur davlatda birinchi texnopark Koliforniya shtatidagi *Stenford universitet ilmiy parki* tashkil etilishi bilan paydo bo'lgan.

Universitet o'zi egalik qilgan hududda bo'sh er uchastkasini topib, uni va binolarni mustaqil kichik korxonalar va yuqori texnologiyalar sohasida faoliyat ko'rsatuvchi, federal hukumat buyurtmalari hisobiga jadal rivojlanib borayotgan va o'z bo'linmalarini tashkil etishga intiluvchi, yuqori imkoniyatli amaldagi kompaniyalarga ijaraga bera boshladi.

Ijaradagi firmalar universitet bilan uzviy aloqa va hamkorlikda faoliyat ko'rsatdilar. Lekin, taxnopark sifatida to'la shakllanishi uchun va o'z ilmiy parki er maydonini va binolarni ijaraga berish uchun zaruriy infratuzilmani shakllantirish, qurilishlarni yakunlashga 30 yil kerak bo'ldi.

“Silikon (Kremniy) vodiysi” deb nom olgan mazkur ilmiy park sanoatning ilmiy sig'imli sektorini rivjlantirishda fenomenal natijani taqdim etdi.

Texnoparkning zamonaviy Yevropa modeli unda o'nlab kichik firmalarni (jamoaviy xizmatlar tizimining barcha afzalliklaridan samarali foydalanuvchi bu ko'p sonli yangi kichik va o'rta inovatsion korxonalarining shakllanishiga imkon beradi) va bir qator ta'sisчилarni joylashtirishni nazarda tutadi (bu boshqaruv mexanizmi bitta ta'sischi bilan boshqarish mexanizmidan murakab hisoblanadi, biroq, moliyalashtirishga imkon topishda juda qulay hisoblanadi).

Bugungi kunga kelib texnoparklar oliy ta'lim, fan, sanoat, tadbirkorlik, moliyalashtirish manbalari, mintaqaviy va mahalliy hokimlik organlari kabilar integratsiyasining yangi shakli va tarkibi sifatida mintaqaning va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Texnoparklarning AQShda tashkil etilishi stixiyali tarzda, sekin-astalik bilan yuz bergan bo'lsa, o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab G'arbiy Yevropada ular jadal tashkil etila boshlandi.

Yaponiyada esa texnoparklarning tashkil etilishi boshidan boshlab davlatning strategik maqsadiga aylandi va aniq davlat dasturlari (rejalari) asosida rivojlanib kelmoqda.

AQShda 2-Jahon urushidan keyin mamlakatning G'arbiy qirg'og'ida, Koliforniya shtatida bir qator korxonalar hukumatdan elektron qurilmalar tarkibiga kiruvchi mahsulotlarning yangi turlarini yaratish bo'yicha buyurtmalarni olishdilar.

Buning uchun tadqiqotlar olib borish va yangi mahsulotlar turlarini yaratish lozim edi. Bu esa texnoparklarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi va ularning tashkil etilishi keng tus olishiga sabab bo'ldi.

G'arbiy Yevropada birinchi oliy ta'lim texnoparki 1947 yilda Boston shahrida paydo bo'ldi. Uning o'n yillik faoliyatlari va keyingi yuzaga kelgan oliy ta'lim texnoparklari XX asr 70 yillaridan boshlab sezilarli darajada o'sishga erishib bordilar.

Bugungi kunga kelib AQShda texnoparklar 200 dan ortiqni tashkil etsa, Yevropada 1500 dan ortiq turli innovatsion markazlar va 260 dan ortiq ilmiy-texnik parklar faoliyat ko'rsatmoqda.

AQShda texnoparklarning *ikkita turi* mavjud:

- ayrim shaxslar yoki xususiy tashkilotlar tashabbusi bilan tashkil qilingan texnoparklar;

- ayrim shtatlar hukumatlarining qarori bo'yicha tashkil qilingan texnoparklar.

Ikkinchi turdagi texnoparklar hozirgi kunda ham yaratilmoqda, ammo, eng mashhur va samarali texnoparklar birinchi turga mansub. Ulardan quyidagilarini ajratish mumkin:

- "Silikon vodiysi" (Kaliforniya);

- "128 Boston yo'nalishi" (Massachutis texnologik universiteti va Garvard universiteti yaqinida);

- "Uchburchak - park" (Shimoliy Karolina).

Ushbu uchta texnopark bunday markazlarning nafaqat AQSh, balki chet elda ham tashkil etilishining modellari sifatida xizmat qiladi.

Texnoparklarni tashkil etishda turli xarajatlar – investitsiyalar talab etiladi. Bu uning maydoni, davlat, qurilishlar hajmi, risk darajasi kabilarga ham bog'liq.

Masalan, AQShda o'rtamiyona texnoparklarni tashkil etishga kamida 10-12 mln. AQSh dollari, Buyuk Britaniyada – 800 ming AQSh dollari, Polshada – 200-300 AQSh dollari kerak bo'ladi.

Texnoparklarni moliyalashtirish turli xil manbalardan amalga oshiriladi:

- universitet va xayriya jamg'armalari tomonidan ta'sis etilgan fondlar hisobidan;

- mahalliy hokimiyat mablag'lari hisobidan;

- federal muassasalar va vazirliklar mablag'lari hisobidan;

- sanoat firmalari mablag'lari hisobidan

- shaxsiy mablag'lar hisobidan.

Texnoparklarning ayrimlari daromad asosida faoliyat yuritsa, ayrimlari daromadsiz tashkilotlar hisoblanadi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, texnoparklar, laboratoriya, innovatsiya, ixtiro, imtiyoz, kredit, rezident, daromad, investitsiya, jamg'arma.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Texnopark – bu innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi, yuqori ilmiy sig'imli texnologiyalar va mahsulotlar yaratuvchi kompaniyalarni birlashtirish uchun tashkil etilgan, ajratilgan alohida, maxsus hudud. AQShda ilmiy parklar (texnoparklar) 1950-yillarning boshidan boshlab paydo bo'ldi va bugungi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Hozirda ularning soni AQShda 200 dan ortadi.

2. AQShda texnoparklarni tashkil etishning bir qancha maqsadlari mavjud bo'lib, ularning amalda ta'minlanishi mamlakatning innovatsion rivojlanishini

jadallashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, butun dunyoga mashhur “Silikon (Kremniy) vodiysi” deb nom olgan ilmiy park sanoatning ilmiy sig‘imli sektorini rivjlantirishda fenomenal natijani taqdim etdi.

3. AQShda texnoparklarni tashkil etishdagi asosiy maqsad venchur kompaniyalarga, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni kashf etuvchi, ishlab chiquvchi alohida ixtirochilar va olimlarga imtiyozli shartlarda yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, dastlab birinchi texnopark Koliforniya shtatidagi *Stenford universitet ilmiy parki* tashkil etilishi bilan paydo bo‘lgan. Uning faoliyati o‘zining bo‘sh er uchastkasini topib, uni va binolarni mustaqil kichik korxonalar va yuqori texnologiyalar sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniyalarga ijaraga berish boshlandi.

Nazorat uchun savollar:

1. AQShda texnoparklar qanday maqsadlarda tashkil etiladi?
2. AQShda texnoparklarni tashkil etishdagi boshqa maqsadni tushuntirib bering.
3. AQShda texnoparklar dastlab qachon va qayerda tashkil etildi?
4. AQShda texnoparklar soni bugungi kunda qanchani tashkil etadi?
5. AQShda texnoparklarning rivojlanganligiga katta misol bo‘la oluvchi dalilni keltiring.
6. AQShda texnoparklar faoliyati qanday sohalarga yo‘naltirilgan va ularda qanday mahsulotlar tayyorlanadi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.
2. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – 230 с.
3. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.
4. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особые экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.
5. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.
6. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.
7. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особые экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.
8. Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2006. – 167 с.
9. AQShda 1934-yilda qabul qilingan “Tashqi savdo hududlari to‘g‘risida”gi Qonun.
10. “U.S. Foreign-Trade Zones”. Import Administration. International Trade Administration. January 13, 2013. Retrieved 2013-01-20.

9-bob. XITOIY XALQ RESPUBLIKASI ERKIN IQTISODIY HUDUDLARI

9.1. Xitoy Xalq Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish maqsadlari, ahamiyati va xususiyatlari

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) – o‘zining rivojlanishi, tarixi va mukammalligi, ishbilarmonligi borasida faqatgina bizning respublikamiz ishbilarmonlari uchun emas, balki, butun dunyo ishbilarmonlari uchun ham sirli bir mamlakat bo‘lib qolmoqda. Xitoy bugungi kunda yuksak salohiyati bilan butun dunyo bozorlarini egallagan, tezlik bilan rivojlanayotga mamlakat.

Xitoy Xalq Respublikasida EIHlar iqtisodiyotning barcha sohalarini modernizatsiyalash va yuqori texnologiyalar raqobatbardosh ishlab chiqarishga erishishda muhim omil bo‘lmoqda. Oxirgi 35-40 yil davomida Xitoyda kuzatilgan iqtisodiy o‘sish, haqiqatda, “iqtisodiy mo‘jiza” bo‘lgani hech kimga sir emas. Uning rivojlanish tendensiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1976-yilgacha Xitoy yopiq iqtisodiyot hisoblanar edi. Ammo, 1978-yilda Den Syaopin tomonidan olib borilgan “Ochiq eshiklar” siyosati va shu maqsaddagi islohotlar natijasida Xitoy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalasha boshladi hamda Xitoy YaIMi yiliga o‘rtacha 10 % o‘sishga erishdi. 1979-2018 yillarda Xitoyning aholi jon boshiga YaIMi qariyb 16 marta, ya’ni 195 AQSh dollaridan qariyb 10 ming AQSh dollariga o‘sdi. 2010 yilga kelib YaIM hajmi bo‘yicha Yaponiyani ortda qoldirib, dunyodagi eng katta ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Shu davr mobaynida 500 mln.dan ortiq aholi qashshoqlikdan xalos bo‘ldi. Tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, ko‘p yillar davomida hukm surgan markaziy rejalashtirilgan iqtisodiyotdan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadida 1978-yildan boshlab “Ochiq eshiklar” siyosati doirasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi.

1978-yilda boshlangan “ochiq eshiklar” islohoti alohida hududda boshlangan tajriba bo‘ldi.

Xitoy olimlari erkin iqtisodiy zonalarni yaratishdan oldin AQSh, Yaponiya, Gongkong, Singapur, Tayvanlarni tajribasini chuqur va har tomonlama o‘rganib chiqishganligi ular yuritgan erkin iqtisodiy zonalar siyosatida ham o‘z aksini topgan.

O‘z mamlakati hududida EIHLarni yaratib, Xitoy bir qancha foydali tomonlarga ega bo‘ladi:

- birinchidan, ushbu yo‘l bilan Xitoy hukumati chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay imkoniyatlar va sharoitlar yaratadi;

- ikkinchidan, chet el investitsiyalaridan tashqari mamlakatga yangi texnologiyalar va yetakchi texnika kirib keladi;

- uchinchidan, ishchi o‘rinlari etishmaslik muammosi qisman hal qilinadi;

- to‘rtinchidan, tabiiy resurslardan samaraliroq foydalaniladi;

- beshinchidan, eksport foydasi ancha oshadi;

- va nihoyat, oltinchidan, “maxsus hududlar”ning tezroq rivojlanishi, butun iqtisodiyot taraqqiy etishiga olib keladi.

EIHLarga ko‘plab omillar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- qulay geografik joylashuv;

- ishchi kuchining ko‘pligi va arzonligi;
- iqtisodiy imtiyozlar;
- hududlar rivojlanishi uchun mamlakatlardan resurslarning kirib kelishi.

Xitoy EIHLarlarining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- bozor tomonidan tartibga solish tamoyillari asosidagi mustaqil iqtisodiy rivojlanish;

- chet el investitsiyalariga tayanish;

- asosiy ustuvor tarmoq – sanoat (1989-yilgacha Xitoy erkin iqtisodiy hududlarlarda istalgan investitsiyalarni qabul qilgan);

- ishlab chiqarishning eksportga yo‘naltirilganligi, import xomashyosini keng jalb etish;

- katta milliy mintaqalarni kiritish;

- EIHLarlarning mamlakatning qolgan hududlari bilan faol o‘zaro munosabati;

- soliq tizimi EIHLarning mintaqaviy xususiyatlariga qarab farqlanadi.

Xitoyda EIHLarlarni tashkil etishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

1. Xorijiy kapitalni jalb qilish.

2. Rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or texnologiyani va menejment tajribasini qabul qilish.

3. Samarador ish joylarini yaratish yo‘li bilan, nafaqat, aholi bandligi darajasini ko‘tarish, balki, aholining turmush darajasini oshirish, mamlakat ijtimoiy muhitini barqarorlashtirishga erishish.

4. Eksportni ko‘paytirish yo‘li bilan valyuta tushumlarini oshirish.

5. Chet el kapitalidan eng unumli tarzda foydalanish.

6. Xalqaro iqtisodiy va texnologik hamkorlik darajasini oshirish iqtisodiy va texnologik axborotni yig‘ish, xorijiy mamlakatlar hamkorlik va tashqi savdo sohasida band bo‘ladigan kadrlarni tayyorlash.

7. Ijtimoiylashgan keng masshtabda ishlab chiqarishni boshqarishdagi xorij tajribasini o‘rganish.

8. Zamonaviy texnologiyalar asosida yuqori ilmiy sig‘imli sanoat korxonalari turlarini yaratish.

9. Yangi turdagi va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning xalqaro ko‘lamda raqobatbardoshligini ta‘minlash.

10. Ichki sanoatga etibor bergan holda, asosiy e‘tiborni tashqariga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni qurish, sanoat, savdo va qishloq xo‘jaligi integratsiyasi, chorvachilik, baliqchilik va turizmni bir vaqtda rivojlantirish.

11. EIHLarda aholi jon boshiga daromad miqdorini jadal oshirish.

12. EIHLar joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni Hong Kong, Singapur va boshqa yangi industrial davlatlaridagi kabi rivojlantirish.

13. Xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish asosida iqtisodiyotni divresifikatsiyalash.

14. Butun mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini rag‘batlantirish.

15. Arzon va ortiqcha ishchi kuchi hamda boy xomashyo salohiyatidan to‘g‘ri foydalanish.

16. Mamlakatda zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan milliy kadrlarni tayyorlash.

17. Gonkong (1997 y.) va Makao (1999 y.)larning Xitoyga qaytarilishi munosabati bilan "bufer" (qalqon) yaratish.

Xitoy tajribasida EIH uchun joy tanlashda quyidagilar asosiy hisoblangan:

- tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqishini ta'minlay oladigan yirik port bo'lishi kerak (yoki bunday port qurilishi kerak);

- jahonning yirik moliyaviy iqtisodiy markazlariga qulay joylashgan bo'lishi kerak (birinchi navbatda, Gonkong, Singapur va Yaponiya shaharlariga);

- aholi zichligi unchalik yuqori bo'lmagan, nisbatan erkin, bo'sh maydonlarga ega bo'lgan joylarda joylashishi kerak (yangi sanoat obyektlarini qurish va yangi ishlovchilarni ishga joylaylashtirishga imkonini yaratish).

Xitoy iqtisodiyotiga xorijiy investorlarni jalb qilgan asosiy omil bu, nafaqat, EIHLarda, balki, mamlakat miqyosida infratuzilmaning yuqori darajada tashkil etilganligidir. Infratuzilma – bu shunday omilki, u davlatdan zonalarni yaratish bo'yicha asosiy qo'yilmalarni talab qiladi va o'z navbatida, ular faoliyat yuritishining makroiqtisodiy samaradorligini belgilaydi. Bunda xitoyliklar infratuzilmaning shakllanishi "*oltita qo'yilish, tekislash*" shiori ostida harakat qilmoqda. Ya'ni – *yo'llarni, suv, gaz quvurlarini, kommunikatsiyani, issiklik, elektr uzatish liniyalarini qo'yish va shuningdek, er uchastkalarini tekislash*. Bundan yaxshi ko'rinadiki, qurilish deyarli noldan boshlangan.

Xitoydagi EIHLar boshqa Osiyo mamlakatlaridagiga qaraganda kattaroq maydonni egallagan va kengroq faoliyat doirasiga egaligi bilan farqlanadi. EIHLar juda qulay joylarda joylashgan, ya'ni tashqi savdo bilan shug'ullanish qulay bo'lgan sohil bo'ylarida, Gonkong, Makao va Tayvan yaqinida tashkil qilingan.

Xitoy iqtisodiy mo'jizasining asosini tashkil etuvchisi EIHLar mamlakatda 1978 yilda boshlangan "oshkoralik siyosatini"ni o'tkazish natijasida paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi birinchi natija sifatida mamlakat Janubida to'rtta hudud (Shenjen, Chjuxay, Shantau, Syamen) tashkil etilishini ta'kidlash mumkin. 2002-yil boshiga kelib Xaynay va Pudun hududlari hisobiga ular oltita bo'ldi.

Bugungi kunga kelib, Xitoy EIHLarida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning 50 %igacha qismi eksport qilinadi, bu ko'rsatkich ayrim EIHLarda 80-85 %ni tashkil etadi. EIHLarda, asosan, qayta ishlash sanoati va ilmiy-texnik ishlanmalar sohasi rivojlantiriladi.

Katta miqiyosda amalga oshirilayotgan EIHLar rivojlanishi munosabati bilan Xitoyda majmuaviy hududlar yaratilishi boshlandi. Bunday hududga misol tariqasida 1998-yilda Shanxayda yaratilgan Pudun rivojlanish hududi tashkil etilib, u yrda erkin savdo hududlari, moliyaviy-savdo, sanoat va ilm-fanga ixtisoslashgan tumanlar mujassamlashganligi keltirish mumkin. Pudun sanoat hududida bir necha yuzta obektlar barpo etildi. Bu erga Yaponiya, Fransiya, Singapur, AQSh va Kanadadan investitsiyalar kirib kelmoqda.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, "ochiq eshiklar" siyosati, raqobat, texnologiya, islohot, sanoat, eksport, investitsiya, integratsiya, qishloq xo'jaligi.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Xitoyda EIHLar mamlakatda 1978-yilda boshlangan "ochiq eshiklar" siyosati asosida vujudga kelib, iqtisodiyotning "iqtisodiy mo'jiza" sini hosil qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Xitoyda EIHLarni tashkil etishdan avval AQSh, Yaponiya, Gongkong, Singapur, Tayvanlarni tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqilgan. Mamlakatda tashkil etilgan EIHLar bir qator yutuqlarni qo'lga kiritishga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

2. Xitoyda EIHLarlarni tashkil etishning ko'plab maqsadlari belgilab olingan bo'lib, amalda ularning barchasiga erishishga muvaffaq bo'lib bormoqda. Ushbu maqsadlar orasida eng muhimlari sifatida Xitoyda 1980-yillardan tashkil etila boshlagan EIHLar orqali mamlakatdagi katta ishsizlik va kambag'allik darajasini bartaraf etishni alohida keltirib o'tish mumkin. O'tgan 40 yillik davrdan so'ng bugungi kunga kelib Xitoy xalqi farovon hayot kechiruvchilarga aylandi.

3. Xitoyda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishda arzon ishchi kuchi va xomashyo, qulay geografik-iqtisodiy joylashuv, to'yinmagan keng va juda katta iste'mol bozorining mavjudligi, raqobatning kuchli darajada emasligi, xorijiy kapitalga juda katta ehtiyoj, davlat tomonidan yaratilgan qulay imkoniyat va imtiyozlar muhim omil bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, EIHLarda infratuzilma 6 ta yo'nalishda – yo'llarni, suv, gaz quvurlarini, kommunikatsiyani, issiklik, elektr uzatish liniyalarini qo'yish va shuningdek, er uchastkalarini tekislash yo'nalishida tashkil etilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Xitoyda EIHLarni tashkil etish sabablari nimalardan iborat?
2. Xitoyda EIHLarni tashkil etishning qanday maqsadlari mavjud?
3. Xitoyda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish qanday samaralarga olib keldi?
4. "Xitoyda EIHLarni tashkil etish qanday siyosat bilan bog'liq holda yuzaga keldi va uning natijalarini bilasizmi?"
5. Xitoyda EIHLarni tashkil etishda qaysi xorijiy davlatlar tajribalari o'rganildi?
6. Xitoyda EIHLar qanday xususiyatlarga ega bo'ldi?

9.2. Xitoyda erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi va rivojlanishi bosqichlari

XXRning iqtisodiy islohotlarining asosini tashkil etgan ochiqlik siyosati ("Kayfan")ning asosiy mohiyati, birinchidan, xorijiy kapitalni Xitoy iqtisodiga olib kirish bo'lsa, ikkinchidan, xorijiy hamkorlar bilan qo'shma korxonalar qurish, uchinchidan, EIHLar orqali investorlarni jalb qilishdan iborat edi. Ushbu siyosatdan kelib chiqib, Xitoy EIHLarni tashkil etishga alohida e'tiborni qaratdi.

Xitoyda EIHLni tashkil etish tashabbusi 1979-yilda Xitoy kommunistik partiyasining Markaziy Qo'mitasi tomonidan ilgari surildi. Bunda ilmiy-texnik hamkorlikni avj oldirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va xorijiy investitsiyalar jalb qilishga asoslangan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish ko'zda tutilgan edi.

EIHLar orqali mamlakatga kapital, ilg'or texnologiya, bilim, boshqaruv tajribasini kirib kelishi kerak edi.

EIHLarni tashkil etish bo'yicha qo'yilgan strategik maqsadlarga erishish, jumladan, ularni har tomonlama rivojlantirish yo'lida quyidagi vazifalarni belgilab oldi:

- birinchidan, EIHLar zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni barkarorlashtirish va Xitoy tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri **“tashqi dunyo uchun ochish”** tamoyilini hayotga tatbiq etishga yordam berdi;

- ikkinchidan, EIHLar siyosiy va iqtisodiy tomonidan, barcha mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning sezilarli darajada o'sishiga kuchli turtki bo'ldi va *“Xitoy sotsialistik bozor iqtisodiyoti – jahon iqtisodiyoti”* zanjirida o'ziga xos muhim halqaga aylandi;

- uchinchidan, xorijiy investorlar uchun ochiq hisoblangan EIHLar, nafaqat, yuqorida qayd etilgan hududlar, balki Markaziy, SHimoliy-Garbiy va Janubiy-G'arbiy rayonlarga xorijiy investitsiyalarni, zamonaviy texnologiya va uskunalarni jalb etish bilan bog'liq tashqi iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishini amalga oshirishla katta rol o'ynadi;

- to'rtinchidan, EIHLar rivojlangan mamlakatlar kabi fan va texnikaning eng yangi natijalaridan, yuqori va unumli mextatdan, zamonaviy ishlab chiqarish munosabaglaridan, xo'jalik yuritishning yangi shakllaridan foydalanadigan o'ziga xos laboratoriya vazifasini bajardi;

- beshinchidan, EIHLar qulay geo iqtisodiy joylashuvidan, boy tabiiy - iqtisodiy resurslaridan, shu hududda istiqomat qilayotgan aholining malakali mehnatdan samarali foydalanishi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishi sharoitida qisqa muddatlarda yuqori iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga, ushbu hududda istiqomat qilayotgan axolining farovonligini muttasil oshirib borishga erishdi;

- oltinchidan, EIHLar Xitoyning qoloq hududlari uchun ijobiy namuna, ichki muvaffaqiyatlarni ko'rsatuvchi o'ziga xos vitrina, shuningdek, Xitoy iqtisodiyotini oldinga yetaklovchi lokomotiv vazifasini bajardi;


- yettinchidan, xorijiy investorlar uchun ochiq bo'lgan EIHLar eksportga yo'naltirilgan sanoat ishlab chiqarish turlari barpo etiladigan hudud hisoblanadi. Mazkur korxonalar mahsulotlari Xitoyning barqaror xalqaro savdosini kengaytirish, uning jahon iqtisodiyotidagi mavqeini mustahkamlash bilan bog'liq muammolarni hal etishga yordam berdi.

Hukumat EIHLarning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlarni barpo etishga yo'naltirilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga bu sohada, eng avvalo, qonuniy va me'yoriy asoslarini tartibga solish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Xususan, 200 dan ortiq qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishning bir necha bosqichi sifatida Xitoy tarixiga kirdi va bu bosqichlarni amalga oshirishda, Xitoy hukumati EIHLar uchun ushbu hududlarga har tomonlama samarali yordam berdi.

Xitoyda EIHLarni tashkil etish va boshqarish siyosati milliy iqtisodiyotga xorijiy kapitalni jalb etish siyosati bilan mos keldi. Xitoyda EIHLni tashkil etish

evolyutsiyasini uch bosqichga bo'lish mumkin (9.1-rasm).



9.1-rasm. Xitoyda EIZ tashkil etish bosqichlari

Birinchi bosqich – 1978-1982 yillar. Bu bosqichda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy-shartnomaviy va institutsional asoslari yaratildi. Mazkur bosqichda dastlabki EIZlar – Guandun (Shenjen, Chjuxay, Shantou) va Futszyan viloyatlarida (Syamen) tashkil etildi. Bu EIZlar maxsus iqtisodiy hudud (MIH)lar sifatida tashkil etildi va shu nom bilan tilga olinadi. 1979-yilda Guangdong va Fujian provinsiyalarida “maxsus siyosat va moslashuvchan choralar” tizimining joriy etilishi birlamchi qadam edi va shu maqsadda 1981-yil noyabrda “Guangdong va Fujian provinsiyalariga alohida iqtisodiy maqom berish to‘g‘risida” XXR Davlat Kengashi qarori e‘lon qilindi. Dastlab, 1980-yil avgustda Guangdong provinsiyasidagi Shenzhen, Chjuxay va Shantou hamda shu yilning oktabrida esa Fujian provinsiyasidagi Xiamen hududlari 4 ta MIHlarga aylantirildi. Ularning umumiy maydoni 15 kv. km.dan (Chjuxay) 52,4 ming kv. km.ni (Lyaodun yarim oroli) tashkil etgan edi.

Ushbu MIHning maqsadi deyarli bir xil bo‘lib, maxsus moliyaviy, investitsion va savdo imtiyozlari orqali hududda barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish edi. Ular, asosan, joriy innovatsion siyosatni amalda sinovdan o‘tkazish uchun tashkil etilgan bo‘lib, agar loyiha o‘zini oqlasa, bunday MIHlarni mamlakat bo‘ylab keng tarqatish rejasi ko‘zda tutilgan. MIHlarda joriy etilgan imtiyozlar va qulay ishlab chiqarish omillari yig‘indisi kutilmagan iqtisodiy o‘shishga sabab bo‘ldi. 1980-1984 yilda yillik Xitoy YaIMi o‘rtacha 10 % o‘sdi. Bu ko‘rsatkich Shenzhenda 58 %, Zhuhaida 32 %,

Xiamenda 13 % va Shantouda esa 9 % bo'ldi.

Bu provinsiyalarning EIHLar uchun tanlanishi tasodifiy emas. EIHLarning Gonkong, Singapur, Tayvan va Syamenga yaqin joylashganligi muhim ahamiyatga ega. EIH tashkil etishda Xitoy hukumati xorijdagi xitoyliklar bilan an'anaviy xo'jalik aloqalaridan keng foydalanishni nazarda tutgan. Ta'kidlab o'tish kerakki, bu masalada, Xitoy xato qilmadi. 90 yillarning boshida EIHLarga jalb etilgan 80 % xorijiy kapital Gonkong, Syamen, Singapur va Tayvan hissasiga to'g'ri kelgan edi.

Ikkinchi bosqich – 1983-1989 yillar. Bu bosqich xorijiy investorlar bilan shartnomaviy huquqiy asosdagi hamkorlikning takomillashuvi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va undan foydalanishdagi davlat siyosatining erkinlashtirilishi bilan ajralib turadi.

1986-yilgacha Shenjenda kapital, mehnat, yer, texnologiya, aloqa va transport kabi ishlab chiqarish omillari kompleksi shakllanib bo'lgan edi. 1988-yildan keyin yuqoridagi MIHLar safiga Hainan 5-MIH sifatida qo'shildi. Yuqorida sanab o'tilgan savdo va investitsiya muhitini rivojlantirish maqsadidagi zonalar o'zini oqlagach, Xitoy o'z "Ochiq eshiklar" siyosatini yanada kengaytirdi. 1984-yilda boshqa turdagi MIHLar – iqtisodiy texnologik taraqqiyot hudud (ITTH)lari, boshqacha aytganda milliy sanoat parklari (ayrim manbalardan texnik-iqtisodiy hududlar – TIHLar deb ham nomlanadi), tashkil etila boshlandi. MIHLarning ITTH farqi shundaki, MIH kattaroq hududda, ba'zan, butun shahar yoki provinsiya (viloyat)da joylashishi mumkin. Birgina 1984-1988 yillarda qirg'oq bo'yi shaharlarida 14 ITTH tashkil etildi.

Bu bosqichda bir qator rivojlanishlarga erishildi. Misol uchun maydoni 131 kv. km., aholisi 350 ming kishi bo'lgan "Syamin" EIHini olsak, bu hududga 1981-1989 yillar mobaynida kapital qo'yilmalar hajmi 1,5 mlrd. dollarni tashkil etib, uning 500 mln. dollari xorijiy investitsiyalar hisoblangan edi. Bu davr mobaynida 315 ta sanoat korxonasini qurish ishlari to'g'risida shartnoma tuzildi. 1989-yilda ularning 194 tasi foydalanishga topshirilgan edi. Hudud asosan, sanoat, savdo va turistik funksiyalarni bajarishga ixtisoslashgan. Kapital qo'yilmalarning asosiy qismi (54 %) elektronika, yengil va kimyo sanoatiga, aniq mashinasozlik sanoatiga, qurilish sanoatiga yo'naltirilmoqda. Bu erda faoliyat olib borayotgan qo'shma korxonalar xomashyo va butlovchi qismlarni qaerdan sotib olishni o'zi mustaqil belgilaydi. Shartnomada xorijiy korxonalarining ishtirok shartlari belgilangan bo'lib, u 20 yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi. Qo'shma korxonada odatda direktorlar kengashi tomonidan boshqariladi. Tezkor masalalarni bosh direktor hal etadi. Qo'shma korxonada xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda Xitoy mutaxassislari ham ishlaydi. Ular ish tajribalari va texnologiyalarni o'zlashtiradi. Qo'shma korxonalarda mutaxassislarni qayta o'qitish va malakasini oshirish markazlari ham tashkil etilgan.

Shuningdek, Shenzhen MIHda 1980-1987 yillar mobaynida ishlab chiqarish 90 barobarga ko'payishiga erishildi.

1983-1989 yillar mobaynida yangi turdagi maxsus iqtisodiy hududlar (dengiz bo'yi iqtisodiy ochiq hududlar) tashkil etildi. Ular Yantszi daryosi xavzasi va Futszyan provinsiyasining janubidagi Chjuntszyan (1985-yil) va Lyaodun, Shandun yarim orollarida (1988-yil) va Xaynan orolida joylashgan. Ularning iqtisodiy va

huquqiy tartibi 70 yillarda tashkil etilgan EIH tartibidan farq qiladi. Ular ko'proq dengizbo'yi ochiq shaharlariga (DOSh) o'xshab, 1984-yilda tashkil etila boshlangan edi.

Tashkil etilgan EIHLar o'zining iqtisodiy rivoji bo'yicha Xitoyning boshqa tumanlaridan o'zib ketmoqda. Xitoy mutaxassislari esa ular o'rtasidagi tafovutning o'sishidan xavfsirashmoqda. Shuning uchun ham mamlakatda vujudga kelgan mutanosiblikni to'g'rilash masalasi vujudga keldi. Bu esa mamlakatda imtiyozli investitsiya tartibi joriy qilingan hududlarni kengaytirishga sabab bo'ldi. Biroq, bunda hukumat xorijiy investitsiyalarni mintaqaviy va soha ustuvorligi asosida amalga oshirdi.

Soha ustuvorligi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ilg'or texnologiyalar asosida eksportga yo'naltirilgan korxonalar ustunlikka ega edi. EIHDa oziq-ovqat sanoati, mexmonxona xo'jaligi va boshqa korxonalar rivojlanishi ma'muriy jixatdan cheklangan.

Mintaqaviy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, investitsiya siyosati mamlakatning qirg'oq bo'yi va ichki mintaqalarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan. Bu bosqichda 1984-yilda Xitoyda dengiz bo'yi ochiqshaharlar instituti tashkil etilib, 14 ta dengiz bo'yi shahri shu maqomga ega bo'ldi. Ularda mamlakat aholisining 8 %i yashab, Xitoy YaMMning 20 %i ishlab chiqarilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotida sanoatning rivojlanish darajasi va funksiyasiga ko'ra bu shaharlarni to'rt guruhga ajratib o'rganish mumkin.

1. Kompleks sanoat shaharlar (Shanxay, Tyantszin, Gunchjou). Shanxayda Xitoyda mavjud 164 ta sanoat sohasining barchasi, Tyantszinda – 154 tasi, Guanchjouda – 147 tasi mavjud. Bu shaharlar mamlakatning yirik port shaharlari hamdir. Shanxay Yantszi daryosi xavzasida, Tyanszin Sariq dengiz bo'yida (Pekinning "dengiz darvozasi"), Guanchjou esa Janubiy Xitoy dengizi bo'yida joylashgan.

2. Yirik portlar (Dalyan va Tsindao). Ushbu portlar rivojlangan, lekin, sanoat bazasi nomuvofiq joylashgan. Dalyan portida og'ir sanoat, Tsindao portida esa yengil sanoat rivojlangan.

3. O'rtacha kattalikdagi (Yangay, Nantun, Chjanszi) va katta bo'lmagan (Fuchjou, Venchjou, Beyxay) mahalliy xomashyoni qayta ishlashda ko'p mehnat talab qiladigan sanoat portlari.

4. Yirik (Tszyankuandao) va o'rtcha (Lyanyungan) sanoat bazasi rivojlangan, yuk tashish va yuk ortish-tushirishga ixtisoslashgan portlar.

XXRdagi 14 ta ochiq port shaharlar o'zini iqtisodiy jihatdan oqladi. Ular mamlakatni ilg'or xorijiy texnika, texnologiya bilan bog'lovchi markazlar bo'lib, jahon iqtisodiyotiga "ko'prik" bo'ldi. 1984-1990 yillarda DOShlarning eksport savdosi 2 marta ko'payib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 1/3 qismi tashqi bozorlarga chiqarilgan edi. Port shaharlarni ochish bilan birga ularning hududida iqtisodiy va texnik taraqqiyot hududlari (ITTH) ham tashkil etildi. Bu DOShdagi subhududlar hisoblanib, ular uchun avtonom boshqaruv organlari va shuningdek, xorijiy kapital uchun imtiyozlar amal qiladigan maxsus hududlar ajratilgan edi.

Uchinchi bosqich – 1990-yildan hozirsh vaqtgga qadar. 1990-yilda Shanxay

shahri yaqinida yangi ochiq tuman Pudun barpo etildi. Bu tuman iqtisodiy va huquqiy tartibiga ko'ra EIHga to'liq mos keladi. Pudun rayonini tashkil etishdan maqsad Shanxay shahrini modernizatsiya qilish va Yantszi daryosi havzasi mintaqasini rivojlantirish edi. 1990-yilda uning hududida birinchi erkin savdo hududi (ESH) – “Veygatsyao” tashkil etildi. Ushbu hudud eksport ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Bu erdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 200 dan ortiq korxonaning 140 tasi to'liq xorijiy investitsiyali korxonalar hisoblanadi. Uning tashkil etilishini mamlakatning jahon iqtisodiyotiga ochilishini ta'minlashdagi yangi bosqich sifatida baholash mumkin.

1989 va 2006 yillarda mos ravishda Shanghai va Tianjin Binhai yangi zonalari ham tashkil etildi. 1992-yilga kelib Xitoyda 35 ta ITTH muvaffaqiyatli faoliyat yuritardi. Keyinchalik, boshqa turdagi MIHlar ham butun mamlakat bo'ylab tarqala boshladi va bunday zonalarni tashkil etish odatiy holga aylandi. 2008-yilda Xitoyda 14 ta ochiq qirg'oq shaharlar, 15 ta erkin savdo hududlari, 17 ta eksportni rag'batlantiruvchi hududlar, 52 ITTH, 53 ta yuqori texnologiyali taraqqiyot hududlari va 15 ta chegaradosh iqtisodiy hamkorlik hududlari ro'yhatdan o'tkazilgan edi. 2013-yil oxirida Xitoyda 5 ta MIH, 210 ta ITTH, 15 ta chegaradosh iqtisodiy hamkorlik hududlari, 105 ta yuqori texnologiyali hududlar 13 ta erkin bojxona hududlari faoliyat yuritishi aniqlandi. Bundan tashqari, 2013 yil 29 sentabrda XRR Davlat Kengashi tomonidan Shanxay (Pudun) erkin savdo hududi (ESH)ni tashkil etish to'g'risida qaror qilindi.

Bugungi kunga kelib Xitoyda 5 ta MIH, 219 ta ITTH, 16 ta chegaradosh iqtisodiy hamkorlik hududlari, 146 ta yuqori texnologiyali hududlar 13 ta erkin bojxona hududlari, 16 ta erkin savdo hududlari, 14 ta ochiq qirg'oq shaharlar, 46 ta eksportni rag'batlantiruvchi hududlar faoliyat ko'rsatmoqda.

“Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan davlat darajasidagi EIHLardan tashqari provinsiya (viloyat)lar va shaharlar darajasigagi ko'pgina hududlar faoliyat ko'rsatadi. 2003-yilga qadar Xitoyda 38,6 ming km² hududiy maydonni egallovchi 6866 ta turli EIHLar mavjud edi”⁷⁴.

MIZlar to'g'risida haligacha yagona me'yoriy hujjat yo'q bo'lib, ularning tashkil etilishi, tugatilishi va faoliyati bilan bog'liq munosabatlar 1982-yilda qabul qilingan XRR Konstitutsiyasi bilan tartibga solinadi. Uning 18-moddasi 2-bandiga ko'ra, “XRR barcha xorijiy korxonalar, tashkilotlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalariga investitsiya kiritishga ruxsat beradi hamda ularning huquq va manfaatlarini qonun bilan himoyalaydi”.

Uchinchi bosqichda Xitoy hukumati eksport ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya siyosatiga e'tibor berishni saqlagan holda yuqori va yangi texnologiya loyihalariga ko'proq e'tibor berib kelmoqda. Aynan shu loyihalar aloxida soliq va boshqa imtiyozlarga ega hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda past malakali ishchi kuchi ishlatiladigan qayta ishlash sanoatiga bo'lgan munosabatda cheklolar qo'llanilmoqda. Bu bosqichda oldin tashkil qilingan va tashkil etilayotgan EIHLar, DOSHLar, ITRHLar va boshqa iqtisodiy ochiq tumanlar rivojlanib kelmoqda.

⁷⁴ Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Забаровск: Издательство ТОГУ, 2017. – С. 35.

Davlatning mamlakat iqtisodiyotidagi ochiqligi asosan, “ochiq belbog‘lar”ni tashkil etish siyosatida aks etadi. Sharqiy dengiz bo‘yi tumanlar – Lyaonin, Xebey, Shandun, Tszyansu, Chjenzyan, Futszyan, Guandun, Guansi-Chjuan avtonom tumanlarda, Pekin, Shanxay va Tyantszinni o‘z ichiga olgan sharqiy ochiqlik belbog‘i vujudga keldi. Uning aholisi 200 mln. kishini tashkil etib, umumiy er maydoni 320 ming km² ni tashkil etadi. Bu tumanlar o‘zining qulay geografik o‘rni va ortiqcha ishchi kuchlari bilan ajralib turadi.

Xitoyning “Sharqiy ochiqlik belbog‘i” turli darajadagi va ko‘rinishdagi EIHLarni o‘z ichiga oladi. Bu esa xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratadi. 1992 yildan boshlab Xitoy «shimol ochiqlik belbog‘i”ni tashkil qilishga kirishgan edi. Buni biz Rossiya va Mongoliya bilan chegaradosh shimoli-sharqiy mintaqada EIHLar tartibini joriy etilishida ko‘ramiz. Bu erda Xayxe, Suyfinxe (Xeyluntszyan provinsiyasi), Xuanchuan (Tszimen provinsiyasi), Menchjouli (ichki Mongoliya avtonom tumani) shaharlarida DOShlarga o‘xshash tartib o‘rnatilgan.

Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chegaradosh bo‘lgan hududlarida Inin, Gachen, Guanchjou, Sichuan, Shansi, Guansi, Tsinxay, Janubi-Sharqiy Osiyo bilan chegaradosh bo‘lgan hududlarida Nannin, Pinsyan, Dunsin (Guansi-Chjuan avtonom tumani), Kunmin, Xekou, Vannin (Yunnan provinsiyasi) “ochiqlik belbog‘lari” barpo etilmoqda. Shu tarzda mamlakat iqtisodiy ochilmoqda.

Xitoy davlatining mazkur siyosati bugungi kunda **“Bir makon, bir yo‘l”** global loyihasining amalga oshirilishiga zamin yaratdi. **“Bir makon, bir yo‘l”** konsepsiyasi Xitoyning Markaziy Osiyo, Yevropa va Afrikaning **65 ta davlatini** bog‘lovchi savdo-transport yo‘laklarini tashkil etish va mavjudlarini takomillashtirish bo‘yicha xalqaro tashabbusi bo‘lib, ushbu davlatlar va Xitoy o‘rtasida savdo munosabatlarini rivojlantirishda ko‘mak berishga chorlangan.

Shu maqsadda 2017-yil may oyida Pekinda tashkil “Bir makon, bir yo‘l” forumida 29 ta davlat ishtirok etgan bo‘lsa (O‘zbekiston ham), 2019-yil 25-27 aprel kunlari yana Pekinda tashkil etilgan tavbatdagi Forumda 40 dan ortik davlatlar va xalkaro tashkilotlar. Shundan 37 ta davlat prezidentlari va bosh vazirlari ishtirok etdilar.

Ushbu Forumda qatnashuvchi mamlakatlar quruqlik, havo va dengizda hamda raqamli sohada hamkorlikni kuchaytirishga kelishib olishdi va ular tomonidan umumiy qiymati 64 mlrd dollarlik 283 ta kelishuv imzolandi.

EIHLarning tashkil etilishi va rivojlanishi amaliyotining ko‘rsatishicha, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun infratuzilma zarur bo‘lib, uni rivojlantirish yirik kapital qo‘yilmalarni talab etadi. Xitoyda, masalan, 1 dollar chet el investitsiyasini jalb etish uchun 5,5 dollar milliy resurslarni transport tizimi, barqaror suv va energiya ta‘minoti, shinam turur-joy uchun sarflash zarur bo‘lgan.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, xorijiy investitsiya, kooperatsiya, investor, eksport, innovatsiya, imtiyoz, texnologiya, loyiha.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. Xitoyda EIHLarning tashkil etilishi va rivojlanishi bir necha bosqichlarga

bo‘linadi. Bunda mamlakatda EIHLarni tashkil etish bo‘yicha qo‘yilgan strategik maqsadlarga erishish, jumladan, ularni har tomonlama rivojlantirish yo‘lida bir necha vazifalarni belgilab oldi. EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish bosiqchlarida mamlakatda ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay sharoitlarni barpo etishga yo‘naltirilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xususan, 200 dan ortiq qonun va me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

2. Xitoyda EIHLni tashkil etish evolyutsiyasini uch bosqichga bo‘lish mumkin: o‘shish polyusi bosqichi (1978-1982 yillar) (davlat boshqaruvi yetakchilik qildi, huquqiy asos yaratildi); bir maromda rivojlanish bosqichi (1983-1989 yillar) (tashqi investitsiyalar ko‘plab kiritildi); klasterkash bosqichi (1990-yildan hozirga qadar) (texnologiyalar innovatsiyasi qo‘llanildi).

3. Bugungi kunda Xitoyda 6 ta yirik EIHLar tashkil etilgan bo‘lib, bundan tashqari, yana boshqa turdagi EIHLar ham faoliyat ko‘rsatadi. Xitoyda 1 dollar chet el investitsiyasini jalb etish uchun 5,5 dollar milliy resurslarni transport tizimi, barqaror suv va energiya ta‘minoti, shinam turur-joy uchun sarflash zarur bo‘lgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Xitoyda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish necha bosqichdan iborat bo‘lgan?

2. Xitoyda EIHLarning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun qancha onun va me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan?

3. Xitoyda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish bosqichlari mazmunini bilasizmi?

4. Xitoyda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishning 1-bosqichi nimalar amalga oshirilgan?


5. Xitoyda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishning 2-bosqichi nimalar amalga oshirilgan?

6. Xitoyda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishning 3-bosqichida nimalarga erishilgan?

9.3. Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishi va unda erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o‘rni

Xitoy davlati bugungi kunda dunyo mamlakatlarining e‘tibori markazida turgan asosiy davlatlardan hisoblanadi. Sababi, Xitoyning iqtisodiyot, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro integratsiyani rivojlantirish va unda EIHLar hissasining ortib borishi borasida erishayotgan ulkan yutuqlari barchani xayratga soladiki, bu, so‘zsiz, uning faol iqtisodiy, investitsiya siyosatini olib borish bilan bevosita bog‘liqligi natijasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, ushbu davlatning amaliy tajribalarini chuqur o‘rganish maqsaga muvofiqdir.

Agar quyidagi 9.2-rasmga nazar tashlansa, unda Xitoy YaIMning dinamik o‘shishi to‘g‘risida yetarli tasavvurga ega bo‘lish mumkin.



Xitoy YaIMni tahlil qilganimizda uning 2009-yildan 2017-yilgacha 6,7-8 foizdan o'sganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa aholi jon boshiga YaIM hajmining ham o'sib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, Xitoyning tashqi savdo aylanmasi 2018-yil yakunlariga ko'ra rekord natijani ko'rsatdi va 4,62 trln. dollarga etdi. Bu qiymat 2017-yilga nisbatan 12,6 foiz ko'proq bo'lgan, deb ma'lum qildi Xitoy bosh bojxona boshqarmasi vakili Li Kuyven. Uning aytishicha, Xitoy eksporti 2018- yilda 9,9 foizga o'sib, 2,14 trln. dollarni, importi esa 15,8 foizga o'sib, 2,14 trln. dollarni, savdo balansining ijobiy saldosini 546,5 mlrd. dollarni tashkil qilgan⁷⁶.

Xitoy yirik EIHLari – MIHLarining 2017- yilga tashqi savdo ko'rsatkichlariga nazar tashlansa, unda Shenjen MIHning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 73,6 %ni, jumladan, eksportdagi ulushi 73,9%ni, importdagi ulushi esa 73,2%ni tashkil etganligini ko'rish mumkin (9.1-jadval).

9.1-jadval.

Xitoy yirik EIHLari – MIHLarining 2017-yilga tashqi savdo aylanmasi, trln. yuanda⁷⁷

MIHLar	Miqdori, mln. yuan			O'sishi, %		
	tashqi tovar aylanmasi	eksport	import	tashqi tovar aylanmasi	eksport	import
Shenjen	2801146	1653357	1147789	6,4	5,5	7,9
Syamen	581604	325365	256239	14,3	5,2	28,4
Chjuxay	299012	188298	110714	8,6	4,4	16,4
Shantou (yanvar-noyabr)	52382	39195	13188	2,5	1,2	6,7
Xaynan	70237	29566	40671	-6,5	110,4	-33,4
Jami	3804381	2235781	1568601	7,4	5,9	9,6

⁷⁵ www.tradingeconomics.com ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

⁷⁶ <https://kun.uz/news/2019/01/14/xitoyning-tashqi-savdo-aylanmasi-rekord-qiymatga-yetdi>.

⁷⁷ Годовой обзор. Состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году. // Торговое Представительство Российской Федерации в Китайской Народной Республике. – Пекин, 2018 г. – С. 104.

O‘z navbatida, MIHlar tashqi savdo aylanmasining o‘shish sur‘ati umumiy 7,4 %ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Chjuxay MIHda 14,№ %ni, Xaynan MIHda esa -6,5 %ni tashkil etgan. O‘z navbatida, aynan Xaynan MIHda eksportning o‘shishi 110,4 %ni, importning o‘shishi esa -33,4 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini amalga oshirish kuchayishi natijasida Xitoyning o‘kpgina provinsiyalaridagi EIHLarining tashqi iqtisodiy faoliyati sezilarni o‘sganligini kuzatish mumkin (9.2-jadval).

9.2-jadval.

Xitoy EIHLarining tashqi savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari, mlrd. AQSh dollari⁷⁸

MIHlar	2016-yil			2017-yil		
	tashqi tovar aylanmasi	eksport	import	tashqi tovar aylanmasi	eksport	import
Shenjen	398,34	237,44	160,90	413,95	244,22	169,73
Syamen	77,17	46,94	30,23	85,84	48,01	37,83
Chjuxay	41,71	27,31	14,40	44,25	27,89	16,36
Shantou	8,52	6,42	2,10	8,80	6,71	2,09
Xaynan	11,32	3,12	9,20	10,37	4,37	6,00
Jami	537,06	321,23	216,83	563,21	331,2	232,01

Jumladan, 2016-yilda ular hissasiga Xitoy tashqi savdo aylanmasining 14,57 %i to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib EIHLarning tashqi savdo aylanmasi hajmi 537 mlrd. AQSh dollaridan 563 mlrd. AQSh dollarigacha o‘sganligiga qaramay, mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 13,7 %ga tushib ketdi.

Xitoy EIHLarida 2017-yilda 2016-yilga nisbatan eksport, import va tashqi savdo aylanmasining ham o‘sganligini ko‘rish mumkin. Lekin, bunda eksport hajmi 3,1 %ga o‘sgan bo‘lsa, import hajmi 7 %ga o‘shishga erishganligini ham ko‘rish mumkin. EIHLarning umumiy tashqi savdo aylanmasi esa 4,9 %lik o‘shishga erishgan.

Bundan o‘shish sur‘atlariga erishishda mazkur EIHLardagi mintaqaviy yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘shishi o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan (9.3-jadval).

9.3-jadval.

Xitoy EIHLarining mintaqaviy yalpi mahsuloti hajmi, mlrd. yuan⁷⁹

MIHlar	2013-yil	2015-yil	2017-yil
Shenjen	1160,8	1750,3	2243,8
Syamen	279,7	346,6	378,4*
Chjuxay	149,0	202,5	256,5

⁷⁸ 中国海关统计月刊 = Таможенная статистика Китая. Ежемесячный журнал. Пекин: 海关总署, 2016. № 12. – С. 135, 137.; 中国海关统计月刊 = Таможенная статистика Китая. Ежемесячный журнал. Пекин: 海关总署, 2017. № 12. – С. 135, 137.

⁷⁹ Annual Report on the Development of China’s Special Economic Zones (2016): Blue Book of China’s Special Economic Zones / ed. by Yitao Tao, Yiming Yuan. Singapore: Social Sciences Academic Press and Springer Nature, 2016. – R. 70.; 中国经济特区发展报告 – 2017 = Доклад о развитии специальных экономических зон Китая – 2016. Пекин: 社会科学文献出版社, 2018. – R. 151.

Shantou	140,2	185,0	235,0
Xaynan	214,3	370,2	404,5
Jami	1944	2854,6	3139,8

Bu erda: * – 2016 yil uchun.

9.3-jadvalda ko‘rinib turibdiki, Xitoy EIHLarida mintaqaviy yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘shish tendensiyasiga ega. Jumladan, yilda 2013-yilga nisbatan o‘shish hajmi 1,62 martaga teng bo‘lgan. Bu esa Xitoy iqtisodiyoti o‘shish darajasidan yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Jahon iqtisodiyoti globallashib, savdo yo‘lidagi to‘siqlar kamayib, soliq qonunlari va tartibga soluvchi rejimlar erkinlashib borayotgan hozirgi sharoitda xorijdan kiritiladigan investitsiya oqimlariga talab tobora ortib bormoqda. Bu, ayniqsa, so‘ngi yillarda jahonda xalqaro kapital harakatida susayishi va buning natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya (TTXI)lar hajmining kamayib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va undan EIHLarda samarali foydalanish bo‘yicha Xitoy tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Xitoy hukumati 1 dollar chet el investitsiyalarni jalb etish uchun 5,5 dollar o‘z mablag‘larini safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kirita boshlagan, bu esa, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi. Xitoyning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda o‘ziga xos xususiyatlaridan biri davlatning tuganmas quvvatlari majmuasi ega ekanligidir, shu bois ham bu holat chet ellik investorlarda qiziqish o‘yg‘otmoqda. Xitoyda moliyaviy inqirozdan juda ta’sirlanmagan katta va tez o‘sib borayotgan bozor mavjud. Qudratli salohiyatga ega, o‘rganish va rivojlanishga intilayotgan ko‘plab xodimlar va potensial sheriklar bilan mamlakatda arzon narxlardagi ishlab chiqarishlar uchun asos – shart-sharoit mavjud. Shunga qaramasdan, ayrim omillar Xitoyning shaffofligi, huquqiy noaniqlik, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning past darajasi, korrupsiya yoki mahalliy biznesni qo‘llab-quvvatlovchi himoya choralari kabilar investitsiyalarga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu maqsadda Xitoy hukumati har doim investitsiyalarga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan omillarni o‘rganib, bartaraf etib boradi va buning natijasida investitsiya shaffofligi yanada oshishiga, pirovardida, tashqi iqtisodiy faoliyati yanada rivojlanishiga erishiladi.

Xitoyda atrof-muhitni muhofazasi birinchi o‘rinda turadi. Xitoy hukumati xorijiy investitsiyalarni boshqarishda aviatsiya, ko‘mir, mudofaa, elektr energiyasi va davlat tarmog‘i, neft, neft-kimyo, yuk tashish va telekommunikatsiya kabi tarmoqlar bo‘yicha mutlaq nazoratni o‘zida saqlab kelmoqda. Bundan tashqari, avtomobil, kimyo, qurilish, razvedka va dizayn, elektron axborot, uskunalarni ishlab chiqarish, temir va po‘lat, rangli metall, ilm-fan va texnologiya kabi sohalarga nisbatan “nisbatan nazorat” mavjud. Bunday strategik sohalarni Xitoy hukumati o‘z qo‘lida ushlab bormoqda va bu omillar orqali xorijiy investorlarni qisman nazoratini olib bormoqda.

Bugungi kunda Xitoy davlati “Bir makon, bir yo‘l” global loyihasi orqali butun

dunyoga investitsiyalar olib chiqish bilan faol shug'ullanmoqda. Buning natijasida 2020-yilga kelib, Xitoyning xorijdagi aktivlari bugungi kundagi 6 trillion 400 milliard dollardan uch barobarga oshadi⁸⁰. Xitoy mamlakati bunday faol investitsiya siyosatini olib borsa, Amerika Qo'shma Shtatlarini ham orta qoldirib ketadi. Bunday rivojlanishga qaramasdan Xitoyda ekologiya muammolari, raqobatchilarning sonining ko'payishi kabi muammolar soni ham oshib bormoqda.

Yangi xorijiy investitsiyalarni ko'rib chiqishning yana bir ustuvor yo'nalishi – "xalqaro ishlab chiqarishdagi hamkorlik" maqsadlarini to'la-to'kis ko'rib chiqishdir. Bu erda "global sanoat zanjiri"ni o'zaro manfaatli yo'llarda mustahkamlash uchun ishlab chiqarish quvvatlarini boshqa mamlakatlarga o'tkazishni rag'batlantirish vazifasi turibdi⁸¹. Xitoy kompaniyalari chet elda investitsiya qilayotganda – hozirgi kunda Lotin Amerikasida bo'lgani kabi, ular o'zlarining kompaniyalari uchun oqilona va barqaror investitsiya kiritish bilan emas, balki, strategiyalarini Xitoyning milliy investitsion ustuvorliklari bilan birlashtirishga mas'uldirlar⁸².

Shuningdek, Xitoy davlati TTXIlarni qabul qilishda ham faol davlat hisoblanadi. Buni quyidagi 9.4-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

9.4-jadval.

Xitoyga jalb etilgan TTXIlar dinamikasi⁸³

Ko'rsatkichlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
TTXIlar hajmi, mlrd. AQSh dollari	128,50	135,61	126,00	131,03
TTXI umumiy miqdori, mlrd. AQSh dollari	1085,29	1220,90	1,346,90	1477,93
TTXIarning YaIM nisbatan ulushi, %da	10,3	10,9	12,1	10,4

9.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xitoyga jalb etilgan TTXIlar hajmi tahlil etilayotgan davrda notekis dinamikani ifoda qilsa ham, biroq, ularning umumiy hajmi yil sayin salmoqli o'sib bormoqda. Umuman olganda, YuNCTAD tomonidan chop etilgan Jahon investitsion hisoboti 2017-yil ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi uchinchi yirik xorijiy investitsiyalar ishtirokchisi bo'ldi. Mamlakat iqtisodiyoti AQShdan keyin 2017-2019 yillarga mo'ljallangan ko'p millatli kompaniyalar uchun ikkinchi o'rinda turadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish Xitoyni tashqi dunyoga ochish siyosatining bir qismidir.

Xitoyga TTXIlar oqimining yuqoriligiga qulay investitsiya muhiti va arzon va ko'p sonli ishchi kuchining mavjudligidir. Bunda Xitoyga TTXIlni joylashtirgan

⁸⁰ <https://www.mckinsey.com/global-themes/china/what-can-we-expect-in-china-in-2018>

⁸¹ Export Entreprises SA, All Rights Reserved. Last Updates: January 2018

⁸² Chaoqing Yuan, Sifeng Liua, Yingjie Yang, Ding Chen, Zhigeng Fanga, Lulu Shui. An analysis on investment policy effect of China's photovoltaic industry based on feedback model. // <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S030626191400926X>.

⁸³ Source: UNCTAD, Latest available data.

yirik investor-davlatlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi (9.5-jadval).

9.5-jadval.

Xitoyga TTXI kiritigan yetakchi investro-davlatlar ulushi⁸⁴

O‘r in	Mamlakat/hudud	2017 yilda TTXI hajmi, mlrd. AQSh doll.	2017 yilda TTXIlarda mamlakat ulushi, %	2016 yilda TTXIlarda mamlakat ulushi, %
1.	Gonkong	98,92	75,4	69,0
2.	Singapur	4,83	3,6	5,0
3.	Taivan	4,73	3,6	3,0
4.	Janubiy Koreya	3,69	2,8	4,0
5.	Yaponiya	3,27	2,4	3,0
6.	AQSh	3,13	2,3	3,0
7.	Niderlandiya	2,17	1,6	0,9
8.	Germaniya	1,54	1,1	2,0
9.	Buyuk Britaniya	1,50	1,1	2,0
10.	Daniya	0,82	0,6	0,9

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turganidek, Xitoyga kapital olib kiruvchi asosiy investor Gongkong va keyingi o‘rinda Singapur va Taivan bo‘lib qolmoqda. Bu esa Xitoyning Osiyo mintaqasi davlatari bilan o‘zaro tashqi iqtisodiy hamkorligi yuqori darajada ekanligi va mamlakatning ular uchun boshqa davlatlarga nisbatan jozibador ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda Xitoy G‘arbiy va Shimoli-Sharqiy hududlarini rivojlantirish maqsadida ko‘p millatli kompaniyalarni mamlakatda mintaqaviy shtab-kvartirani tashkil etishga da‘vat qilmoqda va ushbu maqsadga erishishda “Bir makon, bir yo‘l” global loyihasidan samarali foydalanishga umid qilmoqda.

Xitoy davlatiga kiritilgan TTXIlarning investitsiyalash obyektlari bo‘yicha joylashuvi holati, tarkibi va salmog‘i to‘g‘risidagi ma‘lumotlar quyidagi 9.6-jadvalda keltirilgan.

9.6-jadval.

Xitoyda 2016-2017 yilda jalb etilgan TTXIlar va ularning korxonalar bo‘yicha taqsimoti⁸⁵

Investitsiya qo‘yilmalari obyektlari	Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan yangi korxonalar			Jalb etilgan TTXIlar hajmi, mlrd. AQSh doll.		
	2017 y.	2016 y.	o‘sishi, %	2017 y.	2016 y.	o‘sishi, %
1. TTXIlar	35652	27900	27,78	131,03	126,0	3,99
Xitoy va xorijiy kapital ishtirokidagi qo‘shma korxonalar soni	8364	6662	25,55	29,74	30,2	-1,53
Xitoy va xorijiy kapital	124	126	-1,59	0,8	0,83	-2,97

⁸⁴ Source: Invest in China - Latest available data.

⁸⁵ Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году. По данным ГТУ КНР.


ishtirokidagi kooperatsion korxonalar						
Xorijiy kapital bilan tashkil etilgan korxonalar	27007	21024	28,46	91,34	86,12	6,06
Xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari	125	86	45,35	6,47	8,84	-26,77
Hamkorlikdagi o'zlashtirish	2	0	0	1,18	0	0
Boshqalar	0	2	-100	0	0	0
2.Boshqa xorijiy investitsiyalar	0	0	0	0	0	0
Xorijda aksiyalar chiqarish	0	0	0	0	0	0
Xalqaro lizing	0	0	0	0	0	0
Kompensatsion tijorat	0	0	0	0	0	0
Qayta ishlab va yig'ish	0	0	0	0	0	0
Jami:	35652	27900	27,78	131,03	126,0	3,99

9.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xitoyda 2017-yilning o'zida TTXIlar ishtirokida 35652 ta qo'shma korxonalar tashkil etilgan va bu 2016-yilga nisbatan 27,78 %ga ko'p demakdir. Shuningdek, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi ham 4 %lik o'sishga ega bo'lgan. Mazkur investitsiyalarning asosiy qismi xorijiy investitsiyalar hisobidan tashkil etilgan korxonalar hisoblanadi va bu ko'rsatkich 2017-yilda 27007 tani tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 28,46 %ga yuqori bo'lgan. Qolaversa, bunday o'sish Xitoy va xorijiy investor sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan korxonalarda (25,55 % o'sish) va xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida (45,35% o'sish) ham kuzatiladi. Bu esa Xitoyning hozirgi kunda ham xorijiy investorlar uchun o'ta jozibador mamlakat bo'lib qolayotganligidan dalolat beradi va bu tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada rivoj topib borishi orqali yaqin kelajakda dunyoning eng rivojlangan davlatiga aylanishiga olib kelishiga imkon beradi.

O'z navbatida, mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining faol investitsiya siyosatiga bog'liqlikda rivojlanishi Xitoy davlatining 2017-yildan buyon dunyodagi eng yirik tashqi savdo aylanmasiga ega davlatiga aylanishiga olib keldi. Xitoyning tashqi savdo aylanmasi 2018-yil yakunlariga ko'ra rekord natijani ko'rsatdi va 4,62 trln. dollarga etdi. Bu qiymat 2017-yilgiga nisbatan 12,6 foiz ko'pdir. Jumladan, Xitoy eksporti 2018-yilda 9,9 foizga o'sib, 2,14 trln. dollarni, importi esa 15,8 foizga o'sib, 2,14 trln. dollarni tashkil qilgan. Savdo balansining ijobiy saldosi 546,5 mlrd. dollarni tashkil qilgan⁸⁶.

Xitoy davlatining tashqi savdosi va YaIMning o'sishida faol investitsiya siyosati o'z samarasini ko'rsatmoqda. Buning natijasida Xitoyning 2016-yil yakuni bo'yicha ichki manbalar hisobidan o'z iqtisodiyotini investitsiyalash hajmi jalb qilingan tashqi investitsiyalashdan yuqori bo'lishini ta'minladi (9.3-rasm).

⁸⁶ Xitoyning tashqi savdo aylanmasi rekord qiymatga etdi. // <https://kun.uz/news/2019/01/14>



9.3-rasm. To‘g‘ridan-o‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning 2016-yildagi hududlar bo‘yicha ichki va tashqi investitsiyalari⁸⁷.

9.3-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Xitoyning 2016-yildagi ichki investitsiyalash hajmi 1354 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan va bu vaqtda tashqi investitsiyalash hajmi 1281 mlrd. AQSh dollariga teng bo‘lgan. Bu esa Xitoyning ichki investitsiyalash salohiyati yil sayin ortib borayotganligidan dalolat beradi. Ularning umumiy miqdori esa 2635 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Bu holatni 2018-yilning 1-yarim yilligi bilan taqqoslaganda esa yanada katta farqni ko‘rish mumkin. Ya’ni 2018-yil 6 oylik yakunga ko‘ra, Xitoyda asosiy kapitalga umumiy investitsiyalash (ichki va tashqi manbalar hisobidan) hajmi 4,4 trln. AQSh dollari (29,7 trln. yuan)ni tashkil etgan. Bunda xususiy sektorning ulushi o‘tgan yilga nisbatan 8,4 %ga yuqori bo‘lgan⁸⁸.

Xitoy davlatining faol investitsiya siyosatini olib borishi va xorijiy va ichki investitsiyalarni o‘zlashtirishdagi samarali islohotlar mamlakatda ishsizlik darajasining pasayib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bunda 2017-yilda hukumat ishsizlik darajasini 4,5 %ga taxmin qilgan bo‘lsa, amalda u 3,9 %ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2018-yilda 3,8 %ni tashkil etdi. Bu holat Xitoyda 2017-yilda 13,5 mln. va 2018-yilda 11 mln. kishini ish bilan ta’minlashning natijasidir⁸⁹.

5 yillik davrda (2012-2017 yy.) Xitoyda jalb etilgan jami xorijiy investitsiyalar hajmida sanoatning yuqori texnologiyali tarmoqlari ulushi 14,5 %ga o‘sd. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, xorijiy kapitl ishtirokidagi korxonalar hissasining kichikligiga qaramay (mamlakatdagi jami xo‘jalik subyektlari sonining 3 %idan oshmaydi), ularning mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi qariyb 50 %ni tashkil etadi, sanoat korxonalarini hisobga olgan holda foydasi (yillik 20 mln. yuandan yuqori hajmdagi tushumlarni hisobga olgan holda) – 25% atrofidagi, soliq to‘lovlari summasida esa – qariyb 20% ulushni tashkil etadi⁹⁰.

⁸⁷ Source: World Investment Report 2017, United Nations, 2017

⁸⁸ Темпы роста ВВП Китая и объем инвестиций обгоняют прогнозы. // <https://www.vestifinance.ru/articles/103955>

⁸⁹ Темпы роста ВВП Китая и объем инвестиций обгоняют прогнозы. // <https://www.vestifinance.ru/articles/103955>

⁹⁰ Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году. По данным ГТУ КНР.

O‘z navbatida, Xitoy Tijorat vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, xitoylik tadbirkorlar 2017-yilda dunyoning 174 ta mamlakati va hududlariga 6236 ta korxonani tashkil etish maqsadida 810,7 mlrd. yuan (-28,2%), ili 120,1 mlrd. doll. (-29,4%) nomoliyaviy investitsiyalarni kiritishgan. Ularning 85 %i portfel investitsiyalarga (aksiyalar va obligatsiyalar bilan bog‘liq holda qo‘shib olish va birlashish shartnomalari asosida), ya’ni 689,2 mlrd. yuan (-31,8%) yoki 102,1 mlrd. doll. (-32,9%)ga, 15 %i foydani qayta investitsiyalashga – 121,5 mlrd. yuan (+1,6%) yoki 18,0 mlrd. doll. yo‘naltirilgan⁹¹.

Mazkur investitsiyalarning obyektlar bo‘yicha joylashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyidagi 9.7-jadvalda batafsil keltirilgan.

9.7-jadval.

Xitoyning 2017-yilda xorijga yo‘naltirgan TTXIlari⁹²

Investitsiyalash sektorlari	Hajmi, mlrd. AQSh doll.	2016 yilga nis. o‘sishi, %	Ulushi, %
Jami	120,1	-29,4	100,0
Shu jumladan: qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, chorvachilik, baliq xo‘jaligi	2,2	-25,3	1,8
Qazib olish sanoati	8,3	-4,4	6,9
Qayta ishlash sanoati	19,1	-38,4	15,9
Elektr energiyasi, gazni ishlab chiqarish va yetkazib berish va sub ta‘minoti	3,2	26,5	2,6
Qurilish	7,3	37,5	6,0
Ulgurji savdo	24,9	-9,6	20,7
Transport, ombor xo‘jaligi, pochta xizmatlari	3,0	-16,9	2,4
Informatsion va soft-xizmatlari	10,3	-49,3	8,5
Ko‘chmas mulk	2,2	-79,6	1,8
Lizing	34,9	-17,3	29,0

Xitoy davlati faol iqtisodiy rivojlanib borayotganligi sababli jahonda jang‘armaning YaIMga nisbatan ulushi bo‘yicha Hindistondan keyingi 2-o‘rin (35-40%), miqdor jihatdan esa 1-o‘rinni egallovchi davlat hisoblanadi. Buning natijasida, Xitoy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan birga, xorijga kapital olib chiqish bo‘yicha ham faol siyosat olib bormoqda. Bu natijaga erishishda EIHLarning ham o‘z o‘rni mavjud.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, yalpi ichki mahsulot, tashqi savdo, eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyat, hukumat, iqtisodiyot, investitsiya.

⁹¹ Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году. По данным ГТУ КНР.

⁹² Годовой обзор состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году. По данным ГТУ КНР.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlari va natijalari dunyoni hayratga solib keladi. Bunda EIHLarning ham salmoqli ulushga ega ekanligi e'tiborga molikdir. Shuni ta'kidlash lozimki, Xitoy iqtisodiyoti 15 %lik o'sishlarni ham qayd etgan holda 2009-2017 yillarda bu ko'rsatkich 6,7-8 %ni tashkil etdi.

2. Xitoyda tashqi savdo aylanmasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi va 2018-yilda bu ko'rsatkich rekord natijani ko'rsatdi va 4,62 trln. dollarga etib, 2017 yilga nisbatan 12,6 foizga o'sgan. Savdo balansining ijobiy saldosi 546,5 mlrd. dollarni tashkil qilgan. EIHLar tashqi savdosida ham o'sish kuzatilib, 2017-yilda bu ko'rsatkich 7,4 %ga mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 13,7 %ga teng bo'lgan. Unda Shenjen MIHning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 73,6 %ni, jumladan, eksportdagi ulushi 73,9%ni, importdagi ulushi esa 73,2%ni tashkil etgan.

3. Xitoy EIHLarni rivojlantirishda TTXIlarni jalb etishga ham alohida e'tibor qaratadi. So'nggi yillarda Xitoy iqtisodiyotiga TTXIlarni jalb etish hajmi barqarorlikni kasb etmasa-da, biroq, ularning YaIMga nisbatan ulushi 10 %dan yuqorini tashkil etmoqda. Mazkur TTXIlarni kirituvchi davlatlar ichida Gonkongning ulushi juda yuqori bo'lib, jumladan, 2017-yilda uning ulushi 75,4 %ni tashkil etgan. Keyingi 4 ta o'rin ham Osiy davlatlariga tegishli bo'lib, ularning umumiy ulushi 85,8 %ni tashkil etadi. Bu mamlakatda qo'shma korxonalar sonining ortib borishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Xitoy iqtisodiyotining o'sish sur'atlari qanchani tashkil etadi?
2. Xitoy tashqi savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlariga baho bering.
3. Xitoy tashqi savdo aylanmasida EIHLarning ulushi qanchani tashkil etmoqda?
4. Xitoyga TTXIlarni jalb etish dinamikasi va unda investor-davlatlar ulushi haqida nimlarni bilasiz?
5. Xitoy EIHLarining tashqi savdo aylanmasiga baho bering.
6. Xitoy xorijiy investitsiyalarga nisbatan qanday siyosatni amalga oshirmoqda?

9.4. Xitoy erkin iqtisodiy hududlaridagi imtiyozlar va ularning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi tutgan o'rni

Xitoyda EIHLar eksport, ishlab chiqarish, savdo, ilmiy-ishlab chiqarish vazifalarini bajaradi. Shu bilan birga, ularning har biri alohida farqlarga ega. Bu farqlar soliq va bojxona tartibida o'z aksini topadi. Xitoydagi EIHLarining o'ziga xosligi shundaki, zonadagi korxonaning ishlab chiqarishi tashqi bozorga yo'naltirilgan hisoblanadi. Mahsulotlarni ichki bozorga sotish EIHL boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshiriladi va ulardan odatdagi tartibda bojxona to'lovlari undiriladi.

Xitoyda EIHLni boshqarish masalalari butunlay viloyat darajasiga tushirilgan. EIHLarning mahalliy organlari tashqi iqtisodiy faoliyat va xo'jalik siyosati sohasida keng vakolatlariga ega. Misol uchun, Guandun va Funchjen viloyatlarida mahalliy organlar EIHLarni boshqarish masalalari haqida alohida qarorlar qabul qilishi

mumkin.

Xitoyda EIHLarda investorlar uchun taqdim etilgan soliq va bojxona imtiyozlari va boshqa qulay shart-sharoitlar EIHLarga xorijiy investitsiyalar kirib kelishi asosida mamlakatda investitsiya faoliyatining rivojlanishiga erishilmoqda. Bugungi kunga kelib, Xitoy davlati mamlakatga, xususan, EIHLarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik xavfsizlikni birinchi o'ringa qo'ygan holda, shuningdek, iqtisodiyotning investitsiyalarga birmuncha to'yinganligi va jamg'armalari hajmi birmuncha ortishiga erishilganligi sababli xorijiy investitsiyalarga taqdim etiladigan imtiyozlarni, jumladan, soliq stavkalarini ma'lum darajada ko'tarishi evaziga qisqartirdi.

Shunga ko'ra, aytish mumkinki, bugungi kunda EIH rezidentlari uchun talablar va imtiyozlar quyidagilardan iborat:

1. EIHLarga kiritiladigan xorijiy investitsiyalar miqdori kamida 50 mln. AQSh doll. bo'lishi kerak, oldin bu ko'rsatkich 30 mln. AQSh doll. bo'lgan. Xorijiy rezidentning ustav kapitalidagi ulushi kamida 25 %ni tashkil etishi lozim.

2. EIH rezidentlari uchun 5 yil davomida alohida soliq imtiyozlari tizimi yo'lga qo'yilgan. Birinchi 2 yil davomida ular umuman daromad solig'ini to'lashmaydi va keyingi 3 yil davomida soliqning faqatgina 50 %ini to'lashadi, xolos. 2008-yilgacha foyda solig'i maxsus zonada joylashmagan korxonalar uchun 33 %, MIH rezidentlari uchun esa 15 % etib belgilangan. XXR Davlat kengashining 2007-yil 26-dekabrdagi "Korxonalariga daromad solig'i bilan bog'liq imtiyozlar berishning o'tish siyosati to'g'risidagi" qaroriga ko'ra foyda solig'i 2008 yilda 18 %, 2009-yilda 20 %, 2010 yilda 22 %, 2011-yilda 24 % va 2012-yildan 25 %ga ko'tarildi.

3. 2012-yildan boshlab qat'iy 25 % qilib o'rnatildi. Savdo, qayta ishlash va import-eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi EIH rezidentlari uchun QQS 17 % deb belgilangan.

4. Kamida 5 yil muddatda o'z foydasini Xitoyga qayta investitsiyaga aylantirgan xorijiy investorlarga reinvestitsiya qilingan ulushga mos ravishda to'langan daromad solig'ining 40% qaytarib beriladi.

5. Past rentabelli yoki iqtisodiy chekka va qoloq tumanlariga o'z kapitalini kiritgan tadbirkorlar 11 yildan boshlab, (10 yil imtiyoz davridan keyin) daromad solig'ini 15-30 foizi mukofot tarzida chegiriladi.

6. 5 mln. AQSh dollaridan ortiq investitsiya kiritgan yoki zamonaviy texnologiyani taqdim etgan yohud aylanma kapitali sekin aylanadigan korxonalar foyda solig'idan qisman yoki to'liqligigacha ozod qilinishi mumkin.

7. Quyidagilardan boj olinmaydi:

- ishlab chiqarish va boshqaruv uchun investitsiya qilingan qurilish materiallari, detallar va uskunalardan;

- xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar eksportidan;

- ofis jihozlari va transport vositalaridan.

8. Bojxona zonalariga bojxona - sanoat solig'i hamda bojxona to'lovlarini to'lamasdan, xohlagan mahsulotni kiritish mumkin. Bu tovarlarni ichki bozorda olib kiritilayotganda esa soliq va to'lovlar to'liq holda olinadi.

9. Ammo, EIH hududiga olib kirilayotgan texnologiya va xomashyo uchun QQS

va boj undirilmaydi. Lekin, aksiz, shaxsiy daromad solig'i va boshqa soliq turlari imtiyozlardan holi. Bundan tashqari, EIH rezidentlari uchun soliq bilan bog'liq bo'lmagan imtiyozlar ham joriy etilgan, ular yer, suv, elektr energiyasi, gaz, internet, bino ijarasi kabi to'lovlardan to'liq yoki qisman ozod etiladi.

10. Xitoy tajribasidagi yana bir jihat, bu erkin iqtisodiy zonalardagi mahalliy hukumatlarning qo'shma korxonalar uchun mahalliy budjetga aloqador bo'lgan soliqlar bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar beriladi. Masalan, subsidiyalar past narxlar tizimi orqali kommunal xizmati uchun, uchastkalardan va ishlab chiqarish xonalaridan foydalanish uchun ijara to'lovini arzonlashtirishga, shuningdek, budjet dotatsiyalari va davlat kreditlari beriladi. Ma'muriy imtiyozlar investorlarni infratuzilma vositalarini ta'minlashga, qayd qilish va bojxona muolajalarini soddalashtirishga tegishli, shuningdek, biznesga ko'maklashayotgan turli xil xizmatlarni ko'rsatishga tegishlidir.

Dengizbo'yi ochiq shaharlar (DOSh) EIHLarga qaraganda boshqacha funksiyani bajarib, ular bevosita mamlakatning ichki mintaqalarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ularning ilg'or texnologiyalar asosida ish yuritayotgan korxonalari shu tumanlarning bozorlarini mahsulot bilan to'ldiradi. Shu sababli davlat DOShlarni rivojlanishida tanlanma (selektiv) siyosatni amalga oshirib kelmoqda. Birinchi navbatda, mablag'lar qulay investitsiya muhitidagi DOShlarga yo'naltirilmoqda. Boshqa hududlar esa davlat yordamini olish uchun ichki resurslarni ishga solgan holda xorijiy investitsiyalar uchun qulay muxit yaratishi kerak bo'ladi. Bunda "ko'rinmas" muhitga (boshqaruv tizimini mukammalligi, qonunchilik tizimi, viza tartibi va boshqalarga) e'tibor berish kerak. Bunday vositalar katta qo'yilmalar talab etmasa-da, yaxshi samara beradi. DOShlar uchun mamlakatda quyidagi iqtisodiy imtiyozlar yaratilgan:

- foydadan olinadigan soliq miqdori kamaytirilgan;
 - 20 mln. AQSh dollari miqdorida xorijiy kapital qo'yilgan obyektlar, ko'p mehnat talab qiladigan va texnik ilm talab etiladigan ishlab chiqarish uchun foyda solig'i 15,5 %ni tashkil etadi;
 - 70 % mahsulot eksportga ketadigan va ilg'or texnologiyali korxonalar uchun 10-12 %;
 - xorijiy ishbilarmonlar dividendi va % daromadiga 10 % soliq solinadi.
- DOShlarda quyidagi bojxona to'lovlari olinmaydi:
- ishlab chiqarish va boshqaruv uchun investitsiya qilingan qurilish materiallari va uskunalardan;
 - xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaning eksportidan;
 - ofis jihozlari va transport vositalaridan (DOShlardagi xorijiy korxonalar va tashkilotlarda foydalanish uchun).

Bundan tashqari, DOShlarning hukumat rahbariyati mustaqil ravishda qo'shma korxonalar loyihalarini tasdiqlash, yer va inshootlar uchun ijara xaqi institutlari va foyda solig'ini cheklash kabi xorijiy kapitalning kirib kelishini tartibga solib turuvchi qonunlarni ham chiqarishi mumkin. Shanxay va Tyantszin 30 mln. dollargacha bo'lgan qiymatdagi, Dalian va Gunchjou 10 mln. dollargacha bo'lgan qiymatdagi, Tsingxuan, Tsindao, Fuchjou va boshqa DOShlar esa 5 mln. dollargacha bo'lgan

qiymatdagi qo'shma korxonalarini mustaqil tasdiqlashi mumkin.

Xitoyda EIHLarda taqdim etilgan imtiyoz va qulayliklar ularga dunyoning 100 dan ortiq davlatlaridan investitsiyalar jalb etish imkonini yaratdi. Xitoyga 1979-2014 yillarda jami 2,5 trln. dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb etilgan bo'lsa, shundan 75-80 foizi Xitoy EIHLariga jalb etilgan. Xorijiy investitsiyalar, asosan, maxsus tashkil etilgan kompleks iqtisodiy hududlar orqali kirib keladi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, soliq, bojxona, mahsulot, imtiyoz, investor, iqtisodiyot, investitsiya, rezident, dengizbo'yi ochiq shaharlar.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Xitoydagi EIHLarining o'ziga xosligi shundaki, zonadagi korxonaning ishlab chiqarishi tashqi bozorga yo'naltirilgan hisoblanadi. Mahsulotlarni ichki bozorga sotish EIH boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshiriladi va ulardan odatdagi tartibda bojxona to'lovlari undiriladi. Shu sababli ayrim EIHLarda eksport hajmi hudud ishlab chiqarishining 80 %ini tashkil etadi.

2. Xitoyda EIHLarda investorlar uchun taqdim etilgan soliq va bojxona imtiyozlari va boshqa qulay shart-sharoitlar EIHLarga xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda iqtisodiyotning investitsiyalarga birmuncha to'yinganligi va jamg'armalari hajmi birmuncha ortishiga erishilganligi sababli xorijiy investitsiyalarga taqdim etiladigan imtiyozlar ma'lum darajada qisqartirildi.

3. Xitoyda xorijiy investorlar EIHLarda imtiyozlarga ega bo'lishi uchun ular kiritadigan investitsiyalar kamida 50 mln. AQSh doll. bo'lishi va ustav kapitalidagi ulushi kamida 25 %ni tashkil etishi lozim. EIH rezidentlari uchun 5 yil davomida alohida soliq imtiyozlari tizimi yo'lga qo'yilgan. Birinchi 2 yil davomida ular umuman daromad solig'ini to'lashmaydi va keyingi 3 yil davomida soliqning faqatgina 50 %ini to'lashadi, xolos. 2012 yildan boshlab qat'iy 25 % qilib o'rnatildi. Savdo, qayta ishlash va import-eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi EIH rezidentlari uchun QQS 17 % deb belgilangan.

Nazorat uchun savollar:

1. Xitoyda EIHLarni rivojlantirishda investorlarga taqdim etilgan imtiyozlar qanday ahamiyat kasb etgan?

2. Xitoyda EIHLarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qanday imtiyozlar mavjud?

3. Xitoy EIHLarida imtiyozlar tizimida qanday o'zgarishlar kuzatilmoqda?

4. Xitoy xorijiy investitsiyalarga nisbatan qanday siyosatni qo'llamoqda?

5. Xitoy EIHLarida qanday boj siyosati joriy etilgan?

6. Xitoy dengizbo'yi ochiq shaharlaridagi imtiyozlar nimalardan iborat?

9.5. Xitoyda erkin iqtisodiy hududlar faoliyati va rivoji bilan bogʻliq muammolar

Bugungi kunda Xitoyda 6 ta erkin iqtisodiy hududlar faoliyat olib borib, ulardan 4 tasi mamlakatning Janubi-Sharqiy qirgʻoqlarida joylashgandir:

- **Shantou EIH** Shantou erkin iqtisodiy zonasi Guandun shahrining Shantou shahrida joylashgan. U ikki qismdan iborat: Birinchi qism Shantou shaxrining sharqiy qismini oʻz ichiga olib 22,6 km² maydonni egallaydi va ikkinchi qism Shantouning janubiy qismida joylashgan Guanjou yarim oroli boʻlib, 30 km² maydonni egallaydi. Unda neft-kimyo, port infratuzilmasi, kiyim-kechak, oyoq-kiyim, elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida xorijiy kapital ishtirokidagi 3000 dan ortiq loyihalar amalga oshiriladi. Iqtisodiy hududiga jalb qilinayotgan investitsiyalarning 95 %i Gonkong, Tayvan va Singapurga tegishlidir.

- **Shenjen EIH** Xitoydagi eng yirik iqtisodiy hudud hisoblanadi va u Guandun provinsiyasining janubida joylashgandir. Hudud 327,5 km² maydonni egallaydi. Unda umumiy hajmi 22,4 mlrd. AQSH doll.hajmidagi 17,5 mingta korxonalar faoliyat koʻrsatmoqda va ularning 85% i Gonkong kapitaliga asoslangandir. Ulardagi sarmoya kiritilgan asosiy sohalar yadro energetikasi, elektronika, mashinasozlik, xizmat koʻrsatish, moliya, yuqori texnologiyalar sohasi hisoblanadi.

- **Chjuxay EIH** ham Guandun provinsiyasining janubida joylashgan. U Gʻarb tomonidan Marvarid daryosi bilan, Janubda Makao (Aomen) bilan chegaradosh. EIH 15,16 km² maydonni egallaydi. Unda xorijiy kapital ishtirokidagi 4980 tadan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Xorijiy investitsiyalar xizmat koʻrsatish, ogʻir sanoat, elektronika, port va yoʻl qurilishi sohalariga jalb qilinib, ularning 80 %i Gonkong, Makao, Tayvan va Singapur hissasiga toʻgʻri keladi.

- **Syamen EIHda** Futszyan provinsiyasining Syamen shahrida joylashgan. U oʻz ichiga Syamen orolini va Gulan orolchasini oladi, umumiy maydoni 131 km² ni tashkil etadi. Unga 15 mlrd. AQSh doll.hajmida xorijiy sarmoya asosan, Tayvandan elektronika, tekstil, oziq-ovqat va kimyo sanoatlariga (80%) kiritilib, unda 4150ta korxonalar faoliyat koʻrsatmoqda.

- **Xaynan EIH** alohida orol hududi boʻlib, uning maydoni 34 ming kv.km.dan iboratdir. Unda 7320 tadan ortiq korxonalar faoliyat olib borib, horijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 22,3 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etadi.

- **Yangi Pudun tumani** Shanxayning tarkibiy qismi sifatida 1990-yillar boshida tashkil etildi. 1992-yildan boshlab, bu hudud xorijiy investitsiyalarni jalb qilish boʻyicha, katta muvaffaqiyatlarga erishib, bugungi kunga qadar unda avtomobilsozlik, elektronika, uskunasozlik, telekommunikatsiya, yuqori texnologiyalar va energetika sohalarini boʻyicha 27,3 mlrd. AQSh dollardagi 5405 ta loyihalar amalga oshirildi⁹³.

Quyidagi 9.8-jadvalda Xitoydagi 5 ta muhim MIH faoliyatiga doir maʼlumotlar va statistikalar keltirilgan.

⁹³ Шухунь Г. Эволюция развития свободных экономических зон в Китае. // Журнал "Европейской экономики". – 2013. Том 11 (№2). – С.201-202.

XXR MIHlarining faoliyat doirasi va investitsiya manbasi⁹⁴

MIH nomi	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni	Ixtisoslashuvi	Kiritilgan xorijiy investitsiyalar manbasi
1	2	3	4
Shantou	3000 dan ortiq	Neft-kimyoy, tekstil, poyafzal va elektronika, agrosanoat	Kiritilgan 95 % xorijiy investitsiyalar Gonkong, Tayvan va Singapurga tegishli
Shenjen	17500 dan ortiq	Yadro energetikasi, elektronika, Mashinasozlik, yuqori texnologiyalar va turli xizmatlar	Kiritilgan 85 % xorijiy investitsiya Gonkongga tegishli
Chjuxay	5000 dan ortiq	Og'ir sanoat, elektronika, dengiz va yo'l qurilishi, turizm va bosliq xizmatlar	Kiritilgan 80 % xorijiy investitsiyalar Gonkong, Makao, Tayvan va Singapurga tegishli
Syamen	4150 dan ortiq	Elektronika, tekstil, oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati va turizm	Kiritilgan 80 % xorijiy investitsiyalar Tayvanga tegishli
Xaynan	7320 dan ortiq	Elektronika, telekommunikatsiya va yuqori texnologiya	Jami xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi shartnomalar 22,3 mlrd. AQSh doll.

Xitoy hukumati maxsus iqtisodiy hududlar faoliyatining shart-sharoitlari yuzasidan doimiy monitoring olib borib, MIHlarning ijobiy tomonlaridan yuqori darajada foydalanish va salbiy ta'sirini kamaytirishga harakat qiladi. Buning natijasi o'laroq, Xitoy EIHLarining mintaqaviy yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishida turli tarmoqlar hissaning ta'minlanishi va rivojlanishiga erishilmoqda (9.9-jadval).

Xitoy EIHLarining yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishida turli tarmoqlar ulushi va miqdori⁹⁵

MIHlar	Jami	Mlrd. yuan			Ulushi, %		
		qishloq xo'jaligi	sanoat va qurilish	xizmatlar sohasi	qishloq xo'jaligi	sanoat va qurilish	xizmatlar sohasi
Shenjen	2243,8	1,8	926,7	1315,3	0,1	41,3	58,6
Syamen	378,4*	-	-	-	-	-	-
Chjuxay	256,5	4,5	128,9	123,1	1,8	50,2	48,0
Shantou	235,0	10,8	118,1	106,1	4,6	50,2	45,2
Xaynan	404,5	97,1	90,2	217,2	24,0	22,3	53,7

Bu erda: * – 2016 yil ma'lumoti.

⁹⁴ <http://newinspire.ru/lektii-po-mirovoy-ekonomike/osobie-svobodnie-ekonomicheskie-zoni-v-kitae-1688>.

⁹⁵ 中国经济特区发展报告 – 2017 = Доклад о развитии специальных экономических зон Китая – 2016. Пекин:社会科学文献出版社, 2018. – R. 152.

9.9-jadvaldan ko‘rinib turganidek, 2017-yilda 5 ta MIH tomonidan yaratilgan yalpi ichki mahsuloti hajmi bo‘yicha Shenjen MIH eng asosiy ulushni egallaydi. Undagi yaratilgan yalpi hududiy mahsulotlarning esa 58,6 %i xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keladi. Keyingi ulushni (41,3 %) sanoat va qurilish sohani tashkil etadi. Qolagn qismi qishloq xo‘jaligi (0,1 %) hissasiga tegishlidir. Bu tarmoqlar boshqa MIHlarda boshqa nisbatdagi ulushlarni tashkil etgan. Umuman olganda, Xitoyda EIHLar rivojida tarmoqlar, ayniqsa xizmatlar sohasining ulushi ortib bormoqda. Bu esa EIHLar iqtisodiy yuksalishida muhim omilga aylanmoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra, Xitoy iqtisodiy rivojlanishida erkin iqtisodiy hududlar o‘rnining yildan-yilga oshib borishi quyidagilar bilan izohlanadi:

- EIHLarda faoliyat yurituvchi xorijiy investorlar uchun bojxona to‘lovlari va soliqlar bo‘yicha imtiyozlarning berilganligi;

- EIHLarda yuqori xorijiy texnologiya asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish orqali, yaratilgan mahsulotlarni keng ko‘lamli eksport qilishning samarali mexanizmi tashkil etilganligi;

- oddiy va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish jarayonlari o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi ta‘minlanganligi;

- EIHLarda iqtisodiy rivojlanishga erishishda ilmiy-texnik jarayonlardagi moddiy resurslar iste‘molini oshirish va boshqaruvdagi innovatsiyalarni oshirishga qaratilgan har tomonlama mustaqil innovatsiyalarga keng imkoniyatlar berilganligi.

Jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘ringa ega bo‘lgan Xitoyda ham EIHLar faoliyatida o‘ziga xos kamchiliklar yo‘q emas. Bunday kamchiliklar tarkibiga erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etilishining asosiy maqsadi hisoblangan, sanoat ishlab chiqarish korxonalarini mamlakatning rivojlangan hududlaridan rivojlanish darajasi past hududlarga o‘tkazilishi, ishchilarni ish bilan ta‘minlash, mahsulot ishlab chiqarishda xalqaro andozalarga to‘la rioya etishni ta‘minlash muammolari to‘liqligicha hal etilmaganligi hisoblanadi. Shu boisdan, EIHLarni tashkil etishda shoshilmasdan puxta o‘ylangan chor-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Chunki, uzoq muddatli dasturlarning qanday unum bilan ishlashini oldindan bashorat qilish qiyin.

Shu bilan birga Xitoyda EIHLar faoliyat yuritishining o‘ziga xos muammolari ham mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilar:

- EIHLarga qo‘yilgan qo‘yilmalarning katta qismi (80% i), Gonkongdagi xitoyliklar tomonidan amalga oshirilgan. Yirik zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etish imkonini beruvchi transmilliy korporatsiyalarning investitsiyalari, asosan, mamlakatning boshqa tuman-lariga yo‘naltirilgan;

- joriy etilayotgan chet ellik texnologiyalarning past darajasi, xitoylik ishchi kuchining past malakasi va mutaxassislar etishmovchiligi;

- er ijarasi va ishchi kuchi xarajatlarining oshib borishi, bu chet ellik kapitalni jalb qilish sur‘atlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi (EIHLarda ishchi kuchii xarajatlarining birmuncha yuqoriligi, hududning mamlakatning rivojlanmagan mintaqasida tashkil etilganligi va shu kabilar hisobiga bir necha barobar qimmatroqqa tushadi);

- qo‘shma korxonalar barpo etish va faoliyat yuritishidagi byurokratik to‘siqlar;

- xomashyo va energiya tanqisligi;

- EIHLar bo'yicha yagona qonunchilikning yo'qligi.

Shunga qaramasdan EIHLar o'zi joylashgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Aynan EIHLar tufayli Xitoy jahon bozoriga chiqishi mumkin bo'ldi.

Umuman olganda, XXR hukumati tomonidan mamlakat iqtisodiyotida integratsiyalashuvni faqatgina bir hududga yo'naltirib qolmasdan, balki, investitsiyalarni butun bir mamlakat hududiga bir maromda joylashtirib, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish lozim deb ko'rsatishmoqda. Bu sohada qo'shma korxonalar tashkil etish to'g'risidagi qonun-qoidalarni takomillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Agar 80 yillarga qadar qo'shma korxonalar tuzish uchun XXRning Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligidan ruxsat olingan bo'lsa, 90 yillarga kelib bunday huquq mahalliy hukumat organlariga berilgan edi.

Bugungi kunga kelib chet ellik va xitoylik investorlarning imtiyozlari deyarli tenglashtirilganligi bois chet ellik investorlarning imtiyozlari faqatgina yuqori texnologiyali, fundamental infratuzilma sohalarni rivojlantirish tarmoqlarida saqlab qolindi, xolos. Imtiyozlarning olib tashlanishi, albatta, xorijiy investorlarning foyda me'yorini ancha cheklab qo'ygan edi. Shuning uchun ham hozirgi kunda xorijiy investorlar, asosan, Xitoyning imtiyozlar saqlanib qolingan EIHLariga ko'plab kirib kelmoqda.

Bu esa yuqoridagi paragrafda keltirilganidek, chet el investitsiyalarining EIHLarga kirib kelishi nisbatan yuqoriligini ta'minlamoqda.

Shunday qilib, Xitoy tajribasini o'rganish va uning ijobiy tomonlarini respublikamizda tashkil etilayotgan EIHLar faoliyatida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tajribasidan xulosa qiladigan bo'lsak, EIHLarni yaratishda va rivojlantirishda ular qo'yidagilarga asosiy e'tibor qaratganlar:

1. Puxta o'ylangan huquqiy-me'yoriy baza yaratilganligi;
2. Iqtisodiy, moliyaviy va boshqa imtiyozlarning turi va darajasi mahalliy sharoit, qo'yilgan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda puxta ravishda tabaqalashtirilgan.
3. Hududlarda moslashuvchan investitsiya siyosati amalga oshirilganligi.
4. Ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot bazasi va savdo-sotiq tizimini qayta ishlash sanoatini kompleks rivojlantirishga qaratilganligi.
5. Katta miqdorda nisbatan arzon bo'lgan ishchi kuchining mavjudligi.
6. Eksport uchun real va shaffof ishlash imkoniyatining yaratilishi.
7. Xitoy sug'urta kompaniyalari xorijiy investorlarni sug'urtalashni o'z bo'yniga olganligi.
8. EIHLar rivojlanishini davlat tomonidan keng tarzda qo'llab-quvvatlash ammalga oshirilganida, deb bilamiz.

Bu tajribani O'zbekistonda ishlab chiqish va EIHLarni yaratishda o'rganish lozim.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, iqtisodiyot, xorijiy investitsiya, texnologiya,, telekommunikatsiya, sanoat, tarmoq, qo'shma korxonalar.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Xitoyda 6 ta erkin iqtisodiy hududlar faoliyat olib borib, ulardan 4 tasi (Shantou, Shenjen, Chjuxay va Syamen EIHlari) mamlakatning Janubi-Sharqiy qirg'oqlarida joylashgan. Mazkur EIHlarda bugungi kunda juda ko'plab qo'shma korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularda ko'plab ish o'rinlarining yaratilishiga erishildi. Qolaversa, ularga xorijiy investitsiyalar oqimi yildan-yilga o'sib bormoqda.

2. Xitoyda Yangi Pudun tumani Shanxayning tarkibiy qismi sifatida 1990-yillar boshida tashkil etildi. 1992-yildan boshlab, bu hudud xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha, katta muvaffaqiyatlarga erishib, bugungi kunga qadar unda avtomobilsozlik, elektronika, uskunasozlik, telekommunikatsiya, energetika va yuqori texnologiyalar sohalari rivojlanib bormoqda. Lekin, iqtisodiy tahlilda undan tashqari faoliyat ko'rsatuvchi 5 ta EIHlar ko'rsatkichlari keng o'rganiladi.

3. Xitoyda tashkil etilgan yirik EIHlarning har biri aniq maqsad va ixtisoslikka ega bo'lib, ular ushbu ixtisoslikda rivojlanishlari uchun xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishga harakat qilib kelmoqda. Ularga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning aksariyati qo'shni davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. E'tiborli tomoni shundaki, EIHlar ishlab chiqarishda xizmatlar sohasi yetakchilik qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xitoyda bugungi kunda nechta asosiy EIHlar faoliyat ko'rsatadi?
2. Xitoyda dastlabki yillarda tashkil etilgan EIHlarning joylashuv o'rnini va ahamiyatini izohlang.
3. Xitoyda tashkil etilgan 6 ta EIHning tashkil etilish tarixini tushuntirib bering.
4. Xitoyda tashkil etilgan 6 ta EIHning ixtisosliklari va faoliyati ko'rsatkichlariga izoh bering.
5. Xitoyda tashkil etilgan EIHlar o'rnining yildan-yilga o'sib borishi nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Xitoyda tashkil etilgan EIHlarni rivojlantirishda qanday muammolar mavjud?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.
2. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – 230 с.
3. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.
4. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особие экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.
5. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: "Extremum-press" nashriyoti, 2013. – 176 b.
6. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особие экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.

7. Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2006. – 167 с.
8. Годовой обзор. Состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году. // Торговое Представительство Российской Федерации в Китайской Народной Республике. – Пекин, 2018 г. – 163 с.
9. 中国海关统计月刊 = Таможенная статистика Китая. Ежемесячный журнал. Пекин: 海关总署, 2016. № 12.
10. 中国海关统计月刊 = Таможенная статистика Китая. Ежемесячный журнал. Пекин: 海关总署, 2017. № 12.
11. Annual Report on the Development of China's Special Economic Zones (2016): Blue Book of China's Special Economic Zones / ed. by Yitao Tao, Yiming Yuan. Singapore: Social Sciences Academic Press and Springer Nature, 2016. – 306 p.
12. 中国经济特区发展报告 – 2017 = Доклад о развитии специальных экономических зон Китая – 2016. Пекин: 社会科学文献出版社, 2018. – 408 с.
13. Шухунь Г. Эволюция развития свободных экономических зон в Китае. // Журнал “Европейской экономики”. – 2013. Том 11 (№2).
14. Chaoqing Yuan, Sifeng Liua, Yingjie Yang, Ding Chen, Zhigeng Fanga, Lulu Shui. An analysis on investment policy effect of China's photovoltaic industry based on feedback model. // <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S030626191400926X>.

10-bob. ROSSIYA FEDERATSIYASIDA TASHKIL ETILGAN ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR

10.1. Rossiya Federatsiyasida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi va rivojlanishi tarixi

O'tgan asrning 90- yillarida Rossiyada EIHLar tashkil etila boshlandi. 1989-yil dekabrda sobiq Ittifoq hukumatining qarori bilan Naxodka va Viborg shaharlarida EIH tashkil qilindi. Jahonning boshqa mamlakatlari EIHLarni tashkil etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq deb topilgan bo'lsa, Rossiyada bu jarayon ortiqcha siyosiy lashtirilib yuborilgan edi. EIH sobiq ittifoqdosh respublikalarning va yirik mintaqalarning mustaqillikka erishishlari doirasida hokimiyat va resurslarni taqsimlash quroliga aylanib qoldi. Natijada 1990-yilning iyul oyidan 1991-yilning iyun oyigacha RSFSRning (Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi) Oliy Soveti qarori bilan 11 ta mintaqaga (Primore o'lkasi, Naxodka shahri, Oltoy o'lkasi, Sankt-Peterburg shahri, Leningrad viloyati, Viborg shahri, Zelenograd shahri, Kaliningrad, Chita, Novgorod viloyatlari, Yahudiy avtonom okrugi) rasman EIH maqomi berildi⁹⁶. Ushbu hududlarning umumiy maydoni 1 mln. km² dan (Rossiya maydonining 7 %), aholisi 18,5 mln. kishidan (mamlakat aholisining 13 %) ortiq edi. Ushbu EIHLar o'z maydoni bo'yicha dunyoda tashkil etilgan barcha EIHLar maydonidan katta bo'lib, ularni tashkil qilish jarayoni maqsad va vazifalarning aniq belgilanmaganligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjud emasligi, mahalliy hokimiyatlarning EIHLar orqali mustaqillikka intilishi, imtiyozlarning mezonlarsiz berilishi va boshqa shu kabi xususiyatlarga ega bo'ldi.

1991-yilda qabul qilingan "RSFSRda chet el investitsiyalari to'g'risida"gi RSFSR qonunida EIH to'g'risidagi bo'limning mavjudligi bu jarayonni biroz tartibga keltirdi. Mazkur qonunga muvofiq EIHLar xorijiy kapitalni, ilg'or xorijiy texnologiyalarni, boshqaruv tajribasini jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

EIHda xorijiy investitsiyalar va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar uchun xo'jalik faoliyatining quyidagi imtiyozli tartibi joriy etildi:

- xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni ro'yxatdan o'tkazishning soddalashtirilgan tartibi;

- Rossiya Federatsiyasi territoriyasida xorijiy investorlar uchun o'rnatilgan soliq stavkalarining 50 % gacha miqdorda imtiyozli soliqqa tortish;

- erdan va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish uchun to'lov stavkasini pasaytirish;

- 70 yilgacha uzoq muddatli ijaraga olish huquqi;

- tovarlarni olib kirish va olib chiqishga bojxona to'lovlarini kamaytirish;

- xorijiy fuqarolarning chegaradan o'tish, kirish-chiqish (shu jumladan, vizasiz) tartibni soddalashtirish;

- butunlay xorijiy investorlarga tegishli korxonalar, shuningdek, 30 % dan yuqori

⁹⁶ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 230 с.

xorijiy investitsiyalarga ega bo'lgan qo'shma korxonalar uchun qonunda mo'ljallangan litsenziyasiz eksport-import qilish huquqi. Bunda o'z mahsulotini eksport qilishdan olingan valyuta tushumi butunlay ularning ixtiyorida qoladi.

1992-yilda iqtisodiyotni isloh qilish va xo'jalik faoliyatini liberallashtirish tufayli EIHLarni tashkil etishga munosabat o'zgardi. Rossiyada tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish to'risida qabul qilingan qonunlar EIHLarda xo'jalik faoliyatining maxsus rejimini nazarda tutmas edi. EIHLarda amal qilayotgan imtiyozlar va sharoitlarni hech kim bekor qilmagan bo'lsa-da, mamlakatning moliya va soliq organlari ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisobladi.

EIHLarning qonuniy-huquqiy holatidagi bunday noaniqliklar xorijiy investorlarning xavotirlanishiga olib keldi. 1992-yil iyunda Rossiya Federatsiyasi Prezidentining "Rossiya Federatsiyasi hududida erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish bo'yicha ayrim chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida xorijiy va rossiyalik investorlar uchun avvalgi hududiy imtiyozlarining saqlanib qolishining belgilab berilishi vaziyatning barqarorlashishiga olib keldi.

Shunga qaramay Rossiya Federatsiyasi hukumatida 11 ta ulkan territoriyaga ega bo'lgan hududlarni yopish va ularning imtiyozlarini bekor qilish fikri ustunlik qilar edi. Buning o'rniga mikrohududlarni, asosan, erkin bojxona hududlarini va eksport ishlab chiqarish hududlarini tashkil qilish konsepsiyasi ham ilgari surilgan edi. Ushbu hudud turlarini tashkil qilishning tanlanma strategiyasi asosida ularning qulay geografik joylashuvi, infratuzilmaviy qurilishlarga minimal xarajatlar bilan qo'shilish tamoyili yotadi. Natijada EIHLar atrofida noaniqlik muhiti, aniqrog'i katta bo'lmagan eksport hududlarigacha qisqartirish g'oyasi paydo bo'lgan edi. Ushbu istiqbolli g'oyalar ham qonuniy-huquqiy hujjatlar bilan asoslanmagan edi.

Hukumat ushbu ikki turdagi EIHLarni shakllantirish yo'nalishini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1993-1995 yillarda EIHLarda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va mahalliy korxonalar uchun investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha qator ishlarni amalga oshirdi. Bu ishlarga, birinchidan, xorijiy investitsiya asosida qurilgan korxonalar foydasiga soliq solishda imtiyozlar berish; ikkinchidan, qo'shimcha qiymat solig'ida, import qilingan texnologik uskunalarni maxsus soliqdan ozod qilish; uchinchidan, 1996 yil 1 yanvardan ish haqiga xarajatlarning me'yorida ortib ketishiga solinadigan soliqni bekor qilish va boshqalar kirgan edi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida Rossiyada EIHLarni tashkil qilish faollashdi. Qator mintaqalar me'yoriy-qonuniy hujjatlarning ishlab chiqilishini kutib o'tirmasdan, lokal funksional hududlarni tashkil qilish loyihalarini amalga oshirishga kirdi. "Naxodka" EIHL ma'muriyati birinchi bo'lib ushbu jarayonni boshladi. Hukumat qarorlariga tayanib, ajratilgan budjet kreditlaridan foydalanib, 1995-yilning yozida Naxodka ma'muriyati o'z territoriyasida birinchi bojxona hududini tashkil qildi. Moskva viloyatining hukumat rahbariyati, shuningdek, Sankt-Peterburg va Ulyanovsk shaharlarining hukumat rahbarlari ham ushbu yo'nalishda, biroq, federal hukumat yordamiga tayanmay erkin bojxona hududlarini tashkil etdi.

1999-yil fevralda Sankt Peterburgda 20 ta maxsus rejimga ega bo'lgan iqtisodiy rivojlanish hududlarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga investitsion loyihalarni faollashtirish, shaharda

xalqaro transport yuk majmuasining iqtisodiy samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida qator imtiyozlar berildi.

Boshqa hududlar avvalgi imtiyozlarni tiklash yoki yangi imtiyozlarga ega bo'lishga qaratilgan hatti-harakatlarni kuchaytirdi. Masalan, Kaliningrad viloyati 1995-yilning noyabr oyida Davlat Dumasi tomonidan "Kaliningrad viloyatida maxsus iqtisodiy hudud to'g'risida"gi federal qonunni qabul qilishiga erishdi. Ushbu qonun unga maxsus bojxona hududi tartibini qaytarib berdi. 1995-yilda "Kabardino-Balkariya" EIH, 1996-yilda esa "Ingushetiya" xalqaro biznes-markazi tashkil topdi. Ushbu hududlar klassik offshor hududlar sifatida tashkil etilgan edi.

2003-yilda Rossiyada 23 ta federal ahamiyatga ega bo'lgan EIHLar, shu jumladan, federal qonunlar asosida uchta hududda (Kaliningrad va Magadan viloyatlari, Ingushetiya) EIHLar faoliyat ko'rsata boshlagan edi (10.1-jadval).

10.1-jadval.

1990-2000 yillarda Rossiyada federal ahamiyatga ega bo'lgan erkin iqtisodiy hududlar⁹⁷

Erkin iqtisodiy hududlar	Tashkil etilgan vaqti	Me'yoriy hujjat
Primore o'lkasidagi "Naxodka" EIHi "Zelenograd texnopolis" EIHi Kaliningrad viloyatidagi EIHi	1990	RSFSR Oliy Sovetining rezolyutsiyasi
		RSFSR Oliy Soveti qarorlari
Chita viloyatidagi "Dauriya" EIHi Sankt-Peterburg erkin tadbirkorlik hududi Viborg erkin tadbirkorlik hududi	1991	RSFSR Oliy Soveti Prezidiumi raisining farmonlari
Oltoy o'lkasidagi EIHi Yahudiy AO'dagi "Eva" EIHi Novgorod viloyatidagi "Sadko" EIHi Kemerovo viloyatidagi "Kuzbass" EIHi "Saxalin" EIHi "Tog'li Oltoy" ekologik va iqtisodiy hududi	1991	RSFSR Oliy Soveti Prezidium qarori
		RSFSR Ministrlar Sovetining qarori
"Sheremetevo" erkin savdo hududi	1992	RF Prezidentining Farmonlari
"Moskva franko-port" va "Terminal franko-port" erkin bojxona hududlari	1993	
Kavkaz mineral suvlari – RF mineral manbalarini ekologik qo'riqxonasi tumani chegarasida joylashgan maxsus iqtisodiy hudud	1994	RF hukumatining qarori
"Kabardino-Balkariya" EIHi	1995	RF Prezidentining Farmoni

⁹⁷ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – С. 197-198.

“Ulyanovsk-Vostochniy” aeroportiga tutash territoriyadagi erkin bojxona hududi	1996	RF hukumatining qarori
“Ingushetiya” xalqaro biznes-markazi Kaliningrad viloyatidagi maxsus iqtisodiy hudud	1996	Federal qonun
Elabuga avtomobil zavodining “Elabuga” EIH “Osetiya” jadal iqtisodiy rivojlanish mintaqasi		RF hukumatining qarorlari
Xakasiya Respublikasidagi EIH		RF Prezidentining Farmoni
Kaliningrad viloyatidagi maxsus iqtisodiy hudud	1999	Federal qonun

Rossiyada tashkil topgan EIHLarni qisqa davr o‘tganligiga qaramasdan, ularning faoliyatini dastlabki natijalarini baholash mumkin bo‘ldi. Tashkil etilgan ko‘pchilik EIHLarning faoliyati xalqaro standartlar bo‘yicha tahlil qilinganda samarasiz chiqqan edi. Ya’ni xalqaro EIHLarni rivojlantirish assotsiatsiyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Rossiyada EIHLarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadlar samarasiz chiqqan edi. EIHLarni tashkil qilish bo‘yicha ishonchli qonuniy bazaning yo‘qligi ushbu EIHLar faoliyatining iqtisodiyotni barqarorlashtirish va o‘stirish, mintaqaviy rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish sohasidagi muammolarni hal etishga olib kelgan edi. EIHLardagi imtiyozlar mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va chet el investorlarini jalb qilish o‘rniga, ayrim guruhlarini yashirin subsidiyalash va shuningdek, xorijga ko‘rlab kapitallarni chiqib ketish usuliga aylanib qolgan edi.

Rossiyada EIHLarni tashkil qilishdagi asosiy kamchiliklardan biri bo‘lib, EIHLarni tashkil etishning Davlat konsepsiyasining va shuningdek, qonuniy va me‘yoriy hujjatlarning yo‘qligi bo‘ldi.

2005-yilning 10 martida Rossiya hukumati maxsus iqtisodiy hududlar to‘g‘risidagi qonun loyihasini ma‘qulladi. Ushbu qonun loyihasiga ko‘ra, mamlakatda ikki turdagi (sanoat-ishlab chiqarish va texnikani joriy etish hududlar) hududlarni tashkil qilish ko‘zda tutilgan edi. Birinchi turdagi sanoat-ishlab chiqarish hududlari, asosan, yirik sarmoyalar bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy turg‘unlikdagi tumanlarni, xususan, Uzoq Sharq va Sharqiy Sibirni rivojlantirish ko‘zda tutildi. Ikkinchi turdagi – texnikani joriy etish hududlar esa, asosan, iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida yirik ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etib, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishga qaratilgan edi.

Rossiyaning Iqtisodiyot va savdo vazirligi maxsus iqtisodiy hududlarning rezidentlarini 5 yil muddatga mulk va yer soliqlaridan ozod qilishni ko‘zda tutadi. Sanoat-ishlab chiqarish hududlarida tezlashgan amortizatsiya (oddiyga nisbatan 2 marta jadal) to‘lovlarini joriy etish, shuningdek, ilmiy xarajatlarga soliq to‘lovlarini kamaytirish ko‘zda tutilgan. Texnikani joriy etish hududlarida esa tashkil qilingan kompaniyalar uchun yagona ijtimoiy soliqning maksimal stavkasini 14 %gacha tushirish mo‘ljallandi.

EIHLar faoliyatidagi yana bir yirik muammolardan biri xorijiy investitsiyalar

faoliyatini qonuniy ta'minlash bilan bog'liqdir. Bu borada "RSFSRda xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi qonunning (1991 y.) qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq, ushbu qonun 90 yillarning birinchi yarmidayoq eskirgan bo'lib, "Rossiya Federatsiyasida xorijiy investitsiyalar to'g'risida"gi yangi federal qonun esa 1999-yilning iyulida qabul qilingan edi, xolos. Bundan tashqari, ushbu qonunda EIHLar zonasida xorijiy kapitallarning faoliyati to'g'risidagi bo'lim o'z o'rnini topmagan edi. EIHLarda xorijiy kapitallarning faoliyati to'g'risidagi hujjatlar, Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi, shuningdek, soliq, valyuta va ma'muriy qonunchiligining ayrim bo'limlari to'liq o'z aksini topmagan edi. Ayrim hollarda berilgan imtiyozlar bekor qilinardi. Bu esa xorijiy investorlarning ishonchsizligiga olib kelgan. 2004-yilda Rossiyada to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 26,1 mlrd. dollarni tashkil etib, bunda EIHLarning ulushi atigi 2 %ni tashkil etgan.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, EIHLarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun infratuzilmaviy baza mavjud bo'lishi kerak. Masalan, Xitoyda 1 dollar xorijiy investitsiyani jalb qilish uchun 5,5 dollar atrofidagi milliy mablag'larni transport tarmoqlariga, barqaror suv va energiya ta'minotiga, uy-joy qurilishiga sarflanadi. Rossiyada EIHLni obodonlashtirish uchun esa davlatning ko'magi nihoyatda chegaralangan. 1993-mayda Rossiya hukumati "Naxodka" EIHLga texnoparklarni tashkil etish, xarbiy aeroportni qayta jihozlash, samarali aloqa tizimini tashkil qilish va yuk ortish terminallarini qurish uchun 20,1 mln. rubl ajratdi. Shuningdek, "Saxalin", "Eva", Kaliningrad viloyatidagi "Yantar" EIHLari imtiyozli ravishda moliyalashtirildi. Boshqa EIHLarga esa moliyaviy yordam ko'rsatilmaganligi uchun ham ular samarali faoliyat ko'rsata olmagan edi.

EIHLarning juda katta territoriyalarga egaligi ham ularning faoliyatini qiyinlashtiradi. Rossiyada tashkil topgan dastlabki 11 ta EIHLning umumiy yer maydoni Fransiya va Ispaniya kabi davlatlarning birgalikdagi umumiy yer maydonidan ham kattadir. Bu esa ularning, hatto, texnik jihatdan bojxona hududi sifatida tashkil etilishiga ham katta to'sqinlik qiladi (bunda maxsus bojxona hududini tashkil qilish xarajatlari kelgusi daromadlardan ancha yuqori turadi).

Rossiya EIHLarining faoliyatidagi zaif tomonlaridan yana biri – bu federal va mahalliy darajadagi boshqaruvning samarasizligidir. Barcha EIHLar uchun xos bo'lgan moliyaviy va tashkiliy muammolardan tashqari umumiy bo'lgan quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ko'rishimiz mumkin. Ular birinchidan, korxonalarining xo'jalik aloqalaridagi uzilishlar ikkinchidan, xalqaro bozorlarda milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan himoyalansizligi uchinchidan, erkin tadbirkorlikni rivojlantirishda byurokratik va kriminal to'siqlarning mavjudligi to'rtinchidan, rossiyalik ishchi va rahbar xodimlarning malaka hamda tajribasining pastligi beshinchidan, hukumatga bo'lgan ishonchsizlik va boshqalarni ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib, Rossiya Federatsiyasida EIHLarni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos tajriba to'plangan bo'lib, ularning dastlabki tashkil etilishidan to bugungi kunga qadar EIHLar sonining ko'payib va kamayib turganligini (ochilib, yopilib) ko'rish mumkin. Lekin, hozirgi vaqtga kelib ular faoliyatida ma'lum

rivojlanishlar kuzatilmoqda va samarali faoliya ko'rsatayotgan EIHLar saqlanib qolindi. Shunga ko'ra, Rossiya Federatsiyasida hozirgi vaqtda jami 25 ta MIHLar mavjud bo'lib, ularda 660 ta rezident faoliyat ko'rsatmoqda hamda ularda 25 mingdan ziyod ishchi-xodimlar mehnat faoliyatini olib bormoqdalar. Endilikda Rossiya Federatsiyasi bu ko'rsatkichlarni yanada rivojlantirish ustida faol ish olib bormoqda.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, ijara, investor, tovar, tashqi iqtisodiy faoliyat, hukumat, investitsiya, samara.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. RFda EIHLar tashkil etish o'tgan asrning 90 yillarida boshlandi. 1989-yildan 1991-yilning iyun oyigacha jami 11 ta EIHL faoliyat ko'rsatdi. Ularning umumiy maydoni 1 mln. km² dan (Rossiya maydonining 7 %), aholisi 18,5 mln. kishidan (mamlakat aholisining 13 %) ortiq edi. Ushbu EIHLar o'z maydoni bo'yicha dunyoda tashkil etilgan barcha EIHLar maydonidan katta bo'lib, ularni tashkil qilish jarayoni maqsad va vazifalarning aniq belgilanmaganligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjud emasligi, mahalliy hokimiyatlarning EIHLar orqali mustaqillikka intilishi, imtiyozlarning mezonlarsiz berilishi kuzatildi.

2. RFda EIHLar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish dastlabki 15 yil davomida birmuncha samarasiz natijalar bilan xotirlanadi. Bu vaqtda mamlakatning turli hududlarida bir qancha EIHLar tashkil etildi. Biroq, ular faoliyati o'z samarasini bermadi, aksincha, xorijga kapital chiqib ketishiga xizmat qildi. Bugungi kunda mamlakatda jami 25 ta MIHLar mavjud bo'lib, ularda 660 ta rezident hamda 25 mingdan ziyod ishchi-xodimlar mehnat faoliyat olib bormoqda.

3. RFda EIHLar faoliyati samaradorligini oshirishda ularga berilgan imtiyozlar muhim o'ringa ega. Bu ularga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, shunday bo'lsa-da, ular yetarlicha o'z samarasini bermadi, chunki, mamlakatda EIHLar sonining ortib va kamayib turish holatlari kuzatilib turdi. Natijada tashkil etilgan EIHLar iqtisodiyot uchun birdek ahamiyat kasb etmadi.

Nazorat uchun savollar:

1. RFda EIHLarni tashkil etish qaysi vaqtlardan amalga oshirilishi kuzatildi?
2. RFda EIHLarni tashkil etishda qanday xususiyatlar kuzatildi?
3. RFda EIHLarni tashkil etishda qanday yondashuvlar kuzatildi?
4. RFda EIHLar faoliyati va ulardagi imtiyozlarga baho bering.
5. RFda EIHLni tashkil etish va rivojlantirishda qanday xato va muammolar kuzatildi?
6. Bugungi kunda RFda qanda EIHLar faoliyat olib bormoqda?

10.2. Rossiya Federatsiyasida erkin iqtisodiy hududlar turlari

Rossiya davlati dunyodagi eng yirik hududga ega va iqtisodiy jihatdan yuqori o'rinlarda turadigan davlat hisoblanadi. Rossiyada EIHLarning tashkil etilishi o'ziga

xos tarix va maqsadlarga ega edi. Rossiya Federatsiyasida EIHLarni yaratish quyidagi vazifalarni echishga yordam berishi lozim edi:

- Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotiga chet el kapitali, texnologiyalari, mehnatni tashkil etishning shakl va uslublarini jalb etish;

- eksport bazasini rivojlantirish va valyuta tushumlarini oshirish;

- ilmiy-texnik taraqqietni iqtisodiyotga joriy etishni tezlashtirish;

- hududiy darajada xo‘jalik yuritishning yangi shakllarining sinash;

- mahalliy mutaxassislarni xalqaro biznes usul va uslublariga amaliy o‘qitish.

Rossiyada maxsus iqtisodiy zonalarining tizimli rivojlanishi 2005-yildan, 2005-yil 22-iyulda “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan boshlandi.

Mazkur qonun (4-modda) asosida bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida quyidagi turlardagi EIHLar tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatmoqda:

1. Sanoat-ishalb chiqarish maxsus iqtisodiy hududlari.

2. Texnik-tadbiq etish maxsus iqtisodiy hududlari.

3. Turistik-rekreatsion maxsus iqtisodiy hududlari.

4. Port maxsus iqtisodiy hududlari.

EIHLarda qulay muhitni ta‘minlash uchun maxsus ekologik va yuridik imtiyozlar o‘rnatilgan. Ularga quyidagilar kiradi:

- chet el investitsiyalariga ega korxonalarini ro‘yxatga olishning osonlashtirilgan tartibi;

- imtiyozli soliq rejimi – chet el investorlari uchun Rossiya hududidagi soliq stavkalarining 50% gacha bo‘lgan imtiyozli stavkalar bo‘yicha soliqqa tortish;

- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish uchun to‘lov stavkalarini pasaytirish;

- 70 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli ijara huquqini taqdim etish.

Shuningdek, tovarlarni kiritish va chiqarishga pasaytirilgan bojxona bojarini o‘rnatish bilan maxsus bojxona rejimi o‘rnatilgan, chet el fuqarolaridan kirish va chiqishida chegarani yo‘ulga qo‘yilgan. EIHLarda chet el kapitali 30% va undan ortiq bo‘ulgan korxonalar eksportidan tushgan valyuta tushumi to‘uliq o‘z ixtiyorida qoladi.

Har bir yangi tashkil etilayotgan EIH rivojlantirishning majmuaviy dasturiga, ya‘ni barcha xo‘jalik obyektlarini rivojlanish rejasiga, ega bo‘lishi lozim. Amaliyot ko‘rsatishiga har bir hudud faoliyati uchun quyidagilar mavjud bo‘lishi lozim:

- dastur amalga oshishiga mas‘ul va boshqaruv organini (hudud kengashi) shakllantiruvchi, yirik aksiyadorlik jamiyati (davlat ishtiroki bilan);

- hudud vazifalarini xal etish uchun investitsiya jalb qiluvchi, investitsiyaviy sug‘urta jamg‘armasi (sug‘urta jamiyati);

- hudud budjetini shakllantiruvchi, budjet va kredit mablag‘laridan foydalanishni hamda respublika budjeti bilan o‘zaro munosabatlarni nazorat qiluvchi, hudud markaziy banki;

- soliqqa tortish, litseniyalash, bank faoliyati, mehnat va ijtimoiy masalalarni tartibga soluvchi, hudud qonunchiligi.

1991-yilda Erkin iqtisodiy hududlar rivojlanishining xalqaro Assotsiatsiyasini

(EIHRXA) ta'sis etilishi katta ahamiyai kasb etdi. Uning asosiy maqsadi hududlarni boshqarish uslublarini sinash, me'yoriy-huquqiy baza va moliyaviy-xo'jalik infratuzilmasini yaratish, loyihalarni amalga oshirish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. U 100 tadan ortiq ta'sischilarga ega (respublikalar, banklar, shaharlar, institutlar).

Hozirgi kunda Naxodka, Kaliningrad oblasti va Sankt-Peterburgdagi EIHLar nisbatan faol rivojlanmoqda. Qolgan hududlar shakllanish bosqichida turibdi.

Uzoq Sharq iqtisodiy tumani Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar bilan tadbirkorlik aloqalarini faollashtirish uchun katta istiqbollarga ega. U o'z hududida turli xil qushma korxonalarini va EIHLarni shakllantirishi uchun qulay sharoitlarga ega. Ulardan eng yiriklari – “Naxodka” va “Saxalin” EIHLari. “Naxodka” EIHL Rossiya birinchi bo'lib, 1990-yil oktabrda tashkil topgan. Ushbu hududning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- qulay geografik joylashuv va rivojlangan transport tarmog'i (Transsibir magistralining oxirigi punkti, to'rtta yirik faoliyat yurituvchi port);

- Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish borasida, Rossiya Uzoq Sharqida real raqobatdoshlar yo'qligi;

- muayyan tashqi iqtisodiy faoliyat tajribasi mavjudligi: yaqin vaqtgacha Naxodka Uzoq Sharqdagi yagona port edi, Rossiya yillik eksportining $\frac{1}{4}$ qismgacha “Naxodka” portidan o'tgan;

- cheklangan hudud (ayrim “gigant” EIHLarga nisbatan) (5 ming km² dan kam).

“Naxodka” EIHL salohiyatini quyidagi ma'lumotlar tavsiflaydi. Har yili muzlamaydilgan portlarga – neft quyish, baliq, savdo maqsadlarida 2000 tagacha kemalar keladi, umumiy yuk aylanmasi 50 mln. tonnani tashkil etadi. Sharqiy porti Osiyo-Tinch okeani mintaqasida, Gonkongdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu erda 8 mln. tonalik ko'mir prichallari va 2 mln. tonalik konteyner majmuasi faoliyat yuritmoqda. Yiliga 400-600 ming ta konteyner qayta ishlanadi. Qayta qurish ishlaridan so'ng portda 60 tagacha prichal bo'lib, ular yiliga 40 mln. tonna import donini qayta ishlash bo'yicha majmuani barto etish rejalashtirilgan.

3 mln. tonna o'g'itni eksport qilish terminalini barpo etish uchun “Doyche Bank”dan 100 mln. dollar miqdorida kredit olingan.

Mutaxassislar fikricha, port orqali yuklarning o'tish keyinchi 5 yil ichida 8 mln. tonnaga oshishi, yillik daromad esa chet el investitsiyalariga ega bir necha yuz korxonalar ro'yxatga olingan – Uzoq Sharqda tashkil etilgan bunday korxonalarining yarmidan ko'pini tashkil etadi.

“Saxalin” EIHLga Saxalin oblastining ma'muriy chegaralari va kontinental shelf tumanlari kiradi. EIHL doirasida “Kuril” Janubiy Kuril va Kuril tumanlarining ma'muriy chegaralarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda “Saxalin” EIHL doirasida 23 ta qo'shma korxonalar yaratilgan. Hudud chegarasida imtiyozli soliq va bojxona rejimi, eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibi, maxsus davlat boshqaruv organi – “Saxalin” EIHL ma'muriyati faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiy resurslardan ratsional foydalanish maqsadiga EIHLda tabiiy resurslarni o'zlashtirish bo'yicha davlat investitsion korporatsiyasi faoliyat yuritmoqda. Erkin tadbirkorlik, kichik biznes

hamda fermer xo'jaliklariga bank xizmat ko'rsatishi va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yaxshilash uchun chet ellik investorlarni jalb qilgan holda EIHDa mintaqaviy rivojlanish banki (Saxalin rivolanish banki) tashkil etildi. Hududda neft va gaz, qimmatli metalla rva boshqa tabiiy resurslarni qidirish va ishlab chiqish EIH "Saxalin" ma'muriyati tomonidan tartibga solinadi. Bank va sug'urta sohalarida, chet el investitsiyalarini jalb qilgan holda qushma korxonalar tuzishga ruxsat berilgan. Yoqilg'i-energetika va mineral xomashyo resurslar konlaridan foydalanish bilan bog'lik xo'jalik faoliyati litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

"Saxalin" EIH baliq ovlash, baliq va dengiz mahsulotlarini qayta ishlash, gaz va kimyo, mahalliy va chet el turizmi, mexmonxona xo'jaligiga ixtisoslashuvi lozim.

Saxalin viloyatining "Kuril" subhududida korxonalar va tashqilotlarga o'zi ishlab chiqargan mahsulotdan hamda Kuril baliq ovlash tumanida baliq va dengiz mahsulotlarini ovlash limitlaridan mustaqil foydalanish huquqiga ega. Shuningdek, ular o'z valyuta tushumini ichki bozorda majburiy sotishdan ham ozod etilgan. "Kuril" subhududining ixtisoslashuvi: baliq ovlash, baliq va dengiz mahsulotlarini qayta ishlashdir.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, sanoat-ishlab chiqarish maxsus iqtisodiy hududlari, texnik-tadqiq etish maxsus iqtisodiy hududlari, turistik-rekreatsion maxsus iqtisodiy hududlari, port maxsus iqtisodiy hududlari.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Amaldagi 2005-yil 22-iyulda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq (4-modda), Rossiya Federatsiyasida EIHLarning 4 ta turi mavjud: sanoat-ishlab chiqarish maxsus iqtisodiy hududlari, texnik-tadqiq etish maxsus iqtisodiy hududlari, turistik-rekreatsion maxsus iqtisodiy hududlari, port maxsus iqtisodiy hududlari. Bu turdagi tashkil etilgan EIHLar umumiy soni hozirda 25 tani tashkil etadi.

2. Rossiya Federatsiyasida EIHLarni tashkil etish eksport bazasini rivojlantirish va valyuta tushumlarini oshirish, ilmiy-texnik taraqqiyotni iqtisodiyotga joriy etishni tezlashtirish, hududiy darajada xo'jalik yuritishning yangi shakllarining sinash va mahalliy mutaxassislarni xalqaro biznes usul va uslublariga amaliy o'qitish vazifalarini echishda yordam berishi lozim.

3. Rossiya Federatsiyasida tashkil etilgan EIHLar 2005-yilda qabul qilingan tegishli qonun asosida faoliyat ko'rsatib, o'z samarasini berib kelmoqdalar. Endilikda mamlakatda soni 33 tagacha chiqqan EIHLar ichidan samarali faoliyat ko'rsatuvchilari (25 ta) saqlanib qolingan holda, ularga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va budjetdan mablag'lar ajratish hisobiga infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Rossiya Federatsiyasida EIHLarni tashkil etish qaysi qonun asosida amalga oshiriladi?

2. Rossiya Federatsiyasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan?

3. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, Rossiya Federatsiyasida EIHLarning nechta turi tashkil etilishi mumkin?
4. Rossiya Federatsiyasida EIHLarning oldiga qanday vazifalar qo'yilgan?
5. Rossiya Federatsiyasida EIHLar turlari nomlarini aytib bering.
6. Rossiya Federatsiyasida qaysi asosiy EIHLarni bilasiz?

10.3. Oltoy erkin ekologik hududining tashkil etilishi, uning salohiyati va huquqiy, iqtisodiy munosabatlari

1997-yil dekabr oyidan boshlab Oltoy erkin ekologik hududi garchi faoliyat ko'rsata boshlagan bo'lsa-da, aslida ushbu EIHni tashkil topishida 1991-yil 25-mayda chiqargan sobiq Rossiya hukumatining "Oltoy o'lkasi – erkin iqtisodiy hududining xo'jalik va huquqiy mavqei to'g'risida"gi qarori muhim rol o'ynagan edi.

Oltoy o'lkasi G'arbiy Sibirning Janubiy-Sharqida joylashgan bo'lib, Novosibirsk va Kemerovo viloyatlari bilan, Qozog'iston va Oltoy Respublikasi bilan chegaralanib turadi. Ekologik hududning umumiy er maydoni 168 ming km² ni tashkil etib, o'lkada 12 ta shahar, 14 ta shahar tipidagi poselka, 7 ta qishloq tumanlari, shu jumladan, nemis milliy tumani ham faoliyat ko'rsatadi. Oltoy o'lkasining markazi Barnaul shahri bo'lib, o'lkada 110 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Jumladan, aholining 91 %ni ruslar, 4 %ni nemislar, 3 %ni ukrainlar, 0,4 %ni beloruslar va qozoqlar, 0,3 %ni mordvaliklar, tatarlar va chuvashlar, 0,1 %ni esa oltoyliklar tashkil etadi.

O'lkaning Sharqiy tomonlari tog'li hududlar bilan, G'arbiy tomonlari esa cho'l landshaft zonalari bilan o'ralgan. O'lkada qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay issiq iqlim bo'lib, asosan, sabzavot va bog'dorchilik mahsulotlari yetishtiriladi. O'lka territoriyasidan oqib o'tuvchi Biya va Katun daryolari qo'shib, Sibirning yirik Ob daryosini tashkil etadi. O'lkada 13 mingdan ortiq ko'llar bo'lib (9 mingga yaqini chuchuk suvli ko'llar hisoblanadi), ularning eng kattasi Kulundin ko'li (maydoni 728 km²) hisoblanadi. Oltoy tog' tizmasida esa tabiatdan juda chiroyli Aya nomli ko'l ham joylashgan.

Oltoy o'lkasining ko'pchilik joylari qalin o'rmonlardan iborat bo'lib, bir necha yuz ming kilometrlab maydonlar o'ziga xos o'simlik dunyosi bilan qoplangan. O'lka o'simlik va hayvonot dunyosiga juda boy bo'lib, unda 300 ga yaqin turdagi oziqlanuvchi hayvonlar, 300 dan ortiq turdagi qushlar va sudralib yuruvchilar yashaydi. Suv havzalari esa baliqlarga boy.

XVII asrda Oltoy o'lkasi birinchi marta ruslar tomonidan kashf etilgan bo'lib, polimetall ruda konlarining ochilishi bilan o'lkada sanoat rivojlana boshladi. Oltoy o'lkasida (ma'nosi "Oltin tog'lar") sanoatni rivojlanishida taniqli rus sanoatchisi A.N.Demidovning hissasi katta bo'lib, u birinchi bo'lib, qazib olingan yer osti boyliklarini o'lkaning o'zida qayta ishlashga erishgan edi. Bu davrda Kalivano-Voskresensk (1729 y.), Barnaul (1740 y.) kabi zavodlar qurilib ishga tushirildi. Zavodlarda asosan, oltin, kumush va mis rudalari qayta ishlanganligi sababli ham, Oltoy o'lkasi qadimgi Rusiyada yuqori rentabelli mintaqalardan biri hisoblangan. Barnaul zavodi qurilgan posyolka o'rnida keyinchalik Barnaul shahri bunyod etildi.

O'lkada fan va texnika, madaniyat rivojlana boshladi. Jahonga mashhur bug'

mashinasining va gidroqurilmaning yaratilishi ham shu o'lkada yashab o'tgan Kozma Frolov va I.I.Polzunovlarning nomi bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda Oltoy o'lkasida 500 dan ortiq sanoat korxonalar faoliyat ko'rsatib turibdi. Sanoatning rivojlangan tarmoqlari bo'lib mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat korxonalari, kimyo va neftni qayta ishlash sanoati, to'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlar, hamda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati korxonalari hisoblanadi. O'lkada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarning 30-35 % mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmoqlariga to'g'ri kelib, bular haydov va trevalli traktorlar, kombayn va traktor dvigatellari, stanoklar, bug' qozonlari, burg'ulash mashinalari va yuk tashish uchun mo'ljallangan magistral vagonlar, dizelli generatorlar, preslovchi mashina va stanoklar, avtomobil va traktorlarning generatorlari, haydov moslamalari va qishloq xo'jaligi mashinalari uchun ehtiyot qismlardan iboratdir.

Oltoy o'lkasida yoqilg'i-energetika sanoat majmuasining rivojlanishi xo'jalik yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'lkada yiliga 12,4 mln. kVt soat elektr energiyasi iste'mol qilinib, uning 50 % o'lkaning o'zida ishlab chiqariladi. O'lkada 8 ta yirik issiqlik elektrostansiyasining markazlari bo'lib, uning 4 tasi RF energetika vazirligi tarkibiga kirsa, 4 tasi esa o'lkaga tegishli blokstantsiyadir. O'lkada elektr uzatuvchi liniyalarning umumiy uzunligi 75 ming kilometrni tashkil qilsa, kabel qurilmalarning uzunligi 130 km ni issiqlik trassalarining uzunligi esa 172 km ni tashkil etadi. Issiqlik elektrostansiyalarning (Zarin issiqlik elektroenergiyasi markazidan tashqari) asosiy qismi toshko'mir va mazut bilan ishlaydi. 1995-yilda o'lkaga tabiiy gazning kirib kelishi munosabati bilan issiqlik elektrostansiyaning bir qismi gaz bilan ishlay boshlangan edi.

Oltoy o'lkasi yer osti qazilma boyliklarga boy bo'lgan iqtisodiy tumandir. O'lkada polimetallar (zahirasi 50 mln. tonna), osh tuzi, toshko'mir, soda va mirabilit konlarining katta zahirasi mavjud. Bundan tashqari temir rudasi, qimmatbaho nodir metallarning zahiralari borligi o'lka makroiqtisodiyotini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda Oltoy o'lkasi noyob qazilma boyliklarga, ya'ni marmar, granit, mineral tuzlarga va ichimlik suvlarga boy bo'lib, davolash balchiqlari bilan ham butun dunyoga mashhurdir.

Oltoy o'lkasida kimyo va neft kimyosi sanoat tarmoqlari ham rivojlangan soha bo'lib, o'lkada sintetik tola va iplar, sintetik materiallar, samolet va avtomobillar uchun shinalar, rezina va asbesttexnika mahsulotlari, texnik uglerod kislotasi va boshqa kimyoviy mahsulotlar (erituvchi suyuqlik, bo'yoqlar va hokazolar) ishlab chiqariladi. Maishiy kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish hissasiga umumiy ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 12 % to'g'ri keladi.

Sanoat ishlab chiqarish strukturasi qora metallarning yalpi salmog'i 95 %ni tashkil etadi. 1984-yilda Oltoy koksokimyo zavodining qurilishi (hozirgi "Oltoykoks" hissadorlik jamiyati) MDH davlatlarining metallurgiya kombinatlarini rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. O'lkada yengil va to'qimachilik sanoat korxonalari, shuningdek, qishloq xo'jaligi ham rivojlangan sohadir.

Oltoy o'lkasining madaniyati ham ko'p asrlik tarixga ega. O'lkada toshtaroshlik san'ati, rassomchilik madaniyati, fan-texnika, sayyohlik va turizm sohalari ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Oltoy o'lkasi tabiiy resurslarga boy hudud bo'lib, EIHni tashkil etish borasida o'lka ma'muriyati investitsiyalarni, asosan, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqsimlab kelmoqda:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashga;
- xalq iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarishga;
- qurilish va konstruksiyaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishga;
- mudofaa kompleksi korxonalarini ta'mirlab, mashinasozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishga;
- o'rmon xo'jaligi va yog'och materiallarni qayta ishlashga;
- temir rudalarni, ko'mir va qimmatbaho toshlarni, marmar va oltin rudali toshlarni qayta ishlash sanoat korxonalariga;
- kimyo va neft-kimyo sanoat kompleksiga qarashli korxonalarini qayta ta'mirlab, shisha va shishadan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga;
- to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarishga;
- turizm sohasini va shuningdek, sanatoriya va kurort tumanlarni rivojlantirishga va hokazolarga.

Oltoy erkin-ekologik hududni tashkil etilishida va tabiiy yer osti va yer usti resurslarga boyligi, turizm, sanatoriya va kurort industriyasining rivojlanganligi, chuqur iqtisodiy islohotlarni o'tkazilishi, chet el kapitali uchun huquqiy kafolatlarning mavjudligi va shuningdek, soliq imtiyozlarga egaligi kabi bir qator obyektiv va subyektiv omillar muhim rol o'ynamoqda.

Oltoy erkin-ekologik hududining tashkil etilishida Rossiya Federatsiyasi bilan Oltoy o'lkasining hukumat boshliqlari tomonidan imzolangan "Rossiya Federatsiyasi hukumat organlari tomonidan Oltoy o'lkasining hukumat organlariga berilgan huquq va kafolatlarini cheklash to'g'risidagi" shartnoma va shuningdek, Rossiya Konstitutsiyasining 72-moddasiga asosan, "boshqarishdagi qo'shma hamkorlik" to'g'risidagi qoidalar muhim ahamiyat kasb etgan edi.

1996-yilda Oltoy o'lkasining ma'muriyati sobiq RSFSR Oliy Sovetining "Oltoy o'lkasi EIHning xo'jalik huquqiy maqomi to'g'risida"gi (1991 y.) farmoyishi va sobiq RSFSR Ministrlar Sovetining "Oltoy o'lkasi erkin iqtisodiy hududini rivojlantirishni kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari to'g'risida"gi qarori (1991 y.), shuningdek, Rossiya hukumatining 1996-yil 21-oktabrdagi 1256-sonli "Oltoy o'lkasi iqtisodiyotidagi turg'unlikni bartaraf etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi hujjatlari asosida "Oltoy erkin iqtisodiy hududi to'g'risida" qonunni qabul qildi. Oltoy EIHni tashkil etishning asosiy maqsadi – bu Oltoy o'lkasi iqtisodiyotini rivojlantirish, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalangan holda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, o'lkada mavjud bo'lgan rekreatsion potensialdan unumli foydalanish, chet el investitsiyasini keng jalb etish va takomillashtirish, o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirish, aholi migratsiyasini oldini olish, aholi turmush darajasini ko'tarish va yangi ish joylarni tashkil etishdan iborat edi.

Oltoy erkin-ekologik hududning tartiboti bo'yicha huquqiy asoslari bo'lib quyidagilar hisoblanadi.:birinchidan, Oltoy EIHning zonasida Rossiya Federatsiyasi va Oltoy o'lkasining qonunlari amal qilishi; ikkinchidan EIHning lokal, bojxona va

boshqa ko‘rinishlari bo‘yicha amal qilish tartiblari o‘lkaning qonun qabul qiluvchi tashkilotlari tomonidan o‘lka ma‘muriyatining taklifiga asosan, belgilab berilishi; uchinchidan hukumatning va Oltoy o‘lkasining mahalliy boshqaruv organlari EIHDa “Oltoy erkin iqtisodiy hududi to‘g‘risida”gi qonunda ko‘rsatilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida faoliyat ko‘rsatishi; to‘rtinchidan Oltoy EIHni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar o‘lka ma‘muriyati tomonidan amalga oshirilishi; beshinchidan Oltoy EIHDa federal qonunlarga zid keluvchi hatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik; oltinchidan er va tabiiy boyliklarga egalik qilish huquqi Rossiya Federatsiyasi qonunlariga asosan, va shuningdek, o‘lkadagi o‘zgarishlar asosida tartibga solib turilishi; yettinchidan ekologiyani zararsizlantirish va tadbirkorlikni qonunda man etilgan turlari bilan shug‘ullangan huquqiy va jismoniy shaxslar Rossiya Federatsiyasi va Oltoy o‘lkasining qonunlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi va boshqalar hisoblanadi.

Oltoy EIHning faoliyat yuritish mexanizmi esa quyidagi qonun-qoidalar asosida belgilab berilgan: birinchidan Oltoy EIHni boshqarish Davlat tashkiloti hisoblanmish o‘lka ma‘muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy hududning o‘zida esa xo‘jalik boshqaruvi uchun hissadorlik jamiyatlari ko‘rinishida hududiy ma‘muriyat tashkil etilib, unga aksiyalar paketining 51 %ni ushlab turish huquqi berilgan; ikkinchidan, Oltoy EIHning ma‘muriyati aksionerlar yig‘ilishida o‘lka ma‘muriyatining taklifiga ko‘ra 4 yil muddatga saylangan bosh direktor tomonidan boshqarilishi va boshqalar.

Bundan tashqari, Oltoy EIHning ma‘muriyati o‘z faoliyati doirasida:

- birinchidan, Oltoy EIHni rivojlantirish dasturini ishlab chiqib uni amalga oshiradi;
- ikkinchidan, chet el va mahalliy investorlarning takliflarini ekspertizadan o‘tkazadi;
- uchinchidan, Oltoy EIHning faoliyatini tartibga solib turuvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasini ishlab chiqadi;
- to‘rtinchidan, Oltoy EIHning faoliyat yuritishini tashkil etish va rivojlantirish maqsadida o‘lkaning qonun chiqaruvchi tashkilotlariga iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar majmuasi (shuningdek, soliq va bojxona to‘lovlari bo‘yicha ham) taqdim etadi;
- beshinchidan, Oltoy EIHni rivojlantirish uchun qimmatbaho qog‘ozlar emissiyasini muomalaga chiqarish, kredit olish va chet el investitsiyasini jalb qilish bilan shug‘ullanadi;
- oltinchidan, xo‘jalik subyektlarini EIHning ishtirokchisi sifatida ro‘yxatga olib, ular bilan xo‘jalik shartnomalarini imzolaydi;
- yettinchidan, EIHDa xo‘jalik subyektlarining moliyaviy resurslarini yangi korxonalar va yangi ish joylarni tashkil etish uchun yo‘naltirilishi ustidan nazoratni olib boradi;
- sakkizinchidan, kichik biznes va o‘rta tadbirkorlikni tashkil etib, uni rivojlantirish bilan shug‘ullanadi;
- to‘qqizinchidan, hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga e‘tiborni qaratadi;

- o‘ninchidan, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga e‘tiborni qaratadi; o‘n birinchidan, Oltoy EIH uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshiradi;

- o‘n ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi; o‘n uchinchidan, turli xil mavzularda maslahatlar berishni tashkil etadi o‘n to‘rtinchidan EIHning federal tashkilotlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarda ishtirok etib, muammolarni birgalikda hal etish kabi bir qator funksiyalarni bajarish huquqiga ega hisoblanadi.

Oltoy erkin-ekologik hududini tashkil etishda turli xildagi mulk va tashkiliy huquqqa ega bo‘lgan yuridik tashkilotlar va korxonalar ishtirok etib kelmoqda. Ushbu hududning ishtirokchilari uchun barcha qulayliklarga ega bo‘lgan soliq imtiyozlari va huquqiy asoslar ham yaratib berilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- Oltoy EIHning ishtirokchilari uchun qonunda belgilangan barcha turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi berilgan;

- Oltoy EIHning ishtirokchilari o‘z faoliyatini amalga oshirishi davrida quyidagi shart-sharoitlarga e‘tibor qaratmog‘i lozim:

- o‘lkada istiqomat qilayotgan aholining sog‘ligi va turmush tarzi uchun barcha shart-sharoitlarning yaratib berilishi;

- o‘lkaning tabiiy, tarixiy va madaniy merosini asrab avaylashi;

- Oltoy EIHni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy manfaatdorlik asosida rivojlantirishi;

- o‘lkada ijtimoiy-iqtisodiy xarakterga ega bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalarining qurilishini to‘lig‘icha ekspertizadan o‘tkazish va boshqalar.

Oltoy EIHda ro‘yxatga olingan xo‘jalik subyektlari o‘z hohishlari bilan moliyaviy resurslarini birlashtirish maqsadida ittifoqlar, assotsiatsiyalar va korporatsiyalarga birlashishlari ham mumkin. Bunday birlashuvlar faqat monopoliyaga qarshi siyosatga zid kelmasligi lozim.

EIH tarkibida chet el investitsiyalari bilan hamkorlikda korxonalar, bank tizimlari va sug‘urta kompaniyalarini tuzish mumkin. Bunda tashkil topgan korxonalarining ba‘zi-birlari to‘lig‘icha xorijiy investitsiyalari asosida ham tashkil etilgan bo‘lishi mumkin.

EIH ishtirokchilarining faoliyati hudud ma‘muriyati bilan tuzilgan maxsus shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lib, bu shartnoma o‘zaro tenglik, manfaatdorlik va hohish tamoyillari asosida 5 yil muddatga tuzilishi mumkin. Bunda xo‘jalik subyektlarining faoliyati to‘g‘risidagi shartnoma, o‘z mohiyatiga ko‘ra, birinchidan, Oltoy EIHni boshqarish va maqsadlarini tan olishni; ikkinchidan, Oltoy EIHning ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni; uchinchidan, Oltoy EIHning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy maqomini bajarishda xo‘jalik subyektlarining majburiyatini; to‘rtinchidan, Oltoy EIHning a‘zolik badallarini o‘z vaqtida to‘lab borishligini; beshinchidan, hudud ishtirokchilarining xo‘jalik, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal etishdagi majburiyatlarini; oltinchidan, shartnomaning bajarilishida tomonlarning javobgarligini; yettinchidan, shartnomani bekor qilinish shartlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Oltoy EIHning ma‘muriyati bilan hudud qatnashchisi o‘rtasidagi

investitsiyalarni hududga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish to'g'risidagi shartnoma odatda 5 yil muddatga imzolanadi. Bu shartnomaga ko'ra hudud ma'muriyati Oltoy EIHi to'g'risidagi qonunga amal qilgan holda ishtirokchi davlatlar tomonidan kiritilgan investitsiyalarni himoya qilishi, Oltoy o'lkasini rivojlantirishning Davlat dasturini qo'llab-quvvatlashi, er va tabiiy boyliklardan Rossiya qonunchiligida ko'rsatilgan majburiyatlar asosida foydalanishni o'z zimmasiga oladi.

Oltoy iqtisodiy hududida Rossiyalik va chet ellik investorlar quyidagi huquqlarga ega hisoblanadi. Rossiyalik va chet ellik investorlar Oltoy EIHga quyidagi holatlar bo'yicha investitsiya kiritish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Birinchidan, Rossiya va boshqa davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari tomonidan tashkil etilayotgan qo'shma korxonalarda paychilik asosida ishtirok etishi mumkin; ikkinchidan, chet ellik investorlar o'z mablag'lari hisobidan korxonalar tashkil etishi mumkin; uchinchidan, Rossiya Federatsiyasi va Oltoy o'lkasi qonunlariga binoan korxonalarni, bino va muassasalarni sotib olishi yoki emissiyaga chiqarilgan aksiyalarni, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni paychilik asosida boshqarishi mumkin; to'rtinchidan, qonunda ko'rsatilgan tadbirkorlik faoliyatining barcha turlari bilan shug'ullanishi mumkin.

Oltoy EIHning ishtirokchilari quyidagi soliq imtiyozlariga ega bo'lib, birinchidan, Oltoy EIHning ishtirokchilari 5 yil muddatga o'lkaning budjetiga to'lanadigan barcha soliqlardan ozod qilinishi bilan bir qatorda Federal soliqlarning ham bir qismidan ozod qilingan. Faqatgina tabiiy resurslardan foydalanganligi uchun, litsenziya olish uchun, ekologiyaga yetkazilgan zararni qoplash uchun, nafaqa va bandlik fondlari uchun, ijtimoiy ta'minot fondi uchun va shuningdek, aholi daromadidan olinadigan soliqlargina Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda amalga oshiriladi xolos. Ikkinchidan, Oltoy EIHning ishtirokchilari 10 yil muddatga foyda va qo'shimcha qiymat solig'ini o'lka budjetiga tushadigan qismidan, ya'ni energetika, aloqa vositalari, aeroportlar, yo'llar, gaz o'tkazish tarmoqlari, ekologik tizimni qayta tiklash, ijtimoiy infratuzilma, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, mehmonxonalar va turistik komplekslar, resurslarni tejab, chiqindisiz ishlaydigan korxonalarni qurish, texnik spirt va dori-darmon ishlab chiqaradigan obyektlarni qurish va hokazolar soliqdan ozod etiladi. Ushbu korxonalar 10 yildan so'ng esa keyingi 5 yil mobaynida yuqorida ko'rsatilgan soliq turlarining 50 %ni to'laydi. Uchinchidan, Yuqorida ko'rsatilgan imtiyozlar tugagandan so'ng – ishtirokchilar tomonidan o'lka budjetiga kelib tushadigan mablag'larning barchasi Oltoy EIHni rivojlantirish, qayta investitsiyalash, xo'jalik subyektlariga kreditlar berish va shuningdek, EIHni rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun sarf qilinadi.

Shunday qilib, Oltoy EIHni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishi ishlab chiqilgan dasturlar, rejalar va loyihalar kompleksi asosida amalga oshirib kelinmoqda. Makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan ustunlikka ega bo'lgan sanoat tarmoqlarini vujudga keltirish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Oltoy EIHni rivojlanishini nazorat qilib turish Oltoy o'lkasining ma'muriyati

tomonidan olib boriladi. Bunda o'lkaning mahalliy organlari ham o'z huquqlari doirasida boshqarish funksiyasini bajaradi. O'lka ma'muriyati iqtisodiy hududni boshqarishda Rossiya federal qonunchiligiga muvofiq EIHga jalb qilingan investitsiyalarni himoya qilib, norezident tadbirkorlarning huquq va majburiyatlarini himoya qiladi.

Ma'lumki, Oltoy EIHni uch yo'nalishda (eksportga mahsulotni erkin ishlab chiqarish hududi, erkin savdo hududi, offshor rekreatsion hududi) tashkil etish ko'zda tutilgan. Biroq, hozirgi kunda EIHlarni tashkil etishning bir qator muammolari (katta imkoniyatga ega bo'lgan inventarlarni mavjudligi, lekin, investitsiyalarni yo'naltiradigan mukammal dasturning yo'qligi, EIHda Rossiyada istiqomat qilayotgan nemis millatiga mansub aholining asosiy qismi yashayotganligi, ya'ni ular Oltoy EIH to'g'risidagi federal qonunning yo'qligiga ishora qilib, bu erda erkin bojxona hududi emas, erkin savdo omborlari hududini tashkil etish maqsadga muvofiq deyishmoqda) ham mavjud.

Oltoy EIH Kipr orolidagi hududlar bilan xalqaro hamkorlik qilishga doir bir qator shartnomalar (investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro savdo-sotiq, qo'shma korxonalar qurish, Oltoy ko'rgazmalar yarmarkasida Kipr Respublikasining xalqaro ko'rgazmasini tashkil etish va boshqalar) imzolangan. Ushbu shartnomalar asosida xalqaro maydondagi investitsiyalarni jalb etish uchun tadbirkorlik dasturlari ishlab chiqilgan. Dasturlar doirasida butun dunyoga mashhur bo'lgan "Belokurixa" dam olish va sog'lomlashtirish markazida turistik rekreatsion hududi tashkil etildi. Shunday qilib, Oltoy EIH o'zining huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy rivojlanishi jihatidan mamlakat iqtisodiyotini rivojida muhim ahamiyat kasb etib, xorijiy investorlarni va shuningdek, etib tadbirkorlarning qiziqishlarini tobora o'ziga jalb etmokka.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, Oltoy erkin ekologik hududi, texnika, sanoat, tadbirkorlik, investitsiya, investor, kredit, qimmatli qog'ozlar.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. RFda 1997-yil dekabr oyidan boshlab Oltoy erkin ekologik hududi garchi faoliyat ko'rsata boshlagan. Mazkur hudud o'zining geografik-iqtisodiy joylashuvi, salohiyati bilan mamlakat iqtisodiyotida alohida o'rin tutadi. Ekologik hududning umumiy er maydoni 168 ming km² ni tashkil etib, o'lkada 12 ta shahar, 14 ta shahar tipidagi poselka, 7 ta qishloq tumanlari, shu jumladan, nemis milliy tumani mavjud.

2. Oltoy o'lkasining ko'pchilik joylari qalin o'rmonlardan iborat, O'lkada 13 mingdan ortiq ko'llar bo'lib, qishloq xo'jaligi rivojida muhim ahamiyatga ega. O'lkada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarning 30-35 % mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmoqlariga to'g'ri keladi, er osti qazilma boyliklariga boyligi va yoqilg'i-energetika sanoat majmuasining rivojlanishi xo'jalik yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Oltoy erkin ekologik hududini tashkil etish borasida o'lka ma'muriyati investitsiyalarni qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash; xalq

iste'moli mahsulotlarini, qurilish va konstruksiyaviy qurilish materiallarini, mashinasozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish; o'rmon xo'jaligi va yog'och materiallarni qayta ishlash; tog'-kon, kimyo va neft-kimyo, to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish; turizm sohasini va shuningdek, sanatoriya va kurort tumanlarni rivojlantirishga taqsimlab kelmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. RFda Oltoy erkin ekologik hududi qachon tashkil etilgan?
2. Oltoy erkin ekologik hududi mamlakat iqtisodiyoti uchun qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Oltoy o'lkasi qanday geografik-iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarga ega?
4. Oltoy erkin ekologik hududiga investitsiyalar qanday yo'nalishlarda jalb etilmoqda?
5. Oltoy erkin ekologik hududi ma'muriyati qanday vazifalarni bajaradi?
6. Oltoy erkin ekologik hududida qanday imtiyoz va qulayliklar mavjud?

10.4. Kaliningrad "Yantar" erkin iqtisodiy hududining rivojlanish imkoniyatlari

O'tgan asrning 90 yillarining boshida Kaliningrad viloyati uchta davlat chegaralari bilan o'zaro bog'langanligi sababli muhim EIH deb e'lon qilingan edi. Biroq, bu davrda ushbu iqtisodiy hududni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar bo'lmaganligi sababli o'z faoliyatini ko'rsata olmadi. 1991-1995 yillarda Kaliningrad EIHning faoliyatini tartibga soluvchi Rossiya Prezidenti va shuningdek, hukumatining bir qator farmon va qarorlari chiqqan bo'lsada, biroq ushbu hudud to'g'risidagi Federal qonunning yo'qligi sababli davlatning turli xil idoralarning rahbar xodimlari tomonidan hududning faoliyat ko'rsatishi paysalga solib kelingan edi. 1994-yilda Rossiya Prezidentining "Soliq va bojxona to'lovlaridagi imtiyozlar to'g'risida"gi Farmoni 1995-yilda bekor qilindi.

1996-yilning 22-yanvarida Rossiya Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Kaliningrad maxsus iqtisodiy hududi to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi bilan bu hududga erkin bojxona maqomi berildi va ushbu hududda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish davrida bojxona to'lovlari olinmaydigan va shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat ham nazorat qilinmaydigan bo'ldi. Bundan tashqari, import qilinadigan tovarlardan bojxona, qo'shimcha qiymat va aksiz soliqlari ham olinmaydigan bo'ldi.

Kaliningrad viloyatidagi "Yantar" EIHni shakllantirishdan maqsad Kaliningrad viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi masalalarini tezroq hal etish, chet mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hankorlikni rivojlantirish asosida chet el kapitalini jalb qilish uchun qulay sharoitlarni ta'minlash, mintaqa eksport imkoniyatlarini oshirish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish edi.

EIH Kaliningrad viloyati va unga tegishli tumanlarda tashkil topgan, mudofaa va strategik ahamiyatga ega tumanlar bundan mustasno.

Ko'rib chiqilayotgan hududning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- Evroosiya va Yevropa savdo yo'llarining kesishuvdagi qulay iqtisodiy-geografik joylashuv;

- muzlamaydigan dengiz portining mavjudligi;

- o'ziga xos yantar konlarining mavjudligi (jahon zahiralarining 90% i);

- viloyatning Rossiya boshqa hududlaridan izolyasiyalashganligi, bu transport xarajatlari oshishiga va xo'jalik faoliyatining siyosiy tavakkalchiligi o'sishiga olib keladi;

- viloyat katta maydonidan harbiy maqsadlarda foydalanilishi, harbiy maydon fuqarolar yashash maydonlaridan uch barobar kattaligi.

Kaliningrad muhim EIHi orqali olib o'tiladigan tranzit yuklar uchun bojxona va boshqa soliqlar olinmaydi. Hattoki, bu yuklar Rossiya Federatsiyasining boshqa joylariga jo'natilgan taqdirda ham, mahsulotni eksport qilishdan tushgan valyuta tushumi uchun 30 %lik majburiy to'lovlar talab qilinmaydi. Investorlarning olgan foydalari va dividendlarini chet el banklariga o'tkazishda ham hech qanday muammolar yo'q.

Kaliningrad viloyati Rossiya Federatsiyasining viloyatlari orasida chet el kapitali ishtirokida tuzilgan korxonalarining soni bo'yicha yetakchi o'rinlardan birida turadi. 1996-yilda 1175 ta chet el kapitali ishtirokida tashkil etilgan korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 1/3 qismi chet el kapitali ishtirokida qurilgan korxonalarni tashkil etgan. Ushbu viloyatda korxonalarni tashkil etishda Polsha, Germaniya va Litva davlatlari yetakchi o'rinlardan birini egallasa, kiritilgan investitsiyalar miqdorining ko'pligi jihatidan esa Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Fransiya davlatlari oldingi o'rinlardan birida turadi.

Kaliningrad viloyat ma'muriyati chet el mamlakatlarining vazirliklari va hukumat organlari bilan to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy aloqalar o'rnatish va shartnomalar tuzish maqomiga ega bo'lib, viloyat hududiga xorijiy investorlarning kirib kelishi, ayniqsa, "Kaliningrad mahsus iqtisodiy hududi to'g'risida"gi qonun qabul qilingandan so'ng yanada kengaydi. Hozirgi kunda hududning "Yantar" nomidagi eski kema qurilish zavodi bazasida yiliga 60 mingga yaqin mashinalarni ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan avtomobil (14-16 rusumdagi) yig'ish konveyeri qurilib ishga tushdi.

Kaliningrad MIHning mavjud salohiyati uning tashqi savdo aylanmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu hudud orqali xorijga neft, qog'oz tsellyulozasi, ayniqsa, katta hajmda eksport qilinadi.

Kaliningrad viloyatidan ko'proq xomashyo materiallari, qora va rangli metallar eksport qilinadi. Eksportga jo'natilgan tovarlarning 20 % qog'oz tsellyulozasiga to'g'ri kelsa, mineral o'g'itlar (14 %ni), neft mahsulotlari (10 %ni), baliq mahsulotlari (9 %ni) va qora va rangli metallar (4 %ni) tashkil etgan. Shuningdek, ushbu hududda eksportga yo'naltiradigan xomashyolarni qayta ishlash korxonalarining tashkil etilishi va ularning ishlab chiqarish quvvatining oshishi natijasida tayyor mahsulotlar eksporti ham rivojlanib bormoqda.

Kaliningrad viloyatiga, asosan, oziq-ovqat, poyafzal va kiyim-kechak mahsulotlari, tele-radioapparat mahsulotlari import qilinadi. Ular Buyuk Britaniya, Litva, Chexiya, Vengriya kabi davlatlardan import qilinadi.

Shunday qilib, Kaliningrad viloyatida “Yantar” EIHni tashkil etilishi va unda erkin bojxona hududi tartibotini o‘rnatilishi bilan hududning inflyatsiya darajasi birmuncha kamaydi, chet el kapitali ishtirokida qurilgan korxonalarining ishlab chiqargan mahsulotlarining hajmi esa birmuncha oshdi. Tashqi savdo aylanmasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport va importi birmuncha ko‘paydi. Kaliningrad portlariga olib kelingan va olib ketilgan yuklarning hajmi ham birmuncha ko‘payib, ishchi va xizmatchi xodimlarga to‘lanadigan o‘rtacha ish haqi ham biroz ko‘tarildi. Kaliningrad viloyatida “Yantar” EIHni tashkil etilgandan beri viloyat budjeti tomonidan federal budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘ning 93,4 % kompensatsiya qilindi. Biroq, shuni qayd etib o‘tish lozimki, ushbu EIHni tashkil etishdan kutilgan foyda o‘z natijasini hozirgi kunga qadar ham bergani yo‘q. Chunki, iqtisodiy hududning to‘laligicha faoliyat yuritishi uchun avvalambor to‘liq huquqiy baza va me‘yoriy hujjatlar yaratilgani yo‘q. EIHga bosqichma-bosqich o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, “Yantar” erkin iqtisodiy hududi, import, eksport, bojxona, xomashyo, mahsulot, kapital.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. RFda Kaliningrad “Yantar” EIHning tashkil etilishi o‘ziga xos sabab va tarixga ega. O‘tgan asrning 90 yillarining boshida Kaliningrad viloyati uchta davlat chegaralari bilan o‘zaro bog‘langanligi sababli muhim EIH deb e‘lon qilingan edi. Biroq, bu davrda ushbu iqtisodiy hududni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar bo‘lmaganligi sababli o‘z faoliyatini ko‘rsata olmadi. 1996-yilning 22-yanvarida Rossiya Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “Kaliningrad maxsus iqtisodiy hududi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bilan bu hududga erkin bojxona maqomi berildi va Kaliningrad viloyatid “Yantar” EIHni tashkil etildi.

2. Kaliningrad “Yantar” EIHda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish davrida bojxona to‘lovlari olinmaydigan va shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat ham nazorat qilinmaydigan bo‘ldi. Bundan tashqari, import qilinadigan tovarlardan bojxona, qo‘shimcha qiymat va aksiz soliqlari ham olinmaydigan bo‘ldi. Bu EIHning tashkil etilishidagi muhim hususiyat uning Yevroosiya va Yevropa savdo yo‘llarining kesishuvidagi qulay iqtisodiy-geografik joylashuvi va muzlamaydigan dengiz portining mavjudligidir.

3. Kaliningrad muhim EIHni orqali olib o‘tiladigan tranzit yuklar uchun bojxona va boshqa soliqlar olinmaydi. Investorlarning olgan foydalari va dividendlarini chet el banklariga o‘tkazishda ham hech qanday muammolar yo‘q. Kaliningrad MIHning mavjud salohiyati uning tashqi savdo aylanmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu hudud orqali xorijga neft, qog‘oz tsellyulozasi, ayniqsa, katta hajmda eksport qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. RFda Kaliningrad “Yantar” EIHning tashkil etilishining sababi, tarixi va muammolari tushuntirib bering.

2. Kaliningrad “Yantar” EIHning ahamiyati nimalardan iborat?

3. Kaliningrad “Yantar” EIHda qanday imtiyoz va qulayliklar mavjud?
4. Kaliningrad MIHda qanday tovarlar eksporti va importi amalga oshiriladi?
5. Kaliningrad MIHning joylashuv o‘rni va xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Kaliningrad MIHning rivojlanish imkoniyatlariga qanday qaraysiz?

10.5. Rossiya Federatsiyasidagi “Sankt-Peterburg”, “Viborg”, “Texnopolis Zelenograd” erkin iqtisodiy hududlarini tashkil etilish va faoliyati xususiyatlari

“Sankt-Peterburg” erkin tadbirkorlik hududi uning intellektual va ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologik jarayonlarni o‘zlashtirish, zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yaratish, Shimoliy-G‘arbiy tuman iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotiga samarali jalb etish asosida shakllanadi. “Sankt-Peterburg” hududining ixtisoslashuvi:

- mashina va uskunalar transport vositalari;
- kimyoviy mahsulotlar;
- xalq iste‘moli mollarini ishlab chiqarish;
- xalqaro turizm;
- noishlab chiqarish xizmatlari eksportini rivojlantirishidan iborat.

Hozirgi kunda Sankt-Peterburgda 1,5 mingta qo‘shma korxonalar ro‘yxatga olinib, Rossiyada qo‘shma korxonalar eng ko‘p tashkil etilgan hududlardan hisoblanadi. “Sankt-Peterburg” hududi uchun turli xil ixtisoslashuvdagi subhudud yoki mini-hududlarni tashkil etish samarali bo‘ladi. Shuningdek, Sankt-Peterburgda ilmiy parklar, texnopolislar va eksport-ishlab chiqarish hududlarini tashkil etish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

“Viborg” EIH. Viborg ma‘muriy tumani hududida shakllangan. U ishlab chiqarishga mahalliy va chet el ilmiy-texnik ishlanmalarini va kashfiyotlarini joriy etish maqsadida tashkil etilgan. Hudud, Sankt-Peterburg va chet elga ixtisoslashgan. Hududni shakllantirishda Finlandiya faol ishtirok etadi. Hudud chegarasida, ishlab chiqarish faoliyatiga ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini tezkor joriy etish uchun texnologik markaz yaratish nazarda tutilgan. Markaz faoliyatining asosiy sohalari bo‘lib, hisoblash texnikasi, elektronika, biotexnologiya, yangi materiallarni ishlab chiqarish va boshqa shu kabi yuqori texnologik va ekologik toza ishlab chiqarishlar xizmat qiladi. Viborgni geografik joylashuvi (undan Finlandiyagacha – 7 km, Sankt-Peterburggacha – 156 km) Rossiya va Finlandiya mutaxxasislarga hududda Rossiyadagi birinchi texnologik park loyihasini ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Markaziy iqtisodiy hududda hududiy ilmiy-tenik integratsiyaning samarali shakli bo‘lib texnopolislar, texnoparklar yoki ilmiy-texnik hududlar xizmat qiladi. Zelenograd shahrining ma‘muriy chegaralarida, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va diversifikatsiyalash hamda korxonalar eksport salohiyatini oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida “Texnopolis Zelenograd” erkin iqtisodiy hududi tashkil topdi.

“Texnopolis Zelenograd” EIH faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar:

- yuqori texnologiyalar;
- mikroelektronika;

- axborot va aloqa vositalari;
- molekulyar va biotexnologik materiallar;
- sanoat va maishiy radioelektronika va boshqalar.

Erkin iqtisodiy hudud tashkil etish maqsadida Mamuriy Qo‘mita zaruriy moliyaviy resurslarni jamlash, infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish uchun – notijorat rivojlanlanish jamg‘armasi tashkil etildi.

Shunday qilib, rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda mavjud va EIHLar faoliyatining salbiy va ijobiy tomonlari to‘g‘risida to‘liq tushuncha beradigan natijalarni bahosi bir-biriga mos emas va bu, o‘z navbatida, bunday hududlarni yaratish arafasida turgan davlatlar qat‘iy qarorga kelishiga halaqit bermoqda. Iqtisodiy hududlar oldiga qo‘yilgan vazifalar ko‘pligidan, bunday fikrlar qarama-qarshiligi tabiiy hol. Dunyo tajribasi ko‘rsatishicha, barcha maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Va buning natijasida bir necha xulosa qilish mumkin:

EIHLar faoliyatini baholashda bir maqsadlar boshqa maqsadlardan yuksakroqligini e‘tiborga olish kerak, ya‘ni ularni aniq taqsimlash zarur. Bir vaziyatda bunday maqsad bandlik darajasini oshirishdir, ikkinchi vaziyatda – eksort darajasini oshirish, boshqa vaziyatda – davlat iqtisodini rivojlantirish va h.z. Yuksak maqsadga etish boshqa maqsadlarga ham erishish bilan bir emas;

EIH faoliyatining ijobiy natijalarini iqtisodiy hudud va davlatning ichki iqtisodi orasida bosqichma-bosqich rivojlangan aloqa natijasida olish mumkin. Bu ham ichki bozorga, ham tashqi bozorga yo‘naltirilgan hududlar uchun tegishli. Tayyor mahsulot qiymatida milliy komponent ulushi oshishi bilan birga, valyutada daromad olish asosalari paydo bo‘ladi va bundan tashqari, yangi texnologiyalar, nou-xau, litsenziya va patentlar kelishi natijasida hamda bu hududlarda ta‘lim olgan ishchilar ko‘chishi natijasida qayta ishlash sanoati va ichki iqtisodning ashyoviya sanoatining texnik darajasi oshishiga imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun qabul qiluvchi davlatning xo‘jalik mexanizmining islohoti, uning narh, valyuta va mablag‘ bilan bog‘liq muammolarini yechimi hududiy tajribadan ajralgan holda emas, balki parallel tarzda, mikro va makroiqtisodiyotning yangi elementlarini qabul qilish bilan rivojlanishi shart.

Rossiyada EIHLar Xitoy tajribasidan foydalangan holda tashkil etilgan. Rossiya investitsiyalar oqimini o‘ziga jalb qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni hisoblaydi:

- yirik ichki bozor;
- arzon xomashyo va energiya resurslari;
- malakali va nisbatan arzon ishchi kuchi hamda foydalanilmayotgan ilmiy potensial;
- olim va yuqori malakali mutaxassis kadrlarning nisbatan arzonligi;
- harbiy-sanoat kompleksining qudrati va zamonaviy potensiali.

Rossiyada EIHLarni tashkil etish siyosati o‘ziga xos xususiyat va tarixga ega bo‘lib, ularni yaratishning dastlabki bosqichida markaziy hukumatda EIHLar siyosati yaxshi yuritilmagan. Natijada ular “quyidan”, mahalliy hokimiyatlar tashabbusi bilan, katta-katta maydonlarni EIHLar, deb e‘lon qilishdan boshlandi. Ammo, 1994 yildan mamlakatda EIHLar siyosati shakllana boshladi. Buning xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lganligini izlanishlarimiz orqali ko‘rib o‘tdik. Masalan:

- yirik maydonda hudu yaratishga qat'iy to'siq qo'yilganligi;
- yaratilajak hudud maydonini iloji boricha davlat tomonidan qisqartirishga harakat qilinganligi;
- mahalliy sharoit xususiyatlarini chuqur o'rganmasdan, xorijdagi EIHLarning sodda shakllarini kiritish boshlangani;
- hududni boshqarish byurokratik tamoyillar bo'yicha olib borishga katta e'tibor qaratilganligini anglash mumkin.

Rossiyaning birinchi texnoparki 1990-yilda Tomsk davlat nazorat tizimlari va radioelektronika universiteti bazasida ochilgan Tomsk Fan va Texnologiya Parki deb ataladi. Shundan so'ng texnoparklar rivojlanishni boshladi: 90 yillarning boshlarida ular deyarli mamlakatning barcha universitetlarida ochildi. 1991-yilda Moskva elektron texnika institutida Zelenograd shahrida MIET texnoparki ochildi. 2006-yildan boshlab, Rossiya hukumati tomonidan 2006-yil 10 martda tasdiqlangan "Rossiya Federatsiyasining yuqori texnologiyali sohasidagi texnoparklarni yaratish" kompleks dasturini amalga oshirmoqda. Dastur Rossiya Federatsiyasi Aloqa va axborotlashtirish vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Texnologik parklarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, Aloqa vazirligi "Skolkovo Innovatsiya Markazi" (2011-yil, iyul) va RVC (2011-yil, oktabr) bilan rezident-kompaniyalarning loyihalarini amalga oshirishda hamkorlik qilish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida bitim tuzdi. Bundan tashqari, Klasterlar va texnoparklar uyushmasi tashkil etildi.

Rossiyada to'rtta innovatsion zonalar mavjud. Bular Tomsk, Sankt-Peterburg, Moskva va Moskva viloyatining Dubna shahrida joylashgan. Innovatsion zonalarining ustuvor tarmoqlari: nano va biotexnologiyalar, tibbiy texnika, elektron va telekommunikatsiya uskunalari, Informatsion texnologiya, nozik va analitik vositalar, yadro fizikasi kiradi. Rossiyaning sanoat hududlaridagi ustuvor tarmoqlari: Avtotransport vositalari va ehtiyot qismlar, qurilish materiallar, kimyoviy moddalar va neft-kimyosi, uy anjomlari va chakana moslamalar kiradi.

Ammo, Rossiya Federatsiyasi texnik-tadbiq etish hududlarini yaratishda o'ziga xos tajribaga ega, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, ular harbiy vazifalarni bajarish uchun "yopiq" va "yarim yopiq" deb nomlangan ilmiy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan shaharlar paydo bo'ldi. Ularni naukograd deb nomlashadi. Naukograd (ilm shaharchasi) aholi yashaydigan joy sifatida Rossiyada yirik ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish komplekslarida mamlakatning oliy hukumat organi qarori asosida ilmiy-texnik yo'nalishning davlat ahamiyatidagi muhim vazifalarni hal qilish uchun barpo etilgan. Ular odatda bir yirik zavod yoki ilmiy-tekshirish instituti atrofida barpo etildi. Ular fanni oldinga surishda katta xizmat qildi. Hozirgi paytda Rossiyada naukogradlar soni 70 dan ortiqdir.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, Rossiya tajribasidan texnik-tadbiq etish hududlari amaliyotini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

EIHLar tashkil etayotgan yoki yaratayotgan ko'plab mamlakatlar quyidagilarga erishganlar:

- birinchidan, iqtisodiy jihatdan qoloq mintaqalarni rivojlantirish;
- ikkinchidan, texnologiyalarni modernizatsiyalash;
- uchinchidan, yangi nou-xaularni, texnologiyalarni mamlakatga o'zlashtirish;

- to'rtinchidan, o'z mutaxassislarini va ishchilarini mehnatning, boshqaruvning va sotishning yangicha usullariga o'qitish va o'rgatish;
- beshinchidan, eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun o'z xomashyo resurslaridan oqilona va yuqori samaradorlikda foydalanish.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, erkin tadbirkorlik hududi, infratuzilma, xalqaro mehnat taqsimoti, sanoat, texnopark.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. RFda tashkil etilgan EIHlar tarkibida "Sankt-Peterburg", "Viborg", "Texnopolis Zelenograd" EIHlari alohida o'rin egallaydi. "Sankt-Peterburg" EIH intellektual va ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologik jarayonlarni o'zlashtirish, zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yaratish maqsadida tashkil etildi. Ilmiy parklar, texnopolislar va eksport-ishlab chiqarish hududlarini tashkil etish uning istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

2. "Viborg" EIH ishlab chiqarishga mahalliy va chet el ilmiy-texnik ishlanmalarini va kashfiyotlarini joriy etish maqsadida tashkil etilgan. Hudud chegarasida, ishlab chiqarish faoliyatiga ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini tezkor joriy etish uchun texnologik markaz yaratish nazarda tutilgan.

3. Zelenograd shahrining ma'muriy chegaralarida, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va diversifikatsiyalash hamda korxonalar eksport salohiyatini oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida "Texnopolis Zelenograd" erkin iqtisodiy hududi tashkil topdi. U mamlakatning ilmiy-texnik rivojlanishi va yangi innovatsiyalarning yaratilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. RFda tashkil etilgan "Sankt-Peterburg", "Viborg", "Texnopolis Zelenograd" EIHlarining maqsadi nimalardan iborat?
2. "Sankt-Peterburg" EIH fanday yo'nalishda faoliyat ko'rsatadi?
3. "Viborg" EIHning ahamiyati nimalardan iborat?
4. "Texnopolis Zelenograd" qanday yo'nalishda faoliyat olib boradi?
5. RFda ilmiy parklarning rivojlanish holati va istiqboliga qanday baho berasiz?
6. RFda EIHlarni rivojlantirishda qanday muammolar mavjud va ularni hal etish bo'yicha qanday takliflar bera olasiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Андирианов В.Д. Россия: Экономический и инвестиционный потенциал. – М.: Экономика, 1999. – 467 с.
2. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.
3. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – 230 с.
4. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны:

становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.

5. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особые экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.

6. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.

7. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особые экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.

8. Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2006. – 167 с.

9. Rossiya Federatsiyasining 2005 yil 22 iyuldagi “Rossiya Federatsiyasi hududidagi erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi №116-FQ-sonli Qonuni.

11-bob. JAHON XO‘JALIGIDA OFFSHOR HUDUDLAR

11.1. Offshor hududlarning mazmuni, yuzaga kelish sabablari, turlari va ahamiyati

Xizmat ko‘rsatuvchi EIHLarning alohida shakli offshor markazlari bo‘lib, u yerda ushbu hududda xo‘jalik yuritmaydigan yuridik shaxslar (firmalar, banklar) registratsiyalashning yengillashtirilgan tartibidan va soliq imtiyozlaridan foydalanadilar.

Offshor biznes g‘oyasi XIX asr oxirida tug‘ildi. Britaniya sudining xorijiy fuqarolarni soliqqa tortish to‘g‘risidagi qonunlariga tayangan. Dastlab bu turdagi biznes “portga qulay parkni” ishlatish bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik moliya sohasiga va turli xil xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.

Yevropada “soliq hududi” ning dastlabki tarixiy misoli Shveysariya va Italiya o‘rtasidagi chegara chizig‘ida joylashgan Campione shahri bo‘lib, bu ikki mamlakatni bu joyga nisbatan soliq yurisdiksiyasidan voz kechganidan so‘ng o‘z-o‘zidan paydo bo‘ldi.

Biroq, amaldagi offshor biznes amaliyotining asoslari britaniyalik huquqshunoslar, banklar, sug‘urtachilar va kema egalari tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Shu sababli, asl “soliq hududlari” Buyuk Britaniyada va sobiq kolonial mulklarida yaratilgan.

1945-yil sentabr, Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng, jahon iqtisodiyotida yangi davr boshlangan edi – qayta tiklangan industrial kapital tinchlik davrida jahon hamjamiyati ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar sohasida o‘z potentsiallarini amalga oshira boshladi. Katta kompaniyalar xorijiy investitsiyalarni qidirib topishmoqdalar.

Shu bilan birga, urushda katta zarar ko‘rmagan mamlakatlar (hatto Rossiya va Germaniya bilan solishtirganda) hukumatlari obyektiv sabablarga ko‘ra soliq qonunchiligini jiddiy ravishda qayta ko‘rib chiqishga, soliq to‘lovchilarga ularning xarajatlarining katta qismini joylashtirishga majbur bo‘ldi. Tabiiyki, sanoat gigantlari o‘z daromadlarining sezilarli ulushini deyarli har qanday joyga berishga tayyor emas edi. O‘sha paytda o‘n olti yil davomida jahon iqtisodiyotida muhim rol o‘ynagan kuchlar harakatga keldi.

Xalqaro sanoat gigantlari, yirik kompaniyalar va banklar rahbarlari soliq domenlarini tashkil etish g‘oyasini yaratdilar. Yuqori rivojlangan iqtisodiy mamlakatlarga e‘tibor qaratmaslik uchun, birinchi navbatda, ular e‘tiborini Britaniyaning sobiq koloniyalariga qaratishdi, ular mustaqillikka erishdi, ammo tabiiy va intellektual resurslari yo‘q edi. Tinchlik shartnomalari asosida ushbu mamlakatlar qonunlari soliq yukini va valyuta boshqaruvini liberallashtirishga olib keldi; katta sarmoya telekommunikatsiya va boshqa sohalarga investitsiya qilindi.

Shunday qilib, yirik moliyaviy va sanoat korporatsiyalari soliq to‘lamasdan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Boshqa tomondan, bojsiz va soliqqa tortilmagan hududlarni yaratish chet el kapitalining oqimini

kuchaytirdi Bunday hududlar xalqaro investorlar uchun jozibador bo'ldi. Ko'p sonli NATO harbiy bazalarini yaratishga olib keladigan sovuq to'liq operatsiyalarining tezkor rivojlanishi bunday offshor hududlarning qo'liga o'tdi. Harbiy bazalarni yaratish zarur bo'lganligi sababli, Karib dengizi va Tinch okean havzalarining hududi vaqt o'tishi bilan katta miqdordagi tijoriy ahamiyatga ega ma'lumotlar to'plangan offshor hududlarni himoya qilish vazifasini avtomatik ravishda amalga oshira boshlashdi.

Shunday qilib, offshor hududlarning paydo bo'lishi tasodifiy emas edi. Bu ichki va tashqi obyektiv sabablarga ko'ra yuz berdi. Buning natijasida jahon amaliyotida offshor hududlarni yaratishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kuchaydi. Buning natijasida amaliyotga offshor tushunchasi kirib kelishi yuzaga keldi.

“Offshor” atamasi ilk bor 1950-yillarning oxirlarida AQShda qo'llanila boshlangan.

“Offshor” so'zining lug'aviy ma'nosida “off shore” *inglizcha* so'z bo'lib, “qirg'oqdan tashqarida”, “sohildan tashqarida”, “ochiq dengizda” degan ma'noni anglatadi.

Offshor hududlar erkin savdo hududlarining bir ko'rinishi bo'lib, keng rivojlanish xarakteriga egaligi, investitsiyalar, kompaniyalar, xoldinglarni o'ziga jalb etishi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Offshor hududlari EIHLarda maxsus sinfni tashkil qiladi. Ularning asosiy farqi shundaki, ularda ro'yxatdan o'tgan korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega emaslar. Offshor hududlari xaridorlarni qulay pul-kredit rejimi, yuqori darajadagi bank va tijorat sirlari, imtiyozli soliq va tashqi savdo to'g'risidagi qonunlar bilan ta'minlaydi.

Offshar hududda imtiyozli faoliyat yuritish, shuningdek, valyuta cheklovlari yo'qligi, foydani erkin eksport qilish, chet ellik investorlar uchun bojxona to'lovlari va to'lovlarning yo'qligi, ustav kapitalining past darajasi bilan belgilanadi.

Offshor biznes rejimida yana bir yetakchi belgisi – mamlakat hududida offshor kompaniyani tashkil etishda tijoriy faoliyatni taqiqlash.

Offshor hudud – qonunchilikda bunday davlatdan tashqarida biznesni amalga oshirish uchun mo'ljallangan nolinch yoki nolinch soliq rejimida bo'lgan kompaniyalarni ro'yxatga olish imkoniyati nazarda tutilgan hudud.

Dunyodagi offshor hududlarning umumiy soni shartli ravishda aniqlanishi mumkin, chunki, har yili ularning ba'zilar yo'qolib ketadi, boshqalari paydo bo'ladi. Mutaxassislar fikricha, bugungi kunda offshor kompaniyalar uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan qariyb oltmish turg'un va integratsiya offshor markazlari mavjud.

Offshorning jozibadorligida muhim omil – bu rejimning barqarorligi. Odatda, offshor kompaniya ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab 15-25 yil mobaynida, offshor zonada salbiy o'zgarishlarga qarshi investorga kafolat beriladi. Bir qator juda muhim ijobiy omillarga qaramay, offshor zonalarga ba'zi kamchiliklar mavjud. Bir qator rivojlangan mamlakatlar (AQSh va Yevropa Ittifoqi) bojxona va soliq xizmatlari offshor hududlardan firmalar ishtirokida tuzilgan bitimlarni muntazam tekshirishadi. Boshqa salbiy omil – offshor kompaniyalarning davlat organlari tomonidan ishonchsizligini ko'rsatishi. Shuningdek, kredit olish va biznes sheriklarini topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. O'z hududida offshor hududlarni yaratadigan

mamlakatlar uchun qo‘shimcha foyda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, daromadlarni oshirish, yangi ish joylarini yaratishdir, bu esa, umuman olganda, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi⁹⁸.

Jahon amaliyotida offshor hududlarning quyidagi turlari amal qiladi:

1. Klassik offshor hududlar. Bu hududlarda korxonalar soliqlar va moliyaviy hisobotlardan ozod etilgan bo‘ladi.

2. Soliq yuki past bo‘lgan offshor hududlar.

3. Korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, biznesni yuritish va soliq to‘lovi bo‘yicha ayrim imtiyozlarga ega offshor hududlar.

Klassik offshor hududlar va soliq yuki past bo‘lgan offshor hududlarga investorlar va tadbirkorlar intilishi nisbatan kuchli hisoblanadi, biroq, klassik offshor hududlar ular ichida eng jozibalisi hisoblanadi.

Masalan, klassik offshor hududlarga Bagama, Panama, Virgin orollari va boshqa offshor zonalarni misol qilib keltirish mumkin.

Quyida eng rivojlangan offshor hududlar va ular tarkibidagi klassik offshor hududlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan:

Avstriya	Lyuksemburg
Angliya (OFF)	Mavrikiy (OFF)
Bagam orollari (OFF)	Madeyra
Beliz (OFF)	Malta
Belgiya	Marshall orollari
Britanskie Virginskije ostrova (OFF)	Yangi Zelandiya
Buyuk Britaniya	OAE
Vengriya	Ostrov Djersi (OFF)
Germaniya	Ostrov Men (OFF)
Gibraltar	Ostrov Nevis (OFF)
Gollandiya	Terks i Kaykos oroli (OFF)
Gonkong	Panama (OFF)
Daniya	Samoa (OFF)
Dominika (OFF)	Seyshel oroli (OFF)
Irlandiya	Shveytsariya
Kipr	Urugvay
Latviya	Estoniya
Lixtenshteyn	

Izoh: **(OFF)** – bu belgi bilan klassik offshor hududlar belgilangan.

Soliq yuki past bo‘lgan offshor hududlarga Vengriya, Kipr va shu kabi offshor hududlarni misol qilib keltirish mumkin.

⁹⁸ <http://deduhova.ru/blog/wp-content/uploads/2016/07/Offshors2.jpg>

Offshor hududda ro'yxatga olingan, soliq va boshqa imtiyozlar olishga nomzod bo'lgan kompaniyalarga qo'yiladigan asosiy talab – offshor markaz joylashgan davlatning rezidenti bo'lmaslik va bu davlat hududida daromad olmaslikdir. Soliq gavanlarining offshor hududlardan farqi shundaki, u yerda barcha firmalar (xorijiy firmalar ham, mahalliy firmalar ham) faoliyatning barcha turlari yoki ba'zi turlari bilan shug'ullanishda imtiyozlarga ega bo'ladilar. Hozirgi paytda jahonda 300 dan ortiq offshor markazlar mavjud. Ulardan 70 tasi soliq gavanlari hisoblanadi.

Offshor hududlari offshor kompaniyalarning ma'muriy sharoitlarida, talablarga javob berishda, soliqlarga va boshqalarga juda katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, offshor kompaniya tomonidan offshor hududi ro'yxatga olish uchun, muayyan turdagi biznes uchun, alohida offshor sxemasi uchun va ba'zan, muayyan moliyaviy operatsiyalar uchun tanlangan.

Offshor hududni tashkil etgan davlat uchun offshor hududlarning qiymati juda katta. Davlatlar boshqa mamlakatlarning aholisi tomonidan qo'shimcha moliyaviy daromad olishadi, ya'ni aslida ular hech qanday foyda keltirmaydi, chunki, offshor tuzilmalar o'z faoliyatini xorijiy manbalardan moliyalashtiradi, chet elda ishlaydilar, biroq, ayni paytda ular kapitalini offshor yurisdiksiyalarga jamlaydi, kichik hajmda bo'lishiga qaramasdan, ichki infratuzilmani rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, offshor hudud iqtisodiyoti rivojiga ta'sir ko'rsatishga qodir hamda o'z biznesini rivojlantirish va himoyalashga erishadilar.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, offshor hududlar, soliq imtiyozlari, sanoat, bank, investor, bojxona, offshor kompaniya, soliq yuki.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Erkin iqtisodiy hududlarning bir turi sifatida offshor hududlar bugungi kunda tez rivojlanib bormoqda. Ular amaliyotda offshor markazlar ham deb ataladi. Offshor hududlarning paydo bo'lishining o'ziga xos sabablari va tarixi mavjud. Ularning vujudga kelishi, asosan, 2-Jahon urushi tugaganidan keyingi global iqtisodiy-ijtimoiy farayonlar va muammolar bilan bevosita bog'liqdir.

2. "Offshor" atamasi ilk bor 1950-yillarning oxirlarida AQShda qo'llanila boshlangan. "Offshor" so'zining lug'aviy ma'nosida "off shore" *inglizcha* so'z bo'lib, "qirg'oqdan tashqarida", "sohildan tashqarida", "ochiq dengizda" degan ma'noni anglatadi. Offshor hududlar boshqi EIHLardan keng rivojlanish xarakteriga egaligi, investitsiyalar, kompaniyalar, xoldinglarni o'ziga jalb etishi bilan ajralib turadi. U klassik offshor hududlar, soliq yuki past bo'lgan offshor hududlar va korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish, biznesni yuritish va soliq to'lovi bo'yicha ayrim imtiyozlarga ega offshor hududlarga bo'linadi.

3. Offshar hududda imtiyozli faoliyat yuritish, shuningdek, valyuta cheklovlari yo'qligi, foydani erkin eksport qilish, chet ellik investorlar uchun bojxona to'lovlari va to'lovlarning yo'qligi, ustav kapitalining past darajasi bilan belgilanadi. Offshar hududda offshor kompaniyalari faoliyat ko'rsatib, ular mazkur hududlarda ro'yxatdan

o‘tgan holda dunyoning istalgan hududida erkin faoliyat olib borishlari mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Offshor hududlar qachondan va nima sabab bilan boshlab tashkil etila boshlandi?
2. Offshor hududlar EIHLarning boshqa turlaridan nimasi bilan farqlanadi?
3. Offshor hududlarning lug‘aviy ma‘nosi nimani anglatadi?
4. Offshor hududlarda qanday imtiyoz va qulayliklar beriladi?
5. Offshor hududlarning qanday turlari mavjud?
6. Offshor hududlarda offshor kompaniyalar faoliyati xuusuiyatlari nimalardan iborat?

11.2. Offshor hududlarning tashkil etilishining jahon tajribasi

Jahon xo‘jaligida juda keng tarqalgan erkin savdo, eksport-ishlab chiqarish va ilmiy-sanoat hududlari, bugungi kunga kelib, offshor markazlarini tashkil etish va rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti bilan to‘ldirilmoqda. Xalqaro offshor biznesi mamlakatlar aro tashqo iqtisodiy aloqalarni bo‘yicha tadbirkorlik investitsiyalari va ssudalarni harakatlantirishda o‘sib boruvchi, ya’ni progressiv rolni bajarmoqda.

Offshor hududlari va soliq gavanlari, birgalikda servis hududlarini tashkil etadi. Offshor hududlari va soliq gavanlari tadbirkorlarni qulay valyuta-moliya, fiskal sharoitlar, bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi, davlat boshqaruvining kamligi bilan o‘ziga jalb qiladi.

Offshor markazlari deyilganda, umumiy ko‘rinishda, faoliyatlari bo‘yicha soliqqa tortishning imtiyozli tizimi amal qiladigan chet el, xorijiy kompaniyalarning o‘z hududda faoliyatini tashkil etuvchi mamlakatlar yoki hududlar tushuniladi. Offshor markazlarida ro‘yxatdan o‘tgan kompaniyalar davlat yurisdiksiyasi ostida bo‘ladi va mahalliy qonunchilikga qat’iy amal qilishlari majburdir. Offshor hududlar faoliyat ko‘rsatuvchilarga soliq imtiyozlari va faoliyat erkinligi beriladi, valyuta nazorati olib tashlanadi, har turdagi valyutada operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin, moliyaviy operatsiyalar anonimligi ta‘minlanadi. Offshorning klassik varianti offshor hududlarida faqatgina norezidentlar xo‘jalik va moliyaviy faoliyat olib borishlarini nazarda tutgan.

Offshor hududlarida soliq imtiyozlari turli xil variantlarda bo‘lishi mumkin. Irlandiya va Liberiya offshor hududlarida soliq umuman olinmaydi. Shveysariyada soliqlar juda ham past stavkalarda olinadi. Lixtenshteyn va Antil orollari offshor hududlarida soliq sifatida yagona to‘lov amalga oshiriladi, bu kabi hududlarda yana yillik ro‘yxatga olish badallari, bank va sug‘urta xizmatlaridan foydalanganlik uchun to‘lov, trast faoliyati uchun litsenziya to‘lovlari ham olinadi. Shimoliy Samoada esa buxgalteriya hisobi tartibi kompaniya egalarining hohishi bo‘yicha tanlanadi.

Zamonaviy offshor biznesining asoslari britaniyalik yuristlar, bankirlar, sug‘urtachilar va yuristlari tomonidan ishlab chiqarilgan va amalga oshirilgan. Shuning uchun birinchi “soliq gavanlari” Britaniyada tashkil etilgan. Buyuk Britaniya

va boshqa bir qator mamlakatlar hukumatlari qonunchilikka ma'suliyatni cheklashni kiritishdi, bu vaziyatda maksimal yo'qotish aksioner kapitaliga teng bo'ladi. Bu ishchan investitsiyalashni qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirilgandi, bankrotlik yuz bergan hollarda kreditorlar kompaniya egasining mulkiga egalik qilish huquqiga ega bo'ldilar. Bu kabi ma'suliyat cheklashning yo'lga qo'yilishi mamlakatda ishchi faoliyatni jonlanishiga olib keldi. Bundan tashqari, jismoniy shaxslar va kompaniyalarga turli xil soliqlar qo'yilardi, bu esa soliq tizimini rejalashtirishni amalga oshirish imkoniyatini berdi, amaliyotda esa bu soliq stavkalarini pasaytirishning qonuniy yo'llarini izlab topish deb tushuniladi.

Eng birinchi tashkil etilgan offshor hududlariga Men, Gernsi, Djersi, Gibraltar orollari hamda Irlandiya va Panamalar misol bo'la oladi. Xuddi mana shu mamlakat va hududlar uzoq vaqt davomida, nafaqat, Yevropa biznesi imkoniyatlarini, balki, o'z hududlarida offshor operatsiyalarining salmoqli ulushini amalga oshirishgan.

Hozirda esa offshor kompaniyalar faoliyat ko'rsatayotgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Normandiya orollari, Men orollari (Britaniya), Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, Shveysariya va boshqalar kiradi. Oxirgi o'n yillikda bular tarkibiga Malta, Mavrikiya, Garbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqa davlatlar qo'shildi.

Offshor hududlardagi sanoat, savdo, bank, sug'urta va boshqa kompaniyalar, yo umuman, soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya), yoki kichik miqdordagi soliqlar to'laydi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men oroli va b.). Masalan, Shveysariyada nisbatan kam soliq miqdori belgilangan. Bu soliq ma'lum holatlarda umuman to'lanmasligi mumkin. Shuningdek, offshor hududlar valyuta cheklashlarining yo'qligi, daromadni olib chiqish erkinligi, xorijiy investorlar uchun bojlarning yo'qligi bilan ajralib turadi. Offshor hududlarni tashkil qiluvchi davlatlar qo'shimcha xorijiy kapital jalb qilish, offshor hududda ro'yxatga olingan korxonadan foyda olish, mahalliy mutaxassislar uchun qo'shimcha ish joylari tashkil qilinishi orqali foyda ko'radilar.

Odatda, offshor biznes bank, sug'urta ishi, dengiz kemachiligi, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, trast faoliyati, eksport-import operatsiyalari, konsaltingda jamlanadi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda offshor biznesda band bo'lgan kapital 500 mlrd. doll.ga etadi. Unda kariyb 2 mln. kishi qatnashadi va har yili bir necha ming yangi kompaniyalar ro'yxatga olinadi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, offshor hududlar, offshor markazlari, soliq gavanlari, rezident, nerezident, offshor biznesi.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Bugungi kunda dunyoda tashkil etilgan bir qator EIHLar offshor hududlarning tashkil etilishi va rivojlanishiga muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa hozirda jahonda 300 dan ortiq offshor hududlarini ng vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Offshor markazlari deyilganda, umumiy ko'rinishda, faoliyatlari bo'yicha soliqqa tortishning imtiyozli tizimi amal qiladigan chet el, xorijiy kompaniyalarning o'z hududda faoliyatini tashkil etuvchi mamlakatlar yoki hududlar tushuniladi.

2. Offshor markazlarida ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar davlat yurisdiksiyasi ostida bo'ladi va mahalliy qonunchilikga qat'iy amal qilishlari majburdir. Offshor hududlarida soliq imtiyozlari turli xil variantlarda bo'lishi mumkin. Irlandiya va Liberiya offshor hududlarida soliq umuman olinmaydi. Shveysariyada soliqlar juda ham past stavkalarda olinadi. Lixtenshteyn va Antil orollari offshor hududlarida soliq sifatida yagona to'lov amalga oshiriladi, bu kabi hududlarda yana yillik ro'yxatga olish badallari, bank va sug'urta xizmatlaridan foydalanganlik uchun to'lov, trast faoliyati uchun litsenziya to'lovlari ham olinadi.

3. Eng birinchi tashkil etilgan offshor hududlariga Men, Gernsi, Djersi, Gibraltar orollari hamda Irlandiya va Panamalar misol bo'la oladi. Xuddi mana shu mamlakat va hududlar uzoq vaqt davomida, nafaqat, Yevropa biznesi imkoniyatlarini, balki, o'z hududlarida offshor operatsiyalarining salmoqli ulushini amalga oshirishgan. Odatda, offshor biznes bank, sug'urta ishi, dengiz kemachiligi, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, trast faoliyati, eksport-import operatsiyalari, konsaltingda jamlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bugungi kunda offshor hududlar xalqaro moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda qanday ahamiyat kasb etmoqda?

2. Offshor hududlarda offshor kompaniyalarga qanday imtiyoz, erkinlik va majburiyatlar belgilanadi?

3. Offshor hududlarda qulay biznes muhiti yaratilgan davlatlarni ko'rsating.

4. Offshor hududlarda qanday operatsiyalar amalga oshiriladi?

5. "Offshor hududlar rivojlangan dunyo davlatlari va hududlarini aytib bering.

6. Offshor hududlar faoliyatini izohlovchi ko'rsatkichlarga baho bering.

11.3. Jahonda offshor hududlarning rivojlanishi va undagi imtiyozlar

Informatsion xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan hududlar ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday hududlar Yamayka, Birlashgan Arab amirliklari va ba'zi bir boshqa mamlakatlarda paydo bo'lgan. Masalan Dubay shahrida "internet-siti" EIHDi tuzilgan bo'lib, u chet el kompaniyalariga imtiyozli shartlarda barcha faoliyat turlari haqida ma'lumot olishga imkon beradi, transaktsion xarajatlarni, barcha sohadagi to'siqlarni kamaytiradi. "Internet-siti"da ko'pgina yirik transmilliy korporatsiyalarning, shu jumladan, Germaniyaning "Simms" korporatsiyasining filiallari joylashgan. Borgan sari avval Londondan ma'lumot tarqatgan ommaviy axborot vositalari yangi "Mediya-siti" Dubay markaziga ko'chib o'tmoqda.

Informatsion xizmatlar sohasidagi yana bir EIHD Yamaykadagi "Montego-bey" bo'lib, uning hududida markaziy Amerikadagi eng raqobatbardosh xalqaro tovush va elektron aloqa kanallariga ega bo'lgan teleport faoliyat yuritmoqda. Hudud matn tahrirlagich turidagi dasturlarni va turli telemarketing xizmatlarni eksport qiladi.

Xizmat ko'rsatuvchi EIHLarning alohida shakli sifatida offshor markazlarida, odatda, bank va sug'urta xizmatlari joylashib ular orqali eksport-import operatsiyalari, ko'chmas mulk oldi-sottisi, dengiz kemalarini oldi sottisi, trast va

konsalting faoliyati amalga oshiriladi. Offshor markazlari chet el kompaniyalari va banklarini taqdim etilayotgan keng imtiyozlar hisobiga jalb etadi. Ular jumlasiga qulay valyuta-moliya qonunchiligi, soliqqa tortishning imtiyozli xarakteri va rag'batlantiruvchi tashki savdo qonunchiligi kiradi.

Offshor hududlarida ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari katta bo'lib, bir qancha mahalliy va birinchi navbatda, foyda soligidan umuman yoki katta miqdorda ozod silinadi. Bunda ko'rsatilgan imtiyozlar ushbu kompaniyalarning faqatgina ro'yxatdan o'tkazgan davlatning tashqarisidagi tijorat faoliyatiga taalluqlidir. Shuning uchun ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar ushbu davlatning rezident kompaniyalarining hech biri bilan hech qanday tijorat moliyaviy faoliyat amalga oshirishi mumkin emas. Offshor hududlarida ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar fakatgina bir martalik to'lovni amalga oshirishadi: ro'yxatdan o'tish to'lovi, yillik to'lov va qayta ro'yxatdan o'tish to'lovi. Ushbu to'lovlarning stavkalari qat'iy belgilangan bo'lib, jami summasi kompaniya uchun bir necha yuzdan bir necha ming dollargacha boradi.

Soliq imtiyozlaridan tashqari, offshor hududidagi kompaniyalarga shuningdek, valyuta, investitsiya, bojxona imtiyozlari va yillik hisobot hamda audit tekshiruvlari bo'yicha imtiyozlar, boshqaruv usullari bo'yicha va maxfiylik tartibi bo'yicha imtiyozlar beriladi. Shuningdek, byurokratiya va ishning sudralishining oldini olish maqsadida beriladigan imtiyozlar ham mavjud.

Bu hammasi birgalikda offshor markazlarini qulay joyga aylantiradi, chunki, kompaniyalar solig'i minimallasadi va kapital saqlanish xavfsizligi ta'minlanadi. Shuning uchun ham jahonda bir yarim million offshor kompaniyalar mavjud bo'lib ularning asosiy qismi Karib havzasi, Osiyo tinch okeani hududi va G'arbiy Yevropa offshor markazlarida joylashgan. Offshor markazlarining tarixi 50 yildan ortiq. Eng uzoq tarixga ega offshor hududlarga Men orollari, Gernsi, Jersi, Gibraltar, shuningdek, Irlandiya va Panama kiradi. Xuddi mana shu mamlakatlar va hududlar uzok muddat davomida Yevropa biznesi manfaatlariga xizmat kilibgina kolmasdan offshor xizmatlarining asosiy kismini o'zida mujassamlashtirgan edi.

O'tgan asrning o'rtalarida jahonda bir nechtagina offshor markazlari mavjud edi. Ammo, 1970-yillarning boshiga kelib bu sohada o'ziga xos portlash yuz berdi. Yangi asr boshiga kelib butun dunyo bo'yicha 60 ta offshor markazlari faoliyat yuritdi. Ularning 70% rivojlanayotgan mamlakatlarda qolgani esa sanoati rivojlangan mamlakatlarda tuzilgan.

Odatda, offshor markazlari geografik nuqtai nazardan kulay joylashgan orol va arxipelaglarda, rivojlangan transport va telekommunikatsiya tizimlari bulgan, yirik xalkaro moliya va savdo markazlari yakinida tashkil etiladi.

Offshor hududlarini shartli ravishda universal va ixtisoslashgan hududlarga bo'lish mumkin. Hozirgi vaktida kupchilik offshor hududlari universal hudud bo'lib ularda faoliyat turidan katiy nazar hamma kompaniyalarga imtiyozli sharoitlar takdim etiladi. Yetakchi universal offshor markazlarga Britaniyaning Virgin orollari, Bermud orollari, Kayman orollari, Kuk orollari misol bo'la oladi.

Tor ixtisoslashgan offshor markazlariga Shvetsariya (investitsiya va bank faoliyati), Avstriya (bank xizmatlari jismoniy shaxslar uchun), Monako (jismoniy

shaxslar uchun soliq rejalashtiruvi), Gollandiya (investitsion faoliyat).

Taqdim etilayotgan imtiyozlar turi va hajmiga nisbatan offshor markazlari imtiyozli va kamaytirilgan soliq solish bilan farqlanadi. Birinchi turdagi offshor hududlarga ushbu hududda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalarni soliqdan butunlay ozod qiluvchi hududlar kiradi. Bu turdagi offshor hududlarni matbuotda, ko'pincha, "soliq jannati", "soliq oazisi" deb yuritiladi. Bu turdagi hududlarga quyidagi offshor hududlari kiradi. Antil, Bagam, Bermut, Britaniya Berginiya orollari, Gibraltar, Nauru, Terks va Kaykos va boshkalar.

Chegaralangan soliq shartlari bilan xarakterlanuvchi hududlarda foyda solig'i stavkasi nisbatan kichik bo'lib, bu hududlarning kompaniyalar uchun ma'qul tomoni shundaki, soliq shartnomalarining qulay tizimi va rasmiy vakolatxonalarining ishlashi uchun qulay sharoitlar mavjud. Bunday hududlar misoliga Irlandiya, Shvetsariya, Lyuksenburg, Avstriya, Mavriki, Seyshel orollari, Vanuatu, Madeyra, G'arbiy Samoa, Sent-Vinsent, Kipr va boshkalar kiradi.

Offshor hududlarining doimiy mijozlari qatoriga investitsiya sohasida, ko'chmas mulk bilan ishlovchi, dengiz kemalarga egalik qiluvchi, intellektual mulkga egalik qiluvchi kompaniyalar kiradi. Xolding kompaniyalari boshqa savdo va ishlab chiqarish kompaniyalarni ularning aksiyalariga egalik qilish hisobiga boshkarish uchun tuziladi. Bunday kompaniyalarni offshor hududlarda joylashtirishning qulay tomoni shundan iboratki, xoldingni tuzuvchilar uzlarining aktivlarini offshor markaziga ko'chirish hisobiga uz mamlakatlarida yuqori soliqqa tortilishdan qochadilar. Eng ko'p bunday xoldinglar Lixtenshteynda (ikki yuz mingga yaqin), Shvetsariyada (taxminan un mingga yaqin) va Lyuksenburgda (taxminan ikki mingga).

Ko'pgina hollarda, soliq imtiyozli hududlarda savdo-vositachilik operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalar joylashadi. Offshor hududida joylashish ularga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- bir qism xarajatlarni past solikli hududlarga o'tkazash;
- transfert (firma ichidagi) operatsiyalar hisobiga savdo foydasining bir qismini past solikli hududlarda akumilyatsiyalash;
- soliq shartnomaliridan foydalangan holda savdo daromadini qayta taqsimlash va sotish;
- ulgurji xaridlarni bevosita chet el ishlab chiqaruvchilaridan xarid qilish;
- tovarni xaridorga yakinlashtirish va sotkv operatsiyalarini xalqaro miqyosda amalga oshirish.

Soliq imtiyozlari hududida offshor kompaniyalari faoliyati uz ichiga fakatgina savdo operatsiyalarini emas, tijorat operatsiyalarini xam oladi.

Savdo-vositachi va boshsa turdagi faoliyatdagi kompaniyalarga moliyaviy xizmat kursatish odatda soliq imtiyozlari hududida joylashgan chet ellik moliyaviy kompaniyalar tomonidan bajariladi. Ular maxsus soliq imtiyozlari beruvchi offshor hududlarida tashkil etiladi. Ko'plab offshor moliyaviy tashkilotlari Buyuk Britaniyaning dengiz orti hududlarida joylashgan, ularning jami 14 ta bo'lib, umumiy aholisi 6,2 mln. Kishini tashkil etadi. Ular Bermud orollari, Britaniya Vergin orollari, Hind okeanidagi Britaniya orollari, Gibraltar, Montserrat, muqaddas Elena, Janubiy

Jordja orolari va boshqalar.

Offshor hududidagi kelajagi porloq faoliyat turlaridan biri sug'urta faoliyatidir. Bunday kompaniyalarni offshor hududlarda ochish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organning litsenziyasi zarur bo'lib, u biznes rejani, ta'sischilar va direktorlar ro'yxati taqdim etilgandan keyin beriladi. Sug'urta kompaniyalarning offshor hududida faoliyat yuritayotgan shuba korxonalari soliqlarni kamaytirishga va qayta sug'urtalash bozoriga chikishga imkoniyat beradi. Sug'urta kompaniyalari eng ko'p joylashgan offshor hududlariga Men, Gernsi, Bermud, Kayma orollari, Lixtinshteyn va Kipr davlatlari kiradi.

Keyingi o'n yilliklarda xalqaro offshor biznesining muhim turi bu bank faoliyati bo'lib qoldi. Banklar registratsiyadan o'tgan mamlakat rezidentlariga xizmat ko'rsatish huquqidan mahrum etilgan bo'lsa-da, quyidagi imtiyozlarga ega bo'ladilar:

- soliqlardan ozod bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- talab qilingan ustav kapitalining miqdori g'arb mamlakatlari va boshqa ko'pgina mamlakatlardagiga ko'ra kamroq;
- majburiy zahiralar haqidagi qonunlar, kreditlash qoidalari offshor hududidagi investitsiyalash qoidalari rivojlangan mamlakatlardagidan qulayroqdir;
- mamlakatdagi registratsiyadan tashqaridagi valyuta operatsiyalari ustidan nazorat deyarli amalga oshirilmaydi;
- bankni tashkil etish muddati juda qisqa.

Offshor banklari birinchi navbatda soliq stavkalari yuqori bo'lgan va qattiq valyuta qonunchiligi amal qiladigan davlatlardagi mijozlar uchun hisob ochish va yuritish uchun hamda evro valyutalar bozorida moliyaviy opretsiyalar yuritish uchun tashkil etiladi. Masalan, offshor banklarining katta qismi Lyuksenburgda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, u yerda bank zahiralariga bo'lgan talab yo'q, Shvetsariya va Lixtenshteynda (valyuta nazorati mavjud emas), Singapur, Gonkong, Kayman va Bagam orollarida (imtiyozli soliq tizimi) jahonda jami bo'lib olti ming atrofida offshor banklari xalqaro kapital harakati oqimining deyarli yarimiga xizmat ko'rsatadi.

Offshor biznesining ko'lami keyingi yillarda jadal sur'atlar bilan kengaymoqda. Amaldagi baholashlarga ko'ra asrimiz boshida butun jahon valyuta operatsiyalarining yarimi offshor markazlari orqali amalga oshirilgan. Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan mahsus tadqiqotlar natijasiga ko'ra offshor hududlarida to'plangan chet el depozitlari o'lchamlari bo'yicha mazkur mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan ancha ustun bo'lib, milliy iqtisodiyotning bank xizmatiga bo'lgan ehtiyojidan ancha ortiqdir. 7 ta yetakchi (Bagam orollari, Gonkong, Baxrayn, Panama, Singapur, Kayman orollari, Gollandiyaning Antil orollari) offshor markazlaridagi jami bank depozitlari 1975-yilda rivojlangan mamlakatlar depozitlarining 21,7 %iga, 1985-yil – 28,1 %, 1995-yil – 28,3 %iga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 35 % etib qoldi.

Offshor biznesining ko'lami haqida ushbu markazlarda ro'yxatdan o'tgan offshor kompaniyalarning soni yaqqol ma'lumot beradi (11.1-jadval).

Yetakchi offshor hududlaridagi offshor kompaniyalari soni⁹⁹

№	Mamlakat	Offshor kompaniyalar soni
1.	Panama	337 000
2.	Britaniya Virgin orollari	208 000
3.	Irlandiya	150 000
4.	Gibraltar	60 000
5.	Lyuksunburg	55 000
6.	Bagam orollari	50 000
7.	Kayman orollari	38 700
8.	Men oroli	38 500
9.	Jersi oroli	30 500

Offshor hududlarini tashkil etgan mamlakatlar bir qator ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga erishadilar:

- chet el kapitalini jalb etadilar;
- soliq to'lovlari, yig'implari va boshqa qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'ladilar;
- mahalliy aholini ish bilan bandligini ko'paytiradilar.

Xalqaro valyuta fondining ekspertlarining hisob-kitoblariga muvofiq, ayrim mamlakatlarda offshor biznesidan kelayotgan daromad yalpi ichki mahsulotning 30-35 % ga etadi¹⁰⁰.

Keyingi vaqtlarda jahon hamjamiyati offshor hududlariga biroz shubha bilan qaray boshladi. Bu ular faoliyatidagi salbiy taraflari bilan bog'liq. Jumladan offshor hududlarini kreminal doiralari tomonidan xalqaro terrorizm va narko biznesni moliyalashga foydalanish ehtimoli mavjud. Odatda, xalqaro terrorizm va narkotiklar savdosi uchun jinoyatchilik yo'li bilan topilib, keyin offshor banklari tizimi orqali yuvib tozalangan mablag'lar ishlatiladi. AQSh Federal qidiruv byurosining ma'lumotlariga binoan, offshor hududlarida bank va investitsion hisoblarda saqlanayotgan har o'n dollardan biri jinoyatchilar guruhlariga tegishlidir.

Shuning uchun jahon hamjamiyati offshor hududlardan ko'proq ochiqlikni, bank sirini ochmaslik haqidagi tartibni tubdan o'zgartirishni, davlat xuquq-tartibot organlari bilan hamkorlikni kengaytirishni, moliyaviy soha boshqaruvini takomillashtirishni talab etmoqda.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, offshor hududlar, imtiyoz, eksport-import operatsiyalari, soliq, offshor markazlari, valyuta.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Offshor hududlarda informatsion xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashuv kuchli rivojlangan. Shuningdek, xizmat ko'rsatishning bank, sug'urta xizmatlariga

⁹⁹ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – С. 40.

¹⁰⁰ Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – С. 41.

ixitsoslashgan offshor hududlar ham faoliyat ko'rsatib, ular eksport-import operatsiyalari, ko'chmas mulk oldi-sottisi, dengiz kemalarini oldi sottisi, trust va konsalting faoliyatlarini amlga oshiradilar.

2. Offshor hududlarida ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari katta bo'lib, bir qancha mahalliy va foyda soligidan umuman yoki katta miqdorda ozod silinadi. Soliq imtiyozlaridan tashqari, offshor hududidagi kompaniyalarga shuningdek, valyuta, investitsiya, bojxona imtiyozlari va yillik hisobot hamda audit tekshiruvlari bo'yicha imtiyozlar, boshqaruv usullari bo'yicha va maxfiylik tartibi bo'yicha imtiyozlar beriladi. Shuningdek, byurokratiya va ishning sudralishining oldini olish maqsadida beriladigan imtiyozlar ham mavjud.

3. O'tgan asrning o'rtalarida jahonda bir nechtagina offshor markazlari mavjud edi. Ammo, 1970-yillarning boshiga kelib bu sohada o'ziga xos portlash yuz berdi. Yangi asr boshiga kelib butun dunyo bo'yicha 60 ta offshor markazlari faoliyat yuritdi. Ularning 70% rivojlanayotgan mamlakatlarda qolgani esa sanoati rivojlangan mamlakatlarda tuzilgan. Hozirda offshor hududlar soni yil sayin ortib bormoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Offshor hududlarda qanday xizmatlar ko'rsatiladi?
2. Offshor hududlarning dastlabki tashil etilganlari sifatida qaysi hududlarni bilasiz?
3. Nima sababdan ko'plab offshor moliyaviy tashkilotlari Buyuk Britaniyaning dengiz orti hududlarida joylashgan?
4. Offshor hududlarining qaysi turi eng yaxshi rivojlanish imkoniyatlari va istiqboliga ega?
5. Offshor hududlarining istiqboli haqida qanday fikrdasiz?
6. Offshor hududlari jahon iqtisodiyoti rivoji va inqiroziga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?

11.4. Rivojlangan mamlakatlar xo'jaligida offshor hududlarning tutgan o'rni. Mamlakatlar iqtisodiyotiga offshor hududlarning ijobiy va salbiy ta'siri, soliq raqobati

O'tgan asrning 80 yillaridan beri jahon xo'jaligida an'anaviy offshor hududlar kapital harakati va boshqa aktivlar harakatida muhim rol o'ynab kelmoqda. An'anaviy offshor hududlar deganda investor-korporatsiyalarga va xususiy shaxslarga nafaqat maxsus past soliqli yoki soliqsiz rejimni taqdim etuvchi, balki tadbirkorlik va kapitalni boshqarish uchun boshqa bir qator qulay sharoitlarni ham yaratuvchi hududlar tushuniladi. Jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda 300 dan ortiq offshor hududlar mavjud. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra 90 yillarda offshor hududlar umumiy jahon boyligining 20 %i ustidan nazorat qilib, ularda tashqi bank aktivlarining 22 % jamlangan edi¹⁰¹. 2006-yilda esa offshor hududlarda jahon pullarining 60 % jamlangan bo'lib, ushbu hududlar orqali moliyaviy

¹⁰¹ Cassard M. The Role of Offshore Centers in International Financial Intermediation. IMF Working Paper. 1994. №107.

transaksiyalarning yarmiga yaqini amalga oshirilgan¹⁰².

G'arbiy Yevropada offshor markazlari keng tarqalgan. Ular xorij tadbirkorlarini o'zining qulay valyuta-moliyaviy qonunchiligi, soliqqa tortishning imtiyozli xarakteri, bank va tijorat sirlarining yuqori darajadali bilan o'ziga jalb qiladi.

Xalqaro offshor biznesini yurituvchi yetakchilarga Men, Buyuk Britaniyadagi Gernsi va Djersi, Vengriya, Irlandiya, Kipr, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Malta, Monako, Shveytsariya va boshqalar kiradi. Offshor biznesi bank va sug'urta faoliyatini, ko'chmas mulk operatsiyalarini, eksport-import operatsiyalarining ko'pgina turlarini, konsaltingni o'zida mujassamlashtiradi. G'arbiy Yevropa offshor biznesi sohasidagi kapital 130 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Unda 400 mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat yuritadi, har yili bir necha minglab yangi kompaniyalar ro'yxatdan o'tadi, ular offshor operatsiyalari ko'lamlarini kengaytiradi.

Boston Consulting Group (BCG) kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2006-yilda offshor hududlarda jamlangan boshqaruv ostidagi aktivlar (AiM) 6,7 trln. dollarni yoki ularning umumiy qiymatini 6,9 %ni tashkil qilgan. Fors ko'rfazi mamlakatlarining offshor hududlari o'z aktivlarining taxminan 40 %ini, Lotin Amerikasi davlatlari, Yaqin O'rta Sharq va Afrika mamlakatlari esa 30 %ini saqlaydi. Ayni bir vaqtda Yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich 9 %ni, Shimoliy Amerika va Yaponiyada esa atigi 2-3 %ni tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, davlat institutlari va fuqarolik jamiyati rivojlangan, barqaror iqtisodiy va siyosiy vaziyat hukmron bo'lgan mamlakatlarda maxsus offshor hududlar rejimidan foydalanishga bo'lgan qiziqish kamroq ekanligini ko'ramiz.

BCG hisob-kitoblari, asosan, Ixtisoslashgan xalqaro reyting tashkiloti ma'lumotlariga mos keladi. Ularga ko'ra, offshor moliya markazlaridagi kapital miqdori 5-7 trln. dollarga teng bo'lib, bu 80 yillardagi ko'rsatkichdan 5 barobar ko'pdir. Ayrim boshqa ma'lumotlarga ko'ra, masalan, Tax Justice Network mutaxassislarining fikricha, 2003-yildayoq offshor hududlar 11-12 trln. dollarga teng bo'lgan aktivlarni nazorat qilgan.

Dunyodagi eng mashhur 34 ta offshor hududlarda 32 trln. AQSh dollariga teng aktivlar joylashtirilgan. Bu esa ularning qanchalik katta moliyaviy-iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Offshor hududlarning jahon moliya oqimlaridagi rolini haqida ularda joylashgan banklarning xalqaro mavqei bo'yicha ham aniqlash mumkin.

TTXIlarning harakatlanishida offshor hududlarning roli YuNKTADning jahon investitsiyalari to'g'risidagi ma'ruzasida aks ettirib boriladi. Bu erda barcha offshor hududlar ko'rsatilmaydi. Bundan tashqari, TTXIlar ushbu yurisdiksiyalarda amalga oshiriladigan moliyaviy oqimlarning bir qismini, ba'zan, juda kam qismini tashkil qiladi, xolos. Shunga qaramay, bu ma'lumotlar ham TTXIlarning harakatlanishida ayrim offshor hududlarning tutgan o'zni katta ekanligini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida xorijiy mamlakatlarga kapital olib chiqish uchun, odatda, offshor hududlarga joylashtirilgan turli moliyaviy aktivlardan keng foydalaniladi, maxsus investitsion kompaniyalar va jamg'armalar tashkil etiladi. Ular, hatta, TTXI oqimida yetakchi o'rinlarni ham egallash imkoniga egadirlar.

¹⁰² McCann H. Offshore finance. Cambridge, 2006.

Offshor hududlar, o'z navbatida, bir vaqtning o'zida ijobiy va salbiy tomonlarga ham ega hisoblanadi. Offshor hududlarning jahon iqtisodiyotidagi ijobiy tomonlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin. Uning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, transchegaraviy moliyaviy oqimlarning faollashishi va xalqaro ko'lamda moliyaviy aktivlar aylanmasini tezlashishi, moliya bozorlarini rivojlanishiga ko'maklashish, investitsiyalarni diversifikatsiya qilishga va kredit resurslarga erishishni kengaytirishga shart-sharoitlar yaratish;

- ikkinchidan, umumiy soliq yukini kamaytirishga harakat qilib, shu asosda global iqtisodiyotda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish;

- uchinchidan, ekspropriatsiya xatarini kamaytirib, mulkchilik huquqlarini himoya qilish uchun shart-sharoitlar yaratish. Bu o'z navbatida, avvalambor, donor-mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning oshishiga olib kelishi mumkin;

- to'rtinchidan, offshor hududlar joylashgan mamlakatlarning rivojlanishiga ko'maklashish natijasida jahon xo'jaligini uyg'un rivojlanishiga yordam berish;

- beshinchidan, egiluvchan rivojlanish strategiyalaridan keng foydalanish hisobiga kompaniyalarning milliy va global darajada raqobatbardoshligini oshirish va boshqalar.

Offshor hududlarning salbiy tomonlariga esa odatda quyidagilarni kiritish mumkin:

- birinchidan, offshor (donor) mamlakatlarning daromadlarini kamaytiruvchi g'irrom soliq raqobatining mavjudligi;

- ikkinchidan, offshor hududlarda kapitalning, eng avvalambor, chayqovchilik kapitalining katta hajmda to'planib qolishligi. Buning oqibatida jahon iqtisodiyoti va moliyasida beqarorlik unsurlarni paydo bo'lishi;

- uchinchidan, kapitalning chiqib ketishiga ko'maklashishi;

- to'rtinchidan, yashirin iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashi;

- beshinchidan, donor-mamlakatlarda bandlikning pasayishi;

- oltinchidan, alohida kompaniyalarga oqlanmagan raqobat ustunliklarini berish;

- yettinchidan, donor-mamlakatlarda soliqlardan qochishni salbiy baholash bilan bog'liq bo'lgan noqulay ijtimoiy vaziyatlarni paydo bo'lishi va h.k.lar.

Shunday qilib, offshor hududlarning ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning faoliyatini xususiy investorlarning, milliy hukumatlarning (eng avvalo soliq organlarining), xalqaro tashkilotlarning qarama-qarshi manfaatlarini ham ustunlik, ham kamchilik sifatida baholash mumkin.

Offshor hududlarning tarafdorlarining fikricha, offshor yurisdiksiyalari, ayniqsa, yirik moliyaviy markazlar xalqaro moliyada va savdoda muhim rol o'ynaydi. Ma'lum bir vaziyatlarda ular korporatsiyalarga va jismoniy shaxslarga tavakkalchilikni samarali boshqarish va moliyaviy rejalashtirish sohasida ulkan ustunliklar beradi.

Offshor hududlarga qarshi bo'lgan tarafdorlar esa, asosan, rasmiy shaxslarni o'z ichiga oladi. Hukumat rahbarlarining fikricha, offshor hududlar g'irrom soliq raqobatini vujudga keltiradi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardan ko'plab resurslarni chiqib ketishiga olib keladi. AQSh voqealaridan so'ng (2001 yil) offshor hududlarga terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha ochiq ayblovlar qo'yildi, ularning

iqtisodiy va moliyaviy faoliyatini tartibga solishning aniq huquqiy me'yorlari yo'qligi yuzasidan e'tirozlar bildirildi. Chunki, aynan offshor hududlarda tartibga solishning zaifligi soliq to'lashdan qochishni va jinoiy yo'l bilan topilgan pullarni yashirishni osonlashtiradi.

2007-yilda BMT va Jahon banki "O'g'irlangan aktivlarni qaytarish bo'yicha tashabbus: vazifalar, imkoniyatlar va harakatlar dasturi" deb nomlangan hujjatni tayyorladi. Ushbu hujjatda turli noqonuniy faoliyat turlari (poraxo'rlik, narkotik mahsulotlarni sotish, soxta tovarlarni va pul qog'ozlarini tayyorlash, yashirin qurol-yarog' savdosi va soliq to'lashdan qochish va boshqalar) natijasida topilgan mablag'larning xalqaro oqimlari yiliga 1-1,6 trln. dollar deb baholagan edi.

Yurisdiksiyalar raqobatida, ayniqsa, soliq sohasida offshor hududlarning roli katta bo'lib, ularning tarafdorlari va tanqidchilari o'rtasida qizg'in baxslarning bo'lib turishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarining fikricha, globallashtiruv o'yin qoidalarini o'zgartirdi. Bu rivojlangan va rivojlanayotgan boy mamlakatlarga ko'p ustunliklarni berishi bilan bir qatorda kapitalni soliqlardan yashirish uchun ham ko'p imkoniyatlarni beradi. Hozirgi kunda ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar budjeti uchun offshor biznesi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlar juda katta bo'lib, ular yildan-yilga o'sib bormoqda. 2005-yil ma'lumotlariga ko'ra, offshor sxemalari yordamida to'lanmagan soliqlar yig'imi yiliga 255 mlrd. dollarni tashkil etgan¹⁰³. Michigan universitetining professori R.Avi-Yoxanning fikricha, birgina AQShning o'zida soliqlar yig'imi yiliga 50 mlrd. dollarni tashkil etar ekan. Germaniya Moliya vaziri P.Shtaynbryukning ta'kidlashicha, soliq to'lashdan qochish Davlat budjetga taxminan 30 mlrd. evroga tushadi. Umuman, EI davlatlarining soliq to'lashdan qochishi natijasida har yili taxminan 100 mlrd. evro yo'qotilar ekan¹⁰⁴.

Offshor yurisdiksiyalari bilan bog'liq soliq yo'qotishlari to'g'risida Tax Justice Network mutaxassislarining boshqa ma'lumotlari ham mavjud. 2006-yilda uchta offshor hududlarning (Djersi, Gernsi va Men oroli) norezidentlariga tegishli moliyaviy soha aktivlari 935,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu offshor hududlar 7 % daromad va 30 % soliq stavkasi mavjud bo'lganda 65,5 mlrd. dollar foyda va tegishli mamlakatlar budjetiga 19,6 mlrd. dollar miqdorida soliq tushumlarini berishi mumkin edi.

Offshor yurisdiksiyalar tadbirkorlar va fuqarolarning o'z mamlakatlarining soliq siyosatiga qarshi chiqishlarini rag'batlantirib turadi. Masalan, Fransiyada umumiy soliq yuki YaIMning 45,5 %ga teng bo'lgan bir sharoitda YaIMning 17 % miqdoridagi daromadlari berkitiladi. Fransiya, Italiya, Daniya va Germaniyaning o'n minglab tadbirkor-fuqarolari yuqori soliqlar siyosatiga qarshi chiqishadi. 150 mingdan ortiq frantsuzlar esa daromad solig'i pastroq bo'lgan Angliyada yashaydi (so'nggi 15 yil ichida minglab yangi texnologiyalarga ega bo'lgan frantsuz kompaniyalari Angliyaga ko'chib o'tishgan). 2006-yilda chet ellik fuqarolar Shveytsariyada 607 mlrd. dollarga teng bo'lgan moliyaviy aktivlarni joylashtirishgan.

Jahon iqtisodiyotida offshor hududlar shubxasiz soliq raqobatida katta ustunliklarga ega. PriceWaterhouse-Coopers analitik kompaniya va Jahon banki

¹⁰³ www.taxjustice.net

¹⁰⁴ Independent. 11.03.2008.

reytingiga ko‘ra, umumiy soliq iqlimi bo‘yicha dunyo mamlakatlarining birinchi yigirmataligida yetakchi o‘rinlardan birini offshor yurisdiksiyalari va ular joylashgan mamlakatlar egallaydi (11.3-jadval).

11.3-jadval.

Soliqlar to‘lash bo‘yicha birinchi yigirmatalik mamlakatlarning reytingdagi o‘rni¹⁰⁵

№	Mamlakatlar	Umuman soliq to‘lashning osonligi	Soliq to‘lovlarning soni	Soliq majburiyatlarini bajarish uchun vaqt	Umumiy soliq yuki
1	Maldiv orollari	1	1	1	2
2	Singapur	2	5	3	14
3	Gonkong (XXR)	3	3	13	15
4	BAA	4	31	2	3
5	Ummon	5	31	5	11
6	Irlandiya	6	15	9	23
7	Saudiya Arabistoni	7	31	12	5
8	Quvayt	8	31	26	4
9	Yangi Zelandiya	9	10	7	45
10	Kiribati	10	7	28	31
11	Mavrikiy	11	7	52	12
12	Buyuk Britaniya	12	10	22	52
13	Daniya	13	15	37	40
14	Botsvana	14	46	39	8
15	Shveysariya	15	68	6	24
16	Norvegiya	16	3	16	86
17	Lyuksemburg	17	58	4	47
18	Vanuatu	18	83	28	1
19	Iordaniya	19	72	20	27
20	Latviya	20	7	78	37

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qulay soliq muhiti bo‘yicha dunyoning birinchi yigirmataligiga yetakchi Yevropa mamlakatlari (offshor soliq rejimlarining ayrim unsurlari qo‘llaniladigan Buyuk Britaniyadan tashqari) va shuningdek, AQSh va Yaponiya kirmaydi.

Mutaxassislarining fikricha, offshor hududlar sog‘lom soliq raqobatiga ko‘maklashadi, budjetning xarajatlar qismini ko‘paytirishga to‘sqinlik qiladi. Oxir-oqibatda ular iqtisodiy o‘rinishni va raqobat rivojlanishini rag‘batlantirib, jahon iqtisodiyotini globallashtiruvining ajralmas unsuriga aylanadi. M.Desai, K.Folli va Dj.Xayns ta’kidlashicha, “agar hozirgi offshor moliyaviy markazlar bekor qilinsa,

¹⁰⁵ Paying Taxes 2008. The Global Picture. PriceWaterhouseCoopers. The World Bank. 2007. P. 47-49.

ularning o'rniga o'xshash narsa o'ylab topish zarur bo'ladi". 80-90 yillarda AQSh TMKlarining faoliyati misolida soliq gavanlarining offshor mamlakatlar iqtisodiyotidagi ijobiy ta'sirini ko'rsatgan edi. Bu holatlarni ushbu mualliflar birinchidan, TMKni filiallarining bosh kompaniya daromadlariga yuqori xissa qo'shishi bilan, ikkinchidan, filiallar o'z faolligini offshor moliyaviy markazlarga yo'naltirib, o'z mamlakati hududini investorlar uchun yanada jozibali qilishi bilan tushuntiradi. Bir qator mutaxassislar offshor hududlarni soliq raqobatida ishtirok etishini qoralash mumkin emas, deb hisoblaydi. B.Loginovning fikricha, offshor hududlar global iqtisodiyotda o'zining muhim vazifalarini bajarib, rivojlangan mamlakatlarning milliy kompaniyalarini faolligini rag'batlantiradi. Bunday kompaniyalar soliqqa tortiladigan bazani kamaytirib, ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarish xajmini, bandlikni va boshqalarni oshiradi. Offshor kompaniyalarning ulkan xalqaro aktivlari faqat ro'yxatdan o'tkazilgan va xalqaro banklarning hisob-kitoblari bo'yicha qayd etiladi. Amalda esa ularning asosiy qismi rivojlangan va qisman rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga to'g'ri keladi¹⁰⁶.

Xaqiqatan ham, faqat soliqdan iqtisod qilish imkoniyatiga murojaat qilinsa, ko'pgina rivojlangan mamlakatlar offshor yurisdiksiyalari bilan raqobatda yutqazib, xorijiy investitsiyalarning chiqib ketishiga duch kelar edi. Lekin, xammasi, aksincha, barcha rivojlangan mamlakatlar hozirgi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi markazlar bo'lib qolmoqda.

Offshor yurisdiksiyalar amalda onshor yurisdiksiyalarni almashtirmaydi, balki, ularni to'ldiradi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar dunyodagi umumiy iqtisodiy faollikni oshiradi. Bundan tashqari, aynan past soliqli yurisdiksiyalardan foydalanish yuqori soliq darajasiga ega bo'lgan mamlakatlarda joylashgan kompaniyalarning faoliyat yuritishiga yordam beradi. Buning natijasida, turli yurisdiksiyalarning raqobati oqibatida ko'pchilik mamlakatlar biznesga soliq yukini kamaytirish bo'yicha choralar ko'radi. Jahon xo'jaligida yurisdiksiyalar, shu jumladan, offshor hududlar o'rtasida, eng avvalo soliqqa tortish va umuman olganda biznes yuritish sharoitlarini erkinlashtirish borasida raqobat kurashi shubhasiz davom etadi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, offshor hududlar, offshor markazlari, investor, soliq rejimi, aktiv, sug'urta, bank, pul, eksport, import.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Offshor hududlar o'zida dunyo moliyaviy operatsiyalarining yarmidan ortig'ini, katta investitsiya, bank aktivlarini jamlaganligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda bunday offshor hududlar G'arbiy Yevropada keng tarqalgan. Ular xorij tadbirkorlarini o'zining qulay valyuta-moliyaviy qonunchiligi, soliqqa tortishning imtiyozli xarakteri, bank va tijorat sirlarining yuqori darajadaliigi bilan o'ziga jalb qiladi.

2. Xalqaro offshor biznesini yurituvchi yetakchilarga Men, Buyuk Britaniyadagi Gernsi va Djersi, Vengriya, Irlandiya, Kipr, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Malta,

¹⁰⁶ Логинов Б.Б. Международный банковский бизнес. Мировая экономика и международный бизнес. – М.: 2005. – 504 с.

Monako, Shveytsariya va boshqalar kiradi. Dunyodagi eng mashhur 34 ta offshor hududlarda 32 trln. AQSh dollariga teng aktivlar joylashtirilgan. Bu esa ularning qanchalik katta moliyaviy-iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

3. Offshor hududlar yuridik va jismoniy shaxslar kapitalini qanchalik o'ziga jalb etmasin, uning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham mavjudligini unutmash lozim. Masalan, yashirin iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashi, kapitalning, eng avvalambor, chayqovchilik kapitalining katta hajmda to'planib qolishligi, alohida kompaniyalarga oqlanmagan raqobat ustunliklarini berish shular jumlasidandir.

Nazorat uchun savollar:

1. Offshor hududlarning afzalliklari nimalardan iborat?
2. Offshor hududlarning salbiy jihatalari nimalardan iborat?
3. Offshor hududlarning turli xizmatlar, aktivlar va investitsiyalarni o'zida jamlashida nimalar sabab bo'ladi?
4. Dunyodagi eng yetakchi offshor hududlar sifatida qaysi hududlarni keltira olasiz?
5. Offshor hududlar bilan bog'liq turli yo'qotishlar haqida qanday fikrdasiz?
6. O'zbekistonda offshor hududini tashkil etish masalasiga qanday qaraysiz?

11.5. Offshor hududlarda offshor kompaniyalar va ularning turlari

Offshor hududlarda offshor kompaniyalar faoliyatining rivojlanishi tez sur'atlarda yuz berishi kuzatiladi. Bunga o'ziga xos bir qator omillar ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli offshor hududlarda offshor kompaniyalarni tashkil etishga bo'lgan intilish tobora ortib bormoqda.

Offshor kompaniyalar turlari:

1. Savdo kompaniyalari. Ushbu guruhga, nafaqat, tovarlarni sotuvchi firmalar, balki, ishlab chiqaruvchilar, yuk tashishlar bilan shug'ullanuvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar va boshqalar kiradi.
2. Xolding kompaniyalar. Bu qimmatbaho qog'ozlar va boshqa aktivlarning egalari hisoblangan tashkilotlar bo'lib, ular ushbu qimmatbaho qog'ozlarni va aktivlarni boshqa korxonalariga joylashtirishadi va moliyalashtirishadi.
3. Trast kompaniyalar omonatlar qo'yiluvchi kompaniyalar.
4. Transport kompaniyalari – kemalar va yaxtalarni ro'yxatga olish maqsadida tashkil etiladi.
5. Sug'urta – zahira fondlarini jamg'arish maqsadida yirik korxonalar tashkil etiladi.
6. Offshor moliyaviy markazlar – Kayman orollari (jahondagi yirik beshta moliyaviy markazlarga tegishli) va Karib xavzasidagi boshqa orollar Panama, Niderland, Lyuksemburg, Lixtenshteyn, Monako, Gonkong, Singapur, Shveytsariya.
7. Sug'urta markazlari – Bermud orollari – jahondagi eng yirik sug'urta offshor markazlar, Gern oroli – Yevropadagi yirik sug'urta offshor markaz, Karib xavzasidagi orollar, Lyuksemburg, Kipr, Gibraltar.
8. Xolding hududlar – Lyuksemburg (15 mingdan yuqori xoldinglar),

Gibraltar, Kipr, Shveysariya, Niderland, Antil orollari, Mavrikiy, Madeyra, Lixtenshteyn, Vanuatu.

9. Kemalarni nazorat ostidagi hududlar – Panama, Liberiya, Niderland (EI uchinchi o‘rinni egaluvchi, ko‘p yuk qabul qiluvchi flot), Lyuksemburg (dengizga chiqish imkoniyati yo‘q), Vanuatu va boshqalar.

10. Xarid qiluvchi va vositachi savdo hududlari – Seyshel orollari, Lixtenshteyn, Vanuatu, Karib havzasi orollari, Gibraltar, Gonkong.

11. Investitsion faoliyatni barpo etish hududlari – Shveysariya, Lixtenshteyn, Seyshel orollari, Vanuatu, Karib havzasi orollari, Gibraltar, Gonkong, Gernsi oroli, Lyuksemburg, Niderland Antil orollari, Kipr.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, offshor hududlar, offshor kompaniyalar, savdo kompaniyalari, xolding kompaniyalar, trast kompaniyalar, transport kompaniyalari, sug‘urta markazlari, offshor moliyaviy markazlar.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. Offshor hududlarning rivojlanishi offshor kompaniyalarga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu esa bu hududlarga offshor kompaniyalarning jalb etilishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bunga o‘ziga xos bir qator omillar ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli offshor hududlarda offshor kompaniyalarni tashkil etishga bo‘lgan intilish tobora ortib bormoqda.

2. Bugungi kunda jahonda tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan offshor hududlarda turli xil offshok kompaniyalari ro‘yxatdan o‘tkazilib, faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ular qatorida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin: savdo kompaniyalari, xolding kompaniyalar, trast kompaniyalar, transport kompaniyalari, Sug‘urta – zahira fondlarini jamg‘arish maqsadida tashkil etiladigan yirik korxonalar, offshor moliyaviy markazlar, kemalarni nazorat ostidagi hududlar sug‘urta markazlari, xolding hududlar, kemalarni nazorat ostidagi hududlar, xarid qiluvchi va vositachi savdo hududlari, investitsion faoliyatni barpo etish hududlari.

3. Offshor hududlarda offshor kompaniyalarining faoliyati mazkur hudud ixtisosligiga hamda u tomonidan rezident va norezidentlarga taqdim etiladigan imtiyozlar va qulayliklarga bog‘liq. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, dunyodagi offshor hududlar tegishli ixtisosliklariga ko‘ra turli davlatlarda tashkil etilganligini ko‘rish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Offshor hududlarda qanday offshor kompaniyalari faoliyat ko‘rsatadi?
2. Offshor hududlar ixtisosligiga ko‘ra o‘zida qanday offshor kompaniyalarni jamlaydi?
3. Offshor hududlarda qayti turdagi offshor kompaniyalar faoliyati faol rivojlanishga ega?
4. Offshor kompaniyalar istiqboli offshor kompaniyalarga qanchalik bog‘liq?
5. Qaysi offshor hududlarda offshor kompaniya ko‘proq ro‘yxatdan o‘tkaziladi?
6. O‘zbekistonda offshor hududlarda ro‘yxatdan o‘tgan qanday kompaniyalar faoliyat ko‘rsatadi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.
2. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – 230 с.
3. Логинов Б.Б. Международный банковский бизнес. Мировая экономика и международный бизнес. – М.: 2005. – 504 с.
4. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.
5. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особые экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.
6. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.
7. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.
8. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особые экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.
9. Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2006. – 167 с.

12-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHKIL ETILGAN ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA ULARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

12.1. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning zarurligi va o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekistonda EIHLarni tashkil etish g‘oyasi o‘tgan asr 80 yillari oxirida ko‘rib chiqilgandi. O‘sha paytda ko‘pgina mutaxassislar bu hududlarni respublika iqtisodiyotini qayta isloh qilishning yangi mexanizmi va istiqboli deb hisoblashgandi. Haqiqatdan ham, EIHLarni tashkil etish bo‘yicha xorij tajribasi shuni ko‘rsatdiki, bu kabi hududlarni tashkil etish orqali milliy va chet el investitsiyalarini keng ko‘lamda iqtisodiyotga jalb etish, ilmiy-texnik taraqqiyotga erishish, eksport salohiyati va iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va yangi ish o‘rinlarini barpo etish kabi masalalarni hal etishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz hududida EIHLarni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 220-I bilan bilan tasdiqlangan Qonuniga asoslanib amalga oshiriladi. Qonun uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda umumiy qoidalar, ikkinchi qismda EIHning huquqiy tartiboti, uchinchi qismda esa EIHni boshqarish yoritib o‘tilgan.

Tashkil etilgan EIHLar mazkur qonun va boshqa tegishli me‘yoriy hujjatlarga muvofiq faoliyat ko‘rsatadilar.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan Respublika hududida bunday zonalarning uch modeli, yani 1) erkin savdo zonalari; 2) sanoat zonalari; 3) texnologik zonalarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shunigdek, bugungi kunda respublikamizda EIHLarning boshqa turlari ham tashkil etilishiga erishildi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O‘zbekistonda EIHni tashkil etishda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. EIHni tashkil etish to‘g‘risida mahalliy hokimiyatning qarori.
2. EIHga beriladigan mavqei, boshqaruv tashkilotlari va rasmiy nomi ko‘rsatiluvchi Nizom loyihasi.
3. Mazkur hudud joylashgan hudud chegaralari aniq ko‘rsatilgan xaritasi.
4. Tashkil etiluvchi hudud faoliyatining texnik-iqtisodiy asosnomasi.
5. EIHni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorning loyihasi.

Mamlakatimizda bugungi kunga kelib erkin hamkorlikda iqtisodiy faoliyat olib borish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan. xorijiy investorlar uchun xalqaro amaliyotda qabul qilingan, inson huquq va erkinliklari ustuvorligidan kelib chiqadigan huquqiy qoidalar va me‘yorlar yaratildi.

Tashkil etilgan EIHLarning dastlabkisi “Navoiy” EIH hisoblanadi. U 2008 yilda tashkil etildi. “Navoiy” EIH Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi 500 gektarli er uchastkasida joylashgan.

“Navoiy” EIZning aynan Navoiy viloyati hududida tashkil etishining bir

qancha sabablari bor. Jumladan, O‘zbekistonni o‘zining salohiyatli hamkori, deb tanlangan har bir xorijiy kompaniya, uning 5 ta yirik va nisbatan barqaror rivojlanayotgan jahon bozorlariga yaqinligini hisobga oladi. Bular MDH davlatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlaridir.

Qo‘shimcha tarzda Navoiy viloyatida turli xildagi tabiiy boyliklarining mavjudligi va xomashyolar manbalarining yaqinligi transport xarajatlarini kamaytiradi, u yerda ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxining pastroq bo‘lishiga imkon beradi.

Yevroosiyo transport tizimidagi muhim ahamiyatga ega transport yo‘li aynan O‘zbekiston orqali o‘tadi. “Navoiy” EIZ yaqinidan esa Yevropa va Xitoyni bog‘lovchi eng yaqin “E-40” avtomagistrali hamda Markaziy Osiyo, MDH Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin Sharq va Fors ko‘rfaziga chiquvchi temir yo‘l o‘tadi.

Navoiy hududi orqali temir yo‘lning barcha asosiy trassalari o‘tgan. U Janubda Eron va Turkiya portlariga, G‘arb va Shimolda Qora dengiz va Boltiq dengizi portlariga chiqadi. Xitoy bilan Yevropani bog‘lovchi eng qisqa temir yo‘l marshruti ham aynan Navoiy orqali o‘tadi.

2008-yilning noyabr oyida “O‘zbekiston Havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi Koreyaning “Korean Air” kompaniyasi bilan shartnoma imzoladi. Unga ko‘ra, Navoiy xalqaro aeroporti bazasida “Navoiy” EIZ hududida “Korean Air” kompaniyasi bilan hamkorlikda MDH mamlakatlarida yagona transcontinental intermodal logistika markazi tashkil etildi. Bugungi kunda “Navoiy” aeroporti barcha zarur zamonaviy jihozlar, asbob-uskunalar bilanta‘minlangan xalqaro aeroport maqomiga ega. U barcha turdagi havo transportlarini, shu jumladan, dunyodagi eng yirik yuk tashuvchi hisoblangan Boing-747 va AH-124 samolyotlarini ham qabul qila oladi¹⁰⁷. “Navoiy” EIZdan 2000 km radiusda 11 ta mamlakat, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoyning 40 dan ortiq yirik shaharlari joylashgan¹⁰⁸. Havo-transportidan foydalanib, yuklarni tashishda O‘zbekiston orqali o‘tadigan havo yo‘laklaridan foydalanish – xarajatlarni va vaqtni sezilarni darajada tejash imkonini beradi. Janubiy – Sharqiy Osiyodan Yevropaga Navoiy orqali uchilsa, Dubay orqali uchilganiga nisbatan masofa 1000 km.ga qisqaradi. Shunda parvoz 1,5 soatgina davom etib, har bir avialaynerdan 15 tonna yoqilg‘i iqtisod qilinadi.

2010-yilning avgust oyidan boshlab o‘z faoliyatini boshlagan “Navoiy” xalqaro aeroportida tashkil etilgan xalqaro yuk terminali “Navoiy” EIH loyihasining muvaffaqiyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Navoiy” EIHning “geografik jihatdan qulayligini Osiè va Yevropa qit‘alarini bog‘lab turuvchi havo, temir yo‘l va avtomobil yo‘llarining mavjudligi, xalqaro transport koridorining mavjudligi va ushbu koridor orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afg‘oniston, Eron, Yaqin va O‘rta Sharq, Osiyo Tinch okeani mintaqasi, Rossiya va Boltiqbo‘yi mamlakatlari portlariga chiqish imkoniyatiga

¹⁰⁷ www.regnum.ru sayti ma’lumotlari.

¹⁰⁸ www.nfiez.com sayti ma’lumotlari.

egaligi kabi omillar bilan izohlash mumkin”¹⁰⁹.

Bundan tashqari, mamlakatimizda 2012-yilda tashkil etilgan “Angren” MIZ va 2013-yilda tashkil etilgan “Jizzax” MIZ mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishga muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dastlabki yillarda ular kutilganidek rivojlanishga erishmagan bo‘lsalar-da, biroq, mazkur hududlarning tashkil etilishi bu sohadagi dadil qadam tashlashlarni ta’minlash imkonini yaratdi. buning natijasida, so‘nggi 2,5 yil ichida mamlakatimizda yana 18 ta EIHLar va 153 ta kichik sanoat zona (KSZ)larining tashkil etilishiga erishildi. Bularning barchasi iqtisodiyotni hududiy jihatdan sanoatlashtirishda diversifikatsiyalashuv, mavjud barcha salohiyatlarni hisobga olib ixtisoslashtirilgan holda samarali rivojlantirishda EIHLarning faol ishtirokini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda mazkur EIHLarni rivojlantirishda barcha qulaylik va infratuzilmalarning hisobga olinganligi, ularni yanada takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratilayotganligi, shuningdek, ko‘plab imtiyozlarning taqdim etilishi ushbu hududlarga xorijiy investitsiyalarning keng jalb etilishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Endilikda EIHLarni rivojlantirishda Ma’muriy kengashlarning mustaqilligi va mas’uliyati yanada oshirilganligi hamda maqsadli dasturlari asosida investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bo‘yicha monitoringning kuchaytirilganligi EIHLar taraqqiyotini ta’minlashdagi muhim chora-tadbirlar sifatida qaramoqda.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, ilmiy-texnik taraqqiyot, erkin savdo zonalari, sanoat zonalari, texnologik zonalari, kichik sanoat zonalari, imtiyoz.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. O‘zbekistonda EIHLarning tashkil etilishi va rivojlanishi o‘ziga xos sabab, tarix va rivojlanish xususiyatlariga ega. O‘zbekistonda EIHLarni tashkil etish g‘oyasi o‘tgan asr 80 yillari oxirida ko‘rib chiqilgandi. Lekin, 1996-yilga kelib 25-aprel sanasida mamlakatda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 220-I Qonun qabul qilindi. Biroq, mazkur qonun asosida 2008-yilda rasman dastlabki “Navoiy” EIHL tashkil etildi.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprelda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan Respublika hududida bunday zonalarning uch modeli, yani 1) erkin savdo zonalari; 2) sanoat zonalari; 3) texnologik zonalarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Biroq, hozirda respublikamizda sport sohasi, baliqchilik sohasi, turizm sohasi va agropilisga ixtisoslashgan EIHLar ham tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatmoqda.

3. O‘zbekistonda EIHLarni tashkil etishga zaruriyat bo‘lgan bir qancha sabab va ehtiyojlar mavjud edi. Buning natijasida oxirgi 2,5 yil ichida mamlakatimizda yana 18 ta EIHL tashkil etilib, hozirgi kunda respublikamizda 21 ta EIHL hamda 153 ta

¹⁰⁹ Xalilova F. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish. // Sbornik statey slushateley, professorsko-propodavatel’skogo sostava Akademii gosudar’skogo upravleniya pri Prezidente Respubliki Uzbekistan. Krugliy stol: “Voprosi modernizatsii sistemi gosudarstvennogo upravleniya”. – Tashkent: 1 noyabrya 2013 goda, 134-bet.

kichik sanoat zonalarini tashkil etildi. O‘zbekistonda EIHni tashkil etishda bir qator hujjatlar talab etilib, mzkur hujjatlar ro‘yxati boshqa davlatlardagiga nisbatan kamligi bilan ajralib turadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbekistonda EIHlarni tashkil etish sabablari, tarixi va rivojlanish xususiyatlari nimalardan iborat?
2. O‘zbekistonda bugungi kunda EIHlar qaysi qonun hujjati asosida tashkil etiladi?
3. O‘zbekistonda bugungi kunda nechta EIHlar va KSZlari faoliyat ko‘rsatmoqda?
4. O‘zbekistonda bugungi kunda EIHlarni tashkil etishda qanday hujjatlar taqdim etilishi talab etiladi?
5. O‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?
6. O‘zbekistonda dastlabki EIH qachon tashkil etilgan?

12.2. O‘zbekistonda “Navoiy”, Angren” va “Jizzax” erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini tashkil etish shart-sharoitlari va iqtisodiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 27-yanvardagi 21-sonli Qarori asosida tasdiqlangan “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, ushbu zonada maxsus huquqiy rejim, shu jumladan, soliq, valyuta va bojxona rejimlari, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan fuqarolarning kirishi, bo‘lishi va chiqib ketishining, shuningdek, mehnat faoliyatini amalga oshirishga ruxsatnoma olishining soddalashtirilgan tartibi amal qiladi. Zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnikani, texnologik liniyalari va modullarni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarning keng doirasini ishlab chiqarish “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona faoliyatining asosiy yo‘nalishi hisoblanib, faoliyat ko‘rsatish muddati 30 (o‘ttiz) yilni tashkil etib, ushbu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin.

Jahon andozalari talablariga javob beradigan texnologiyalaridan foydalanilayotganligi, har qanday ob-havo sharoitida ham 1000 tonnadan ortiq yuklarni saqlash va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, samarali tarzda eksport, import va tranzit yuklarga xizmat ko‘rsata oladi. Janubiy Koreyaning “Korean Air Co” havo yo‘llari hamkorligida tashkil etilgan xalqaro logistika markazining rivojlantirish yo‘nalishlari 3 bosqichga mo‘ljallangan bo‘lib, 1-bosqichda (2009-2010 yy.) qulay infratuzilmani barpo etish, 2-bosqichda (2011-2013 yy.) faoliyat yo‘nalishini kengaytirish, 3-bosqichda (2014-2019 yy.) ushbu logistika markazining to‘laqonli faoliyatini ta‘minlashdan iboratdir. 2010-yilda logistika markazi tomonidan 11 ta yo‘nalish bo‘yicha, jumladan, Bangkok, Bombay, Bryussel, Dakka, Dehli, Dubay, Seul, Istanbul, Milan, Frankfurt, Shanxay shaharlariga yuk va yo‘lovchi tashish qatnovlari yo‘lga qo‘yildi. 2011-yildan esa 7 ta yo‘nalish (Olmeta, Boku, Bishkek, Tehron, Xanoy, Chendu, Saragosa) bo‘yicha doimiy qatnovlar

yo'lga qo'yildi.

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga jalb etilgan to'g'riridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga o'z mahsulotini eksportga yo'naltiruvchi korxonalar faoliyatining samarasi sababli Navoiy viloyatining tashqi savdo aylanmasi tobora kengayib bormoqda. Buni quyidagi rasmlardan ko'rish mumkin. Unga ko'ra, tashqi savdoda asosiy hamkorlar sifatida Osiyo va Yevropa mintaqalari davlatlari o'rin olgan.

Umuman, “Navoiy” EIIZning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun hozirda quyidagi omillar mavjud:

- turli xomashyo resurslarining mavjudligi va ularni 30%dan kam bo'lmagan mahalliyashtirish darajasida chuqur qayta ishlash imkoniyati;

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq yirik bozorlarning mavjudligi;

- transport infratuzilmasining rivojlanganligi;

- katta inson salohiyatining mavjudligi;

- hududda yuqori texnologiyalarni jalb etish orqali diversifikatsiyalangan ekologik toza sanoat bazasini shakllantirish imkoniyati.

Mazkur hududning rivojlanishi iqtisodiyot rivoji va raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bugungi kunda respublikamizda yana bir qancha EIHLarning tashkil etilganligi ularni rivojlantirishga bo'lgan e'tiborning yanada ortishiga sabab bo'lmoqda.

Bu borada to'plangan tajribani va Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg'ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, 2012-yilda “Angren” maxsus industrial zonasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan edi.

“Angren” EIH, birinchi galda, o'z vaqtida sanoat shaharlari sifatida tashkil qilingan, ammo bu salohiyat o'z davrida bir yoqlama, markazga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga asoslanib qolgan Angren va Ohangaron shaharlarining bugungi kunda isloh etilayotgan sanoat tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy texnologiyalar asosida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishini ta'minlaydi. Bu bilan ushbu maxsus iqtisodiy zona Toshkent viloyatidagi ikkita yirik hudud – Angren hamda Ohangaron shaharlari va ularning atrofidagi mahalliy punktlarda istiqomat qilayotgan aholi farovonligini oshirishga ham munosib ulush qo'shadi.

Mazkur EIHNing yana bir afzalligi shundaki, u mamlakatimizning shimoli-sharqiy qismidagi Angren va Ohangaron shaharlari hamda ular atrofidagi hududlarda barpo qilinadi. Bu hududda “Angren” logistika markazi ham joylashganligi esa, yangi industrial zona salohiyatining oshishiga qo'shimcha yordam bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekistonni Qirg'iziston orqali Xitoy bilan bog'lovchi bo'lajak avtomagistralning Angren shahridan o'tishi, qolaversa, ushbu shahar mamlakat poytaxtini Farg'ona vodiysi bilan bog'lovchi asosiy nuqtalardan biri ekanligini inobatga olsak, “Angren” EIH ham milliy, ham mintaqaviy, ham xalqaro miqyosda

ahamiyatga molikligi yanada oydinlashadi. Shu tariqa bugungi kunda mamlakatimizning markaziy qismida joylashgan va ishlab chiqarish bilan bir qatorda, havo transporti vositasida xalqaro miqyosda xizmat ko'rsatishga asoslangan "Navoiy" EIH safiga shimolda joylashgan va ishlab chiqarishdan tashqari milliy hamda xalqaro miqyosda avtomobil yo'llari yordamida yuk tashishga asoslangan "Angren" maxsus industrial zonasi ham qo'shildi.

"Jizzax" EIH viloyat sanoatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hudud soliq va bojxona to'lovlari uchun belgilangan imtiyozlar hamda xomashyo va butlovchi qismlar boj to'lovlaridan ozod etilishi "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida ham sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. "Jizzax" EIH tashkil etilishi natijasida o'tgan qisqa muddatda 19 zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Iqtisodiy hududning Jizzax shahridagi hududida 363,7 gektar maydonda 14 ta, Sirdaryo viloyatidagi filialining 150 gektar maydonida 5 ta loyihani amalga oshirish uchun 91,3 million dollar miqdorida investitsiya sarflandi. Zamonaviy texnologiya asosida barpo etilgan korxonalarda mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Doimiy ish o'rniga ega bo'lganlarning 60 foizi kasb-hunar kollejarini bitirgan yosh mutaxassislardir.

2017-yilda "Jizzax" EIHda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 255,2 milliard so'mni, eksport hajmi 11,9 million dollarni tashkil etdi¹¹⁰. Hozirgi kunda hududda avtomobillar va yuk mashinalari uchun tormoz kolodkalari, televizor, konditsioner, muzlatkich, kir yuvish mashinasi, mikroto'lqinli pech, svetodiodli lampalar, polipropilen iplar, video va IP telefonlar, telekommunikatsiya uskunalari, internet tezligini oshiruvchi butlovchi qismlar kabi turli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda¹¹¹. Bu mahsulotlarning aksariyati nafaqat Jizzax va Sirdaryo viloyatlari, balki mamlakatimizdagi boshqa bozorlar uchun ham yangilikdir.

Ayni paytda erkin iqtisodiy zona ma'muriy kengashi xorijiy va mahalliy investorlar bilan dastlabki qiymati 213,3 million dollar bo'lgan 25 loyihani amalga oshirish ustida ish olib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ayrim EIHlar endi tashkil etilganligini hisobga olib, ularni tashkil etish va rivojlantirishda quyidagi masalalarning hal etilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

- EIHlar faoliyatini butun xo'jalik huquqiy masalalarini tartibga solish, maxsus ishlab chiqarish;
 - transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish;
 - zarur infrastruktura: suv ta'minoti, elektr ta'minoti, ijtimoiy sharoit va boshqalar;
 - tijorat infrastrukturasi: bank, konsalting, yuridik xizmatlarning mavjudligi;
 - bozorga kira olish;
 - mehnat qiymati va unumdorligi;
 - mavjud sanoat bazasi;
 - EIHlar ma'muriy boshqaruvining samarali tuzilmasi.
- Shuningdek, EIHlarda investitsiyalarni jalb etish qulayligini oshirish evaziga

¹¹⁰ www.sizjizzakh.uz sayti ma'lumotlari

¹¹¹ www.jizzax.uz/wp-content/uplo sayti ma'lumotlari

mamlakat investitsion jozibadorligini yanada oshirishga erishish lozim. Bunda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish o'zining ijobiy samarasini beradi, deb hisoblaymiz:

- investitsion loyihalarni amalga oshirish yuzasidan milliy marketologlarimiz tomonidan marketing tadqiqotlarini turli omillar ta'sirini inobatga olingan holda olib borishni yanada rivojlantirish;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo'lgan lizing, faktoring, franchayzing operatsiyalaridan keng foydalanishni kengaytirish;

- respublikamizning nufuzli universitetlari negizida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot innovatsion markazlar tashkil etish;

- mamlakatimizdagi yuqori ishlab chiqarish potensialga va rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan hududlarida yangi tashkil etilgan EIHLarga investitsiyalarni jalb etishda ushbu EIHLar joylashgan hudud mahalliy hokimliklarining xorijiy davlatlar bilan mustaqil aloqalar o'rnatish va hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-sonli Farmoni qabul qilinishi asosida "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi, "Angren" va "Jizzax" maxsus industrial zonalari nomini bixillashtirish maqsadida ularni "Navoiy", "Angren" va "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalar deb nomlanadigan bo'ldi.

Ushbu Farmon bilan mazkur EIZlar faoliyatini yanada rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berildi:

- xorijiy investorlarga mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorlariga investitsiya kiritishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar uchun yagona huquqiy rejimni belgilash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalarni bixillashtirish;

- mahalliy mineral xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlaydigan va yuqori qo'shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan yuqori texnologiyali va mahalliyashtiriladigan zamonaviy korxonalarni tashkil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, erkin iqtisodiy zonalarning muayyan sohaga ixtisoslashuvini qo'llab-quvvatlash va ularda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;

- erkin iqtisodiy zonalarda "yagona darcha" tamoyili asosida barcha turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatishga, jumladan, ruxsat berish tartib-taomillariga bosqichma-bosqich o'tish;

- ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, shuningdek, sifatli logistika xizmatlari ko'rsatish bo'yicha zamonaviy infratuzilmani shakllantirish;

- oliy, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida erkin iqtisodiy zonalarning soha kadrlariga bo'lgan hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashini nazarda tutgan holda, yuqori malakali mutaxassislarni

tayyorlashni tashkil etish.

Shuningdek, Farmon asosida tutilgan imtiyozlar kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha, jumladan:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 3 yil muddatga;

- 3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 5 yil muddatga;

- 5 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 7 yil muddatga;

- 10 million va undan ko'p AQSh dollari hajmidagi investitsiyalar so'nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig'i va yagona soliq to'lovi stavkalari qo'llangan holda – 10 yil muddatga beriladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017-yil 26-oktabrda imzolangan "Erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni EIHlarni izchil rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish borasida yana bir muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'tish iqtisodiyoti davrida turgan O'zbekiston Respublikasi uchun oldimizga qo'yilgan ulkan maqsadlarga erishishda investitsiya zahiralarining chet el manbalariga murojaat etilishi ham strategik, ham joriy masalalarni hal qilish zaruriyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu vazifalardan eng muhimlari:

- milliy iqtisodiyotni qayta tuzish;

- mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi nomutanosibliklarni yo'qotish;

- mamlakatning eksport salohiyatini kuchaytirish;

- import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish;

- raqobat muhitini rivojlantirishga yordam beradigan iqtisodiyotning xususiy va aralash sektorlarini shakllantirish;

- bozor infratuzilmasini yaratish;

- ilg'or chet el texnologiyasi, nou-xau va boshqaruvchilik tajribasini jalb qilish.

O'z navbatida, respublikamizda ko'p yillar davomida yaratilgan qulayliklar asosida aytish mumkinki, O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb etish uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud:

- siyosiy barqarorlik;

- xususiy mulk va raqobatni himoyalaydigan qonunchilik bazasining shakllangani;

- investitsiya jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilmaning barpo etilgani;

- mamlakatning qulay geografik joylashuvi;

- agrosanoat sektorini rivojlantirish salohiyatining yuqoriligi va mamlakatning mineral-xomashyo resurslariga boyligi;

- yuqori malakaga ega mehnat resurslarining mavjudligi;

- savdo uchun ichki bozor hajmining yetarli darajada kengligi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va belgilangan vazifalar davla investitsiya siyosati ijrosi va samarasi uchun xizmat qilib, pirovardida, tashqi iqtisodiy

aloqalarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va unga qaratilgan faoliyatlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Bular esa, o‘z navbatida, mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada rivojlantirishda to‘laroq o‘z aksini topadi. Shu sababli, mamlakat eksport salohiyati rivojlantirishning barcha zamonaviy va qulay tizimi, shart-sharoitlarini yaratish va unga qaratilgan investitsiyalashda xorijiy sarmoyalardan ham keng foydalanishni izchil davom ettirib bormog‘imiz lozim.

Bu esa bevosita eksport salohiyatimizni oshirish maqsadida transport-logistika tizimini takomillashtirish lozimigini keltirib chiqaradi. Chunki, dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko‘plab qiyinchiliklar paydo bo‘lmoqda. Shu ma’noda respublikamizda qulay transport-logistika tizimini va xalqaro transport-logistika tarmog‘ini yaratishda olib borilayotgan ishlar va ularning milliy eksport salohiyatimizni oshirishga, jumladan, EIZlar korxonolari eksporti hajmini yanada oshirishga ham xizmat qilishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlamoq lozim. Buni quyidagi 12.1-jadval ma’lumtlari ham taqdislaydi.

12.1-jadval.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi doirasida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ajratilgan mablag‘lar¹¹²

№	Tadbir nomi	O‘lcho v birligi	Ishlar hajmi	Investitsiyalar miqdori, mln. so‘m
	Jami:			102802,5
I.	Avtomobil yo‘llarini qurish va ta’irlash	km	127,3	61200
1.	“Navoiy” EIZda ichki va kirish yo‘llarini qurish	km	6,4	5000
2.	“Angren” EIZda A-373 aylanma yo‘lini avvalgi “Rezino-texnika” AJ avtobazasigacha rekonstruksiya qilish	km	6,7	9200
3.	“Jizzax” EIZda kirish yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish	km	7	3000
4.	Sharof Rashidov tumanidagi “Jizzax” EIZning kengaytirilayotgan hududida 2 ta yo‘l ko‘prigi bilan kirish yo‘llarini qurish	km	5,7	1000
5.	“Urgut” EIZda kirish yo‘llarini qurish	km	65,1	15000
6.	“Qo‘qon” EIZ hududining “A” blokidagi ichki avtomobil yo‘llarini qurish	km	6,2	10000
7.	“Qo‘qon” EIZ ichki avtomobil yo‘llarini qurish	km	4,6	5000
8.	“Hazorasp” EIZ hududidagi Pitnak shaharchasi Yu.Sherjonov massivining 2-zonasida avtomobil yo‘lini qurish	km	5,2	8000
9.	Hazorasp tumanidagi “Hazorasp” EIZ hududidagi Amudaryo qishlog‘ining 5-zonasida avtomobil yo‘lini qurish	km	0,4	900
10.	1 “Nukus-farm” EIZ hududiga kirish yo‘llarini qurish	km	1,5	1000
11.	1 “Namuna” massividagi “Kosonsoy-farm” EIZ hududiga kirish yo‘llarini qurish	km	5	2000
12.	1 “Bo‘stonliq-farm” EIZ hududiga kirish yo‘llarini	km	4,5	100

¹¹² O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi doirasida tuzildi.

2.	qurish			
1	“Parkent-farm” EIZ hududiga kirish yo‘llarini	km	9	1000
3.	va “Parkentsoy” orqali ko‘prik qurish			
I	Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tarmoqlarini			41602,5
I.	qurish hamda rekonstruksiya qilish			
1	“Angren” EIZ hududida (Angren shahri	km//oby	11//2	11820,9
4.	qismida) suvta‘minoti va kanalizatsiya	ekt		
	obyektlarini qurish			
1	“Urgut” EIZ hududida suv ta‘minoti	km//oby	6,2//3	9929,8
5.	obyektlarini qurish	ekt		
1	“Urgut” EIZ hududida kanalizatsiya	km	6,5	7286,0
6.	tarmoqlarini qurish			
1	“Qo‘qon” EIZ hududida suv quvurlari	km	17,96	6767,3
7.	tarmog‘ini qurish			
1	“Xazorasp” EIZ hududida suv ta‘minoti	km	4,8	1861,5
8.	obyektlarini qurish			
1	“Kosonsoy-farm” EIZ hududida suv quvurlari	km	5	1000
9.	tarmog‘ini qurish			
2	“Kosonsoy-farm” EIZ hududida kanalizatsiya	obyekt	1	1400
0.	tarmog‘i obyektlarini qurish			
2	“Bo‘stonliq-farm” EIZ hududida suv quvurlari	km	3	1537
1.	tarmog‘ini qurish			

12.1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilda Davlat investitsiya dasturida barcha moliyalashtirish mabnalari hisobidan mamlakatimizda tashkil etilgan 21 ta EIHning 11 ta EIHida transport-logistika va muhanjirlik-ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha 102802,5 mln. so‘mlik investitsiyalar yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan. Bu esa mazkur hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa hududlarda xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalar tashkil etilishi va ular faoliyati rivojlanishiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Jumladan, 2016-yilda O‘zbekiston hududlarida faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 5008 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda ular soni 5517ga etdi, 2018-yil mart oyi holatiga bunday korxonalar soni 5711 taga etib, ularning 3186 tasi qo‘shma korxonalar, 2525 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi¹¹³.

Mintaqa va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga EIHLarga orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada faollashtirish va shu asosda iqtisodiyotning mintaqalar kesimidagi eksport salohiyatini yanada oshirib borish lozim va buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozimdir:

1. Mintaqalar iqtisodiyotini yanada rivojlantirish imkonini beruvchi iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarning ishtirokini oshirishga katta e‘tibor qaratish lozim.

2. Ishlab chiqarishlarni eng ilg‘or texnologiyalar asosida tashkil etuvchi va yangi ish o‘rinlarini barpo etuvchi, mintaqalarda tayyorlanadigan xomashyolardan

¹¹³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. // www.stat.uz

ichki va tashqi bozorlar uchun tayyor mahsulotlar tayyorlovchi loyihalarni xorijiy investitsiyalar ishtirokida moliyalashtirishga ustuvorlik berish zarur.

3. Xorijiy hamkorlar bilan ish yuritishda ularning zamonaviy bilim va tajribalaridan oqilona foydalanish, mahalliy kadrlar orasida potensial kadrlar sonini oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

4. Mintaqalardagi infratuzilmalarni rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

5. Har bir mintaqada ma'lumotlarning axborot-tahlil bazalarini joriy etish va hududlarning investitsiya imkoniyatlari to'g'risida investorlarni axborot bilan ta'minlash yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, har bir mintaqada uchun ko'rgazma va biznes-seminarlar o'tkazishni ta'minlash lozim.

6. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida barpo etilgan korxonalar faoliyatini kengaytirish yoki takomillashtirish maqsadida joriy etiladigan yangi texnologiyalarni xalqaro lizing hisobiga ta'minlash va shu orqali mintaqalarda xalqaro lizing munosabatlarini yo'lga qo'yish va bu munosabatlarni davlat tomonidan rag'batlantirish tizimini joriy etish lozim.

7. Mintaqalarga xorijiy investitsiya ishtirokida resurslarni tejovchi kam chiqimli yoki chiqimsiz yanada progressiv texnologiyalarni joriy qilish asosida eksportga yo'naltirilgan loyihalarni davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

8. Kelgusida ham tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'lida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- eksport yuklarini qo'shni davlatlardan temir yo'l orqali imtiyozli narxlarda o'tkazish bo'yicha muzokaralarni izchil davom ettirish;

- kelgusi yillarda ham bojxona tartiblarini keskin soddalashtirish, bojxona nazorati punktlari hamda yuklarni rasmiylashtirish postlarini tubdan isloh qilishni davom ettirish;

- Jahon bankining "Logistika samaradorligi indeksi"da mamlakatimiz o'rnini yuqori pozitsiyaga ko'tarish choralari ko'rish;

- milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini yanada oshirib borish orqali ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish asosida ishlab chiqarishning eksportga yo'naltirilganlik salohiyatini rivojlantirish borish;

- soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, samarasiz soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish;

- turizm eksportidan keladigan daromadni oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, jumladan, 2026-yilga borib yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 9 million nafarga, jumladan, uzoq xorijdan keluvchilar sonini 2 mln. nafarga turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2,2 mlrd. AQSh dollarigacha etkazish lozim.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, rezident, texnologiya, diversifikatsiya, sanoat, investor, investitsiya loyihasi, innovatsiya, imtiyoz.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. O'zbekistonda dastlabki vaqtlardan (2008-2013 yillarda) 3 ta EIH "Navoiy", Angren" va "Jizzax" EIHlari tashkil etilib, ularni rivojlantirish bo'yicha ma'lum sinov, tajriba va yutuqlar qo'lga kiritildi. Ushbu har bir EIHni tashkil etishning o'ziga xos asoslari, shart-sharoitlari, imkoniyatlari va ehtiyojlari mavjud bo'lib, bularning barchasi mazkur EIHlarning rivojlanishida kompleks ta'sir ko'rsatish imkoniga ega.

2. O'zbekistonda tashkil etilgan "Navoiy", Angren" va "Jizzax" EIHlarida xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, hudud ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida bir qator soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etildi. Biroq, amalda yaratilgan qulaylik va imtiyozlarga qaramay mazkur EIHlarga investitsiyalarni jalb etish, ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish talab darajasida bo'lmadi. Ayrımlari, hatto, importga bog'liq loyihalarga suyanib qoldi.

3. O'zbekistonda tashkil etilgan "Navoiy", Angren" va "Jizzax" EIHlari bir qator davlatlar tajribalarini o'rganish asosida tashkil etilgan bo'lsa-da, ulardagi mavjud muammolar bir qator masalalarning hal etilishi bilan bog'liq holda ko'zga tashlanib qoldi. Jumladan, qulay infratuzilmaning, xorijga chiqish-kirish viza rejimi zarurligi, ma'muriy va bosqa to'siqlarni bartaraf etish, tashqi iqtisodiy faoliyat erkinligining huquqiy asoslarini takomillashtirish eng muhim masalalardan hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekistonda "Navoiy", Angren" va "Jizzax" EIHlari qachon va nima maqsadlarda tashkil etildi?

2. O'zbekistonda tashkil etilgan "Navoiy", Angren" va "Jizzax" EIHlarining faoliyat yo'nalishlari nimalardan iborat?

3. O'zbekistonda tashkil etilgan "Navoiy", Angren" va "Jizzax" EIHlarida qanday soliq, bojxona va ma'muriy imtiyozlar berilgan?

4. O'zbekistonda tashkil etilgan "Navoiy", Angren" va "Jizzax" EIHlari faoliyatida qanday muammolar kuzatildi?

5. O'zbekistonda tashkil etilgan "Navoiy", Angren" va "Jizzax" EIHlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturida EIHlarni rivojlantirishga doir qanday loyihalar amalga oshirilmoqda?

12.3. O'zbekistonda so'nggi yillarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar, ularning ahamiyati va xususiyatlari

Tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan mineral-xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali

foydalanish, shu asosda yangi ish o‘rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4931-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushu Farmon asosida Samarqand viloyati Urgut tumanida – “Urgut”, Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida – “G‘ijduvon”, Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahrida – “Qo‘qon”, Xorazm viloyati Hazorasp tumanida – “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etildi.

Farmonga ko‘ra, quyidagilar “Urgut” EIZ, “G‘ijduvon” EIZ, “Qo‘qon” EIZ va “Hazorasp” EIZning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilandi:

- tashqi bozorlarda talab katta bo‘lgan va importning o‘rnini bosuvchi, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb etish;

- Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatlaridan kompleks hamda samarali foydalanishni ta‘minlash;

- meva-sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to‘qimachilik, gilam to‘qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmasevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo‘nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

- mahalliy xomashyo va materiallar negizida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish hamda erkin iqtisodiy zonalar korxonalarini o‘rtasida va umuman respublikada sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab chiqarish markazlari tashkil etish va ularning qarorlari xalqaro darajada e‘tirof etilishini ta‘minlash chora-tadbirlarini ko‘rish.

Mazkur “Urgut” EIZ, “G‘ijduvon” EIZ, “Qo‘qon” EIZ va “Hazorasp” EIZning faoliyat ko‘rsatish muddati, keyinchalik uni uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi hamda faoliyat ko‘rsatish muddati mobaynida “Urgut” EIZ, “G‘ijduvon” EIZ, “Qo‘qon” EIZ va “Hazorasp” EIZ hududlarida alohida soliq, bojxona va valyuta rejimi amal qiladi.

Shuningdek, respublikamizning farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, dorivor o‘simliklar xomashyosini yetishtirishning noyob sharoitlarini inobatga olgan holda mahalliy dorivor vositalar bozorini o‘zimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli dori vositalari bilan to‘ldirish, ularni chuqur qayta ishlash hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo hamda Toshkent viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish asosida yangi ish o‘rinlarini yaratish va respublikamiz aholisi daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil

3-maydagi “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5032-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmon asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo hamda Toshkent viloyatlarida “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etildi hamda ushbu EIZlarning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilab berildi:

- dorivor o‘simliklar xomashyosini o‘ziga xos tabiiy sharoitlarda etishtirish va keyinchalik qayta ishlash borasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo hamda Toshkent viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatlaridan kompleks hamda samarali foydalanishni ta‘minlash;

- yuqori qo‘shilgan qiymatli zamonaviy farmasevtika mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqarishni, birinchi navbatda, belgilangan tartibda tashkil etilgan plantatsiyalarda etishtirilgan dorivor moddalar (substansiyalar) hamda dorivor o‘simliklar xomashyosi negizida tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb etish;

- dorivor o‘simliklar xomashyosini qayta ishlash va dori vositalari, tibbiyot buyumlari, yordamchi va qadoqlash materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha yangi zamonaviy ishlab chiqarish va quvvatlarni tashkil etish;

- mustahkam kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish va erkin iqtisodiy zonalar tashkilotlari hamda respublikamizning boshqa korxonalari o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida mahalliy dorivor o‘simliklar xomashyosi va materiallari negizida farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- dorivor o‘simliklar xomashyosi introduksiya va kultivatsiyasini o‘rganish bo‘yicha tajriba-eksperimental laboratoriyalari bo‘lgan ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish.

Mazkur EIHlarning faoliyat ko‘rsatish muddati, keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi hamda faoliyat ko‘rsatish muddati mobaynida “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” EIZ hududlarida alohida soliq, bojxona va valyuta rejimlari amal qiladi.

Shuningdek:

- Toshkent viloyatining turistik salohiyatini yanada rivojlantirish hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish, hududga xorijiy va mahalliy turistlarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish, zamonaviy infratuzilmani jadal rivojlantirishni ta‘minlash, ko‘rsatilayotgan turistik, mehmonxona va transport xizmatlarini kengaytirish va sifatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrda “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni;

- poytaxt viloyatida dunyoning ilg‘or ishlab chiqaruvchilari jalb etilgan holda sport kiyimlari, inventar va uskunalarni ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun “Sport” erkin iqtisodiy zonasini tashkil

etishni nazarda tutgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni va ushbu Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3583-sonli Qarori;

- baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar va ishlanmalar sifatini oshirish, ularning natijalarini amaliyotga keng joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3657-sonli Qarori asosida Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani hokimligiga sud qarori bilan berilgan mol-mulk va er uchastkalari, shu jumladan, suv havzalari negizida “Baliq ishlab chiqaruvchi” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi;

- Sirdaryo viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda oqilona foydalanishini ta‘minlash, shu asnda yangi ish o‘rinlari tashkil etish va mahalliy aholining daromadlarini oshirish maqsadida “Jizzax” EIZ Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi filiali va Sirdaryo viloyatining Yangier shahridagi kichik sanoat zonasi negizida “Sirdaryo” EIZni tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5412-sonli Farmoni;

- Tashqi bozorlarda talab katta bo‘lgan, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar etishtirishni ta‘minlaydigan zamonaviy issiqxona xo‘jaliklarini tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, shuningdek, Buxoro viloyatining ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o‘rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirish maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-iyuldagi “Buxoro-Agro” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3843-sonli Qarori;

- Namangan viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatini kompleks rivojlantirish, mineral-xomashyo va qishloq xo‘jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologik va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishlarni tashkil etishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish xamda shu asosda viloyatning, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo mamlakatlarining chegaradosh hududlari bilan eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish xamda hudud aholisi farovonligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-avgustdagi “Namangan” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5517-sonli Farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi “Andijon-farm” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida Andijon viloyatining Andijon tumanida “Andijon-farm” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi. Ushbu EIH faoliyati 30 yilga tuzilgan bo‘lib, unga alohida soliq va bojxona tartiblari amal qiladi. Ushbu EIHning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- yuqori qo‘shilgan qiymatli, shu jumladan, “in-bulk” shaklida farmasevtika mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonalarni tashkil etish uchun, eng avvalo, Hindiston Respublikasi yetakchi kompaniyalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari va ilg‘or texnologiyalarini jalb etish;

- dorivor o‘simliklar xomashyosini qayta ishlash va tayyor dori vositalari, tibbiyot buyumlari, tibbiy texnikalar, yordamchi va qadoqlash materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha yangi zamonaviy ishlab chiqarish va quvvatlarni tashkil etish;

- dorivor o‘simliklar xomashyosini o‘ziga xos tabiiy sharoitlarda etishtirish va keyinchalik qayta ishlash borasida Andijon viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanishni ta‘minlash;

- erkin iqtisodiy zonalar tashkilotlari hamda respublikamizning boshqa korxonalari o‘rtasida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali mahalliy dorivor o‘simliklar xomashyosi va materiallari negizida farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- “Andijon-farm” EIZ hududida muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, shuningdek, uning hududida sifatli logistika xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha zamonaviy infratuzilmani shakllantirish;

- “Andijon-farm” EIZning soha kadrlariga bo‘lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqib, yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan, ularning “Andijon-farm” EIZ hududida joylashgan korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashini tashkil etish orqali tayyorlashda qatnashish.

Natijada bugungi kunga kelib mamlakatimizda tashkil etilgan EIHLar sekin-asta o‘z samarasini bera boshladi. Ularda amalga oshirilayotgan staralegik ahamiyatga molik investitsiya loyihalari esa yaqin vaqtlar ichida EIHLarning to‘liq samarasini ko‘rsatishda o‘z ahamiyatini ko‘rsatadilar.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, xomashyo, raqobat, investor, samara, tarmoq, investitsiya, soliq, bojxona, valyuta, eksport.

Mazkur paragraf bo‘yicha umumiy xulosalar:

1. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda EIHLarni tashkil etish va rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Buning natijasida Davlat investitsiya dasturida ularni rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida o‘rin ajratilmoqda. Tashkil etilgan EIHLar viloyat, shahar va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, imkoniyatlari va salohiyatlarini hisobga olgan holda tegishli me‘yoriy hujjatlar asosida yaratildi va ularning har birining maqsad va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi.

2. O‘zbekistonda EIHLarga faoliyat muddatlari, imtiyozlari belgilab berilgan bo‘lib, ular faoliyatini boshqarishda Ma‘muriy kengash va direksiyalar faoliyatini muvofiqlashtirildi hamda takomillashtirildi. O‘z navbtida, ularning huquq va vakolatlari kengaytirilishi bilan birga, javobgarliklari yanada kuchaytirildi. Bu EIHLar rivojida muhim omildir.

3. Bugungi kunda O‘zbekistonda turli yo‘nalishdagi EIHLar faoliyati yo‘lga

qo'yilgan bo'lib, ular respublikamizning mavjud 14 ta hududining 12 tasida tashkil etildi. EIHLarnig eng ko'pi Toshkent viloyatida tashkil etilgan bo'lib, unda bugungi kunda 6 ta EIH faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, endilikda shahar hududlarida texnoparklarni tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekistonda bugungi kunda nechta EIH nechta hududda tashkil etilgan?
2. O'zbekistonning qaysi hududida eng ko'p EIH tashkil etilgan va sababi nimada?
3. O'zbekistonda EIHLar faoliyat yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. O'zbekistonda tashkil etilgan EIHLarda qanday soliq, bojxona va ma'muriy imtiyozlar mavjud?
5. Bugungi kunda O'zbekistonda EIHLar rivoji uchun qanayd qulayliklar taqdim etilmoqda?
6. O'zbekistonda EIHLar faoliyatini rivojlantirish uchun yana qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaysiz?

12.4. O'zbekistonda tashkil etilgan kichik sanoat zonalari va ularning xususiyatlari

Hozirgi vaqtda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llaridan biri bo'lib kichik sanoat zonalari (KSZ) hisoblanadi. Kichik sanoat zonalari – bu tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo'ljallangan, muhandislik-kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarini, ma'lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi hudud. Kichik sanoat zonalari ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Xususan, sanoat ishlab chiqarishni jadallashtiradi, hududlarni tadbirkorlik uchun investitsion jozibadorligini oshiradi, yangi investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb qilishga, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga va ularni rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib beradi, jamiyat uchun o'lik yuk bo'lib yotgan bo'sh maydonlardan real iqtisodiy sektorni rivojlantirish orqali ulardan samarali foydalanishga, aholi uchun ish joylarini yaratishga, hamda yangi raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-iyuldagi "Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2200-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyundagi "Zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan hududlarini hamda ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 192-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 31-dekabrda "Kichik sanoat zonalari barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 378-sonli Qarori bilan tasdiqlangan nizom Respublikamiz hududlarida kichik sanoat zonalari barpo etish va rivojlantirishga huquqiy zamin yaratdi, desak bo'ladi.

Kichik sanoat zonalar zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning va davlat mulki bo'lib foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida va binolarda tashkil etiladi. Bu joylarda ma'lum darajada ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjud, ya'ni, suv, gaz, elektroenergiya ta'minoti va avtomobil yo'llari. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlarning o'z ishlarini yo'lga qo'yish uchun ketadigan boshlang'ich xarajatlarini keskin kamaytirishga olib keladi va biznesni boshlashni tezlashtiradi. Kichik sanoat zonalar uchun ajratiladigan maydonlar tadbirkorlik subyektlariga minimal stavka bilan qo'shimcha koeffitsientlarsiz uzoq muddatga ijaraga beriladi. Ular uchun zarur bo'lgan tashqi muhandislik kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarining qurilishi DAK "O'zbekenergo", AK "Uztransgaz" va mahalliy hokimiyatlar budjeti mablag'idan amalga oshiriladi va kichik sanoat zonasida joylashgan tadbirkorlik subyektlari elektroenergiya va tabiiy gaz bilan muntazam ravishda ta'milanadi.

Kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish tanlov asosida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv kichik sanoat zonalarga raqobatbardosh va eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchi, ya'ni zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi tadbirkorlarni jalb qilishga sharoit yaratadi. Bu kichik sanoat zonalarining raqobatbaroshligini oshiradi¹¹⁴.

Kichik sanoat zonalarini iqtisodiyot tarmoqlarini sanoatlashtirish, mahalliy xomashyo va materiallardan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning ishlab chiqarish, eksport xajmini oshirish kabilar orqali iqtisodiyot raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan respublikamizda so'nggi yillarda barcha mintaqalarda kichik sanoat zonalarini (KSZ)ni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Kichik sanoat zonalarining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etilishi sinergetik samaraga olib keladi.

- kichik sanoat zonalarida kichik biznes subyektlariga umumiy xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarni tashkil etilishi ham qo'shimcha samaraga olib keladi. Masalan: yagona omborxonalar xizmati, transport xizmati, uskuna va texnologiyalarni ta'mirlash xizmati, ta'minot xizmati, qo'riqlash xizmati va boshqalar.

- kichik sanoat zonalaridagi tadbirkorlik subyektlari o'rtasida kooperatsiyani yo'lga qo'yilishi har bir tadbirkorlik subyekti amalga oshira olmaydigan yirik loyihalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masalan: qimmatbaho yangi uskuna yoki texnologiyani sotib olish, eksportni qo'llab quvvatlash, qo'shimcha ishlab chiqarish tseklarini tashkil etish, logistika xizmatlarini kengaytirish. Yuqoridagilar kichik sanoat zonalarini ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

KSZlarini barpo etishni tashkil etish masalalari zonalarining o'zida ishlab

¹¹⁴ Salimboev B.B. O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – № 1, yanvar-fevral, 2018-yil.

chiqarish subyektlarini joylashtirishga tayyorlash bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Maydonlarni tekislash, muhandislik-kommunikatsion elementlarini barpo etish, markaziy avtomobil yo‘liga chiqishni taminlaydigan yo‘lni qurish, zona atrofini o‘rash, zonada qancha kichik biznes subyektlarini joylashtirish mumkinligini aniqlash, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish obyektlarini aniqlash va ularni joylashtirish, har bir tadbirkorlik subyekti uchun qancha joy ajratish kerak, ularni bir-biridan ajratib turadigan masofa qanday bo‘lishi kerak degan masalalarni hal qilishga to‘g‘ri keladi. Odatda, KSZlarida har bir tadbirkorlik subyekti uchun 0,2-0,5 ga atrofida er uchastkasi ajratilishi kuzatiladi.

KSZlarini barpo etishni asoslashda ularning iqtisodiy samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu erda, birinchi navbatda, zona hududiga joylashtiriladigan tadbirkorlik subyektlarining loyixalari samaradorligini baholashga e‘tiborni qaratish zarur. Keyingi bosqichda zona hududini tayyorlash, unda muhandislik-kommunikatsion elementlarini, xizmat ko‘rsatish obyektlarini qurishga sarflangan xarajatlarni etiborga olgan holda zonalarning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash zona faoliyatini iqtisodiy asoslashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, KSZlarni ijtimoiy samaradorligini baholash va uni atrof-muhitga ekologik ta‘sirini baholash ham zonalarni tashkil etilishini asoslashda muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Bu erda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini daromad bilan ta‘minlash, atrof-muhitga salbiy ta‘sirini minimal darajada bo‘lishiga erishish nazarda tutiladi. KSZlarning iqtisodiy samaradorligini baholash quyidagi bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin:

- hududni tayyorlash, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini yaratishga qilingan xarajatlarni aniqlash, ya‘ni, suv, gaz, elektroenergiya ta‘minoti va avtomobil yo‘llarini yaratish sarflari;

- har bir tadbirkorlik subyekti loyixasining samaradorligini uning biznes rejasiga ko‘ra aniqlash;

- KSZda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum, foyda va xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan foydani hisoblash;

- zonalarda kichik biznes subyektlariga umumiy xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalarni tashkil etilishi bilan bog‘liq xarajatlarni hisoblash;

- KSZning umumiy samaradorligini baholash.

KSZlarning samaradorligini baholashda malum bo‘lgan quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin: sof joriy qiymat (NPV), rentabellikning ichki me‘yori, qoplash yoki samaradorlik koeffitsienti (IRR), loyixalarni rentabelligini hisoblash (PI)¹¹⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari asosida mamlakatimiz hududlarida KSZlari tashkil etilib kelinmoqda. Ularning bugungi kundagi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi

¹¹⁵ Salimboev B.B. O‘zbekistonda kichik sanoat zonalari barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – № 1, yanvar-fevral, 2018-yil.

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3356-sonli Qarori qabul qilinganligini muhim hujjat sifatida baholash mumkin.

Mazkur Prezident qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoatzonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 25-oktabrdagi PQ-3356-son Qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 29-sonli Qarori qabul qilindi va ushbu qarorning 1-ilovasiga muvofiq erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi nizom, 2-ilovasiga muvofiq Erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish va erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom, 3-ilovasiga muvofiq Erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilariga er uchastkalari berish tartibi to‘g‘risidagi nizom, 4-ilovaga muvofiq “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarlari tarkibiga kiruvchi hududlar chegarasini belgilash tasdiqlandi. Qarorning 1 va 2-ilovalari bevosita KSZlariga ham taalluqli hisoblanadi. Mazkur Nizomlar orqali EIH va KSZlarining faoliyatini samarali va tizimli tashkil etish tartibi belgilab berildi.

Umuman olganda, bugungi kunga, ya‘ni 2019-yil 1-yanvar holatiga respublikamizning barcha 14 ta hududida jami 137 ta, 1 may holatga esa 153 ta KSZlari tashkil etilgan. Bu esa mamlakatimizda KSZlarini tashkil etishga bo‘lgan e‘tiborning yuqoriligini va unga bog‘liq holda iqtisodiyot rivojini ta‘minlashga erishish masalaahlari diqqat markazida ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish, hududlarda aholining o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga erishishga, hududiy korxonalar faoliyatiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etishga, hududiy raqobatdosh va xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, hududlarda ishlab chiqarishni ixtisoslashuvini to‘g‘ri tashkil etish va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishga, hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga, hududlardagi mavjud mineral-xomashyo resurslari imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va qazib olish hamda qayta ishlash borasida tejamkor texnologiyalarni joriy qilishga, hududlarda kichik sanoat zonalari tashkil etish mexanizmini yanada takomillashtirish va ishlab chiqarishning to‘liq tsiklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi EIHLarni yanada rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tayanch iboralar:

Erkin iqtisodiy hududlar, kichik sanoat zonalari, infratuzilma, kichik biznes, texnologiya, investitsiya, sanoat, raqobat, tadbirkor.

Mazkur paragraf bo'yicha umumiy xulosalar:

1. Kichik sanoat zonalari – bu tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo'ljallangan, muhandislik-kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarini, ma'lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi hudud. O'zbekistonda so'nggi yillarda KSZlarini tashkil etishga katta e'tibor qaratilib, ular faoliyatini rivojlantirishda kichik biznes subyektlarini jalb etish asosida investitsiyalash, sanoatlashuv, ish bilan bandlik va modernizatsiyani rivojlantirishga erishish maqsadlari ko'zda tutilgan.

2. O'zbekistonda KSZlarini tashkil etishga bundan bir necha yil oldin – 2014 yildan e'tibor qaratila boshlandi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-iyuldagi PQ-2200-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyundagi 192-sonli hamda 2014-yil 31-dekabrda 378-sonli Qarorlari muhim asos bo'lib xizmat qildi. Buning natijasida bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida KSZlari tashkil etilib, faoliyat ko'rsatmoqda.

3. O'zbekistonda KSZlari EIHLardan farqli ravishda katta iqtiyoz va imkoniyatlarga ega bo'lmasa-da, biroq, kichik biznesni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muhim sharoit – yer, bino va inshootlarga investitsiya resurslari yetarli bo'lmagan sharoitda ham qulay ijara rejimida yangi biznesni tashkil etish va 3 yillik samarali faoliyat natijasida faoliyati yo'lgan qo'yilgan bino-inshootlarni “nol” qiymtda balansga qabul qilish imkoniyatni taqdim etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekistonda KSZlari qachondan boshlab va qanday hujjatlar asosida tashkil etila boshlandi?

2. O'zbekistonda KSZlari nima maqsadda tashkil etiladi?

3. O'zbekistonda KSZlari respublikamizning qaysi hududlarida qancha miqdorda tashkil etilgan?

4. O'zbekistonda KSZlari faoliyatida qanday muammolar mavjud?

5. O'zbekistonda KSZlaridagi qulayliklar va imtiyozlar EIHLardagidan nimasi bilan farqlanadi?

6. O'zbekistonda KSZlari istiqboliga qanday baho berasiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrda qabul qilingan “Davlat bojxona xizmati to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4853-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktabrdagi “Erkin

iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3356-sonli Qarori.

6. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.

IZOHLI LUG‘AT (GLOSSARIY)

A

Aktiv – (lot. *activus* – faol, ta’sirchan, ishchan) – 1) buxgalteriya balansining chap qismi, korxonaning muayyan sanada va pul ifodasida barcha vositalarini, ularning tarkibi va joylashuvini (asosiy fondlar, aylanma vositalar, pul vositalari, kapital sarflar, qarzdorlik talabnomalari va b.) aks ettiradi; 2) korxonada yoki tashkilotning mulki yoki resurslari (bino, mashina, naqd pul, qimmatli qog‘ozlar va b.). Pulga tez sotilishi (aylanishi) mumkin bo‘lgan, bozori chaqqon aktivlar (veksellar, qimmatli qog‘ozlar, oltin, naqd pul va b.) likvid aktivlar deyiladi.

Aksiya – (frants. *action* – farmoyish; ruxsatnoma, faoliyat) – aksiyador jamiyat chiqargan qimmatli qog‘oz. O‘z egasining aksiyadorlar jamiyati kapitalida hissasi borligini va shunga muvofiq topilgan foydaning bir qismini dividend shaklida olishini, uni boshqarishda ishtirok etish huquqini tasdiqlaydi.

Aksiya kursi – aksiyaning bozor narxi. Aksiya kursi aksiya keltiradigan dividend miqdoriga to‘g‘ri mutanosib va bank foizi darajasiga teskari mutanosiblikda o‘zgaradi. Aksiya kursi aksiya nominalidan (aksiyada ko‘rsatilgan summadan) yuqori yoki past bo‘lib, bu talab va taklifga bog‘liq. Aksiya kursini emitent emas, bozor belgilaydi. Aksiya narxining birjada belgilanishi *birja kotirovkasi* deyiladi.

Aksiyador – aksiyaning egasi, undan naf ko‘ruvchi yuridik va jismoniy shaxs.

Aksiyadorlik jamiyati – daromad topish maqsadida hissadorlik tamoyiliga binoan uyushgan sherikchilik jamiyati.

Aksiyadorlik kapitali – aksiyadorlik jamiyatining kapitali, sherikchilik asosida tashkil topgan korporativ mulk hisoblanadi.

Aksiyalarning nazorat paketi – aksiya egasiga aksiyadorlik jamiyatida amaldagi hukmronlikni ta’minlaydigan aksiyalar miqdori; chiqarilgan aksiyalarning umumiy summasida bir shaxs, kompaniya yoki davlatning yirik hissasi. Aksiyador jamiyatning yig‘ilishida hal qiluvchi ovozga ega bo‘lish huquqini beradi.

Amortizatsiya (lot. *amortisatio* – qoplash) – asosiy kapital (fondlar) amortizatsiyasi – asosiy kapital (mashina, mexanizmlar, jihozlar, binolar, inshootlar)ning ekspluatatsiya jarayonida eskirishi va ayni paytda ular qiymatining muayyan davr davomida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarga o‘tib borishi.

Amortizatsiya ajratmalari – mahsulot tannarxiga kiritiladigan asosiy fondlar amortizatsiyasi summasi; asosiy fondlarni qisman tiklash (kapital ta’mir va yangilash) va to‘liq tiklash fondlarini yaratishga xizmat qiladi.

Amortizatsiya fondi – 1) amortizatsiya ajratmalari hisobiga shakllanadigan maxsus fond; 2) mahsulotning tannarxi tarkibiga kiritiladigan amortizatsiya ajratmalari hisobidan korxonada shakllantiriladigan pul mablag‘lari fondi.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari (mashina, asbob-uskuna, ishlab chiqarish binolari va uskunalari)ni o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o‘tkazib boruvchi qismi.

Asosiy fondlar – ishlab chiqarishga uzoq muddat xizmat qiladigan, o‘z natural buyum shaklini uzoq vaqt o‘zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonida bir necha

bor qatnashadigan mehnat qurolari va vositalari.

Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat’i nazar shaxslar, predetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to’g’risidagi ma’lumotlar;

Axborot mulkdori – o’z mablag’iga yoki boshqa qonuniy yo’l bilan olingan axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

Axborotni muhofaza etish – axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari;

Axborot resurslari – alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to’plamlari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalaridagi, arxivlardagi, fondlardagi, ma’lumotlar banklardagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to’plamlari;

Axborot sohasi – sub’kutlarning axborotni yaratish, qayta ishlash va undan foydalanish bilan bog’liq faoliyati sohasi;

Axborot borasidagi xavfsizlik – axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati;

Axborot egasi – qonunda yoki axborot mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

B

Bankdlik – aholini ish bilan ta’minlash, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg’ul bo’lishi.

Bank kafolati – kafil banklarning mijozlari majburiyatlarini o’z zimmasiga olishi. Mijozlar qarzlarni o’z hisobidan va o’z muddatida to’lay olmagan hollarda banklar ularning topshirig’iga ko’ra va ularning hisobidan majburiyatlarni zimmasiga oladi. Qarz tegishli ta’minot (garov) asosida bank tomonidan to’lanadi.

Bank krediti – banklarning mijozlarga vaqtinchalik foydalanish uchun ma’lum shartlar va tamoyillarga asoslanib, kapital berishi.

Bank ssudasi – bankning foiz to’lovi sharti bilan kreditga berilgan pul mablag’i. Qisqa va uzoq muddatli turlarga bo’linadi.

Bank foiz stavkasi – bank ssudasidan foydalanganlik uchun belgilangan haq miqdori. Qarz summasiga nisbatan foiz hisobida undiriladi. Uning miqdori kreditning turi, muddati va qarzning vaqtida qaytarilishiga bog’liq.

Bankrot – 1) qarzдорlik, nochorlik, tadbirkorning o’z qarz majburiyatlari bo’yicha mablag’i bo’lmaganligi uchun to’lashdan bosh tortishi; 2) xo’jalik sudi tomonidan e’tirof etilgan, qarzдорning pul majburiyatlari bo’yicha kreditorlar talablarini to’la hajmda qondirishga yoki majburiy to’lovlar bo’yicha o’z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

Bankrotlik riski – tadbirkor tomonidan xususiy kapitalini butkul yo’qotish xavfi bilan bog’liq risklar.

Biznes – (ingl. business) – daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo’jalik faoliyati; foyda olish maqsadlari ko’zlangan va qonunlarga xilof bo’lmagan har qanday tashkiliy faoliyat.

Biznes-reja – aniq tanlangan tadbirkorlik ishining barcha bosqichlari

tavsiflangan va taxminan hisob-kitob qilingan loyiha. Unda aniq tanlangan tadbirkorlik ishining hamma tomonlari o‘z aksini topadi.

Bir-birining o‘rnini bosadigan tovarlar – o‘zining belgilangan vazifasi, qo‘llanilishi, sifat va texnik xususiyatlari, narxi hamda boshqa parametrlari bo‘yicha taqqoslanishi mumkin bo‘lgan shunday tovarlarki, ularni oluvchi iste‘mol qilish chog‘ida bir tovarni boshqasiga haqiqatan ham almashtiradi yoki almashtirishga tayyor bo‘ladi.

Bojxona bojlari – ma‘lum bir mamlakatning hududiga mahsulotlarni kiritish, undan chiqarish va olib o‘tishda undiriladigan iste‘mol soliqlaridan biri. Ularning asosiy maqsadi daromad olish bo‘lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq xo‘jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy (moliya-soliq) siyosatining instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan mahsulotlarning bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o‘xshash mahsulotlarning bahosini tenglashtirishi lozim. Odatda, mahsulotlar bahosidan olinadi. Buning uchun, ayrim hollarda, maxsus me‘zonlar (masalan, og‘irlik, maydon) ham qo‘llanilishi mumkin.

Bojxona brokeri – bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha operatsiyalarni deklarantning yoki vakolatli shaxsning topshirig‘iga binoan va uning nomidan shartnoma asosida amalga oshiradigan yuridik shaxs.

Bojxona deklaratsiyasi – asosiy bojxona hujjati bo‘lib, yukni tasarruf qiluvchi shaxsning arizasidan iboratdir. Bu hujjat yukni tasarruf qiluvchi tomonidan tovarni import yoki eksport qilishda bojxonaga taqdim etiladi.

Bojxona ittifoqi – ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o‘tkazishi.

Bojxona ishi – iqtisodiy, tartibga solish va huquqni muhofaza qilish maqsadlariga erishishga qaratilgan, bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlaydigan usullar va vositalar majmui.

Bojxona nazorati – O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta‘minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan, xavfni boshqarish tizimi qo‘llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui.

Bojxona operatsiyasi – tovarlarning va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvida tovarlarga va transport vositalariga nisbatan bojxona organlarining mansabdor shaxsi va (yoki) vakolatli shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat.

Bojxona rejimi – bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarning va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui.

Bojxona tarifi – tovar oqimlarining chegarani kesib o‘tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko‘rsatilgan tartiblangan tovarlar ro‘yxati.

Bojxona tartib-taomili – bojxona maqsadlari uchun amalga oshiriladigan bojxona operatsiyalarining majmui.

Bojxona to‘lovlari – mamlakat chegarasi orqali o‘tkaziladigan (olib kiriladigan va chiqariladigan) tovar-moddiy boyliklar uchun to‘lanadigan haq.

Bojxona ekspertizasi – tovarlarni identifikatsiyalashga qaratilgan hamda ekspert tomonidan fan, texnika, san‘at yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus

bilimlar asosida tadqiqotlar o'tkazish va xulosa berishdan iborat protsessual harakat.

Bojxona hamrohligida kuzatib borish – avtotransport vositalarining bojxona organlari tomonidan bojxona nazorati ostida kuzatib borilishi.

Bojxona hujjatlari – tovarlarni bojxona chegarasidan olib o'tish uchun rasmiylashtiriladi. Bu hujjatlarga quyidagilar kiradi: bojxona deklaratsiyasi, import va valyuta litsenziyalari, tovarning qayerdan kelib chiqqanligi to'g'risidagi guvohnoma, konsullik fakturasi, tranzit hujjatlari, veterinar, sanitar va karantin guvohnomalari va boshqalar.

Bozor infratuzilmasi – bozorda tovarlar va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlaydigan muassasalar, tashkilotlar majmui.

Bozor konyunkturasi – muayyan davrdagi bozor holati; bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan tavsiflanadi.

Boshlang'ich kapital – investitsiya qilish uchun to'plangan dastlabki summa yoki ish boshlash uchun kerak bo'ladigan sarmoya.

V

Valyuta konvertatsiyasi (lot. conversio – almashtirish) – valyuta almashinuvi – mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyutalarga yoki xalqaro to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi valyutaga erkin almashtirilishi.

Valyuta kursi – bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxi.

Valyuta siyosati – 1) davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valyutaga, valyuta kursiga, valyuta operatsiyalariga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari; davlat iqtisodiy siyosatining va tashqi iqtisodiy faoliyatining tarkibiy qismi; 2) mamlakatning joriy strategik maqsadlarga muvofiq xalqaro valyuta va boshqa iqtisodiy munosabatlar sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlari majmuasidir. U iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan.

Valyuta riski – bir valyutaning boshqasiga nisbati bo'yicha kursning o'zgarishi bilan bog'liq valyuta yo'qotilishi xavfi sifatida namoyon bo'ladi.

G

GATT Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv) – tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt.

Garov huquqi (fuqarolik huquqida) – bir shaxsning majburiyatlarni ta'minlash uchun boshqa shaxsga mol-mulkka oid huquqni berishi (garov)ni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi huquqiy me'yorlar majmui.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz – jahonning deyarli barcha mamlakatlarida moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasidagi beqarorlik va chuqur tanglik holatlarining vujudga kelishi.

D

Davlat krediti – kredit munosabatlarida bevosita davlatning ishtiroki bilan

xususiyatlanadi. Davlat krediti davlat budjetidan ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida beriladi.

Daromad solig'i – moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning soliq solinadigan jami daromadlaridan, yuridik shaxslarning soliq solinadigan jami daromadi (foydasi)dan undiriladigan to'g'ri, umumdavlat solig'i.

Daromadlilik indeksi (profitability index, PI) – investitsiya loyihasining diskontlangan daromadlarining diskontlangan investitsiya xarajatlariga nisbati tushuniladi, bu ko'rsatkich investorning 1 so'm sarf qilgan investitsiyalariga necha so'm daromad kelishini aniqlab beradi.

Davlat tashqi qarzi – davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Devalvatsiya (de va lot. valeo – qiymat) – milliy pul birligi kursining xorij valyutalariga nisbatan pasaytirilishi.

Deklarant – tovarlarni va (yoki) transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi shaxs yohud uning nomidan tovarlar va (yoki) transport vositalari deklaratsiyalanayotgan shaxs.

Deklaratsiyalash – bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va (yoki) bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va (yoki) transport vositalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni bojxona organlariga ma'lum qilish.

Diversifikatsiya – (lot. diversificatio – o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) – korxonalarining faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Diversifikatsiya ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.

Dividend – (lot. dividendum – taqsimlanadigan narsa) – aksiyadorlar jamiyati foydasidan aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylangan qismi. Dividendning miqdori aksiyadorlar jamiyatining sof foydasi, aksiyalar soni va qiymatiga bog'liq.

Direksiya – erkin iqtisodiy zona faoliyatini tezkor boshqarish uchun tashkil etiladigan, davlat unitar korxonasi shaklidagi yuridik shaxs.

Diskont (ingl. discount – chegirma, lot. computare – hisobga olmoq) – qimmatli qog'ozning fond birjasida ayni paytda sotilayotgan narxi bilan nominali yoki uni qaytarib sotib olishdagi narxi o'rtasidagi farq.

E

Er uchastkasidan foydalanish to'g'risidagi shartnoma – tegishli shahar (tuman) hokimligi va EIZ qatnashchisi o'rtasida tuziladigan, EIZ hududida yer uchastkasidan tezkor foydalanish to'g'risidagi shartnoma.

Er uchun ijara haqi – uning hajmi, shartlari va o'tkazish muddatlari shartnomaga muvofiq o'rnatiladi. Qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar ijaraga olinganda uning miqdori ijaralangan uchastkalardan olinadigan yer solig'ining summasidan oshmasligi kerak.

J

Jamg'arish – joriy davrdagi qayta ishlashning moddiy asosini kengaytirish orqali kelajakda aholi iste'molini oshirishga yo'naltirilgan jarayon. Jamg'arishning asosiy funksiyasi takror ishlab chiqarish jarayonining pirovard maqsadiga erishishga ko'maklashishdir. Takror ishlab chiqarish jarayonining maqsadi aholining o'sib va o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Jamg'arma – aholi, korxonalar va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi.

Jahon bozori – xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar pul munosabatlari tizimi.

Jahon bozori konyunkturasi – jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

Z

Zararlar – fuqarolik huquqida qonunga xilof harakatlar tufayli bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yetkazilgan ziyonning pulda ifodalangan shakli.

I

Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi – buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) obyektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi.

Ijara shartnomasi – fuqarolik-huquqiy shartnoma. Unga ko'ra, ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi.

Ijara haqi – ijara sharoitida taqdim etilgan mulk uchun to'lovning turi. Asosiy fondlarning alohida obyektlari ijaraga olinganda ular ijara shartnomasining butun amal qilish davomida teng hissalarda mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Ijtimoiy investitsiyalar – inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar.

Import (ingl. import – keltirish, olib kelish) – mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga o'tkazib yuborish uchun chet el tovarlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qog'ozlar va boshqalarni keltirish.

Import litsenziyasi – unda ko'rsatilgan tovarlarning cheklangan miqdorini yoki shunday tovarlarni cheklanmagan miqdorda ushbu hujjatda aytib o'tilgan vaqt davomida olib chiqib ketishga ruxsatnoma.

Imtiyozli aksiya – dividend olingan foydaga qarab emas, balki oldindan belgilangan qat'iy foizlarda beriladigan aksiya.

Investitsion faollik – turli iqtisodiy subyektlarning daromad olish maqsadida milliy yoki xorijiy iqtisodiyotlarga investitsiya resurslarini kiritishga intilishi.

Investitsiya (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z

mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqtga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki kapital qiymatini vaqt mobaynida o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi.

Investitsiya dasturi – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmui. O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbolining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi.

Investitsiya muhiti – 1) investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui; 2) xorijiy investitsiyalarning risklilik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisi.

Investitsiya obyekt – mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihasida ko'zda tutilgan barcha muhandislik kommunikatsiyalar, ishlab chiqarish texnologiyasi va uskunasi hisobga olgan ishlab chiqarish kompleksi.

Investitsiya siyosati – investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy subyektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmui.

Investitsiya faoliyati – 1) iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga resurslarning kapitallashuvini ta'minlash va foyda (daromad) olish maqsadida investorlarning resurslarni jamg'arish va ularni turli shakllarda qo'yish bilan bog'liq bo'lgan barcha amaliy harakatlari yig'indisi; 2) investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui.

Investitsiya me'yori – investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotga bo'lgan nisbati.

Investor – o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti.

Investor – belgilangan tartibda tanlovdan o'tgan hamda erkin iqtisodiy zona hududida investitsiyalashni amalga oshirayotgan investitsiya faoliyati subyekti.

Investitsiya faoliyati ishtirokchilari – 1) buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o'z mamlakatidagi qonunchilikka ko'ra investitsiyaviy

mulk egalari (tasarrufchilari) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlarni kiritish mumkin; 2) investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati subyektlari;

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar majmui.

Investitsiya loyihasi – investitsiya obyektining muayyan erkin iqtisodiy zona hududida, avvaldan belgilangan vaqt davomida, o'z mablag'larini va (yoki) turli manbalardan jalb qilinadigan kapitalni (to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni) kiritib, loyihaoldi, tayyorlov, loyiha qurilish-montaj ishlari, uskunani yetkazib berish va ishga tushirish, xomashyo va butlovchi qismlarni yetkazib berish hamda investitsiya obyektini ishga tushirish va kelgusida foydalanish bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarning yig'indisi.

Import ishlab chiqarish hududlari – importni joylashtirish bo'yicha hudud. Ular qabul qiluvchi mamlakatlarni yangi tovarlar bilan, mahalliy korxonalarni esa zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

Imtiyoz – ma'lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to'liq) ozod etish, ma'lum bir qulayliklarga ega bo'lish.

Innovatsiya (ingl. innovations – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi.

Innovatsiya texnologiyalari – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochlik va mualliflik obyektini huquqi majmuiga kiruvchi fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan, ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamaları va boshqa aqliy obyektlar.

Inflyatsiya – (lot. Inflatio – shishish, bo'rtish, ko'tarilish), pulning qadrsizlanishi – tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi.

Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) baholar darajasining foizdagi o'zgarishi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib

quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsiya texnologiyalarini joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Ishlab chiqarish samaradorligi – korxonada miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo‘lgan resurslarni qo‘llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo‘lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari.

Iqtisodiy kontsentratsiya – xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta‘sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni sodir etish.

Iqtisodiy faol aholi – milliy xo‘jalikda band bo‘lgan barcha kishilar bilan bir qatorda ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholi. Ular iqtisodiy jihatdan faol va tegishli faoliyatda qatnashishi mumkin, biroq, daromad oladigan manbalari kam yoki mablag‘lari yo‘qligi tufayli bu faoliyatni amalga oshira olmaydilar.

Iqtisodiy siyosat choralari – tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirishga va ushbu hududdan olib chiqishga doir cheklovlar bo‘lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligi bilan o‘zaro hamkorligini tartibga solishning boshqa chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Y

Yirik investitsiya loyihasi – umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasi.

K

Kapital (nem. kapital; lot. capitalis – bosh, asosiy) sarmoya – keng ma‘noda – o‘z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo‘lgan jami vositalar va mablag‘lar; yangi qiymat keltiruvchi, o‘zini-o‘zi ko‘paytiruvchi qiymat. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun kishilar tomonidan yaratilgan resurslar; tor ma‘noda – ishlab chiqarish vositalari ko‘rinishidagi ishga qo‘yilgan, ishlab turgan daromad manbai.

Kapital bozori, fond bozori – bo‘sh turgan pul mablag‘larini to‘plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so‘ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash munosabatlari; qimmatli qog‘ozlar, korxonalarining aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldi-sotdi operatsiyalari olib boriladi.

Kapital qo‘yilmalar, kapital mablag‘lar – ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga tegishli asosiy fondlarni yaratishga, ularni yangilashga va harakatdagi fondlarni ko‘paytirishga, obyektни qurishga sarf qilinadigan, ishlab chiqarishga qo‘yilgan mablag‘.

Kapital qurilish – yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya

qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, obyektlar va vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan, loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Konsortsiyum (lot. consortium – shirkat, ishtirok etish) – 1) kompaniyalar, banklarning kapitallab, juda keng ko'lamdagi iqtisodiy loyihani amalga oshirish yoki qarzlarni hamkorlikda joylashtirish uchun tuzilgan vaqtinchalik birlashmasi; 2) bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarining muvaqqat birlashmasi.

Konyunktura – bozorda ma'lum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holat (asosan, talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Korxonaning innovatsiya salohiyati – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsiya salohiyati tashkilotning ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

Kredit (lot. creditum – qarz, credo – ishonaman) – pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatlarga qarzga berish. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxonalar, xususiy shaxs va boshq.), ssuda oluvchi tomon debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdor foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin, har qanday qarz munosabati ham kredit bo'la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag' qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to'lanishi, muddatli, ma'lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi, maqsadli ishlatilishi shart.

Kreditga layoqatlilik – xo'jalik yurituvchi subyektlarning qisqa va uzoq muddatli qarzlarni va ular bo'yicha foizlarni o'z vaqtida qaytara olish, qarzga xizmat ko'rsatishni ta'minlay olish imkoniyatidir. Korxonalar qanchalik kreditga layoqatli, to'lovga qobill bo'lsa, u shunchalik bankrotlikdan himoyalangan hisoblanadi.

Kurs bo'yicha farq – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq.

Ko'chmas mulk – er bilan mustahkam bog'liq bo'lgan yer maydonlari, alohida bo'lgan suv obyektlari, o'rmonlar, ko'p yillik o'simliklar, binolar, inshootlardan iborat.

L

Lizing (ingl. lease foydalanish) – 1) mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini uzoq muddatli ijaraga olish; uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar eksportini kreditlashning shakllaridan biri; 2) ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va

foydalanish uchun lizing oluvchiga o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing to‘lovlari – lizing beruvchining lizing obyektini olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko‘p qismi, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari lizing oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizing beruvchining daromadi. Lizing to‘lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi. Lizing to‘lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi.

Lizing obyektlari – tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste‘mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulklar.

Litsenziya – u yoki bu mahsulotni tayyorlash, xo‘jalik ishlab chiqarish va ilmiy faoliyatning turini amalga oshirish, mahsulotning ma‘lum bir turi va miqdorini eksport yoki import qilishga davlat yoki boshqaruv mahalliy organlarining rasmiy ruxsati.

M

Markaziy bank – mamlakatning pul belgilarini emissiya qilish (pul bosib chiqarish) va tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish huquqi berilgan bosh davlat banki. Markaziy bank «banklarning banki» bo‘lib, pul muomalasini tartibga solishda va budjetni boshqarishda davlatga va hukumatga yordam beradigan organ hisoblanadi.

Majburiy zahira talabi – tijorat banklari jalb qilgan mablag‘laridan ma‘lum bir qismining Markaziy bankning zahira fondiga o‘tkazilishi.

Marketing xizmatlari – maxsus tayyorgarlik ko‘rgan marketologlar guruhi, uyushmasi, bo‘limi va boshqarmasining faoliyat majmui.

Mas‘uliyati cheklangan jamiyat – a‘zolari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha faqat o‘zlari qo‘shgan ulush doirasida javobgar bo‘ladigan jamiyat.

Maqsadli soliq imtiyozlari – xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan davlatning maqsadli ijtimoiy, iqtisodiy, investitsion va boshqa dasturlarining bajarilganligi uchun soliqqa tortish hajmining pasaytirilishi. Investitsion soliq kreditidan farqli ravishda o‘zaro manfaatdorlik (o‘zaro foydalilik) asosida mintaqaviy budjetga borib tushuvchi soliq summalari doirasida ijroiya hokimiyati organlari tomonidan har qanday korxonaga berilishi mumkin.

Milliy valyuta – bu muayyan mamlakatda muomalada yuruvchi va tanho to‘lov vositasi deb qabul qilingan puldir. Har bir milliy valyutaning boshqa valyutaga almasha olish xususiyati valyuta konvertatsiyasi deyiladi. To‘liq konvertirlanuvchi va qisman konvertirlanuvchi valyutalar bo‘ladi. Valyutalarning konvertirlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotining ochiqligi, uning rivojlanganligi va eksport salohiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – halol raqobat sharoitida jahon bozori talablarini qondiruvchi, iqtisodiy o‘sish va turmush sifatini oshirishni ta‘minlaydigan tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish hamda o‘rta va uzoq muddatga iqtisodiy o‘sishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlab turish qobiliyati.

Mikrolizing – mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar (tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari) tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmat. Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun «Mikromoliyalash to'g'risida»gi hamda «Lizing to'g'risida»gi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Moliyaviy investitsiyalar – mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar orqali qo'yilmalar kiritish.

Moddiy boylik, moddiy ne'mat – muayyan insoniy ehtiyojlarni qondiradigan narsa, hodisa, mehnat, mahsulot; milliy boylikning tarkibiy qismi.

Moddiy ishlab chiqarish – jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni yaratish jarayoni.

Moddiy resurslar – iqtisodiyot taraqqiyoti va ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan moddiy-ashyoviy ne'matlar yig'indisi, moddiy-ashyoviy shakldagi iqtisodiy resurslar.

Modernizatsiya, modernizatsiyalash, modernizatsiya qilish (frants. moderne – eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiya qilishda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

Moliya – maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar; pul oqimlari harakati. Moliya pul munosabatlari sifatida iqtisodiyotda muhim vazifalarni bajaradi: taqsimlash vazifasi; rivojlantirish vazifasi; ijtimoiy himoya vazifasi; axborot berish vazifasi; nazorat vazifasi.

Moliya yili – birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Monitoring – (ingl. monitoring – kuzatish, nazorat qilish) – ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasida qo'llaniladigan monitoring berilgan ssuda (qarz)ni qoplash va unga foiz to'lash jarayonining borishi ustidan nazorat qilishda namoyon bo'ladi.

Monopoliya (yun. mono – tanho, poleo – sotaman) – iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik; bozorni tashkil etish shakli.

Moddiy xarajatlar – xomashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajatlardan iborat.

Mehnat unumdorligi – ishlab chiqarish jarayonida kishilar mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligi. Mehnat unumdorligi ishlovchining ma'lum vaqt birligi (soat, smena, oy, yil) ichida tayyorlagan mahsulot hajmi bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi demakdir.

Mualliflik huquqi – keng ma'noda – fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, foydalanish va huquqiy himoya qilishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi; fuqarolik huquqining bir bo'limi. Tor ma'noda – asar muallifiga tegishli bo'lgan va qonunlarda mustahkamlanib qo'yilgan shaxsiy va mulkiy huquqlar tizimini tashkil etadi.

N

Narx, baho – tovar qiymatining puldagi shakli; bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi iqtisodiy dastak.

Natsionalizatsiya – fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to'lash asosida qonun hujjatlariga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazish.

Nominal qiymat (lot. nominalis – nomi yozilgan) – pul belgilari, banknotlar, qimmatli qog'ozlarning ustiga yozib qo'yilgan qiymati, narxi.

Nou-xau (ingl. know how – qandayligini bilaman), ishlab chiqarish siri – hali hammaga ma'lum bo'lmagan va keng tarqalmagan yangi ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish-texnologik, boshqarish, moliyaviy-iqtisodiy, tijoratga oid bilimlar majmui va ularni amaliyotda qo'llash tajribalari; ularga tanho ega bo'lish. U korxonaga uchun ham, shaxs uchun ham muayyan ustunlikni ta'minlaydi.

Noaniqlik (mavhumlik) – investitsiya loyihasini amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma'lumotlarning to'liq yoki aniq emasligi.

O

Obligatsiya – foiz shaklida daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz. Davlat organlari tomonidan budget defitsitini qoplash uchun va aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kapitalni jalb qilish maqsadida chiqariladi.

Oltin-valyuta zahiralar – mamlakatning markaziy emissiya banki yoki xazinasida quyma va tanga shaklida to'plangan markazlashgan oltin zahira fondi. Oltin-valyuta zahiralariga hukumat va markaziy banklarga tegishli bo'lgan oltin quymalari va oltin tangalar, xorijiy bank hisob raqamlaridagi valyuta mablag'lari, xorijiy mamlakatlar banknotlari, tangalari va davlat qimmatli qog'ozlari kiradi. Oltin-valyuta zahiralar mamlakatning pul birligini mustahkamlash, uni barqaror ushlab turish, shuningdek, ichki valyuta bozorini zaruriy valyuta mablag'lari bilan ta'minlash maqsadida shakllantiriladi.

Option (nem. option – tanlash, istak) – sotuvchi yoki xaridorga qimmatli qog'ozlar yoki tovarlarni muayyan muddat davomida belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradigan shartnoma.

Offshor zona – yuridik shaxslarga nisbatan soliq imtiyozlari yaratilgan, buxgalteriya hisoboti va audit bo'yicha talablar yumshatilgan, bojxona to'lovlari va savdo cheklovlari qisman yoki butunlay olib tashlangan ma'lum davlatning erkin iqtisodiy hududi.

P

Pay, hissa – firma, kompaniya, jamiyat, shirkatning umumiy kapitalida muayyan jismoniy va yuridik shaxs hissasiga to'g'ri keladigan pul badali summasi

yoki ulushi. Pay egasi oladigan daromad dividend deyiladi.

Patent (lot. patens – ochiq, aniq-ravshan) – texnik yechim (ixtiro)ning davlat tomonidan e'tirof etilganligini va ixtirochining o'z ixtirosiga olgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Porto-franko – tovarlarning bojsiz kirish va chiqish huquqi joriy etilgan qirg'oq bo'yi porti yoki ichki port. Porto-franko dalatning bojxona hududi tarkibiga kirmaydi.

Portfel investitsiyalar – kapitalni korxonalar qimmatli qog'ozlariga (korxonalar ustav kapitalining 10 %dan kam qismini) joylashtirish (investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi).

Potensial xavf – aniqlanmagan, lekin uning yuzaga kelishi uchun sharoitlar mavjud bo'lgan xavf.

Preferensiya – 1) investitsiya va innovatsiya xarajatlarini moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozini ko'rishida belgilangan imtiyoz, yengillik; 2) iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Pudrat shartnomasi (rus. podryad – bir yo'la) – fuqarolik-huquqiy bitim, unga ko'ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan, muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi. Buyurtmachi ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

R

Raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozorida tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi.

Real investitsiyalar – xo'jalik subyekting operatsion faoliyatini amalga oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishi bilan bog'liq aktivlarni yaratishga sarflangan kapital.

Rezidentlar – kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo'lmagan muddatda yashagan, O'zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va bo'lmagan soliq to'lovchilar. Shu mamlakatning rezidentlarining daromadlari shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.

Reimport operatsiyalari – o'z mohiyatiga ko'ra – amalga oshmagan eksport operatsiyalaridir, ular mamlakatga undan oldin olib ketilgan tovarlarni qayta olib kelishni bildiradi. Ularga xaridor tomonidan brak qilingan, auksionda sotilmagan, konsignatsion omborlar orqali sotilmagan tovarlarning qaytarib olib kelinishi kiradi.

Reinvestitsiya – investitsiyalar bo'yicha daromadlar ko'rishida olingan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar; investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish (qayta investitsiyalash).

Rekvizitsiya (lot. requisitio – talab qilib olish, olib qo'yish) – mulkni haq to'lab majburiy ravishda davlat egaligiga to'la yoki vaqtincha foydalanish uchun olish.

Rekonstruksiya (qurilish, qayta tiklash) – 1) mavjud narsa (bino, inshoot)ni

yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish; 2) faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirish.

Rentabellik (nem. rentabel – daromadli, foydali) – korxonalar yoki tadbirkorlikning daromadlilik, samaradorligi; mikroiqtisodiy miqyosdagi iqtisodiy faoliyatning samaradorligi. Rentabellik foyda olib ishlashning qiyosiy, ya'ni sarfxarajatlarga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkich bo'lib, foizlarda ifodalanadi.

Reeksport – mamlakatga oldin olib kirilgan tovarlarni qayta ishlovsiz xorijga chiqarish va sotishni nazarda tutadigan operatsiyalar.

Risk – bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimoli. Risk kutilishi mumkin bo'lgan xatar bo'lib, investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan umidsizlik.

S

Savdo-ombori hududlari – xorij tovarlari bojxona boji to'lovlarisiz saqlanishi, sotilishi va sotib olinishi mumkin bo'lgan hududlar. Bunday hududlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: ularni jahon bozoriga xizmat ko'rsatishi uchun tashkil qilish; mamlakatning qolgan hududlarida amal bo'lgan ko'pgina soliq normalari va bojxona cheklavlarining bu hududda amal qilmasligi; tashqi iqtisodiy aloqalarda davlat tartibga solishining tarqalishi.

Sarmoya (fors.-tojik. – bosh va mablag') – asosiy savdo mablag'i. Sarmoya o'zining kelib chiqishi jihatidan savdo kapitali yoki savdo mablag'idir. Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda sarmoya investitsiya deb ham ataladi.

Soliqlar – qonunda belgilangan tartibdagi stavka bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolardan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy budjetga olinadigan majburiy to'lovlar.

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchi soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi.

Soliq stavkasi – soliqqa tortish birligiga to'g'ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi).

Soliq tizimi – mamlakat doirasida (hududida) to'lovchilardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakl va uslublari yig'indisi.

Ssuda (rus.) – moddiy boyliklar garovi hisobiga foiz to'lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik.

Ssuda kapitali – vaqtincha foydalanib qaytarish, ma'lum foiz haq to'lash sharti bilan qarzga beriladigan pul kapitali. Ssuda kapitalining iqtisodiy ma'nodagi o'ziga

xos xususiyati shundaki, u foiz ko‘rinishida foyda keltiradi.

Sug‘urta – 1) tabiiy ofatlar, har xil baxtsiz hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalari to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi; 2) yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

Sug‘urta kompaniyasi – 1) sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan yuridik shaxs, sug‘urta xizmatlari bozorining professional ishtirokchisi; 2) sug‘urtalovchi rolda maydonga tushuvchi, ya‘ni sug‘urta hodisasi ro‘y bergan chog‘da sug‘urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o‘ziga oluvchi tashkilot.

Sug‘urta mukofotlari (to‘lovlari) – sug‘urta qilinuvchilar tomonidan sug‘urtalovchilarga to‘lanadigan badal pullari bo‘lib, ularning miqdori va hisoblash tartibi sug‘urta shartnomasi bilan belgilanadi va ham so‘m, ham chet el valyutasida to‘lanadi.

Sug‘urta polisi, sug‘urta vasiqasi – sug‘urta shartnomasi yuridik kuchga kirganini, sug‘urta qiluvchi tomonidan beriladigan va sug‘urta to‘g‘risidagi shartnomani tasdiqlaydigan hujjat.

Sug‘urta faoliyati – sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining sug‘urtani amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyati.

T

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Tashuvchi – bojxona nazorati ostida turgan tovarlar tashilishini amalga oshiruvchi yoki transport vositasidan foydalanish uchun mas‘ul shaxs.

Tashqi iqtisodiy faoliyat – O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati.

Tashqi savdo faoliyati – xalqaro tovarlar, ishlar (xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyati. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar – 1) bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo‘yilmalar kiritish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri

investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi; 2) xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo'lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksiyadorlik kapitaliga to'la ega bo'lish yoki kamida 10 foizi xo'jalik faoliyatining ta'sirchan nazorat qilinishini ta'minlaydi.

Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) – investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi loyiha oldi hujjati.

Tender (ing. tend – xizmat ko'rsatish) – 1) ochiq turdagi yoki cheklangan sondagi ishtirokchilar uchun yopiq turdagi raqobatli savdo-sotiq; buyurtmani joylashtirishning tanlov shakli; 2) qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish, muddatli shartnoma bo'yicha tovarlar yetkazib berish, shartnomalar tuzish to'g'risidagi ariza, yozma taklif; 3) xalqaro bozorda mashina-uskunalar xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, injiniring xizmatlari ko'rsatish uchun tanlov asosida buyurtmalar berish. O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlarini shakllantirishda va rivojlantirishda tender keng qo'llaniladi. Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalarining aksiyalarining yirik paketlarini sotishda, katta qurilish ishlarini olib borishda xalqaro loyihalarni amalga oshirishda tender e'lon qilinadi. Savdoni tashkil etish uchun vaqtinchalik organ bo'lgan tender qo'mitasi tuziladi.

Tovar turkumi – bitta oluvchining manziliga bitta transport hujjati bo'yicha kelayotgan yoki bitta pochta yuk xati bilan jo'natilayotgan yohud bojxona chegarasi orqali o'tayotgan bitta jismoniy shaxsning qo'l yukida va bagajida olib o'tilayotgan tovar yoki uning bir qismi.

Tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish – tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirish yohud ushbu hududdan olib chiqish.

Tovarlarning erkin muomalasi – bojxona hududida tovarlarning belgilangan taqiqlar va cheklovlarsiz aylanishi.

Tovarni chiqarib yuborish – bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvini yakunlovchi va ma'lum qilingan bojxona rejimi shartlaridan kelib chiqqan holda tovarlardan foydalanishga va (yoki) ularni tasarruf etishga ruxsat berilganligini ifodalovchi harakati.

Transmilliy korporatsiya – 1) xorijiy aktivlarga ega bo'lgan, operatsiyalarining kamida $\frac{1}{4}$ qismini mamlakat tashqarisida, o'zi ro'yxatga olingan chet mamlakatda amalga oshiradigan yirik korporatsiya; 2) bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo'lgan kompaniya; 3) xorijiy aktivlarga ega bo'lgan milliy monopoliyalar; 4) filiallari dunyo bo'ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

Tratta – (ital. tratta – o'tkazma veksel) – tashqi savdodagi asosiy hisob-kitob hujjati. Kreditorning qarzdorga (odatda, bankka) yozma buyrug'i. Unda bankning uchinchi shaxs (remitent – taqdimchi)ga yoki trattani taqdim qilganga muayyan summadagi pulni to'lashi ko'rsatiladi.

To'lov balansi – ma'lum bir davr mobaynida mamlakat tomonidan xorijga to'langan to'lanmalar va xorijdan olingan to'lovlar o'rtasidagi nisbat. O'z ichiga tegishli davrda mamlakat tovarlari eksporti va importi qiymatlarini ifodalovchi savdo

balansini, xizmatlar balansini va notijorat to'lovni oladi. Bularning barchasi joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansini shakllantiradi. Mamlakatning umumiy to'lov balansi joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi, kapitallar va kreditorlar harakati balansi, shuningdek, oltin va valyuta zahiralari harakati balansidan tashkil topadi.

U

Unitar korxonona – mulk egasi tomonidan o'ziga birkirib berilgan mulkka egalik qilish huquqi berilmagan tijorat tashkiloti ko'rinishidagi davlat yoki mahalliy boshqaruv idoralari korxonasi. Unitar korxonona o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli jami mol-mulki bilan javob beradi, lekin, mol-mulki egasi majburiyatlari bo'yicha javobgar emas.

Ustav kapitali – aksiyadorlik jamiyati ustavida qayd etilgan pul ifodasidagi dastlabki, boshlang'ich kapital. Ustav kapitali aksiyalar sotishdan tushumlar, ta'sischilarning xususiy qo'yilmalari va davlat qo'yilmalari hisobidan yuzaga keladi. Ustav kapitaliga badallar faqat pul mablag'lari ko'rinishida emas, balki mulk shaklida, masalan, imoratlar, er, shuningdek, intellektual mulk obyektlari: patentlar, litsenziyalar, loyihalar shaklida ham bo'lishi mumkin. Ustav kapitali balansning passivida qayd etiladi.

Ustav fondi – ta'sischilar – ishtirokchilarning o'zlari tashkil etgan kompaniya, xo'jalik jamiyatiga dastlabki kiritgan va doimiy ulush hisoblanadigan moddiy va pul mablag'lari majmui. Ustav fondi kompaniyaning xo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda hisobiga ko'payib borishi mumkin. Ustav fondi kompaniya, jamiyatning asosiy va aylanma mablag'lari qiymatini tashkil etadi.

Uchinchi shaxslar – fuqarolik huquqida, bevosita fuqarolik huquqiy munosabatlarida ishtirok etmaydigan, lekin, vujudga kelgan huquqiy munosabatda muayyan darajada huquq va majburiyat tug'diradigan subyektlar.

F

Favqulodda holatlar – taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiiy hodisalari (zilzila, ko'chiklar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti – fan bilan texnikaning o'zaro bog'liq, yagona, ilgari boruvchi taraqqiyoti.

Firma – (ital. firma – imzo) – korxonona, kompaniya, xo'jalik va tijorat tashkilotlarining umumiy nomi. Xodimlar soni, mulk shakllari, huquqiy holati va boshqalarga ko'ra xilma-xil firmalar bor.

Foizlar – har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek, depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

Foyda – tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadning bu tovarlarni

ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan ortgan qismi. Korxonalar va tadbirkorlar xo‘jalik faoliyati moliyaviy natijalarining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri. Foyda pulda ifodalanadi. Foyda kapital, ishlab chiqarish omili sifatida tovar va xizmatlar narxi tarkibiga kiradi, ular sotilgach, pul shaklida kapital sohibi ixtiyoriga keladi. Foyda topish tadbirkorlikning asl maqsadi hisoblanadi, unga intilish bozor iqtisodiyotining rivojlanishini ta‘minlaydi.

Fond bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori – moliya bozorining qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug‘ullanadigan sohasi. Fond bozorining asosiy vazifasi: investitsiyalarni, ya‘ni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika ravnaqiga zarur investitsiya mablag‘larini to‘plash hamda taqsimlash; qimmatli qog‘ozlar paketlaridan foydalangan holda mulk egaligini o‘zgartirish; qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi yo‘li bilan bozorni qayta taqsimlash; qimmatli qog‘ozlar chiqarish yordamida davlat qarzini moliyalashtirish va boshq.

Fyuchers (lot. futurus – kelajak) – tovar yoki fond birjalarida xomashyo tovarlari, oltin, valyuta, qimmatli qog‘ozlarni amalda bo‘lgan narxlarda, lekin, yetkazib berish va haqini keyingi kelishilgan muddatlarga qoldirish bilan oldi-sotdi qilish bo‘yicha bitishuvlar.

X

Xavf indikatorlari – oldindan belgilangan ko‘rsatkichlarga ega muayyan mezonlar bo‘lib, ulardan og‘ish yoki ularga mos kelish nazorat obyektini tanlashni amalga oshirish imkonini beradi.

Xavf profili – xavf sohasi, xavf indikatorlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yig‘indisi, shuningdek, xavfning oldini olish yoki uni imkon qadar kamaytirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar.

Xavf darajasi – xavfning yuzaga kelishining ehtimoliga va uning mumkin bo‘lgan oqibatlariga bog‘liq tarzda aniqlanadigan xavfning holati.

Xavfni boshqarish – xavfning oldini olish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo‘llanilish samaradorligini baholash, shuningdek, bojxona operatsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, bojxona organlarida mavjud bo‘lgan axborotning uzluksiz yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko‘rib chiqilishini nazarda tutuvchi doimiy ishlar.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi – ishlab chiqarish bosqichlarining o‘zaro bir-birini to‘ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning hamkorlik qilishi.

Xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi – mamlakatlar o‘rtasidagi mexnat taqsimoti ko‘rinishi bo‘lib, unda o‘zlarining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha bir turdagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqalanishi.

Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik – ishlab chiqarish, moliya, bank va sug‘urta faoliyati, ta‘lim va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog‘liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa sohalarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat

subyektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali aloqalarni o‘rnatishi va kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar – mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalari tizimi.

Xalqaro kredit – davlatlar, banklar, firmalar, bir mamlakatdagi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan boshqa mamlakatlar hukumatlari, banklari, firmalariga beriladigan kreditlar.

Xalqaro konvensiya – xalqaro shartnoma turlaridan biri; davlatlarning, odatda, biron-bir ixtisoslashgan sohada o‘zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Xarajatlar, sarf-xarajatlar, chiqimlar – tovarlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonida turli resurslar (xomashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag‘lar) sarflari bilan bog‘liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi. Asosan, ishlab chiqarish va muomala xarajatlari bo‘linadi.

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy mulk – ayrim kishilar yoki xonadonlar ixtiyoridagi mulk; bozor iqtisodiyotidagi xilma-xil mulklar orasidagi yetakchi mulk shakli. Xususiy mulkning obyekti moddiy va moliyaviy boyliklar, ish kuchi, intellektual mehnat mahsuli, yer, suv, yer osti boyliklari, korxonalar, xo‘jaliklar, aksiya va obligatsiyalar, pul mablag‘lari, transport vositalari, turar-joy, iste‘mol tovarlari, mehnat qobiliyati, ishbiarmonlik mahorati, ilmiy kashfiyotlar, texnikaviy ixtirolar, san‘at va adabiyot asarlari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Xususiy sektor – iqtisodiyotning xususiy mulkchilik va xo‘jalik yuritishning erkin bozor usullariga, iqtisodiy alohidalashuviga asoslangan sohasi. Bozor iqtisodiyoti davlat va nodavlat sektorlaridan iborat. O‘z navbatida, nodavlat sektori xususiy va jamoa sektorlariga bo‘linadi. Xususiy sektor nodavlat sektorining bosh bo‘g‘ini.

Xususiylashtirish – davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy subyektlarga o‘tishi jarayoni, xilma-xil mulkchilikni shakllantirish, iqtisodiyotni davlatlashtirishdan qaytish yo‘llaridan biri. Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishdan tashqari shu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishni ham nazarda tutadi.

Ch

Chet el investitsiyalari – chet ellik investorlar, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg‘armasining kamida o‘ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar. Ular O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid

kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko'rsatadilar. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani ta'sis etish yo'li bilan yoki ilgari chet el investitsiyalari ishtirokisiz ta'sis etilgan korxonada ishtirok etish ulushini (payini, aksiyalarini) yohud bunday korxonani butunlay, shu jumladan, xususiylashtirish jarayonida chet el investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonani davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etish va ularni davlat ro'yxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sh

Shartnoma – bu moddiy-buyum shaklidagi tovarlarning oldi-sotdi kelishuvini xalqaro tijorat amaliyotiga muvofiq hujjatlashtirish.

E

Ekologik audit – ekologik auditorlar (firmalar) tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda o'tkaziladigan, atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilish.

Eksport (ingl. export, lot. exporto – olib chiqaman, chetga chiqaraman) – tovarlar, xizmatlar, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar – alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u erda ilmiy-ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari – texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

Eksport ishlab-chiqarish hududlari – sanoat korxonalarini import xomashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlardan foydalanish yoki mahalliy xomashyoni ishlatgan holda, xorijiy texnologiya, uskuna va boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanish orqali eksport mahsulotlari ishlab chiqariladigan hududlar.

Erkin ishlab chiqarish zonalari – tadbirkorlikni rag'batlantirish, iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish, istiqbolli texnologiyalarni joriy etish maqsadida xo'jalik-moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlardir. Erkin ishlab chiqarish zonalari eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalari, agropolislarni, tadbirkorlik zonalari, industrial-iqtisodiy zonalarni va boshqa zonalarni o'z ichiga oladi.

Eksport kvotasi – mamlakat eksporti qiymatining uning yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).

Eksport litsenziyasi unda ko'rsatilgan tovarlarni ma'lum vaqt ichida eksport qilishga berilgan ruxsatnoma.

Eksport nazorati – mamlakat hududidan eksport nazorati obyektlarini olib

chiqishning eksport nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ta'minlanishiga qaratilgan barcha chora-tadbirlar yig'indisi.

Embargo – alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta'qiqlash.

Erkin iqtisodiy zonalar – 1) davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar; 2) mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hudud. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar, ko'p hollarda, davlatlararo tutash hududlarda, xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo'llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi.

Erkin iqtisodiy zona hududida investitsiyalash to'g'risidagi bitim (keyingi o'rinlarda investitsiyalash to'g'risidagi bitim deb ataladi) – Direksiya va investor o'rtasida tuziladigan hamda ularning huquqi, majburiyati va mas'uliyatini belgilovchi bitim.

Erkin iqtisodiy zona qatnashchisi – belgilangan tartibda erkin iqtisodiy zona hududida ro'yxatdan o'tgan va Direksiya tomonidan erkin iqtisodiy zona qatnashchisi reestriga kiritilgan xo'jalik yurituvchi subyekt.

Erkin savdo zonalari – konsignatsiya omborlarini, erkin bojxona zonalarini, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni o'rash-joylash, saralash, saqlash zonalarini o'z ichiga oluvchi zona. Erkin savdo zonalari chegaraga tutash punktlarda, aeroportlarda, temir yo'l uzellarida yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining boshqa joylarida tuziladi.

Yu

Yuk operatsiyalari – bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini tashish, yuklash, tushirish, qayta yuklash, ularning buzilgan o'rovlarini to'g'rilash, ularni o'rash, qayta o'rash va tashish uchun qabul qilish.

Yuridik shaxs – fuqarolik huquq va majburiyatlarining subyektlari hisoblanuvchi korxonalar, muassasa, tashkilotlar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, yuridik shaxs o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan va mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliq – qo'shilgan qiymat solig'i, korxonalar va tashkilotlarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliq, aksizlar, yo'l fondini shakllantirish uchun manba sifatida foydalaniladigan soliqlar, korxonalar mol-mulki solig'i, er uchun to'lovlar, reklama solig'i, birjada amalga oshirilgan bitimlardan

olinadigan yig‘im, mahalliy auktsion va lotoreyalarni o‘tkazish huquqi uchun litsenziya yig‘imi, boshqa soliq, yig‘im va majburiy to‘lovlardan iborat.

Ya

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr davomidagi umumiy natijalarini tavsiflaydigan ko‘rsatkich. Mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (chet el va qo‘shma korxonalari ham shu hisobga kiradi) jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatlaridagi ifodasi bo‘lib, uning miqdori milliy hisoblar tizimi asosida hisoblab chiqiladi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – mamlakatning ma‘lum muddat ichida umumiy iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi yakuniy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridan biri. YaMM davlatning bozor narxlarida ifodalangan barcha birlamchi daromadlari (ularning mamlakat hududida yoki uning tashqarisida ishlab chiqarish omillari tufayli yuzaga kelishidan qat‘iy nazar) jami yig‘indisini ko‘rsatadi. YaMM milliy hisoblar tizimi asosida hisoblanadi.

O‘

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (bojxona organlarining axborot tizimi) – bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarning va transport vositalarining bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ularga doir hujjatlar va ma‘lumotlarning kiritilishini, hisobga olinishini hamda monitoring qilinishini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining avtomatlashtirilgan tizimi.

“O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi – yagona korporativ tizimga ega bo‘lgan ko‘p tarmoqli sug‘urta kompaniyasi. Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 13-apreldagi tegishli Qaroriga muvofiq milliy sug‘urta kompaniyasi tarzida tashkil etilgan. 1997-yil 28-fevraldan hukumatning eksport va import sug‘urtasi bo‘yicha maxsus sug‘urta agenti maqomidagi O‘zbekiston Respublikasi eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi.

Q

Qimmatli qog‘ozlar – 1) o‘z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko‘rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va b.); 2) o‘zining egasiga dividend va foiz ko‘rinishida daromad olish huquqini beruvchi mulk tituli. Ularning tarkibiga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

Qurilish – moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot), keng ma‘noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar-joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar qurilishi mahsuloti hisoblanadi. Qurilishda ishlab chiqarish tsikli nisbatan uzun bo‘lib (bir necha oydan bir necha yilgacha), ishlab chiqarish jarayoni turli ob-

havo sharoitida ochiq usulda olib boriladi. Pudrat va xo‘jalik usulidagi qurilishni va montaj ishlarini, shuningdek, bino, inshootlarni kapital ta‘mirlash ishlarini qurilish tashkilotlari va maxsus tashkilotlar; loyihalash, loyiha-konstruktorlik va qidiruv tashkilotlari; foydalanishga topshirish va qidiruv-parmalash tashkilotlari amalga oshiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari ma‘muriy kengashlari (keyingi o‘rinlarda ma‘muriy kengash deb ataladi) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori bilan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar vakillaridan tashkil etiladigan kollegial organlar.

Qurilish materiallari – binolar (inshootlar) qurish va ta‘mirlashda ishlatiladigan tabiiy va sun‘iy ashyolar hamda buyumlar.

Qo‘shma korxonalar – boshqa mamlakatlar firmalari ishtirokida bunyod qilingan, tashkiliy jihatdan yagona yuridik shaxs sifatida rasmiylashtirilgan korxonalar. Qo‘shma korxonalar o‘zaro manfaatdorlik negizida, hukumatlararo shartnomalar asosida tashkil qilinib, ishlab chiqarish, ilmiy-ishlab chiqarish, ilmiy-texnika vazifalarini echishga qaratiladi. Ta‘sischilarning o‘z mulklarini birlashtirish va badallari hisobiga qo‘shma korxonaning moliyaviy fondi yaratiladi. Qo‘shma korxonalar, asosan, chet el texnikasi, texnologiyasi, investitsiyasi asosida barpo etilib, mahalliy xomashyo va ishchi kuchi hisobiga ishlaydi, o‘z mustaqil balansiga ega bo‘ladi, to‘liq xo‘jalik hisobi asosida faoliyat olib boradi. Qo‘shma korxonaning chet ellik ta‘sischisi daromad hissasini o‘z mamlakatiga olib chiqib ketish (o‘tkazish) huquqiga ega bo‘ladi.

Qo‘shma tadbirkorlik – bir qancha hamkorlar, shu jumladan, turli davlat hamkorlarining umumiy tadbirkorlik faoliyati. Qo‘shma tadbirkorlik uchun tadbirkorlik faoliyatining barcha ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini kelishish zaruriy holat hisoblanadi.

Qo‘shma tadbirkorlik hududi – mamlakatning bo‘jxona hududidan tashqarida joylashgan sifatida qaraladigan, maxsus bo‘jxona, ijara, soliq, valyuta, viza, mehnat va boshqa rejimlar joriy etiladigan, soliq va bo‘jxona imtiyozlari asosida xorijiy kapital qo‘yilmalari va qo‘shma tadbirkorlikni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiluvchi davlat hududining maxsus qismi.

H

Hisob stavkasi, hisob foizi stavkasi, qayta moliyalashtirish stavkasi – markaziy banklarning tijorat banklari rezervlarini to‘ldirish va ularning o‘z mijozlariga bank xizmatlari ko‘rsatish uchun beradigan kreditlariga belgilaydigan foiz stavkasi; tijorat banklari Markaziy bankdan olgan kredit resurslari uchun to‘laydigan haq. Hisob stavkasi bozor mexanizmidagi g‘oyat muhim iqtisodiy vosita, davlatning pul siyosatida qo‘llaniladigan kuchli iqtisodiy dastak. Hisob stavkasi pul bozoridagi talabga ta‘sir ko‘rsatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Iqtisodiyotda o‘shishni tezlatish maqsadlarida hisob stavkasi pasaytiriladi yoki aksincha, iqtisodiyotda o‘shish jadallashib, tovarlarni sotish qiyinlashganda o‘shishni sekinlashtirish uchun hisob stavkasi oshiriladi. Hisob stavkasiga pul bozoridagi talabdan tashqari kutiladigan

inflyatsiya darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiyadan ko'riladigan yo'qotish hisob stavkasini oshirish orqali qoplanadi. Masalan, me'yordagi hisob stavkasi 4 % bo'lib, inflyatsiya 3 % darajasida kutilsa, amaldagi hisob stavkasi 7 %ni tashkil etadi. Markaziy bankning hisob stavkasi qancha yuqori bo'lsa, tijorat banklari o'zlari taqdim etadigan kreditlar uchun oladigan foizi shu qadar yuqori bo'ladi.

Hisobot – korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalar tomonidan o'z faoliyati to'g'risida davriy (oy, chorak, yil) va belgilangan shaklda tuziladigan, davlat, statistika va moliya organlariga taqdim etiladigan axborot, ma'lumotlar, hisob-kitob hujjatlari.

Hukumat – davlatning oliy kollegial organi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nom bilan ataladi: Vazirlar Kengashi (Fransiya, Italiya, Polsha), Vazirlar Mahkamasi (Buyuk Britaniya, O'zbekiston) va h.k. O'zbekistonda hukumat Vazirlar Mahkamasi deb nomlanadi. U ijtimoiy hayotning barcha sohalariga rahbarlik qiladi. Hukumat tarkibi Prezident tomonidan shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvar. O‘RQ-400-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni.
5. AQShda 1934-yilda qabul qilingan “Tashqi savdo hududlari to‘g‘risida”gi Qonun.
6. Belarus Respublikasining 1998-yil 7-dekabrda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi “213-Z-sonli Qonuni.
7. Rossiya Federatsiyasining 2005-yil 22-iyuldagi “Rossiya Federatsiyasi hududidagi erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi №116-FQ-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 21-dekabrda PQ-1446-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 29-yanvarda “Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini yanada oshirish va tovarlarni respublikaga noqonuniy olib kirishga qarshi kurashni kuchaytirish to‘g‘risida”GI PQ-1913-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4853-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvarda “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4931-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-mayda “Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5032-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3356-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrda “2018-2021 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3422-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-dekabrda “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3583-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3657-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5412-sonli Farmoni.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 14-may kuni “Elektron tijoratni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-iyuldagi “Buxoro-Agro” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3843-sonli Qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-avgustdagi “Namangan” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5517-sonli Farmoni.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi “Andijon-farm” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 26-fevraldagi “Namangan viloyatida multimodal logistika markazini va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 56-sonli Qarori.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasiga iste‘mol tovarlari olib kirishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 127-sonli Qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 5 fevraldagi “Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan davlat tilida markirovka qilinishi shart bo‘lgan import qilinadigan iste‘mol tovarlarining ayrim turlarini markirovka qilish va bojxonada rasmiylashtirish Qoidalari to‘g‘risida”gi 22-sonli Qarori.

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 25-oktabrdagi PQ-3356-son Qarori.

29. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебное пособие. – М.:, 2004. – 260 с.

30. Абдурахманов К.Х., Абдуллаев А.М., Дадабаев Ш.Х. Региональная экономика и управление. – Т.: 2007. – С. 739.

31. Андирианов В.Д. Россия: Экономический и инвестиционный потенциал. – М.: Экономика, 1999. – 467 с.

32. Bekmurodov A.Sh., Qorieva Yo.K., Nematov I.U., Nabiev D.H., Kattaev

- N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. – 196 b.
33. Бойкова М.В. Зарубежный опыт таможенного администрирования. Монография. – М.: Российская таможенная академия, 2017. – 130 с.
34. Бондарев А.К. Международные экономические отношения: Учебник/ А.И.Евдокимов, А.К.Бондарев, С.М.Дроздов; Под ред. А.И.Евдокимов. – М.: Проспект, 2013. – 656 с.
35. Vahabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – B. 180.
36. Воловик Н.П. Международная практика создания специальных экономических зон. – М.: ИПЕИ, 2016. – 99 с.
37. Гокинаева И.А. Экономика таможенного дела. Уч. Пос. Часть I. Экономика таможенного дела и система таможенных органов. – Санкт-Петербург: 2016. – 82 с.
38. Данько Т., Округ З. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Учебное пособие. // Российская экономическая академия им. Г.В.Плеханова. – М.: Инфра-М, 1998. – 168 с.
39. Дерюгина С.В. Правовые аспекты понятия свободных экономических зон. // “Государство и право”, 1997. – №5.
40. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2005. – 230 с.
41. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация, управление и финансирование. Учебник для вузов. – М.: Финансы, ЮНИТИ, 2000. – 242 с.
42. Kim Young Rae. The study on issues related between limits of land development and total control restriction system in the actual conditions within capital region, Seoul National University of Technology, 2009. – R. 8-75.
43. Логинов Б.Б. Международный банковский бизнес. Мировая экономика и международный бизнес. – М.: 2005. – 504 с.
44. Mahmudov N.M., Eshov M.P va boshqalar. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 200 b.
45. Мировая экономика /М.В. Пашковская, Ю.П. Господарик. – 4-е изд., перераб. И доп. – М.: Университет “Синергия”, 2017 – 768 с.
46. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебник под ред. А.С.Булатова. 3-е изд., стер. – Москва: КНОРУС, 2017. – 916 с.
47. Мотовиц Т.Г., Мотовиц Р.В. Свободные экономические зоны: становление и развитие. Монография. – Хабаровск: изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2017. – 170 с.
48. McCann H. Offshore finance. Cambridge, 2006.
49. Paying Taxes 2008. The Global Picture. PriceWaterhouseCoopers. The World Bank. 2007. P. 47-49.
50. Papava Vladimer. The Immortal idea of a free economic zone, Georgian Foundation for Strategic and International Studies, 2007. – R. 1-16.
51. Приходко С.В., Воловик Н.П. Особие экономические зоны. – М.: ИЕПП, 2007. – 268 с.

52. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – 176 b.
53. Рыбаков С.А. Особые экономические зоны в России. Налоговые льготы и преимущества. / С.А.Рыбаков, Н.А.Орлова. – М.: Вершина, 2006 – 248 с.
54. Salimboev B.B. O‘zbekistonda kichik sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – № 1, yanvar-fevral, 2018 yil.
55. Семенов К.А. Международные экономические отношения: Учебник для вузов. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 544 с.
56. Смородинская Н. Свободно-экономические зоны (Мировые опыты). Вест. ДВО РАН, 1993., №4,5. – С. 3-22.
57. Cassard M. The Role of Offshore Centers in International Financial Intermediation. IMF Working Paper. 1994. №107.
58. Chaoqing Yuan, Sifeng Liua, Yingjie Yang, Ding Chen, Zhigeng Fanga, Lulu Shui. An analysis on investment policy effect of China’s photovoltaic industry based on feedback model. // <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S030626191400926X>.
59. U.S. Foreign-Trade Zones. Import Administration. International Trade Administration. January 13, 2013. Retrieved 2013-01-20.
60. Фоминский И.П. Иностранные инвестиции в России: современное состояние и перспективы. – М.: Международное отношение, 1995. – С. 234.
61. Фуршчик М.А., Шутова А.В. Особые экономические зоны: опыт и перспективы. – М.: Медиа Инфо Групп, 2014. – 216 с.
62. Xalilova F. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish. // Сборник статей слушателей, профессорско-преподавательского состава Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан. Круглый стол: “Вопросы модернизации системы государственного управления”. – Ташкент: 1 ноября 2013 года, 134-bet.
63. Шаропов С.А. Свободные экономические зоны. Уч.пос. – М.: Юнити, 2006. – 167 с.
64. Шухунь Г. Эволюция развития свободных экономических зон в Китае. // Журнал “Европейской экономики”. – 2013. Том 11 (№2). – С.201-202.
65. Haydarov A. Hududlarning investitsion salohiyati va istiqbol yo‘nalishlari. // “Moliya” ilmiy jurnali, 2011 yil, 5-6 son.
66. Annual Report on the Development of China’s Special Economic Zones (2016): Blue Book of China’s Special Economic Zones / ed. by Yitao Tao, Yiming Yuan. Singapore: Social Sciences Academic Press and Springer Nature, 2016. –306 p.
67. Годовой обзор. Состояния экономики и основных направлений внешнеэкономической деятельности Китайской Народной Республики в 2017 году. // Торговое Представительство Российской Федерации в Китайской Народной Республике. – Пекин, 2018 г. –163 с.

68. Jahon bankining logistik ko'rsatkichlar indeksi yillik hisoboti ma'lumotlari 2016 y. <https://lpi.worldbank.org/international/global>
69. Export Entreprises SA, All Rights Reserved. Last Updates: January 2018.
70. 中国海关统计月刊 = Таможенная статистика Китая. Ежемесячный журнал. Пекин: 海关总署, 2016. № 12. – S. 135, 137.
71. 中国海关统计月刊 = Таможенная статистика Китая. Ежемесячный журнал. Пекин: 海关总署, 2017. № 12. – S. 135, 137.
72. 中国经济特区发展报告 – 2017 = Доклад о развитии специальных экономических зон Китая – 2016. Пекин: 社会科学文献出版社, 2018. – 408 s.

Internet-saytlari:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.
4. www.uza.uz – O'zbekiston Milliy Axborot agentligi.
5. www.worldbank.org – Jahon banki rasmiy sayti.
6. www.imf.org – Xalqaro valyuta fondi rasmiy sayti.
7. www.wto.org – Butunjahon savdo tashkiloti rasmiy sayti.
8. www.ifmr.uz – Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti.
9. www.ziyonet.uz – Ziyonet ta'lim portali.
10. www.economics.ru – “Ekonomicheskaya gazeta” gazetasining rasmiy sayti.
11. www.tshue.uz – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti sayti.

ILOVALAR

1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-yanvardagi 29-sonli Qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish hamda erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga keltirilgan 1-ilova asosida tasdiqlangan:

“Erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish hamda EIZ qatnashchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish SXEMASI”

Mas‘ul organ	Ko‘rib chiqilayotgan masala	Ko‘rib chiqish muddati
EIZ hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish		
Direksiya	Topshirilgan EIZ hududida investitsiya loyahasini joylashtirish bo‘yicha investitsiya buyurtmanomasini unga ilova hujjatlar bilan ko‘rib chiqish va ma‘muriy kengashga ko‘rib chiqish uchun kiritish. EIZ hududida farmasevtika sohasidagi investitsiya loyihasi kiritilgan taqdirda investitsiya buyurtmanomasini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga yuborish	2 ish kuni ichida
Ma‘muriy kengash	Investitsiya buyurtmanomasini ilovalari bilan ko‘rib chiqish va: - EIZ hududida investitsiya loyahasini joylashtirish mumkinligi yoki tadbirkorlik subyektiga EIZ qatnashchisi maqomini berish, yer uchastkasini yoki bo‘sh turgan va nafaol binoni ajratib berish, ularning umumiy maydoni va joylashgan joyini ko‘rsatgan holda;	5 ish kuni ichida
	- aniq va asoslangan mulohazalar hamda kamchiliklarni ko‘rsatgan holda taqdim etilgan hujjatlarni puxtalashtirishning zarurligi; - EIZ hududida investitsiya loyahasini amalga oshirishning maqsadaga muvofiq emasligi to‘g‘risida qaror qabul qilish. Qiymati ekvivalentda 5,0 mln AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha qarorni kelishish uchun Respublika kengashiga, investitsiya buyurtmanomasi va loyiha biznes-rejasi bilan birga yuborish	2 ish kuni ichida
Respublika kengashi	Qiymati ekvivalentda 5,0 mln. AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqish va	7 ish kuni ichida

	kelishish	
Direksiya	Ma'muriy kengash majlisi bayonidan ko'chirmani investorga yoki uning vakolatli shaxsiga yuborish	1 ish kuni ichida
EIZ qatnashchilarini ro'yxatga olish (qayta ro'yxatdan o'tkazish)		
Direksiya va investor	Investitsiyalash to'g'risida bitim tuzish, zarurat bo'lganda, investiyalash to'g'risidagi bitim qoidalarini kelishish maqsadida muzokaralar o'tkazilishi mumkin	5 ish kuni ichida
Investor	Ro'yxatdan o'tkazuvchi tashkilotga kerakli hujjatlarni, u tashkil etayotgan tadbirkorlik subyektini yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki avval ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektini qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etish	Ma'muriy kengash yig'ilishining bayoni tasdiqlangan kundan boshlab 5 kun ichida
Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ	Davlat ro'yxatidan o'tkazish, vakolatli tashkilotlar ro'yxatiga olish	1 ish kuni ichida
Direksiya	Xo'jalik subyektini EIZ qatnashchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish va guvohnoma berish.	Hujjatlarni olgan kundan 2 ish kuni ichida
Direksiya	Xo'jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydagi davlat soliq va bojxona xizmati organlarini xabardor qilish Barcha zarur hujjatlarni xo'jalik yurituvchi subyektga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun tegishli viloyat yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri bo'yicha davlat korxonasi berish	Xo'jalik subyektini EIZ qatnashchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazgan kundan boshlab 1 kun ichida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-yanvardagi 29-sonli Qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish hamda erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga keltirilgan 1-ilova asosida tasdiqlangan:

“ _____ ”
**(hudud nomi) erkin iqtisodiy
 zonalar va kichik sanoat
 zonolari
 Ma‘muriy kengashi**

“ _____ ” erkin iqtisodiy zonasida investitsiya
 loyahasini joylashtirish uchun investitsiya
BUYURTMANOMASI

1. Investor (investorlar) to‘g‘risida ma‘lumotlar:

Murojaatchi (investor yoki investorlar) tashkilotning nomi, kelib chiqqan davlati	
Investor (yoki investorlar) to‘g‘risida ma‘lumot, jumladan davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanasi va joyi, ta‘sischi(lar) va boshqalar	
Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli, ta‘sischilarning ustav fondidagi ulushining taqsimlanishi va qo‘yilmalarning shakli	
Murojaatchi tashkilotning joylashuvi (manzili)	

2. Investitsiya loyihasi to‘g‘risida ma‘lumotlar:

Investitsiya loyihasining nomi	
Investitsiya loyihasining maqsadi va qisqacha tavsifi, jumladan, ishlab chiqarishning yillik quvvati	
Ishlab chiqariladigan mahsulotning nomi, qo‘llanilishi va asosiy belgilari	
Ishlab chiqariladigan mahsulotning TIF TN kodi (10 ta belgi)	
Mahsulotning o‘rtacha yillik ishlab chiqarish hajmi, eksportga va ichki bozorga yo‘naltiriladigan hajmini (natura ko‘rinishida va ekv. AQSh dollarida) hisobga olgan holda	

Asosiy xomashyo, material va butlovchi qismlar (mahalliy va import), ularning tayyor mahsulotdagi ulushi (% da)	
Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlarga boʻlgan yillik talab (ekv. AQSh dollarida), shu jumladan, mahalliy va import	
Mahalliy lashtirish darajasi ($MD=(1-I/T) \times 100\%$) * hamda tayyor mahsulot tovar pozitsiyasining TIF TN kodi boʻyicha oʻzgarishi (1 yil, 2 yil, 3 yil)	
Mahsulot standartlari – GOST, OST, TU, OzDst, ISO 9001 i ISO 14001 va boshqalar	
Foydalanilishi moʻljallanayotgan savdo markasi	
Ishlab chiqarishning boshlanish sanasi	
Tashkil etilayotgan ish oʻrni, jumladan mahalliy xodimlar	

3. Zarur maydon va infratuzilma toʻgʻrisida maʼlumotlar:

Talab etiladigan maydon (ga)	
Ishlab chiqarish maydonlari (kv.m.)	
Elektroenergiyaga boʻlgan talab (kVt/soat yiliga), oʻrnatiladigan quvvat (kVt yoki MVt)	
Tabiiy gazga boʻlgan talab (kub.m., yiliga), bosim (atm.)	
Ichimlik va texnik suvga boʻlgan talab (kub.m., yiliga)	
Ifloslantiruvchi moddalar chiqarishning mavjudligi, jumladan gazlar (nomlari) kg, yiliga yoki soatiga, qattiq chiqindilar (nomlari) tn/oyda, suyuqchiqindilar (nomlari) tn/oyda va boshqalar	

4. Loyihaning moliyaviy-iqtisodiy koʻrsatkichlari:

Loyihaning qiymati (ekv. AQSh dollarida)	
Moliyalashtirish manbalari (toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar, mahalliy taʼsischilar mablagʻlari, tijorat banklari kreditlari)	
Mashina va asboblarning qiymati (ekv. AQSh dollarida), jumladan, mahalliy va import	
QMI qiymati (ekv. AQSh dollarida)	
Aylanma kapital summasi (ekv. AQSh dollarida)	
Investitsiyalarni kiritish shakli va jadvali	
Loyihaning qoplanish muddati (biznes-rejaga)	

muvofig)	
----------	--

) **MD – ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasi; **I** – import qilinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarning valyutadagi qiymati (bojxona to'lovlari bilan birga); **T** – mahsulot birligini ishlab chiqarish tannarxi (mahalliy yetkazib beruvchilardan olingan import xomashyosi mahalliy hisoblanmaydi).*

Rahbar

(imzo)

(F.I.O.)

M.O'.

(sana)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-yanvardagi 29-sonli Qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish hamda erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga keltirilgan 1-ilova asosida tasdiqlangan:

**Erkin iqtisodiy zonalar qatnashchilariga
yer uchastkalari berish
SXEMASI**

Subyektlar	Mexanizm	Muddatlari
Investor	1. Yer uchastkasi olish uchun Davlat xizmatlari markaziga tegishli shaklda yer uchastkasi ajratish to‘g‘risidagi arizani to‘ldirib, pochta orqali yoki shaxsan borib yohud O‘zbekiston Respublikasi interaktiv davlat xizmatlari Yagona portali yoki O‘zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar Yagona portali orqali murojaat etadi. 2. Eng kam oylik ish haqining bir barobari miqdorida avans to‘lovini amalga oshiradi.	Xo‘jalik yurituvchi sube’kt EIZ qatnashchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab 1 ish kunida Ariza berish kunida
Davlat xizmatlari markazi	Arizani er uchastkasi joylashganligi bo‘yicha tuman (shahar) hokimligiga yuboradi.	Ariza olingan kuni
Tuman (shahar) hokimliklari	1. Tuman (shahar) arxitektura va qurilish boshqarmasi (bo‘limi)ga yer uchastkalari tanlash bo‘yicha hujjatlarni tayyorlash uchun yuboradi. 2. Tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonalariga ikki yoki undan ortiq tumanlar va viloyatlar hududlarida joylashadigan obyektlarni hamda sug‘orish inshootlarini, shuningdek, muhandislik tarmoqlari va yo‘l-transport kommunikatsiyalari qurish uchun yer uchastkalarini tanlash bo‘yicha hujjatlar tayyorlash uchun arizani yuboradi.	Ariza olingan vaqtdan boshlab
Tuman (shahar) er tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi (davlat korxonalari)	Yer uchastkasini tanlash bo‘yicha hujjatlarni tayyorlaydi va kelishish uchun vakolatli tashkilotlarga yuboradi.	Tuman (shahar) hokimligi tomonidan ariza kelib tushgan kundan boshlab

		5 kun davomida
Vakolatli tashkilotlar	Yer uchastkasini tanlash bo'yicha hujjatlarni kelishadi.	4 kun davomida
Davlat korxonalarini	1. Yer uchastkasini ajratish bo'yicha hujjatlarni va yer uchastkasini ajratish bo'yicha tuman (shahar) hokimi qarori loyihasini tayyorlaydi. 2. Yer uchastkasini tanlash va ajratish bo'yicha hujjatlarni tuman (shahar) hokimiga yer uchastkasini ajratish to'g'risida qaror qabul qilishi uchun yuboradi.	3 kun davomida
Tuman (shahar) hokimi	1. Yer uchastkasini ajratish to'g'risida qaror qabul qiladi va uni yer uchastkasini ajratish bo'yicha hujjatlar nusxalari bilan barcha davlat korxonasiga yer uchastkasini ajratish va uning chegarasini naturaga o'tkazish bo'yicha yig'ma jildni shakllantirish uchun yuboradi.	2 kun davomida
Tuman (shahar) hokimi	Yer uchastkasi ajratish to'g'risidagi qarorni quyidagi hujjatlarni ilova holda Davlat xizmatlari markaziga taqdim etadi: yer uchastkasi chegaralarini naturaga o'tkazish dalolatnomasi; yer uchastkasiga huquqning davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risida guvohnoma; yer uchastkasi ajratish bo'yicha yig'ma jild; yer uchastkasidan foydalanish tuman (shahar) hokimi imzolagan shartnoma, unda yer uchastkasidan foydalanish shartlari, tomonlarning yerlardan foydalanish tuman bo'yicha huquq va majburiyatlari, yer uchastkasiga bo'lgan huquq to'xtatiladigan holatlar va tomonlarning xohishiga ko'ra boshqa masalalar ko'rsatiladi.	1 kun davomida
Davlat xizmatlari markazi	Yer uchastkasi ajratish to'g'risida tuman (shahar) hokimi qabul qilgan qaror, shuningdek, yer uchastkasini tanlash va ajratish bo'yicha materiallarni tayyorlash, shuningdek, yer uchastkasi chegaralarini naturaga ko'chirish bo'yicha ishlar uchun arizachining to'lovi zarurligi to'g'risida	Hujjatlar kelib tushgandan boshlab 1 ish soati ichida

	investorni arizada ko'rsatilgan usulda xabardor qiladi.	
Investor	Yer uchastkasini tanlash va ajratish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash hamda yer uchastkasi chegarasini naturaga o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish.	Davlat xizmatlari markazining bildirishnomasi olingan kuni

Tuman (shahar) hokimining yer uchastkasi ajratish to'g'risidagi qarorini investorga berishning umumiy muddati 21 kunni tashkil etadi.

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
1-bob.	ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING MAZMUNI, MAQSADLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	5
1.1.	“Erkin iqtisodiy hududlar” fanining predmeti va vazifalari.....	5
1.2.	“Erkin iqtisodiy hudud” tushunchasi mazmuni.....	8
1.3.	Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish tarixi va bosqichlari.....	16
1.4.	Erkin iqtisodiy hudud tashkil etilishi maqsadlari va ularning jahon xo‘jaligi aloqalaridagi o‘rni.....	22
1.5.	Erkin iqtisodiy hudud faoliyat ko‘rsatishining tamoyillari, vazifalari va asosiy xususiyatlari.....	28
1.6.	Erkin iqtisodiy hudud tashkil etilishidagi yondashuvlar: hududiy va funksional.....	34
2-bob.	ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNI TASHKIL ETISHNING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	37
2.1.	Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishining huquqiy asosi.....	37
2.2.	Turli mamlakatlarda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy hududlar to‘g‘risida”gi qonunlar qiyosiy tahlili. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish uchun zaruriy hujjatlar.....	40
2.3.	O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning huquqiy asoslari.....	49
2.4.	Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda vujudga keladigan turli muammolar va ularni hal qilishning asosiy yo‘nalishlari.....	55
2.5.	Erkin iqtisodiy zonalarga investitsiyalarni jalb qilish muammolari...	58
3-bob.	JAHON XO‘JALIGIDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR TASNIFI.....	67
3.1.	Erkin iqtisodiy hududlarning tasniflanishi. Turlicha erkin iqtisodiy hududlar tashkil etilishiga ta’sir etuvchi omillar.....	67
3.2.	Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlari sifatida savdo hududlari xususiyatlari. Savdo erkin iqtisodiy hududlari turlari: erkin savdo hududi, erkin bojxona hududi, omborxona hududlari, erkin portlar va bojsiz savdo do‘konlari.....	79
3.3.	Savdo-ishlab chiqarish hududlari va ularning xususiyatlari.....	87
3.4.	Texnik-tadbiq etish hududlari va ularning xususiyatlari. Texnik-tadbiq etish hududlari turlari: texnoparklar, texnopolislar, ilmiy park, innovatsiya markazi, ilmiy-texnik parklar.....	93
3.5.	Xizmat ko‘rsatuvchi hududlar va ularning xususiyatlari.....	97

3.6.	Kompleks hududlar va ularning xususiyatlari. Kompleks hududlar turlari: maxsus iqtisodiy hududlar, xalqaro erkin iqtisodiy hududlar.....	100
4-bob.	ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA INVESTITSION MUHIT XUSUSIYATLARI.....	105
4.1.	Investitsiya muhitining mazmuni, iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi ahamiyati.....	105
4.2.	Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar.....	109
4.3.	Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish uchun yaratiladigan investitsiya muhitining huquqiy-me'yoriy asoslari.....	114
4.4.	Investitsiya muhitini baholashning xorij tajribalari tahlili.....	118
4.5.	Erkin iqtisodiy hududlarda imtiyozlar turlari (tashqi savdo, soliq, moliyaviy, ma'muriy imtiyozlar).....	123
5-bob.	ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH.....	133
5.1.	Logistika tushunchasi mazmuni va uning yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	133
5.2.	Logistika tamoyillari, tizimi va logistika xizmatlarini tashkil etishning ahamiyati.....	135
5.3.	Logistika infratuzilmasi va uning erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishdagi ahamiyati.....	142
5.4.	O'zbekistonda logistika markazlarini tashkil etish.....	155
5.5.	O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish va undagi imtiyozlar.....	161
6-bob.	ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA BOJXONA RASMIYLASHTIRUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	171
6.1.	Erkin iqtisodiy hududlarda bojxona ishi va uni tashkil etish.....	171
6.2.	Erkin iqtisodiy hududlarda bojxona rasmiylashtiruvi va uning tartibi.....	176
6.3.	Erkin iqtisodiy hududlarda bojxona rasmiylashtiruvi asosidagi bojxona to'lovlari.....	179
6.4.	Bojxona ombori va unda bojxona rejimi.....	184
7-bob.	ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNI TASHKIL ETISHNING JAHON TAJRIBASI.....	192
7.1.	Jahon xo'jaligida erkin iqtisodiy hududlar.....	192
7.2.	Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning ahamiyati. G'arbiy Yevropaning ilmiy-texnik rivojlanishida erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o'rni.....	195

7.3.	Buyuk Britaniya qirolligi tarkibiga kiruvchi hududlar (Beliz, Men, Bermud, Britan-Virgin va Nauru)da erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish xususiyatlari.....	203
7.4.	Rivojlanayotgan davlatlarda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish amaliyoti va tajribalari.....	217
7.5.	Rivojlanayotgan mamlakatlarda (Janubiy Koreya, Tunis, Panama, Malta kabi) erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish xususiyatlari....	224
8-bob.	AQSHDA TASHKIL ETILGAN ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR.....	240
8.1.	AQShda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlari va ularning tasnifi.....	240
8.2.	AQShda erkin iqtisodiy hududlarning tashkil qilinishi sabablari, tarixi va xususiyatlari.....	243
8.3.	AQShda tashqi savdo hududlarining tashkil qilinishi, ularning turlari, maqsadi hamda undagi imtiyozlar tizimi.....	248
8.4.	AQShda tadbirkorlik hududlarining tashkil qilinishi, ularning turlari, maqsadi hamda undagi imtiyozlar tizimi.....	253
8.5.	AQShda ilmiy parklarning tashkil etilishi, ularning maqsadi, turlari va faoliyat xususiyatlari.....	258
9-bob.	XITOIY XALQ RESPUBLIKASI ERKIN IQTISODIY HUDUDLARI.....	262
9.1.	Xitoy Xalq Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish maqsadlari, ahamiyati va xususiyatlari.....	262
9.2.	Xitoyda erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi va rivojlanishi bosqichlari.....	265
9.3.	Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishi va unda erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o‘rni.....	272
9.4.	Xitoy erkin iqtisodiy hududlaridagi imtiyozlar va ularning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi tutgan o‘rni.....	281
9.5.	Xitoyda erkin iqtisodiy hududlar faoliyati va rivoji bilan bog‘liq muammolar.....	285
10-bob.	ROSSIYA FEDERATSIYASIDA TASHKIL ETILGAN ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR.....	291
10.1.	Rossiya Federatsiyasida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi va rivojlanishi tarixi.....	291
10.2.	Rossiya Federatsiyasida erkin iqtisodiy hududlar turlari.....	296
10.3.	Oltin erkin ekologik hududining tashkil etilishi, uning salohiyati va huquqiy, iqtisodiy munosabatlari.....	300
10.4.	Kaliningrad “Yantar” erkin iqtisodiy hududining rivojlanish imkoniyatlari.....	307

10.5.	Rossiya Fedaratsiyasidagi “Sankt-Peterburg”, “Viborg”, “Texnopolis Zelenograd” erkin iqtisodiy hududlarini tashkil etilish va faoliyati xususiyatlari.....	310
11-bob.	JAHON XO‘JALIGIDA OFFSHOR HUDUDLAR.....	315
11.1.	Offshor hududlarning mazmuni, yuzaga kelish sabablari, turlari va ahamiyati.....	315
11.2.	Offshor hududlarning tashkil etilishining jahon tajribasi.....	319
11.3.	Jahonda offshor hududlarning rivojlanishi va undagi imtiyozlar.....	398
11.4.	Rivojlangan mamlakatlar xo‘jaligida offshor hududlarning tutgan o‘rni. Mamlakatlar iqtisodiyotiga offshor hududlarning ijobiy va salbiy ta’siri, soliq raqobati.....	326
11.5.	Offshor hududlarda offshor kompaniyalar va ularning turlari.....	332
12-bob.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHKIL ETILGAN ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA ULARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	335
12.1.	O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning zarurligi va o‘ziga xos xususiyatlari.....	335
12.2.	O‘zbekistonda “Navoiy”, Angren” va “Jizzax” erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini tashkil etish shart-sharoitlari va iqtisodiy asoslari.....	338
12.3.	O‘zbekistonda so‘nggi yillarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar, ularning ahamiyati va xususiyatlari.....	346
12.4.	O‘zbekistonda tashkil etilgan kichik sanoat zonalari va ularning xususiyatlari.....	351
	IZOHLI LUG‘AT (GLOSSARIY).....	357
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	382
	ILOVALAR.....	387

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	3
ГЛАВА 1. СУЩНОСТЬ, ЦЕЛИ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН.....	5
1.1. Предмет и задачи курса “Свободные экономические зоны”.	5
1.2. Сущность понятия “Свободная экономическая зона”.....	8
1.3. История и этапы развития свободных экономических зон в мировой экономике.....	16
1.4. Цели организации свободной экономической зоны и их место в мировых хозяйственных отношениях.....	22
1.5. Принципы, задачи и основные специфики деятельности свободной экономической зоны.....	28
1.6. Подходы организации свободной экономической зоны: территориальный и функциональный.....	34
ГЛАВА 2. НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН.....	37
2.1. Правовые основы организации и деятельности свободных экономических зон.....	37
2.2. Сравнительный анализ законов, принятых по организации свободных экономических зон в разных странах. Необходимые документы для организации свободных экономических зон.....	40
2.3. Правовые основы организации свободных экономических зон в Узбекистане.....	49
2.4. Разные проблемы, возникающие в организации свободных экономических зон и основные направления их решения.....	55
2.5. Проблемы привлечения инвестиции в свободные экономические зоны.....	58
ГЛАВА 3. КЛАССИФИКАЦИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В МИРОВОМ ХОЗЯЙСТВЕ.....	67
3.1. Классификации свободных экономических зон. Факторы, влияющие на организации разных свободных экономических зон.....	67
3.2. Особенности торговых зон как основные виды свободных экономических зон. Виды торговых свободных экономических зон: свободная торговая зона, свободная таможенная зона, зоны складов, свободные порты и беспошлинные торговые магазины.....	79
3.3. Торгово-производственные зоны и их особенности.....	87

3.4.	Технико-внедренческие зоны и их особенности. Виды технико-внедренческих зон: технопарки, технополисы, научный парк, инновационный центр, научно-технический парк.....	93
3.5.	Сервисные зоны и их особенности.....	97
3.6.	Комплексные зоны и их особенности. Виды комплексных зон: специальные экономические зоны, международные свободные экономические зоны.....	100
ГЛАВА 4.	ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА В СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ.....	105
4.1.	Суть, значение инвестиционного климата в обеспечении экономической активности.....	105
4.2.	Факторы, влияющие на инвестиционный климат.....	109
4.3.	Правово-нормативные основы инвестиционного климата, созданного для привлечения инвестиции в свободные экономические зоны.....	114
4.4.	Анализ зарубежного опыта оценки инвестиционного климата	118
4.5.	Виды льгот в свободных экономических зонах (внешние торговые, налоговые, финансовые, административные льготы).....	123
ГЛАВА 5.	ФОРМИРОВАНИЕ ЛОГИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ.....	133
5.1.	Сущность понятия логистики и ее появление и развитие.....	133
5.2.	Принципы, система логистики и значение организации логистических услуг.....	135
5.3.	Логистическая инфраструктура и ее значение в развитии свободных экономических зон.....	142
5.4.	Организация логистических центров в Узбекистане.....	155
5.5.	Развитие транспортной и логистической сферой в Узбекистане и в ней льготы.....	161
ГЛАВА 6.	ОСОБЕННОСТИ ТАМОЖЕННОГО ОФОРМЛЕНИЯ В СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ.....	171
6.1.	Таможенное дело в свободных экономических зонах и его организация.....	171
6.2.	Таможенное оформление в свободных экономических зонах и его порядок.....	176
6.3.	Таможенные оплаты на основе таможенного оформления в свободных экономических зонах.....	179
6.4.	Таможенный склад и таможенный режим в него.....	184

ГЛАВА 7. МИРОВОЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН.....	192
7.1. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве.....	192
7.2. Значение свободных экономических зон в экономике развитых стран. Роль свободных экономических зон в научно-техническом развитии Западной Европы.....	195
7.3. Особенности развития свободных экономических зон в зонах, принадлежащих Королевства Великой Британии (Белиз, Мен, Бермуд, Британ-Виргин и Науру)	203
7.4. Практика и опыты организации свободных экономических зон в развивающихся странах.....	217
7.5. Особенности развития свободных экономических зон в развивающихся странах (Южная Корея, Тунис, Панама, Мальта)..	224
ГЛАВА 8. СОЗДАННЫЕ СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ В США.....	240
8.1. Основные виды созданных свободных экономических зон в США и их классификация.....	240
8.2. Причины, история и особенности организации свободных экономических зон в США.....	243
8.3. Организация внешних торговых зон в США, их виды и цель а также системы льгот в них.....	248
8.4. Организация предпринимательских зон в США, их виды и цель а также системы льгот в них.....	253
8.5. Организация научных парков в США, цель, виды и особенности их деятельности.....	258
ГЛАВА 9. СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ.....	262
9.1. Цель, значение и особенности организации свободных экономических зон в Китайской Народной Республике.....	262
9.2. Организация и этапы развития свободных экономических зон в Китае.....	265
9.3. Развитие экономики Китая и в ней роль свободных экономических зон.....	272
9.4. Льготы в китайских свободных экономических зонах и их место в привлечении иностранных инвестиций.....	281
9.5. Проблемы, связанные с деятельностью и развитием свободных экономических зон в Китае.....	285
ГЛАВА 10. СОЗДАННЫЕ СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ В РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ.....	291
10.1. Организация и история развития свободных экономических зон в Российской Федерации.....	291

10.2.	Виды свободных экономических зон в Российской Федерации.....	296
10.3.	Организация Алтайской свободной экологической зоны, ее потенциал и правовые, экономические отношения.....	300
10.4.	Возможности развития свободной экономической зоны “Янтарь” Калининграда.....	307
10.5.	Особенности организации и деятельности свободных экономических зон “Санкт-Петербург”, “Выборг” “Технополис Зеленоград” в Российской Федерации.....	310
ГЛАВА 11.	ОФФШОРНЫЕ ЗОНЫ В МИРОВОМ ХОЗЯЙСТВЕ.....	315
11.1.	Сущность, причины появления, виды и значение оффшорных зон.....	315
11.2.	Мировой опыт организации оффшорных зон.....	319
11.3.	Развитие оффшорных зон в мире и в них льготы.....	398
11.4.	Роль оффшорных зон в хозяйстве развитых стран. Положительные и отрицательные влияния оффшорных зон в экономику стран, налоговая конкуренция.....	326
11.5.	Оффшорные компании в оффшорных зонах и их виды.....	332
ГЛАВА 12.	СОЗДАННЫЕ СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ОСОБЕННОСТИ ИХ РАЗВИТИЯ.....	335
12.1.	Необходимости и особенности организации свободных экономических зон в Узбекистане.....	335
12.2.	Условия и экономические основы организации деятельности свободных экономических зон “Навои”, “Ангрен” и “Джиззах” в Узбекистане.....	338
12.3.	Свободные экономические зоны, созданные в последних годах в Узбекистане, их значение и особенности.....	346
12.4.	Малые промышленные зоны, созданные в Узбекистане и их особенности.....	351
	ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ (ГЛОССАРИЙ).....	357
	СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	382
	ПРИЛОЖЕНИЯ.....	387

CONTENTS

INTRODUCTION.....	3
CHAPTER 1. ESSENCE, PURPOSES AND PARTICULARITIES OF THE DEVELOPMENT OF THE FREE ECONOMIC ZONES.....	5
1.1. The Subject and tasks of the course “Free economic zones”....	5
1.2. Essence of the notion “Free economic zones”.....	8
1.3. History and stages of the development of the free economic zones in world economy.....	16
1.4. Purposes to organizations of the free economic zone and their place in the world economic relations.....	22
1.5. Purposes to organizations of the free economic zone and their place in the world economic relations.....	28
1.6. Purposes to organizations of the free economic zone and their place in the world economic relations.....	34
CHAPTER 2. STANDARD-LEGAL BASE OF ORGANIZATIONS OF THE FREE ECONOMIC ZONES.....	37
2.1. Legal bases to organizations and activity of the free economic zones.....	37
2.2. The Benchmark analysis of the laws, taken on by organizations of the free economic zones in miscellaneous country. Necessary documents for organization of the free economic zones.....	40
2.3. Legal bases to organizations of the free economic zones in Uzbekistan.....	49
2.4. Differring problems, appearing in organizations of the free economic zones and main trends of their decision.....	55
2.5. Problems of attraction to investments in free economic zones.	58
CHAPTER 3. CATEGORIZATION OF THE FREE ECONOMIC ZONES IN THE WORLD FACILITIES.....	67
3.1. The categorizations of the free economic zones. Factors, influencing upon organizations of the different free economic zones.....	67
3.2. The particularities of the trade zones as the main types of the free economic zones. Types of the trade free economic zones: free trade zone, free customs zone, zones storehouse, free	79

	ports and without customs trade shops.....	
3.3.	Trade-production zones and their particularities.....	87
3.4.	The technician-commissioning zones and their particularities. Types technician-commissioning zones: technoparks, technopolises, scientific park, innivation centre, research park	93
3.5.	Service zones and their particularities.....	97
3.6.	The complex zones and their particularities. Types complex zones: special economic zones, international free economic zones.....	100
CHAPTER 4.	PARTICULARITIES OF THE INVESTMENT CLIMATE IN FREE ECONOMIC ZONE.....	105
4.1.	Essence, importance of the investment climate in ensuring the economic activity.....	105
4.2.	Factors, influencing to investment climate.....	109
4.3.	Right-standard bases of the investment climate, created for attraction of the investments in free economic zones.....	114
4.4.	Analy foreign experience of the estimation of the investment climate.....	118
4.5.	Types of the priveleges in free economic zone (external trade, tax, financial, administrative priveleges).....	123
CHAPTER 5.	SHAPING OF THE LOGISTICS INFRASTRUCTURES IN FREE ECONOMIC ZONE.....	133
5.1.	Essence of the notion of the logistics and its appearance and development.....	133
5.2.	Principles, system of the logistics and importance of the organization of the logistics services.....	135
5.3.	Logistical infrastructure and its importance in development of the free economic zones.....	142
5.4.	Organization logistics centres in Uzbekistan.....	155
5.5.	Development transports and logistics spheres in Uzbekistan and priveleges in her.....	161
CHAPTER 6.	PARTICULARITIES OF THE CUSTOMS REGISTRATION IN FREE ECONOMIC ZONE.....	171
6.1.	Customs deal in free economic zone and its organizations.....	171

6.2.	Customs registration in free economic zone and its order.....	176
6.3.	Customs payments on base of the customs registration in free economic zone.....	179
6.4.	Customs storehouse and customs mode in it.....	184
CHAPTER 7.	WORLD EXPERIENCE BY ORGANIZATIONS OF THE FREE ECONOMIC ZONES.....	192
7.1.	Free economic zones in the world facilities.....	192
7.2.	Importance of the free economic zones in economy of the developed countries. The role of free economic zones in research development of the West Europe.....	195
7.3.	Particularities of the development of the free economic zones in zone, belonging to the King of Great Britain (Belize, is Avenged, Bermuda, Britan-Virgin and Nauru).....	203
7.4.	Practice and experiences to organizations of the free economic zones in developing countries.....	217
7.5.	Particularities of the development of the free economic zones in developing countries (South Korea, Tunisia, Panama, Malta).....	224
CHAPTER 8.	CREATED FREE ECONOMIC ZONE IN USA.....	240
8.1.	Main types created free economic zones in USA and their categorization.....	240
8.2.	Reasons, history and particularities to organizations of the free economic zones in USA.....	243
8.3.	Organization of the external trade zones in USA, their types and purpose as well as systems of the priveleges in them.....	248
8.4.	Organization of the business zones in USA, their types and purpose as well as systems of the priveleges in them.....	253
8.5.	Organization scientific park in USA, purpose, types and particularities to their activity.....	258
CHAPTER 9.	FREE ECONOMIC ZONE OF THE PEOPLE'S REPUBLIC OF CHINA.....	262
9.1.	Purpose, importance and particularities to organizations of the free economic zones in People's Republic of China.....	262
9.2.	Organization and stages of the development of the free economic zones in China.....	265
9.3.	Development of the economy of China and in it's the role of the free economic zones.....	272
9.4.	Priveleges in chinese free economic zone and their place in attraction foreign	281

investment.....	
9.5. Problems connected with activity and development of the free economic zones in China.....	285
CHAPTER 10. CREATED FREE ECONOMIC ZONE IN RUSSIAN FEDERATION.....	291
10.1. Organization and history of the development of the free economic zones in Russian Federation.....	291
10.2. Types of the free economic zones in Russian Federation.....	296
10.3. Organization Altay free ecological zone, its potential and legal, economic relations.....	300
10.4. Possibilities of the development of the free economic zone “Yantar” of the Kaliningrad.....	307
10.5. Particularities to organizations and activity of the free economic zones “Sank-Peterburg”, “Viborg”, “Tehnopolis Zelenograd” in Russian Federation.....	310
CHAPTER 11. OFFSHOR ZONES IN THE WORLD FACILITIES.....	315
11.1. Essence, reasons of the appearance, types and importance of the offshor zones.....	315
11.2. World experience by organizations of the offshor zones.....	319
11.3. Development of the offshor zones in the world and priveleges in them.....	398
11.4. The role of the offshor zones in facilities of the developed countries. Positive and negative influences of the offshor zones in economy of the countries, tax competition.....	326
11.5. Offshor companies in the offshor zones and their types.....	332
CHAPTER 12. CREATED FREE ECONOMIC ZONE IN REPUBLIC UZBEKISTAN AND PARTICULARITIES OF THEIR DEVELOPMENT.....	335
12.1. Need and particularities to organizations of the free economic zones in Uzbekistan.....	335
12.2. Conditions and economic bases to organizations of activity of the free economic zones “Navoi”, “Angren” and “Dzhizzah” in Uzbekistan	338
12.3. Free economic zones created at last years in Uzbekistan, their importance and particularities.....	346
12.4. Small industrial zones created in Uzbekistan and their particularities.....	351
DICTIONARY (GLOSSARY).....	357
LIST OF THE USED LITERATURE.....	382
EXHIBIT.....	387

XUJAMKULOV DILMUROD YUSUPALIEVICH

ERKIN IQTISODIY HUDULAR

“IQTISODIYOT” – 2019.

Muharrir
Mirhidoyatova D.

Musahhah
Matxo`jayev A.O.

Litsenziya AI № 240 04.07.2013. Terishga berildi 6.10.19. Bosishga ruxsat etildi 13.10.2019. Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturası. Ofset bosma. Ofset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı 10,0. Hisob nashr varag‘ı 9,7. Adadı ___ nusxa.

“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo‘limida chop etildi.
100003. Toshkent shahri Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.

000000 Erkin iqtisodiy hududlar.
Darslik. /Xujamkulov D.Y.
-T.: IQTISODIYOT, 2019.
- 408 b.

Xujamkulov D.Y.

ISBN 0000000000

UO`K 000000
KBK 000000